37
N-27

D.Nurkeldiyeva

PEDAGOGIK PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA

37
N-27

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

D.A.NURKELDIYEVA

Skaynet

PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA

(Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik-psixologik diagnostikasi)

5111900- Defektologiya

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
10490

Toshkent
«VNESHINVESTPROM»
2019

UO‘K 854.265.2
KBK 832.9

Pedagogik-psixologik- diagnostika darsligi defektologiya yo‘nalishi talabalari, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyasi a’zolari, bolalar psixonevrologlari, maxsus muassasalar defektologlari, o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmasida bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, patogenezi, klinik ko‘rinishlari, murakkablashgan shakllari haqidagi asosiy ma’lumotlar keltirilgan. O‘quv qo‘llanmasida rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, rivojlanishidagi nuqsonlarning etiologiyasi, patogenezi, klinik shakllari yoritilgan. Maxsus ta’limda TPPK tashkil etish, uning ishining mazmuni berilgan. Bolalarni pedagogik, psixologik, logopedik tekshirishdagi differensial diagnostika metodlari, metodikalariga alohida e’tibor berilgan. Muallif o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda I.Yu.Levchenko, S.D.Zabramnayalar taxririda nashr etilgan “”Psixologo—pedagogicheskaya diagnostika” o‘quv qo‘llanmasidan foydalangan.

ISBN 978-9943-4886-2-5

©VNESHINVESTPROM, 2019

KIRISH

O‘zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar imkoniyatlari cheklangan, alohida yordamga muxtoj shaxslarning ijtimoiylashuvi jarayonini sifatli takomillashtirishga qaratilgan innovatsion ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etishning metodologik va nazariy asoslarini ishlab chiqishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda psixik-jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan yoki ijtimoiy o‘ziga xosligidan qat’iy nazar barcha bolalar ta’lim va tarbiya olishlari uchun qulay sharoitlarni yaratilishi kafili hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari” kabi Qonunlarida jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholi sihat salomotligini yanada mustaxkamlashga qaratilgan aniq chora -tadbirlar kompleksini ishlab chiqarish va ma’naviy jihatdan boy yosh avlodni tarbiyalash uchun barcha shart-sharoitni belgilab berilgan.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni ta’lim-tarbiyasining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qancha ishlar olib borildi va borilmoqda. Bu kabi ishlarning barchasi alohida yordamga muhtoj, rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni, o‘smirlarni hayotga, mehnatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’limga jalb etish, ularning ta’limdagi imkoniyatlarini aniqlash ishlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Pedagogik-psixologik tashxis ishlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi bu toifadagi bolalarni maktab ta’limini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Pedagogik-psixologik diagnostika” darsligi pedagogika universitetlari, institutlarining defektologiya ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmasining asosiy maqsadi – talabalarni bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni pedagogik-psixologik

diagnostikasining nazariy asoslari bilan tanishtirish va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘rganishga bo‘lgan turli yondashishlarni va yo‘llarni ko‘rsatishdir.

Darslikda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganishning xususiyatlarini aks ettiradigan ma’lumotlar, shuningdek psixologik-pedagogik tashxis qilish metodlari va metodikalarining tavsifi yoritilgan.

Darslikning mazmuni bakalavriat bo‘yicha defektologiya ta’lim yo‘nalishining Davlat ta’lim standartlari hamda malaka talablariga mos keladi.

Darslik so‘zboshi, 8 ta bob va ilovadan iborat.

Birinchi bobda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni pedagogik-psixologik tashxis qilishning metodologik tamoyillari yoritilgan. Unda bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar toifalari, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish vazifalari berilgan. Darslikning ikkinchi bobida aqli zaiflik tushunchasi, aqli zaifllikning klinik tavsifi va differensial diagnostikasi berilgan.

Uchinchi bobda TPPK ishining mazmuni va uni tashkil etish yo‘llari, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni psixologik-pedagogik o‘rganish metodlari yoritilgan.

To‘rtinchi bobda turli yosh bosqichida (ilk, maktabgacha, maktab, o‘smir) yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganish xususiyatlari bayon etilgan.

Darslikning beshinchi, oltinchi, etinchi, sakkizinchi bobida sensor nuqsonga ega bo‘lgan, tayanch-harakatida nuqsoni bo‘lgan hamda rivojlanishida murakkab nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish usullari yoritilgan.

Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘quv-tarbiyaviy jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish, korreksiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik vositalardan to‘g‘ri foydalanish, psixik va jismoniy nuqsonlari bo‘lgan (aqli zaif, kar, zaif eshituvchi, nutkida nuksoni bo‘lgan, ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi) bolalarni o‘xshash holatlardan farqlash; bolalarni tegishli maxsus muassasalarga to‘g‘ri yo‘naltirish; bolalarning nuqsonlari tuzilishini bilish va hissiy-irodaviy doiralari, individual psixologik xususiyatlarini e’tiborga olgan xolda pedagogik ta’sirning samarali

metodlarini va usullari bilish malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslikdan foydalanishda pedagogik jarayonda juda ko‘p sub’ektiv omillar mavjudligi tufayli xolislik tamoyili alohida o‘rin tutadi. Hech qaysi bir bola qayta takrorlanmaydi. Bir bolaga nisbatan yaxshi bo‘lgan narsa boshqasiga mos kelmaydi. Bunday holatda haqiqatni izlash, maksimal vijdonlilik, ma’suliyatlilik zarur. Aks holda, bir xil masalalarda bir-biriga o‘xshamaydigan mutlaqo boshqa pedagogik tushunchalar va pedagogik tavsiyalar olinadi. Bu masala ayniqsa rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganishda, ularning ta’limdagi extiyojlarini kafolatlashga qaratilgan ishlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

1 BOB. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK TASHHIS QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

1.1.Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar haqida zamonaviy tasavvurlar

Oliy psixik funksiyalar yillar davomida shakllanadi. U nutqiy muloqot bilan tug‘ilib, faoliyatning to‘liq ramzi (simvolik faoliyat) bilan tugallanadi. Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsini shakllanishi ta’lim va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Oliy psixik funksiyalarni shakllanishida nutq hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Psixofiziologik mexanizmlarni tushuntirish uchun P.K.Anoxinning funksional tizimlar haqidagi konsepsiyasi qo‘llaniladi. A.R.Luriyaning ko‘rsatishicha, funksional tizim bolani tug‘ilish davrida tayyor holda bo‘lmasdan, balki uning psixik funksiyalari predmetlar hamda materiallar bilan o‘zaro munosabatga kirishganida shakllanib boradi.

Funksional tizim - bu bir vazifani bajarish uchun bir qancha anatomik hamda fiziologik tuzilmalarni birlashtiradigan dinamik tuzilma bo‘lib, turli nerv sistemalarida joylashgan. Psixologlar (A.R.Luriya, A.N.Leontev) doimiy ravishda oliy psixik funksiyalarning fiziologik negizi markaziy nerv sistemasi yoki uning alohida qismlari bo‘lib qolmasdan, balki miya qobig‘idagi funksional sistemaning birgalikda ishlashi deb ta’kidlaganlar. Bola hayot faoliyati jarayonida ushbu funksional sistemaning shakllanishi, sekin-astalik bilan murakkab xarakterga ega bo‘lib, funksional bog‘liqlik kasb etadi. Ushbu ilmiy tasdiq inson psixikasini rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni o‘zgartirdi. Fiziolog va psixologlarning tadqiqotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, alohida funksiyalar sistemasining etilganligi ma’lum bir rivojlanish davrida bir xil emas: ba’zi sistemalar shakllanib bo‘lgan, ba’zilari esa endi shakllanadi. Shunga ko‘ra, funksiyalarning rivojlanish tizimi bir xil emas ekan, deb xulosalash mumkin. Har bir funksional sistema, xatto alohida zonalari o‘zining rivojlanish dasturiga ega, lekin ular bir butunlikda ish olib borishadi. Har bir yosh davrda ma’lum bir funksional sistema etuklik darajasida bo‘lishi kerak, aks xolda ushbu sistemalar faoliyati o‘zaro alo-

qadorlikda amalga oshirila olmaydi (L.O.Badalyan). Shunday qilib, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bosh miyaning alohida qism yoki zonalarida etuklik natijasi hisoblanmaydi. Ular ontogenezda to‘planadi hamda bolaning ijtimoiy rivojlanish vaziyatiga bog‘liq bo‘ladi.

L.S.Vigotskiy o‘zidan oldingilarni (G.Ya.Troshin, A.S.Griboedov, E.Segen, M.Montessori va boshqalar) ishlarini umumlashtirdi hamda anomal rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiyaning asosiga psixologik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasi kiradi, buni L.S.Vigotskiy rivojlanishning me’yordagi hususiyatlarini o‘rganib ishlab chiqqan. L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanish konsepsiyasining asosiy belgilari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular XX asrning 50-90 yillardagi T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiy, V.V.Lebedinskiy, E.M.Mastyukova va boshqa olimlarning ishlarida o‘z rivojini topgan.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (rivojlanishida psixik-jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlanishida muammoga ega, alohida yordamga muhtoj) - sensor organlarning, markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch a’zolarining orttirilgan yoki tug‘ma organik jarohatlanishi natijasida psixik funksiyalarining rivojlanishida kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalar kiradi. Ba’zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqadi. Bularga oiladagi tarbiya salbiy shakllari, ijtimoiy va hissiy deprivatsiyani kiritishimiz mumkin.

G.Ya.Troshin me’yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlari xaqidagi fikrni ilgari surgan, buni esa ko‘pgina tadqiqotchilarning (T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiy) keyingi ishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy me’yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini izohlab, ular uchun psixik rivojlanishning ijtmioiy xarakterdaligi umumiydir: pedagogik ta’sir me’yorda ham shuningdek rivojlanishning buzilishida ham oliy psixik funksiyalarning shakllanish manbai hisoblanadi, deb ta’kidlagan. Ammo, me’yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatilmaydigan, lekin rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda uchraydigan bir qator

qonuniyatlar ham ajratiladi. T. A.Vlasova, V.I.Lubovskiy ishlarida anomal rivojlanuvchilarning umumiy qonuniyatlari bir tizimga keltirilgan.

L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini sistemaliligi haqidagi fikrlari unga anomal rivojlanishni ikki guruhga ajratish imkonini bergan. Bu kasallikning biologik xarakteriga ko'ra kelib chiqadigan **birlamchi nuqson**, bolaning ijtimoiy rivojlanishida, uning atrof- olam o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan **ikkilamchi nuqsondir**.

Anomal rivojlanish birlamchi nuqsonning kelib chiqish vaqti va uni ifodalanishining qay darajada og'irligi bilan aniqlanadi. Ikkilamchi nuqsonlarning shakllanish mexanizmi turli xil bo'lishi mumkin, ammo unda doimo ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ko'ruv, eshituv organlarining yoki bosh miyaning u yoki bu tuzilmalaridagi jarohatlar natijasida kelib chiqadigan nuqsonlar xarakteri, chuqurligi bo'yicha turli toifadagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda turlicha bo'ladi. Biroq ushbu holatlarning umumiy tomoni shundaki, ularning barchasi bolani keyingi rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi.

Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik kooreksion ta'sirning ob'ekti bo'lib asosan ikkilamchi nuqsonlar xisoblanadi. Bir qancha etakchi mutaxassislarning ishlarida ko'rsatilishicha, bolalardagi birlamchi nuqsonlar aqliy qobiliyatning buzilishiga, umumiy va mayda motorikadagi kamchiliklarga, atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishdagi qiyinchiliklarga, kommunikativ muloqot vositalarini o'zgarishiga, so'zlashuv nutqining etarlicha bo'lmasligiga, atrof -muhitni idrok etishni qiyinlashishiga, ijtimoiy tajribani kambag'allashuviga olib kelishi mumkin ekan. Nuqsonlarning o'zaro ta'siri ijtimoiy muhit bilan ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar tug'dirishini L.S.Vigotskiy ham ta'kidlagan.

Anomal rivojlanishning yana bir qonuniyatlaridan biri-nutqiy faoliyatning buzilishidir, bu so'zlashuvni bavosita ifodalay olmasligida namoyon bo'ladi.

Ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlay olmaslik, muloqotdagi qiyinchiliklar, materiallarni eslab qola olmaslik rivojlanishning fikrlash, umumlashtirish va farqlash kabilarni shakllanishida to'sqinlik qiladi. Ushbu tasavvur va nutqdagi kamchiliklarning bar-

chasi atrof -muhitni idrok etish, tasavvuridagi bilimlarini saqlash kabilarning shakllanishi ushbu muammoli bolalarda doimo etarlicha emasdir. Biroq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning muhitga moslashtirish va o'qitish qiyinchiliklaridan iborat o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, ijobiy qonuniyatlar ham mavjud. Ulardan biri L.S.Vigotskiy tomonidan rivojlanishning yaqin zonasi ko'rinishida nuqsonli bolalarda psixikasini shakllantirishning potensial imkoniyatlar sifatida mavjudligi qayd etilgan.

Yana bir konuniyat V.I.Lubovskiy tomonidan bolalar harakatlarini so'z orqali boshqarishni o'rganish davomida ifoda qilingan. U nutq ishtirokisiz yoki qisman so'z bilan ifodalovchi yangi shartli bog'liqliklarni ishlab chiqish imkoniyatini ko'rsatgan. Shunday qilib, nuqsonli rivojlanish psixikaning shakllanishida orqada qolishni ham va buzilishni kompensatsiya qilish konuniyatlarga ega.

Umumiy qonuniyatlardan tashqari o'ziga xos qonuniyatlar ham mavjud, ular rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ba'zi bolalarga xosdir. Ushbu o'ziga xos qonuniyatlar bizga differensial diagnostik mezonlar orqali rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifalarini ajratish mumkin.

Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan (kar va zaif eshituvchilar);
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan (ko'r va zaif ko'ruvchilar);
- harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan;
- og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar;
- psixik rivojlanishi orqada qolganlar;
- aqli zaiflar;
- hissiy-iroda doirasida og'ir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar;
- xulq buzilishlariga ega bo'lgan bolalar;
- rivojlanishda murakkab nuqsonlilar, ularda ikkita yoki undan ko'p birlamchi nuqsonlar kuzatiladi.

Psixodiagnostika bola rivojlanishining nuqsonlarni va uning o'ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi ushbu xususiyatlarni bilish bolaning imkoniyatlariga mos maktabgacha va maktab ta'lim dasturini, ta'li muassasining turini, individual tibbiy psixologo-pedagogik dasturni ishlab chiqishga yordam beradi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga samarali ta’lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olishga bog‘liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologo-pedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta’minlaydi.

1.2. Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik-pedagogik tashxis qilishning metodologik tamoyillari

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga samarali ta’lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olishga bog‘liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologo-pedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta’minlaydi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim sharoitlari yaratilgan. Bunday sharoitlar avvalo har bir bolaning xususiyatlari e’tiborga olgan xolda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, kerakli maxsus texnik vositalarni, maxsus tayyorgarlikga ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy -profilaktik hamda davolov tadbirlarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta’lim muassasalarini texnik va ilmiy-metodik jihatdan ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda turli xil maxsus ta’lim muassasalari mavjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo‘ljalangan va O‘zbekiston respublikasi xalq ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta’lim dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta’lim

muassasalar bilan bir qatorda turli reabilitatsiya markazlari, rivojlantirish markazlari, aralash guruhlar va h.q.lar ochilgan.

Shuningdek, umuta’lim maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni uchratish mumkin. Ushbu nuqsonlarning ko‘rinishi turlicha bo‘lishi mumkin. Son jihatdan yirik bo‘lgan guruhni harakatlanish, sensor yoki intellektual sohalarda nuqsonlari aniq ifodalanmagan: eshitishda, ko‘rishida, fazoviy-idroq tassavurlarida, harakat-tayanch apparatida, fonematik idrokida nuqsoni bo‘lgan, hissiy-irodaviy buzilishli, nutqiy rivojlanishida kamchiliklarga ega, xulq buzilishlariga ega, psixik rivojlanishi orqada qolgan, somatik sust bolalar tashkil etadi. Yaqqol ifodalangan psixik yoki jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar maktabgacha yoshda aniqlansa, engil nuqsonlar uzoq vaqt mobaynida e’tiborsiz qoladi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni o‘z ichiga oladi. **Birinchi bosqich** - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik -jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich – rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga ko‘ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ularning ta’lim olishlari uchun ta’lim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yo‘llanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada etakchi rolni egallaydi.

Uchinchi bosqich – fenomenologik. Uning maqsadi – bolaning individual xususiyatlari, ya’ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsi o‘rganilib u bilan ishlash bo‘yicha korreksion-rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan psixologo-pedagogik diagnostikani samarali amalga oshirish uchun “Rivojlanishdagi nuqson” tushunchasiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarni tashxis qilishda rus olimlari (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy, S.D.Zabramnaya) tomonidan ko‘rsatilgan bir qancha tamoyillarga amal qilish muhim.

yordamdan yaxshi foydalana olmaydilar. Mana shuning uchun tekshirish davomida pedagog doim o'z e'tiborini vazifa tushuntirilganidan so'ng uni echilishi yaxshilandimi, shunga o'xshash vazifani qanday bajarganligiga qaratish lozim. Barcha tekshirishlarni ta'limiy eksperiment tamoyilini e'tiborga olib o'tkazish tavsiya etiladi.

Bola tomonidan bajarilgan ishni baholash davomida sifat-sonli yondashish tamoyilini qo'llash muhimdir, ya'ni faqatgina yakuniy natijanigina emas, balki topshiriqlarni bajarish usuli va muvofiqligi, harkatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishda qat'iyatligi va h.q.larni baholash kerak. Bunda baholash differensirlashgan bo'lishi lozim.

Faqatgina oxirgi natijanigina emas, balki topshirish usulini ham e'tiborga olish lozim.

Bunda quyidagilar inobatga olinadi:

– vazifa va tekshirish xolatiga munosabati

– vazifani shartlaridan mo'ljal ola olishi hamda, Vazifani bajarish yo'llari

– vazifa shartlaridagi material va ko'rsatmalarga bolaning unga mos harakatlari

– kattalar yordamidan samarali foydalanishi

– vazifani bajarishda taqqoslay olishi

– faoliyat natijalari va o'zining baholariga munosabati.

Bolani erta tashxis qilib o'rganishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion ta'limga vaqtida yo'naltirib, ikkilamchi nuqsonlarni paydo bo'lishini oldini olish mumkin.

Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlariga korreksion va diagnostik yordam. Bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishini aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifalarini xal etish mumkin.

Yuqoridagilarning barchasi TPPKda bolalarni o'rganish davomida amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillardir.

1.3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilish vazifalari

Avval ko'rsatib o'tilganidek, rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni psixodiagnostikasi uch bosqichda olib boriladi:

Skrining-tashxis;

Differensial tashxis;

Individual –korreksion dastur ishlab chiqish maqsadida bolani chuqur psixologo-pedagogik o'rganish;

Har bir bosqich o'ziga xos vazifalarga ega hamda xar bir bosqichda uni zamonaviy psixodiagnostika xolatini xarakterlovchi bir qator muammolar bilan bog'liq.

Skrining – tashxisning asosiy maqsadi psixologik rivojlanish davridagi turli nuqson va kamchiliklarga ega bolalarni erta aniqlash, bola rivojlanishidagi psixologo–pedagogik muammosini aniqlab, unga umumta'lim muassasalarida sharoitlar yaratishdir.

Bundan tashqari skrining-tashxis ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga sifatli baholashga doir vazifalarni hal etishga yordam beradi: bolalarga ta'lim-tarbiya dasturlarining u yoki bu kamchiliklarini, aniq ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklarini aniqlash.

Skrining – tashxisni tashkil etish va o'tkazish muammosi xozirgi kunda turlicha amalga oshiriladi. Masalan bolani ta'lim-tarbiyasi jarayonida qiyinchiliklarga uchragan pedagoglar ta'lim muassasasidagi psixologga bolaning xususiyatlariga baho berib, unga mos keluvchi ishlar tavsiyasini ishlab chiqishini so'raydi. Boshqa xollarda ota-onalar psixologga murojat etadilar: bola tarbiyasi jarayonida xulqi bo'yicha duch kelingan muammolarga o'z bahosini,unga xos ta'lim-tarbiya tadbirlari bo'yicha tavsiyalarini berishi so'raladi. Shuni aytish joizki, murojaatlar asosan katta maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq uchraydi, chunki ota-onalar maktabga "tayyorlov davri"da bolada u yoki bu psixologik muammolarni seza boshlaydilar.

Va, nihoyat maxsus tashkil etilgan skrining-tekshiruv natijalari orqali bola rivojlanishidagi muammolarni aniqlash mumkin. Skrining-tekshiruv shaqli bo'yicha individual va frontal bo'lishi mumkin.

Ushbu yondashuv rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash bo'yicha zamon talablariga javob beradi, ammo har doim ham foydalanilmaydi. Skriningda foydalaniladigan metodikalar har doim ham skrining tekshiruv vazifalariga mos kelmaydi, mutaxassis psixolog-pedagoglarning rivojlanishdagi nuqsonlarni aniqlashda tayyorgarligi ko'pincha etarlicha bo'lmaydi. Hozirgi kunda "talablarga" ko'ra skrining-tashxis etakchi o'rinda kelmoqda, lekin u bola xususiyatlarini har tomonlama o'rganib unga psixologik va pedagogik yordamni bera olmaydi. Shunday qilib, skrining tashxisda ham bir qator muammolar ham mavjud.

1. Bolalarni tekshirish bo'yicha metodikalarning ko'p bo'lishiga qaramasdan, skring tekshiruvda qo'llaniladigan tashxislari ilmiy jihatdan talablari asoslanmagan. Ayniqsa bu, birinchi 3 yoshgacha bo'lganlarga tegishlidir.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi psixik rivojlanishi me'yorida bo'lgan hamda psixologo-pedagogik va tibbiy- ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarni ajratish uchun skrining-tashxisni ishlab chiqishda uning mezonlari tizimini ishlab chiqish juda qiyindir.

3. Skrining-tekshiruvning o'tkazishda tekshiriluvchining shaxsiy hususiyatlarini va hissiy holatini o'rganish muhim muammolardan biridir. Oldingi tajribalariga salbiy qarashi, yutuq va kamchiliklariga bo'lgan asi kabilar vazifani bajarish sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida qiyinchiliklar tug'diradi, chunki skrining-tekshiruv davomida vaqt chegaralangan va kerakli ma'lumotlarni olishga imkoniyat bermaydi.

Differensial tashxis rivojlanish nuqsonini aniqlaydi, va uning natijalari orqali bolaning imkoniyatlariga xos ta'lim shakllari aniqlanadi. Differensial tashxisning vazifalari quyidagilar:

– bola rivojlanishidagi aqliy, nutqiy va hissiy nuqsonlar xarakteri va darajasini aniqlash;

– birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini aniqlash hamda buzilishni tizimli taxlil qilish;

– harakat - tayanch apparati, ko'ruv, eshituv kamchiliklarida psixik rivojlanish nuqsonlarining xususiyatlariga baho berish;

– pedagogik tashxisni aniqlash va uni asoslash.

Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda korreksion-pedagogik jarayonni, ta'lim dasturini, ta'lim muasssasasi turini aniqlash va tashkillashtirish mumkin. Differensial tashxis psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyada amalga oshiriladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bir gurux mutaxassislar kompleks o'rganib tashxis natijasini kelishgan holda qo'yadilar. Ish bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda aniq bir tizimda tuziladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni differensial tashxis qilish, hozirgi kunda bir qator muammolarga duch keladi.

Ma'lumki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning har bir turida psixologik xususiyatlarining o'xshash jihatlari ham kuzatiladi. Masalan, rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning deyarli barchasida nutq kamchiliklar yoki ta'lim olishida sustliklar xarakterlidir. Rivojlanish nuqsonini, darajasini aniqlovchi o'ziga xos xususiyatlar, differensial tashxisning asosi bo'lib hisoblanadi (V.I.Lubovskiy). Bu hozirgi kunda maxsus psixologiyada anomal rivojlanishlarni taqqoslash xarakteriga ega ilmiy izlanishlarning etarlicha emasligi bilan bog'liq. Bunday ilmiy ishlarni olib borish differensial tashxis imkoniyatlarini yanada kengaytirar edi.

Yana bir muammo TPPK amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda tashkiliy xarakterga ega ko'pgina savollar echilmagan, hususan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi bir qator metodologik va terminologik muammolarni hal qiluvchi tashxis muassasasini tashkil etish, uni kerakli kadrlar bilan ta'minlash. Metodologik muammolar ichidan bolani differensial tashxis maqsadida psixodiagnostika natijalarini taxili hamda sifatli bajarishlariga imkon beruvchi samarali va ishonchli metodlarni ishlab chiqish muammosini alohida ta'kidlash joiz.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni chuqur psixologo-pedagogik o'rganish tashxis natijalariga asoslanib, korreksion dasturni ishlab chiqish maqsadini qo'yadi. Bunda o'rganish vaqt talab etadi, u asosan ta'limda, ba'zida esa konsultativ muassasalarda o'tkaziladi. Bunday o'rganishning aniq vazifalari turli yosh davrlari uchun ko'p taraflama va o'ziga xosdir. Ular ichidan qo'yidagilarni ajratish mumkin:

1043 90

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI 1-FILIALI

Bolaning individual psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlash;

Rivojlanitiruvchi va ta'limiy korreksion individual dasturlarni ishlab chiqish;

Oilasidagi ichki munosabatlarni o'rganish va tarbiya sharoitlarini aniqlash;

O'qishdagi murakkab sharoitlarda yordam.

Mutaxassislar u yoki bu funksiyadagi kamchilik yoki rivojlanmaganlikda samarali tavsiyalar bermoqdalar, lekin boladagi ijobiy hislatlarni aniqlashdagi, ayniqsa shaxs hususiyatlari ya'ni bolaning tasavvuri, nutqi, ijtimoiy shaxsiy muammosi hal etishga qaratilgan ishlari etarlicha rivoj topmagan. Ammo, samarali korreksion-pedagogik jarayon faqatgina salbiy omillarga emas, balki birinchi o'rinda bolani psixologo-pedagogik individual imkoniyatlarini aniqlash ham qaratilgan.

Shunday qilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilishning muhim vazifalari quyidagilardir:

– bola rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash;

– nuqsonning sababi va xarakterini aniqlash;

– bolaning pedagogik yo'llanmasini aniqlash;

– rivojlanishidagi nuqsonlari bo'lgan bolalarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash;

— ta'limiy va rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish.

Tayanch iboralar:

rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar, skrining tashxis, rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish, kompleks o'rganish.

Nazorat savollari

1. Psixologlar funksional tizimga qanday ta'rif beradilar?
2. Rus psixologi L.S.Vigotskiy qanday konsepsiyani ishlab chiqdi?
3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifalariga qanday bolalar kiritiladi?
4. Bolalar rivojlanishidagi birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarga nimalar kiradi?

5. Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik kooreksion ta'sirning ob'ektiga nimalar kiritiladi?
6. Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar qanday kategoriyalarga ajratilgan?
7. Psixologik-pedagogik diagnostika qilishni tashkil etish va o'tkazishda qanday metodologik tamoyillarga amal qilish lozim?
8. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni psixologik-pedagogik tashxis qilishning asosiy bosqichlarini tavsiflab bering.

2 BOB. AQLI ZAIFLIKNING KLINIK TAVSIFI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI

2.1. "Pedagogik-psixologik diagnostika" fanining predmeti, vazifalari, mazmuni

«Pedagogik-psixologik diagnostika» fani maxsus fan bo'lib, bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash, boshqa unga o'xshash holatlardan farqlashga, tashxisini, ta'limdagi imkoniyatlarini aniqlashga, zarur bo'lsa tegishli maxsus muassalarga yuborishga va u erda o'zlariga mos taalluqli korreksiyalashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni iloji boricha erta aniqlash, o'z vaqtida psixologik-pedagogik, korreksiyalash yordamini ko'rsatish, nogironlikning oldini olish, bolalar va o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tegishli tashkilotlar va defektologlarning vazifalari shundan iboratki, bolalar o'zlarining aqliy, bilim imkoniyatlariga va hissiy-idoraviy doiralarining xususiyatlariga mos sharoitda ta'lim olishlari, tarbiyalanishlariga imkoniyat yaratib berishlari lozim.

«Pedagogik-psixologik diagnostika» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodlarini amalda qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish.

2. Aqli zaif bolalarni maxsus muassalarga saralash ishlarni olib borish bo'yicha amaliy malakalarni shakllantirish.

Fanning mazmuniga bolalarning rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish, tibbiy-psixologik-pedagogik diagnostika (yoki tekshirish) metodlari, tibbiy-psixologik- pedagogik komissiya ishini tashkil qilish masalalari va maslahatlar berish, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalarda turli metodikalardan foydalanish kiradi.

Mazkur fan boshqa o'xshash fanlardan: maxsus psixologiya, maxsus pedagogika, logopediya, fiziologiya, bolalar anatomiyasi bilan bog'liqdir. Bu boladagi nuqson tuzilishni, rivojlanishdan orqada

qolish sabablarini aniqlashga, to'g'ri tashxis qo'yishiga imkon beradi.

Maxsus pedagogika nuqson tizimini e'tiborga olish asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning tipologik, individual xususiyatlarini ko'rib chiqib korreksiyalashning samarali usullarini tanlashga yordam beradi.

Logopediya fani bolaning nutqidagi nuqsonlarini aniqlash, logopedik tekshirishni amalga oshirish imkonini beradi.

«Pedagogik-psixologik diagnostika» fani bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlash, uni boshqa o'xshash holatlardan farqlash imkonini beradi, bu esa nazariy jihatdangina emas, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega. Shuning uchun bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni to'g'ri tushunish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariy ahamiyati shundaki bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarning jiddiy klinik-psixologik belgilarni ajratishga va uning mohiyati va sabablarini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

2.2. Aqli zaiflik

Aqli zaiflik deganda bosh miyaning organik jihatdan jarohatlanishi natijasida psixik, birinchi navbatda intellektual rivojlanishning turg'un pasayishi tushuniladi. Aqli zaif bolalar umumta'lim maktablari dasturini o'zlashtirishga qodir bo'lmaydilar.

Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar maktabda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib ololmaydilar.

Aqli zaiflikning klinik-psixologik ko'rinishida etakchi nuqson bilish faoliyatining rivojlanmay qolganligidir. Bilish faoliyatining pasayganligi fikrlash operatsiyalari, psixik jarayonlarning sur'ati, harakatchanligining buzilishi, diqqat, xotira va bir qator po'stloq funksiyalarning rivojlanmay qolganligida namoyon bo'ladi.

Aqli zaiflikning etiologiyasi turlichadir. Aqli zaiflik homilaning ona qornidaligida, tug'ilishda yoki ilk rivojlanish davrida markaziy nerv tizimining genetik buzilishlari, jarohatlar, asfiksiya, infeksiyalar, intoksikatsiyalar oqibatida kelib chiqadi.

Aqli zaiflikning asosiy formalarini klinik tavsifi jarohatning patogenezi, salbiy ta'sirning vaqti bilan chambarchas bog'liqdir.

Ontogenezning ilk bosqichlarida markaziy nerv tizimining jarohatlanishida (1,5-2 yoshgacha) birinchi navbatda po'stloq tizimining shakllanishiga zarar etadi. Jarohatlanishning morfologik ko'rinishda va psixik nuqsonning klinik namoyon bo'lishida rivojlanmay qolish ustun bo'ladi. Bunday hollarda oligofreniyalarning turli variantlari haqida gapirish mumkin.[1]

Kattaroq yoshda, ya'ni bosh miyaning po'stloq tizimining nisbatan etilganroq davrida yuz bergan salbiy ta'sir natijasidagi nerv tizimining morfologik va klinik ko'rinishda demensiyaning turli ko'rinishlari ustunlik qiladi.

«Oligofreniya» terminining klinik ko'rinishi quyidagilar bilan harakterlanadigan holatlarni nazarda tutadi:

1. Psixik rivojlanmay qolganlikning turg'un harakterdaligi;
2. Intellektual nuqson tuzilishda mavhum tafakkurning zaifligini ustunligi;
3. Progredientlikning yo'qligi.

Oligofreniyaning sabablari turlichadir. Etiologik belgilar bo'yicha oligofreniya ikkita asosiy guruhga ajratiladi:

1. Endogen (genetik) ta'sirlar oqibatida kelib chiqqan, irsiy patologiya bilan bog'langan yoki oilada mavjud bo'lgan yoki ushbu individda birinchi marta paydo bo'lgan oligofreniya;
2. Ekzogen ta'sirlar natijasida (homilalik yoki postnatal ontogenezning dastlabki bosqichlaridagi infeksiyalar, intoksikatsiyalar, bosh miya travmalari) kelib chiqqan oligofreniya.

Tekshirish metodlarining takomillashib borishi munosabati bilan nerv sistemasining genetik jarohatlanishi sabablariga katta ahamiyat berib kelinmoqda va aqli zaiflikning kelib chiqishidagi ko'p hollar ana shu sabablarga bog'liq deb ko'rsatilmoqda.

Aqli zaiflikning genetik formasiga xromosomalarning turli buz-

[1] Hozirgi vaqtda "oligofreniya" atamasi o'rniga ko'pincha "aqli zaiflik atamasi qo'llanilmoqda. Biz ushbu qo'llanmada "tug'ma" va "orttirilgan aqli zaiflik"ni ajratish maqsadida ba'zi o'rinlarda "oligofreniya" atamasidan foydalandik.

ilishlari bilan bog'liq oligofreniya kiradi. Bunda xujayradagi xromosomalarning sonini o'zgarishi, mozaik shaklda bo'lishi (ba'zi xujayralarda xromosomalar sonini o'zgarishi, xromosomalarning tuzilishini buzilishi-xromosomalarning bir qismining yo'qolishi deletsiya), bir xromosomaning qismini boshqasiga qo'shilishi (translokatsiya), xromosoma formasining o'zgarishlari kuzatiladi.

Xromosomalar buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular to'liq aniqlanmagan. Bularga xususan ota-onalarning generativ xujayralarining to'la rivojlanmaganligi (xromosomalar qatorining noto'g'ri bo'lishi, yosh o'tgan sari ularning «qarishi», kimyoviy moddalar bilan zararlanishi, surunkali kasalliklar, radiatsiya) kiradi. Ota-onalar jinsiy xujayralarining rivojlanmay qolishida, xujayralarning bo'linishi jarayonida xromosomalarning ajralishi buziladi va turli variantdagi xromosomalarning buzilishi kelib chiqadi.

Genetik sabablarga ko'ra oligofreniyaning ikkinchi guruh enzimolatiya-turli fermentlarning tug'ma rivojlanmay qolganligi tufayli moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtda genetik sabablarga ko'ra moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan aqli zaiflik (fenilketonuriya, galaktozemiya, gistidinamiya, gistinuriya, tirozimeniya, fruktozuriya va boshqalar) ko'p kuzatilmoqda. Eng ko'p fenilketonuriya uchraydi. Bu kasalliklarda ma'lum bir fermentning tug'ma yo'q bo'lishi organizmda zaharli moddalarni yig'ilishiga olib keladi (fenilalanin, gistidin, arginin, leysin) va bolalarning miyasi zaxarlanadi. Bunday buzilishlar bilan oligofreniyaning bir qator og'ir formalarini kelib chiqishi bog'liqdir. Ularning patogenezini yoritish davolashning samarali yo'llarini topishga yordam beradi.

Oligofreniyaning kelib chiqishida poligen turdagi irsiyatga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunda avlodda ota-onalardan o'tgan patologik irsiy omillarning to'planishi yuz beradi.

Oligofreniyaning ekzogen formasiga shunday holatlar kiritiladiki, bunda nerv tizimining rivojlanmay qolishga homilalik davrida bolaning miyasiga tashqi salbiy ta'sirlar sabab bo'ladi.

Bularga embrionlik, homilalik davrida turli surunkali (toksoplazmoz, sifilis va boshqalar) va o'tkir (onaning homiladorlik vaqtida qizilcha, gripp, epidemik parotit, infeksiyali gepatit, tosh-

ma chechak va boshqalar) yuqumli kasalliklarning ta'siri natijasida kelib chiqadigan oligofreniyaning formalari kiritiladi. Ona organizmining alkogol, kimyoviy moddalar, shuningdek ba'zi dori- darmonlar (antibiotiklar, sulfanilamidlar, barbituratlar, xinin, gormonlar va hokazo) bilan zaharlanishi ham oligofreniyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Radiaktiv va rentgendan nurlanish ham homilaga va ota-onalarning hujayralariga patogen tarzda ta'sir ko'rsatadi. Onadagi turli endokrin kasalliklar ham (diabet, qalqon, bezlarining, gipofizning jarohatlari) patogen rol o'ynaydi. Homiladorlikdagi toksikozlar, vitaminlar muvozanatining buzilishi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Onadagi yurak-tomir tizimidagi, o'pkadagi, jigar va buyraklardagi surunkali etishmovchiliklar homilaning patologiyasiga olib keladi. Ona va homila qonlarining rezus-omil bo'yicha bir-biriga to'g'ri kelmasligi ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

Tug'ilishdan oldin homilada kislorodning uzoq vaqt etishmasligi (gipoksiya) miyaning shakllanishga ta'sir ko'rsatadi.

Homilaning zararlanishida ta'sirning vaqti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Homiladorlikning dastlabki uch oyi juda xavfli bo'lib, bu vaqtda organizmning muhim tomonlari miyaning shakllanishi yuz beradi.

Oligofreniyaning ekzogen shakllariga markaziy nerv sistemasining ilk rivojlanish davrida (1,5-2 yoshgacha) infeksiyalar, intoksikatsiyalar va jarohatlar natijasidagi zararlanishlar bilan bog'langan psixik etishmovchiliklarning variantlari ham kiritiladi. Bu hollarda neyroinfeksiyalar orqali yuqtirilgan turli etiologiyadagi meningit, ensefalit, meningoensefalitlar, og'ir kechadigan somatik kasalliklar (qizamiq, skarlatina, parotit, dizenteriya va h-zo), nerv sistemasining intoksikatsiyasi (postvaksinal ensefalit) oligofreniyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Postnatal miya jarohatlariga ham alohida e'tibor berish lozim. Bunday jarohatlarning patogenezida gidrotsefaliya katta o'rin egallaydi.

Etiologiyasi bo'yicha aralash (endogen-ekzogen) bo'lgan oligofreniyalarning kelib chiqishi ko'pincha aniq bo'lmaydi. Bunda ko'pincha irsiy omillarning ta'siri katta deb ko'rsatilsa ham, oligofreniyaning bu shaqli ekzogen ta'sirlar natijasida ham kelib chiqishi

mumkin. Kraniostenoz, mikrotsefaliya, gidrotsefaliyaning ba'zi formalari, kretinizm kiradi.

Intellekt koeffitsienti insonlarning intellektual rivojlanish darajasini (aqliy rivojlanish koeffitsienti) baxolash maqsadida ishlab chiqilgan, aqliy yoshni xronologik yoshga munosabatini belgilaydi. Maxsus testlar (Ayzenk testlari kabi) yordamida aniqlanadi. IQ 70dan past bo'lsa aqli zaiflik deb ko'rsatiladi[1].

Aqli zaiflik intellektual etishmovchilikning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra to'rt darajaga ajratiladi: engil, o'rta, og'ir va chuqur.

F70. Yengil darajadagi aqli zaiflik. Diqqatiini jamlay oladigan va yaxshi mexanik xotiraga ega bo'lgan engil darajadagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) dastur bo'yicha ta'lim olishlari mumkin. Bu dastur aniq-ko'rgazmali metodlarga asoslangan bo'lib, matematika, yozuv, o'qish va boshka fanlarni o'zlashtirishni ancha engillashtiradi, shuning uchun bola uni 9 yil davomida egallay oladi. Keyinchalik bola kasbiy bilimlarni egallab, o'zi mustakil ravishda mehnat kila oladi.

Yengil darajadagi aqli zaif bolalarda nutq malakalarini biroz kechikib o'zlashtiradilar, ularning ko'pchiligi nutkdan kundalik maqsadlarda foydalinish, suhbatni qo'llab turish va unda ishtirok etish kunikmalarini egallashga qodir bo'ladilar. Biroq ularning nutqiga fonetik buzilishlar, so'z boyligining cheklanganligi, so'zlarni yaxshi tushunmaslik, qo'llaniladigan so'zlarning ma'nosi aniq bo'lmasligi xos bo'ladi. So'zlar muloqot vositasi sifatida to'lik qo'llanilmaydi. Faol luhat passiv lug'atdan ortda qolishi kuzatiladi. Aqli zaif odam o'zi gapirgandan ko'ra ko'proq tushunadi. Faol so'z boyligi nafakat cheklangan, balki shtamplar (bir xildagi so'z birikmalari)lar bilan to'lgan bo'ladi. Iboralar sodda, bir xil. Nutqining grammatik qurilishidagi buzilishlar (so'zlarning gaplarda bog'lanishi) bog'lovchilar, ko'makchilarning kamligida namoyon bo'ladi. Fikrini ifodalashda, o'qigan va eshitganini aytib berishda kiyinchiliklar uchraydi. Ba'zi xollarda nutkning rivojlanmaganligi belgilari kuzatiladi.

[1] John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. New York, Springer Science+Business Media, LLC, 2007. 4 бет.

Ko‘rish, eshitish, kinestetik, taktil, hid sezish va ta’m bilish hislari (sezish) cheklanganligi va sekinlashgani atrof-muhitda mos orientikrovkani kiyinlashtiradi. Idrokning yaxshi rivojlanmaganligi aqli zaif odamga uning o‘zi va uni qurshab turgan narsalar haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishga halaqit beradi.

Predmetlar va voke’liklar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni etarli darajada ajrata olmaslik, ranglarning och-to‘qligini sezmaslik, predmetlarning chuqurligi va hajmini xato baxolash – bularning barchasi idrok etilayotgan ma’lumotlarni taxlili va sintezidagi qiyinchiliklar natijasidir.

Ixtiyoriy diqqat maqsadga yo‘naltirilmagan, uni jalb kilish, ushlab turish katta harakat talab kiladi, u mustahkam emas, tez chalg‘ib ketadi. Bu narsa aqli zaif bola uchun katta qiyinchiliklar tug‘diradi va nafaqat maktab dasturi, balki o‘ziga-o‘zi xizmat qilish elementlarini o‘zlashtirishga ham to‘sqinlik kiladi.

Tafakkur konkret, bevosita o‘zining tajribasi va birlamchi extiyojlarini qondirish bilan cheklangan, ketma-ketlik yo‘k, stereotip, tanqidsiz. Tafakkurning xulqni boshkarish roli sust. Aqli zaif bola o‘z faolligini bosqichma-bosqich rejalashtirmaydi va natijalarni oldindan ko‘ra bilishga harakat ham qilmaydi. Xatto o‘smir yoshidagi aqli zaif bola ham mavjud qiyinchiliklarni inobatga olmay, o‘qituvchi, shifokor, uchuvchi bo‘lib ko‘rmokchi bo‘ladi.

Xotira sekinlashganlik va sustligi, tez unutib yuborish bilan ajralib turadi. Lekin xotira saqlangan va yaxshi shakllangan bo‘lishi ham mumkin. Odatda predmet va voqe’liklarning faqatgina tashqi xususiyatlari yodda qoladi. Ichki mantiqiy aloqalar haqidagi xotiralar va so‘z bilan tushuntirib berish katta qiyinchiliklar tug‘diradi.

Hislar (tuyg‘ular) yaxshi ajratilmagan (differensiyalanmagan), noadekvat. Ular aqli zaif bolaning o‘zida yoki uning atrofida yuz berayotgan o‘zgarishlar darajasiga mos kelmaydi. Bola shunchaki jilmayib qo‘yish mumkin bo‘lgan paytda sho‘x-shodon bo‘lib ketadi, shunchaki jahl qilib qo‘yish kerak bo‘lgan paytda g‘azabini va xatto agressiyasini boshqara olmaydi.

Oliy tuyg‘ular: gnostik, ma’naviy, etik va boshkalar qiyinlik bilan shakllanadi. Shu sabab mas’uliyat hissi, bajarilgan ishdan qo-

niqish bo‘lmaydi. Faoliyati va aniq hayotiy vaziyatlardan bevosita ta’sirlanish ustuvor. Ko‘rgan o‘yinchog‘i, shirinligini olib berishga olingan rad javobi boshqarilmaydigan g‘azabga sabab bo‘ladi. Kayfiyati odatda o‘zgaruvchan. Hissiy rivojlanmaganlik darajasi intellektual nuqson darajasiga mos keladi degan fikr mavjud, lekin amaliyotda doim ham o‘z isbotini topmaydi. Aqli zaif shaxslarning ma’lum qismi o‘zining cheklangan qobiliyatlaridan jiddiy tashvishlana oladilar. Shu sabab ular nevrotik buzilishlar paydo bulishi bo‘yicha yuqori xavf guruxiga kiradilar.

Aqli zaif shaxslarning erkin faoliyati intilishlarning sustligi, tashabbus etishmasligi, qaysarlik, ijtimoiy, shaxsiy motivlarning sustligi bilan ajralib turadi. Zarur qarorlar ko‘pincha qisqa tutashuv tipi bo‘yicha qabul qilinadi. Harakatlari etarli darajada maqsadga yo‘naltirilmagan, impulsiv, motivlar kurashi mavjud emas. Shu sabab xulq-atvorda ketma-ketlik yo‘k, o‘zini qanday tutishini oldindan bilib bo‘lmaydi. Xulq-atvor passiv, birdaniga kutilmagan va odatda joiz bo‘lmagan ishlarni qiladi, bu narsa albatta aqli zaif odamning hayotga moslashishini qiyinlashtiradi.

Shunga qaramay aqli zaif shaxs ma’lum bir etuklik davriga etganida ulardan ko‘pchiligi o‘z-o‘zini boshqarishda mustaqillikka erishadilar. Ular o‘zlari ovqatlana oladilar, yuvinadilar, kiyinadilar, ichak va siydik pufagi funksiyalarini boshqara oladilar. Rivojlanganlik darajasi me’yordagidan sekinrok bo‘lsada, ular amaliy va ro‘zg‘or ko‘nimalarini o‘zlashtiradilar.

Nomustaqillik, turli tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik va taqlid qilishga moyillik aqli zaif individning xulqi ko‘p jihatdan affektlar, bevosita vaziyatlarga bog‘liq bo‘lishiga olib keladi.

Psixomotor rivojlanmaganlik lokomotor funksiyalar rivojlanish surati sekinlashganligida, harakatlar ketma-ketligi unumsiz va maqsadga nomuvofiq, harakatlari notinch ekanligida namoyon bo‘ladi.

Harakatlar kambag‘al, keskin. Aniq va nafis harakatlar, qo‘l barmoqlari harakatlari va mimika ayniqsa yomon shakllangan.

Asosiy qiyinchiliklar odatda maktabda o‘zlashtirish sohasida kuzatiladi va ko‘pgina bolalarda o‘qish va yozish alohida murakkabliklar tug‘diradi.

Engil aqli zaiflikning ko‘p xolatlarida mavhum tafakkur talab qilmaydigan, amaliy faoliyatga asoslangan, sodda qo‘l mehnati bilan shug‘ullanish mumkin. Ular buyoqchi, duradgor, tikuvchi, kashtachi va x. kasblarni o‘zlashtiradilar, lekin yukori razryadlarga erishmaydilar.

Nazariy sohada unumdorlikni talab kilmaydigan ijtimoiy sharoitlarda (masalan qishloq joylarda) aqli zaiflikning engil darajasi o‘z holicha qiyinchiliklar tug‘dirmasligi mumkin. Lekin bu bilan birga hissiy va ijtimoiy etuk emaslik kuzatilsa, ijtimoiy rol cheklanganligi kelib chiqadi, masalan, nikoh va bolalar tarbiyasiga qo‘yiladigan talablarni bajara olmaslik yoki madaniy urf-odatlar va me’yorlarga moslashishdagi qiyinchiliklar.

F71. O‘rta darajadagi aqli zaiflik. O‘rta darajadagi aqli zaiflik bilish jarayonlarining shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. Tafakkur konkret, ketma-ketlik yo‘q. Bu kategoriyadagi shaxslarda nutqni tushunish va undan foydalanish orqada qolib (3-5 yilga kechikib) rivojlanadi, bu sohada to‘lik rivojlanish esa cheklangan. Ko‘pincha nutq qo‘pol nuqsonlar bilan kechadi. So‘z boyligi kam, u ko‘proq kundalik hayotda qo‘llaniladigan so‘z va iboralardan iborat.

Aqli zaiflikning bu darajasidagi bolalarning deyarli barchasida harakatlar koordinatsiyasi aniqligi va surati buzilgan bo‘ladi. Harakatlar sekinlashgan, no‘noq, bu narsa yugurish mexanizmining shakllanishiga va sakrashni o‘rganishga to‘skinlik qiladi. Aqli zaif bolalar hatto o‘smir bo‘lganlarida ham berilgan harakat holatga qiyinchilik bilan kiradilar va uni bir necha soniyadan ortiq ushlab tura olmaydilar. Ular bir harakatdan boshqasiga o‘tishga qiynaladilar. Ba’zilarida harakatlanish rivojlanmaganligi harakatlarning bir xilligida, ularning sur’ati sekinligida, sustlik, noqulaylikda namoyon bo‘ladi. Boshqalarida esa ortiqcha harakatchanlik maqsadga nomuvofiqlikda, tartibsizlikda, harakatlar koordinatsiyalanmaganlikda namoyon bo‘ladi.

O‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari yaxshi rivojlanmagan. Harakatlar rivojlanishning qo‘pol nuqsonlarida bu ko‘nikmalar shakllana olmaydi. Ko‘pincha barmoqlarning differensiyalangan nafis harakatlarini talab qiluvchi ko‘nikmalar: oyoq kiyim ipini bog‘lash, tugmalarni qadash, kiyimdagi bog‘ichlarni bog‘lashni o‘zlashtirish

qiyinchiliklar tug‘diradi. Ba’zi bolalar butun umri davomida maishiy ishlarda nazorat va yordamga muhtoj buladilar.

Bunday bolalarning barchasida diqqat buzilgan. Bolalarni biron faoliyatga jalb qilish mushkul, ular birpasda chalg‘ib ketadilar. Faol diqqatning sustligi har qanday, xattoki eng sodda maqsadlarga erishishga to‘skinlik qiladi. Shunga ko‘ra o‘yin faoliyati ham qiyinlashadi.

O‘rta darajadagi aqli zaif shaxslarda ma’lumotlar va tasavvurlar zahirasi juda kam. Tarqoq tushunchalar hosil bo‘lishi umuman yo‘q yoki keskin chegaralangan. Idrok va xotiraning rivojlanganligi kuzatiladi.

Maxsus ta’lim dasturlari ularning cheklangan salohiyatini rivojlantirish va ba’zi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Ular egallagan bilimlarini qiyinlik bilan, ko‘pincha mexanik tarzda, yodlangan andoza kabi qo‘llaydilar.

O‘rta darajadagi aqli zaif odamlar etuklik yoshida sokin, boshqarilishga moyil bo‘ladilar, imkoniyatlari darajasida vazifalar qo‘yilganda va malakali nazorat (doimiy kuzatuv va ko‘rsatmalar) ta’minlanganida sodda amaliy mehnat qila oladilar.

Bunday odamlar, umuman olganda, jismoniy faol va ularning ko‘pchiligida ijtimoiy rivojlanish belgilari mavjud.

Nutqning rivojlanish darajasi turlicha: ba’zilari sodda suhbatlarda ishtirok eta olsalar; boshqalari – faqatgina o‘zlarining birlamchi ehtiyojlari (ovqatlanish, kiyinish, himoya qilish)ni ifodalash uchun etarli bo‘lgan so‘z boyligiga ega bo‘ladilar. Ba’zilari nutqni hech qachon o‘zlashtira olmasalar-da, oddiy ko‘rsatmalarni tushunadilar va ba’zi qo‘l harakat ishorasining ma’nosini o‘rgana oladilar.

Bolalarda autistik alomatlar yoki rivojlanishning boshqa umumiy buzilishlari namoyon bo‘lishi mumkin. Ularning ba’zilari mehribon va xushmuomala bo‘lishadi. Boshqalarining tez jahli chiqadi, jizzaki bo‘ladilar. Yana boshqalari – qaysar, yolg‘onchi, dangasa, impulsiv (kutilmagan) ishlar qilishga moyil bo‘ladilar.

Aqli zaiflik ko‘pincha oyoq-qo‘l, panjalar, barmoqlar, bosh, teri, ichki a’zolar, jinsiy a’zolar, tish, yuz, ko‘z, quloqlar rivojlanishidagi buzilishlar bilan birga kechadi.

O‘rta darajadagi aqli zaif kattalar ularning individual va shaxsiy sifatlarini inobatga olgan xolda doimiy kuzatuv va yo‘l-yo‘riq ostida oddiy, malaka talab qilmaydigan ishlarni bajara oladilar (ayniqsa, qishloq xo‘jalik ishlari bilan band bo‘lgan joylarda). O‘rta darajadagi aqli zaiflar ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj bo‘ladilar.

F72. Og‘ir darajadagi aqli zaiflik. Og‘ir darajadagi aqli zaiflikda tafakkur nafakat o‘ta konkret, rigid. Ularning ko‘pchiligida motor funksiyalarining rivojlanmaganligi, koordinatsiya buzilishi va boshqa birgalikda kechuvchii patologiyalar yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Bu shaxslar o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini katta qiyinchiliklar bilan o‘zlashtiradilar. Ularning bir qismi hatto tugma qadash va bog‘ichlarni bog‘lashni ham o‘rgana olmaydilar.

Og‘ir darajadagi aqli zaif bolalarning ta’limi o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini mashq qilish va atrof-muhitda mo‘ljal olishni o‘rganish, muloqotni rivojlantirish bilan cheklanib qoladi.

Nutqi aggramatizmlar, tovushlarni talaffuz qilishdagi kamchiliklarga ega, so‘z boyligi kam va biron faoliyatni tashkil qilish uchun etarli emas.

Rivojlanishning orqada qolishining og‘ir darajasidagi bolalar mustaqil harakatlana olishlari, nutqni muloqot vositasi sifatida minimal tarzda qo‘llashlari, ularga yaxshi muomalada bo‘ladigan odamlarni ajrata olishlari mumkin, bundan tashqari ularda hissiyotlarni ijtimoiylashtirish elementlari mavjud. Maxsus ta’lim berilganda ularning ba’zilari maishiy o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishning qiyin bo‘lmagan ko‘nikmalarini, eng sodda qo‘l mehnatini o‘zlashtirishlari mumkin. Ular faqatgina elementar mehnat jarayonlarini o‘zlashtira oladilar.

Shuni ta’kidlash muhimki, bu darajadagi aqli zaif bolalar keyinchalik o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashlari mumkin bo‘lgan ko‘nikmalarni tushunishlari va rivojlantirishlari uchun ularga o‘rgatilayotgan narsani bir necha bor takrorlash kerak.

Odatda intellektual buzilishlar yaqqol nevrologik patologiyalar: falajlik, parezlar bilan birga kechadi. Ularda skelet, bosh suyagi, qo‘l-oyoq, teri va ichki a’zolarning rivojlanishini buzilishi, displastik tana tuzilishi kuzatiladi.

Bu patologiyaga ega odamlarga doimiy yordam va qo‘llab-quvvatlash talab qilinadi.

F73. Chuqur darajadagi aqli zaiflik. Bu bolalarda qo‘yiladigan talablar yoki ko‘rsatmalarni tushunish yoki bajarish qobiliyati cheklangan. Ularda diqqat, idrok, xotira rivojlanmagan. Tafakkurning elementar jarayonlari mavjud emas. Ko‘pincha nutq o‘rniga alohida tushunarsiz tovushlar yoki o‘zlari ma’nosini tushunmaydigan so‘zlarni qo‘llaydilar.

Bunday bolalarning ko‘pchiligida motorikaning og‘ir buzilishlari kuzatiladi, ular butkul harakatsiz yoki harakatlari keskin chegaralangan bo‘ladi, siydik va axlatni ushlab tura olmaydilar, ular bilan faqat rudimentar shaklda muloqot qilish mumkin. Ular o‘zlarining asosiy extiyojlari haqida qayg‘ura olmaydilar yoki bu xususiyat juda sust, va doimiy yordam va qo‘llab-quvvatlashga muhtojlar.

Ehtiyoj va harakatlar juda sodda, harakat alari – tartibsiz, maqsadga yo‘naltirilmagan, stereotip u yoqdan bu yoqqa qimirlash, tashqi sababsiz qo‘zg‘olish kuzatiladi.

Bulardan eng og‘irlari yig‘lamaydi, kulmaydi, atrofdagilarni tanimaydi. Hech narsa e’tiborlarini torta olmaydi. Ular fazoda mo‘ljal olishga qiynaladilar. Faqatgina og‘riqdan ta’sirlanadilar. Yuz ifodasi ma’nosiz. Iste’mol qilsa bo‘ladigan va iste’mol qilsa bo‘lmaydigan narsalarni ajrata olmaydilar. Nutq va imo-ishorani tushunmaydilar. G‘azab affektlari, o‘ziga zarar etkazishga intilish kuzatiladi.

Biroq, bunday bolalar bilan ishlansa, ularda tovushga, yorkin yorug‘lik va rangga, harakatlanayotgan ob’ektlar va boshqa ta’sir qiluvchilarga e’tiborni tarbiyalashda ba’zi yutuklarga erishish mumkin.

2.3. Aqli zaiflikning klinik tavsifi

Aqli zaiflik deganda bosh miyaning erta jarohatlanishi yoki organik rivojlanmaganlik bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy va birinchi navbatda aqliy buzilishni tushunish kerak. Og‘ir darajadagi aqli zaif bolalar umuman maktab bilimlarini va malakalarini egallay olish qobiliyatiga ega emaslar.

Aqli zaiflikning klinik-psixologik ko‘rinishida asosiy buzilishi bo‘lib bilish faoliyatining yaqqol etishmasligi xisoblanadi. U ongn-

g pastligi, umumlashtirish jarayonining shakllanmaganligi, psixik rayonning marg'un bo'lmaganligi, xotiraning etarli bo'lmasligi, iqqat va boshqa qator funksiyalardagi kamchiliklar borligi bilan arakterlidir.

Aqli zaiflik uchun nutqning rivojlanmaganligi xarakterlidir. Aqli aiflik turli etiologiyaga ega, u markaziy nerv sistemasining genetik jarohatlanishi, ichki patogen ta'sirlar, tug'ruq paytidagi jarohatlar, asfiksiya, infeksiyaning bola miyasiga ta'siri, intoksikatsiya, jarohat va boshqalar bilan belgilanadi. Aytilganlardan kelib chiqqan hol-da, aqli zaiflikka og'ir pedagogik qarovsizlikni kirgizish mumkin emas. Chunki uning ko'rinishlari yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga o'xshab aqli zaiflikka olib kelmaydi (aqliy nuqsonning mavjudligi, bilish qobiliyatining pasayishi, aqliy funksiyalarning organik etish-masligi hamda rivojlanishning biologik etiologiyasi).

Shuningdek, aqli zaiflikka samotogen, psixogen, serebral, konsti-tutsional ko'rinishdagi psixik rivojlanishning orqada qolishini kiritib bo'lmaydi. Chunki bu shakllarning ijobiy dinamikasi xuddi yuqori-dagi kabi aqli zaiflikning mezonlariga javob bermaydi. Aqli zaif-likning asosiy shakllarining keng tavsifi jarohatlanishning patogenezi va zararning vaqtinchalik tasiri bilan uzviy bog'liq. Ontogenezning erta bosqichida (1,5-2 yoshgacha) markaziy nerv tizimiining zararlan-ishida birinchi navbatda qobiq sistemasining shakllanishi zararlanadi. Zararlanishning morfologik ko'rinishida va ruhiy nuqsonning klinik ko'rinishida rivojlanmaganlik ustunlik qiladi. Bu hollarda gap oligo-freniyaning turli variantlari haqida boradi. Katta yoshdagi zararning ta'sirida, bosh miya qobiq tizimining etilish vaqtida nerv sistemasin-ing morfologik va klinik ko'rinishidagi jarohatning ko'rinishi ustunlik iladi. Bu hollarda demensiyaning turli shakllari haqida gap boradi.

2.4. Aqli zaiflikning klinik shakllari

Oligofreniya. «Oligofreniya» atamasi (aqli zaiflik) qator kasal-iklar yig'indisi bo'lib, quyidagi asosiy ko'rsatmalar bilan xarakter-lanadi:

1. Umumiy ruhiy rivojlanmaganlikning qaytmas ko'rinishi.
2. Intellektual nuqsonning tuzilishida mavhum tafakkurning zai-fligi.

3. Progridientlikning yo'kligi.

Oligofreniya etiologiyasi. Oligofreniyaning sabablari turli xil. Oligofreniya etiologik belgilari bo'yicha 2 ta asosiy guruhga ajra-tiladi.

1. Nasliy patologiya bilan bog'liq yoki oilada mavjud bo'lgan yoki shu indvidda kelib chiqkan endogen omillar bilan belgilanadi.

2. Ekzogen omillar (infeksiyalar, intoksikatsiyalar), , homilalik, postnatal va ontogenezning erta bosqichlarida ta'sir qiluvchi infek-siyalar, miya jarohatlari, intoksikatsiyalar.

Tekshirish usullarining turli xillari shuni ko'rsatdiki, nerv siste-masi jarohatlanishining genetik sabablariga ko'proq ahamiyat berish kerak, chunki hozirgi vaqtda aqli zaiflik kelib chiqishiga ko'pincha shularga bog'liq. Aqli zaiflikning genetik shakllariga turli xildagi xromosomalar anomaliyalari bilan bog'liq bo'lgan oligofreniyalar kiradi. Xromosomalar anomaliyalariga katakchalardagi xromoso-malar sonining o'zgarishi, mozaik shakllarda bo'lishi (xromosom-larning katakchalarining faqat bir qismidagina o'zgarish bo'ladi), xromosoma strukturasining buzilishi, xromosomaning bir qismin-ing yo'qolishi (deletsiya), 1 xromosomaning 2 xromasomaga qis-man kirishi (translokatsiya), xromosoma shakllarining turli xil o'zgarishlari kiradi. Xromosomalar anomaliyalarning sabablari turli xil va ular to'liq o'rganilmagan. Bularga ota-onalarning generativ hujayralarining to'liq rivojlanmaganligini ham (xromosomalarning noto'g'ri to'plami, ularning «qarishi», kimyoviy moddalar bilan za-harlanishi, surunkali kasalliklar, radiatsiya orqali) kiritish mumkin.

Ota-onalarning jinsiy hujayralarining to'liq rivojlanmaganligi natijasida xromosomalarning bo'linishi davrida xromosoma anom-aliyalarini kelib chiqishga sabab bo'ladi. Daun sindromining kelib chiqishida 21-juftlik xromosomada trisomiya bo'lib (ba'zida mozaik shaqlida bo'ladi) yoki translokatsiya kuzatilib, ko'proq ayol kishin-ing katta yoshda bo'lganligiga ham bog'liq bo'ladi. Daun kasalligi oligofreniyada ko'p kuzatilib, xromosomalar anomaliyasiga bog'liq bo'ladi.

Oligofreniyani keltirib chiqaruvchi xromosomalar anomaliya-sida shuningdek jinsiy xromosoma aberratsiyasi ham muhim o'rin tutadi (Shershevskiy – Terner, Klaynfelter sindromlari va boshqa

jinsiy xromosomalar anomaliyalari). Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, jinsiy xromosomalar anomaliyasi doimo ham aqli zaiflikka olib kelavermaydi. Klaynfelter sindromida ko'pincha oligofreniya kuzatiladi.

Enzimopatiya – turli fermentlarning etarli bo'lmaganligi natijasida modda almashinuvida buzilish bo'lgan oligofreniyalar ham genetik sabablarga kiradi. Hozirgi vaqtda moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqqan aqli zaiflik ko'plab uchramoqda (fenilketonuriya, galaktozemiya, gistidinemiya, gistidinuriya, tirozinemiya, gomotsistinuriya, argininuriya, prolinuriya, fruktozuriya, sukrozuriya, gargoilizm, progeriya va hokazo). Bular orasida fenilketonuriya ko'proq uchraydi. Bu kasallik bilan tug'ilganlarda ma'lum fermentlar yuqligi natijasida organizmda toksinlar (zaharli moddalar- fenilalanin, gistidin, arginin, leysin) yig'ilishiga olib keladi bolalar miyasini zaxarlaydi. Bunday buzilishlar kator aqli zaiflikning og'ir formalariga olib keladi. Ular patogenezini aniqlashda terapiya po'l keladi (ular patogenezini aniqlash). Enzimopatik kasalliklar turkumiga kiruvchi fenilketonuriya, gomotsistinuriya, galaktozemiya, fruktozuriya va boshqalar qisman davolanmoqda. Shu sababli yuqoridagi kasalliklarning ko'p qismini shartli oligofreniya guruhga kiritamiz.

Bir qator genetik kasalliklar holatida nasliy kamchiliklar rivojlanishi natijasida zaiflik bilan bir qatorda yurak-tomirlari, teri suyak, tomir sistemasi, ko'rish, eshitish, organlari kamchiliklari ham birga kelishi mumkin. Kruzonning miya dizostozi, Aper, Kornelin de Lange Rubinshteyn – Teybi sindromlari, "elf yuzi"- bu kasalliklarda oligofreniya miya-yuzning turli disploziya kasalliklari bilan birga keladi. Oligofreniyaning yuzaga kelishida naslning poligon tipi katta rol o'ynaydi. Bu kasallikda bolada ota-onalardan olingan patologik (kamchilik) omillar yig'ilmasi bo'ladi. Bu holat aqli zaiflikning engil darajasini keltirib chiqadi, degan fikrlar ham mavjud.. Oligofreniyaning genetik formalari, autosom xromosoma anomaliyasi, enzimopatik genetik mutatsiyasidalarda ko'pincha aqli zaiflikning og'ir formalarini yuzaga keladi.

Oligofreniyaning ***ekzogen*** formasiga –homila yoki bolaning miyasiga tashqi salbiy omillarning ta'siri natijasida nerv sistema-

sining rivojlanmaganligi holati kiritiladi. Bularga homilaning ona qorni vaqtidagi shikastlanishi, turli infeksiyalar (toksiplazmoz, sifilis) kirib, surunkali, boshqalari o'tkir hisoblanadi (onaning qizalik, gripp, epidemik parotit, infeksion gepatit, suv chechak va boshqa yuqumli kasalliklar). Ona organizmining spirtli ichimliklar (alkogolli embriopatiya), ximiyaviy moddalar bilan zaharlanishi, jumladan dorilar bilan (antibiotik, sulfanilamid preparatlar, barbituratlar, xinin, gormonlar va hokazo) , radioaktiv, rentgen nurlari) oligofreniyani keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari onaning turli endokrinologik kasalliklari ham (diabet, buqoq, gipofiz) patogen rol o'ynaydi. Homiladorlikdagi toksikozlar, vitamin almashinuvchi buzilishi ham ta'sir etadi. Bundan tashqari ona organizmidagi yurak, qon sistemasi, o'pka, jigar, buyraklardagi etishmovchiliklar ham ta'sir etadi. Ona bilan homilaning qonlarining rezus omil bo'yicha to'g'ri kelmasligi ham muhim ahamiyat kasb etadi, homilaning uzoq vaqt gipoksiyada bo'lishi – kislorodning surunkali etishmasligi ham miyaning jarohatlanishiga, miya shakllanishi uchun muhim bo'lgan jarayonning buzilishi holatlari ko'p kuzatilmoqda.

Bunday jarohat yuz berishida jarohat davri katta rol o'ynaydi: homilaning dastlabki 3 oyi xavfli hisoblanib, bu davrda asosiy organizmning muhim sistemalari, birinchi navbatda miya rivojlanishi ro'y beradi.

Oligofreniyaning kelib chiqishiga sabablaridan yana biri tug'ish davridagi kamchiliklar: infeksiya (listerioz), tug'ish davridagi jarohat, asfiksiya yoki unga o'xshash holatlar ham kiradi. Oxirgi vaqtda bu omillarning etiologik roli qisqarmoqda.

Oligofreniyaning ekzogen formasiga markaziy nerv sistemasining erta postnatal (tug'ilishdan keyin 1,5-2 yoshda) infeksiyalar, intoksikatsiyalar va travmalar natijasida jarohatlanishi bilan bog'liq bo'lgan psixik rivojlanmay qolish variantlari ham kiradi. Bunga ko'proq turli etiologiyali meningit, ensefalit, meningo-ensefalitning neyroinfeksiyalar, og'ir kechadigan umumiy somatik kasalliklarning (qizamiq, skarlatina, parotit, dizenteriya) og'ir asoratlari sifatida fikr yuritiladi. Bosh miya suyagi va bosh miya jarohatlari ustida alohida to'xtalib o'taish zarur. Bu jarohatlar patogenezida gidrotsefaliya alohida o'rin tutadi.

Oligofreniyaning etiologiya bo'yicha aralash formalari kelib chiqishi bo'yicha ko'proq noaniqliklarga olib keladi (endogen - ekzogen). Bu kasallikning ma'lum qismi nasliy faktorlar asosida bo'ladi, biroq ba'zida ekzogen zararlanish ustunlik qilish ham mumkin. Oligofreniyaning etiologiya bo'yicha aralash formalariga kraniostenoz, mikrotsefaliya, gidrotsefaliyaning bir kator formalari, gipotireoid formalari (kretinizm) kiradi.

Yuqoridagi aytib o'tilganidek, oligofreniyada rivojlanishning buzilishlarini o'ziga xosligi serebral tuzilmalarning umumiy rivojlanmaganligi bo'lib, ontogenez buzilishi, qobiq sistemasi qiyin va kech shakllanishi, birinchi navbatida peshona qismining po'stlog'i kech shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Patogenezning bu o'ziga xoslik tomoni «nuqsonning kliniko-psixologik tuzilishi»ni aniqlab beruvchi ko'rsatkich bo'lib, uni ikki omilga asoslanadi: miyaning va umuman organizmning total va ierarxik rivojlanmaganligidir.

Totallik -avvalo barcha nerv psixik funksiyalarning quyidan boshlab (motorika, sodda hissiyotlar) yuqoriga qarab, bilish jarayonlarining organik rivojlanmaganligida namoyon bo'ladi.

Oligofreniyada bilish faoliyatining rivojlanmaganligi mantiqiy fikrlashning sustligi, psixik jarayonlar sur'atining sekinlashganligi, idrokning etishmasligi, motorika, diqqat, nutqning rivojlanmaganligi, hissiy doiraning, shaxsning shakllanmaganligi bilan bog'liq. Uning harakatini, o'rin almashinish jarayonini, idrok, motorika, xotira qobiliyatini, diqqatini, nutqini, emotsional xolat shakllanmaganligini yuzaga keltiradi.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanmaganligi avvalo umumlashtirish qobiliyatining zaifligi, har qanday hodisaning ma'nosini tushunishdagi qiyinchiliklardan kelib chiqadi. Ko'chma ma'noli so'zlarni tushunib etish qobiliyati deyarli yo'q. Bilish faoliyatida mavhum bo'lmagan, aniq bog'lanishlar etakchi bo'ladi. Predmet – amaliy fikrlash ham cheklangan xarakterga egadir. Predmetlar va borliqni taqqoslash faqat tashqi belgilar asosidagina amalga oshiriladi.

Bilish faoliyatining oliy shakllarining rivojlanmaganligi nutqning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqning rivojlanmaganligi darajasi ko'pincha intellektual nuqson darajasiga

bog'liq bo'ladi. So'zlarning mazmunini tushunishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Aniq sharoitga bog'liq bo'lmagan so'zlarni tushunmaydilar yoki qisman, qiyinchiliklar bilan tushunadilar. So'z boyligi ayniqsa, faol lug'at cheklangan, jumlalar kambag'al bo'lib, bog'lovchi, aniqlovchilar kam ishlatiladi. Nutqning grammatik tuzilishi buzilgan. Talaffuzda kamchiliklar ko'p uchraydi. Biroq oligofreniyaning ba'zi formalarida, ayniqsa gidrotsefaliya bilan bog'langan formalarida murakkab nutqiy shtamplar uchraydi, bu shtamplar taqlid qilishga moyillik va mexanik xotiraning yaxshiligi natijasida kelib chiqadi.

Oligofreniyada rivojlanmay qolishning asosiy xususiyatlaridan biri - bu psixik jarayonlarning inertligidir. Fikrlash qobiliyatining sur'ati sust bo'ladi. Bir ish faoliyatidan ikkinchisiga o'tish jarayoni qiyin kechadi. Ixtiyoriy diqqatning zaifligi xos bo'lib, bola tez chalg'iydi.

Xotiraning etishmovchiligi elab qolishda ham, shuningdek, qayta eslashda ham namoyon bo'ladi. Yangi narsani eslab qolish qiyin kechib, bir necha marta takrorlashdan so'ng ham mushkul bo'ladi.

Oligofreniyada sezish a'zolarining birlamchi jarohatlanishi bo'lmasa ham, idrok qilish to'liq bo'lmay, atrofdagi haqiqatni etarlicha aks ettira olmaydi.

Hissiy- irodaviy doiraning rivojlanmay qolishi ham oligofreniya uchun xosdir. Hislarning bir xilligi va differensiyaning kamligi, kechinmalarning yo'qligi bilan yoki kambag'alligi, intilishning sustligi kuzatiladi. Hissiy alar asosan bevosita ta'sirlagichlar asosida yuzaga keladi.

Hissiy doiraning rivojlanmay qolganligi psixik faollikning sustligi, atrofga bo'lgan qiziqishning etarlicha bo'lmasligi tashabbusning, mustaqillikning yo'q bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, affekt yoki moyillikni bosa olmaslik ko'pincha arzimagan sabablarga ko'ra impulsivlikni, affektiv alarni (jahlning birdaniga va tez chiqishi, tajovuzkorlikni) yuzaga keltiradi.

Motorikaning rivojlanmay qolishi harakat doirasidagi birlamchi buzilishlar bo'lmaganida ham kuzatiladi. Bir xildagi, qo'pol, ritmsiz, beo'xshov harakatlar bilan bir qatorda, maqsadsiz, umumiy harakatlanishdagi bezovtaliklar ham namoyon bo'ladi.

Aqli zaif bolalar faoliyat darajasi avvalo intellektual nuqson darajasi hamda hissiy-irodaviy doiraning xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Oligofreniyaning engil darajasida oddiy mehnat ko'nikmalariga egallab olishga qobiliyati mavjud bo'lad. Oligofreniyaning og'ir darajalarida faoliyat xaqida faqat shartli ravishda gapirish mumkin bo'lib, bu instinktiv ehtiyojlarni qondirishda namoyon bo'lishi mumkin.

Oligofreniyaning ikkinchi muhim belgilaridan biri- bu psixik rivojlanmaganlikning ***ierarxligidir.*** Bu oligofreniyaning murakkablashmaganligida har qanday teng sharoitda idrok, xotira, nutq, hissiy doira, motorikaning rivojlanmaganligi doimo tafakkurning etishmovchiligiga ko'ra kamroq namoyon bo'lishida kuzatiladi. Oligofreniyaning engil formalarida ko'pincha alohida psixik funksiyalarning saklanganligini haqida gapirish mumkin.Tafakkurning oliy formalarini rivojlanmaganligi esa oligofreniyaning asosiy belgisidir.

Bu qonuniyat har bir psixik funksiyaning tuzilishida ham aks etadi. Xullas, oligofreniyada idrokda, nutqda, xotirada, hissiy doirada va hatto motorikada doimo mavxumlashtirish va umumlashtirish funksiyasiga bog'liq daraja rivojlanmay qolgan, buzilgan bo'ladi.

Bu nutqning rivojlanmay qolganligida yaqqol ifodalanadi. Hatto grammatik qurilish saqlanib qolganida va etarlicha lug'at boyligi mavjud bo'lganida ham (masalan, peshona qismi oligofreniyasida) nutqda umumlashtirish funksiyasi rivojlanmay qolgan bo'ladi.

Passiv diqqat faol, maqsadga yo'naltirilgan diqqatga qaraganda ancha saqlangan bo'ladi.

Mexanik xotira yaxshi bo'lsada, ammo doimo mazmunli, ma'noli xotiraning rivojlanmaganligi kuzatiladi. Predmetlarning tashqi belgilar xotirada yaxshiroq saqlanib qoladi. Ichki bog'lanish orqali elementlari umumlashgan hodisalarni eslab qolish va esga tushirish ancha murakkab bo'ladi.

Tafakkurga qaraganda birmuncha saqlanib qolgan idrokda idrok etilayotganlarni analiz va sintez qilish bilan bog'langan komponent buzilgan bo'ladi.

Hissiy –irodaviy doirada ancha murakkab bo'lgan hislarning rivojlanmay qolganligi kuzatiladi. Hissiy alarning noadekvatligi

ko'pincha muhimini ikkilamchi, ko'shimchadan ajratishda namoyon bo'ladi. Bilish faoliyatida qiziquvchanlik va intilish bilan belgilanadigan hislar (perejivaniya, kechinmalar) shakllanmagan yoki juda zaif bo'ladi. Ammo, shu vaqtning o'zida aqli zaiflikning yaqqol ifodalangan formalarida ham oddiy ehtiyojlar, aniq vaziyat bilan bog'liq hislar saqlangan bo'ladi, masalan, biror shaxlarga bo'lgan hamdardlik, xafa bo'lish, uyalish kabilar.

Oligofreniya tizimi. Oligofreniya etiologiyasining turli-tumanligi, uning klinik formalarining polimorfizmi genetika psixiatriya, defektologiya, psixologiya nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda uning klassifikatsiyasi variantlarini yuzaga kelishiga olib kelgan. Aqli zaiflikning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra klassifikatsiyasi (tasnifi) engil, o'rta, og'ir va chuqur) bilan tanishib chiqdik. Psixologik yondoshishidan kelib chiqqan ko'pgina chet el klassifikatsiyasi intellektual rivojlanmaganlik darajasi aqliy qobiliyatining ma'lum koeffitsentiga (IQ) asoslangan. Nuqsonning kelib chiqishi, tuzilishi, intellektning saqlangan zvenolarining e'tiborga olinmasligi bu usuldan foydalanib tashxis qilish va o'qitishning mos usullarini tanlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

So'nggi vaqtlarda qator tabiiy fanlarning rivojlanishi natijasida oligofreniyaning etiologiyasi va patogenezi xaqidagi ma'lumotlar ko'payib, etiopatogenetik tamoyillar asosidagi oligofreniyaning klassifikatsiyasi katta o'rin egallab bormoqda. G.E.Suxareva klassifikatsiyasi eng keng tarqalgan hisoblanadi. U tomonidan oligofreniyaning qo'yidagi formalari ajratib ko'rsatilgan:

1. Endogen tabiatli oligofreniya: a) daun kasalligi; b) xaqiqiy mikrotsefaliya; v) moddalar almashinuvining tug'ma buzilishi asosidagi oligofreniya; g) teri va suyak buzilishlari bilan birgalikda kelgan oligofreniya.

2. Embrio va fetopatiyalar: a) ona homiladorlik vaqtida qizamiq bilan og'rishi natijasidagi oligofreniya; b) boshqa viruslar natijasida oligofreniya (gripp, parotit, yuqumli gepatit); v) toksoplazmoz va listerioz natijasidagi oligofreniya; g) tug'ma sifilis asosidagi oligofreniya; d) ona organizmida zaxarlovchi omillar va gormonal buzilishlar natijasidagi oligofreniya; d) chaqaloqning gemolitik kasalligi natijasidagi oligofreniya.

3. Tug‘ilishi hamda 2 yoshgacha davridagi turli ta’sir natijasidagi oligofreniya: a) tug‘ma jarohat va asfiksiya bilan bog‘liq oligofreniya; b) ilk rivojlanish davrida bosh miyaga jarohat olish natijasidagi oligofreniya; v) ilk rivojlanish davrida meningit, meningoensefalit, ensefalit bilan og‘rishi natijasidagi oligofreniya.

Demensiya

Organik demensiya. Organik demensiyaning etiologiyasi oligofreniyaning etiologiyasiga qisman o‘xshash bo‘ldi. Organik demensiyani keltirib chiqaruvchi sabablariga bosh miyaning yuqumli, travmatik, intoksikatsiyali jarohatlanishi, markaziy nerv tizimining degenerativ kasalliklari, moddalar almashinuvining buzilishlari kiradi. Demensiyaning patogenez iva klinik namoyon bo‘lishi xususiyatlarini aniqlaydigan tafovut salbiy ta’sir qilish vaqti bilan bog‘liqdir. Organik demensiya ko‘pincha 1,5-2 yoshdan so‘ng, ya’ni miya tuzilmalarining ko‘pgina qismi shakllanib bo‘lgan vaqtda bosh miyaning jarohatlanishidan kelib chiqadi. Shuning uchun patogen agent miya tuzilmalarining keyingi shakllanishiga to‘sqinlik qiladigan omil bo‘lib qolmasdan, balki ushbu tuzilma va unga bog‘liq funksiyalarni ham jaroxatlaydi.

Miyaning organik jarohatlanishining asoratlari natijasida (infeksiyalar, intoksikatsiyalar, travmalar) kelib chiqqan rezidul demensiyani hamda bosh miyada yuz berayotgan organik jarayonlarga (yallig‘lanish, degenerativ, atrofik, almashinuv nuqsonlari) ajratadilar. Bosh miyada yuz berayotgan organik jarayonlarga bog‘liq demensiyada kasallik uchayib psixik degaradatsiyaga olib keladi, avvalgi egallangan malaka va bilimlar yo‘qolib boradi.

Organik demensiyaning klinik-psixologik ko‘rinishida uni oligofreniyadan farqlaydigan bir qator xususiyatlar mavjud.

Bunda eng avvalo intellektual nuqsonning o‘zgacha tuzilishidir. Organik demensiya uchun oligofrenik aqli zaiflikning asosiy belgilarining, ya’ni totallik va rivojlanmay qolishning ierarxligi xos emasligidir. Demensiya uchun intellektual nuqsonlarning parsialligi xarakterlidir. Jarohatning lokalizatsiyasiga bog‘liq bir intellektual funksiyalar ko‘proq buzilishi, boshqalari esa nisbatan saqlanib qolishi mumkin. Masalan, travmatik demensiya uchun xotiraning buzilishi; nerv tizimining infeksiyali jarohatlanishiga bog‘liq demensiyaga diqqatning qo‘pol buzilishlari xosdir. Oligofreniya uchun xos bo‘lgan rivojlanmay qolishning ierarxligi shunda namoyon bo‘ladiki, bunda ko‘pincha tafakkur umumiy buzilishi emas, balki alohida intellektual funksiyalar, psixik jarayonlarning sur’ati nuqsonlari yaqqol ifodalangan bo‘ladi.

Masalan, ixtiyoriy xotira, faol diqqatning qo‘pol buzilishlari, doimo tashqi ta’sirlarga chalg‘ish ko‘p namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha oliy po‘stloq funkiyalarining lokal nuqsonlari: ko‘ruv – fazoviy sintezning buzilishlari, akustik agnoziya hodisalari kuzatiladi. Ko‘pincha nuqsnlarning lokal xarakterdaligi organik demensiyada va nutq buzilishlariga ham xosdir (motor, sensomotor alaliya va afaziya), oligofreniyada esa nutqning rivojlanmay qolishi asosan uning kambag‘alligi, so‘z boyligining kamligi, aggramatizmlar, tovushlar talaffuzining buzilishlarida namoyon bo‘ladi. Qoidaga binoan, demensiyada oligofreniyaga qaraganda neyrodinamik buzilishlar ko‘p namoyon bo‘ladi: bular tafakkurning keskin sekinligi, perseveratsiyaga moyillikda ko‘rinadi. Umumlashtirishning etarli darajada emasligi doimo kuzatiladi, ammo yuqorida ko‘rsatilgan alohda intellektual funksiyalar ko‘proq buzilgan bo‘ladi. Tafakkurning nuqsonlari faqatgina umulashtirish funksiyasining zaifligiga emas, balki fikrlarning maqsadga yo‘naltirilmaganligi, ketma-ket emasligi yoki istaklarning bo‘sh, passivligiga bog‘liqdir.

Agar oligofreniyada ensefalopatik (serebrastenik, epileptik, psixopat shakldagi, apatiko-dinamik) buzilishlar faqatgina murakkab formalarida kuzatilsa, demensiya uchun esa psixomotor qo‘zg‘oluvchanlik, impulsivlik, harakat stereotiplari bilan ifodalangan psixik zaiflashish yoki aksincha, apatiya, adinamiya xarakterlidir. Demensiyada oligofreniyaga qaraganda epilepsiya formasidagi buzilishlar: umumiy va lokal tutqanoqlar, chatak, talvasasiz paroksizmlar ko‘p kuzatiladi. Demensiyada namoyon bo‘lishida ancha og‘ir ko‘rinishdagi moyilliklar mavjud bo‘lgan psixopatlik kabi buzilishlar ham ko‘p uchraydi. Affektiv buzilishlar: harakatlar qo‘zg‘oluvchanligidagi eyforiya, ko‘p gapirish, gumonsirash bilan

disforiya, agressiyaga (tajovuzkorlikka), jahldorlikka moyilliklar kuzatiladi.

Organik demensiyadagi asosiy nuqsonlar – shaxsning o'zgarishi, tanqiydiylikning buzilishidir. Faqatgina ayrim bolalargina o'zlarining nuqsonlarini sezadilar. Ko'pchilik bolalar o'z nuqsonini anglamaydilar. Ular beg'am yoki apatik bo'ladilar, mashg'ulotlarga qiziqmaydilar, baxolarga befarq qaraydilar, kelajakka reja tuzmaydilar. O'z shaxsiga emas, balki atrofdagilarga ham tanqidiy bo'lmaslik xos bo'ladi. Ko'pincha bemor sodda real (haqiqiy) vaziyatni ham to'g'ri baholay olishga qodir bo'lmaydi.

Maqsadga intilish, tanqiydilikning yo'qligi, shuningdek yaqqol ifodalangan neyrodinamik va ensefalopatik buzilishlar faoliyat nuqsonlarini chuqurlashtiradi va ular intellektning pasayishiga qaraganda qo'pol xarakter kasb etadi. Ta'limdagi samaralilik, sharoit va o'z imkoniyatlariga mos harakat qilish qobiliyatlari hatto yaqqol ifodalangan intellektual rivojlanmay qolganlik kuzatilmaganda ham ancha pasaygan bo'ladi.

Jismoniy jihatdan bemorlarda oligofreniya uchun xos bo'lgan (agarda genetik jihatdan kuchayib ketayotgan kasalliklar bo'lmagan hollarda) gavda tuzilishi va kalla suyagining displaziyasi, turli sistemalar rivojlanishidagi buzilishlar kuzatilmaydi. Ko'p hollarda organik demensiyani tashxis qilishda anamnestik ma'lumotlar muhm ahamiyatga ega: bolaning dastlabki va o'z vaqtida to'g'ri rivojlanishi, serebral jarohatlanish simptomlari bilan birga keladigan miya travmasi yoki infeksisi mavjudligi, bolaning bilim, ko'nikma, malakalarining yo'qolib borishi, faollik va tashabbusning pasayishi va hk. Nevrologik va ensefalopatik buzilishlarning kechroq qo'shilishi ham demensiyaga xos bo'ladi.

Epileptik demensiya. Talvasali tutqanoq bilan birgalikda kelgan har qanday aqli qoloqlikni epileptik aqli zaiflik deb ko'rsatib bo'lmaydi. Epileptik demensiya (epileptik aqli zaiflik) faqatgina epileptik kasallikda – miyanini genetik, orttirilgan, ko'pincha esa tug'ma organik kasalligida kuzatilib, uning asosiy belgilari epileptik tutqanoqlar (changaklar, talvasalar); tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari (yoki aqli zaiflik tuzilishining o'ziga xosligida), hissiy-irodaviy doiraning o'ziga xos xususityatlarida namoyon bo'ladi.

Epileptik aqli zaiflik organik demensiyaning variantini hisoblanadi va shuning uchun ko'p jihatdan unga o'xshaydi, ammo bir qator belgilari bilan farqlanadi. Masalan, epileptik aqli zaiflikda intellektual nuqson tuzilishida tafakkurning (fikrlashning) qiyinligi ustun turadi. Epileptik demensiya uchun nutqning, o'qish, yozish va hisoblash va esga tushirish jarayonlarining keskin sekinlashishi xosdir. Epileptik demensiyada psixik ko'chishning sekinligi, sustligi, haddan tashqari detallashtirish va pedantlik, asosiylarini ajrata olmay e'tiborga molik bo'lmaganlarida o'ralashib qolishga moyillik xarakterlidir. Hissiy-irodaviy doiradagi o'zgarishlar ham diqqatni o'ziga tortadi. Kayfiyatning umumiy fonida xo'mrayganlik, "qovoqni soliqlik" ustun bo'ladi. Kayfiyatning sababsiz o'zgarishlari disforiya xarakteriga ega bo'ladi. G'azablanish, achchig'lanish kabi affektlari kuzatiladi.

Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, epilepsiya- bu bosh miyada uning bir yoki bir necha funksiyalariga ,ya'ni motor, sensor, kongnitiv, nutqiy, xulq, emotsional va psixologik funksiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi retsidivlashgan anomal elektr zaryadlariing yuzaga kelishiidir. Epilepsiyaning tarqalishi hayot davomida 2% dan 3 %gachadir. Aqli zaif shaxslar orasida epilepsiya ko'proq kuzatiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aqli zaif odamlar (IQ <70) orasida butun hayoti davomida epilepsiya 13%dan to 24% tarqalganligi aniqlangan (Deb, 1997a; Forsgren, Edvinsson, Blomquist, Heijbel, & Sidenvall, 1990; Goulden, Shinnar, Koller, Katz, & Richardson, 1991; McGrother, Hauck, Bhaumik, Thorp, & Taub, 1996; Rutter, Tizard, Yule, Graham, & Whitmore, 1976). Ammo, epilepsiyaning tarqalishi odamning yoshi, aqli zaiflikning darajasi va aqli zaiflikning sabablari, shuningdek, aqli zaiflik bilan bog'liq bo'lgan nevrologik holatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Aqli zaif odamlar orasida epilepsiya aqli zaiflik darajasining og'irlashib borishi bilan ko'payadi. Shteffenburg, Xagberg i HOUMITRO DEB • Birmingem universiteti psixiatriya bo'limida Kyllerman (1996) aqli zaiflikka ega bo'lgan 378 nafar 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan o'rta darajadagi aqli zaif bemorlarning 15%ida, og'ir darajadagi aqli zaiflarning 45% epilepsiya kuzatilganligini ko'rsatgan.

Shuningdek, Shepherd va Hosking (1989) 7% o'rta darajadagi aqli zaiflikka ega bo'lgan bolalarning 7% epilepsiya kuzatilganligini ko'rsatgan. Chuqur darajadagi aqli zaiflikda (IQ <20) epilepsiya 50%dan 80% gacha kuzatilashi mumkin (Michelucci et al., 1989) i 82% (Suzuki, Aihara, & Sugai, 1991).

Epilepsiya aqli zaiflikning kelib chiqish sabalariga ham bog'liq bo'ladi. Xromosomalarning buzilishi natijasida yuzaga kelgan aqli zaiflikdagi Daun sindromida epilepsiya bemorlarning 5-10% kuzatiladi (Stafstorm, 1999).[1]

Nasliy xarakterdagi epileptik kasalliklarda bipolyar affektlar, ya'ni kek(gina) saqlash, o'ch olishlar, xiralik, shilqimlik bilan yoqish, ko'nglini olish, ekzaltatsiyaga moyillik bilan birgalikda kelishi kuzatiladi. Tez-tez va keng yoyilgan epileptik tutqanoqlar intellektual rivojlanishga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shizofreniyaning klinik-psixologik tuzilishda turli asosiy (salbiy) va qo'shimcha (produktiv) belgilar ajratiladi.

Salbiy (negativ) belgilarga quyidagilar kiritiladi:

1) autizm – haqiqat (reallik) bilan aloqani zaiflashuvi, tashqi dunyodan ajralib olish, odamovilik, atrofdagilar bilan aloqa qilish ehtiyojining yo'qligi, fantaziyalar, autik o'yinlar va qiziqishlar dunyosini afzal ko'rish;

2) hissiy o'zgarishlar – hissiy alarning mos emasligi, yaqinlari bilan hissiy bog'lanishning zaiflashuvi, hslar va kechinmalarning yorqinligi va ravshanligi pasayadi;

3) tafakkurnini (fikrlashning) buzilishlari – avval uning paradoksalligi (sog'lom fikrga qarama-qarshi bo'lgan o'ziga xos fikrlash), simvolliligi keyinchalik mulohazalarning zaiflashuviga olib keladigan rizonerlikka moyillik, intellektual samarasizlik.

Ushbu asosiy belgilarning ifodalanish darajasi shizofrenik nuqsonning asosiy og'irligini belgilab (aniqlab) beradi.

Shizofreniyadagi affektiv, gallyusinator, alahlash, nevrozga o'xshash, harakatli (katatonik) sindromlar, ongning buzilishlari

[1] John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. New York, Springer Science+Business Media, LLC, 2007, 81 бет

kasallikni kechishining o'tkirligini aks ettiradi.

2.5. Aqli zaiflikni o'xshash holatlardan farqlash

Rivojlanishida muammolari bo'lgan, rivojlanishi orqada qolgan bolalarni o'rganish ular orasida aqli zaiflikka xos bo'lgan ba'zi tomonlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday bolalar aqli zaiflarga o'xshasa ham, haqiqatan bunday bo'lmaydi.

Aqli zaiflikning mohiyatini tushunish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim bo'lib ushbu holatni to'g'ri tashxis qilishga yordam beradi va yordamchi maktablarni komplektlashdagi xatolarni oldini oladi. «Aqli zaiflik» oddiygina qobiliyatlarni pasayishi, aqlning kamligi emas, bu shaxsning barcha tomonlarining sifatini o'zgarishidir. Bolada aqli zaiflikda asosan intellekt buziladi, shu bilan birga hssiy, irodaviy doirasida, xulqida sezilarli nuqsonlar, buzilishlar kuzatiladi. Pedagogikaning asosiy masalasi aqli zaiflikni u bilan ba'zi umumiy tomonlari bo'lgan, ammo undan keskin farq qiladigan holatlardan ajratishdir.

Aqli zaiflik bilan chalkashtirilib yuboriladigan holatlarning barchasida biz aqli zaiflik xarakterlanadigan o'ziga xos tomonlarni hammasini topa olmaymiz. Aqli zaiflikka o'xshash holatlar ko'pincha markaziy nerv sistemasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bu o'zgarishlar alohida nerv-psixik sistemasining rivojlanishi va faoliyatiga, shuningdek bir butun organizmning holati va rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aqli zaiflikka o'xshashlikka olib keladigan holatlarning sababi turlichadir. Markaziy nerv sistemasining buzilishlarining og'irligi va lokalizatsiyasi bo'yicha ham turlicha bo'lishi mumkin. Sinchiklab tahlil qilinganda albatta intellektning buzilishi chuqurligining yo'qligini, yoki ushbu nuqsonning turg'un emasligini yoki markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanmaganligi aniqlanadi.

Shunday belgilarning mavjudligi yoki mavjud emasligi aqli zaiflikni diagnostika qilishda mezon bo'lib xizmat qilishi lozim. Yordamchi maktablarni komplektlashda aqli zaiflikni unga o'xshash holatlardan ajratish bilan baholangan xuddi shu masalalar eng ko'p

qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Maktab yoshidagi bolaning intellekti me'yordaligini shubhaga olishning sababi bo'lib uning ta'lim jarayonida o'zlashtirmasligi xizmat qiladi.

O'zlashtirmaslikni aqli zaiflik bilan o'xshatmoq, chalkashtirish ko'pol nazariy va amaliy xatodir.

O'zlashtirmaslikning eng ko'p tarqalgan sababi bolaning maktab ta'limiga tayyor emasligi, bolada o'quv faoliyati zaminlari va malakalarining shakllanmaganligidir. Bolalar talablarga bo'ysunishga o'rganmaganlar, ishni oxiriga etkazishni, topshiriqlarni bajarishda diqqat qilishni bilmaydilar, ishda maqsadga yo'nala olmaydilar. O'zlashtirmasliklarning sabablariga shuningdek, maktabda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etilishdagi turli kamchiliklar (didaktik tamoyillarning buzilishi, darsning metodik jihatdan mukammal emasligi, o'qituvchining pedagogik malakasini pastligi, bolaning h.k.lar), bolaning oiladagi yashash sharoitining yaxshi emasligi (ota-onalar tomonidan bolaning o'qishini nazorat qilinmasligi, yrdam berilmasligi, kun tartibiga rioya qilmaslik, oiladagi mojaroli vaxiyat) ham kiradi.

O'z vaqtida va to'g'ri, malakali yordam ko'rsatilganda bu bolalar asta-sekin o'z tengdoshlariga etib oladilar va o'zlashtiruvchi o'quvchilar orasiga qo'ishladilar. Ammo, ba'zan bunday bolalar yordamchi maktabga yuboriladi.

Bolalarda aqli zaiflikka o'xshash holatlar ko'pincha markaziy nerv tizimidagi o'zgarishlar natijasida kelib chiqadi. Bunday o'zgarishlar bolalarning alohda nerv-psixik tizimining rivojlanishi va faoliyatiga, shuningdek butun organizmning holati va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aqli zaiflikka o'xshash holatlarni keltirib chiqaradigan sabablar turlicha bo'lishi mumkin.

Aqli zaiflikka o'xshash ba'zi holatlarni ko'rib chiqamiz.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar. Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar o'qishning birinchi yillaridayoq o'qishdan orqada qolishadi.

Kelib chiqishi serebral, konstitutsional, somatogen, psixogen) va bola tanasiga ta'sir etish vaqtiga qarab kamchiliklarni turli ko'rinishlari mavjud.

Bolaning xromosomalari buzilishlarida, onaning qornida bo'lgan paytda turli sabablar natijasida, tug'ilish vaqtidagi jarohat oqibatida kelib chiqqan serebral zaifliklar hammasidan ko'p uchraydi va uni aqliy zaiflikdan ajratish qiyin kechadi.

V.I.Lubovskiy, K.S.Lebedinskiy, M.S.Pevzner, N.A.Sipina va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolaning psixik rivojlanishi sustligining tarkibida ayrim psixik jarayonlar shikast ko'rgan yoki zaiflashganligi, psixik funksiyalar shakllanishi bir me'yorda kechmaganligi o'z o'rniga ega. Oligofreniyaga ham jarohatlanishning totalligi va ierarxligi xosdir.

Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar psixik jarayoni va ta'limdagi imkoniyatlarini o'rganishda ularning bilim olish, shaxsiy, ta'sirchan-idrokiy sohalarda va o'zini tutishda bir qator maxsus o'ziga xos xususiyatlar aniqlangan: tez charchab qolishi (natijasiish qobiliyati pasayadi), hissiy-irodaviy sohalarning etilmaganligi, tasavvurlari cheklangan, lug'ati kambag'al, aqliy faoliyati malakalarining shakllanmaganligi, shuningdek, o'yin faoliyatining to'liq shakllanmaganligi aniqlangan. O'yin faoliyati ham to'liq rivojlanmagan. Idrok qilish imkoni sekinlashgan. Fikrlashda so'z-mantiqiy amaliyotlar etarli darajada emas. Ko'rgazma-harakatli topshiriqlarni bajarishda ish sifati ancha yaxshilanadi., bajarish osonlashadi. Psixologo-pedagogik tekshirish davomida tafakkur rivojlanishini baholash uchun bolaning so'z-mantiqva ko'rgazma-harakatli topshiriqlarni bajarish natijalarini solishtirish kerak.

Bunday bolalarda xotiraning barcha ko'rinshlari zaif, eslab qolish uchun yordamchi vositalardan foydalanish ko'nikmasi mavjud emas. Sensor ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi, diqqati tarqoq.

Bundan tashqari, ayniqsa ta'lim jarayonida ifoda topuvchi o'zini nazorat qilish ko'nikmasi pastligi ta'kidlangan. Maktabga borish boshlangandan so'ng bunday bolalarda, oddatda, asosiy fikrlash qobiliyatlari shakllanmagan – taxlil, sintez, o'xshatish, umumlashtirish, ular misol mazmunini tushunmaydilar, uning shartlariga muvofiq ish tutmaydilar, echimini topish yo'llarini rejalashtirmaydilar. Lekin aqli zaif bolalardan farqliroq ularni o'qitish onsonroq, ular yordamdan yaxshiroq foydalanadi va ko'rsatib berilgan echim usu-

lini shunga o‘xshash misollarni echishda ishlatadi. Buni hisobga olib, differensial tashxis davomida bolalarni tekshirish eksperiment tariqasida o‘tkazilishi kerak.

O‘qish, yozish, sanashlarni tekshirish davomida psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalarda ko‘pincha aqli zaif bolalarda uchraydigan xatolar aniqlansa ham, ammo sifat jihatdan farqlanadi. Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar o‘qish texnikasi sust bo‘lsada, ular o‘qib chiqqanlarini tushunishga harakat qilib, kerak bo‘lsada qayta o‘qib chiqadilar. Aqli zaif bolalarda tushunishga xoxish yo‘q. Shuning uchun ularning hikoyasi mantiqsiz va ketma-ketliksiz bo‘lishi mumkin. Ularning xusni-xatlarida yozuv ko‘nikmalarini egalay olmaslik, palapartishlilik va h.q.lar kuzatiladi, bu mutaxassislarni fikricha fazoviy idrok, motorikani rivojlanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda so‘zlarni tovushli analiz qilishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Aqli zaif bolalarda esa ushbu nuqsonlar qo‘polroq ifodalangan.

Matematik bilimlarni tekshirishda sonni tuzilishini o‘rganishlarida qiyinchiliklar kuzatiladi, o‘nlikdan o‘tib hisoblash, vazifa savollarini bilvosita bajarish va h.q., lekin avval aytilganidek, aqli zaif bolalarga nisbatan ularga yordam berish samarali hisoblanadi.

Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalarni ba’zi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lganligi sababali ular tibbiy –psixologo-pedagogik komissiyaga yo‘naltiriladi.

Aqli zaiflik bilan o‘xshash tomonlari – bu analizatorlar faoliyatidagi nuqsonlardir, bilish faoliyatida qiyinchiliklar bolalarning maktab sharoitida ta’lim olishida o‘zlashtira olmasliklari yuzaga keltiradi. Shuning uchun ushbu nuqsonlarni aqli zaiflardan ajratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Psixik va jismoniy rivojlanishning vaqtinchalik sustlashishi bola organizmiga turli salbiy zararlar ta’siri natijasida yuzaga keladi. Ularga, masalan, xromosomalarning buzilishlari, homilalik davrida markaziy nerv tizimining marohatlanishlari, endokrin etishmovchiliklar, asfiksiya yoki tug‘ilishdagi engil jarohatlar, nurlanish va h.k.lar kiradi.

Ko‘rsatib o‘tilgan sabablar umumiy holsizlanishga, organizmning zaiflashuvi va rivojlanish sur’atining bo‘zilishga olib keladi.

Bunday bolalarda jismoniy va psixik rivojlanishning sustlashishi kuzatiladi. Infantil bolalar odatda bo‘yi past, gavda tuzilishi to‘g‘ri bo‘ladilar, bolalarning ko‘pchiligida jinsiy tizimning rivojlanmay qolishi jinsiy etilishning orqada qolishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning kech rivojlanishiga olib keladi.

Infantil bolalar tengdoshlaridan psixik rivojlanishda orqada qoladilar. Qiziqishlari doirasi o‘yin faoliyat bilan chegaralanadi. O‘yin jarayonida ular o‘ziga-o‘zi xizmat qilish malikalarini o‘zlashtiradilar, ammo undan kam foydalanadilar. Mustaqil o‘yin mazmunli, qiziqarli bo‘lib ko‘p vaqt davom etishi mumkin.

Infantil bolalarning lug‘at zahrasi boy; ular hikoya, ertak va h.k.larning ma’nosini, mazmunini tushuna oladilar. Yordamdan yaxshi foydalana oladilar. Suhbat jarayonida va topishiriqlarni bajarishda avvalgi tajribalarini qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Infantil bolalar uchun xulqning murakkab shakllarining rivojlanmay qolganligi xosdir. Ularda faoliyatning barcha turlarining faolligi funksional pasaygan bo‘ladi.

Maktabda o‘qishda bunday bolalar katta qiyinchiliklarga duch keladilar, zarur vaqtda faol ravishda ishlay olmaydilar, tez toliqib, chalg‘aydilar. Shuning uchun ular maktabdagi malaka va bilimlarni qiyinchilik bilan o‘zlashtiradilar.

Aqli zaiflardan farqli infantil bolalar faol faoliyat davrida diqqatlarini jamlay oladilar (odatda qisqa vaqt oralig‘ida) va aqliy imkoniyatlarini namoyon etadilar. Ammo psixik faoliyatdagi buzilishlar natijasida o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar orasiga qo‘shilib qoladilar.

Maxsus davolish (umummustahkamlovchi terapiya, simptomatik davolov, suv muolajalari, gimnastika va boshqalar), bola imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda o‘qitish (engillashtirilgan kun ratibi, yakka holdagi pedagogik yordam va h.k.), uyda yaxshi sharoit yaratish bunday bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Astenik holatdagi bolalar. Bolalarda astenik holat somatik va yuqumli kasalliklar, jarohatlanishlardan so‘ng yuzaga keladi.

Astenik holat uchun kasallikning xarakteri va bola organizmining himoya xususiyatlariga bog‘liq markaziy nerv tizimining salbiy ta’sirlarga bo‘lgan turli alari xosdir. Salbiy ta’sirlarga a qisqa vaqt

davom etishi mumkin. Alohida hollarda uzoqroq va og‘ir davom etadigan nerv-psixik zaiflashuv ko‘rinishidagi, qon va limfa aylanishidagi o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi.

Kasallikdan so‘ng markaziy nerv tizimining engil jarohatlanish hollarida bolalar ta’lim olishda o‘z tengdoshlaridan vaqtinchalik orqada qoladilar. Og‘irroq hollarda esa ularni sinfda qoldiriladi, ba’zan esa yordamchi maktabga o‘tkazish masalasi ko‘riladi.

Astenik bolalarda tez nerv darmonsizligi, faol diqqatning zaifligi va tarqoqligi, ish kuni davomida faoliyat samaraliligining bir xil bo‘lmasligi, ish qobiliyati, xotiraning pasayishi (sodda masala, misollarning va h.k.larning shartlarini eslab qololmaydilar) kuzatiladi. Yozuvda harflarni tashlab ketish, so‘zni oxirigicha yozmaslik, harflarni almashtirish va boshqa xatolar kuzatiladi. Toliqish holatda xatolar soni ko‘payadi, xarg‘inlik kuzatilib mashg‘ulotlarga qiziqish yo‘qoladi.

Astenik bolalarda ko‘pincha qizarib ketish, oqarib ketish, ko‘p terlash (ayniqsa kaftlarning) kabi vegetativ alar, uyqu va shitahaning buzilishi, bosh og‘rig‘i va boshqa o‘zgarishlar kuzatiladi.

Astenik bolalarda yorug‘lik va tovush ta’sirlagichlarga sezgirlik kuchaygan bo‘ladi. Bu bolalarda kayfiyatning o‘zgarib turishi, yig‘loqlik va arazchanlik ko‘zatiladi. Ba’zilariga beriluvchanlik, apatiya xos bo‘ladi.

Astenik bolalar oligofreniyaga qaraganda ancha yuqori aqliy faoliyatga qobiliyatli bo‘ladilar.

Ammo differensial tashxis qilish ko‘pincha qiyin bo‘ladi. Shuning uchun astenik bolaning haqiqiy imkoniyatlarini aniqlashga ancha ko‘p vaqt sarflanadi.

Bunday bolalarni somatik zaiflashgan bolalar uchun maxsus sanatoriy (oromgox) larga yuborish ma’qul. Bundan tashqari, ambulator sharoitda kompleks davolashni (qat’iy o‘rnatilgan kun tartibi, sport bilan shug‘ullanish, suv muolamalari, badantarbiya, fizioterapiya va dori-darmon bilan davolash) o‘tkazish mumkin.

Qulay, avaylash sharoitidagi ta’limda va zarur bo‘lgan davolov ishlari borilganda astenik bolalar asta-sekin chiniqib boradilar va jismoniy jihatdan rivojlanadilar. Miyaning funksional faolligini oshirishga yordam beradigan sharoit yaratilganda qisman kompen-

satsiya yuzaga keladi, natijada bola umumta’lim maktabida o‘qishi mumkin.

Psixopat xulqidagi bolalar. Psixopatiyada asosiy simptokompleksi hali aniqlanmagan, ammo ko‘pgina mualliflar uni hissiy-irodaviy doiraning rivojlanishidagi nuqsonlar (buzilishlarga) bilan bog‘laydilar. Bunday buzilishlar bolaning shaxsi, xulqi va xarakterida aks etadi. Xulq buzilishlari bolalarni ta’lim olishini qiyinlashtiradi, ko‘pincha bolalar umumta’lim maktablarida o‘zlashtirmovchi bolalar safiga qo‘shilib qoladilar.

Psixopatiyalarning sabablari turlicha bo‘lib, ularga genetik (nasliy) o‘tish, miya infeksiyalari, intoksikatsiyalar (zaharlanishlar), og‘ir tug‘ma jarohatlar va h.k.lar kiradi. Psixopatiyani ijtimoiy muhtdagi og‘ir sharoit ham keltirib chiqarishi mumkin.

Psixopatiyaga o‘xshash xulqning klinik ko‘rinishlari ham xilma-xil. Bunday bolalar uchun qo‘zg‘oluvchanlik, psixomotor behalovatlik xosdir. Ular ko‘pincha arzimagan sabab bilan asabiylashib, qizishib ketadilar, ba’zan tajovuzkor bo‘ladilar. Kayfiyatlar tez o‘zgarib turadi. Ish qobiliyatlari past bo‘ladi, ularning diqqati tarqoq bo‘lib, topshiriqlarini bajarishdagi qiyinchiliklarni enga olmaydilar. Boshlab qo‘yilgan ishni ko‘pincha tashlab quydilar, tez toliqadilar. Bunday bolalar orasida qo‘rqoq, o‘zini himoya qila olmaydigan bolalar ham uchrab turadi.

Psixopat xulqiga ega bo‘lgan bolalarni maxsus psixonevrologik sanatoriylarga yuborish maqsadga muvofiqdir. Ustaxonalarda mehnat bilan davolash bolalarni tinchlantiradi, ularning aqliy faoliyatini tashkil etadi.

Xulqning patologik ko‘rinishlari bilan birgalikda aqli zaiflik ham aniqlangan holatlarda bolalarni yordamchi maktabga yuborish zarur.

Psixopat holat zo‘raygan, yaqqol ifodalangan mojaroli vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda bolalarni kasalxonalarga yuborish lozim.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar. Bolalarda eshitin nuqsonlari turli darajada bo‘ladi. Eshittishning u yoki bu darajada bo‘zilishi bolaning aqliy faoliyatiga, nutqining shakllanishiga salbiy ta’sir etadi.

Eshitish nuqsonlarini keltirib chiqaradigan sabablar turlichadir. Ularga nasliy omillarni, homilalik va tug‘ilgandan so‘ng ilk rivod-

davom etishi mumkin. Alohida hollarda uzoqroq va og'ir davom etadigan nerv-psixik zaiflashuv ko'rinishidagi, qon va limfa aylanishidagi o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Kasallikdan so'ng markaziy nerv tizimining engil jarohatlanish hollarida bolalar ta'lim olishda o'z tengdoshlaridan vaqtinchalik orqada qoladilar. Og'irroq hollarda esa ularni sinfda qoldiriladi, ba'zan esa yordamchi maktabga o'tkazish masalasi ko'riladi.

Astenik bolalarda tez nerv darmonsizligi, faol diqqatning zaifligi va tarqoqligi, ish kuni davomida faoliyat samaraliligining bir xil bo'lmasligi, ish qobiliyati, xotiraning pasayishi (sodda masala, misollarning va h.k.larning shartlarini eslab qololmaydilar) kuzatiladi. Yozuvda harflarni tashlab ketish, so'zni oxirigicha yozmaslik, harflarni almashtirish va boshqa xatolar kuzatiladi. Toliqish holatda xatolar soni ko'payadi, xarg'inlik kuzatilib mashg'ulotlarga qiziqish yo'qoladi.

Astenik bolalarda ko'pincha qizarib ketish, oqarib ketish, ko'p terlash (ayniqsa kaftlarning) kabi vegetativ alar, uyqu va shitahaning buzilishi, bosh og'rig'i va boshqa o'zgarishlar kuzatiladi.

Astenik bolalarda yorug'lik va tovush ta'sirlagichlarga sezgirlik kuchaygan bo'ladi. Bu bolalarda kayfiyatning o'zgarib turishi, yig'loqlik va arazchanlik ko'zatiladi. Ba'zilariga beriluvchanlik, apatiya xos bo'ladi.

Astenik bolalar oligofreniyaga qaraganda ancha yuqori aqliy faoliyatga qobiliyatli bo'ladilar.

Ammo differensial tashxis qilish ko'pincha qiyin bo'ladi. Shuning uchun astenik bolaning haqiqiy imkoniyatlarini aniqlashga ancha ko'p vaqt sarflanadi.

Bunday bolalarni somatik zaiflashgan bolalar uchun maxsus sanatoriy (oromgox) larga yuborish ma'qul. Bundan tashqari, ambulator sharoitda kompleks davolashni (qat'iy o'rnatilgan kun tartibi, sport bilan shug'ullanish, suv muolamalari, badantarbiya, fizioterapiya va dori-darmon bilan davolash) o'tkazish mumkin.

Qulay, avaylash sharoitidagi ta'limda va zarur bo'lgan davolov ishlari borilganda astenik bolalar asta-sekin chiniqib boradilar va jismoniy jihatdan rivojlanadilar. Miyaning funksional faolligini oshirishga yordam beradigan sharoit yaratilganda qisman kompen-

satsiya yuzaga keladi, natijada bola umumta'lim maktabida o'qishi mumkin.

Psixopat xulqidagi bolalar. Psixopatiyada asosiy simptokompleksi hali aniqlanmagan, ammo ko'pgina mualliflar uni hissiy-irodaviy doiraning rivojlanishidagi nuqsonlar (buzilishlarga) bilan bog'laydilar. Bunday buzilishlar bolaning shaxsi, xulqi va xarakterida aks etadi. Xulq buzilishlari bolalarni ta'lim olishini qiyinlashtiradi, ko'pincha bolalar umumta'lim maktablarida o'zlashtirmovchi bolalar safiga qo'shilib qoladilar.

Psixopatiyalarning sabablari turlicha bo'lib, ularga genetik (nasliy) o'tish, miya infeksiyalari, intoksikatsiyalar (zaharlanishlar), og'ir tug'ma jarohatlar va h.k.lar kiradi. Psixopatiyani ijtimoiy muhtdagi og'ir sharoit ham keltirib chiqarishi mumkin.

Psixopatiyaga o'xshash xulqning klinik ko'rinishlari ham xilma-xil. Bunday bolalar uchun qo'zg'oluvchanlik, psixomotor behalovatlik xosdir. Ular ko'pincha arzimagan sabab bilan asabiylashib, qizishib ketadilar, ba'zan tajovuzkor bo'ladilar. Kayfiyatlar tez o'zgarib turadi. Ish qobiliyatlari past bo'ladi, ularning diqqati tarqoq bo'lib, topshiriqlarini bajarishdagi qiyinchiliklarni enga olmaydilar. Boshlab qo'yilgan ishni ko'pincha tashlab quydilar, tez toliqadilar. Bunday bolalar orasida qo'rqoq, o'zini himoya qila olmaydigan bolalar ham uchrab turadi.

Psixopat xulqiga ega bo'lgan bolalarni maxsus psixonevrologik sanatoriylarga yuborish maqsadga muvofiqdir. Ustaxonalarda mehnat bilan davolash bolalarni tinchlantiradi, ularning aqliy faoliyatini tashkil etadi.

Xulqning patologik ko'rinishlari bilan birgalikda aqli zaiflik ham aniqlangan holatlarda bolalarni yordamchi maktabga yuborish zarur.

Psixopat holat zo'raygan, yaqqol ifodalangan mojaroli vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda bolalarni kasalxonalarga yuborish lozim.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar. Bolalarda eshitin nuqsonlari turli darajada bo'ladi. Eshittishning u yoki bu darajada bo'zilishi bolaning aqliy faoliyatiga, nutqining shakllanishiga salbiy ta'sir etadi.

Eshitish nuqsonlarini keltirib chiqaradigan sabablar turlichadir. Ularga nasliy omillarni, homilalik va tug'ilgandan so'ng ilk rivod-

lanish davridagi salbiy ta'sirlar kiradi. Eshitishning erta buzilishiga bog'liq nutq funksiyasining shakllanishi ham buziladi. Bu bolaning psixik rivojlanishini chegaralaydi, keyinchalik umumta'lim maktablarida ta'lim olishiga to'sqinlik qiladi.

Aqli zaif bolalarni intellekti me'yoridagi kar bolalardan ajratish oson. Aqli zaif bolalarni zaif eshituvchilardan ajratish murakkabroq.

Zaif eshituvchi bolalar so'z boyligi va tushunchalari kam, nutqi aggramatik bo'ladi. Ammo ular yangi so'zlarni, tushunchalarni tez idroq etib va ularni nutqda qo'llay oladilar. Ularning nutqi o'ziga xos bo'ladi. Ko'pincha tovushlarni almashtirish (ayniqsa jarangli va jarangsiz tovushlarni va h.k.) kuzatiladi. Nutqning tushunarsizligi asosan tovushlarni buzib talaffuz etish, qo'shimchalarni tashlab ketishga bog'liqdir.

Og'zaki nutq nuqsonlari yozma nutqda ham aks etadi (so'zlarni oxirigacha yozmaslik, harflarni tashlab ketish, gaplar tuzilishni buzilishi). Umumta'lim maktablari sharoitida bunday bolalar o'zlashtirmovchi o'quvchilar safiga qo'shilib qoladilar.

Maxsus mashg'ulotlar o'tilmagan zaif eshituvchi bolalar oddiy holatlarda ojiz, nochor bo'lib qoladilar, aqli zaif bolalarga o'xshaydilar. Ammo zaif eshituvchi bolaga yaxshi eshitish talab etilmaydigan mantiqiy xarakterdagi topshiriqlar berilganda (klassifikatsiya, rasmlarning sabab-oqibat bog'lanishlarini e'tiborga olib taxlash) ular topshiriqni to'g'ri va tez bajara oladilar.

Analizatorlaridagi nuqsonlar natijasida kelib chiqqan holatni aqli zaiflikdan ajratishda rivojlanishdan orqada qolishda nima asosiy va birlamchi nuqson nimaligini aniqlash lozim: aqli zaiflik asosiy va birlamchi bo'lib eshitishning, ko'rishning pasayishi bilan birgalikda kelganli yoki rivojlanishning orqada qolishi analizatorlar buzilishi natijasida yuzaga keldimi? Shunga bog'liq ravishda bola ta'lim olishi lozim bo'lgan maktab turi haqidagi masala hal qilinadi.

Nutqi rivojlanmagan qolgan bolalar. Nutqning rivojlanmay qolishi uning sensor yoki motor tomonlarining buzilishlaridan kelib chiqadi. Ko'pincha ikkala funksiya ham buzilgan bo'ladi.

Nutqning rivojlanmay qolishi sabablariga homilalik davridagi turli salbiy ta'sirlar, tug'ilish jarohatlari va asfiksiya bola tug'ilganidan so'ng nutq markazlarining jarohatlanishlari kiradi.

Motor alaliyada faol lug'at mustaqil ravishda shakllanmaydi yoki juda sekin shakllanadi. Alalik bolalar faol nutqdan foydalanish zarur bo'lmagan topshiriqlarni bajonidil bajaradilar. Bunday bolalar rivojlanishdan sezilarli, ravishda orqada qoladilar. Ularning tushunchalari va tasavvurlari chegaralangan bo'ladi.

Ba'zi bolalarda aqliy rivojlanishning sustlashishi yaqqol ifodalangan nutq nuqsonlari bilan birgalikda keladi.

Logopedik mashg'ulotlar natijasida alalik bolalarning nutqi rivojlana boshlaydi. Ammo lug'ati, ayniqsa faol lug'at sekinlik bilan ko'payadi. Nutqda aggramatizmlar kuzatila boshlaydi. Keyinchalik ta'limda muammolar, qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Nutqida sensor buzilishlar ustun bo'lgan bolalarni tashxis qilish juda murakkab. Bunday bolalar nutqni tushunmaydilar. Natijada nutqiy aloqa qiyinlashadi bu esa o'z navbatida bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Mutaxassis bilan uzoq vaqt davom etgan mashg'ulotlardan so'ng bolalarda nutqga a, keyin esa mustaqil talaffuz qilishga intilishlar paydo bo'ladi. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar nutqi alohida tovush biriqmalaridan, ba'zan qisqa so'zlardan iborat bo'ladi. Lug'at sekinlik bilan kengayadi.

Tashxis qilishdagi qiyinchiliklar xarakteri sababli ba'zan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar aqli zaif bolalarga almashtirib yuboriladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda ko'rgazmali qurollar maksimal darajada foydalanish juda muhim. Ularga bajarishda boladan faol nutq talab etilmaydigan topshiriqlarni tavsiya etish lozim. Shu tarzda bolada bilim, tasavvurlar, o'yinni mustaqil tashkil etish va h.k.lar aniqlanadi. Motor alalik bolalarda nutq buzilishlarini tashxis etish katta qiyinchilik tug'dirmaydi.

Alohida hollarda nutqning rivojlanmay qolishi aqliy faoliyatning rivojlanmaganligi bilan birgalikda kelishi mumkin. Bu holatni bolani maxsus nutq maktablarida uzoq vaqt olib borilgan ish natijasida aniqlash mumkin.

Pedagogik qarovsiz bolalar. O'z vaqtida va malakali yordam bo'lmagan va salbiy, nomuvofiq muhit hollarida holatlarda pedagogik qarovsizlik yuzaga keladi. Pedagogik qarovsizlik mutlaqo sog'lom bolalarda ham yuzaga kelishi mumkin.

Pedagogik qarovsizlikning sababi salbiy biologik va ijtimoiy omillardir. Salbiy ijtimoiy omillarga masalan, oiladagi tez-tez bo‘lib turadigan mojaro va janjallar, bolaga bir-biriga zid bo‘lgan talablarning qo‘yilishi, kun tartibiga rioya qilmaslik, qarovsizlik, ko‘chaning ta’siri va boshqalar kiradi. Bularning barchasi bolaning maktabdagi ta’limiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zan maktabdagi nomuvofiq sharoit ham (o‘qituvchilarning tez-tez o‘zgarib turishi, qoloq o‘quvchiga o‘qituvchining noto‘g‘ri munosabati) muammoni murakkablashtiradi.

Bunday bolalar darslarni ko‘p qoldiradilar, uyda topshiriqlarni bajarmaydilar. Ular beriluvchan bo‘lib o‘quv jarayoniga aloqador bo‘lmagan barcha ishga qo‘shiladilar. O‘z hohish va istaklarini chegaralay olmaydilar, vaqtdan to‘g‘ri foydalanmadilar. Ularda javobgarlik hissi va qat’iylik bo‘lmaydi. Natijada bunday bolalar maktabda zarur bo‘lgan bilim, ko‘niqma va malakalarni egallab ololmaydilar, ta’lim jarayonida o‘z tengdoshlaridan orqada qoladilar. Ba’zan bu bolalarni oligofren bolalarga o‘xshatib yordamchi maktabga yuborish masalasi qo‘yiladi.

Bunday bolalar qulay sharoitda o‘z tengdoshlariga etib oladilar. Ularga oilada va maktabda zarur sharoitlarni yaratib berish lozim.

Nazorat savollari

1. «Pedagogik-psixologik diagnostika » fanining ahamiyati nimada?
2. « Pedagogik-psixologik diagnostika» fani boshqa qaysi fanlar bilan bog‘liq?
3. «Aqli zaiflik» tushunchasiga izoh bering.
4. Aqli zaiflikning etiologiyasi qanday?
5. Oligofreniyaning umumiy kliniko-patogenetik qonuniyatlari nimalaradan iborat?
6. Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotining 10-ko‘inishdagi kasalliklar ro‘yxati bo‘yicha ali zaiflikning qanday darajalari ajratiladi?
7. Aqli zaiflikning klinik shakllari nimalardan kiradi?
8. Demensiyani oligofreniyadan farqlaydigan xususiyatlarini izoxlang.
9. Aqli zaiflikka o‘xshash holatlarga nimalar kiritiladi?

3 BOB. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI O‘RGANISHGA KOMPLEKS YONDOSHUV

3.1. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya ishining mazmuni va uni tashkil etish

Ta’lim muassaslarining tarmog‘i kengayib borayotganligi, hamda ta’lim muassasasini ota-onaga tanlash huquqi berilganligi sababli ba’zi-bir bolalarni o‘qitish bo‘yicha muamolalar yuzaga kelmoqda. Ba’zi holatlarda bolalarni o‘qitishda va hulqining o‘ziga xos xususiyatlarini boshqarishdagi paydo bo‘lgan qiyinchiliklar pedagogning talablari bolaning psixik va jismoniy tayyorgarligiga mos emasligi, aqliy rivojlanish darajasiga e’tibor qaratilmaganligi, bolaning somatik-psixik holatlari sabab bo‘lsa, boshqa holatlarda – maktab ta’limiga tayyormasligi (ba’zi psixik funksiyalarning, muloqat ko‘nikmalarining shakllanmaganligi, hissiy-irodaviy tomonlarning rivojlanmganligi) va h.q. Bularning barchasi bolalarga yordamning yangi turlarini izlash uchun asos bo‘ldi. XX asrning 90-yillarida pedagog va psixologlarning tashabbusi bilan ta’limni boshqarish shahar va viloyat organlari tomonidan umuta’lim maktablarida psixologo-tibbiy-pedagogik konsiliumlar tashkil etila boshlandi. Ularning funksiyalariga bolalar uchun rivojlanishlarining bolani yoshi va individual psixo-jismoniy o‘ziga xos xususiyatlari jihatidan ta’lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratish kiradi.

TPPKning maqsad va vazifalari. TPPKning asosiy maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga diagnostik-korreksion psixologo-tibbiy-pedagogik yordam berish, ularga o‘qish va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun kuyidagi vazifalarni bajarish kerakdir:

– psixik-jismoniy rivojlanishida u yoki bu nuqsonlari bo‘lgan bolalarni aniqlash va har tomonlama kompleks tekshirish;

– nuqsonlarning xarakteri va sabablarini o‘rnatish (deviantli xulq, katta va tengdoshlari bilan bo‘lgan nizoli vaziyatlar, o‘zlashtirishda orqada qolish va h.q.);

№ t/r	Tekshiruvni o'tkazish sanasi	Bola familiyasi, ismi, otasining ismi	TTug'ilgan yili, sanasi, oyi	YYashash joyi	TTa'lim olgan muassasa, muddati	TPPKga kim orqali jo'natilgan	TPPKga jo'natilish sababi	OOta-ona haqida qisqa ma'lu-mot	TTPPKning xulo-sasi	TTPPKning tasiyalari	IIzox

"Izoh" ustunida tekshirish davomida berilgan tavsiyalarni ota-ona tomonidan bajarilishi ko'rsatiladi. Bola ta'lim olishni davom ettirish uchun ta'lim muassasa tanlash xuquqi ota-onada bo'lsada, TPPK a'zolari ota-onalarni aynan bola manfaatlarini ko'zlab ish tutishga ko'ndirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solishlari kerak.

Ro'yxatga olish daftari TPPKda saqlanadi.

Bolaning komissiyada tekshirish jarayoni kotiba tomonidan bayonnomaga qayd etiladi va bolaning shaxsiy varaqasida saqlanadi, va u ta'lim olish uchun yuborilgan idoraga beriladi. Bayonnomlar o'qtuvchilarga shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, bilim darajasining sifati, psixik jismoniy rivojlanish xususiyatlari bilan oldindan tanishishga va ularga o'qishni birinchi kunidayoq e'tibor berishga yordam beradi. Bundan tashqari, bayonnomalar, ayniqsa bola takroran TPPKga yuborilayotgan bo'lsa, uning rivojlanish dinamikasini qayd etish uchun zarur. Olingan natijalarni oldingi bayonnoma bilan solishtirib, o'tgan vaqt davomida bo'lgan o'zgarishlar haqida muloxaza yuritish mumkin. Bayonnoma TPPK a'zolariga bola to'g'risida kengaytirilgan xulosa tayyorlash uchun yordam beradi. U shaxsiy varaqada saqlanadi. Komissiyaning har bir mutaxassisi tomonidan olib borilgan individual tekshirishning ma'lumotlari asosida nuqsonlar to'g'risida xulosa tayyorlanadi. Bolaning psixojismoniy va individual xususiyatlarini hisobga olib, uning keyinchalik tarbiya va ta'lim olish uchun joy tanlash to'g'risidagi qaror kollegial qabul qilinadi. Aniq tavsiyalar beriladi.

Tekshirilib TPPK tavsiyalari berilgan bola va o'smirlar ro'yhati xalq ta'lim, sog'liq vazirliklarining tegishli bo'limlariga va h.q.

idoralarga yuboriladi. Ota-onalarga tegishli tavsiyalar bilan xulosa beriladi.

Bolalarni maxsus muassasaga yuborish TPPKning tavsiyalariga binoan xar bir maxsus muassasa tegishli o'zining qabul qilish bo'yicha qo'llanmalariga qattiq rioya qilib, xalq ta'lim vazirligi bo'limi orqali amalga oshiriladi.

Maxsus (korreksion) muassalarni bolalar bilan komplektlash (to'ldirish) bo'yicha TPPKning ishi shundan iborat.

Ushbu ishning tartibi o'z ichiga tibbiy, psixologo-pedagogik va logopedik tekshirishlarni oladi.

Tibbiy tekshirish o'z ichiga oftalmolog, otolaringolog, somatik, nevrolog va psixiatrlarning tekshirishini oladi. Kerak bo'lsa paraqlinik tekshirishlar (REG, ExoREG, EEG, audiografiya va boshqa laboratoriya tekshirishlar) o'tkaziladi. Anamnez yig'iladi. Bu barcha tekshirishlar vrachlar tomonidan o'tkaziladi. Defektologga ham, logopedga ham bu bilan shug'ulanishiga ruxsat yo'q, lekin ular bolalar rivojlanishiga u yoki bu nomaqbul vaziyatlar qanday ta'sir o'tkazishi, psixikasining xususiyatlari haqida bilishlari muhim. Bola rivojlanishini tarixidan ona bilan o'tkazilgan suhbat davomida vrach tomonidan olingan ma'lumotlar, hamda vrach xulasasining bola holatining ob'ektiv ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar psixologo-pedagogik tekshirishning to'g'ri strategiyasini tanlash uchun yordam ko'rsatadi. Eshitish qobiliyati past yoki nutqida nuqsoni bo'lgan bolani tekshirish davomida noverbal ko'rinishdagi topshiriqlar berilishi zarur, ko'rishda nuqsoni bo'lsa tekshirish nutq materiali orqali o'tkaziladi va h.q.

Psixologik-pedagogik tekshirish davomida bolaning psixik rivojlanishining (nutq, harakat va h.q. rivojlanishining senzitiv davri) o'ziga xos xususiyatlari belgilanadi; saranjomlik, o'ziga- o'zi xizmat qilishi, boshqa bolalar bilan muloqat qilish ko'nikmalari qachon shakllana boshlanganligi aniqlanadi; motorika holati, o'yin xarakteri va h.q. qayd etiladi. Nafaqat ayrim psixik jarayonlarni o'rganish, balki shaxsni o'zini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Agar bolalar maktabda ta'lim olayotgan bo'lsalar, o'qishida mavjud qiyinchiliklarning sababi va xarakterini belgilash, nuqson tarkibini ochib berish darkor. Bilim olish qobiliyatiga katta diqqat

qaratish lozim. Bilim olish qobiliyatining ko'rsatkichlari deb – umumiy fikrlash qobiliyati, fikrlash jarayoning egiluvchanligi, o'quv qurollarni o'zlashtirish va h.q., hamda bola yordamni qabul qilish qobiliyati (bu asosiy ko'rsatkichlardan biri) hisoblanadi. Bu yordamning xarakteri va o'lchamligi e'tiborga olinadi.

O'z ichiga o'quv ko'nikmalardan, yozish, o'qish, sanash, va h.q.dan umumiy xabardorlikni, ularni shakllangalikni hisobga olib, pedagogik tekshirish defektolog tomonidan amalga oshiriladi. O'z xulosasida u nafaqat bola rivojlanganligining o'rnatilgan dolzarb darajasini aks etadi, bola bilan ishlash bo'yicha kerakli usullarni ko'rsatadi. Uning tavsiyalari ham pedagog, ham ota-onalarga foydali.

Psixologik tekshirishni psixolog o'tkazadi. U kuzatilayotgan hodisa sabablarini taxlil qiladi, psixik funksiyalarni, motivatsion-idrok va hissiy-shaxsiy sohalarni korreksiya qilish bo'yicha taxmin (prognoz) va tavsiyalar beradi. Xulosada u kompleks psixologik tashxis qo'yadi. Kerak bo'lsa neyropsixologik tekshirish o'tkaziladi.

Logopedik tekshirishni (zaruriyat tug'ilgan vaziyatlarda o'tkaziladi) logoped amalga oshiradi. Nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etib, u mavjud nuqsonlarning xarakterini va sabablarini ochib beradi. Logopedik o'rganish jarayoniga artikulyasion apparatning, impressiv (fonetik eshitish, so'zlar, sodda gaplar, mantiqiy-grammatik qurilmalarni tushunish) va ekspressiv (takroriy, nominativ, mustaqil) nutqning tekshirish kiradi. Bolalarning yozma nutqi ham, hamda nutqiy xotira ham tekshirishdan o'tkaziladi. Logoped nutqdagi nuqsonning tuzilishini va bola nutqining rivojlanmay qolganlik darajasini aniqlashi zarur, Bu nutq buzilishlari birlamchi nuqson bo'lgan bolalarni va nutqning zaifligi aqliy zaiflik natijasida kelib chiqqan bolalar o'rtasida chegara olishga yordam beradi.

Ish jarayonida tinch va yaxshi munosabatli sharoit saqlash kerak. Tekshirilayotgan shaxsning vaziyatini murakablashtirib, tekshirishni imtihonga o'xshatish noto'g'ri. Ota-ona va bolalar bilan suhbat o'tkazish davomida albatta kasbiy etika meyorlariga qat'iy rioya qilish kerak. Ish olib borilayotgan xonada bolalarning diqqatini o'ziga tortadigan ortiqcha rasm, plakatlar osilgan bo'lmasligi kerak. Hatto

bola, ota-ona, komissiya a'zolarining stol atrofida joylashishi ham katta ahamiyatga ega. Bolalarni psixologo-pedagogik tekshirishdan o'tkazish davomida, ayniqsa TPPK sharoitida, bola bilan olib borilayotgan ish davomida namoyon bo'ladigan va uning xolati to'g'risida yakuniy xulosa tuzish paytida kerakli bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratish kerak. Ular ichida:

Bolaning tekshirishga bildirgan hissiy asi. Hayajon – yangi sharoit va notanish odamlarga nisbatan bo'lgan tabiiy reaksiy. Lekin o'ta xursandlik, komissiya a'zolariga nisbatan betakalluflik, o'zini betartib tutishliklarga diqqatni qaratish kerak.

Vazifa ko'rsatmasi va maqsadini tushunish. Ko'rsatmani oxirgacha eshitib oladimi, uni yaxshilab tushunib olib, ishni boshlaydimi? Bolalarga ko'rsatmaning qanday ko'rinishi tushunarliroq: og'zaki yoki ko'rsatma-og'zaki?

Faoliyat xarakteri. Vazifaga nisbatan bo'lgan qiziqishga, maqsadli faoliyatga, ishni oxirgacha etkazish, ishni bajarish usullari maqsadga muvofiqligi va mosligi, ish jarayonida davomida diqqati bir joyga jamlanganliga e'tibor qaratish lozim. O'zini o'zi nazorat qilish va boshqarish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Asosiy ko'rsatkichlardan biri – bu yordamdan to'g'ri foydalana bilish. Ushbu qfobiliyat qancha ko'p ifoda topsa, bolaning ta'lim olish qobiliyati shuncha yuqori. Ko'rsatilayotgan yordam me'yorda bo'lishi muxim.

Ishning natijasiga bo'lgan munosabat. O'z faoliyatini to'g'ri baholash, adekvat ta'sirchanlik (muvaffaqiyat bo'lsa xursandchilik, aksincha bo'lsa – xafa bo'lish) bola vaziyatni to'g'ri tushinishining guvohi bo'ladi.

Odatda, bolani TPPK mutaxassilari tomonidan o'rganilishi pedagog yoki ota-onalarning talablariga binoan o'tkazyuiladi. Bolani darslarda va bo'sh vaqti (o'yin, sayr va h.q.) davomida maqsadli kuzatiladi. Uning yoshiga hamda va psixik va jismoniy o'ziga xos xususiyatlariga qarab individual tekshirish ham olib boriladi. Mutaxassilar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarga ko'ra, TPPK yig'ilishlarida natijalar muhokama qilinadi va bolaning imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqib o'qish marshruti haqidagi tavsiyalar bilan, hamda kerak bo'lsa tibbiy yordam to'g'risidagi kollegial xulosa beriladi.

Bola ta'lim olayotgan muassasa tegishli sharoitlar yaratib berolmasa yoki bola qo'shimcha diagnostikaga muhtoj bo'lsa, u hollarda bola komissiyaga psixolgo-tibbiy-pedagogik konsultatsiyaga yuboriladi.

Bolani boshqa turdagi ta'lim berish maskaniga (korreksion sinflar (guruxlar), uyda o'qitish va h.q.) olib o'tishda u haqida pedagogik tavsifnoma, shaxsiy rivojlanish kartasidan, TPPK mutaxassilari xulosasidan, TPPKning yakuniy xulosasi va tavsiyalaridan ko'chirmalar yig'iladi. Bolani TPPKga yuborish paytida TPPKning kollegial xulosa nusxasi ota-onaning qo'liga beriladi, TPPK mutaxassilarining alohida yozilgan xulosalarining nusxalari esa pochta yoki vakil orqali jo'natiladi. Boshqa joylarga TPPKning xulosa nusxalari rasmiy talabga asosan beriladi.

TPPKni o'tkazish davriyligi o'quv muassasining aniq talabi bilan bog'liq, lekin kvartalda kamida bir marta o'tkazilishi shart. Yig'ilish puxtalik bilan tayyorlanishi juda muhim, shuning uchun oldindan (1-2 oy oldin) etakchi mutaxassis bolalardan qaysi biri chuqur tekshirishga muhtojligini aniqlaydi, bola bilan ish dasturi va barcha mutaxassilari tomonidan etakchi mutaxassisga xulosalarni tayyorlab berish muddatlari (TPPKning yig'ilishidan kamida 3 kun oldin) tuziladi. Bolalar TPPKda takroriy tekshiruvdan o'tkazilayotgan bo'lsalar, bola bilan individual olib borilgan korreksion-rivojlantirish ish natijalari alohida baholanadi (dinamikasining xarakteri) va bu ishni davom etish bo'yicha keyingi dastur tuziladi.

TPPK nafaqat bola, ota-onaga yordam beradi, u bolada bo'lgan muamolarini echishda pedagoglar tomonidan olib borilayotgan harakatlarning bir-biriga muvofiqligini ta'minlab, ularning malaka darajasini ham oshiradi, va bu TPPKning eng muhim vazifalaridan biridir.

3.2. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik-pedagogik o'rganish metodlari

Bolalarning xujjatlarini o'rganish. Bolani TPPKda tekshirishdan o'tkazish odatda xujjatlarni (tibbiy karta, tafsifnoma) va faoliyat nishonalarini (daftar, rasmlar va h.q.) o'rganishdan boshlanadi.

Vrach-nevropotolog komissiya a'zolarini tibbiy xujjatlar: anamnez, otolaringolog, oftalmolog, pediatr xulasalari, laboratoriya

ma'lumotlari va boshqa hujjatlar bilan tanishtiradi; diqqatni boladagi aqliy rivojlanishdagi, eshitishda yoki ko'rishdagi va h.q. nuqsonlarga qaratadi. Bu holatlarda defektolog oldindan tekshirish uchun tegishli material tayyorlab qo'yishi mumkin.

O'z navbatida defektolog, pedagogik hujjatlar bilan tanishib, komissiya a'zolariga bola bilan aloqa o'rnatishda va tekshirish jarayonida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muhim xususiyatlar to'g'risida ma'lumot beradi. Masalan, agar bolaga berilgan tavsifnomada o'quv dasturni o'zlashtirish bo'yicha ko'zga ko'rinadigan kamchiliklar ifoda etilgan bo'lsa, tekshirishni osonidan boshlab, o'yin asosidagi vazifalarni echish sifatida o'tkazish maqsadga muvofiq.

Agar bola maktabda o'qisa, uning daftarlarini diqqat bilan taxlil qilish kerak. Daftarning tashqi ko'rinishi bolaning pokizaligi, maktab talablarini tushunishi, o'qish jarayoniga qiziqishi to'g'risida sifatlarga guvoh bo'ladi. Yozma ishlarni bajarish xarakteri boladagi kamchiliklarga guvoh bo'ladi; bu o'z navbatida ularning sabablari to'g'risidagi sqvollarni uyg'otadi. Yozuvning buzilishiga ham motorikaning buzilishi, ham fazoviy mo'ljal olishdagi kamchiliklar, va oddiygina qo'yilgan talabni tushunmaslik va h.q.lar sabab bo'ladi. Yozishdagi xatoliklar (harflarni joyini almashtirib qo'yish, tashlab ketish, so'zlarni oxirgacha yozmaslik va h.q.) ham turli sabablarga ega. Bola bu qiyinchiliklarni qanday qilib enggan, o'qituvchi tomonidan qanday yordam va qaysi miqdorda ko'rsatilganliklarni kuzatib borish muximdir. Daftarni birinchi va oxirgi to'ldishlariga nazar tashlab, bola rivojlanishining dinamikasini o'rnatib olish mumkin. Bola haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni u chizgan rasmlardan ko'rish mumkin. Ba'zilarda aynan chizilgan rasm u yoki bu psixik nuqson haqida signal beradi.

Hujjatlarning barcha ma'lumotlari chuqur o'rganilibgina, bevosita bolani tekshirish boshlanadi.

Esda tutish zarur, umumiy psixologiyaning individual-tipologik, shaxsiy-faolliy, tizimli-tashkiliy yondashishlar, bola ishini sifat-miqdoriy baxolash to'g'risidagi nizomlari oligofrenopsixologiyada ham rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan boalarni o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega.

U yoki bu metodlardan foydalanishning tanlanishi va ketmaketligi tekshirilayotgan bolaning yoshiga va individual xususiyatlariga bog‘liq. Vaziyatlarning birida oligofrenopedagog yoki logoped ayrim eksperimental uslublarni kiritib, suhbat uslubini tanlaydi, boshqa vaziyatlarda bola o‘yin davomida kuzatiladi va h.q. Tekshirish jarayoniga bola qobiliyatlari namoyon bo‘lishi uchun o‘qitish elementlarini, yordam berish variantlarini, shunga o‘xshash vazifalarni kiritish muhim.

Tekshirishni o‘rta murakkab vazifalardan boshlash, ba’zi vaziyatlarda – bolada ishga nisbatan ijobiy munosabatni uyg‘otish, hayajon, tashvish tuyg‘ularini olib tashlash uchun onson vazifalardan foydalanish maqsadga muvofiqroq bo‘ladi. Ayniqsa bola aloqaga moyil emas bo‘lsa, buni e’tiborga olish muhimdir. Tekshirish jarayonida, oiladagi tayyorgarlikni chiqarib tashlash uchun hissiy qulaylik xolatini yaratish, motivatsiya berish, bolani rag‘batlantirish, odatiy emas ko‘rinishlarda vazifalar berish darkor. Tekshirish ortiqcha bo‘lib ketishi noto‘g‘ri.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganib, shuni esda tutish lozimki, asosiy narsa – bu biologik sabablar orqali yuzaga kelgan dastlabki nuqsonlar bilan dastlabki nuqsondan kelib chiqqan ikkilamchi, uchlamchi va h.q. nuqonlar va bola ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar o‘rtasida chegara chizishdir. Yuqori darajadagi nuqsonlar qatoriga (ikkilamchi, uchlamchi) L.S.Vigotskiy oliy psixik funksiyalarning va xulqning rivojlanmay qolganligini kiritgan. Birlamchi va yuqori darajadagi nuqsonlarning nisbatini, hamda ularning ifoda topgan darajalarini solishtirish juda muhimdir. Bilish faoliyati va shaxsni rivojlanishiga ta’sir etuvchi salbiy nuqsonlarni aniqlash darkor.

Suhbat usuli

Psixologik tekshirish suhbatdan boshlanadi. Suhbat bola bilan hissiy aloqa o‘rnatishga, unda taqlif qilinayotgan ishga to‘g‘ri munosabat o‘rnatishga qaratiladi.

Bo‘shang, qat’iyatsiz, qo‘rqoq bolalarni tetiklashtirish, maqtash, qo‘zg‘aluvchan bolalarga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan bo‘lish lozim.

Suhbat mazmuni bolaning atrof haqidagi tasavvurlarining xususiyatlarini aniqlashga qaratilishi kerak. Suhbatda bolaning qiziqishlari, uning sevimli mashg‘ulotlari va o‘yinlariga berilishi zarur.

Suhbat jonli va erkin kechishi lozim. Suhbatni oddiy savollardan boshlash maqsadga muvofiq. Agarda bola savollarga javob berishdan bosh tortsa, unga birorta rasmni yoki o‘yinchoqni ko‘rib chiqishni taqlif etish mumkin va asta-sekin bola bilan kontakt o‘rnatib suhbatni kerakli tomonga yo‘naltiriladi.

Quyida bolaga beriladigan savollar keltirilgan.

1. Bolaning o‘zi va uning oilasiga taalluqli savollar. Sening isming nima? Yoshing nechada? Onangning ismi nima? Otangning ismi nima? Oilingizda kimlar bor? Oilangizda necha kishi bor? Otang va onang qaerda va kim bo‘lib ishlaydilar?

2. Bolaning vaqt va fazoviy tasavvurlarini aniqlashga yordam beradigan savollar. Sen qaerda yashaysan? Sen qaysi shahada yashaysan? Sen qaysi qishloqda yashaysan? Sizning uyingizda nechta xona bor? Sizning uyingizda nechta etaj bor? Sen nechanchi qavatda yashaysan? Sizlardan yuqorida nechta qavat bor? Qanday yil fasllarini bilasan? Hozir qaysi fasl? Yoz faslidagi oylarni aytib ber. Bir yilda nechta oy bor? Sutka nima? Bir sutkada necha soat bor? Bir soatda necha minut bor?

3. Bolaning dunyoqarashiga yordam beradigan savollar. Bizning mamlakatimizni nomi nima? Sen qanday shaharlarni nomini bilasan? Bizning respublikamizda qanday bayramlar nishonlanadi (bahorda, yozda, kuzda, qishda)? Qanday hayvonlarni bilasan? Ular nima bilan oziqlanadilar? Sen qanday qushlarni bilasan? Ularning qaysilari qishda boshqa issiq o‘lkalarga uchib ketadilar? Qaysilari o‘lkamizda qishlab qoladilar? Sen yaqinda qaysi kitobni o‘qiding? O‘qiganlaringdan nimalar esingda qoldi? Sen yaqinda qaysi filmni ko‘rding? U senga nimasi bilan yokdi?

4. Bolaning qiziqishlariga, o‘yinlariga doir savollar. Sen nima bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘rasan (kitob o‘qish, o‘ynash, teleko‘rsatuvlarni tomosha qilish va h.k.)? Sen qanday o‘yinlarni yoqtirasan? Uyingda qanday o‘yinchoqlar bor? Eng yoqimli o‘yinchog‘ing (o‘yin) qaysi? Sen kim bilan o‘ynashni yaxshi ko‘rasan? Televizorda qaysi ko‘rsatuvlarni tomosha qilishni yaxshi

ko‘rasan? Uy ishlariga yordam berasanmi? Sen nima qilishni bilasan? Senga maktabda o‘qish yoqadimi?

Suhbat bola xulqining kuzatish ma’lumotlari bilan birgalikda u haqida dastlabki ma’lumotlarni beradi. Bular asosida tekshiruvchi bolaga tekshirishni qanlay darajada murakkablikdagi topshiriqlardan boshlash lozimligini aniqlab olishga yordam beradi.

Suhbat bola bilan bevosita aloqa qilish xarakterida bo‘lishi lozim. Savollarning mazmuni, tartibi va tuzilishi bolaning javoblari, uning asiga (masalan, xafa bo‘lish, ranjish, diqqati, sergalikligi) hamda umumiy holatiga (bo‘shanglik, qo‘zg‘aluvchanlik, diqqatning tarqoqligi va h.k.) bog‘liq.

Bola bilan suhbatni komissiya a’zolaridan faqat bittasi o‘tkazadi, bolaga komissiya a’zolarining bir nechtasini ketma-ket savol berishi mumkin emas.

Suhbat vaqtida bolaning xulqini va asini sinchiklab kuzatish lozim. Bunday kuzatishlarsiz suhbat o‘rganish metodi sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Bolaning javoblarini baholash va ular asosida qandaydir bir xulosalar chiqarish katta hatoga yo‘l quyishdir. Masalan, bola javob berishdan bosh tortsa yoki noto‘g‘ri javob bersa har vaqt ham bu undan so‘ralaytganlarni bilmasligi haqida ishonch hosil qilmasligi kerak. Ko‘pincha bola berilgan savolda diqqat e’tiborini etarlicha jamlamasligi, uning tuzilishini tushunmasligini kuzatish mumkin. Shu savol boshqacha qilib (boshqa formulirovkada) berilsa.u qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ba’zan bola avval o‘tkazilgan suhbat ta’sirida berilgan savolga etarlicha tayyor bo‘lmasligi va uni pedagog tahminida boshqa doirada idrok etishi mumkin.

Suhbat jarayonidagi bola bilan pedagogning aloqa qilish xarakteri uning shaxsi xususiyatlarni aniqlash uchun muhm ahamiyatga ega. Shunday bolalar borki, ular aloqaga qiyinchilik bilan kirishadilar, suhbat jarayonida keskin, qovog‘i soliq, bezovta, kamgap holatda bo‘ladilar, savollarga istar-istamaslik bilan javob beradilar, negativlik alariga moyil bo‘ladilar, boshqalari sharoitgsha ancha tez moslashadilar, tez jonlanadilar, ishonuvchanlik, ochiq ko‘ngillik bilan savollarga bajonidil javob beradilar.

Ba’zi bolalar suhbat jarayonida o‘zlarini mustaqil tutadilar, vaziyatga qaramaydilar, savollarga o‘ylamasdan tez, oxirigacha eshitmasdan javob beradilar; boshqalari o‘zlarin vazmin, jiddiy tutadilar, berilgan savollarga shoshilmasdan javob beradilar. Suhbat jarayonidagi bunday kuzatishlar bolani konkret faoliyat jarayonida o‘rganishga va turli ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslashga yordam beradi.

To‘g‘ri tashxis qilishda suhbatning ahamiyati

To‘g‘ri o‘tkazilgan suhbat bolaning rivojlanishi va uning shaxsini xususiyatlari haqida ba’zi tasavvurlarni beradi. Suhbatda bolaning ongida o‘quv faoliyati qanday o‘rin egallashini, o‘qishdagi qiyinchiliklarni anglay olishi, o‘z ishiga, xulqiga tanqidiy munosabatda bo‘la olishi aniqlanadi.

Suhbat natijasida boladagi neyrodinamik xususiyatlar haqida ba’zi ma’lumotlarni olish mumkin. Bo‘shanglik, tormozlanganlik yoki aksincha, qo‘zg‘aluvchanlik, diqqatning tarqoqligi, savol doirasida qola olmaslik bularning barchasi bolada qo‘zg‘alish va yoki tormozlanishning sekinlashgan va tezlashgan alarning ustunligini taxmin qilishga imkon beradi.

Suhbat bilish faoliyatining darajasi haqida ham ba’zi tasavvurlarni beradi. Suhbat jarayonida biz bu bosqichda bola uchun xos bo‘lgan atrof olamni aks etish jarajasini aniqlaymiz. Suhbat bolaning atrofdagi predmetlar va xodisalar haqidagi tasavvurlarining to‘g‘riligini, sabab bog‘lanishlarini o‘rnatish va ahamiyatlini ahamiyatsizdan ajratishni bilishni aniqlashga imkon yaratatadi.

Suhbat jarayonida bilish faoliyatining qaysi tomonlarini sukurroq o‘rganish lozimligini aniqlashadi. Shuning uchun suhbat bolaning psixik haytining alohda tomonlarini ancha chuqur va maxsus o‘rganishdagi dastlabki qadamdir. Suhbatdan alohda faoliyat turlarini tekshirishga o‘tish rejali va etarlicha asoslangan bo‘lishi kerak.

Suhbatni tugatib, eksperimental-psixologik tekshirishga astasekin o‘tish lozim. Bolaga «Endi mening ba’zi topshiriqlirimni bajarasan» yoki yanadla soddaroq tarzda: «Kara, menda qanday rasmlar bor (o‘yin, shakllar)» deyiladi. Eksperimental-psixologik tekshirishni o‘tkazishda bolaning ishga bo‘lgan munosabati, qiziqishi borligi yoki yo‘qligi, maqtov yoki tanbehga asi va hokazolarga

e'tibor beriladi. Bu kuzatishlar bola faoliyatini tuzilishini tahlil qilish, patologik xususiyatlarni ochishga imkon yaratadi.

Kuzatish usuli

Kuzatish usuli – bolalarni komissiyada o'rganishning eng etakchi uslubi. Kuzatish bola komissiyaga kelishi bilan boshlanadi va butun tekshirish vaqtida davom ettiriladi. U har doim maqsadni ko'zlab o'tkazilishi lozim.

Bolaning o'yin faoliyatini kuzatish muhim ahamiyatga ega, chunki qator vaziyatlarda u psixologo-tibbiy-pedagogik komissiya sharoitida tekshirish o'tkazishning asosiy uslubi deb hisoblanadi.

Erkin o'ynash bola bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi, ayniqsa bola tekshirishdan qo'rqayotgan bo'lsa. O'yinchoqlarni o'ynash imkonini yaratib ("O'yinchoqlarni olib o'ynab tur, men onang bilan gaplashaman"), bolaning o'yinchoqlarni ko'rganda ta'sirchanlik namoyon bo'lishi (aniq yoki kam ifodalangan xursandchilik, befarqlik), mustaqil ravishda o'yinchoqlarni tanlab, o'yin tashkil etishi, o'yinchoqlar bilan olib borayotgan harakatlarning oqilona bo'lishi, o'yin o'ynashga qiziqish borligi kabi dastlab ma'lumotlar kiritiladi. O'yin o'ynash paytida aniq bir harakat uchun kerakli o'yinchoqlarni tanlab (qo'g'irchoq bilan o'ynashni tashkil etishda kiyim-kechaklarni tanlaydi; kubiklarni, mashinaga ortish uchun tanlaydi), bola amaliy taxlil, sintez, umumlashtirish va solishtirish o'tkazadi. Bola bajarayotgan manipulyasiyalarini kuzatish uning harakatlanishni boshqarish va motorikasi xolati kuzatiladi.

Kuzatish metodning sezilarli kamchiliklaridan kuyidagilar hisoblanadi: 1) davomliligi; 2) bahoning xolis emasligi, chunki natija mutaxassisning malakasiga bog'liq; 3) natijalarning statistik qayta ishlash mumkin bo'lmaganligi.

Qator vaziyatlarda (bola yomon o'qisa, intelekt darajasi past bo'lsa) bolaning o'yin faoliyatini kuzatishdan tashqari o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirish ham o'tkaziladi. Murakkablashtirilgan holda bu uslub maktab yoshdagi bolalarni tekshirishda ham qo'llaniladi.

Rasmlarni o'rganish usuli

Yuqorida qayd etilganidek, bolalarni o'rganish davomida rasm muhim differensial-tashxis ko'rsatkichi sifatida qo'llanadi. Bolaning pedagogik xujjatlaridagi rasm nimadir bilan o'ziga diqqat qaratsa, u holda maxsus tekshirish o'tkazish – boladan xoxlagan rasmni yoki vazifaga asosan rasm chizishni so'rash maqsadga muvofiqdir. Bolaning mavzuni, chizish usulini tanlash qobiliyati, chizish jarayonining o'zi yakuniy tashxisni aniqroq o'rnatish uchun qo'shimcha qimmatli ma'lumot berishi mumkin. Bu narsaga S.A.Boldireva, T.N.Golovina, I.A.Groshenkov, V.S.Muxina va ko'pgina boshqa tadqiqotchilar diqqatni qaratgan.

Odatda, aqli zaif bolalar mavzuni tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar, syujet yaratmasdan, oddiy bir tipdagi predmetlarni tasvirlaydilar. Ularning erkin mavzudagi rasmlarida ma'no, fantaziya yo'q. Nima chizish to'g'risida vazifa berilgan bo'lsa ham, bolalar ko'rsatmaga binoan uni bajara olmaydilar. Tasavvur etish qobiliyati boy emas va noaniq bo'lgani sababli shakl, proporsiyalarni buzish, rangni noto'g'ri va kam ishlatishlarda ifodalaniladi. Aqli zaif bolalar rasmni ifoda etib berishda qiynaladi.

Psixik kasalliklarga duchor bolalarning rasmlari o'zgacha. Ularga mantiqga to'g'ri kelmaydigan, bema'ni tasvirlash, rangni beo'xshov, betartib ishlatish, proporsiyalarni ushlash, jinsiy ifodalar mos.

Shizofrenik bolalarga rasm chizishni oxirgacha etkazmaslik, asosiy qismlar etishmasligi, geometrizatsiya, bejamdorlik, uyib tashlash, rasmni varaq xajmi bilan mos emas chizish, qog'ozning chetidan boshlab chizishdan qo'rqish xosdir.

Epileptik demensiyaga o'ta puxtalik, g'oyat sinchkovlik, sekinlik xarakterli. Bolalar rasmga ko'p vaqt sarflaydilar, muhim emas qismlarni chizish uchun to'xtab qoladilar.

Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiya sharoitida rasmdan diagnostik maqsadlardan tashqari bola bilan aloqa o'rnatishda va nutqning buzilishlari mavjud vaziyatlarda "nutqsiz" uslub sifatida foydalanish mumkin.

TPPKda eksperimental-psixologik tekshirish metodlari

Eksperimental-psixologik tekshirish uslublari psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyada bolalarni o'rganish davomida juda muhim ahamiyatga ega. Ular maxsus o'rganishga loyiq psixik jarayonlar dolzarb bo'lgan ma'lum vaziyatlarni yaratilishini nazarda tutadi. Eksperimental-psixologik uslublar yordamida u yoki bu holatlarning sabab va mexanizmlarini ochish mumkin.

Bolalar faoliyatining hujjatlarini va natijalarini o'rganish, suhbatlashish, kuzatish ko'pincha bola rivojlanishining u yoki bu xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Bu ma'lumotlarni izohlash, uning tuzilishini anglashga maxsus eksperimental vazifa yordam beradi.

Agar eksperimental uslubni tuzish va tekshirish jarayoning o'zida ta'limiy ekperimentning tamoyiliga amal qilinsa, bola holatini faqatgina gapirib o'tish va o'rganilayotgan psixik funksiyaniga izox berishgagina emas, balki uning rivojlanish prognozini (taxminini) tuzish, hamda u bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berish imkoni yaratiladi. Faoliyat jarayonining sifatiy taxlili miqdoriy ko'rsatkichlarni hisoblash bilan bir qatorda bolalar tomonidan eksperimental-psixologik vazifiarni baxolash uchun bajarilishi shart hisoblanadi.

Eksperimental uslublardan foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanmalarda ushbu uslublarning batafsil ta'rifi keltirilgan, tekshirish bayonnomasini tuzish shaqli aniq ko'rsatilgan va bola tomonidan vazifani bajarish natijalari izoxlangan.

Psixodiagnostik maqsadlarda bolalarni tekshirish davomida test o'tkazish uslubi ham qo'llaniladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishni o'tkazishga qo'yiladigan talablar

Psixologik-pedagogik va logopedik tekshirishni tibbiy tekshirishdan so'ng o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki psixik rivojlanishdagi buzilishlarni tashxis qilishda anamnestik ma'lumotlar, statik, nevrologik va psixik holatlar, ko'rish, eshitish funksiyalarining saqlanganligi, shuningdek harakat buzilishlarining xarakteri va darajasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni tahlil qilish psixolog va logopedga tekshirishda kerakli yo'nalishni, tekshirish metodikalarini to'g'ri tanlashga imkon beradi.

Tekshirish metodi va metodikalarini tanlash bolaning yoshi, uning motor, sensor, aqliy imkoniyatlari, nutqning mavjudligi yoki yo'qligiga bog'liq bo'ladi.

3.3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tekshirish

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tashhis qilish, ijtimoiy hamda tibbiy–psixologo–pedagogik kompleks tekshirishning bir qismidir. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni psixodiagnostikasi va maxsus psixologiyaning etakchi mutaxasislari (V.I.Lubovskiy, T.V.Rozanova, S.D.Zabramnaya, O.N.Usanova va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan bir qator tamoyillarga asoslanadi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni psixodiagnostik tekshirish tizimli bo'lib psixikani barcha tomonlarini (bilish faoliyati, nutqi, hissiy–irodaviy doirasi, shaxsiy rivojlanishi) o'rganishni o'z ichiga oladi. Psixodiagnostik tekshiruv bolaning tahminiy psixik rivojlanish darajasi va yoshini hisobga olgan holda tashkillashtiriladi. Shu ko'rsatmalar tashxisning ish tartibini belgilash, metodikalarni tanlash va natijalarini izohlashga yordam beradi. Tashxis vazifalari bola uchun tushunarli bo'lishi kerak. Bolani tekshirish davomida u samarali bajara oladigan vazifalarni berish lozim, natijalarini tahlil qilayotganda bola qaysi yosh guruhiga mansub vazifalarni bajara olganligini inobatga olish zarur.

L.S.Vigotskiyning bolalarning «yaqin rivojlanish zonasini» o'qitishda ularning potensial imkoniyatlarini o'rganish haqidagi fikrlari yotadi. Bu turli murakkabliklardagi vazifalarni taqlif etishda bajarilish vaqtida yordam berishni taqsimlaydi.

Har bir yoshdagi bosqich uchun diagnostik vazifalarni tanlash qa'tiy ravishda ilmiy asoslanib amalga oshirilishi kerak, ya'ni tekshirish davomida mazkur topshiriqni bajarish maqsadida bolaning psixik faoliyatining kaysi tomonlarini ishlatish va ular tekshirilayotgan bolada qay darajada buzilganligini aniqlashga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish zarur. Natijalarning taxlil qilish va izohlashda ularning sifat va miqdoriy xarakteristikasi berilishi kerak. Bunda

sifat-sonli ko‘rsatkichlar tizimi barcha tekshirilayotgan bolalar uchun bir xilda bo‘lishi lozim.

Psixodiagnostik tadqiqotlarni o‘tkazish har doim aniq maqsadga bo‘ysungan, alohida vazifalarni bajarish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning psixodiagnostik tekshirishdan o‘tkazishning asosiy maqsadi – korreksion yordam ko‘rsatishning maqbul yo‘llarini aniqlash uchun bolada psixik faoliyatining buzilishini strukturasini aniqlashdir. Aniq vazifa bolaning yoshi, ko‘rish, eshitish, harakatlanishda nuqson bor yoki yo‘qligi, ijtimoiy vaziyat, diagnostikaning bosqichi (skrining, differensial diagnostika, individual korreksion dasturni tuzish uchun bolani chuqur psixologik o‘rganish, korreksion tadbirlarning samaradorligini baxolash) bilan aniqlanadi.

Bolalarni psixodiagnostik tekshirish bir qancha bosqichlarda olib boriladi. Birinchi bosqichda psixolog bola haqidagi ma’lumotlarni uni xujjatlarini o‘rganish, ota–onasi va pedagogi bilan savol–javob orqali to‘playdi. Tekshiruvni boshlashdan avval u bola haqidagi tibbiy, pedagogik, ijtimoiy xarakterdagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Bu tekshirish vazifalarini to‘g‘ri aniqlashga hamda kerakli tashhis vositalarini tayorlashga yordam beradi.

Psixologik tekshiruvni o‘tkazish uchun tinch, osuda sharoit kerak bo‘ladi. Bolani diqqatini chalg‘itmaydigan predmetlar soni ko‘p bo‘lmagan alohida xonada tekshiruv o‘tkaziladi. 4–yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirish bolalar stolchasi yoki gilamda o‘tirib, 4–6 yoshlilarda bolalar stolchasida, katta bolalarda esa ortiqcha predmetlarsiz o‘tkaziladi. Tekshiruvni bolaga oson bo‘lgan vazifalardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Psixolog bolaga o‘zini yaqin tutgan xolda tinch, uni bajarayotgan harakatlarini diqqat bilan kuzatishi lozim. Agar bola xattolarga yo‘l qo‘ysa, tekshiruvni o‘tkazuchi unga yordamlashadi.

Barcha kuzatuv natijalari bayonnomada qayd etib boriladi: vazifani bajarilish vaqti, bola tomonidan qo‘yilgan xatolar, yordam turi, uning samarasi. Tekshiruv vaqtida onasining bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi, ayniqsa bola bunda qattiq turib olsa. Tekshiruvdan keyin psixolog onasi bilan olingan natijalarni muhokama etib, uning savollariga javob berishi hamda o‘z tavsiyalarini bermog‘i kerak.

Agar bola ma’lum bir sabablarga ko‘ra o‘zini yomon tutib vazifalarni bajarishdan voz kechsa, uni bir necha kundan so‘ng qayta tekshiruvga chaqirish kerak. Bu kunlar davomida bolani qayta tekshiruvga tayyorlash, psixolog bilan birgalikda ishlash zarurligini uqtirish lozim. Ikkilamchi tekshiruvga shuningdek tez charchaydigan bolalarni ham chaqirish maqsadga muvofiq, chunki ularni birgina tekshiruv davomida to‘liq o‘rganib bo‘lmaydi.

Xulosani bolaga tayyorlashda ikki bosqichda olib borish maqsadga muvofiqdir. Avvalo psixolog topshiriq natijalarini ko‘rib chiqib ularni muhokama etib, bilish faoliyatining rivojlanish darajasi va xususiyatlari, nutqi, hissiy–iroda xolati, shaxsi, bolani o‘zini tutishi, shuningdek berilishi mumkin bo‘lgan korreksion yordam turini aniqlaydi. So‘ngra psixolog olingan natijalarni yozma xulosalaydi. Odatda xulosa uch qismdan iborat bo‘ladi.

Birinchi qismida bolani tekshirish sabablari, tekshirishning maqsadi va uni o‘tkazish vaqtida bolani o‘zini tutish xolati ko‘rsatiladi. Bajarilish motivatsiyasi albatta ko‘rsatiladi, muloqotga kirishishi, psixologga bo‘lgan munosabati, topshiriqlarni bajarish usuli, faoliyatining xarakteri, maqtov va tanbehlarga bo‘gan munosabatining o‘ziga xos hususiyatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Bolani yordamdan samarali foydalana olishiga alohida diqqat qaratiladi. Harakatlarini nutq yordamida ifodalashi, bajarayotgan ishlarini tushuntirib bera olishini bor yoki yo‘qligi e’tirof etiladi.

Ikkinchi qismida xar bir psixik funksiyalarini tekshirishning diagnostik natijalar taxlil qilinadi.

Uchinchi qismida bolaning psixikasini buzilish strukturasi, bunda kuzatilgan nuqsonlarinigina emas, balki uni kelajak rivojlanishidagi psixikasini saqlangan tomonlarini hisobga olib potensial imkoniyatlarini ko‘rsatib beriladi. So‘ngra bolaga psixologik yordamni tashkillashtirish bo‘yicha ta’lim muassasalari va ota–onalarga qaratilgan korreksion–pedagogik jarayon bo‘yicha o‘z tavsiyalarini hulosalab beradi.

Xulosada albatta tekshiriluvchining yoshi, xulosasi va tekshirish vaqti, psixologning familiyasi bo‘lishi shart.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni eksperimental–psixologik o'rganish

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga eksperimental –psixologik jihatdan yondashish samarali yo'llardan biri hisoblanadi. U rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani psixologik eksperiment davomida o'rganishni nazarda tutadi.

Psixologik eksperiment – bu nuqsonning psixik jarayonlari va shaxsni maxsus tashkil etilgan sharoitlarda, nuqsonni maksimal ifodalanishini o'rganishdir. Patopsixologik eksperiment eksperimental – psixologik metodikalar yordamida psixik funksiyalarning aniq bir vositalari yordamida o'rganiladi. Turli eksperimental –psixologik metodikalar maxsus ta'limda, shifoxonalarda ko'p yillik amaliy tajribi sifatida ishlatilib kelinmoqda hamda bularni S.Ya.Rubinshteyn, B.V.Zeygarnik, S.D.Zabramnaya, E.A.Strebelevalarning ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Eksperimentni tashkillashtirishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

– bolaning o'yin, mehnat, o'qish, muloqoti davomida psixik faoliyatinini ifodalashi lozim;

– eksperiment faqatgina nuqsonlarnigina emas, balki saqlanib qolgan psixik funksiyalarini ham aniqlashi kerak;

– eksperimental–psixologik metodikalar psixik nuqsonlarni sifatli tavsifini ochishga qaratilgan bo'lishi;

– eksperimental –psixologik tekshirish natijalari aniq va ob'ektiv xolda bayonnomada qayd etilishi zarur;

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni eksperimental–psixologik jihatdan tekshirishning samaraligi shundaki, u o'z ichiga ko'pgina metodlarni qamrab olgan bo'lib, bu o'z navbatida turli nuqsonlarni aniqlashga yordam beradi.

Eksperimental–psixologik tekshiruv dasturi standart bo'la olmaydi, chunki u tekshirilayotganing o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, shizofreniyani differensial tashhis qilishda asosiy diqqat tafakkuurning buzilishlariga qaratiladi. Uni tekshirishda "Predmetlar klassifikatsiyasi", "Piktogramma" metodikalaridan foydalaniladi. Bosh miyasida jarohatlari bo'lgan bemorlarni tek-

shirishda asosiy diqqat aqliy ishlash qobiliyati, xotira, yozuv, sanash kabilarga qaratilgan metodikalardan foydalaniladi. Bolani psixologik tekshirish bo'yicha metodikani tanlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu holda tanlash bolani yoshiga, uning tarbiya olishi uchun yaratilgan ijtimoiy sharoitlarga (oila, bolalar uyi, uzoq deprivatsiya), uning intellektual rivojlanishining darajasiga, nutqida, harakatlanishida nuqsonlar yoki sensor buzilishlar mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq. O'qitish eksperimentni amalda qo'llash bolaning psixologik tekshirishni spetsifik xususiyatidir. Ma'lumki, tadqiqotning qayd etuvchi metodlar yordamida bola rivojlanishining uzoq muddatli prognozini aytish mumkin emas. L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan bolani o'qitish uning rivojlanishiga olib kelishi to'g'risidagi fikri bola rivojlanishini yanada yaqqolroq prognozlash imkoniyatini beruvchi o'qitish eksperimentlarini turli variantlarini yaratishga olib keldi. Variantlarning birida o'qitish elementlari psixologik eksperiment jarayonining o'ziga kiritilgan, boshqalarida – qayd etuvchi, ko'pincha testli, eksperimentning yangi bilim olishga va maxsus sohalar bo'yicha kasb egalashga qaratilgan bolani o'qitish bilan birlashgan. Tadqiqotning bunday chizmasi bo'yicha (test-o'qitish -test) o'qitishning samarasi aniq miqdoriy ko'rinishga ega bo'ladi. Ma'lumki, o'qitish jarayoni qanchalik keng bo'lsa, shunda psixolog kasal bolaning qiyinchiliklari va imkoniyatlari to'g'risida ko'proq ma'lumot oladi, ham korreksion maslahatlari va prognoz o'rnatishlari mazmunliroq bo'ladi. Ammo, oddatda, o'qitish eksperimentning sermehnat metodlari ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. Shuning uchun bunday tadqiqotlarni o'tkazilishi faqat maxsus diagnostik guruhlarda imkoni bor.

Psixologik tekshiruv davomida bolaga ta'limiy eksperimentni tashkillashtirishda boshqa metodikalardan ham foydalaniladi: "Predmetlar klassifikatsiyasi", "Mos kelmaydigan predmetni olib tashlash (To'rtinchisi ortiqcha)", "Koos kubiklari". Bu ayniqsa psixologning vaqti chegalangan bo'lsa, masalan TPPK muhimdir. Bunday xollarda "Mos kelmaydigan predmetni olib tashlash" metodikasidan samarali foydalanish kerak. Ortiqcha predmetni olib tashlash vazifasini o'rgatishga 2-3 daqiqa etarli bo'ladi. Ko'p qo'llaniladigan metodikalardan, "Koos kubiklari", "Mos kelmaydigan predmetni

olib tashlash", "Voqealar ketma-ketligi", "Leontev metodikasi", "Piktogramma" va boshqalar. Bu metodikalardan ko'pida turli yosh jihatlariga ko'ra turlari mavjud. Ba'zi metodikalar analizatorlarida buzilishlar bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan. Har bir eksperimental metodikadan keyin olingan ma'lumotlar psixikaning turli hususiyatlari haqida bilishga yordam beradi. Masalan "Piktogramma" xotira, fikrlashning o'ziga xos hususiyatlari haqida xulosa beradi. Faqatgina bir jarayonnigina o'rganishga qaratilgan metodikalar juda kamdir. Bu bolaga vazifani tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Psixolog barcha eksperimental–psixologik metodikalarni bilishi shartdir, chunki ular psixologik faoliyat nuqsonlarini aniqlashda asosiy vositalardan hisobanadi.

Eksperimental-psixologik metodikalarndan foydalanishning muhim shartlaridan biri bolaga tekshirish paytida yordam ko'rsatishdir.

Bunday yordamning turli ko'rinishlari haqida S.Ya. Rubenshteyn ishlarida yozib o'tilgan:

Oddiygina qayta so'rab turish, u yoki bu so'zni qaytarilishini so'rab, bolani gapirgan gapiga yoki qilgan ishiga diqqatini qaratadi;

Bajarayotgan ishlarini maqtab turish, masalan "yaxshi", "davom et";

U yoki bu harakatni nima uchun bajarganligi haqida so'rab turish (bunday savollar bolaga o'z fikrini aniqlashtirib olishga yordam beradi);

Yordamchi savollar berish yoki tanqid qilish;

Usullarni tanlash bo'yicha yordam, maslahat berish;

Ba'zi bir harakatlarni ko'rsatish va uni mustaqil ravishda qaytarishni so'rash;

Vazifani bajarish bo'yicha bolani o'rgatish.

Turli metodikalarni ta'riflash davomida, ko'pincha, yordam ko'rsatishning qanday turlari o'sha paytda mosligi to'g'risida ko'rsatmalar beriladi. Yordam ko'rsatishning adekvat usullarini tanlash eksperimental ishning eng qiyin tajriba va malakani talab etuvchi tomonlaridan hisoblanadi. Amalda qo'lash uchun quyidagi umumiy qoidalar mavjud:

Avval bundan ham oddiyroq yordam turlari ko'proq samara berishi mumkinligi tekshirish, va faqat shundan keyin o'qitishga o'tish zarur;

Ekperiment o'tkazuvchi juda ham faol va gapchan bo'lishi kerak emas; eksperimentga aralashishi juda chuqur o'ylangan bo'lishi kerak.

Yordamning har bir ko'rinishi, bolaning javob harakati ham bayonnomaga kiritishi lozim.

Psixologik tekshirishning umumiy tahlili

Bolaning intellektual rivojlanishi haqida asoslangan xulosa chiqarish uchun alohida topshiriqlarni bajarish xarakteri bilan birgalikda uning faoliyatini ham tahlil qilish lozim.

Birorta topshiriqni bajarishning yaxshi yoki yomon natijalari intellektual rivojlanish darajasi haqida fikr yuritishga asos bermaydi. Bola faoliyatining xususiyatlarini ko'p miqdordagi turli topshiriqlarni bajarishda e'tiborga olish va bola uchun xarakterli bo'lgan psixologik ma'lumotlarni (yosh, shaxs) va agarda mavjud bo'lsa, intellektual faoliyati va hissiy darajasidagi patologik tomonlarni ajratib ko'rsatish kerak. Shuningdek, tekshirishga bo'lgan munosabatini, uning xulqi, ishlash qobiliyati, toliqish darajasini ham e'tiborga olish zarur. Xotira, diqqat jarayonlarini, shuningdek, eshitish, ko'rish, nutqining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni sinchiklab tahlil qilish muhimdir. Bolaning intellektual rivojlanishi haqidagi xulosani yuqorida ko'rsatilgan barcha xarakteristikalar asosida chiqarish mumkin.

Tekshirish vaqtida intellektual jihatdan me'yorida bo'lgan bolalar xulqi me'yorda, jiddiy, harakatchan bo'ladilar. Ular topshiriqlarni bajarish jarayoni, ishning natijasi va uning bahosi bilan qiziqadilar. Intellektual jihatdan normada bo'lgan bolalar uchun yuqorida ko'rsatilgan topshiriqlarning hech biri qiyinchilik tug'dirmaydi.

Tabiiyki, masalan, 7 yoshdagi bolalar 8-9 yoshdagi bolalarga qaraganda qiyinchiliklarda ko'proq tashkiliy yordamga muhtoj bo'ladilar. Agarda tekshirishga xulqi buzilgan bolalar yuborilgan bo'lsa, uning intellektual rivojlanishini optimal sharoitdagina to'g'ri baholash mumkin: masalan, yaxshi aloqa o'rnatishda va ahamiyatli motivatsiyada. Bola javoblarining sifati uning xulqidagi buzilishlar

bilan qanchalik bog‘langanligini tushunish uchun uning kontaktga kirishgunga qadar va kontaktdan keyingi erishgan natijalarini solishtirish maqsadga muvofiqdir.

Agar bola javoblarining sifati va sur’ati yaxshilansa, yoki yomonlashsa, tekshirishning oxiri yoki o‘rtasida o‘zgarsa, bu bolaning ishlash qobiliyatining buzilishi bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ko‘rsatkichlarni bolaning toliqishi yoki ishga kirishib ketishi bilan bog‘lab tahlil qilish lozim. Ishlash qobiliyatining pasayishi intellekti turli darajadagi bolalarda kuzatish mumkin. Shuning uchun tekshirishning boshidagi, oxiridagi hamda dam olishdan keyingi topshiriqlarning bajarilishi sifatini taqqoslash muhimdir.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning ko‘pchiligi uchun tekshirish jarayonida ish qobiliyatining va diqqatining pasayishi xarakterlidir. Ba’zi bolalarda yangi materialda orientirlashning, ishlab ketishning, faoliyatning umumiy sur’atini sekinlashganligi kuzatiladi.

Boshqalarida tez toliqishlari sababli diqqatining pasayishi, faoliyat jarayonida diqqatning tarqalishi aniqlanadi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning faoliyati normal rivojlanayotgan bolalar faoliyatiga nisbatan etirlicha maqsadga yo‘naltirilmagan bo‘ladi. Ko‘pincha ular o‘z maqsadini tushuntira oladilar, topshiriq noto‘g‘ri bajarilganda ham javoblarini asoslab bera oladilar. Faol lug‘atlari ko‘p bo‘lmaydi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolaga tashkiliy va o‘rgatuvchi yordam berilsa, ular tomonidan bajarilgan topshiriqlarning sifati normal bolalarnikiga yaqinlashadi.

Engil darajadagi aqli zaif bolalarning intellektual faoliyati orientirlashning sekinlashganligi, inertlik, umumlashtirishlarning yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Engil darjadagi aqli zaif bolalarning tevarak-atrof haqidagi tushunchalari juda tor va yuzaki bo‘ladi. Bolalar asosiy ranglarni va geometrik shakllarni biladilar, kesma rasmlarni joylashtiradilar, yordam berilganda Koos kubiklaridan oddiy naqshlarni tuza oladilar. Qisman yordam berilganda konkret amaliy vaziyat (holatni) tahlil qila oladilar, voqeaband rasmning ma’nosini tushunadilar, rasmlarning murakkab bo‘lmagan ketma-ketligini ko‘rsata oladilar. Engi darajadagi aqli zaif bolalar sodda hikoyalarni tushunish imkoniga ega bo‘ladilar. Bunday bolalar uchun bajarishda vaziyat (holatning) ma’nosini tushunish lozim bo‘lgan topshiriqlar

qiyinchilik tug‘diradi. Engil darajadagi aqli zaif bolalar keng xajmdagi ko‘p tushunchalarga ega emaslar. Tushunchalari voqelikni aks ettirmaydi, ko‘p tushunchalari differensiallashmagan va juda konkret xarakterga ega bo‘ladi. Yangi materialni o‘zlashtirishda va ish prinsipini boshqa o‘xshash topshiriqqa ko‘chirishda engil darajadagi aqli zaif bolalarda psixik jarayonlarning inertligi va tafakkurining yaqqolligi yorqin namoyon bo‘ladi. Fikrlash operatsiyalarini bajarishda bunday bolalar ko‘pincha asosiy bo‘lmagan tashqi belgilarga tayanadilar. Qiyinchilik tug‘dirgan topshiriqlarni bajarishda tashkiliy yordam ahamiyatga ega bo‘lmaydi. O‘rgatish o‘qitish xarakteridagi yordam juda sekinlik bilan qabul qilinadi, yomon o‘zlashtiriladi va o‘xshash topshiriqni bajarishda deyarli foydalanilmaydi. Engil darajadagi aqli zaif bolalarni uzoqroq o‘qitish lozim! Bundan tashqari, takrorlashlarni ko‘p o‘tkazish kerak.

Aqli zaiflikning o‘rta, og‘ir darajasidagi bolalarda tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari juda kambag‘al bo‘ladi. Tushunchalari o‘zi va yaqinlari haqidagi elementar ma’lumotlardan iborat bo‘ladi. Ba’zi o‘rta darajadagi aqli zaif bolalar asosiy ranglarni, ba’zi geometrik shakllarni biladilar. Ular rasmdagi va qisqa hikoyadagi oddiy aniq vaziyatning ma’nosini tushunadilar. Shu bilan birgalikda o‘rta darajadagi aqli zaif bolalar umumiy tushunchalarga ega bo‘lmaydilar. Lug‘at boyliklari tanish bo‘lmagan predmetlar doirasi bilan chegaralangan bo‘ladi. Bolalar o‘zlariga yoqqan topshiriqdan boshqasiga qiyinchilik bilan o‘‘tadilar. Psixomotor yoki analitik-adinamik buzilishlari bo‘lgan imbetsil bolalarning berilgan topshiriqqa diqqatini jalb etish va bajarishni tashkil etish juda qiyin.

Organik yoki shizofrenik demensiyasi bo‘lgan bolalarda faoliyatning perseveratsiyali buzilishlari, hissiy-idoraviy doiraning torligi, tanqidiy yondashmaslik, psixik faollikning rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Epileptik demensiyali bolalar uchun tafakkurning inertligi xarakterlidir. Bolalar ko‘rsatmani sekinlik bilan o‘zlashtiradilar, bir ish turidan ikkinchisiga juda qiyinchilik bilan o‘tadilar. Intellektual faoliyatni bajarish vaqtida detallashtirish, muhim bo‘lmagan tomonlariga e’tiborni jalb etish va ikkilamchilardan asosiysini ajratib olishda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Shizofrenik demensiyali bolalar qiyinchilik bilan aloqaga kirishadilar, ularda hissiy alarning noadekvatliligi namoyon bo'ladi. Ularning fikrlashi ko'p hollarda formal, ko'rgazma xarakterida bo'ladi. Bayon qilingan fikr-mulohazalari paradoksal (qarama-qarshi) xarakterga egadir. Ko'p hollarda bunday bolalarga ko'rgazmali va konkret material bilan ishlash qiyindir.

Ko'rishi pasaygan bolalarda intellektning saqlanganini odatda tafakkurning rivojlanish darajasini bilish maqsadida berilgan turli topshiriqlarning bajarilishini tashkil qilish jarayonida aniqlanadi. Bunda bolalarga shunday topshiriqlar beriladiki, ularni bajarishda bolalar ko'rishga emas, balki nutq, eshitish va sezishga tayanadilar. Ko'rishning pasayishi tufayli bunday bolalarda ko'rish idroki rivojlanmagan va fazoda orientirlash (mo'ljallash) buzilgan bo'ladi.

Eshitishi pasaygan bolalarda fikrlash faoliyatida so'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanmaganligi bilan bog'liq buzilishlar kuzatiladi. Bolalar ko'rgazmali kombinatsiyalash bo'yicha topshiriqlarni yaxshi bajaradilar, ko'rgazmali hisoblashni yaxshi bajaradilar.

Intellekti buzilmagan serebral falajli bolalarda fazoviy idrok yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular fazodagi yo'nalishlarni orientirlashda, ba'zan esa fazoda predmetlarning joylashuvini belgilaydigan jumlalarni (ustida, u erda, bu erda) tuzishda qiynaladilar.

Psixologik tekshirish asosida chiqarilgan xulosani boshqa mutaxassislarning fikrlari bilan albatta solishtirish lozim.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik tekshirish TPPK amaliyotida eng dolzarbdir, chunki bu yoshda bolaning imkoniyatlari va xususiyatlariga mos ta'lim sharoitini yaratish, tegishli ta'lim muassasasini tanlash zaruriyati kelib chiqadi. O'quv dasturi tipini eng avvalo bolaning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangani sababli intellektdagi turli etishmovchiliklar, ularning tuzilishini, intellektual etishmovchilik darajalarini aniqlashda eksperimental-psixologik tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Intellektul etishmovchilikning turli formalarini differensial tashxis etish vazifalarini hal etishda eksperimental tekshirish metodikalarining bayoni meyorida rivojlanayotgan, psixik rivojlanishi

sustlashgan hamda aqli zaif bolalarni tekshirish natijalarining interpretatsiyasini o'z ichiga oladi.

3.4. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tekshirish

Pedagogik tekshiruv bolani ma'lum bir yosh davrida egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyatlari haqidagi ma'lumotlarni ochish imkonini beradi.

Atrof olam haqidagi tasavvur zahirasini, o'quv ishlari uchun kerakli sifatlarni shakllanganligini aniqlashga yordam beradi (psixik harakatlarning ihtiyoriyligi, rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, qiziqishlari va x.k.lar). Agar bola 1 sinfga borishga tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lsa, uni ta'lim olishga tayyorgarligini aniqlash zarur(jismoniy, psixologik, aqliy). Agar bola maktabda o'qiyotgan bo'lsa, qiyinchilikka ochilib keluvchi sabablarini tushunish darkor. Pedagog bola haqidagi qiziqtiruvchi ma'lumotlarini bola bilan, ota-onasi bilan, tarbiyachilari bilan bilvosita suhbat orqali, uni ishlarini analiz qilish(rasmlari, daftarlari va x.k.) natijasida olish mumkin. Amaliyotni ko'rsatishicha, bola haqidagi to'liq ma'lumotlar xajmini maxsus uyishtirilgan kuzatuv orqali tashxis qilish mumkin. Pedagogik tekshiruv oldindan rejalashtirilgan, aniq yo'nalishli va tizimli bo'lishi kerak. Etakchi faoliyatni kuzatish muhimdir, unda u yoki bu yoshda psixologik yangi obrazlarning paydo bo'lishi yangi etakchi faoliyatga o'tishning shakllanishi, yangi psixologik rivojlanish davrini ko'rish mumkin. Pedagogik kuzatuv bolaning faoliyat aspekt motivatsiyasini etarlicha yaxshi o'rganishga, uning tasavvur va qiziqishlarini faolligini o'rganishga yordam beradi. Motivatsiyani o'rganish bola shaxsining etilganlik darajasini ko'rsatadi. Bola yoshida ko'pgina motivlar o'zi tushunmagan holda ierarxiyasi shakllanmaganligi, etakchi motivning ajratilmaganligi kuzatiladi. Bolani emotsional alarini kuzatish orqali uning motivatsiyasini aniqlash mumkin. Masalan, bola ota-onasi va o'qituvchisi maqtashi yoki tanbeh bermasligi uchun o'quv majburiyatlarini bajaradi. Biron-bir pedmetdan bolani olayotgan bilim jarayonni o'zi bolada xursand-

chilik motivatsiyasini ifodalaydi. Yuqorida sanab o'tilgan o'quv motivlardan eng samaralisi bu yangi narsalarni o'rganish hisoblanadi. Motivatsiya turi aniqlash jarayonida pedagog pedagogik ta'sirlar orqali ijobiy intilishlarning samarali imkoniyatlarini rivojlaniradi.

Bola qiziqishlarini aniqlash diagnostik xarakter kasb etadi. Masalan, o'qish, matematika, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya va boshqa predmetlardan qaysi biri bolani o'ziga ko'proq tortsa o'sha namuna bo'la oladi. Birlamchi intelekti saqlangan bolalar ko'proq ularning nuqsonlari faoliyatni samarali bo'lishida kamroq ta'sir etadiganini yaxshi ko'rishadi(misol uchun og'ir nutq nuqsonli bolalar matematikani yozuv va o'qishga nisbatan ko'proq yaxshi ko'rishadi). Kuzatishlar shuningdek faoliyatni shakllanganlik darajasini: aniq bir maqsadga qaratilganligi, tashillashtirilishi, ifodalashi, harakatlarini rejalashtira olish qobiliyati, faoliyati davomida o'zi mustaqil vositalardan foydalana olishi baholashga yordam beradi. Bolani faoliyat haqidagi tasavvurlarining shakllanganligini aniqlash uchun pedagog quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

- vazifani maqsad va yo'l-yo'rig'ini tushunishi;
- oddiy ko'rsatmali vazifani hamda bir nechta topshiriqli vazifalarni bajarish qobiliyati;
- harakatlarni ketma-ketligini aniqlay olishi;
- maqsadni o'zgarishiga ko'ra harakatlarni unga moslab yangitdan qura olish qobiliyati;
- ish jarayonida o'z- o'zini boshqara olish imkoniyati;
- faoliyatidagi barcha qiyinchiliklarni engib o'tib, topshiriqni aniq bir natijasiga etkazishi;
- o'z faoliyati natijalarini to'g'ri baholay olish qobiliyati;
- o'z diqqatini bir topshiriqdan ikkinchisiga o'tkaza olishi;

Bolani alohida faoliyat turlarini xarakterlash muhimdir.

Pedagogik kuzatuv shuningdek, bolani o'ziga va atrofdagilarga bo'lgan munosabatini ham aniqlashga yordam beradi. Ushbu xususiyatlarni bolaning muloqotga kirishishga, rahbarlik qilishga intilishlari, o'zidan kattalar va kichik bolalar bilan o'zini qanday tutishi, qanchalik tashabbuskorligi, atrofdagilarning unga bo'lgan munosabati va boshqalar orqali pedagog aniqlaydi. Bolaning o'zining nuqsoniga bo'lgan munosabati uni intellektual va shaxsiy rivojlanish darajasini

xarakterlaydi. Ba'zida intelekti saqlangan bolalar, nuqsonlarini qiyin qabul etib, salbiy noadekvat alarini ifodalaydi hamda atrofdagilarga tajavuskorlik munosabati bilan qaraydilar. Shuningdek og'ir nuqsonli shaxslarda noadekvat alar bo'lmasdan, kamroq buzilishli tengdoshlariga oson qo'shila oladigan bolalar ham uchraydi. U yoki bu muammolar bo'yicha bolalarni kuzatish natijalari individual "kuzatuv" kundaligiga yozib boriladi. Qayta-qayta qayd etib borish har bir bolaning aniq bir xolatiga bog'liqdir. Dalillar savodli ravishda o'z vaqtida qayd etilib borilishi kerak. Kundalikni to'ldirishda birgina o'qituvchi emas balki, boshqa predmet o'qituvchilari, tarbiyachilar, psixologlar, vrach va boshqa mutaxassislar birgalikda to'ldirishlari muhimdir. Bu bolani rivojlanish dinamikasini har tomonlama harakterlash imkonini beradi. Kuzatuv orqali olingan ma'lumotlar bolani psixologo-pedagogik xarakterlashda foydalaniladi.

Psixologo-pedagogik tavsifnoma - shunday hujjatki, unda o'quvchilarning hulqi va o'zlashtirishi, alohida mashg'ulot turlariga qiziqish hamda qobiliyati, aqliy va jismoniy rivojlanishi, tartibliligi, shaxsiy hususiyatlari ifodalangan. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar xarakteristikasida faqatgina rivojlanishdan orqada qolish hususiyatlarigina emas, balki shaxsining ijobiy tomonlari ham shuningdek, potensial imkoniyatlari aks etirilishi lozim. Tavsifnomada bolaning ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida umumiy rivojlanishi va hulqidagi dinamik o'zgarishlari ham ko'rsatiladi. Korreksion-ta'limiy muassasaga psixologo-pedagogik tavsifnomani pedagog-defektolog xar bir bolani o'rganish asosida beradi. S.D.Zabramnaya tomonidan ishlab chiqilgan pedagoglarga yordam materiallar yig'indisi va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim muassasi sharoitida pedagogik o'rganish dasturidagi tavsifnomalardan foydalanish mumkin.

Ba'zi bir holatlarda faqatgina bitta bolani emas, balki butun sinf (gurux) ustidan olib borilgan kuzatuv natijalarini ifodalash kerak bo'lib turadi. Buni I.M.Bgajnokova tomonidan taqlif etilgan quyidagi sxema orqali amalga oshirish mumkin.

Sinflarni tasniflash bo'yicha tavsiyalar.

1. Sinfning tarkibi to'g'risida ma'lumotlar:

O'quvchilar soni; yoshi, tarkibi;

Bilim olish (nutqiy, harakat) darajasi bo'yicha tasniflash;

Engillashgan yoki individual dastur bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar soni (familiyasi, predmetlar);

Sinfning faollari to'g'risida qisqa xarakteristika, bajarilayotgan vazifalar yig'indisi.

2. Sinf ichidagi kollektivlik o'zaro munosabatlar:

Bolalar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri (umumiy ishni bajarishda qiziqish, beparvolik, tarqoqlik);

Liderning mavjudligi; liderlik nima bilan ifodalanadi, bolalarning kollektiviga uning ta'sir etishi;

Sinfning jamoat ishlari, o'quvchilar tomonidan ularni bajarilishi (mustaqil, nazorat ostida, o'qtuvchi yoki tarbiyalovchi yordamida);

– jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va shaxsiy hulqida buzilishlari bo'lgan bolalarga guruhdagilarning munosabati;

– o'quvchilar orasidagi o'zaro bog'lanish xarakteri (avtoritar, teng xuquqli, taqlidiy, turg'un bo'lmagan).

– jamoaning fikri va uni ifodalanish shaqli (tanbeh, maqullash, tanqid qilish, adekvat bahoning yo'qligi).

– guruhning tashkilotchililigi (kattalar va sinf aktivlari talablariga bo'ysundira olishi).

3.Maktabni sinf jamoasi bilan bog'liqlik xarakteri:

– qiziqishlari bo'yicha bolalar ish tashkilotlarida sinfning ishtiroki;

– maktab vazifalarining tuzilishi va uni bajarilish xarakteri (qiziqib, doimiy, har zamonda).

Boshqa sinfdagilar bilan bog'liqlik xarakteri (yordam, o'zaro ishlar, musobaqalar).

– umum-sport musobaqalarida, bayram tadbirlarida va boshqalarda ishtiroki.

O'qish jarayonida qiyinchiliklar kuzatilganda ***pedagogik tekshiruvni*** o'tkazish muhimdir. Pedagog – defektolog bolaning bilim darajasi haqidagi hulosasini beribgina qolmasdan, balki o'qish, yozish va sanashni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni sabablarini aniqlab, ularga kerakli korreksion-pedagogik ta'sirni yo'llarini ko'rsatib o'tishi kerak. Bolalarga berilgan topshiriqni o'zi mustaqil bajara olish qobiliyatiga, berilgan yordamdan to'g'ri foydalana olishiga alohida diqqatni qaratish lozim. Bolani taqlif qilingan topshiriqlar

bajarish jarayonida, yo'llanmani tushunishini o'ziga hos hususiyatlarini, ish vaqtida xotirasida eslab qolishini, faoliyatini maqsad sari yo'nalganligini kuzatish lozim. Bola bajarayotgan topshirig'iga qiziqish bilan yondashayotimi va u qanchalik turg'unligi, ishni oxirgacha etkazishga bo'lgan harakati, o'zining faoliyat natijalarini to'g'ri baholay olishi, maqtov va tanbehlarga uning munosabatini ko'rsatib o'tish muhimdir.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning pedagogik tekshirish Dasturi

Mazmun	Metod
Bola haqida umumiy ma'lumotlar Familiyasi, ismi, tug'ilgan kuni. Maxsus ta'lim muassasaga kirgan sanasi. Avval boshqa maxsus (korreksion) muassasa, umumiy ta'lim bolalar bog'chasi, umumta'lim maktablarga qatnaganmi (qaysi sinflarda va necha yil ta'lim olgan)	Hujjatlarni o'rganish
Rivojlanish tarixi Ota-ona sog'lig'ining ahvoli. Onada homiladorlik davri qanday o'tgan, vaqtida tug'ildimi, tug'ish qanday bo'lib o'tdi. Bolaning erta rivojlanishining xususiyatlari. Hayotining birinchi yillarida qanday kassaliklarga duch kelgan.	Ota-onalar bilan suhbatlashish
Oila Tarkib, oila a'zolari o'rtasidagi munosabat. Moddiy shart-sharoitlar, ota-onaning ish joyi. Bolaga bo'lgan munosabat.	Oilaga tashrif. Ota-ona bilan suhbat
Jismoniy holat Jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar. Jismoniy rivojlanishning xususiyatlari (bo'yi, tananing vazni, semizligi, gavdaning tutish xususitlari va h.k. to'g'risidagi ma'lumotlar); harakatdagi nuqsonlar; paralich, parezning mavjudligi; stereotip va yopishqoqlik harakatlar, imo-ishoralar, mimika. Jismoniy faoliyat natijasida charchash. Bolalar muassasi tomonidan berilgan tartiblardagi jismoniy yuklamalarni ko'tara olishi.	Mashg'ulot, o'yin va h.q. vaqtida kuzatuv. Tibbiy tekshiruv

Bilish faoliyatining xususiyatlari Organlar holatidagi his-tuyg'ular (eshituv, ko'ruv, xid bilish, ta'm bilish, sezish organlari). Qabul qilishda yolg'onchi hislarni bo'lishi (illyuziya, gallyusinatsiya). Nutqining o'ziga xos xususiyatlari. Bog'langan nutqi bormi yoki alohida so'zlar orqali ifodalashi. Talaffuzidagi nuqsonlar va ularning xarakteri. Og'zaki nutqni tushunishi (ko'rsatmali, instruksiyali, tushuntirishli). So'zlar zahirasi. Nutqning grammatik tuzilmasining shakllanganligi. Berilgan savollarga to'liq javobi va ularning bog'liq ravishda gapirib berishi. Ko'p bekorchi so'zlardan foydalanishi. Yozma nutqni tushunishi (so'zlarni, tekstlar, jadvallar va h.q.larni kitobdan yozishi). Diqqatning o'ziga xos xususiyatlari. Diqqatini oson jalb etishi; diqqatining turg'unligi. Diqqatini to'g'ri taqsimlay olish qobiliyati. Bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o'ta olishi. Idrokning o'ziga xos xususiyatlari va qabul qilish qobiliyati. Atrofdagi muxitni tushuna olish, ongida tushunmovchiliklarni bo'lmasligi. Oddiy predmetlarning nomi va nima uchun ishlatilishini bilishi. Rasmdagi tasvirlar bilan asl predmetlarning o'zaro bog'likligini bilishi. Rasmlarni tuzilishini tushunishi. Idrok etilayotganning muhimi payqashi. Predmetlarni o'zaro solishtirish va o'xshash yoki ajratish xususiyatiga ega bo'lish. Predmetlarni klassifikatsiya qilish va oddiy umumlashtirish. Tinglagan matnni ma'nosini mustaqil ravishda tushuna olish. Sabab va oqibat aloqalarni o'rnatish. Xotirasini o'ziga xos xususiyatlari. Qanday eslab qoladi; ustun bo'lgan xotira turi (ko'ruv, motor, eshituv, "aralash"). Eslab qolishning tezligi. Uzoq vaqt esda tutishi (mustaxkamligi). Nimani yaxshiroq eslab qoladi: sonlarni, ta'riflarni, dalillarni. Eslab turish jarayoning o'ziga xosliklari. O'quv materialini o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Alohida o'quv predmetlarga munosabati. Predmetlarning fazoviy xarakteristikasi haqidagi tushunchasi: uzunligi, balandligi shakli. Son va harflarni bilish (o'qish, yozish va sanashlarni bilish). She'r biladimi? Eshitganlarni (o'qiganlarni) aytib berishi. Qo'l mehnati ko'nikmalari, chizish, o'z-o'ziga xizmat qilishning rivojlanganligi. Yangi materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar. Qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha pedagog tomonidan olib borilgan ishlarning natijalari. Qiziqishlar (mavjud emas, bo'sh, turli); qiziqish turlari (mehnat, qo'shiq aytish, chizish, raqsga tushish va h.q.)	Tibbiy xujjatlarni o'rganish. Maxsus tekshirishlar. Bola nutqini kuzatish. Bola bilan suhbatlashish. Logopedik tekshiruv. Yozma ishlarini o'rganish Bolani mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari vaqtda kuzatish. Bolani mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari vaqtda kuzatish. Bola bilan suhbatlashish. Bolani mashg'ulot va o'yin vaqtida kuzatish. Bola bilan individual suxbatlashish Bolani mashg'ulot jarayoni davomida kuzatish va mashg'ulot davomidagi ishlarini o'rganish

Emotsional-irodaviy muhit Bolada ustun bo'lgan kayfiyat (xursand, g'amgin). Kuzatiladi: ta'sirchanlik, sekin harakatlanish, o'zini ushlolmaslik, bosiqlik. Atrofda sodir etilayotgan voqealardan ta'sirlanish. Qo'rqish, xayron qolish, zavq olish, rahm qilish tuyg'ulari bolaga xos bo'lishi. Vazifalarni bajarishda, o'zini tutishda irodani ishlatish qobiliyati. Mumkin bo'lmagan harakatlardan o'zini ushlay oladimi?	Bolani turli dars, darsdan tashqari, sayil, o'yin va h.q.lar davomida kuzatish
Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari O'zini tutish qoidalariga rioya qilish. O'quv, mehnat va o'qin o'ynash davomida o'zini ko'rsata olish. Axloqiy sifatlar: yaqinlarga, qarindoshlarga, do'stlariga bo'lgan munosabat. Katta yoshdagilar va boshqa bolalar bilan o'zaro munosabat. Atrofdagilarga bo'lgan bog'lanish, sevgi, mehribonlik tuyg'ularini paydo bo'lishi; zarar etkazish, boshqalarni xafa qilish, yolg'on gapirish va h.q.larga bo'lgan moyillik. "Buzg'unlik" odati, daydilik, zo'ravonlik, shuningdek, o'ta zo'ravonlikka bo'lgan moyillik.	Bolani turli faoliyati davomida kuzatish

Shuni nazarda tutish zarurki, agar bolalar maktabda ta'lim olishsa, bolaning u yoki bu qobiliyatining vujudga kelish dinamikasi, xatolar mazmuni, bola dasturni o'rganish davomida to'qnashayotgan qiyinchiliklar haqida mulohaza yuritish maqsadida pedagog tekshirishni o'tkazishdan oldin barcha o'qtuvchilar bilan bolaning o'zlashtirish qobiliyatini muhokama etish, daftarlarni diqqat bilan o'rganib chiqishi kerak. Bolaning nafaqat texnik qobiliyatlari to'g'risida balki uning kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, qiziqish doirasi haqida fikr yuritish imkonini beruvchi rasmlarni tahlil qilish tashxis nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni gapiradigan bo'lsak ularning son, o'rab turuvchi olam haqidagi elementar tushunchalari, mustaqqil faoliyat yuritish imkoniyatlari mavjudligi to'g'risida gapiramiz. Maktab o'quvchilarini tekshirish jarayonida ularning hozir o'tilayotgan va o'tilgan dasturiy materialni bilish darajasi o'rganiladi.

O'qish jarayonini tekshirish davrida bola tomonidan harfni taniy olish, bo'g'inlarni, so'zlarni, qo'shilib yozilgan tekstni o'qiy bilish, tovush-xarfli taxlil va sintez qilish. Bolaning o'qish usuliga, o'qish tempiga, mantiqiy urg'u berilishiga, so'zning tuzilishini saqlashiga, tovush talafuzi davomida qo'pol xato va buzilishlarga yo'l qo'ymaslikka diqqatni qaratish lozim. Eng muhimi so'z va ga-

plarning ma'nosini bola tomonidan anglashdir. Agar bola o'qishni bilmasa, shunda unga matnni o'qib yoki gapirib beriladi, keyin bola tomonidan tekstni tushungaligini tekshirishadi.

Odatda, matnni tushunish va o'qishni o'rganish aqli zaif bolalarda kuzatiladi. 7-8 yoshida ham ular xarflarni eslab qololmaydi, tanish so'zlarni tushuntirib berolmaydi va ularni rasm bilan solishtirishda qiynalishadi. Engil aqli zaif bolalar 7-8 yoshida maxsus ta'lim yordamida alifbeni o'rganishi mumkin, lekin ular uchun xarf va bo'g'inlarni bir- biriga qo'shish juda qiyin, ular faqat harflab o'qiy oladi. Bu bolalar o'qigan matnni to'liq tushunmaydi, kerakli tartibdi uni qayta gapirib berolmaydi. Ularga ko'rinmas bo'lgan sabab bog'lanishlarni tushunish qiyin. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar birinchi o'quv yili davomida o'qish bo'yicha mo'ljallangan ta'lim dasturni o'zlashtira olmasliklari ham mumkin. Ular sekin, bo'g'inlab o'qiydilar, punktatsion intonatsiyaga rioya qilishmaydi, harf va bo'g'inlarni o'rnini almashtirib qo'yish, o'zgartirish, o'tkazib yuborish ularga xosdir. Lug'at boyligi sustligi, bilim zaxirasi va o'rab olgan olam haqida tasavvur chegaraganligi bolalar tomonidan bo'g'in va ifodalarni tushunish, sabab ketma - ketlik bilan bog'lashni amalga oshirishni qiyinlashtiradi, lekin bu bolalarda o'qigan matnni tushunishga intilish yaqqol ko'riladi, shuning uchun ularda yozilgan tekst nima haqidaligini tushunish uchun ko'pincha so'z va ifodalarni qayta o'qish istagi mavjud. Bu ularni mexanik tarzda o'qiydigan aqli zaif bolalarda ajratib turadi.

O'qish ko'nikmasini egallashda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi. Ularda harflab, tahminiy o'qish, so'z va harflarni almashtirib qo'yish va o'qilgan tekstni to'liq tushuna olmaslik alomatlari kuzatiladi.

Ko'rishda nuqson bo'lgan bolalar harf, bo'g'in, so'zlarni idroq etishda qiyinchiliklarga duch keladi, ko'pincha qatorni "yo'qotib qoyishadi" va harf yoki so'zlarni joyini almashtirib qo'yishadi, bu esa o'qish va o'qilgan tekstni tushunish ko'nikmasini egalashga salbiy ta'sir etadi. Tekst bolalarga o'qib berilgan holda, ular tushanadi va tekst mazmunini aytib berishadi.

Serebral falajli bolalarda o'quv ko'nikmalarini egallashdagi

qiyinchiliklar harakt-tayanch a'zolaridagi nuqsonlar oqibatida kelib chiqadi. Ular so'zlarni to'liq idrok etishda qiynaladilar, o'xshash tovush ko'rinishlarini chalkashtiradilar. Natijada bolalarda ko'ruv idrokida buzilishlar bo'lib, qatorni to'g'ri kuzata olmay uni yo'qotib qo'yadilar, bir so'zdan ikkinchisiga o'tishda qiynaladilar. Bunday bolalar mantiqiy grammatik, ya'ni fazoviy xarakterga ega so'z (ot ko'makchilarini) (chapda, pastda, tagida, ustida va x.k.lar) va jumlalar tuzilmalarni qiyinchilik bilan tushunadilar.

Yozuv ko'nikmalarini tekshirish jarayonida pedagog yozuv, grammatika, imlo yozish qoidalarini texnikasini bilish darajalarini aniqlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yozishga tayyorgarligini aniqlash uchun ularga quyidagi vazifalarni berish mumkin: qatorni ajratib uni qalam bilan uzunligiga qarab chizish, katakli qog'ozdagi bitta katakni aylantirib chizib qo'yish, nuqtalar yordamida va ularsiz bosma harflarni yozish, 2-3 so'zdan iborat gapni takrorlash, undagi alohida so'zlarni ajratish, ularning soni va ketma-ketligini ko'rsatish, so'zdagi birinchi va oxirgi tovushni ajratish kabilar bajariladi. Agar bola harflarni bilsa unga kesma harflar yordamida tanish bo'lgan so'zlardan tuzish mumkin. Yozuv texnikasini maktabdagi bolalardan ularning ish daftarlari, shuningdek tekshiruv davomidagi matnni ko'chirish natijalariga ko'ra taxlil qilish mumkin. Bolalarda grammatika va imloviy qoidalarni qanchalik egallaganligini ularning yoshi va o'qishining yilliga qarab vazifalar beriladi.

Intelektual rivojlanishi buzilgan bolalar 7-8 yoshida yozishni o'rgana olmaydilar. Ular vazifani maqsadini tushunmaydilar; motorikasida, harakat koordinatsiyasining rivojlanmaganligining qo'pol buzilishlari, xattoki elementar vazifalarni bajarishdagi fazoviy qiyinchiliklar uchraydi.

Engil darajali aqli zaif bolalar ham yozish ko'nikmalarini egallashda ancha qiyinchiliklarga duch keladilar. Aqli zaif bolalar maxsus ta'lim olmasdan o'zi mustaqil daftardagi katakni ajrata olmaydi, qator qoidalarini hisobga olmaydi, harf elementlarini oxiriga etkazmaydi, ba'zida harflarni oynavand tarzda yozishadi. Yozishdan oldin ular so'zlarni oldindan o'qimaydilar, bu esa xatoliklarga olib keladi, so'zlardagi tovushlarni analiz qilishda qiynaladilar, gapning boshi va oxirini har doim ham ajrata olmaydilar. Aqli zaif bolalarga

imlo, ayniqsa unli hamda jarangli va jarangsiz undosh qoidalarini tushunishlari qiyin.

Psixik rivojlanishda orqada qolgan bolalar 1-sinfda tekshirilganda ko'pincha yozish ko'nikmalarini egalashga tayyor emaslar. Ularga faqatgina tovush taxlilining elementar tarzda taxlilini bajarish xos; unli tovushlarni so'zdan ajratish ular uchun alohida bir qiyinchilik tug'diradi. Yozish davomida bolalar xarflarni, ba'zida bo'g'inlarni qoldirib ketadi, ortiqcha xarflarni qo'shib qo'yishadi. Ularning ishida qoidalarni bilmaslik yoki ulardan foydalana olmaslik bilan bog'liq ko'pgina xatoliklar uchraydi. Shu vaqt ichida, psixik rivojlanishda orqada qolgan bolalarning ishlarida aqli zaif o'quvchilarga nisbatan kamroq xatoliklar uchraydi, qo'pol buzilishlar kuzatilmaligi mumkin.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga yozish malakalarini buzilishi eshitish qobiliyati zaifligi bilan bog'liq xatoliklar xarakterlidir. Ular yozish davomida eshitilishi va talaffuzi bo'yicha bir-biriga o'xshash tovushlarni aralashtirib, bo'g'inlarni tashlab ketadilar, murakkab paytlarda undosh xarflarni o'tkazib yuboradilar, gapning tuzilishini buzadilar.

Nutqi rivojlanmagan bolalar o'ziga xos xatoliklarga yo'l qo'yishadi: so'zlarning o'zaro buzib moslashtirish, xarflarni tashlab ketish va boshqasiga almashtirish, xarf va bo'g'inlarni joyini o'zgartirish, bir nechta so'zlarni bitta so'zga qo'shib yuborish. Maktabga borishi bilan nutqdagi nuqsonlar yo'q bo'lishi mumkin, ammo bilim olish qiyinchiliklari saqlanib qoladi va o'zlashtira olmaslikka olib keladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozish ko'nikmasini egalashda alohida qiyinchiliklarga duch keladi; ularga qatorni buzish, xarflar shaqlini to'g'ri yozmaslik moyildir.

Serebral falajli bolalarda yozish ko'nikmasini egallashda namoyon bo'lgan qiyinchiliklar bolada harakatlanishdagi nuqsonlar bilan ifodalanadi. Ular qog'ozda mo'ljal olish bo'yicha qiynaladilar, ba'zida xarflarni o'ngdan chapga yozadilar. Qo'lidagi mushak tonusini buzilganligi sababli chiziqlarni to'g'ri bo'lishi yo'qoladi, xarflar shakl bo'yicha har xil bo'ladi, ularning qo'shish jarayoni qiyin o'tadi. Yozish mahoratini egallashda alohida qiyinchiliklarga

giperkinezli bolalar duch keladi. Ba'zi bir xolatlarda ularni faqat kompyuterda yozishga o'rgatish mumkin.

Ta'kidlash joizki, me'yorda rivojlanayotgan bolalar etarlicha savodli emas va yozuvi yomon bo'lishi mumkin, shuning uchun yozuvning ko'nikmasini shakllantirilishi diagnostik ahamiyatli ishora sifatida faqatgina psixologik, logopedik, tibbiy tekshirish natijalari bilan bir majmua bo'lib hisobga olinadi. O'qish ko'nikmalarini shaklanganligini aniqlash uchun pedagogik tekshiruvda elementar matematik tasavvurlari o'rganiladi, unda son, arifmetik amallar, misollani tushunishi va echa olishi aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda son haqidagi tasavvurlarini aniqlashda ularga guruhdagi predmetlar sonini (bitta-ko'p, bitta-ikkita-ko'p), ikki xil xajmdagi predmetlar sonini solishtirish taqlif etiladi.

Bundan tashqari, predmetlarni ketma-ket va teskari tartibda sanash, oxirgi sonini nomlab uni yozuvdagi ko'rinishini ko'rsatish so'raladi. Maktabgacha va umumta'lim maktablarida tahsil oluvchi I-II sinf o'quvchilaridan birdan, beshdan, o'ndan, yigirmadan to'g'ri tartibda va teskari tartibda sanash so'raladi. Umumta'lim maktabining birinchi sinf o'quvchilaridan birinchi va undan keyin keladigan sonni nomlash, ikki sonni solishtirish, qaysi biri kattaligini va qancha kattaligini aytish so'raladi. Maktabgacha va maktabning 2-3 sinf o'quvchilarini hisoblash malakalari bo'yicha bilim darajalarini tekshirishda sanash malakalarini aniqlashda quyidagilarga: birinchi qo'shiluvchini bolalar hisoblayaptilarmi yoki unga qo'shib ketayaptilarmi; predmetlarni barmoqlari yordamida sanayaptilarmi; guruhlab sanashda qiynalmayaptilarmi, misollarni jadvallar asosida bajara olishlari, ko'paytirish va bo'lish jadvalini bilishlariga diqqat qaratiladi. Vazifalarni bajarish jarayonidagi tekshirishlarda bolani vazifa shartini tushunishi, berilgan vazifa va savolni shartini qaytara olish imkoniyati, bajarish rejasini tuzishi, bajarish harakatlariga savol tuzish va ularni bajara olish hamda tushuntira olishi hisobga olinadi. Ko'rsatilgan faoliyat yo'l-yo'rig'idan boshqa anologik o'ta olishi muhim diagnostik ko'rsatkich hisoblanadi.

Aqli zaif maktab yoshidagi bolalarni tekshiruvi davomida arifmetik ko'nikmalarni rivojlanishi juda past darajadaligi namoyon. Ularda sonli qator haqida, hattoki aniq materialni oddiy sanash

imlo, ayniqsa unli hamda jarangli va jarangsiz undosh qoidalarini tushunishlari qiyin.

Psixik rivojlanishda orqada qolgan bolalar 1-sinfda tekshirilganda ko'pincha yozish ko'nikmalarini egalashga tayyor emaslar. Ularga faqatgina tovush taxlilining elementar tarzda taxlilini bajarish xos; unli tovushlarni so'zdan ajratish ular uchun alohida bir qiyinchilik tug'diradi. Yozish davomida bolalar xarflarni, ba'zida bo'g'inlarni qoldirib ketadi, ortiqcha xarflarni qo'shib qo'yishadi. Ularning ishida qoidalarni bilmaslik yoki ulardan foydalana olmaslik bilan bog'liq ko'pgina xatoliklar uchraydi. Shu vaqt ichida, psixik rivojlanishda orqada qolgan bolalarning ishlarida aqli zaif o'quvchilarga nisbatan kamroq xatoliklar uchraydi, qo'pol buzilishlar kuzatilmaligi mumkin.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga yozish malakalarini buzilishi eshitish qobiliyati zaifligi bilan bog'liq xatoliklar xarakterlidir. Ular yozish davomida eshitilishi va talaffuzi bo'yicha bir-biriga o'xshash tovushlarni aralashtirib, bo'g'inlarni tashlab ketadilar, murakkab paytlarda undosh xarflarni o'tkazib yuboradilar, gapning tuzilishini buzadilar.

Nutqi rivojlanmagan bolalar o'ziga xos xatoliklarga yo'l qo'yishadi: so'zlarning o'zaro buzib moslashtirish, xarflarni tashlab ketish va boshqasiga almashtirish, xarf va bo'g'inlarni joyini o'zgartirish, bir nechta so'zlarni bitta so'zga qo'shib yuborish. Maktabga borishi bilan nutqdagi nuqsonlar yo'q bo'lishi mumkin, ammo bilim olish qiyinchiliklari saqlanib qoladi va o'zlashtira olmaslikka olib keladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozish ko'nikmasini egalashda alohida qiyinchiliklarga duch keladi; ularga qatorni buzish, xarflar shaqlini to'g'ri yozmaslik moyildir.

Serebral falajli bolalarda yozish ko'nikmasini egallashda namoyon bo'lgan qiyinchiliklar bolada harakatlanishdagi nuqsonlar bilan ifodalanadi. Ular qog'ozda mo'ljal olish bo'yicha qiynaladilar, ba'zida xarflarni o'ngdan chapga yozadilar. Qo'lidagi mushak tonusini buzilganligi sababli chiziqlarni to'g'ri bo'lishi yo'qoladi, xarflar shakl bo'yicha har xil bo'ladi, ularning qo'shish jarayoni qiyin o'tadi. Yozish mahoratini egallashda alohida qiyinchiliklarga

giperkinezli bolalar duch keladi. Ba'zi bir xolatlarda ularni faqat kompyuterda yozishga o'rgatish mumkin.

Ta'kidlash joizki, me'yorda rivojlanayotgan bolalar etarlicha savodli emas va yozuvi yomon bo'lishi mumkin, shuning uchun yozuvning ko'nikmasini shakllantirilishi diagnostik ahamiyatli ishora sifatida faqatgina psixologik, logopedik, tibbiy tekshirish natijalari bilan bir majmua bo'lib hisobga olinadi. O'qish ko'nikmalarini shaklanganligini aniqlash uchun pedagogik tekshiruvda elementar matematik tasavvurlari o'rganiladi, unda son, arifmetik amallar, misollani tushunishi va echa olishi aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda son haqidagi tasavvurlarini aniqlashda ularga guruhdagi predmetlar sonini (bitta-ko'p, bitta-ikkita-ko'p), ikki xil xajmdagi predmetlar sonini solishtirish taqlif etiladi.

Bundan tashqari, predmetlarni ketma-ket va teskari tartibda sanash, oxirgi sonini nomlab uni yozuvdagi ko'rinishini ko'rsatish so'raladi. Maktabgacha va umumta'lim maktablarida tahsil oluvchi I-II sinf o'quvchilaridan birdan, beshdan, o'ndan, yigirmadan to'g'ri tartibda va teskari tartibda sanash so'raladi. Umumta'lim maktabining birinchi sinf o'quvchilaridan birinchi va undan keyin keladigan sonni nomlash, ikki sonni solishtirish, qaysi biri kattaligini va qancha kattaligini aytish so'raladi. Maktabgacha va maktabning 2-3 sinf o'quvchilarini hisoblash malakalari bo'yicha bilim darajalarini tekshirishda sanash malakalarini aniqlashda quyidagilarga: birinchi qo'shiluvchini bolalar hisoblayaptilarmi yoki unga qo'shib ketayaptilarmi; predmetlarni barmoqlari yordamida sanayaptilarmi; guruhlab sanashda qiynalmayaptilarmi, misollarni jadvallar asosida bajara olishlari, ko'paytirish va bo'lish jadvalini bilishlariga diqqat qaratiladi. Vazifalarni bajarish jarayonidagi tekshirishlarda bolani vazifa shartini tushunishi, berilgan vazifa va savolni shartini qaytara olish imkoniyati, bajarish rejasini tuzishi, bajarish harakatlariga savol tuzish va ularni bajara olish hamda tushuntira olishi hisobga olinadi. Ko'rsatilgan faoliyat yo'l-yo'rig'idan boshqa anologik o'ta olishi muhim diagnostik ko'rsatkich hisoblanadi.

Aqli zaif maktab yoshidagi bolalarni tekshiruvi davomida arifmetik ko'nikmalarni rivojlanishi juda past darajadaligi namoyon. Ularda sonli qator haqida, hattoki aniq materialni oddiy sanash

ko‘nikmalari ham yo‘qligi aniqlandi. Predmetlarni sanashda ohirgi natijani aytib bera olmaydilar, berilgan ko‘rsatmani xotiralarida eslab qololmaydilar, yordamlar samara bermaydi.

Engil darajadagi maktab yoshidagi aqli zaif bolalar (2-3 sinf) predmetlarni uchdan-o‘ngacha sanay oladilar. Betartib joylashtirilgan predmetlarni tartibga keltirib joylashtirish topshirig‘ini bajarishda bolalarga tashkiliy yordam kerak. Ko‘p bolalar berilgan sanalarni, ayniqsa, teskari tartibdagilarni tartibga solishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ular qiyinchilik bilan vazifa shartlarini eslab turishadi. Arifmetik misollarni echishda alohida muammolar paydo bo‘ladi. Misol shartlari bolalarning esida turmaydi, misolni echish jarayonini o‘zlari kuzatmaydi va echimning to‘g‘riligini tekshira ololmaydi.

Psixik rivojlanishda orqada qolgan maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga o‘nggacha bo‘lgan sonlar qatorini tushunish oson, ba’zilariga orqaga, teskari tartibda sanash ham qiyin emas, lekin bir sondan ikkinchi songacha sanash qiyin. Ular mustaqil ravishda predmetlarni sanashi, ularni tegishli son bilan solishtira olishi mumkin. O‘ngacha bo‘lgan sanashda bolalar yog‘ochlardan foydalanadi, ba’zilarda barmoqlardan, shunda ham xatoga yo‘l qo‘yishadi. Psixik rivojlanishida orqada qolgan I-II sinf bolalari sonlar yig‘indisini va qoldig‘ini topishga qaratilgan sodda misollarni echishni biladilar. Umumta’lim maktabda ular matematika bo‘yicha dasturiy materialni o‘zlashtirishda, ayniqsa misollarni echishda qiynaladilar: misolning shartlarini umumiylashtirib taxlil qila olmaydilar, to‘g‘ri echim topilsa ham, tushuntirib bera olmaydilar. Biroq ushbu qiyinchiliklar pedagogning yo‘naltirilgan va tashkiliy yordami orqali bosib o‘tiladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va nutqi rivojlanmagan bolalar ba’zilarda teskari sanashda qiynaladilar, chunki sanoq sonlarning nomini va ularning ketma-ketligini darrov eslay olmaydilar, oldingi sonni keladigan son bilan adashtiradilar yoki aksincha. Alohida katta qiyinchiliklarga bunday bolalar arifmetik misollarni echishda duch keladilar, chunki nutqi rivojlanishida nuqsoni bo‘lganligi sababli misolning shartlarini to‘liq tushuna olmaydilar.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar vazifani qayta takrorlashlariga muhtoj, chunki ular so‘z orqali ifodalangan jarayon haqida etarli-

cha tasavvurga ega emaslar. Ularga misolni echish uchun ko‘proq vaqt ajratish kerak.

Serebral falajlikka ega bo‘lgan bolalar sanash ko‘nikmasini egalash uchun o‘ziga xos qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Ularning ko‘pi qiyinchilik bilan o‘ngacha bo‘lgan sonlar tarkibini o‘zlashtirib oladilar; grafik ko‘rinishi bo‘yicha bir biriga o‘xshash sonlarni adashtiradilar, sonlar qatorini o‘ng tomondan chapga qarab tuzadilar.

Me’yorda rivojlanayotgan bolalarning aksariyati 7 yoshiga qadar og‘zaki 100 gacha sanash malakasiga ega bo‘lishadi, va sodda arifmetik misollarni echishni biladilar. Maktab o‘quvchilari matematikaga oid dasturlarning asosiy bo‘limlari bo‘yicha bilimga ega bo‘lganlarini aniqlaydilar va misollar echishda zehni o‘tkirligini namoyish etadilar.

Ta’kidlash joizki, pedagogik tadqiqotning materiallarini tahlil qilishda bolaning rivojlanish shart-sharoitlari va bu jarayonda oilaning roli haqidagi ma’lumotlar katta ahamiyatga ega.

Pedagogik tekshirishning umumiy tahlili

Pedagogik tekshirish va baholash bolaning malakalari, ishlash qobiliyati, ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizlari haqida ma’lumotlar yig‘indisi bo‘lib, bu ma’lumotlar bolaga ta’lim olishda qanday yordam berish masalasini hal etishga xizmat qiladi. Bolani psixologo-pedagogik tekshirish va baholash uchun taxminan 5ta sabab mavjud: skrining, saralash, yordam xizmatini rejalashtirish, yordamni baholash va bolaning ta’limdagi dinamikasini aniqlash.[1]

Pedagogik tekshirish asosida pedagog-defektolog faqatgina bolaning bilim darajasi haqida xulosa chiqarmasdan, balki u yoki bu qiyinchiliklar nimalardan kelib chiqqanligi, ularning asosida nimalar yotishini tushunib oladi.

[1] John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. New York, Springer Science+Business Media, LLC, 2007. 334-335 betlar

Tekshirish natijalarini tahlil qilish vaqtida asosiy diqqat bolaning berilgan topshiriqni mustaqil bajarish qobiliyati, lozim bo'lganda yordamni qabul qilishi va o'zlashtirilgan harakat usulidan o'xshash sharoitlarda foydalanishga qaratiladi.

Intellekti me'yoridagi bolalar ularga ko'rsatilgan va tushuntirilgan harakat usulidan boshqa sharoitda ham foydalana oladilar. Pedagogik nazoratdan qolgan, psixik rivojlanishi sustlashgan, analizatorlarida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar ta'limni etarli darajada o'zlashtira olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida bolani kuzatayotib pedagog-defektolog uning ko'rsatmani tushunish xususiyatlari va faoliyati xarakterini, xulqini ko'zdan kechirib borish, topshiriqqa qiziqishini, olingan natijalarni to'g'ri baholay oladimi, maqtov va tanbehga qanday munosabatda bo'lishiga e'tibor berish lozim.

Aqli zaif bolalar ko'rsatish va tushuntirishdan keyin ham o'xshash topshiriqlarni yangi topshiriqday bajarishga qiynaladilar. Alohida analizatorlari doirasida yaqqol ifodalanmagan nuqsonlari bo'lgan bolalar berilgan ko'rsatmalarni qiyinchilik bilan qabul qiladilar, shuning uchun nutqida va eshitishda kamchiliklari bor deb tahmin qilingan bolalarga topshiriqning maqsadini ko'rgazmali ravishda yoritib berish tavsiya etiladi. Masalan, ko'rish o'tkirligi pasaygan bolalarga tushuntirishda saqlangan nutq, eshitish va sezish funksiyalariga tayaniladi.

Bolaning yordamchi maktabda o'qishi lozimligi haqidagi xulosa ishonarli tarzda asoslanishi kerak.

Bola yordamchi maktabda o'qishi lozim emas degan holatlarda, pedagog bolaning bilim darajasi, potensial imkoniyatlari haqida o'z xulosasini chiqarishi kerak. Olingan barcha ma'lumotlar va xulosalar komissiyada boshqa mutaxassislar bilan muhokama qilinadi.

3.5. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish

Nutq bolaning yuqori psixik funksiyalarini shakllanishida alohida muhim rol o'ynaydi. Bola uchun kattalar bilan so'zlashuv funk-

siyasini bajarib, fikrlashni rivojlantirish, bolaning o'zini tutishini rejalashtirish va boshqarish, uning hayot davomidagi psixik faoliyatini tashkillashtirish uchun baza bo'ladi, shaxs rivojlanishiga to'liq ko'maklashadi. Shuning uchun zamonaviy maxsus pedagogika va psixologiyada bolaning anomal rivojlanishining oddatiy xolatlarini, ya'ni ko'p bolalarda uchraydigan va nutq buzilishiga olib keladigan nuqsonlarni erta yoshda aniqlab ularni bartaraf etish tartiblari tasdiqlangan (V.I.Lubovskiy). Nuqsonlarning bir qismi faqtgina talaffuz etish jarayoniga tegishli va nutqning tushunish darajasi past bo'lgan paytda aniqlanadi. Boshqa nuqsonlar nutqning fonematik tomoniga mansub va nafaqat talaffuz paytida deffekt bilan gapirish, balki o'qish va yozish qobiliyatini pasayishiga olib keluvchi so'zning jarangdorligini xis qilish sust ekanligini ham bildiradi. Uchinchilari – bu kommunikativ nuqsonlardir, ular bolaning maktabda ta'lim olishiga va ijtimoiy muhitga moslashishiga yordam beradi.

Aqli zaif, yoki boshqa nuqsonga ega bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va davolashda nutqni va muloqotni shaklantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq nuqsonlari shaxs va nogironlikka bog'liq ravishda bir-biridan farq qiladi.

Keyingi 25 yilda bolalarda nutq buzilishlarini tushunishda ikkita asosiy yondashuv ajratiladi. Ana'nanaviy yondoshuv nogironlikni sababi yoki etiologiyasi bo'yicha tasniflaydi. Makkormik i Shifelbush (1990) o'z ishlarida 5 ta etiologik kategoriyalarni ta'riflaganlar:

1. Sensor buzilishlar (eshitish va ko'rish nuqsonlari) bilan bog'liq nutq va muloqot buzilishlari:
2. Harakat buzilishlari (serebral falajlik yoki bifid elkasi) bilan bog'liq nutq buzilishlari;
3. Markaziy nerv sistemasining jarohatlanishi bilan bog'liq nutq va muloqotning buzilishlari, nuqsonlari
4. Og'ir emotsional buzilishlar bilan (masalan, shizofreniya, autizm) bog'liq nutq buzilishlari;
5. Kognitiv sustlashganlik bilan, masalan, aqli zaiflik bilan bog'liq nutq va kommunikatsiyaning buzilishlari

Blum va Leyxi psixologik yondoshuv vakili bo'lib, bu yondoshuvda nutq nuqsonini tasnif qilmasdan, uni tasvirlaydi. Aniqroq aytilganda, ushbu yondoshuvda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola-

ning nutqini me'yorida rivojlanayotgan bolaning nutqi bilan taqqoslaydi.[1]

Og'zaki nutqni tekshirish

Logopediyada nutqdagi nuqsonlarni taxlil qilish uchun asosiy metodika bo'lib R.E.Levina tomonidan ishlab chiqilgan metodika hisoblanadi. Ushbu taxlilning asosida murakkab, ko'p bosqichli hisoblangan nutqdan foydalanishiga zamonaviy qarash yotadi. Bolada nutqi rivojlanishida ishtirok etadigan komponetlardan biri shakllanmagan bo'lsa, natijasida o'zining orqasidan ikkinchi, uchinchi va h.q. komponetlarning o'zgarishini keltiradi. Shuning uchun, logopedik tadqiqot nutq tizimining komponetlarini o'rganishni o'z ichiga oladi:

– mustaqil, bog'langan nutq;
– so'z (leksika) boyligi;
– nutqni grammatik qurilishi;
– nutqning talaffuz tomoni (tovushlarni talaffuz qilish, so'zning bo'g'inlari bo'yicha tuzilishi, fonematik idrok etish).

Logopedik tadqiqot davomida aniq maqsadlar qo'yiladi:

– bolaning nutqiy ko'nikmalarining hajmini aniqlash;
– ko'nikmalarini yoshiga qarab hamda psixik rivojlanishiga qarab solishtirish,
– nuqsonlar, nutqiy faollik va psixik faoliyatning boshqa ko'rinishlarini solishtirish.

Dastlab bosqichda logopedik tadqiqot maxsus xujjatlarni o'rganish va ota-ona bilan suhbatlashish bilan boshlanadi. Mazkur bosqichning vazifasi – anamnestik ma'lumotlarni bolani nutqi rivojlanishining davom etishi to'g'risidagi natijalar bilan to'ldirish. Nutq rivojlanishining quyidagi asosiy bosqichlari ajratiladi:

– gugulashning boshlanishi, noaniq g'uvur-g'uvur, birinchi so'z, gap tuzish vaqti;

[1] 5 John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. New York, Springer Science+Business Media, LLC, 2007. 561-561 бетлар.

– nutqning rivojlanishi to'xtab qolmaganligi (agar to'xtab qolgan bo'lsa, nima sabab bo'lgan va qachon qayta tiklangan);
– atrofdagilarning so'zlashuvi xarakteri (yaqinlarining so'zlashuvini o'ziga xos xususiyatlari, ikki tillilik, kattalar tomonidan bolaning nutqiga qo'yilgan talablar);
– bolaning nutqidagi nuqsoniga bo'lgan munosabat;
– logopedik yordam ko'rsatilganligi va uning natijalari.

Nutqdagi nuqsonlar ba'zilarida eshitish kobiliyati past bo'lishi sababli paydo bo'lishi mumkin bo'lganligi uchun, tekshirilayotgan bolada ushbu qobiliyat yaxshi saqlanganligi haqida ma'lumot bo'lishi lozim.

Eshitishni tekshirishda ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardan (nog'ora, childirmacha, mushuk, qushcha) hamda maxsus tanlangan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Pichirlab gapirilgan va suhbat qurilgan nutqni bola tomonidan eshita olishini tekshirish lozim. Bola logoped qarshisiga orqasi bilan 6-8 metr masofada turadi. Logoped nafasni to'liq chiqaradi va pichirlab so'zlarni aytadi, bola ularni takrorlashi kerak, masalan, maktab, choynak, mashina, chemodan va h.q. Bola tomonidan bu vaziyatni idrok etish qiyin bo'lsa, logoped o'sha so'zlarni 4 metr, keyin esa 3 metr masofada takrorlaydi. Xulosa qilib bola qaysi masofada pichirlangan gapni eshita olishi ko'rsatiladi.

Eshitish qobiliyati me'yorda bo'lsa bola 6 metr masofada shivirlab gapirilgan so'z va iboralarni eshitishi va takrorlashi kerak. Eshitish qobiliyati tekshirilayotganda ko'rish qobiliyatini ishga solish kerak emas. Shivirlangan so'zlarni bola 3 metr masofada eshitolgan bo'lsa, u holatda eshitish qobiliyatini aniqlab olish maqsadida maxsus maslahatga muhtojlik borligi haqida ko'rsatma beriladi.

Umuman gapira olmaydigan yoki gapirishni endi boshlayotgan bolalarda eshitish qobiliyatini tekshirish anchagina qiyinchilik tug'diradi. Bunday hollarda bolaga tanish bo'lgan predmetlar tasvirlangan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Boladan logoped tomonidan aytilgan so'zni takrorlashni emas, unga mos rasmni ko'rsatish so'raladi. Avval logoped bola yonida turib gapiradi, keyin esa uzoqlasha boradi. Eshitish qobiliyati past bo'lsa bola audiometrik tekshirish bo'yicha mutaxassisga yuboriladi.

Nutqni tekshirish bolaning faol (eksperessiv) nutqini tekshirish bilan birgalikda, atrofdagilarning nutqini tushunishini (impressiv) qamrab oladi.

Impressiv nutqni tekshirish bo'yicha asosiy vazifalar:

– logoped tomonidan ko'rsatilayotgan etilgan rasmlardagi predmetlarni, uning qismlarini, sifatini, u bilan bog'liq haraktlarni nomlab berish (so'zlarni tushunishini tekshirish);

– og'zaki aytilgan turli murakkablikdagi ko'rsatmalarni bajarish (gaplarni tushunishini tekshirish);

– logoped tomonidan aytilgan grammatik shaklga mos predmet yoki rasmni tanlash (grammatik shakllarni tushunishini tekshirish);

– matnni qayta gapirib berish, matnga oid savollarga javob berish, shaqli buzilgan matn bilan ishlash va h.q. (matnni tushunishini tekshirish);

Impressiv nutqning shakllanganlik darajasini ta'riflash keyinchalik logopedik xulosada o'z aksini topadi:

– qaratilib so'zlangan nutqni tushunish to'liqlicha shakllangan;

– kundalik so'zlangan nutqni tushunish;

– qaratilib so'zlangan nutqni tushunish chegaralangan (vaziyatga qarab);

– qaratilib so'zlangan nutqni tushunmaslik.

Faol (ekspressiv) nutqni tekshirish bola bilan suhbatlashishdan boshlanadi, uning maqsadi fikrini ifodalay olish qobiliyatini umumiy saviyasini aniqlash.

Bola javoblarini suhbat davomida taxlil qilish keyingi bosqich tekshiruvini aniqlash va taxminiy farazni ifodalashga yordam beradi. Bolada elementar iborali nutqning yo'qligi, nutq tizimidagi komponentlarni, nutqning grammatik qurilmasini va fonematik jarayonlarini o'rganishga imkon bermaydi. Agar bola suhbat jarayonida u yoki bu yo'l bilan mustaqil bog'langan nutqini borligini ifodalasa, uning mustaqil nutqini shakllanganlik darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishini aniqlash kerak. Bunday xollarda nutqni tekshirish an'anaviy tarzda nutq komponentlarining barcha tomonlarini o'rganishni ko'zda tutadi.

Bog'langan nutqini tekshirish suhbat davomida mustaqil nutqini chuqur tekshirishga mo'ljallangan bir qator vazifalarni o'z ichiga oladi:

– suhbat;

– syujetli rasmlar bo'yicha hikoya tuzish;

– qismlarga ajratilgan seriyali syujetli rasmlar asosida xikoya tuzish;

– qayta so'zlab berish;

– tasvirlovchi hikoya tuzish;

– tasavvurlari asosida hikoyani tuzish;

Bog'langan nutqini baholash mezonlari. Bog'langan nutqni baholashda shuni esda tutish kerakki, to'rt yoshdagi bolalar endigina oddiy keng tarqalgan gaplarnigina egallay oladilar. 3-4 yoshda bolalar murakkab gaplardan foydalana boshlaydilar. 4 yoshdan so'ng tanish bo'lgan ertakni qayta aytib bera oladilar, bajonidil she'rlarni yod oladilar. 5 yoshda bolalar ikki marotaba eshitgandan so'ng qisqa matnlarni qaytarib ayta oladilar. 5 yoshdan so'ng ko'rgan va eshitganlarini ketma-ketlikda va batafsil aytib, uning sabab va oqibatlarini tushuntira oladilar. 6 yoshdan so'ng bolalar o'zlari mustaqil ravishda ochib berilgan va mantiqiy tuzilishga ega hikoyalar tuza oladilar.

Nutqi rivojlanmaganlikning bog'langan nutqini o'ziga xos tomonlari:

– sintaktik tuzilmalarning bir xil va kambag'alligi; bola mustaqil nutqida asosan oddiy gaplardan foydalanadi;

– bir xil turdagi gaplarni kengaytira olmaslik;

– bola predmet yoki hodisalarni ifodalashini chegaralanganligi;

– hikoya qilishning mantiqiy tuzilmasining buzilishi: eng kerakli joyini tashlab ahamiyatsizini aytib beradi;

Keyingi yo'nalishdagi logopedik tekshiruv **so'z boyligi zahirasini** tekshirishga qaratilgan. Bunda quyidagi vazifalar qo'yiladi:

– so'z boyligini yosh me'yoriga mos yoki mos emasligi; faol lug'atini xarakterlash (fe'l, sifat, otlarning borligi, nutqning boshqa qismlarida foydalanishi);

– so'zlarni leksik ma'nosini tushungan holda ifodalashini aniqlash;

Tekshiruv davomida quyidagilarni inobatga olish zarur:

– Ot so'z turkumiga oid so'z boyligi:

– predmet va uning qismlarini ifodalovchi otlar (choynak, qopqoq, burun);

– leksik ma'nosi bo'yicha o'xshash otlar (ko'ylak-kamzul);
– umumlashtiruvchi so'zlar (sabzavot, meva, idish-tovoq, kiyim-kechak va h.q.)
– yil fasllarining nomi;
– hayvon va ularning bolalarining nomlari;
– kasb-hunarlarning nomi.

Fe'l turkumiga oid so'z boyligi:
– predmetlarni harakatlarini ifodalovchi so'zlar;
– holat, tuyg'u, xodisalarni ifodalovchi so'zlar.

Fe'llar nafaqat infinitiv shaklida (yugurmoq, yuvmoq, chizmoq), balki zamonlar bo'yicha qo'shimchalar yordamida ham ishlatiladi (yugurdi-yugurib keldi).

Sifat so'z turkumiga oid so'z boyligi:

Kuyidagilarni ifodalovchi sifatlar:
– predmetlarning katta-kichikligini ifodalovchi (baland, past, tor);
– rang (asosiy rang va uning tuslari);
– shakl (doira, tuxumsimon, kvadrat);
– sifat (sutli, yumshoq, silliq);
– mavsum (yozgi, kuzgi, qishki).

Ravish so'z turkumiga oid so'zlar ham olib boriladi: tez, sekin, baland ovozda, balandda).

Bulardan tashqari qarama-qarshi so'zlar (antonimlar) so'z boyligi ham o'rganib chiqiladi.

So'z boyligini o'rganishning eng oddiy yo'li – bu predmetlar va ularning sifatini mavzuli (o'yinchoqlar, mebel, transport) yoki vaziyatbop (do'kon, ustaxona, sinf) omillar bo'yicha maxsus ajratilgan rasmlarning nomini aytib berish.

So'z boyligini baholashning mezonlari. Leksik imoniyatlarni baholash vaqtida shuni yodda tutish kerakki, bolaning nutqi me'yorida rivojlansa va tarbiya muhiti yaxshi bo'lsa uning so'z boyligi juda tez ko'payib boradi. 3-4 yoshda so'z boyligi 600-2000 so'zdan iborat bo'ladi. Bolalar atrofdagi predmetlarni va hodisalarni to'g'ri nomlashadi, etarli darajada predmetlarni sifatini, harakatini ifodalovchi so'zlarni bilishadi.

4 yoshida so'zlarni turi va ko'rinishi bo'yicha, antonimlar va sinonimlarni, kichraytiruvchi- erkalovchi so'zlarni yasash qo'shichalarni (barmoqcha, quyoncha, kuylakcha) o'z nutqida qo'llay oladilar.

5-6 yoshida bolalar o'zlashtirib olgan so'z tuzish ko'nikmasi nutqda predmetlarning sifatini ifodalaydigan so'zlardan foydalanish (temirli, taxtali, plastmassali), hamda boshqa-boshqa so'z turkumlaridagi bir o'zaqli so'zlardan (suzish suzuvchi-suzuvchan) foydalanish.

Nutq buzilishidagi ustun turgan leksik xatolar:
– predmetning bir qismini uning o'zini nomi bilan almashtirib nomlash (yoqa, eng – kuylak);
– predmet nomini unga mos harakat nomi bilan almashtirib nomlash (bog'lovchi ip - bog'laydigan);
– o'xshash vaziyat yoki tashqi belgilarga qarab predmetni nomini almashtirib nomlash (panama, beret, shlyapa – shapka; kreslo, taburet - stul);
– ko'rinishi ,bo'yicha emas, turi bo'yicha predmet nomini almashtirib nomlash (moychechak, qo'ng'iroqcha, atirgul - gul);
– predmetning belgisi nomini almashtirib nomlash (tor-tor emas, kalta-kichik, uzun, keng - katta);
– umumiy turshum bop so'zlardan foydalanish (o'yinchoqlar, idish-tovoq, kiyim-kechak, gullar);
– antonimlardan foydalanmaslik, sinonimlarni kam ishlatilishi.

Logopedik tekshirishning muhim tomoni – nutqning grammatik qurilishini shakllanganligini tekshirish. Bular kuyidagicha:
– gapning grammatik tuzilishini to'g'riligi;
– otlarning turli kelishik shakllaridan foydalanish xarakteri;
– otlarning birlik va ko'plik sonlardan to'g'ri foydalanish;
– turli so'z turkumlardan to'g'ri foydalanish;
– so'z tuzish va so'zni o'zgartirish ko'nikmalarga egalik darajasi.

Nutqning grammatik tuzilishini tekshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:
– syujetli rasmga qarab gap tuzish (gapda so'zlar soni ko'pligi, so'zlar grammatik tartibliligiga qaraladi);

– bo‘g‘inlar qolib ketishi (xokechi-xokeychi);
– antitsipatsiya (astobus-avtobus).

Nutq faoliyatini o‘rganish tizimining muhim ajralmas qismi - bu nutqning nafaqat ifoda etish tomonlarini, balki tovushlarni idrok etish darajasini o‘rganuvchi tovush chiqazish jarayonini tekshirishdir.

Avval artikulyasion apparatning: lab, til, tish, jag‘, tanglaylarning tuzilishini va harakatchanligini ko‘rib chiqish kerak. Ularning me’yorga mosligi aniqlanishi kerak. Tekshirish jarayonida quyidagi anomal vaziyatlar uchrashi mumkin:

– lablar - qalin, ingichka, kalta;
– tishlar - siyrak, qiyshiq, mayda, jag‘ aylanmasidan tashqarida, yiriq, orasida ochiq joy yo‘q, ochiq joy katta; tepa yo past kurak tishlar yo‘q;
– jag‘ (tishlam) – ochiq oldinga chiqqan, ochiq bir tomonga og‘gan, prognatiya (tepa jag‘ oldinga chiqqan), progeniya (past jag‘ oldinga chiqqan);
– tanglay – baland, gotik, tor, silliq, kalta, past;
– til – keng, kichik, tor.

Artikulyasiya a’zolarini harakatchanligini tekshirish uchun bolaga quyidagi topshiriqlar beriladi:

– lablarni til bilan yalab olish;
– tilni burunga, iyakka, chap, keyin esa o‘ng quloqqa etkazish;
– tilni cho‘lpillatmoq,
– tilni kengaytirish, keyin esa torlashtirish,
– til uchini og‘izdan chiqarib tepaga ko‘tarish va shu holatda uzoqqroq ushab turish,
– til uchini labning chap burchagiga, keyin o‘ng burchagiga tekkizish, ritmni o‘zgartirib turish,
– lablarni oldinga qarab cho‘chchaytirish, keyin esa tabassum qilib kengaytirish.

Bunda artikulyasiya a’zolarining harakatida erkinlik va tezlik, ravonlik, hamda bir harakatdan ikkinchi harakatga o‘tish qanchalik engil bo‘lishi kuzatiladi.

Tovushlarni talaffuz etilishini tekshirish paytida bolaning u yoki bu tovushni o‘zini alohida talaffuz etish va ulardan mustaqqil nutqda

foydalanish ko‘nikmasi aniqlanadi. Tovushlarni talaffuz qilishning kamchiliklarini belgilab olish kerak: almashtirish, buzib talaffuz qilish yoki ba’zilarda tovushlar tushib qolishi.

So‘zlardagi tovushlarni talaffuz etilishini tekshirish uchun predmetlar tasvirlangan maxsus rasmlar to‘plami kerak bo‘ladi. Tovushni talaffuz qilinishini tekshirishning eng oson yo‘li quyidagicha: bolaga predmetlar tasvirlangan rasmlar taqdim etiladi, ularning nomlanishida tekshirilayotgan tovush turli o‘rinda, ya’ni so‘zning boshida, oxirida, o‘rtasida va undoshlar orasida joylashgan bo‘lishi kerak.

Keyin bola ushbu tovushlarni qanchalik to‘g‘ri talaffuz etishi tekshiriladi. Buning uchun bolaga tegishli tovush takrorlanishi mumkin bo‘lgan ketma-ket bir nechta jumlani talaffuz etish so‘raladi.

Fonematik idrok qilinishni tekshirish davomida bola alohida olingan tovushlarni ajrata olishini aniqlash kerak. Birinchi navbatda, bu artikulyasiya yoki eshitilishi bo‘yicha bir biriga yaqin tovushlarga tegishli:

– sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlar (sa-sha, za-ja, sa-za, sa-sa, sa-cha va h.q.);
– jarangli va jarangsiz tovushlar (ta-da, pa-ba, ga-ka va h.q.);
– sonor tovushlar (ra-la, ri-li va h.q.);

Bunda asosiy usul bo‘lib logoped orqasidan turli qarama-qarshi, sa-sha, sha-sa, ach-ash, ra-la, sha-ja va h.q. bo‘g‘inlarni takrorlab borish hisoblanadi. Boladan berilgan tovushni eshitgan zahoti u imo-ishora (qo‘lni ko‘tarish, chapak chalish) yordamida javob berish so‘raladi.

Fonematik idrok qilishni o‘rganish paytida jaranglashi bo‘yicha yaqin bo‘lgan so‘zlarni ajrata olish qobiliyati aniqlanadi: moy-loy-toy, sim-shim. Bu maqsadda bolaga tegishli rasmni tanlab olish yoki har bir juftlikni ma’nosini ifoda etish so‘raladi.

Nutqni kompleks o‘rganish natijalari logopedik xulosada, rivojlanish darajasi va nutq nuqsonining shaqli ko‘rsatilgan beriladi (dizartrik bolada nutqning to‘liq rivojlanmaganligining (NTR) 3 darajasi; alaliyali bolada (nutqning to‘liq rivojlanmaganligining) NTR 2 darajasi, ochiq rinolaliyali bolada NTR 2-3 darajalari va x.k.).

Logopedik xulosa nutqning xolatini ochib beradi hamda boladagi o'zigo xos qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'nalgan bo'ladi. Bu individual yondashuvni frontal va guruhli mashg'ulotlarda to'g'ri tashkil etishda muhimdir.

Duduqlanuvchi bolalar nutqini tekshirish

Duduqlanishni tekshirish kompleks tarzda o'tkazilishi joiz. U bolani psixologik-pedagogik va logopedik tomondan tekshirish hamda tibbiy tekshirish natijalari tahlilini o'z ichiga olishi joiz.

Duduqlanishni logopedik tekshirish, uni natijalarinini qayd etish quyidagi ketma-ketlikda aks ettirish mumkin:

I. Umumiy ma'lumotlar:

1.F.I.Sh.
2.Tug'ilgan sanasi (yil, oy, kun).
3. Uy adresi, telefon.
4. Bolani tarbiyalanish yoki ta'lim olish joyi.
5. Ota-onaning F.I.Sh., yoshi, ish joyi va kasbi.
6.Oilasining tuzilishi.
7. Ota-onaning shikoyati.

II.Anamnez ma'lumotlarini yig'ish

1. Irsiyati.
2. Onaning homiladorlik va tug'ruq davrini kechishi.
3. 1-yoshgacha bo'lgan davridagi rivojlanish xususiyatlari.
4. Maktabgacha yosh davr xususiyatlari.

– Nutqiy anamnez
– Bolani tarbiyalanish shart-sharoitlari
– Duduqlanishni rivojlanishi
– Oiladagi psixologik muhit, o'zaro munosabat xususiyatlari

III. Mutaxassislar xulosasi tahlili

IV. Duduqlanuvchi bolaning psixologik-pedagogik tavsifnomasi

V. Mayda qo'l motorikasi va barmoqlarni nozik harakatlari, mimika va artikulyasion motorika holatini tekshirish

1. Statik koordinatsiya

2. Dinamik koordinasiya
3. Harakatlarni bir vaqtda bajarilishi
4. Barmoqlarni nozik harakatlarini tekshirish
5. Mimikaning ixtiyoriy harakatlarini tekshirish
6. Artikulyasion motorika holatini tekshirish

VI. Nutqiy funksiyani tekshirish

1. Artikulyasiya a'zolarining anatomik tuzilishi.

2. Tovush talaffuzi, fonematik eshituvni, so'zni tovush-bo'g'in tuzilishini, so'zni tovush tuzilishini analiz va sintez qilish ko'nikma va malakalarini tekshirish.

3. Nutqni leksik tomonini tekshirish — lug'at boyligining miqdor va sifati xususiyatlarini tekshirish.

4. Nutqni grammatik tomonini tekshirish – qo'llaniladigan gap shakllari, agrammatizmlarni mavjudligi, ularni namoyon bo'lishi, bog'langan nutq shakllanganligi.

5. Nutqiy hulq-atvor xususiyatlari. Aloqaga kirishimliligi, nutqiy faolligi, vazminligi, impulsivligi, atrofdagi sharoit o'zgarishiga asining o'ziga hbs xususiyatlari (nutqiy jarayonlarni dinamikligi va o'z vaqtidaligi, muloqot mavzusini o'zgarishiga egiluvchanlik xususiyatlari), nutqni tashkil etish xususiyatlari.

6. Nutq tempi
7. Ovoz
8. Nafas

9. Duduqlanishni hilma-hil nutq turlarida namoyon bo'lish xususiyatlari

10. Muskul-pay tortishish turi
11. Muskul-pay tortishish joyi
12. "Qiyin" tovushlarni mavjudligi (tovushfobiyasi)

13. Nutqiy nayranglarni mavjudligi: (so'zlarni almashtirish; so'zlarni joyini o'zgartirish; embolofraziyalar; nutqiy muloqotni ihtiyoriy tarzda cheklash).

14. Ixtiyorsiz harakatlarni mavjudligi va ularning xarakteri

15. Duduqlanishni kuchaytiruvchi omillar: hayajonlanish, toliqish, notanishlar bilan suhbatlashish, shovqin va h.z.

16. Nutqga ijobiy ta'sir etuvchi omillar: shovqin, o'zini nazorat qilish, diqqatni ko'chirish, nutqni harakat bilan uyg'unlashtirish.

17. Nutqiy nuqsonga munosabati: adekvat, noadekvat, shaxsni qadr-qimmati tizimiga ta'sir etuvchi (sverxsennoe)

18. Logofobiyaning mavjudligi: vaziyat tanlovli, umumiy va h.z.

19. Duduqlanish namoyon bo'lmaydigan davrlar mavjudligi: doimiylik va davomiyligi.

20. Hissiy holatni duduqlanishga ta'siri.

21. Duduqlanishni kechishi: progradient; regredient, stasionar, to'lqinsimon.

22. Duduqlanish bilan birga keluvchi nutq nuqsonlarini mavjudligi.

23. Muskul-pay tortishish darajasini aniqlash: engil, o'rta, og'ir, duduqlanish sababli so'zlashni umuman amalga oshirish mumkin bo'lmagan holatlar.

Xulosa_____

Tavsiyalar_____

Duduqlanuvchi bolani tekshirish natijalari logoped tomonidan psixologik-pedagogik xulosa shaklida umumlashtiriladi. Xulosada duduqlanuvchi bolani me'yordan chetga chiqish holatlarini belgilovchi ma'lumotlarini aks ettirish joiz.

Logoped xulosasida quyidagilar aks etishi joiz:

– MATni organig jarohatlanish belgilarini mavjudlig (tibbiy xulosa asosida);

– Muskul-pay tortishish shakli (tonik, klonik, aralash);

– Muskul-pay tortishish joyi (nafas, ovoz, artikulyasiya a'zolari, aralash);

– Duduqlanish darajasi (engil, o'rta, og'ir);

– Nutq tempi (sekinlashgan, tezlashgan, juda tez gapirish, taxilaliyaning mavjudligi);

– motor funksiya holari;

– Hissiy holatni duduqlanishga ta'siri; duduqlanish jarayonida hayajonlanishni mavjudligi, hayajonlanishga a.

– Logofobiyaning mavjudligi;

– Nutqiy va harakatli nayranglar, embolofraziyalar, nutq uslubini o'zgarishi;

– Boshqa nutq nuqsonlarini mavjudligi (dislaliya, dizartriyani engil shakllari, NTR);

– Duduqlanuvchi bolani individual-psixologik xususiyatlari, o'yin faoliyatining xususiyatlari, o'quv faoliyatiga munosabati.

– Duduqlanish namoyon bo'ladigan vaziyatlar doirasi (barcha vaziyatlarda, aksariyat vaziyatlarda, ba'zilarida).

Shu asosida logoped duduqlanishni klinik shakllarini ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosalardan lavxalar:

1-namuna

Duduqlanish bolaning me'yordagi psixik-motor rivojlanish fonida 2 yoshu 5 oyligida qo'rquvdan keyin o'tkir boshlangan, nutqning fonetik, leksik-grammatik tomonini rivojlanishi yoshiga mos. Muskul-pay tortishishi artikulyasion-nafas a'zolarida, tonoklonik tipda, o'rta darajada namoyon bo'lmoqda. Nevrotik shakldagi duduqlanish.

2- namuna

Tibbiy hujjarlarga ko'ra MATni organik jarohatini rezidual holatlari namoyon bo'ladi. Duduqlanish psixik-motor va nutqiy rivojlanishni orqada qolish fonida 3 yoshu 10 oyligida asta-sekin yuzaga kelgan, Muskul-pay tortishishi artikulyasion-nafas-ovoz a'zolarida, tono-klonik tipda, engil darajada namoyon bo'lmoqda. Engil darajadagi dizartriya kuzatilmoqda. Nevrozsimon shakldagi duduqlanish.

Dizartrik bolalar nutqini tekshirish

Dizartriya- bu nutq apparatining innervatsiyasini etarlicha emasligidan, nutqning talaffuz tomonini buzilishidir. Dizartiriyada etakchi nuqson markaziy va periferik nerv tizimini organik jarohatlanishi natijasida nutqning talaffuz tomonini buzilishidir. Dizartriyada talaffuz tomondagi nuqsonlar nerv tizimidagi jarohatning chuqur va xarakteriga ko'ra turli darajalarda namoyon bo'ladi. Engil hollarda tovushlarni buzib, noto'g'ri talaffuz etish, og'ir hollarda esa tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish, nutq tempning, ifodaliligini yo'qligi. Xullas, talaffuz tushunarsiz bo'lib qoladi.

Dizartirik bolalarni logopedik tekshiruv, umumtizimli yondashuv asosida qurilgan bo'lib, nutqiy xamda nutqsiz o'ziga xos tomonlarini, bola va uning yoshini umum psixo-nevrologik holatini e'tiborga olgan xolda logopedlar tomonidan ishlab chiqiladi. Bolaning yoshi qanchalik kichik bo'lsa uning nutqiy rivojlanish darajasi shunchalik past bo'lib, uning nutqsiz nuqsonlarini analiz qilib tashxis qo'yish katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda nutqsiz nuqsonlarni baholashda dizartriyani erta tashxis qilish vositalari ishlab chiqilgan. Dizartriyani ko'pincha birinchi ko'rinishlari, xattoki buni yangi tug'ilgan chaqqaloqlarda ham ko'rish mumkin psevdobulbar sindromidir. Yig'lashining past yoki umuman yo'qligi(afoniya), emish, yutishining buzilishi, ba'zi tug'ma reflekslarning sustligi yoki yo'qligi(emish, izlash, kaft-og'iz-bosh). Bunday bolalarning baqirig'i uzoq vaqt past, ko'pincha burun orqali chiqadi, ba'zi hollarda nafas chiqarish vaqtida hiqillashlar kuzatiladi.

Bolalar ko'krakni yomon oladilar, emish vaqtida tiqilib qoladilar, ko'karadilar, ba'zida sut burunlaridan oqib chiqadi. Og'ir xollarda bolalar hayotining birinchi kunlarida umuman ko'krakni olmaydilar, ularni zond orqali ovqatlantiradilar, bunda esa yutish refleksini buzilishi kuzatiladi. Yuzaki, tez, bir ritmsiz nafas oladilar. Bu buzilishlar yuz asimmetriyasi bilan bog'liq bo'lib, og'izning bir tomonidan sutni oqib ketishi, pastki labning osilib yotishi natijasida ko'krak uchini ushlay olmasliklar kuzatiladi.

Gu-gulashi ham bir xilligi va kech namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bola uzoq vaqt chaynay, tishlay olmaydi, qattiq ovqatga tiqiladi, piyoladan choy icha olmaydi. Tug'ilgan paytidagi tug'ma shartsiz reflekslarning yo'qligi yoshi katta bo'lgan sari o'z ta'sirini ko'rsatib, ixtiyoriy artikulyasion motorikani rivojlanishini qiyinlashtiradi. Nutkiy simptomlarda katta buzilishlar - talaffuz nuqsonlarining turg'unligi, ihtiyoriy artikulyasion xarakatlarni etarlicha emasligi, ovoz alari, og'iz bo'shlig'ida tilning noto'g'ri holati, kuch ishlatib xarakatlantirishi, ovoz va nutqiy nafasning buzilishi, nutq rivojlanishini orqada qolishi kuzatiladi.

Dizartrik bolalarni har bir yoshini tekshirishda mimik muskulaturasini xolatini kuzatishdan bolash muhim ahamiyatga ega. Mimik muskulaturasini tinch xolatidan boshlab tekshirish boshla-

nadi. Bunda burun-lab bo'g'imlari ifodalanishi xamda ularning simmetrikliligi, lab chiziqlarining qalinligi va yumilishi qay etib boriladi. Mimik muskulaturada kuch ishlatib harakatlantirish (giperkinez) xolatlarining borligi aniqlashtiriladi. Bolada og'zini yopib tura olishi, ko'zlarini yumishi(ikkalasini hamda alohida-alohida), qoshlarini chimirishi, kelishib xarakatlanishlarni namoyon bo'lishi kuzatiladi(sinkineziya).

Harakat funksiyalarini tekshirish turli xil yuklamalar hamda ko'p marotaba takrorlashlar orqali o'tkazish tavsiya etiladi. Bunda xar bir xarakatning to'liq yoki to'liq bajarilmaganlik sifatlari kuzatiladi. Oxirgi xollarda xarakatlardan to'xtashi, xarakatlarini toliqishi, uning temp va ravonligini o'zgarishi, xajmi, boshqa xarakatlarni qo'shishi qay etib boriladi. Bunday yuklamalardan dizartriyaga xos bo'lgan so'lak oqishlari kuzatilishi mumkin.

Keyin logoped artikulyasion xarakterdagi o'ziga xos xususiyatlarni kuzatishga o'tadi (tishlamning (prikusning) noto'g'rililigi, til yuganchasining kaltaligi, tanglayning kubaga o'xshashi).

Tekshiruv artikulyasion apparat motorikasining quyidagi komponentlarini o'rganishdan boshlanadi:

– lab xarakatlari: ochish va yopish, irjayish, oldinga cho'zish;

– pastki va tepa jag'larining xarakati: og'izni ochib, yopishi;

– til harakati: oldinga-orqaga, tepaga-pastga, chapga-o'ngga, tashqariga chiqarishi;

– yumshoq tanglayning xolati: yumshoq tanglayni "a" tovushini kuchli aytilganda ko'tarilishi, unli tovushlarni talaffuz qilganda burun orqali havo oqimini chiqish yoki chiqmasligi, chiqishining bir maromdaligi, yutish refleksini bor yoki yo'qligi (shpatel bilan yumshoq tanglayga tekizganda chaynash xarakatlarini namoyon bo'lishi).

Bulbar paralichni o'tkir hollarida lab, til va boshqa artikulyasion organlarning erkin xarakatlarining yo'qligi; bunday hollarda ba'zi reflektor harakatlarni aniqlash mumkin. Masalan, labini kulgi holatiga keltirish, shpatel bilan tekizilganda tilini tortib olishi, yo'talganda yumshoq tanglayni xarakatlanishi, esnashi va x.k.

Ovoz bog'lamlarining va yumshoq tanglay falajini nafas hamda ovoz xosil bo'lishida ifodalanishi. Ovozni burun orqali chiqishi ku-

zatiladi. Odatda nafas olish, chiqarish yuzaki, tekis emas.

Tovushlarni talaffuz etishini umumqabul etilgan metodikalar orqali tekshiriladi. Shuningdek bunda artikulyasiyaning o'ziga xos xususiyatlari, xarakatlarining aniqliligi, kiruvchi tovush artikulyasiyalarining tartibi, bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tishning bir maromdaliligi, qo'shimcha tovushlarni ifodalanishi belgilanadi. Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlardan tashqari so'zlardagi bo'g'in tuzilmalarini egallash darajasiga diqqatni qaratish lozim.

Tovushlar talaffuzi tekshirilgandan so'ng tovushlarni farqlay olishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Bolaga logoped ketidan bir qator oppozitsion tovushli bo'g'inlarni qaytarish taklif etiladi, masalan: ta-da-ta, sha-sa-sha, ra-la-ra. Ushbu tovushlarni bolalar ko'pincha talaffuz eta olmaganligi uchun u tovushlarni talaffuz etirishga emas ularni ajratishga xamda tanishiga diqqat qaratiladi.

Dizartrik bolalarni tekshirishda ko'pincha uchraydigan undosh tovushlarni ajratishinigina emas, balki unlilarni aralashtirib yuborish xususiyatlarini ham aniqlashi lozim (ular odatda artikulyasiyasini, differensiyasini yomon qiladilar).

NTR bolalar uchun ishlab chiqilgan vositalar yordamida nutqning leksik-grammatik tomonini rivojlanish darajasi tekshiriladi. Dizartrik bolalarni leksik tomonini tekshirishda predmetlarni nomlashdagi qiyinchiliklarni e'tiborga olish kerak. Shuning uchun bola biron-bir predmetni nomlamasa, ushbu so'z uning passiv lug'atida bor yoki yo'qligi tekshiriladi.

Tekshirishlar natijasida logoped faqatgina artikulyasion nuqsonlar va tovushlar talaffuzinigina emas, balki nutqning umumiy rivojlanish darajasi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Tashxis shifokor va logoped bilan birgalikda qo'yiladi. Dizartrik bolalarni nutqiy xaritasida tibbiy tashxis bilan birgalikda, logoped dizartrikning imkoniyatlarini e'tiborga olib nutqiy nuqsonlariga tizimli analiz qilgan xolda xulosalaydi. Masalan:

– psevdobulbar dizartriya, fonetik nuqsonli;

– psevdobulbar dizartriya, nutqning fonetik-fonematik tomondan rivojlanmaganligi;

– psevdobulbar dizartriya, fonetik-fonematik rivojlanmaganlik,

artikulyar- akustik disgrafiya (bu variant o'quvchilarda uchrashi mumkin).

– psevdobulbar dizartriya, nutqning to'liq rivojlanmaganligi (III daraja).

Yozishni tekshirish

Bolalardagi yozuvning buzilishi- bu o'ziga xos qiyinchilik hisoblanib, bolaning nutqiy faoliyatining ma'lum bir rivojlanmagan tomonidir. Eshitishi va intellekti me'yorida bo'lgan maktab yoshidagi bolalarda ushbu rivojlanmaganlik avvalo so'zdagi morfologik tuzilma va tovushlar haqidagi ta'savvurlarining etarlicha shakllanmaganda namoyon bo'ladi. Bunday xollarda bola nutqdagi tovushlarni taxlil va sintez qilishga tayyor emasligi, natijada o'qish va to'g'ri yozish malakalarini egallashda qiyinchiliklar kuzatiladi. R.E.Levinaning (1961) ko'rsatishicha yozuvdagi kamchiliklar ifodalanishiga ko'ra turlicha tuzilish va darajaga ega. Logopedda qiziqish uyg'otuvchi yozuvdagi buzilishlarining diagnostik belgilari, bu nutq jarayonlarini etarlicha shakllanmaganligi natijasidagi o'ziga xos xatolar hisoblanadi. Yozuv ko'nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklar nutqiy nuqsonlarga va boshqa omillarga ham bog'liq bo'lishi mumkin (maktabdagi ta'limning doimiy emasligi, pedagogik qarovsizlik, eshitish, ko'rish, intellektni sustlashishi va x.k.).

Maktab daftarlarini ko'rib chiqilgandan so'ng, yozuvning shakllanganlik darajasini va undagi xatolar xarakterini bilish mumkin. Nuqsonning tuzilishini aniqlash uchun uch bo'limdan iborat maxsus tekshiruvlar o'tkazilishi kerak:

– eshituv diktanti;

– mustaqil yozishi;

– matndan ko'chirish.

Birinchi bo'lim o'z ichiga eshituv diktantini oladi, vazifalar qismlari sekin-asta murakkablashib boradi.

Tekshiruv harf, bo'g'in, so'z yozishdan boshlab nutqning murakkab shaqli bilan tugatiladi. Endigina ta'lim olishni boshlagan bolalarga harflarni aytib turish (diktovka) asosida yozish taqlif etiladi.

Bolaga alohida tovushlar aytib turish orqali, grafik tasvirlarini yozib olishi kerak. Ushbu sinovlar bola tovushlarni to‘g‘ri eshitib tushunayotganligi, grafik tasvirlarini mos shifrlayotganligini aniqlashga yordam beradi.

Keyingi jihati- aytib turib (diktovka ostida) alohida bo‘g‘inlarni yozishni tekshirish. Bolaga ochiq bo‘g‘inlar (na, sa, si, tu, mo va boshqalar), yopiq (an, um, ot), undosh tovushlarni birga kelishi(sto, stu), oppozitsion bo‘g‘inlar (sa-za, sa-sha, ra-la, ba-na). O‘quvchilar bo‘g‘inlarni yozishni o‘rniga, kesma alifbodan foydalanishlari mumkin. Sinovlarning maqsadi – bola tovushlarni qanchalik to‘g‘ri farqlay va ajrata olishini aniqlash.

Bolani yozuv malakasini qanchalik darajada egallaganini bilish maqsadida alohida so‘z va iboralar sinov uchun taqlif etiladi. Boshida oddiy, so‘ngra murakkab fonetik so‘zlar, shuningdek qisqa iboralar diktovka qilinadi.

Alohida so‘z va iboralarni eshituv jarayonini logopedik tekshirishda turli murakkablikdagi rasmlar bo‘yicha mustaqil yozishi ham tekshiriladi. Tekshirish materiali sifatida bola uchun tanish predmetlarning rasmlaridan foydalanish mumkin. Ushbu predmetlarni nomini yozishi yoki mustaqil nomlashi hamda rasmlar bo‘yicha alohida gaplar tuzishi taqlif etiladi.

Matn tarkibiga kiruvchi so‘zning tovush-bo‘g‘in analizi orfoepiya meyorlariga mos ravishda diktovat qilish tavsiya etiladi.

Yozma nutqni logopedik tekshirishning ikkinchi bo‘limi bolalarning mustaqil yozuvini tekshirishni nazarda tutadi. O‘quvchilarga (asosan 2-3 sinf va undan kattalar) ushbu maqsadda quyidagilar taqlif etiladi:

– rasmlar ketma –ketligi bo‘yicha mustaqil ravishda qisqa gap tuzish va yozish;

– o‘qigan yoki eshitgan hikoyasini yozma ravishda bayon etish;

– berilgan mavzu bo‘yicha insho yozish;

O‘quvchilarning mustaqil ishlari orqali, so‘zdagi tovushlarni xatolarini analiz qilish, turli agrammatizm turlarini aniqlashga yordam beradi.

Logopedik tekshiruvning uchinchi bo‘limida matnni ko‘chira olish xususiyati, qiyin xollarda esa alohida harf, bo‘g‘in, so‘zlar na-

4 BOB. TURLI YOSH BOSQICHLARIDAGI RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O‘RGANISH XUSUSIYATLARI

1.1. Go‘daklik davrida bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish (tug‘ilgandan to 1 yoshgacha)

Rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Ilk bolalik davri tibbiy va psixologik-pedagogik nuqtai nazardan bolaning rivojlanishidagi muhim bosqichlardandir. Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o‘zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini rivojlanishi jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash, bartaraf etish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agarda bolaning kompensator imkoniyatlari, to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, olib borilgan psixologik-pedagogik korreksiyalash, davolash ishlari o‘zaro uyg‘unlashsa boladagi birlamchi psixik-jismoniy nuqsonlar ancha yumshatiladi, ba’zan esa butunlay bartaraf etilishi mumkin. Bularning barchasi bolalar nogironligini, ularning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratadi.

Erta yordam tashkil etishning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi: ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalariga maxsus yordam ko‘rsatish, bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni tashxis qilish va korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiyalash.

Ilk aralashuv dasturlari (early intervention programs) birinchi bor AQSh va Sharqiy Evropa davlatlarida ishlab chiqilgan. Ularning maqsadi – bola rivojlanishidagi nuqsonlarni iloji boricha qay tarzda ertaroq va bunday bolalar, ularning oilalariga qanday yordam ko‘rsatishni aniqlashdan iborat.

Turli yo‘nalishdagi mutaxassislar bir jamoa sifatida birgalikda faoliyat olib borish orqali tashxis qilishlari, maslahatlar berilishlari

va korrreksiyalash ishlarini olib borishlari lozim. Bu esa mutaxassislardan faqatgina o'z sohalari bo'yichagina emas, balki ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishidagi boshqa sohalar yuzasidan bilimlarga ega bo'lishlarini talab etadi. Bunga bog'lik ravishda tashkil etilgan ilk yordam xizmatiga psixologiya, tibbiyot, maxsus pedagogika (defektologiya) va logopediya sohalaridagi yuqori malakali mutaxassislar jalb etilishi zarur.[1]

Bir yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari bu kattalarga bo'lgan qaramlikdir. Kattalar bilan muloqat qilish – bola umrining birinchi oylaridayoq muhim ehtiyoj. Aynan shu muloqat jarayonida bolaning psixik faoliyatining asoslari shakllanadi. Bu yoshda rivojlanish bir me'yorda kechmaydi, shuning uchun uni baxolash dinamik kuzatish talab etiladi.

Rivojlanishning tezligi va bir me'yorda kechmasligi bola umrining birinchi yoshini yutuqlar bo'yicha bir necha bosqichlarga taqsimlaydi.

Birinchi davrda (umrning birinchi oyi) - yangi tug'ilgan chaqaloqlik davrida – rivojlanishdagi etakchi yutuqlarini ajratish qiyin, biroq xayotining 3-4 xaftasidayoq kommunikativ xulqini aniqlash mumkin: erkalashga bolani labini oldinga cho'chchaytirib, kulgu bilan javob qaytarishi.

Ikkinchi davrning eng katta yutuqlari bolaning atrofdagilarga javoban his-tuyg'ularining hamda eshitish, ko'rish idrokining rivojlanganligidir. Osilib turgan o'yinchoqqa diqqat bilan qarashi, harakatdagi buyumlarni kuzatishi, kattalar yuziga e'tibor berish qobiliyati rivojlanadi. Bir oylikning oxirida ikkinchi oylikning boshida kattalarga javoban iljayish paydo bo'ladi. Rivojlanishining ikkinchi davrining yakunida bola da kattalar bilan muloqotda bo'lish xar tomonlama jonlanadi. Ushbu jonlanish yangi tug'ilgan bolaning go'daqlik davriga o'tganligidan dalolat beradi. Boshni gorizontal va vertikal xolatda ushlay olish - ikkinchi davrda xaraktlar holatining ko'rsatkichidir.

Uchinchi davrda (3-6 oy) keyingi ko'rish va eshitish idroki alari

[1] John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. 445-446 бетнар.

munada berilganidek yozishi aniqlanadi. Shuningdek bolalarda o'zi mustaqil so'zni o'qib, xotirasiga tayangan xolda yozib berishi kerak.

Yozma nutqni tekshirish natijalari umumlashtirishda quyidagilar zarur:

– yozuvdagi xatolarni analiz qilish; bo'sh jadval tuzish, xatolar turi va sonini klassfikatsiyalash;

– bolaning yozuvidagi xatolarini og'zaki nutqi bilan solishtirish.

Yozuvdagi xatolarni taxlil qilish

Xatolar xili	Xatolar turi	Xatolar soni	Xato yozuvning namunalari
So'zni talaffuz etish xatolari	Undoshlarning almashishi; unlilarni almashishi, unliilarni tashlab yozish, undoshlarni tashlab yozish		
So'zni bo'g'inlaridagi xatolar	Bo'g'in va so'z qismlarni tashlab yozish; joyini almashtirish; ko'shib yozish; so'z qismlarini ajratib yozish		
Leksik-grammatik xatolar	Bog'lanishlarning buzilishi; boshqaruvning buzilishi; Tovushlari bo'yicha o'xshash so'zlarni almashtirish; Semantik jihatdan o'xshash so'zlarni almashtirish; so'zlarni tashlab ketish; so'zlarni qo'shib yozish		
Grafik xatolar	Elementlari soni bo'yicha xarflarni almashtirish; fazoviy joylashishi bo'yicha xarflarni almashtirish; xarflarni oynavand shaklda yozish		
Imlo xatolari			
Darsda o'tilmagan imlo qoidalaridagi xatolar			

Jadval birinchi sinf o'quvchilarining yozuvini taxlil qilish uchun ko'zda tutilgan. Boshqa sinf o'quvchilarning yozuvini taxlil qilishda

"Imlo qoidalaridagi xatolar" bo'limiga dastur talablariga oid o'zgartirishlar kiritish zarur.

Tashxis natijalarini taxlil qilib, birinchi navbatda yozishdagi xatolar darajasi faqat tovush-xarflarni taxlil qilishga ta'sir etadimi, yoki nutq faoliyatining murakkabroq darajasi bilan, nutq vositlarining buzilishi bilan bog'liq ekanligini aniqlab olish kerak.

Tashxis natijalariga qo'ra nutq va yozishdagi nuqsonlarni paydo etgan sabablarga mos holda korreksion o'qitishning yo'l va metodlari aniqlanadi.

Tayanch iboralar:

psixologik tekshirish, pedagogik tekshirish, psixologo-pedagogik tavsifnoma, og'zaki nutq, lug'at boyligi, grammatik qurilishi, talaffuz, dizartriya, duduqlanish.

Nazorat savollari

1. TPPKning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. TPPKda ish qanday tashkil etiladi?
3. TPPK da hujjatlar qanday yuritiladi?
4. Bolaga qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?
5. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tekshirishning mazmuni nimalardan iborat?
6. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tekshirish qanday o'tkaziladi?
7. Logopedik tekshirishning maqsadi nimada?
8. Logopedik tekshirish qaysi bo'limlardan iborat?
9. Lug'at zaxirasini tekshirishga qaratilgan leksik material qanday prinsip asosida tanlanadi?
10. Duduqlanuvchi bolalar nutqini tekshirishda asosan nimalarga diqqatni qaratish lozim?
11. Dizartrik bolalar nutqini tekshirishda nutq harakatlari funksiyalarining o'rganishning xususiyatlari nimalardan iborat?

shakllanishi davom etadi, tevarakda mo'ljal olish qobiliyati paydo bo'ladi, uning negizida nutqni tushunish qobiliyati, predmetli faoliyatining birinchi belgilari, sensor idrok va xulq atvorining dastlabki shakllari rivojlana boshlaydi. Ushbu yoshda ko'rish analizatorining faoliyati yaxshilanishi natijasida etakchi rolni qo'l harakatlarining rivojlanishi egallaydi: davr oxiriga bola qo'li bilan maqsadli harakatlar bajarishga, o'yinchoqlarni qo'liga olib o'ynashga qodir.

Kattalar bilan muloqat qilishda ham bolaning munosabati yaxshi tomonga o'zgaradi. Bola asta sekinlik bilan o'zinikilarni ajrata oladi.

Ushbu davrga faol nutqni boshlang'ich etaplarini rivojanishi xos. Ovozida guvullab ashula aytish bilan birgalikda guvranish paydo bo'ladi.

Birinchi yarim yil oxiriga qarab bola to'g'ri qo'yilgan qo'llarining kaftlariga tayanib, qornida yotadi, orqasidan qorniga ag'dariladi, turg'izib qo'lida uchab tursa oyoqlariga qattiq tiralib oladi.

To'rtinchi davr (6-9 oy) yutuqlarga keskin boy bo'ladi. 7 oyga qarab bola emaylab ketadi. Bu uning xulqini o'zgartiradi – u ko'proq faol va mustaqil bo'ladi, atrofini yaxshi taniydi, harakatlari faollashadi. 9 oyga borib to'g'ri turish, o'tirib olish, yotish, o'rnidan turish, o'tirish, to'siqni ustidan xatlab o'tish funksiyasilari rivojlanadi, ko'l pashjasi va barmoqlarining harakatlanishi tokomillashadi.

Beshinchi davrda (9-12 oy) nutqning rivojlanishi muhim hisoblanadi. 9 oydagi bolaga qarab gapiralganda uning tushunish qobiliyati kengayadi. Bu uning xulqini, faoliyat xarakterini o'zgartiradi. 10-12 oylik bolada faol nutq shakllana boshlaydi, bola birinchi so'zlarini gapiradi.

Nutqni tushuna boshlanishi predmetlar bilan harakat qilish murakkablashadi. 10-12 oyda bola kattalarning gapiga qarab harakatlarni bajarishga o'rganadi. Harakatlar turlicha bo'ladi va maqsadli xarakterga ega. Bolaning o'yinchoqlari soni ko'payadi; o'yin o'ynashga bo'lgan harakatlar seziladi. Bu davrning oxirida bola mustaqil ravishda vertikal xolatga turib yuradi.

Odatda psixodiagnostik o'rganish bolalar hayotining 1,5-2 oyidan keyin boshlanadi. Bunday tekshirishning ob'ektlari bo'lib miyasida erta organik nuqsoni bor, yoki ijtimoiy yo hissiy og'ir muhit-

da (bolalar uyi, ona tomonidan bolaga bo'lgan e'tiborsizli) o'sib boruvchi bolalar hisoblanadi.

Bir yoshdagi bolalarni o'rganishning bir necha metodikalari mavjud. Rossiyada keng tarqalgani bu Gezel rivojlanish Shkalasi, Denver skrining metodikasi (DDST) va boshqalar. G.V.Pantyuxina, K.N.Pechora, E.L.Fruxt, O.V.Bajenova, L.T.Jurba, E.M.Mastyukovalarning ishlarini ham alohida ajratish mumkin.

Barcha metodikalar bitta tamoyil asosida tuzilgan: ular harakat, nutqiy, bilim olish, ijtimoiy soxalarni o'rganishga qaratilgan vazifalar to'plamidan iborat. Yoshiga qarab vazifalar qiyinlashib boradi. Bolaning teshirish natijalari normativ bilan solishtirilib baholanadi. Metodikalar bolaning psixikasi shakllanganligi norma xolatdaligini, qolib ketgan bo'lsa, zaiflashgan sohalarni aniqlash echimini topadi. Rossiya metodikalardagi talablar xorij metodikalardagiga qaraganda ancha yuqoriroq, ayniqsa nutq rivojlanishining baxolashda.

Bir yoshdagi bolalarni tekshirishda amaliyotda ko'proq kuyidagi usullar bilan foydalaniladi (O.V.Bajenva, L.T.Jurba, E.M.Mastyukova).

8 oydan katta bolalarni maxsus stol yordamida tekshirish mumkin, kattaroq bolalar maxsus bolalar stoli yoniga yoki onasining tizzasiga o'tkaziladi. Bolalar faol, uyg'ongan, kasal emas (kasaliklarga bo'lgan moyillik nazarda tutilgan), quruq, qorni to'k, g'azablanmagan, charchamagan bo'lishi kerak.

Boshida bola bilan aloqa o'rnatildi. Agar 8 oydan oshgan bolalar bemalol bunday aloqaga kirsalar va ularga tanish va notanish kattalarni ajrata olmasalar – bu yomon. Alohida e'tibor bola bilan onaning munosabatiga qaratiladi.

Harakatlanish faoliyatining holati aniqlanadi: bosh va qo'llarini ushash, o'tirish va yurish paytidagi holatlarni nazorat qilish imkoniyati va sifati.

Keyin sensor harakatlanishning rivojlanganligi aniqlanadi: kuzatish va diqqatni to'plash funksiyalarning xarakteri o'rganiladi. Buning uchun bola ko'zi oldida 30 sm masofada yorqin 7-10 sm kattalikdagi o'yinchoq gorizontal, vertikal, aylanma yo'nalishlarda aylantiriladi. 2-4,5 oydagi bolaning kuzatish usuli e'tiborga loyiq. Kuzatish funksiyaning o'rganish uchun maxsus eksperimental usul-

lar bilan foydalaniladi. Birinchi vaziyatda harakatdagi o'yinchoq 50 sm masofadagi ekran orqasiga o'tib ketadi; keyin, harakat traektoriyasi saqlanib, ekranning boshqa tomonidan paydo bo'ladi. Agar bola o'z kuzatishini to'xtatmasdan davom ettirgan bo'lsa va ob'ekt ekran orqasidan paydo bo'lgan paytda bolaning nigohi unga qaratilgan bo'lsa vazifa bajarilgan hisoblanadi.

Boshqa vaziyatda bola oldiga 50 sm masofada 35x35 smlik oq ekran o'rnatiladi, unda bir biridan 10 sm oralikda 7x7 ikkita oynacha bor. Oynachalarda ketma-ketlik bilan 7 sm ovozli o'yinchoq paydo bo'ladi. Agar bola bir nechadan keyin bo'lsa ham o'z nigohini o'yinchoq paydo bo'lgan bir oynachadan o'yinchoq paydo bo'lishi kerak bo'lgan ikkinchi oynachaga olib o'tgan bo'lsa vazifa bajarilgan hisoblanadi.

Keyin nigoh ostidan ketayotgan ob'ektga nisbatan bo'lgan munosabatning mavjudligi, bosh va ko'zlarni o'girib ovoz manbasini topish imkoniyati, nutqni eshitib quloq solish qobiliyati o'rganiladi, hamda bekitilgan ob'ektni topish va ikkita ob'ektga bir vaqt ichida qarash tekshiriladi.

Biron bir predmetlar bilan bo'lgan munosabat tekshiriladi. Buning uchun 4 oydan katta bolaga ovozli o'yinchoq beriladi va bolaning o'yinchoqni ushlab olishi, tez va aniqligi, barmoqchalar harakati, ushlab turish vaqti baholanadi. 8 oydan katta bolalarga yana bitta ovozli o'yinchoq beriladi, uning ushlab olish va birdan ikkita o'yinchoqni ushlab turishi baxolanadi. Ikkinchi o'yinchoq birichi bo'sh qo'l tomonidan, keyin bo'sh emas qo'l tomonidan beriladi, bolaning harakatlari baxolanadi. 10 oydan katta bolalarning aylanib o'tish harakatlarining shakllanganligi aniqlanadi. Buning uchun, bolani o'yinchoq bilan qiziqtirib, uni 20x20 smlik bola nigoxiga nisbatan o'ng yoki chap tomonda bo'lgan ekran orqasiga olib qo'yiladi. O'yinchoqning ovozi chiqariladi va bir necha bor u ekran orqasiga bekitiladi. Agar bola o'yinchoqni ekran orqasidan olib bersa vazifa bajarilgan hisoblanadi. Bir yoshgacha bolalar ko'pincha o'yinchoqni ekran joylashtirilgan tomondagi yaqin qo'l bilan olishadi, va faqat bir yoshdan keyingina ekranga nisbatan uzoq bo'lgan qo'l bilan o'yinchoqni olish qobiliyati paydo bo'ladi. Muhim e'tiborni bolada predmetlarga nisbatan bajarilayotgan ishlarga bo'lgan qiziqish va

kuzatish davomiyligiga qaratish kerak. 10 oydan katta bolalarga bir nechta o'yinchoq beriladi va ulardan ketma-ket foydalanish, uchinchi o'yinchoqni ushlab olish xaraktlari baholanadi. Bolani ovqatlantirish paytida ishtirok etadigan predmetlar: butilkacha, qoshiqcha, piyoladan foydalanish harakatlarining rivojlanishi asosiy e'tiborga loyiq. Muhim e'tibor, faqat ikkita - ko'rsatkich va katta barmoqchalarda - olish mumkin bo'lgan predmetlarga nisbatan qiziqishning borligiga qaratiladi.

Kattalar bilan munosabat o'rnatishda tanlangan usullarning rivojlangan darajasini aniqlashadi: ona va bola o'rtasidagi emotsional va ko'rish aloqalarning mavjudligi, hamda ushbu aloqalarni bola va tadqiqotchi o'rtasida o'rnatilishi ko'riladi. Onadan so'raladi: bolaning ba'zi xoxishlarini tushunadimi, bolaning yig'isi qachon nimani bildiradi, yig'i paytida kattaning asi qanaqa ekanligini bilish uchun to'xtashlar bormi, bolaning yig'isi har doim bir hilmi; ularning munosabatida nima o'yinlar o'ynaladi, bola o'yin o'ynagan vaqtda onaning ko'ziga unda-bunda qaraydimi, mimika va jest orqali berilgan oddiy qo'llanmalarni tushanidimi, va nihoyat ko'rsatish imo-ishoralaridan bilan foydalanadimi.

Tekshirish davomida bolaning hissiy va ovoz alarining holati o'rganiladi, tabassumining xarakteri va aniq ifodalanganligi belgilanadi, u qaysi vaziyatlarda paydo bo'lishi taxlil qilinadi. Salbiy hissiy namoyonlar, ularning bola qayfiyatida ko'pligi yoki sezilar darajada emasligi, baqirish xususiyatini bosa bilishi, vaziyatdagi o'zgarishlarga qarab yig'lash, yig'lashini chalg'itib to'xtatish imkonlariga e'tibor qaratiladi.

Psixologik tekshirish odatdagidek xulosa tuzish bilan yakunlanadi. Xulosada nuqsonlarning og'ir ko'rinishda bo'lishini baholash bilan bir qatorda, bolada rivojlanishi buzilgan psixik funksiyalar, ularning buzilish darajasi, hamda normal rivojlanayotgan funksiyalar aks ettirilishi lozim. Bundan tashqari har bir funksyaining tekshirish davomida olingan natijalar asosida xarakteristikasini berib, ularni soxalar bo'yicha guruxlash kerak :

- harakatlanish;
- sensor;
- hissiy;

7-8	O'zi o'tira oladi. Turli xolatdan turli tomonga aylanadi.	O'tirish xolatini o'ziga yashilab oladi; kuzatish uchun qo'lay o'rin tanlaydi. Yarimi-gacha bekitilgan predmetni topadi, boshiga yopil-gan ro'molchani olib tashlaydi. Notanish shaxs-larni ajratadi	Notanish kattaga nisbatan norozillik bildiradi.	Uzoq guvranish, bo'g'inlarni tak-rorlab gapirish, atrofda sodir etilayotgan voqealarga nisba-tan bolada bo'lgan munosa-batni ifodalov-chi so'zlar paydo bo'lishi.	Qo'ldan qo'lga predmetlarni olib o'tkazadi, ikkita o'yinchoqni ushlab turadi, bo'sh qo'li tomoni-dan berilgan o'yinchoqni ushlab oladi. O'yinchoqni ko'zi bilan kuzatib ushlab tura-di. Ikkinchi o'yinchoqni band qo'li tomonidan ushlab oladi. To'siq or-qasidan to'siqqa yaqin bo'lgan qo'li bilan predmetni olishga harakat qiladi.	Harakatlanish va shovqin qilishni urinib koradi. E'tiborni yo'talish yoki xirilash orqali chaqiradi. Ovqatlanishni xoxlamasa labini siqib oladi. Yo'q degan so'zni tushunadi. Tovushlarni chiqazishga harakat qiladi. Ona bolaga nisbatan qo'li bilan yoqimsiz harakat qilsa (burni, qulog'ini tazalasa), u xolda onaning qo'lini chetga suradi
9-10		Ko'z oldida beki-tilgan predmet-ni topib beradi. Kattalar-ning cho'ntagidan qiziq tuyulgan narsalarni oladi, agar ularni usha erga qo'yilganini ko'rgan bo'lsa		Harakatla-nishning boshi va oxirida ovoz chiqarish	Tabletka, no'xot kabi mayda predmetlar-ni qo'liga oladi. Boshqa predmet-larni harakatga soladi: o'yinchoq mashinkani yurg'i-zadi.	E'tibor so'rab onasini qiyimidan tortadi; qo'li bilan "xayr"la-shadi, "qaerda" savolga nigoh yoki harakat bilan javob beradi. Roli aniq bo'lmagan o'yinlar o'ynaydi (onasi ro'molchani beradi-bola uning orqasida bekinadi). "Ber-ol" o'yinida o'yinchoqni ko'p vaqtga bermaydi.

11-12	Qadam tashlab mustaqqil yura boshlaydi	Kitobdagi rasmlarga qiziqish ko'rsatadi. Ismini eshitib qaraydi.		Faqat o'zi va onasi tushunadi-gan belgi-so'zlarni borligi. So'zlar gapiradi, ularning ma'nosini tushunadi	O'yinchoqlarni savatga yig'adi. To'siq orqasidan predmetni to'siq-qa uzoq joylash-gan qo'li bilan oladi; rasmlar-ni tirnaydi, kitob varaqlashga harakat qiladi. Predmetlarni og'ziga kamroq so-ladi, lekin ular-ni erga tashlay-di.	O'yinchoqlarni otadi, kiyinish paytida yordam beradi. Ko'rsatish ishorasini ishlatadi; qarshilik bildirganda, boshini qimirlatadi.

4.2. Ilk yoshdagi (1-3 yosh) bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish

Rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan vaqt bola hayotidagi o'zgarishlar davridir. Meyorida rivojlanishda ilk yoshning muxim yutuqlari bu, yurish, predmetli faoliyat, nutq ko'nikmalarini shakllanishidir. Yurish ko'nikmalari bolaning psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yurish ko'nikmalarini egallash orqali rivojlanishning yangi etapi, ya'ni atrof olamni o'rganadi. O'zi mustaqil harakatlana olganidan keyin bola fazoda mo'ljal ola boshlaydi, predmetlar bilan mustaqil munosabatga kirishadi. Natijada hayotining ikkinchi davrida predmetli harakati keskin rivojlana boshlaydi; hayotining uchinchi davrida predmetli faoliyati etakchi o'rin egallaydi.

Predmetli harakatni rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi bolada idrokni shakllantiradi, chunki predmetlar bilan tanishish jarayonida faqatgina ular nima uchun ishlatilishi emas, balki uning shaqli, kattaligi, rangi, materiali va boshqa xususiyatlari bilan tanishadilar.

Bolalarda oddiy ko'rgazmali harakat shakllarini haqida fikr yuritish, eng birinchi umumlashtirishlari, predmetning ichki va tashqi belgilarini ajratish rivojlanadi.

Ayniqsa bu davrda nutq qizg'in rivojlanadi. 3 yoshgacha bola atrof olam bilan jumlalar yordamida muloqatga kirishadi. Faol

- ovoz faolligi;
- amaliy faoliyat;
- kattalar bilan munosabat.

Xulosaning ushbu qismida nafaqat bola tomonidan muvaffaqiyatli o'tilgan tekshirishlar va ularni bajarish o'ziga xos xususiyatlari, balki bola o'tolmagan topshiriqlar ham ta'riflanishi kerak. Xulosada berilgan ma'lumot bolada kuzatilayotgan nuqsonning xarakteri va mexanizmi haqidagi tadqiqotchi fikrining isboti sifatida xizmat qilish kerak. Bu esa o'z navbatida aniqlanayotgan nuqsonlarni korreksiyalash va tuzatish yo'llarini aniqlash uchun kerak.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning ruhiy-psixik rivojlanishining me'yorlari (O.V.Bajenova bo'yicha)

Yoshi-oy	Soha					
	Harakatla-nish	Sensor	His-tuyg'uga ta'sirchanlik	Ovoz faolligi	Amaliy faoliyat	Kattalar bilan munosabat
1		Ona gapirganda unga qaraydi, shu payt og'zini ochib, yopadi. Ob'ekt-ning gorizontal harakatlanishini ko'rish markazidan boshlab kuzatadi				
1,5		Harakatdagi odamni kuzatadi. Kuzatish ob'ekt tomonidan ko'rish markaziga qarab amalga oshiriladi				

2-3		Ko'zning ko'rish alari rivojlangan – nigohini qaratish, konvergensiya,fokusirovka. Quloq barobarda yangragan ovozga qarab boshini buradi. Qo'llarini tomosha qiladi. O'yinchoq-ning turli harakatlanishini kuzatadi	Gapirayotgan chehraga qarab, taktil ta'sirga tabassum paydo bo'ladi. Gapirayotgan chehraga nisbatan jonlanish shaklanadi va yana keyinroq esa – yorqin predmetga	Birinchi tasodifan tovush chiqarishlar paydo bo'ladi	Tepasiga osilgan o'yinchoqlarga qo'lini tekkizadi. Ob'ektlarga diqqati oshadi. Qo'li etadigan masofada joylashgan ovozli o'yinchoqlar-ni ko'rib, qo'lida harakatlanish paydo bo'ladi	Atrofdagilarga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Ko'z orqali va hissiy aloqa
3-4	Boshini yaxshi tutadi. Qornida yotganda qo'liga tayanish.	Ob'ekt harakatlanishining ko'rinmas izini kuzatadi (10-12 sm ekran). Yo'q bo'lib qolgan ob'ektga e'tiborini qaratadi. Tovushlarni ajrata boshlaydi. Onasini tovushini tanib oladi	Jonlanish oson va tez-tez paydo bo'ladi.	gugulash yuzaga keladi. Tasodifan chiqarilgan tovushlar (a, u, ya, m, p) va ularni kattalar bilan aloqada qo'llaydi	Bilib qo'lga ushlab olish. Turli harakatlanish-lar. Predmetlar-ni og'ziga olish.	Atrofdagilarga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Onsini taniydi. Muloqat paytida ta'sirlanib ketadi. Ko'z orqali va hissiy muloqat-lar mumkin.
5-6	Ko'rib, harakti-ni boshqarish shakllangan (ko'rish nazorati ostida predmetgacha qo'lini etkazib oladi). Uzoq vaqt predmetni qo'lida ushab turadi.	Oynadagi aksiga kulib tabassum qiladi. Qo'llarini tomosha qilish to'xtaydi. O'yinchoqlarga ko'p diqqat qaratiladi. Qulog'idan pastroqda yangragan tovushga qarab boshini buradi.	Salbiy tuyg'ularni boshqarish shakllana-di. Bu baqirish, yig'lash, yig'lash paytida kattaning e'ti-borini bilish uchun to'xtash-larda ifoda-lanadi. Tanish va notanish chehralarga qarab o'zini turli tutadi	Ob'ektlar bilan o'ynaganda ovoz chiqazish (hara-katlarni ovoz bilan kuzatish). Baqirish orqali o'ziga diqqat qaratish. Alohida bo'g'inlar (yoki tovushlar) chiqaradi. Guvranib gapirish boshlanadi.	Tez-tez kattaning qo'lidan o'yinchoq-ni oladi. Ushlab olish shakllana-di. Ikkinchi o'yinchoqni olib, bi-rinchisini o'yna-tib turadi. Harakatlarini kuzatib turadi, ham-ma narsalarni og'ziga soladi. Qog'oz bilan o'y-nashni yaxshi ko'radi. Butilkani og'ziga olib keladi.	Muloqat qilishga harakat qiladi; eshitadi; odam ovoziga qarab boshini buradi. Qo'lga olishlarini xoxlasa, o'z qo'lini cho'zadi. Taqlid qilishning birinchi harakatlarini namoyon bo'ladi. Qo'l bilan ko'rsatilgan jestlarni tushunadi. Oyoq tovushini eshitib, ta'sirlanib ketadi.

lug'ati sezilarli o'sa boshlaydi, biroq so'zlarni talaffuz etayotganlarida bolalar birinchi o'rinda intonatsional-ritmik va musiqiy xarakteristikasidan mo'ljal ola boshlaydilar, shuning uchun ko'pgina tovushlari artikulyasiyasi jihatdan unga yaqinni bilan almashtirilib ifodalaydilar.

2 yoshda nutq funksiyalari nazorat etish rivojlana boshlaydi, bola kattalarning so'zli yo'l-yo'rig'i bo'yicha o'z harakatlarini bo'ysundira boshlaydi. Nutqni tushunish qizg'in rivojlana boshlaydi. Bu faqatgina tushunadigan so'zlarini o'sib borishidagina emas, balki bevosita muloqotning xolatga qarab nutqni tushuna boshlaydi.

Ushbu yosh bosqichida nutqning keskin rivojlanishi barcha psxik jarayonlarga ta'sir ko'rsatib, bola fikrlashining rivojlanishi hamda muloqot vositalarida etakchi o'rinni nutq egallaydi.

Ilk yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik o'rganish bo'yicha tavsiyalar. Ilk yoshdagi bolalarda diagnostik vazifalarni samarali bajarishda tekshiruvni aniq bir maqsada o'tkazish muhimdir. Avvalo shuni ta'kidlab o'tish joizki, tekshiruv natijalarini faqatgina bola bilan ijobiy munosabatga kirisha olganda hamda u vazifalarni bajarishda etarlicha qiziqish uyg'otgandagina samarali baholash mumkin. Tekshiruv o'tkazish ko'picha bolaning yoshi va xolatiga ko'ra aniqlanadi, bu tekshiruvni unumli o'tishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolaning kayfiyatiga hamda u bilan tekshiruv davomida ishonchiga sazovor bo'lishga diqqatni qaratmoq lozim.

Ilk yoshdagi bolani psixologo-pedagogik o'rganishning asosiy maqsadi quyidagi ma'lumotlarni olishdir:

– bilish jarayonlari;
– hissiy-irodaviy doirasi;
– nutqgacha va nutq rivojlanishi;
– harakatlarining rivojlanishi.

Bolani psixik rivojlanishini tashxis qilishdan oldin, albatta uning ko'rish va eshitishida qo'pol nuqsonlarning yo'qligiga qat'iy ahamiyat berish lozim.

2-3 yoshdagi bolalarni eshitishini pedagogik jihatdan tekshirish, murakkab jarayon hisoblanadi. Bu tovushlar bola uchun sekin-asta so'zsiz ta'sir etmay qo'yadi. Ko'pgina normal eshituvchi bolalar ularga qaratilmagan odattiy shovqinlarga, nutqiy signallarga diqqa-

tlarni qaratmaydilar. Ovoz chiqayotgan tomonga boshlarini qayiltirib qarashlari uchun ularga odattiy bo'lmagan signallar yoki bolani javob berishiga majbur etuvchi sababni ko'rsatish lozim. Tovush chiqaruvchi manba sifatida do'mbira, surnay, baland va pichirlab "av-av-av"(kuchuk) va " pi-pi-pi"(qushcha) ovoziga taqlid qilish, bolani ismini, "kksh" kabi tovushlar birikmasini aytish. Tovushlarni bolani orqasidan 6 metr masofada ifodalanishi kerak. ko'ruv idroki orqali nutqida ifodalashini cheklash lozim.

Ilk yoshda ovozga a qilish tovush chiqayotgan tomonga boshini o'girib, 6 metr masofadan pichirlab gapirishga ovoz chiqarib javob asini(tovushni o'xshatish, nutqni qaytarish) berishi.

Bolada 2-3 yoshda tovushga shartli ravishda harakatli alari paydo bo'ladi. Bu bola shivirlaganni eshityaptimi va qanday masofa oralig'ida ekanligini aniqlashga yordam beradi. Bolaninig eshitishi pasaygan deb gumon qilinsa, uni maxsus audiologik tekshiruvga yo'naltirilishi kerak.

Ilk yoshda ko'rishi pasayganlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: taktil organ sifatida og'izdan qo'shimcha foydalanish; predmet yoki rasmlarni ko'zining oldigacha keltirib qarashi, predmet yoki tasvir mayda detallarini e'tiborga olmaslik.

Ilk yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini tashxis qilishning o'ziga xos tomonlari bu bolaning psixik faoliyatini ifodalovchi alohida vazifalarni bajarilishini taxlil qilishga tekshiruvchilarning diqqat markazini qaratishidir. Bunda faqatgina natijasigagina emas, balki vazifa bajarish bo'yicha tashkiliy faoliyatini imkoniyatlari qandayligiga e'tibor qaratiladi. Ilk yoshda bilish faoliyatining asosiy baholash parametrlari quyidagilar deb xisoblash mumkin:

- vazifani qabul etishi;
- vazifani bajarish yo'li;
- tekshiruv jarayonida o'rgatilishi;
- o'zining faoliyat natijalariga munosabati.

Vazifani qabul etish deganda bolani bajarish sifatidan qat'iy nazar berilgan vazifani uni bajarishga roziligi nazarda tutiladi. Bu vazifani bajarishning birinchi, absolyut zaruriy shartidir. Bunda bola o'yinchoq yoki kattalar bilan muloqot qilishga qiziqish bilan qaraydi.

Ilk yoshdagi bolalarda asosiy vazifani bajarish yo'llari quyidagilardir:

- mustaqil bajarishi;
- kattalar yordamida;
- o'rgatilgandan so'ng mustaqil bajarishi.

Berilgan vazifani shartlariga mos ravishda bolaning harakatlari, materialning xarakteri va yo'lanmaning talablariga qarab aniqlanadi. Barcha xollarda vazifani noadekvat bararilishi bolaning aqliy rivojlanishida nuqsonlari borligidan dalolat beradi.

Bolaning yoshiga qarab tavsiya etilgan ta'limiy vazifalargina amalga oshiriladi. Tekshiruv davomida quyidagi yordam turlarini foydalanish mumkin:

- taqlid ostida harakatlarni bajarilishi;
- taqlid ostida vazifani ko'rsatuvchi jestlardan foydalangan holda bajarish;
- taqlid ostida harakatlarni nutqiy yo'llanma orqali bajarish.

Bola elementar taqlid ostida kattadan u yoki bu vazifani u bilan birgalikda harakatlanish orqali bajarilish yo'llarini bilib oladi. Vazifani bajarilish yo'llarini ko'rsatish uchtadan oshmasligi kerak. shuningdek kattaning nutqi vazifadagi maqsadni ko'rsatishi hamda bola samarali bajarishiga imkon berishi kerak. bolaning noadekvat harakatlardan adekvat (mos) harakatlarga o'tishi, uning potensial imkoniyatlaridan dalolat beradi. Ta'limning pastligi ba'zi xollarda qo'pol intellektual rivojlanmaganlik, hissiy -irodaviy doirasidagi nuqsonlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ta'limiy eksperimentdan foydalanish orqali bolaning psixik faoliyatining(diqqat, nutq, idrok, tasavvur, xotira) o'ziga xos tomonlarigina analiz qilishga emas, balki ularning ish qobiliyatini baholashga yordam beradi. Bu ayniqsa rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ilk yoshdagi bolalarda muhimir, chunki ularning nuqsoni oqibatida ish qobiliyatini maxsus tashkil etilgan tekshirishlar orqali xotira va diqqatini ko'pincha tasavvur etish mushkuldek tuyuladi.

Bolalarning bilim faoliyatini diagnostik baholashda ularning o'zining natijalariga bo'lgan munosabati muhim mezon hisoblanadi. Normal rivojlanuvchi bolalarda o'z faoliyati va uni yakuniy natijalariga qiziqish xarakterlidir. Intellektida nuqsoni bo'lgan bo-

lalar nima qilayotgani, undan olinadigan natijalarga befarqlik bilan qaraydilar.

Ilk yoshdagi bolalarda psixologo-pedagogik tekshiruv metodikalarini yoshining rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqqan xolda tanlanishi kerak. Vazifalarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga qarab sekin-asta olib borilishi kerak.

Vazifalar fazoda predmetlarni oddiy shaqli, xajmi, rangiga qarab joylashtirishni nazarda tutadi. Vazifaning asosiy tashxis bosqichi ko'rib moslashtira olishini rivojlanganlik darajasini aniqlashdir. Idrok hususiyatini o'rganishning asosiy metodikalari bu "Segen taxtasi" (2-3 shaklli), piramidani tahlash (uch sharik, uch g'ildirakdan), matryoshkani yig'ish va ajratish (ikki qismli, uch qismli), juft rasmlar(2-4), kesma rasmlar(2-3 qismli).

Logopedik tekshiruv bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra an'anaviy tarzda o'tkaziladi.

Idrokini o'rganishga yo'naltirilgan vazifalar shuningdek, bolaning hissiy-iroda doirasini o'ziga xos hususiyatlarini tashxis qilishda ham foydalanish mumkin. Eksperiment davomida bolani faoliyatini kuzatish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratish lozim:

– kayfiyatining umumiy holati (adekvat, ruhiy siqilish, tashvishli, o'z-o'zidan xursand bo'lish), faolligi, qiziqishining borligi, qo'zg'aluvchanligi, tormozlanish;

– muloqotga kirishishi (kattalar bilan birgalikda ishlashga xoxishi). Yuzaki, engil hamda to'liq bo'lmagan muloqot asosan intellektual nuqsonli, ya'ni aqli zaif bolalar uchun xarakterlidir. Tormozlangan, o'ta tashvishli, yangi sharoit va notanish odamlarga moslasha olishda qiynaladigan, nevrotik a va boshqa ta'sirlardan qo'rqadigan bolalar muloqotga qiyin kirishadilar. Muloqotlardan qochish ko'pincha autik bolalar uchun xosdir, ularda muloqot qilishga talabning yo'qligi bilan o'zini predmetli olamdan chegaralab qo'yganlar;

– rag'bat va ma'qullashga hissiy javob. Ilk yoshdanoq (1-1.5 yoshda) bolalarda ijobiy hissiy ta'sirlar ularda hursandchilik hislarini uyg'otgan. Asabiylashgan bolalarda ham rag'batlar hursandchilik hislarni uyg'otib, vazifani bajarilish natijalarini ko'tarilishiga olib keladi. Befarq munosabat kattalarning bahosiga qiziqmagan yoki

rag'batning ma'nosini tushunmagan bolalarda kuzatiladi(masalan, intellektual nuqsonlari ifodalanganlarda);

– talab va tanqidga hissiy javob. Bunda quyidagilar e'tiborga olinadi: bolani tanqidga bo'lgan munosabati, xatosini to'g'irlashga bo'lgan munosabati, xulqini korreksiyalash bo'yicha qat'iy tadbirlar muhimligi;

– faoliyati davomidagi qiyinchilik va omadsizliklarga bo'lgan munosabat. Ilk yoshning oxirlarida (2,5-3 yosh) bolalar o'zlari mustaqil harakatlarining xatolarini topa olish qobiliyatiga ega bo'ladilar, ko'ruv-harakat vaziyatlariga ko'ra quyidagi elementar nutqiy iboralarni ishlatadilar: "shunday-shunday emas", "qanday?", "to'g'ri", "noto'g'ri", "voy", va x.k. xatolarni ko'rib bolalar vazifani xatolarini to'g'irlagan xolda bajarishga urinadilar, kerakli natijaga erishishga erishishga harakat qiladilar, kerak bo'lsa kattalardan yordam so'raydilar.

Ilk yoshdagi bolalarni harakat doirasini rivojlanganligini tashxis qilishda umumiy va mayda motorikasini o'rganishni taqozo etadi. Umumiy motorikasini rivojlanganlikni baholash parametrlari bolalarning umum yoshdagi meyoriy harakat doirasini rivojlanganligiga qarab tavsiflanadi:

13 oy –o'zi yuradi;

15 oy- uzoq vaqt yuradi, o'tiradi, zinadan chiqa oladi, kresloga o'zi o'tiradi, tizzasida tura oladi;

18 oy – zinadan o'zi chiqib tusha oladi, o'yinchoqlarini orqasidan tashiy oladi, erda yotgan tayoq ustidan xaklay oladi;

21 oy – 15-20 sm kenglik va poldan 15-20 sm balandlik bo'yicha yura oladi;

2 yosh – engashib poldan o'yinchoqni oladi, to'siqlar ustidan xatlay oladi, koptokni oyog'i bilan tepa oladi;

3 yosh – bir oyoqda bir necha soniya tura oladi; tepaga zina bo'ylab chiqishda xar bir zinaga bittadan oyog'ini qo'yadi; pastga tushayotib zinaga ikkala oyog'ini qo'yadi; ikki oyoqda sakraydi; uch g'ildiraqli velosipedni xayday oladi.

Rasm chizish, tugmachalarni taqish, minora (bashnya) qurish kabi vazifalarni bajarish orqali mayda motorikasini rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan:

18 oy – shtrixni qaytaradi;

2 yosh – ko‘rsatilgan aylana va vertikal chiziqlarni qaytaradi;

2,5 yosh – ikki yoki undan ko‘p chiziqlarni chiza oladi;

3 yosh – doirani qarab chizadi, odamning rasmini tanasisiz (boshoyoq) chizadi.

Ushbu yoshdagi bolani psxik rivojlanishini tekshirish xulosa yozish bilan tugallanadi, unda hissiy rivojlanishini ifodalovchi, idrok, nutq va motor sferasi, alohida harakatlarining psixologik tizimi va vazifalarni bajarish xolati sistemasi, shuningdek bolada kuzatilgan xarakterining o‘ziga xos tomonlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar umumlashtiriladi. Psixik rivojlanishida nuqsonlar kuzatilgan bo‘lsa xulosada uning psixologik tizimi haqida xarakteristika hamda uni keyingi hayoti uchun zaruriy korreksiyalash va kompensatsiyalash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

4.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik o‘rganish (3-7 yoshgacha)

Rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha bolalik- hayotning katta va mas’uliyatli davridir. Bu yoshda bolaning psixik rivojlanishida katta o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bilishning faoligi etarli darajada o‘sib boradi: idroki rivojlanadi, ko‘rgazmala tasavvur, mantiqiy fikrlashning ilk ko‘nikmalari paydo bo‘la boshlaydi. Xotiraning mazmunli bo‘lishi, ihtiyoriy diqqatining, bilish imkoniyatlarining o‘sishiga zamin bo‘ladi. Bolani atrof olamni tanishida, shuningdek muloqotning va bolalar faoliyatining boshqa turlarining rivojlanishida nutqning roli o‘sib boradi. Maktabgacha yoshdagilarda og‘zaki ko‘rsatmalar orqali harakatlarni bajarish, tushuntirishlarni ko‘rgazmali qurollar asosida bilimlarni egallashlari imkoniyati paydo bo‘ladi. Ushbu yoshda tasavvurning asosiy hususiyati bu hissiy tasavvur-idrok va ko‘rgazmali tafakkurdir. Maktabgacha yoshdagi bolada idrok, ko‘rgazmali - harakat va ko‘rgazmali – obrazli tafakkurini shakllanganiga qarab, uning keyingi bilish faoliyatining rivojlanishi shunga bog‘liqdir. Ushbu yoshda bolalarda fazoda mo‘ljal olish haqidagi tasavvurlari shakllanadi, bu esa bolani umumiy psixik

rivojlanishida katta o‘rin egallab, elementar sanoq operatsiyalarini amalga oshirishda va matematik tushunchalarni egallashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshda muhim sifatlardan biri- bu bolalarda o‘yinni asosiy hamda birinchi birgalikdagi faoliyati ekanligidir. O‘yin bilan birgalikda maktabgacha yoshdagi bolalarda produktiv faoliyati ham shakllanadi.

Barcha psixik funksiyalarni intensiv rivojlanishi hamda amaliy faoliyatini shakllanishi maktabgacha yoshdagilarda atrofdagilarni o‘rganishga yordam beradi.

Maktabgacha yosh bola shaxsini intensiv ravishda rivojlanishini xarakterlaydi. Irodasi rivojlana boshlaydi, vaziyatga, harakatga ichki bahosi shakllanadi, diqqati mukammallashadi, shaxs rivojlanishining asosiy ko‘nikmalari rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshning oxirida maktab ta’limiga tayyorgarligi shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘rganish bo‘yicha psixologo- pedagogik tavsiyalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xolatini tekshirish bo‘yicha to‘g‘ri baholash uchun, bir qator shartlarni hisobga olish zarur:

– tekshiruvlar davomida qulayliklar yaratish, hissiy muloqatga kirishish;

– engilroq variantdagi vazifadan boshlab ijobiy bajarilishiga zamin yaratib, eksperiment o‘tkazuvchi bilan keyin ham birgalikda ishlashga xoxish uyg‘otish;

– charchab qolmasligi uchun so‘zli va ko‘rgazmali metodikalarni galma-gal berish;

– vazifani o‘yinli xarakterda bo‘lishi;

– bilish faoliyatini rivojlanish darajasini hisobga olish.

Hissiy munosabatni qurish maqsadida, psixologik tekshiruv bola bilan suhbatlashishdan boshlanadi. Suhbat davomida bilimlarining umumiy zahirasi hamda bolani atrofdagilar haqidagi tasavvuri, vaqt, fazoviy mo‘ljal olishi, hissiy hususiyatlari: muloqotga kirishishi, qiziqishlari, sevimli o‘yin va mashg‘ulotlari aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni diagnostik tekshirishda metodikalarni tanlashda psixologik. yosh hususiyatlarini hisobga olish

zarurdir, bularga quyidagilar kiradi: harakatlarining rivojlanish darajasi, ko‘rgazmali-obrazli tafakkuri, etakchi faoliyat-o‘yin, shuningdek boshqa faoliyat turlari-rasm chizish va qurish.

4-5 yoshdagi bolalarni tekshirishning asosiy maqsadi ularni fazoviy mo‘ljal olish faoliyatining rivojlanish darajasini o‘rganish hisoblanadi. Fazoviy mo‘ljal olish harakatlari tasavvur etishning birlamchi asosiy tizimi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshda fazoviy mo‘ljalning quyidagi darajalari ajratiladi:

– xaotik harakatlar;
– variantlarni tanlash;
– maqsad sari yo‘nalgan sinovlar;
– amalda qo‘llab ko‘rish;
– ko‘ruv orintirovkasi.

4-5 yoshdagi intellekti me’yorda rivojlanuvchi bolalar muammoli amaliy vazifali metodikalarni maqsad sari yo‘nalgan sinovlar yordamida deyarli bajaradilar. Ushbu yoshda bolalarda syujetli –o‘yin va syujetli-rolli o‘yinlar rivojlanadi. Bundan tashqari produktiv faoliyat turiga(rasm chizish, qurish va boshqalar) turg‘in qiziqish uyg‘otadilar.

6 yoshdagi bolalarni tekshirishda quyidagi psixologik xususiyatlariga etibor berish lozim: syujetli –rolli o‘yin; produktiv syujetni ifodalovchi faoliyat turlari. Vazifalarni amaliy barib ko‘rish, ba’zi xollarda ko‘ruv orentirovkasiga tayangan xolda amalga oshirishini ham rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlari sifatida ham ko‘rish mumkin.

7 yoshdagi bolalarni tekshirishdan asosiy maqsad – ularning maktab ta’limiga psixologik tayyorgarligini o‘rganishdir.

Maktabga psixologik tayyor tushuncha o‘z ichiga bir necha muhim komponentlarni oladi: aqliy, motivatsion, hissiy-irodaviy va komunikativ tayyorgarligi (bolani tengdoshlari va yangi kattalar bilan munosabatga kirisha olishi).

Maktabgacha yoshdagilarning aqliy rivojlanishining asosiy parametrlari deb quyidagilarni hisoblash mumkin:

– vazifani tushunishi;
– vazifani shartini tushunish;

– bajarish yo‘li (xaotik harakatlar, o‘lchab ko‘rish, maqsad sari yo‘nalgan sinovlar, amaliy qo‘llashlar, ko‘ruv orentirovkasi);
– tekshiruv davomida o‘rganishi;
– natija faoliyatiga munosabati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini o‘ziga xos hususiyatlarini tashxis qilishda “ta’limiy eksperiment shaqlidagi ” maxsus foydalaniladi, shuningdek vazifalar bilim va ko‘nikmalarini shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi.Bajarilgan vazifalarning natijalari bola faoliyatining xarakterini baholashga yordam beradi: bola amaliy sharoitni muammoli deb hisoblayaptimi, vaziyatni analiz qila olyaptimi, maqsadga erishish uchun o‘zi mustaqil yordamchi vositalardan foydalana oladimi.

Bolaning harakatlariga bunday yondashib baho berish rivojlanishining faqatgina “dolzarb” darajasinigina emas, balki potensial, ya’ni yaqin rivojlanish zonasini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida xar bir bola uchun korreksion tarbiyaviy individual dasturni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Bolani maktabda ta’lim olishiga motivatsion tayyorligini tekshirish uchun turli xil metodikalardan foydalaniladi: bolalarni turli faoliyatlari davomida kuzatish, suhbat.

Maktabgacha yoshdagilarni emotsional-irodaviy sferasidagi xolatining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilar xizmat qiladi: xulq-atvor qoidalariga rioya etish, bajargan vazifasi bahosiga to‘g‘ri adekvat javob qaytarmoq, qiyinchiliklarni enga olish.

Maktabga psixologik tayyorgarlikning yana bir muhim sharti ba’zi elementar o‘quv ko‘nikmalarini egallashi-so‘zdagi tovush analizi, o‘qish, hisoblash ko‘nikmalari. Shuningdek qo‘lni yozishga tayyor ekanligi, atrof-olam haqida ma’lum bir tasavvur va bilimlarining borligi.

Maktabgacha yoshdagi bolani psixologo-pedagogik o‘rganishda muhim komponentlaridan biri uning nutqini tekshirishdir.

Logopedik tekshiruv logopedik amaliyotda umum qabul qilingan nutqiy sistemani o‘rganishga qaratilgan metodikalarni o‘z ichiga oladi.

Bolaning rivojlanish darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu uning o‘yin faoliyatidir, uni bahosi esa diagnostik belgilardan

biri bo'lishi mumkin. Maktadgacha yoshdagi bolalarda o'yin –etakchi faoliyatdir, A.N.Leontevaning ko'rsatishicha:

o'yin ichida yangi faoliyat turlari yuzaga keladi hamda differensiatsiyalanadi, masalan o'rganish;

- unda ko'pincha psixik jarayonlar o'rin almashadi;

- hozirgi vaziyatdagi shaxsning asosiy o'zgarishlari unga bog'liqdir.

Bolaning o'yin faoliyati orqali rivojlanishidagi nuqson va kamchiliklarini erta aniqlash mumkin: o'yin bolaning yosh darajasiga mos kelmaydi, yoki o'ziga xos xarakterga ega. Bunda xarakterli ko'rsatkich o'yinni sekin-asta qiyinlashib bormasligi, ijodiy yondashuvning etarlicha emasligi, o'yinda tashabbuskorlikning pastligi, shuningdek bir xildaliligi,o'yin xarakterini o'zgartiruvchi emotsional alarning yo'q yoki pastligi. O'yin faoliyatining shakllanmaganligi psixik rivojlanishni bir qator o'ziga xos hususiyatlarni keltirib chiqaradi.

Bolalarda manipulyasion, protsessual o'yin, syujet elementlari mavjud o'yinlar xarakterlidir.

Manipulyasiyada bola o'zining o'yin faoliyatini amalga oshirmaydi. U o'yinchoqni har tomonlama ko'rib chiqadi, bir joydan ikkinchi joyga qo'yadi, lekin bu harakatlarning barchasi o'sha o'yinchoq uchun xarakterli emasdir (masalan, kubiklarni sochib yuboradi, bir matryoshka bilan ikkinchisini uradi va x.k.).

Protsessual o'yinda o'yin harakatlari takomillashmagan, oxirgi natijaga yo'llanmagan. Bunda harakatlar bolada qanoatlanish xosil qiladi hamda bir necha marotaba qaytarilishi mumkin(mashinani uchirish, kubiklarni maqsadsiz to'p-to'p qurish va x.k.).

Syujet elementlari asosidagi o'yin protsessual o'yindan ongli va maqsad sari yo'nalganligi bilan farqlanadi. Harakatlarining stereotipligi yo'qolib, oxirgi natija paydo bo'ladi. O'yin faoliyatini o'rganish kuzatuv metodi asosida amalga oshiriladi. Uni bog'chadatabiiy sharoitda yoki psixolog xonasida o'tkazish mumkin. O'yinni baholashda uning tuzilishi, xarakteri, o'yin davomida bolani so'zli muloqoti kuzatiladi. Tekshiruv vaqtida bolaga xonadagi o'yinchoqlarni o'ynash hamda ular bilan harakatlarni amalga oshirishga imkon beriladi. Kuzatuv bola o'yinchoqni oldiga yaqinlashganidan boshlanadi. O'yinchoqlarga bo'lgan emotsional asi, ularga bo'lgan qiziqi-

shi, o'ynash xoxishi hamda maqsad sari harakatlarini yo'nalganligi qayd etib boriladi.

Quyidagilar baholanadi:

– o'yinchoqqa bo'lgan qiziqishi(emotsional asi hamda ifodalashi, iltimoslari);

– o'yinchoqlarni tanlashi (mavzuga oid tanlov, biron-bir o'yinni tashkillashtirish maqsadida yoki tasodifiy, kattaroq o'yinchoqni olish maqsadida, nima uchun kerakligiga bee'tibor);

– o'yinchoqlardan adekvat foydalanish, ya'ni predmetni unga mos bo'lgan xolatda ishlatish(noadekvat foydalanish: bola yirtadi, sindiradi. Yalaydi, so'radi, predmetni og'ziga solishga harakat qiladi, o'yinni maqsadsiz, mantiqsiz olib boradi);

– o'yinni mustaqil tashkil etish darajasi (manipulyasiya, protsessual, syujet elementli o'yin);

– o'yinning xarakteri (bir xillik, ijodiy);

– o'yin faoliyati davomida xulqi(emotsional asi, nutqi, boshqa o'yinlarga o'ta olishi, kattalar ishtirokiga munosabati).

Tekshiruv paytida o'yinning yo'qligi rivojlanishda nuqsoni borligini ko'rsatmaydi, chunki bu sharoit bola uchun oddiy emas. O'yinchoqqa bo'lgan munosabat, o'yin darajasini xarakterlaydi. Agar bolada o'yinchoqqa qiziqish bo'lmasa yoki ulardan noadekvat foydalansa, o'yinni o'zi tashkillashtira olmasa, faqatgina kattalar yordamida harakatlarni qaytarsa, uning aqliy rivojlanishi pasaygan deb o'ylash mumkin. 4 yoshdan katta bolalarda syujetli o'yinni ochib bera olmaslik rivojlanishida orqada qolayotganidan dalolat beradi, manipulyasiya darajasidagi o'yin esa rivojlanishdan o'ta orqada qolayotganini bildiradi. Boshqa ko'rsatmalar bilan birga ushbu o'ziga xos xususiyatlar intellektni pasayganini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish tavsifnoma yozish bilan tugallanadi, rivojlanishdagi o'rganilgan faoliyatlar, shuningdek o'ziga xos xarakteristikasi ifodalanadi.

Maktab yoshida bola yangi ijtimoiy talablari qabul etishi kerak. Maktabga borish uni oldiga bir qancha vazifalarni qo'yadi, ularni echish esa psixojismoniy rivojlanishni etarlicha etilganda erishish mumkin. Ushbu yoshda yangi faoliyat shakl rivojlanadi, bu o'quv faoliyati bo'lib- u boladan jismoniy ko'tara olishni hamda aqliy

e'tibor talab etadi. U bilin bog'liq yangi motiv va talablar paydo bo'ladi. Maktabda o'qishning boshida bolada quyidagilarni shakllangan bo'lishi juda muhimdir: jismoniy sog'lomlik; barcha psixik jarayonlarning etarlicha darajada rivojlanishi; emotsional-irodaviy etuklik; kattalar va tengdoshlari bilan muloqot ko'nikmalarini shakllanganligi; xat-savod, hisob-kitob o'rganish elementari, atrofdagi olam haqidagi tasavvurlar va bilim zahirasini etarlicha bo'lishi; mashg'ulotlaga qiziqish, bilim olishga bo'lgan faollik.

Quyida ko'rsatilganlar asosida maktab ta'limida yangi sifat jarayonlari shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshida psixik yangi bilimlarni olish paydo bo'ladi, iroda ko'nikmalarini taqsimlay olish faoliyatini ishlab chiqadi. Bola o'z harakatlarini nazorat etish qobiliyatlarini egallaydi, ularni rejalashtiradi, shuning uchun faoliyati maqsad sari yo'nalgan bo'ladi. O'qish jarayonida bilish jarayonlarini rivojlanishida yangi psixik ko'rinishlar kuzatiladi. Diqqatining xajmi kengayadi, uni konsentratsiya hamda taqsimlay olish qobiliyati; tasavvuri shakllanadi, idrok etishi yanada aniq va differensiallashadi. Yangi qiyofada bolani eslash vositalaridan foydalana olish qobiliyatini shakllanishi muhimdir. Tafakkur darajasini o'sishi natijasida o'quvchilar ramziy-belgilar faoliyatini egallaydi. Tafakkurni ko'rgazmali shakllari bilan birgalikda, kichik maktab yoshida bola tasavvurlari asosida yangi fikrlash operatsiyalarini aniq ko'ruv ob'ektlarga tayanib ishlab chiqa boshlaydi. So'z katta rol o'ynay boshlaydi, so'z-mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Bularning hammasini maktab yoshidagi bolalarni psixologo-pedagogik tashhis qilishda hisobga olish kerak.

1.4. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smirlarni psixologo-pedagogik o'rganish

Rivojlanishining o'ziga xos xususiyalari. O'smirlik yoshi – bu bolalik bilan katta yoshlilar orasidagi davrdir, bolani rivojlanishida faqatgina shu yoshiga xos xususiyatlari mavjud. O'smirlik yoshida bolani anatoma-jismoniy xolatida hamda psixikasida keskin sifat o'zgarishlari kuzatiladi.

Bolaning organizmi tez rivojlana boshlaydi, bu yoshda jinsiy etilishlar sodir bo'ladi. Keskin psixofiziologik o'zgarishlar natijasida zararli biologik ta'sirlarni hamda sotsial faktorlarga bog'liq ravishda, psixik kasalliklarni yuzaga kelishi xavfini kuchaytiradi. O'smirlik yoshida turli xil aksentual xarakterlar shakllana boshlaydi, bular xulqdagi yaqqol nuqsonlarni yuzaga kelishi,ya'ni salbiy sharoitlar natijasida psixopatiyani rivojlanishiga olib keladi.

Bilish jarayonlarida ham keskin qo'zg'alishlar kuzatiladi. Analitiko-sintetik faoliyatida abstrakt tafakkur, tasavvurning murakkab shakllari keskin rivojlanadi.

Ushbu yoshda psixik rivojlanishning markaziy omillari – o'zini anglashni yangi darajasi paydo bo'lib, bu o'ziga bo'lgan bahoni turg'un bo'lmasligi, o'ziga bo'lgan munosabatda keskin tebranishlarni yuzaga keltiradi. O'smirlarda emotsional turg'un bo'lmaslik, o'zini ushlab tura olmaslik, "Ulg'ayish" hissini paydo bo'lishi bilan kayfiyatining tebranishi, o'jarlik, saliy hislatlarni paydo bo'lishi xarakterlidir. Yuqori ta'sirchanlik, boshqalarga achinish hisini yo'qligi, odobsizlik hamdą qo'pollik - uyatchanlik hamda jur'atsizlikni bilan birgalikda kelishi mumkin.

O'smirlik yoshi – qiziqishlar, qimmat baho sistemalarning, dunyo qarashlarni shakllanish davridir("shaxsni ikkinchi tug'ilishidir" A.N.Leontev). Bir tomondan o'smir o'zining invidualligini uqtirishga urinsa, boshqa tomondan – guruhga kirib unga moslashib, guruh me'yoriy tushunchalari ko'pincha ham ijobiy bo'lmaydi. Refleksiya, o'zini analiz qilish rivojlanishi faollashadi. Kattalarga bo'lgan munosabat analiz qilinadi, natijada ijtimoiy qo'rquv xarakterini yuzaga keltirishi mumkin.

Shunday qilib, me'yorda rivojlanayotgan o'smirda ham hissiy -iroda doirasida tipik o'zgarishlar, affektiv nuqsonlarni, salbiy xulqlarni paydo bo'lish xavfini kuchaytiradi. Rivojlanishida orqada qolgan o'smirlarda umumiy psixikasida o'zaro o'ziga xos ta'sirli nuqsonlar etarlicha ifodalangan bo'ladi hamda ko'pincha kuzatiladi, ushbu yoshda salbiy ijtimoiy omillarni psixik rivojlanishga ta'siri kuchayadi. Bularning hammasi turg'un dezadaptatsiyaga olib kelishi mumkin.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smirlarni psixologo-pedagogik o'rganishning maqsad va vazifalari. Rivojlanishida nuqsoni

bo‘lgan o‘smir yoshidagi bolalarda psixologo-pedagogik o‘rganish vazifalari aniqlanadi, undan kichik yoshdagi bolalarni o‘rganish vazifalaridan keskin farqlanadi. Asosiy vazifalar quyidagilardir.

Birinchidan, psixikasini o‘ziga xosligini o‘rganish, saqlangan va nuqsonli funksiyalarni aniqlash, rivojlanishdan orqada qolish sababini, nuqsonlarini xarakterini bilish. O‘smir yoshidagi bolalarni tashxis qilishda bu eng muhim vazifalardan hisoblanmaydi, chunki bu turdagi tashxis ishlari odatda avvalroq o‘tkaziladi, 11-12 yoshga kelib bolaga odatda o‘ziga mos muassasa topiladi(maxsus korreksion maktab, internat va x.k.). shu vaqtning o‘zida tashxisga bo‘lgan talab katta yoshda ham kuzatilishi mumkin. Aniq bo‘lmagan tashxislar natijasida bola uni nuqsoniga mos kelmaydigan muassasaga yuboriladi(masalan, og‘ir aqli zaif bolalar guruhiga engil aqli zaif bolalar yoki xattoki zaif eshituvchilar yuboriladi). Tashxisning aniq bo‘lmasligida quyidagicha izohlash mumkin, masalan, bolani maktabdagi bilim ko‘nikmalari o‘rta darajada ijobiy bo‘lishi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar katagoriyasiga mos kelmasligi mumkin (bunda ijobiy natijalar faqatgina past bo‘lmasdan balki juda yuqori ham bo‘lishi mumkin). Boshqa ko‘rsatkichlardan yana biri, masalan, ijtimoiy moslasha olmaslik, maktab jamosiga qo‘shila olmaslik. Bola holatini aniqlash kech bo‘lsada, unga mos ta’lim muassasasida o‘qishga imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, o‘smirlarning psixikasini holatini tekshirish ta’lim jarayonida ko‘pgina qiyinchiliklar sababini aniqlaydi (ma’lum bir fanlardan o‘zlashtira ololmaslik), ijtimoiy moslashuvdagi va xulqidagi nuqsonlar. Ta’limdagi qiyinchiliklarga qaraydigan bo‘lsak, ular bola o‘ziga mos maktabda o‘qiyotgan bo‘lsa, lekin alohida fanlarni egallashda bir qator individual psixik xususiyatlarga ega bo‘lsa ham yuzaga kelishi mumkin (fazoda mo‘ljal olish, motor nuqsonlarining yaqqol ifodalanmaganligi, motivatsiyani etarlicha emasligi va x.k.). Ta’lim olishdagi aniq muammolarni bilish bolaga individual yondashuvni aniqlashga yordam beradi, uni imkoniyatlariga “moslashtirish” ishlarni belgilaydi, nuqsonlarni bartaraf bo‘yicha korreksion ishlarning yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.

Xulqidagi nuqsonlarni vaqtida aniqlash juda muhimdir. Chunki ular biologik va ijtimoiy xarakterda bo‘lishi mumkin; ijtimoiy omil-

lar ko‘pincha biologik ta’sirlarni kuchaytirib yuboradi (masalan, aqli zaiflikda psixopat xulqidagi nuqsonlar). Ba’zida rivojlanishida orqada qolgan o‘smirlar xulqidagi nuqsonlar ijobiy hislatlarning etarlicha bo‘lmasligi bilan bog‘liq. Shunday qilib faqatgina bolani o‘zinigina tekshirmasdan (hissiy –iroda doirasidagi o‘ziga xos hususiyatlar, shaxslararo munosabatlar), balki oila, sinfdagi –mikroijtimoiy xolatni ham o‘rganish zarur. Pedagoglar bilan o‘zaro munosabat ham katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy moslashuv nuqsonlarining sabablarini to‘g‘ri analiz qilish korreksion tadbirlar dasturini ishlab chiqishga yordam beradi.

Uchinchidan, proforientatsiya (kasbga yo‘naltirish) maqsadidagi psixik faoliyatning tuzilishini tashxis qilish. O‘smirlik yoshi – o‘zini anglash davridir. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lga o‘smirlarga o‘z imkoniyatlarini baholashga va kasbiy yo‘lni to‘g‘ri tanlashga yordam berish juda muhimdir. Bu erda tashhis ishlari o‘zining xususiyatiga ega. Avvalo o‘smirning kasbiy qiziqishlarining xarakterini aniqlash (qaysi mehnat faoliyatiga qiziqishi) hamda uni shakllanganlik darajasi (rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda kasbiy qiziqishlar sust ifodalangan bo‘lib, qobiliyatlari noadekvatdir). Bundan tashqari, tekshiruv natijasi, xulosalari rivojlanishining u yoki bu funksiya va qobiliyatlarini keyingi bosqichlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak, u faqatgina bilish faoliyatidagi nuqsonlargagina bohliq bo‘lmasda, balki saqlangan psixik xolatidan ham kelib chiqishi kerak. Shuningdek, muhim sifatlarni kasbiy tashhis qilishning zarur xollarida korreksion ish tizimi o‘tkazilishi kerak.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda psixologik tekshiruv o‘tkazishning o‘ziga xos tomonlari

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarni psixologik tekshirish ulardan kichik bolalarni tekshirishda foydalaniladigan tamoyillarga tayanadi. Shu bilan birga tekshirish jarayoning o‘zi, aniq tashxis metodikalarni tanlash bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu erda bola bilan aloqa o‘rnatishda o‘smir yoshining o‘ziga xos xususiyatlarini – mustaqillik, “MEN” konsepsiyasini e’tiborga olish juda muhim. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda meyrda

rivojlanayotgan bolalarga nisbatan bu xususiyatlar kamroq darajada ifodalangan bo'lsada, baribir ularga e'tibor qaratish kerak.

O'smirlarda tez affekt holatga tushish, negativizm uchrab turadi, ayniqsa, aloqa o'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lsa, shuning uchun bu bolalarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

O'smir bilan aloqa o'rnatish uchun to'g'ri yul tanlash va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar ham o'z o'rniga ega. Serebral falajlikning giperkinetik ko'rinishi bo'lgan bemor bolalar bemalol, kattalar bilan muloqat qilishda masofani ushlamaydilar, ammo gemiparetik ko'rinishi bilan bemor bolalar juda passiv; eshitish qobiliyati past bolalar zaif ko'ruvchi va ko'zi ojiz bolalarga nisbatan ancha faol bo'ladi..

O'smirlarni o'rganish davomida foydalaniladigan metodikalar soni ko'payadi, chunki maktabda ta'lim olish davomida bolalarning rivojlanishi oldinga qarab ketgan Masalan, maktabgacha yoshda "Predmetlarni tasniflash" metodikasi ikki bosqichda o'tkazilsa, o'smir yoshida u to'liq uch bosqichda barcha kartochkalardan foydalangan holda o'tkaziladi. O'smirning bilim saviyasini o'rganish uchun bolaning kichik yoshida foydalanadigan metodikalarga ("Ortiqchasini olib tashla"), yangi, kichik yoshdagilarni kuchi etmaydigan metodikalar ("Oddiy o'xshatishlar", "Murakkab o'xshatishlar") qo'shiladi.

Bolaning intellektual va nutqiy rivojlanishi ancha murakab hisoblangan shaxsni va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish metodlardan foydalanish mumkin bo'lib qoladi – so'rovnomalar, proektiv testlar.

O'smir yoshdagilarning shaxsni va shaxslararo munosabatlarini o'rganish – bu juda ham muhim masala bo'lgani uchun, bolaning nutqiy va intellektual xususiyatlarini e'tiborga olib, tekshirish metodikalarni diqqat bilan tanlash kerakligi haqida eslab turish kerak.

Masalan, so'rovnomalarni o'smirga taqdim qilish paytida u savol mazmunini to'liq tushunishi haqida ishonch xosil qilish kerak: aks xolda vaqt besamara ketadi, natijalar-noto'g'ri bo'ladi. Tushinish darajasini aniqlash esa har doim oson emas: eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bola savolning asosiy mazmunini tushunmasa ham, ha-yo'q javobidan bittasini beradi.

Nazorat savollari

1. Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari qanday?
2. Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirishda psixik faoliyatining qaysi doirasi nazarda tutiladi?
3. Ilk yoshdagi bolaning hissiy-irodaviy doirasini tashxis qilishning xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning ruhiy-psixik rivojlanishining me'yorlarini izoxlang.
5. Ilk yoshdagi bolalni logopedik tekshirishning yo'nalishlarini ko'rsating.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishining asosiy xususiyatlarini yoriting.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarni diagnostik tekshirish uchun metodikalar tanlashda qanday omillarni e'tiborga olish lozim?
8. O'smir yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirishning maqsadi nimada?

5 BOB. HARAKAT – TAYANCH A'ZOLARIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK TEKSHIRISH

Harakat – tayanch apparatida funksiyasida nuqsoni bo'lgan bolalarga quyidagi toifadagilar taaluqlidir:

– bolalar serebral falajiga ega bo'lgan bolalar (BSF);
– poliomielit asoratidan so'ng tiklanish yoki rezidual davri;
– miopatiyali;
– tug'ma yoki ortirilgan harakat-tayanch apparatining rivojlanmay qolganligi va deformatsiyasi.

"Harakat-tayanch apparati funksiyasida kamchiliklar" tushunchasi harakatdagi buzilishlarni o'z ichiga olib, kelib chiqishiga ko'ra markaziy organik yoki periferik xarakterga ega. Ushbu buzilishlar genetik nuqsonlar, shuningdek. bosh miyaning organik jarohatlari va harakat-tayanch apparatdagi jarohatlar sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu guruhga kiruvchi bolalarni tibbiy-psixologo-pedagogik hususiyatlari M.V.Ippolitova, E.S.Kalijnyuk, N.V.Simonova, I.I.Mamaychuk, I.Yu. Levchenko va boshqalar ishlarida ko'rsatilgan. Bunday bolalarni o'rganish bo'yicha hamda ularni reabilitatsiyalash metodlarini ishlab chiqishga K.A.Semenova, E.M.Mastyukovalar ham o'z hissalarini qo'shganlar.

Shvetsiya, g'arbiy Avstraliya va Angliyadagi aholi bazasi ma'lumotlariga ko'ra 40 yil davomida serebral falajlik 1000 tirik tug'ilganlar orasida 1,5dan 2,5 tashkil etadi (Hagberg, Hagberg, Beckung, & Uvebrant, 2001; Pharoah, Cooke, Cooke, & Rosenbloom, 1990; Stanley, Blair, & Alberman, 2000).

AQShlaridagi ma'ulmotlar ham ushbu ma'lumotlarga mos kelib, tirik tug'ilganlar orasida serebral falajlik 2,4ni tashkil etishini ko'rsatganlar (Boyle et al., 1991).[1]

Harakat funksiyalarining nuqsonini murakkablik darajasiga ko'ra hamda bolalardagi harakat ko'nikmalarini shakllanganligiga ko'ra bolalar uch guruhga ajratiladi.

[1] John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. 62-бет

Birinchi guruhga og'ir nuqsonli bolalar kiradi. Ularning ba'zilarida yurish, predmetlarni olish va ushlash, o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalari shakllanmagan, boshqalari ortopedik moslamalar yordamida qiyinchilik bilan qo'zg'aladi, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalari ularda qisman shakllangan.

Ikkinchi guruhga harakat nuqsonlari o'rta darajada ifodalangan bolalar kiradi. Ushbu bolalarning ko'pchiligi ma'lum bir masofaga o'zi mustaqil qo'zg'aladi. Ular etarlicha avtomatlashmagan o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalariga egalar.

Uchinchi guruhga harakatida engil nuqsonlari bo'lgan bolalar kiradi,-ular o'zlalari mustaqil harakatlanadilar, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalariga egalar, biroq ba'zi harakatlarni noto'g'ri bajaradilar.

Harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalarda harakatidagi nuqsonlaridan tashqari intellektual rivojlanishida ham kamchiliklar kuzatilishi mumkin; 40-50% bolalar psixik rivojlanishida orqada qoladilar; 10% da aqli zaiflikni turli darajalari ifodalanadi. Ko'pgina xollarda ushbu nuqsonlar kelib chiqishi bo'yicha murakkab xarakterga ega. Ular bosh miyani jarohatlari bilan ifodalanib, natijada ijtimoiy munosabatini hamda harakatlarni faolligini chegaralab qo'yadi. Psixik rivojlanishning orqada qolishi tafakkur operatsiyalarini shakllanishida, turli psixik jarayonlarning rivojlanishini bir xilda emasligida, astenik xolatlarni ifodalanishida namayon bo'ladi.

Harakat –tayanchi buzilganlar ichida eng katta o'rinni bolalar serebral paralichi tashkil etadi.

Bolalar serebral falajligida alohida psixik funksiyalarni shakllanishini orqada qolishi hamda nutqiy nuqsonlar, harakatdagi buzilishlar bilan birgalikda keladi.

Bolalar serebral falajligida qo'l va oyoqlarning jarohatlar natijasida harakat nuqsonlari ifodalanadi (mushaklar tonusining buzilishi, patologik reflekslar, majburiy harakatlarning mavjudligi, muvozanat va koordinatsiya aktlarining shakllanmaganligi, bilak va qo'l barmoqlari harakatlarining etarlicha emasligi). Harakat nuqsonlarining og'irligi turlicha: ba'zi bolalar o'tirgan va turgan joyida vertikal holatini ushlay ololmay, faqatgina aravachada qo'zg'ala oladilar; ko'pgina bolarda yurish ko'nikmalarida nuq-

sonlar kuzatiladi, ko'pchiligi ortopedik moslamalardan – hassa, qo'ltiq tayoqlar va x.k.lardan foydalanadi; faqatgina ba'zi bolalargina belgilangan masofaga yordamchi vositalarsiz eta oladilar. Ko'pgina o'ng tomoni jarohatlangan bolalar chap qo'ldan etakchi sifatida foydalanishlari majburdirlar, bu ularni o'z-o'ziga xizmat qilish hamda grafik ko'nikmalarini egallashda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Barmoqlarning nozik harakatlari deyarli barcha bolalarda rivojlanmagan.

Bolalar serebral falajligida nutqiy nuqsonlar ko'pincha dizartriyaning turli shakllarida namoyon bo'ladi. Dizartriya nuqsonlarning ifodalanishi turlicha bo'lishi mumkin-engilidan to mutlaqo tushunarsiz nutqgacha. Eng og'ir xolatlarda anartriya kuzatiladi (artikulyasiya a'zolarining og'ir jarohatlari natijasida nutqning yo'qligi). Ko'pincha tovushlarni talaffuzidagi nuqsonlar nutqning to'liq rivojlanmaganligi bilan birgalikda keladi.

Nutqiy nuqsonlarning mavjudligi ko'pincha nutqiy muloqotga bo'lgan motivatsiyani susaytirib, nutqiy munosabatlarda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bolalarning bir qismida bolalar serebral falajligining giperkinetik shaklida, dizartrik nuqsonlar eshitish nuqsonlari bilan birgalikda keladi. 20-25% bolalarda shuningdek ko'ruv nuqsonlari kuzatiladi: g'ilaylik, nistagm, ko'ruv xajmining chegaralanganligi.

Bolalar serebral falajligida bilish faoliyatining shakllanishi alohida psixik funksiyalarning orqada qolishi va bir xilda emasligi bilan xarakterlanadi. Ko'pgina bolalarda fazoviy, vaqt idrokida nuqsonlar kuzatiladi.

Deyarli barcha bolalarda astenik holatlar kuzatiladi: ish qobiliyatining pasayganligi, barcha psixik jarayonlarning charchashi, idrokning sekinlashishi, diqqatini qaratishidagi qiyinchiliklar, xotira xajmining kichikligi.

Shuni ta'kidlash joizki, ko'pgina bolalarda oliy psixik funksiyalarning rivojlanishida potensial imkoniyatlar kuzatiladi, biroq jismoniy kamchiliklar (harakat funksiyalaridagi, ko'rish, eshitishdagi nuqsonlar), ba'zida nutqiy nuqsonlar, astenik holatlarning bo'lishi va bilish zahirasining chegaralanganligi ijtimoiy-madaniy imkoniyatlarni niqoblab qo'yadi.

Harakat –tayanchi buzilgan bolalar shaxsini shakllanishida ham o'ziga xosliklar kuzatiladi: kayfiyatining pastligi, ijtimoiy muloqotga bo'lgan istaklarning chegaralanganligi, o'z-o'ziga past baho berishi, xarakterining ipoxondrik tomonlari. Bu ikki sabab bilan bog'liq bo'lib: birinchidan, o'zining jismoniy nuqsonini erta anglashi va o'zining to'liq shakllanmayotganidan tashvishlanishi, ikkinchidan- harakatida nuqsoni bo'lganlarning oilasida uchraydigan noto'g'ri tarbiya. Ayniqsa, bu bolani o'ta avvaylab tarbiyalab, faol va mustaqil bo'lishidan chegaralab qo'yishdir.

Serebral falajga ega bo'lgan bolalarni psixologo–pedagogik o'rganish ulardagi ko'pgina mavjud bo'lgan harakat, psixik va nutqiy nuqsonlar qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Harakat nuqsonlari, eshitish va ko'rish nuqsonlari bilan birgalikda kelishi, nutqining tushunarsizligi bolani tekshirishni tashkillashtirishda qiyinchiliklar tug'diradi hamda eksperimental metodikalar va testli vazifalarni qo'llash imkoniyatlarini chegaralaydi.

Bolalar serebral falajligiga ega bo'lgan bolalarning psixik va jismoniy xususityalarini psixologik-pedagogik tashxis qilish bir necha vazifalarini echib beradi. Differensial tashxis qilishda eng ko'p qiyinchilik maktabgacha yoshdagi serebral falajli aqli zaiflikning engil darajasi va psixik rivojlanishi orqada qolganlarda kuzatiladi. Shuningdek, aqli zaif bolalarni intellektual rivojlanmaganlik darajasini og'irligiga ko'ra tashxis qilish ham mushqul.

Shuni ta'kidlash zarurki, serebral falajlikka ega bo'lgan bolalarning ko'pchiligida tafakkurning rivojlanishi saqlangan bo'lib, ammo ko'plab nuqsonlar (harakatlar, eshitish, nutq va xokazo), astenik xolatlarning yaqqol namoyon bo'lishi, ijtimoiy yakkalik (bog'liklining yo'qligi)ning oqibatida ularning imkoniyatlarini pasayishi yuzaga keladi. Bularning barchasi ko'pincha ularga aqli zaiflik tashxisini qo'yish kabi xatoliklarga olib keladi.

Bolalar serebral falajligiga ega bo'lgan bolalarning aqliy rivojlanganligini differensiatsiyalash juda murakkab bo'lib, ularni psixik rivojlanganligini aniqlovchi barcha jarayonlarini-ya'ni, sensor va ijtimoiy deprivatsiyani, nutqiy muloqotni, harakatlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni e'tiborga olish zarur. Eksperimental tekshirishlar orqali alohida psixik funksiyalarni hamda yangi bilim va

ko'nikmalarni egallash hususiyatlarini uzoq vaqt kuzatish eng samarali hisoblanadi. Bolalar serebral falajligiga ega bo'lgan bolani hamda uning potensial imkoniyatlarini bunday o'ziga xos xususiyatlarini psixologo-pedagogik yondashish orqali o'rganish, birinchidan, ko'p vaqt sarflashni, ikkinchidan, serebral falajli bolalarni nutqiy va psixik rivojlanishini o'ziga xos tomonlarini hamda kasallikni chuqur o'rganish, yuqori malakali mutaxassislar tomonidan tashxis qilishni amalga oshirishini talab etadi.

Serebral falajga ega bo'lgan bolalarni aqliy rivojlanishini differensial tashxis qilish vazifalarini ko'pincha bola maktab ta'limiga kelganida hal qilish mumkin. Aynan shu maqsad bilan harakat –tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalarga maktab-internatlarda tayyorlov sinflar ochiladi. Bu ayniqsa maxsus maktabgacha ta'lim muassasiga qatnamagan harakat tayanchida og'ir nuqsonlari bo'lganlar uchun muhimdir. Bunda ularning imkoniyatlarini o'rganish va ta'lim dasturini aniqlashga uzoq vaqt talab etadi. Tayyorlov sinflarda o'quvchilarni keyingi ta'limlari uchun kerakli sharoitlar yaratiladi, nutqiy faoliyati hamda bilishidagi nuqsonlari tizimiga mos individual (yakka) korreksion dasturlar ishlab chiqiladi. Uzoq pedagogik o'rganish bolalarni ta'limdagi imkoniyatlarini ob'ektiv differensiatsiya qilishga imkoniyat beradi.

Bolalar serebral falajligiga ega bo'lgan bolalarni tashxis qilishning yana bir muhim vazifalaridan – bolalarni o'ziga xos xususiyatlarini kompleks o'rganib ular bilan ishlash uchun korreksion individual dasturlarni ishlab chiqishdir. Bunday tekshiruvni tashkillashtirishda psixolog, logoped, pedagogning tibbiy xujjatlar bilan tanishib chiqishi muhim rol o'ynaydi. Bolani davolash ta'siridagi xolatini dinamikasini ko'rish mutaxassisga tekshirishni to'g'ri yo'nalishini aniqlashga, bolaga mos keluvchi metodika va materiallarni tanlashga, tibbiy tavsifnomasini e'tiborga olish psixologik-pedagogik o'rganish natijalarni sifatli bo'lishiga yordam beradi.

Bundan tashqari serebral falajlikka ega bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilishning vazifalariga bosqichma-bosqich tekshiruv, o'rganish ishlari olib borish kirib, ular tibbiy, korreksion va tarbiyaviy tadbirlarning ta'sirlarini bolani xolatiga ta'sirini baholashga imkon beradi.

Serebral falajlikka ega bo'lgan bolalarni o'rganishning yana o'ziga xos bir qancha vazifalari mavjud bo'lib, ular bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liqdir. Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshda alohida ahamiyat bilish faoliyatini shakllanish xususiyatlariga qaratiladi va bu xususiyatlar korreksion ishlarni tashkillashtirishda e'tiborga olinadi. O'smirlik va o'spirinlik yoshida bilish faoliyatidagi nuqsonlar yaqqol ifodalanganlik xarakteriga ega bo'lmaydi va faqatgina maqsadga yo'naltirilgan neyropsixologik tekshirishdagina aniqlanadi. Biroq, bilish faoliyatidagi buzilishlarning mavjudligi ko'pincha o'qish jarayoni va mehnat malakalarini egallashda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, shuning uchun ular mehnatga yo'naltirishda e'tiborga olinishi lozim.

Serebral falajlikka ega bo'lgan bolalarni psixik rivojlanishini ilk yoshida baholash hozirgi vaqtgacha murakkab jarayon hisoblanadi. Asosiy tekshiruv metodi pedagogik kuzatuvdir, uni o'tkazish jarayonida bolaga turli xil vazifalar berilishi mumkin. Tekshiruvni onaning olida o'tkazish ma'quldir, chunki bunday bolalarning ko'pchiligi notanish sharoitdan cho'chiydilar. Bolalarni ilk yoshida tekshirish bo'yicha tavsiyalar E.A.Strebeleva, E.M.Matyukova, O.V.Bajenovalar ishda ko'rish mumkin. Qo'llanmalardagi ilk yoshdagilarni psixodiagnostika bo'yicha ko'rsatilgan ko'pgina vazifalar BSP bolalarni tekshirishda, vazifalarni bajarishdagi natijalarini analiz qilishda foydalanish mumkin. Bolani psixik yashashidagi namayonlarni analiz qilishda, birinchi o'rinda bilish faoliyatini tormozlanishiga olib kelgan jarayonlarni ajratish, hamda analizator va motorika nuqsonlari bilan bog'liq intellektual nuqsonlarni aniqlashga qaratilishi lozim.

Serebral falajga ega bo'lgan bolalarni birinchi 3-4 yoshida psixologo-pedagogik tekshiruvni o'tkazishda quyidagilarni xisobga olish lozim:

– bola tomonidan bajarilayotgan vazifalar uning yoshiga, saqlangan analizatorlarning darajasi va harakat imkoniyatlariga mos kelishi;

– ta'lim jarayonida muhim, ko'nikmalarni egallash tempi va misollarning soni bo'lib xizmat qiluvchi ta'limdagi bolaning imkoniyatlari;

– kattalar yordamining xarakteri va undan foydalanish imkoniyatlari;

– vazifalarni mustaqil bajara olish imkoniyatlari;

– kasal bolaning vazifaga munosabati, uning faolligi;

– harakat nuqsoniga sekin-asta ko'nikishi;

– nutqsiz komunikatsion vositalardan foydalanish(ko'zning harakati, mimika, jest);

– diqqatining turg'unligi.

Shuni ta'kidlash joizki, bolani bilish faoliyatini rivojlanish darajasini aniqlashda unga qulay xolatda, patologik reflekslarni muskul, gavda, ko'zga ta'sirini maksimal bartaraf etish.

Serebral falajga ega bo'lgan ilk yoshdagi bolalar predmetli faoliyatini tekshirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi kerak:

– o'zaro faoliyatda bolaning ishtiroki(bolani faoliyatga qiziqishiva harakat imkoniyatlariga mos o'yindagi ishtirokidagi faolligi, o'yinchoq va predmetlarning funksional vazifasiga ko'ra tushunishi, unga foydalanishda kattalarga yordam bilan murojat eta olishi);

– taqlid faoliyati(predmetlarni manipulyasiya qila olishi),bolani taqlid qilish jarayonida ifodalanishi tushungan xolda taqlid harakatlari;

– mustaqil faoliyati(predmet va o'yinchoqlarni qo'llanishi bo'yicha ishlata olishini baholash, ular bilan qilayotgan adekvat harakatlari, yordam so'rab murojat etishi va ulardan foydalana olishi);

3-4 yoshdan katta bolalarni tekshirishda eksperimental-psixologik metodikalar, idrok, fazoviy va vaqt haqidagi tasavvurlari, ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obraz va mantiqiy-so'zli tafakkurini shakllanishidagi nuqsonlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Ushbu metodikalar rivojlanishidagi nuqsonlar psixodiagnostika ishlarida ko'rsatilgan(S.D.Zabramnaya, E.A.Strebeleva va boshqalar). Metodik vositalarni tanlashda va natijalarni to'g'ri tahlil eta olishi uchun mutaxassis serebral paralichning turli nutqiy va intellektual nuqsonlarning tuzilishi hamda klinik o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olishi va yaxshi bilishi lozim.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagilarni serebral falajga ega bo'lganlarning tekshirishda idrokning barcha turlarini, qurish, fazoviy hamda vaqt tasavvurlarini, grafik ko'nikmalarini o'rganishga

oid vazifalarni o'z ichiga olishi kerak. korreksion dasturni ishlab chiqishda serebral falajga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qish, yozish, xisob-kitoblardagi nuqsonlarini aniqlashga oid tekshirishni rejalashtirish kerak.

Serebral falajga ega bo'lgan bola yoki o'smirni tekshiruv natijalari bo'yicha psixologo-pedagogik xarakteristika yoki xulosa tuzish ba'zi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xujjatlarda faqatgina intellektual va nutqiy rivojlanganlik darajasinigina xisobga olmasdan, balki korreksion ishni tashkillashtirishda muhim ko'rsatkichlar hisoblangan, harakatlanishi, manipulyasiya funksiyalarining rivojlanganlik darajalari hamda o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalari, u bilan birga keluvchi nuqsonlarni ham ifodalanishi kerak. ushbu ma'lumotlarni tizimlashda quyidagi sxemaga asoslanish lozim.

1. Harakatidagi nuqsonlar:

– vertikal xolatini ushlay olishi(o'tirib, turib);

– joyidan qo'zg'alishi(kolyaska, xassa,xonada o'zi mustaqil, ma'lum bir masofagacha mustaqil);

– etakchi qo'li(o'ng, chap);

– manipulyasion jarayonlarning rivojlanganligi(keskin chegaralangan, qisman chegaralangan, chegaralanmagan);

– jarohatlangan qo'lni o'yin va o'z-o'ziga xizmat qilishdagi ishtiroki(jarayonlarning yo'qligi, ko'maklashuvchi rol, oddiy harakat aktlarini bajarishda ishtirok etishi, murakkab harakat aktlarida ishtiroki);

2. O'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasi:

– shaxsiy gigiena ko'nikmalari: yuvinish, tishlarini yuvish, sochlarini tarash(ushbu ko'nikmalarga ega, qisman ega, umuman ega emas);

– kiyinish va echinishda o'z-o'ziga xizmati:

a) echinish(ushbu ko'nikmalarga ega, qisman ega, umuman ega emas);

b) kiyinish(kiyinmaydi, yordam asosida kiyinadi, tugmachalarini taqish va oyoq kiyim bog'lagichlarini bog'lashdan tashqari o'zi kiyina oladi, o'zi to'liq kiyinadi);

– ovqatlanish vaqtidagi o'z-o'ziga xizmati(o'zi ovqatlanmaydi, qattiq ovqatlarni o'zi eydi-non, pryanik; o'zi piyoladan icha oladi; o'zi

qoshiqda eya oladi;oshxona anjomlaridan o'zi to'liq foydalana oladi).

3. ko'rishidagi nuqsonlar(yaqindan ko'rish, reflaktiv anomaliya, g'ilaylik, nistagm, yuqoriga qarashni chegaralanganligi, ko'ruv maydonini chegaralanganligi).

4. eshitish nuqsonlari(eshitish pasayganlik darajalari).

5. Nutqning aniqligi darajasi:

- qo'pol buzilishlar oqibatida tovushlar talaffuzining atrofdagilarga tushunarsizligi;

– faqat yaqin odamlariga tushunarliligi;

– nutqni tushunarliligi birqancha pasaygan;

– tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar bolani nutqini tushunishda xalaqit bermaydi.

Xaraktida nuqsoni bo'lgan bolalarni logopedik va psixologik o'ziga xos xususiyatlarini I.Yu.Levchinko va O.G.Prixodko(2001) o'quv qo'llanmalarida hamda E.S.Kalijnyuk(1987) monografiyasida yanada chuquroq tanishish mumkin.

Nazorat savollari

1. Harakat – tayanch apparatida funksiyasida nuqsoni bo'lgan bolalarning qanday toifalari ajartiladi?

2. Harakatida nuqsoni bo'lgan bolalarni turli yosh bosqichlarida psixologik-pedagogik o'rganishning maqsad va vazifalari nimalaradan iborat?

3. Harakat funksiyalarining nuqsonini murakkablik darajasiga ko'ra hamda bolalardagi harakat ko'nikmalarini shakllanganligiga ko'ra bolalar qanday guruxlarga ajratiladi?

4. Bolalar serebral falajligiga ega bo'lgan bolalarning xususiyatlari nimalardan iborat?

5. Harakat –tayanchi buzilgan bolalar shaxsini shakllanishida o'ziga xosliklarini tavsiflang.

6. Harakatida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda qanday metodlardan foydalaniladi?

7. Bolalar serebral falajligiga ega bo'lgan bolalarni tashxis qilishning muhim vazifalari nimalardan iborat bo'ladi?

8. Bolalar serebral falajligiga ega bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish xususiyatlarini yoriting.

6 BOB. SENSOR NUQSONGA EGA BO'LGAN BOLALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI

6.1.Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi kursining predmeti va vazifalari

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga pedagogik va korreksion ta'sirning samarali natija berishi eshituv funksiyasining holatini o'z vaqtida o'rganishga bog'liq. Shuning uchun har qanday malakali surdopedagog eshituvni tekshirish metodlarini bilishi kerak. Audiologiya eshituv funksiyasini tadqiq qilish metodlarining ikki asosiy guruhiga ega: sub'ektiv metodlar – tekshiriluvchining sub'ektiv ko'rsatkichlarini qayd etishga asoslanadi; ob'ektiv metodlar – uning natijalari tekshiriluvchining hohish va irodasiga kam bog'liq bo'ladi. Psixo akustik yoki sub'ektiv metodlar qo'llanishi jihatidan sodda bo'lgani tufayli ko'proq qo'llaniladi. Biroq ularning natijasi tekshiriluvchining psixologik tayyorligi, berilayotgan signallarga adekvat yondashish hohishiga va boshqalarga bog'liq. Bundan tashqari ob'ektiv natija olish kerak bo'ladigan holatlar vaziyatdan qat'iy nazar ham bo'ladi, masalan, eshituv nogironlikni ekspertizasida kasbiy yaroqlilikni baholashda. Sub'ektiv metodlar kichik yoshdagi bolalarni tekshirishda, shuningdek intellektual va ruhiy nuqsonlarga ega bolalarni tekshirishda qo'llanilmaydi. Bizning Respublikamizda og'ir eshituv nuqsoniga ega bolalar uchun maxsus maktablar keng tarmoqlangan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ikki xil turli tipdagi maktablarda:

1 - kar bolalar uchun mo'ljallangan maktab;

2-zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktabda ta'lim-tarbiya oladilar.

O'z-o'zidan bunday bolalar uchun mavjud maktablarning nomlari bizning diqqatimizni ush bu bolalarning barchasi eshitish qobiliyatining buzilish darajasiga qarab ikki asosiy guruhga bo'linishiga qaratadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ilmiy asoslangan tasnifini yaratish zaruriyati tug'ildi. L.V.Neyman tomonidan yaratilgan eshitish nuqsonlari tasnifi eshitishida nuqsoni

bo‘lgan bolalarni maxsus differensial o‘qitishni amalga oshirish uchun pedagogik jihatdan mos keladi.

Bolaning umumiy rivojlanishi uchun eshituv analizatorining me’yordagi funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Eshitishning holati bolaning shaxs sifatida kamol topishida psixologik va nutqiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Uning kelajakdagi taqdiri ko‘pincha eshitish nuqsoni qaysi yoshda kelib chiqqaniga – nutq shakllanishida nol dinmi yoki bolada ayrim lug‘at boyligi va nutqiy muloqot tajribasi borligida sodir bo‘lganligiga bog‘liq. Shuning uchun qanchalik erta eshituv buzilishi aniqlansa va nuqson darajasi qayd etilsa, shunchalik erta reabilitatsiya choralari ko‘riladi, bolaning umumiy rivojlanishiga eshituv nuqsoni shunchalik kam ta’sir etadi.

Eshituvni reabilitatsiya qilish natijalariga nutqning rivojlanish darajasidan tashqari eshituvning buzilish darajasi va eshitish nuqsonidan keyingi bola rivojlanishining sharoiti ta’sir etadi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar orasida eng muhimi eshituv analizatori darajasi hisoblanadi. Shuning uchun uni aniqlash va baholash muhimligi ortadi, eshitish nuqsoni darajasini ko‘rsatuvchi atamalar ahamiyati ham muhimdir(karlik, zaif eshituvchilik).

Kar va zaif eshituvchi bolalarni samarali o‘qitish uchun ularning har bir kategoriyasining psixologik xususiyatlarini bilish va ularning asosiy rivojlanish yo‘llarini tasavvur eta olish kerak. Ular bilan olib boriladigan maxsus pedagogik ishning ilmiy asoslanishiga bo‘lgan talab, ush bu bolalar har bir guruhining xususiyatlarini psixologik jihatdan chuqurroq o‘rganish kerakligini ko‘rsatdi. Psixologlar bolaning aqliy va ahloqiy rivojlanishining ijtimoiy shartlanganligini ishonarli qilib ko‘rsatib berganlar. Ush bu metodologik muhim o‘rin rus fiziologlari I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlarning inson oliy asab faoliyati haqidagi ishlarida o‘zining tabiiy-ilmiy mustahk, hozirda bolalarning nuqsonlari tuzilishini aniqlash maqsadida psixologik-pedagogik o‘rganilmoqda, nuqsonni korreksiya qilishning optimal sharoitlari, nuqsonli bolalar rivojlanishining kompensator yo‘llari ta’minlanmoqda.

Kursning vazifalari quyidagilar:

1. Alohida yordamga muhtoj bolalar va ayniqsa, eshitishida

nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologiyasi haqidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish;

2.Talaba yoshlar bilimini psixologik-pedagogik diagnostika tamoyillari, metodlari va metodikalari, ularni qo‘llash yo‘llari bilan qurollantirish;

3. Bolalarni maxsus bolalar muassasalariga saralash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya faoliyati mazmuni va tamoyillari, ular oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad haqidagi tasavvurlarini to‘g‘ri shakllantirish;

4.Differensial diagnostikani amalga oshirishga tayyorlash, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik rivojlanishining umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlari haqidagi bilimlar muhimligini asoslab berish;

5. Ma’lum yoshdagi alohida yordamga muhtoj bolalarning nuqsonlarini hisobga olib, psixologik rivojlanishini o‘rganish uchun mo‘ljallangan metodikalar jamlanmasini (tuzish) ajratib olish malakalarini shakllantirish;

6. Metodikalar materiallarini qo‘llash texnikasida ko‘rsatilganidek ularni mos holda qo‘llash, tekshirishlar natijalarini tahlil qilish, xulosa va tavsiyalarni shakllantirish malakalarini shakllantirish;

7. Alohida yordamga muhtoj bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganish metodikasi uchun materiallar tayyorlashning amaliy malakalarini shakllantirish;

Alohida yordamga muhtoj bolalarni pedagogik o‘rganishning samaraliligi har bir bola haqidagi ma’lumotning to‘liqligi, har tomonlamaligi va to‘g‘riligiga bog‘liqdir. Shuning uchun katta ahamiyat birlamchi nuqson xarakteristikasiga alohida o‘rin berilgan bolalarni pedagogik o‘rganish dasturiga beriladi. Pedagog bunday ma’lumotlarni shifokorlardan oladi. Shuning uchun birlamchi nuqson haqidagi klinik ma’lumotlarni qo‘shimcha, pedagogik yo‘llar bilan olingan ma’lumotlar bilan to‘ldirish ehtiyoji tug‘iladi.

Bolaning psixologik rivojlanishida eshituvning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, shuning uchun rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash va okustik analizatorni qo‘llash bola xarakteristikasi va u bilan ishlash yo‘llarini tanlashda juda muhimdir.

Ma'lumki, eshitishning pasayishini har doim ham maxsus tekshiruvlarsiz aniqlab bo'lmaydi, shuning uchun ishtirokchilar eshitish holatini o'rganish maxsus maktab pedagoglarining ham alohida diqqat markazidadir.

Eshituvning audiometrik tekshiruvini odatda otolaringolog yoki audiolog-mutaxassis o'tkazadi. Olingan ma'lumotlar eshituv va nutqning birgalikdagi tekshiruvi jarayonidan olingan ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Tekshirishni shivirlovchi nutqdan boshlash tavsiya etiladi. Keyin eshitishni odatdagi muloqot nutqi va baland nutq orqali tekshirishga o'tiladi. Bunda nutqning eshituv idroki orqali qabul qila olish holatini belgilab berish muhimdir.

Bolaning eshituv funksiyasini o'rganishda katta rolni akustik idrok sharoitini o'zgartirib turish va ush bu o'lchovlarni idrok etish jarayoniga ta'siri haqida kerakli tartibdagi hisob-kitob o'ynaydi. Bola nutqiy materialni qanday sohaga tegishli ekanini bilsa, shuningdek umumiy ma'noda aynan nima haqida gapirganini topa olish imkoniyati tug'ilsa eshitishni ajratish (differensiatsiya qilish) nisbatan yaxshi amalga oshadi. Eshitishi pasaygan bolalar turli tovushlarni idrok etishda turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun bolaning eshituv imkoniyatlarini tekshirishda bir-biridan turli xususiyatlari bilan farqlanuvchi tovushlarni differensiya qilishlarini aniqlashga yordam beruvchi og'zaki materiallardan foydalanish tavsiya etiladi (jarangli va jarangsiz, shivirlovchi va sirg'aluvchi kabilar).

Pedagog har bir zaif eshituvchi bolaning eshituv imkoniyatlarini aniq bilishi kerak, chunki faqatgina shunda to'g'ri, mos ovoz kuchaytiruvchi apparatni tanlash mumkin.

Bola bilan qancha masofada muloqot o'rnatish mumkinligini, bola nutqni egallash chog'ida duch keluvchi qiyinchiliklarni baholash imkoniyati tug'iladi. Pedagogning har bir bolaning ko'ruv qobiliyati holatini ham aniq bilishi muhim, bu esa ishtirokchilar bilan ishni tashkil etish maqsadiga mosdir.

Xuddi eshitish holati haqidagi ma'lumotlarni olganidek, ko'rish qobiliyati haqida ham mutaxassis shifokordan tegishli ma'lumotlarni oladi va nihoyat o'z tekshirishlarini qo'shadi. Bunday tekshirish har tomonlama, to'liq, uzoq muddatli bo'lishi kerak. Maqsadga muvofiq

tarzda material yig'ish, turli yo'llarni qo'llash, olingan ma'lumotlarni to'liq o'rganish kerak.

Bolaning aqliy rivojlanishi ko'rsatkichi bo'lib faqatgina uning oldiga qo'yilgan topshiriqning echimi emas, balki topshiriqni bajarishda pedagog yordamidan qay darajada foydalangani ham hisobga olinadi. Ma'lumki, aqliy nuqsonga ega bola normal bolaga nisbatan cheklangan ravishda qabul qiladi va egallagan malakasini yangi vaziyatda qo'llay oladi. Shuning uchun pedagogning berilgan topshiriqni bola tomonidan bajarish faoliyati va natijasiga ko'rsatgan yordami uning aqliy rivojlanishini yaxshiroq xarakterlashga yordam beradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish metodlari

1. Bolaning o'quv faoliyati xarakteristikasi o'zlashtirishlik xarakteristikasi (qanday baholari mavjud, qoniqarsiz baholarning asosiy sabablari) ahamiyatli xatolarning analizi (bola turli fanlarni o'zlashtirishda yo'l qo'ygan xatolar).

2. Umumiy aqliy rivojlanish (ong-bilim darajasi, atrof-muhitda mo'ljal olishi, tafakkur faoliyatining oliy formalari: umumlashtirish va mavhumlashtirishning buzilishi).

3.Bola nutqining rivojlanish holati xarakteristikasi. Bola nutqini har tomonlama tekshirish o'z ichiga uning turli tomondan ko'rib chiqishni va rivojlanish yo'llari va o'sishini aniqlashdan iborat.

4. O'qishga layoqatliligi (tezlik, aniqlik va idrok etish kengligi, diqqatni taqsimlash va ko'chirish, diqqatning barqarorligi, kuzatuvchanligi, xotirasi, o'quv materialini tezlik bilan o'zlashtirish: fikrlovchanligi, qiziquvchanligi, fikrlashning o'ziga xosligi).

5. O'qishga munosabati (o'qishga qiziquvchanligi yoki befarqligi, qiziquvchanligining darajasi, o'qishga bo'lgan mas'uliyatni sezish, tirishqoqligi, baholariga munosabati).

6. Tashkillashganligi (sinfda, uy vazifalarini tayyorlashda, pedagog topshiriqlarini bajarishda).

7. O'quv bilimi (mustaqil ishlash malakasi, boshlanganining oxiriga etkazilishi, o'quv faoliyatida samarali foydalanuvchi usullari, ishchanligi, bolaning o'z nuqsoniga moslashganligi, bajariluvchi harakatlarni o'zgarish yo'llari, o'zini boshqarishi).

8. Mehnat faoliyati xususiyatlari (mehnatga bo'lgan munosabati, mehnat malaka va ko'nikmalarining egallanganligi, mehnatda

tashkillashganligi va tartibliligi, uzoq muddatli mehnat qilishga odatlanganligi,o‘zgalar mehnatini qadrlashi).

9. O‘yin faoliyati xususiyatlari.

10. Bolalarning individual qiziqishlari va qobiliyatlari.

11. Hulqining umumiy bahosi (o‘zini tinch tutishi, bosiqligi yoki o‘rta harakatchanligi, qo‘zg‘aluvchanligi yoki o‘rta shalpayganligi, o‘tiraolmasligi, kam harakatliligi).

12. Maktab tartibini bajarishi (bajarish darajasi, yo‘l qo‘yiluvchi buzilishlarning sabablari).

13. Kattalar talablarini bajarishi (chin dildan bajaradi, majburlash ostida bajaradi, ko‘pincha bajarishdan bosh tortadi).

14. Jamoaviy hulq-atvori va faolligi xarkteristikasi (hayotiy qiziqishi, jamoa topshiriqlarini qanday xolda bajaradi, yig‘ilishlardagi ishtiroki, devoriy ro‘znomalar chiqarishdagi ishtiroki).

15. Do‘stlari bilan bolaning o‘zaro munosabatlari (jamoadagi o‘rni, do‘stlariga munosabati, jamoadagi o‘rnidan qoniqadimi yoki qanday o‘ringa ega bo‘lishni hoxlar edi).

16.Ishtirokchilarning xarakter xususiyatlari (yaqqol ajraluvchi ijobiy va salbiy xarakter qirralari, xos bo‘lgan kayfiyat, kayfiyatini o‘zgarishlariga sabab nimada).

17. Bolaning maktab internatga munosabati (u yordamidan faxrlanadimi, undan nimani alohida baholaydi, pedagoglar jamoasiga munosabati)

18. Bolaning oila bilan o‘zaro munosabati (ota-onalarning qiziqishlari va kasblari, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, bolaning ota-onasi va oilaning boshqa a’zolari o‘zaro munosabati, oilada bolaga nisbatan qo‘llaniladigan ta’sir etish choralari).

Yuqorida ko‘rsatilgan dasturni bajarish alohida yordamga muhtoj bolalar haqida, ularning turli faoliyatlarida namoyon bo‘luvchi xususiyatlari haqida to‘liq tasavvur olish imkoniyatini beradi.

Eshitishida nuksoni bo‘lgan bolalarni tekshirish metodlarining o‘ziga xosligi bolalardagi buzilgan eshitish omili va o‘ziga xos nutqiy rivojlanish bilan belgilangan. Bundan tashqari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar orasida boshqa birlamchi nuqsonlari bo‘lganlari ham ko‘plab uchraydi. O‘rganilayotgan guruh bolalarining qariyb yarmi ikki yoki ortiq nuqsonga ega bo‘ladi. Shu sababli bolalarni asl

psixologik tadqiq etishdan oldin quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladigan batafsil anamnestik ma’lumotlarni to‘plash lozim:

1. Bola o‘sayotgan oilaning tavsifi. Oilaning tarkibi, farzandlar soni. Oilaning barcha a’zolari yoshi, ma’lumoti, ish va mashg‘ulot turi, ularning salomatligi (surunkali kasalliklarning mavjudligi), oilada yoki qarindoshlar orasida eshitishida nuqsoni borlar mavjudligi.

2. Onaning homiladorligi haqida ma’lumotlar. Bu nechanchi homilasi va nechanchi bor farzand ko‘rishi. Ona biror surunkali kasallik bilan og‘riganmi, ularning homiladorlik davridagi ko‘rinishi, davolanish turlari. Ona shu homiladorlik paytida qanday yuqumli kasalliklarga chalingan va aniq qaysi muddatlarda (ona homiladrlikning dastlabki uchdan bir qismida kasalga chalinganligiga alohida e’tibor qaratiladi), bola bilan onaning qoni birikuvchanligi. Tug‘ish haqida ma’lumotlar: qachon suv ketgan va ona bu vaqtda qaerda bo‘lgan, tug‘ish vaqtida stimulyasiyadan foydalanilganmi va qanday (kesarevo, qisqichlar, medikomentoz vositalar); suv ketganidan keyin qancha muddatda bola dunyoga kelgan (gipoksiya bo‘lganmi); tug‘ilish vaqtida bola to‘g‘ri kelganmi; shu zahotiyoq yig‘laganmi; chaqaloqning bo‘yi va vazni; birinchi marta ovqatlantirishga qachon olib kelishgan; tug‘ruqxonadan qachon, qanday tashhis bilan chiqarib yuborishgan.

3. Bola tug‘ilganidan psixologik tekshirish o‘tkazilayotgan davrgacha boshidan kechirgan barcha kasalliklar haqida ma’lumot; bolaning eshitishidagi nuqson haqida tashhis birinchi marta qachon qo‘yilgan; uning birinchi audiogramma ko‘rsatkichlari; eshitishning yanada pasayishi kuzatilganmi, qaysi holatda.

4. Psixonevrolog, ona, tarbiyachi va pedagoglarning kuzatishlari bo‘yicha bolaning psixofizik (psixik- jismoniy) rivojlanishi haqidagi ma’lumotlar. Qachon bola boshini tuta boshlagan, qorniga ag‘anay boshlagan, ko‘tarila va o‘tira boshlagan, emaklagan, karavotda tura va yura boshlagan; qachon polda yura boshlagan; yurishni o‘rganganida bolada qanday qiyinchiliklar kuzatilgan. Onasi yoki boshqa odam yaqinlashganidagi jonlanish kompleksi birinchi bor qachon kuzatilgan. Qachon g‘o‘ldiray boshlagan, *guvrash* kuzatilganmi va qanday. Bola tovushlarga a qilmaganini yoki faqat juda baland tovushlarga a qilishini qachon payqashgan. Bolaga qa-

ratilgan nutqqa adekvat a bo‘lganmi. Kattalar nutqini tushunish hollari bo‘lganmi va qanday sharoitlarda. Bolada barqaror ma’nolarga ega o‘z so‘zlari (yoki so‘z parchalari), o‘z imo-ishoralari qachon paydo bo‘lgan. Bola atrofdagilar bilan muloqotda ulardan qanday foydalangan.

Qachon bola o‘ziga xizmat qila – tuvakka borishni, yuvinish, ovqatlanish, kiyinishni boshlagan. Ilk bolaligida, keyinroq va hozirda sevimli mashg‘ulotlari, o‘yin va o‘yinchoqlari qanday bo‘lgan.

5. Bolaning pediatr, psixonevrolog, otolaringolog (eshitishni sub’ektiv tekshirish emas, balki chaqirilgan potensiallar metodikasi yordamida ob’ektiv tekshirish maqsadga muvofiq), oftalmolog (nafaqat ko‘rish o‘tkirligi, balki ko‘z tubi holati, ko‘rish maydonining, ko‘z – harakt reflekslarining mavjudligi ta’kidlanadi) tomonidan so‘nggi tibbiy ko‘rik ma’lumotlari. Bolaning harakat sohasi, jumladan bolaning qaysi qo‘li etakchi ekani (o‘naqay yo chapaqayligi) haqida ma’lumotlarni olish maqsadga muvofiq. Bunda shifokor kar yo zaif eshituvchi bola bilan muloqot qila olishi, bola u bergan topshiriqlarni tushunishiga erishishi juda muhim.

6. Bolaning umumiy ta’lim va tarbiyasi haqida ma’lumotlar (qaysi muddatlarda yasli, bolalar bog‘chasi, maktabga borgani, surdopedagoglar tomonidan ixtisoslashtirilgan ta’lim va tarbiya qachon, qay sharoitlarda boshlangani, bunday ta’lim va tarbiyaning umumiy natijalari).

Barcha ma’lumotlarni diqqat bilan o‘rganib, surdopsixolog bolani eshitishi bo‘yicha qaysi guruhga tayinlash, uning eshitishdagi nuqsoni tabiatini, barcha ma’lumotlar yig‘indisiga ko‘ra sub’ektning faqat eshitishida yoki yana qaysidir boshqa a’zo va sistemalarida buzilishlar bor ekanini aniqlaydi. Bola hayotining ijtimoiy-pedagogik sharoitlariga ko‘ra bolaning tegishli pedagogik yordam olgan - olmaganligi (bolada ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik mavjudligini) aniqlaydi.

TPPK asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– bolaning eshitishidagi nuqson xarakteri va sabablarini aniqlashtirish;

– bola psixik rivojlanishining individual xususiyatlarini o‘rganish;

– bolani (oilada, maxsus ta’lim muassasasida, ommaviy MTM da igtegratsiya sharoitida va boshq.) tarbiyalash va o‘qitish sharoitlarini belgilash;

– pedagogik prognozni asoslash;

– eshitishi pasaygan bolaning tarbiyasi va ta’limini nazorat qilish;

– ota-onalar uchun tavsiyalarni ishlab chiqish.

TPPK maxsus MTM larida guruhlarni komplektlash (jamlash) masalalarini hal qiladi; eshitishida nuqsoni bo‘lgan ilk va maktabgacha yoshdashi bolalarning rivojlanishini nazorat qiladi; rivojlanishida murakkab nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish muammolarini alohida muhokama qiladi; bolalarning maktab ta’limiga tayyorligini o‘rganadi va bola yuboriladigan maktab tipini belgilaydi.

Karlik – eshitishning mutlaqo yo‘qligi (mutlaqo eshitmaslik) yoki pasayishining shunday shakliki, unda og‘zaki nutq faqat qisman, eshitish apparatlari (moslamalari) yordamida idrok etiladi.

Zaif eshitish – har ikkala quloq bilan eshitishning pasayishi, unda nutqni idrok etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, biroq ovoz kuchaytirilganda uni idrok etish mumkin bo‘ladi.

Eshitishning buzilishi sabablarini ta’riflashga turlicha qarashlar mavjud. Ko‘pincha eshitish patologiyasini keltirib chiqaradigan sabab va omillarning 3-guruhi farqlanadi (D.I.Tarasov va boshq.).

Sabab va omillarning 1-guruhi nasliy xarakterga ega. Bu kabi sabablar eshitish analizatori strukturasida buzilishlarga va nasliy karlikning rivojlanishiga olib keladi.

Bolalarda karlikning nasliy omillari hissasiga barcha holatlarning 30% dan 50% igacha to‘g‘ri keladi. Nasliy karlik yoki zaif eshitish organizmdagi boshqa a’zolar va tizimlardagi anomaliyalar (ko‘rish a’zolarining kasallanishi, suyak-mushak, asab tizimi, endokrin tizim patologiyasi va sh.k.) bilan birga kechishi mumkin.

Nasliy karlik masalalari bilan shug‘ullanadigan genetiklar ta’kidlashicha, odam gametalarida eshitish o‘tkirligiga ta’sir etadigan 50 tagacha turli genlar bo‘lishi mumkin. Ota-onalardan biri nasliy karlik bilan og‘riganida kar yoki zaif eshituvchi bola tug‘ilish ehtimoli keskin ortib ketadi. Ota-onalarning har ikkisida nasliy karlik kuzatilsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola tug‘ilishi ehtimoli 50% dan ortadi.

Sabab va omillarning 2-guruhiga homilaning eshitish a'zolariga tug'ma karlika olib keladigan (nasliy murakkablashishsiz) endogen va ekdogen ta'sirlar kiritiladi.

Homiladorlik paytida onaning kechirgan kasalliklari katta ahamiyat kasb etadi. Bu kabi kasalliklarga qizilcha, gripp, parotit kiradi. Homiladorlik paytida homila va bo'g'usi ona rezusiga mos kelmaydigan ototoksik dorilar istemol qilish ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolaning eshitishi rivojlanishida patologiyaning paydo bo'lishiga homilador ayolning alkogol, giyohvand vositalarini iste'mol qilishi, shuningdek, chang ko'p bo'lgan va boshqa kasbiy zararlar mavjud korxonalarda ishlashi ham ta'sir o'tkazadi.

3-guruh omillari rivojlanishning turli bosqichlarda sog'lom bolaning eshitish a'zosiga ta'sir etadi va orttirilgan zaif eshituvchilikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Orttirilgan zaif eshituvchilik paydo bo'lishiga sabab ko'p hollarda boshdan kechirilgan o'tkir o'rta otit asoratlari bo'ladi. O'rta quloq kasallanishida eshitishning pasayish darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Biroq ko'p hollarda eshitishning engil va o'rta darajada pasayishi kuzatiladi. Bu shamollash jarayonlarining ichki quloqqa o'tishi natijasida yuzaga keladi. Zaif eshitishning sabablaridan biri eshitish nervining shamollashi sanaladi. Eshitishning buzilishi etiologiyasida yuqumli (infeksion) kasalliklarning roli katta. Bu kabi kasalliklarning eng xavflilari epidemik meningit, sil (tuberkulez) meningit, skarlatina va boshq.

Eshitish ototoksik dori vositalari (kanamitsin, stireptomitsin, neomitsin va boshq.) ta'sirida zaralanadi. Bolalarda orttirilgan zaif eshituvchilikning qariyb 50%i ototoksik antibiotiklar iste'molidan keyin kuzatiladi (D.I.Tarasov). Bu preparatlar bilan davolashda xavflilik omili chala tug'ilish, bolaning umumiy somatik zaifligi sanaladi.

Eshitishning buzilishiga olib keladigan sabablarga tug'ilish paytidagi jarohatlar, tug'ilayotgan bolaning boshiga qisqichlar qo'yilishi, o'rta quloqqa operativ teginishlar (operatsiyadan keyingi asoratlar), jarohat chog'ida eshitish suyakchalari zanjirining uzilishi, adenoid vegetatsiyalar va boshq. kiradi.

Eshitishdagi nuqson kelib chiqishining birlamchi sababini aniqlash ba'zan qiyin kechadi. Birdaniga eshitishning pasayishiga olib

keladigan bir necha sababning birikishi kuzatilishi mumkin. Ayni paytda aynan bir sabab turli shakldagi karlik va zaif eshituvchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Turli manbalarda aytilishicha, sayyoramiz aholisining 4% dan 6% igacha vakili eshitishdagi u yoki bu nuqsonlardan aziyat chekadi. Biroq eshitishda nuqsoni bo'lgan kishilarning aksariyat katta qismi zaif eshituvchilar toifasiga mansub.

Kar va zaif eshituvchi bolalar tasnifi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bir necha tasnifi mavjud. Keng tarqalgan tasniflardan biri L.V.Neyman tomonidan ishlab chiqilgan tasnif sanaladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bir necha tasnifi mavjud. Eshitish buzilishi quyidagicha tasniflanadi,

- L.V.Neyman tasnifi
- Xalqaro tasnifi
- R.M.Boskisning pedagogik tasnifi.

Eshitish funksiyasi buzilganlik darajasini aniqlash uchun L.V.Neyman kar va zaif eshituvchi bolalarni tonal audiometriya va nutq yordamida tekshirgan.

1. L.V.Neyman tasnifi (1961 y)

Eshitishni o'rta buzilishi (yo'qolishi)ga ko'ra zaif eshituvchi bolalar darajasi	Idrok etiladigan chastotalar halmiga bog'liq ravishda kar bolalar guruhi
1-daraja-50 Dbgacha	I-125-250Gs
2-daraja-50 Dbdan 70 Db-gacha	II-125-500 Gs
3-daraja- 80 Dbdan yuqori	III-125-1000 Gs
	IV-125-2000 Gs va undan yuqori

Xalqaro tasnif (1988 y)
1-daraja-26-40dB
2-daraja-41-55dB
3-daraja-56-70dB
4-daraja-71-90dB
Karlik (91dB)

Eshitish funksiyasi buzilganlik darajasini aniqlash uchun L.V.Neyman kar va zaif eshituvchi bolalarni tonal audiometriya va nutq yordamida tekshirgan.

L.V.Neyman idrok etiladigan chastotalar hajmiga bog'liq ravishda karlarning 4 guruhini farqlaydi:

1-guruh – eng past (125-250 Gs) chastotalarni idrok etadigan bolalar. Bunday bolalar qandaydir nutq tovushlarini farqlamaydi va qulog'i yaqinida aytilgan juda baland tovushlarga yoki yaqin masofadan turib berilgan intensiv tovushlarga (baqiriq va sh.k.) a qiladi.

2-guruh – 125-500 Gs chastotani idrok etadigan bolalar. Bu guruh bolalar qulog'i yaqinida aytilgan Balan tovushlarga a qiladi, «o» va «u» unlilarini farqlaydi. Boshqa juda baland tovushlarni idrok etishga qodir.

3-guruh – past va o'rta chastotalar, 125 dan 1000 Gs gacha diapazondagi tovushlarni idrok etadigan bolalar.

4-guruh – 125 dan 2000 Gs chastotani idrok etadigan bolalar.

3- va 4- guruhga mansub bolalar yaqin masofadan turib kamroq intensiv va chastotasiga ko'ra turlicha tovushlarni (musiqa asboblari tovushi, maishiy tovushlar – eshik qo'ng'irog'i, telefon qo'ng'irog'i va sh.k.) idrok etadi.

4-guruh bolalari deyarli barcha unlilarni, qulog'i oldida yoki yaqin masofadan aytilgan alohida jumla va so'zlarni farqlaydi.

Kar bolalarning hammasida u yoki bu darajadagi qoldiqli eshitish bo'ladi. Qoldiqli eshitish eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha maxsus ish jarayonida og'zaki nutqning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Zaif eshituvchilik ham turli darajada namoyon bo'ladi. L.V.Neyman chastotalar nutqiy diapazoni (500-4000 Gs) sohasida eshitishning pasayish darajasi bo'yicha zaif eshituvchi bolalarning 3 ta guruhini ajratadi.

Eshitmaslik (eshitishning yo'qolishi) ga bog'liq ravishda zaif eshituvchilikning 3 ta darajasi farqlanadi:

1-daraja – nutqiy diapazonda eshitishning pasayishi 50 dB dan ortadi; 125-8000 Gs doirasidagi chastotalar idrok etiladi. Nutqiy muloqot qilish mumkin. 1 m dan ortiq masofadan so'zlashish balandligidagi nutqni saralab idrok etish mumkin.

2-daraja – eshitish 70 dB gacha nutqiy diapazonda pasaygan. Nutqiy muloqot qiyinlashgan. Og'zaki nutq 1 m dan kam masofadan idrok etiladi.

3-daraja - eshitish 80 dB gacha nutqiy diapazonda pasaygan. So'zlashuv balandligidagi nutq xatto qulog'i oldida ham farqlanmaydi. Muloqot baland ovoz yordamida quloqqa yaqin masofada amalga oshiriladi.

Eshitishi 15-20 dB ga pasaygan bolalar nutqni mustaqil ravishda katta qiyinchilik bilan egallashi mumkin. L.V.Neyman eshitishni yo'qotganlikning bu darajasini normal eshitish va zaif eshituvchilik o'rtasidagi shartli chagara sifatida qabul qilishni taklif etadi. L.V.Neyman tasnifiga ko'ra, zaif eshituvchilik bilan karlik o'rtasidagi shartli chegara 85 dB darajasida.

Tibbiyotda hozirgi kunda bolalarning eshitishi holatini baholashda eshitish buzilishining xaoqaro tasnifidan foydalaniladi. O'rtacha eshitishni yo'qotish 500, 1000, 2000 Gs chastota atrofida belgilanadi.

Zaif eshituvchilikning 1-darajasi – eshitishning pasayishi 40 dB dan ortmaydi.

Zaif eshituvchilikning 2-darajasi – eshitishning pasayishi 40 dB dan 55 dB gacha.

Zaif eshituvchilikning 3-darajasi – eshitishning pasayishi 55 dB dan 70 dB gacha.

Zaif eshituvchilikning 4-darajasi – eshitishning pasayishi 70 dB dan 90 dB gacha.

Eshitishning 90 dB dan ortiq pasayishi karlik deb hisoblanadi.

R.M.Boskisning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi. Bu tasnif eshitish va nutqning o'zaro ta'sirini psixologik o'rganish asosiga qurilgan. Tasnifning nazariy asosini eshitish analizatorida buzilishlar bo'lgan bola rivojlanishining o'ziga xosligini belgilaydigan qoidalar sanaladi.

Bolaning eshitish analizatori buzilishini kattalardagi shu kabi nuqsondan keskin tafovutlari bilan baholash zarur. Kattalarda eshitishning buzilish paytigacha nutq shakllanib ulgurgan bo'ladi, eshitish analizatoridagi nuqson esa eshitish asosidagi muloqotning mumkinligi nuqtai nazaridan baholanadi. Eshitishning bolalikda

yo‘qotilishi bolaning psixik rivojlanishiga ta’sir etadi va qator ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bolaning nutqiy rivojlanishi buziladi. Karlik erta yuzaga kelsa, bu nutqning mutlaqo bo‘lmasligiga olib keladi. Soqovlik lisoniy tafakkurning normal shakllanishiga to‘sqinlik qiladi, bu bilishning buzilishiga olib keladi.

1. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolaning rivojlanishini to‘g‘ri tushunish uchun nutqni mustaqil egallash imkoniyatini hisobga olish muhim. Eshitishning buzilishi, bir tomondan, nutqning normal rivojlanishiga tusqinlik qiladi, boshqa tomondan, eshitish analizatorining normal faoliyati nutqiy rivojlanish darajasiga bog‘liqdir. Bolaning nutqiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, qoldiqli eshitishdan foydalanish imkoniyati shunchalik ko‘proq bo‘ladi. Tilni egallagan, etarlicha lug‘at zahirasiga ega bo‘lgan kishi unga qaratilgan nutqni yaxshiroq idrok etishga qodir, zero u tanish so‘z va jumlalarni mazmuniga ko‘ra, kontekstdagi jumlalarni ilg‘ay oladi.

2. R.M.Boskis bolada eshitishning etarli emasligini eshitishning shu kabi buzilishida nutqning rivojlanganlik darajasi nuqtai nazaridan baholaydi. Bolaning nutqi qanchalik yaxshi bo‘lsa, eshitishidan foydalanish imkoniyati shunchalik katta bo‘ladi. Karlikda 80 dB dan ortiq eshitishning yo‘qolishi kuzatiladi.

R.M.Boskis tomonidan ishlab chiqilgan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik tasnifi eshitish analizatori funksiyasida og‘ishlar bo‘lgan bolalar rivojlanishining o‘ziga xosligini hisobga oladigan mezonlar asosiga qurilgan. R.M.Boskis eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning 2 asosiy guruhini ajratadi: karla rva zaif eshituvchilar.

Karlar guruhiga tug‘ma yoki orttirilgan karlik natijasida og‘zaki nutqni mustaqil egallay olmaydigan bolalar kiradi.

Zaif eshituvchi bolalar toifasiga eshitishning pasayishi kuzatiladigan, biroq nutqining (loaqal minimal) rivojlanishi mumkin bo‘lgan bolalarni kiritishadi.

Nutqiy rivojlanishga bog‘liq ravishda zaif eshituvchi bolalarning 2 guruhi farqlanadi:

- kichik nuqsonlarga (tovush talaffuzi buzilishlari, nutqning

grammatik qurilishida buzilishlar) ega bo‘lgan, nisbatan rivojlangan nutqni egallaydigan bolalar;

- nutqiy funksiya rivojlanishida jiddiy kamchiliklar (jumlalar qisqa, noto‘g‘ri qurilgan, ayrim so‘zlar juda qo‘pol tarzda buzilgan va sh.k.) bo‘lgan bolalar;

Kar bolalarni ham nuqsonning yuzaga kelish vaqtiga nisbatan 2 guruhga bo‘lishadi:

- eshitishni hayotining 1-va 2-yilida yo‘qotgan yoki kar tug‘ilgan bolalar;

- keyin kar bo‘lib qolgan bolalar, ya’ni eshitishni 3-4 yoshida yoki undan keyin yo‘qotgan, karlik ancha keyin yuzaga kelgani sababli nutqni saqlab qolgan bolalar. «Keyin kar bo‘lib qolganlar» termini shartli xarakterga ega, chunki bolalarning bu guruhini karlik yuzaga kelgan vaqt emas, balki eshitish yo‘qligi holatida nutqning saqlanib qolgani tavsiflaydi. Keyin kar bo‘lib qolganlar eshitishi pasaygan bolalarning alohida toifasini tashkil etadi.

Eshitishdagi nuqson birinchi galda nutqning rivojlanishiga, ya’ni eshitish analizatorining holatiga eng ko‘p darajada bog‘liq bo‘lgan psixik funksiyaga salbiy ta’sir etadi. Shunday qilib, eshitishning holatini, nutqnning rivojlanish darajasini eshitishning yuzaga kelish vaqtini hisobga olgan holda baholash asosida eshitish va nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning 4 guruhi farqlanadi.

Shuningdek, murakkab nuqsonli, ya’ni eshitish analizatorining anomaliyasi organizmning boshqa a’zolari va tizimlari ishi buzilishi bilan kechadigan kar bolalar tasnifi ham mavjud.

6.2. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganishning psixologo- pedagogik o‘rganish metodlari

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik- pedagogik ko‘rikdan o‘tkazish. Chaqaloq bolalarning eshitishini o‘rganish tug‘ruqxonada, go‘daklik, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning eshitishini o‘rganish esa bolalar poliklinikalarida tashkil qilinadi. Eshitishning pasaygani gi aniqlashganida yoki unda nuqson borligi shubha ostiga olinganida bolalarni bolalar surdologik kabinetlar

yoki markazlarga yuboriladi. Bunday muassasalar barcha viloyat shaharlarida mavjud. Vrach-surdologlar bolaning eshitish funksiyasi turishini otiatrik ko'rik natijalari, audiologik tadqiqot ma'lumotlari, nutqiy bo'lmagan jaranglar va nutq yordamida eshitishni tekshirishdan foydalangan holda differensiatsiyalangan tashxis qiladi. Mutaxassislar davolash tartibini tayinlaydi, zarur hollarda individual eshitish apparatlarini tanlab beradi. Surdologik kabinetlarda bola va uning ota-onalari bilan boshqa mutaxassislar: bolalar psixiatri, psixolog, surdopedagog ham ishlaydi. Ular ota-onalarni bola bilan maxsus mashg'ulotlar metodikasi bilan tanishtiradi, ularni oilada tashkil qilish bo'yicha maslahatlar beradi. Diagnostika va korreksion ish yo'nalishlarini belgilash uchun zarur bo'lgan bolaning rivojlanishini va eshitishining holati haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun kompleks tibbiy-psixologik-pedagogiktekshirish o'tkaziladi. Bunday tekshirish tibbiy- psixologik-pedagogik komissiya (konsultatsiya, TPPK) a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni o'rganishning kompleks xarakteri.

Kompleks yondashuv rivojlanishdagi og'ishlarni tashxis qilishda turli: tibbiy-fiziologik, psixologo-pedagogik, sotsiologik yo'nalishlarni ko'zda tutadi. Turli soha mutaxassislari: vrach-surdolog va psixiatr; psixolog, surdopedagog, logoped ishtirok qiladi, zaruratga ko'raboshqa mutaxassislar (nevropatolog, oftalmolg) jalb qilinadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani faqat birgalikdagi tibbiy, psixologik va pedagogik o'rganish natijalarigina bolaning salomatligi haqida malakali xulosa chiqarish; pedagogik yordam yo'llarini to'g'ri belgilash; MTM tipini, unda bo'lish shartlarini belgishash imkonini beradi. Bolani o'rganish jarayonida ayrim mutaxassislar bo'lmaganda tashxisda xatoliklarga yo'l qo'yilishi, ular esa MTM da guruhlarni noto'g'ri jamlash, bolaga to'laqonli korreksion ta'sir ko'rsatish uchun sharoit yaratish mumkin bo'lmay qolishiga olib kelishi mumkin. Masalan, bolani tekshirish chog'ida oftalmolog ma'lumotlarining mavjud emasligi kar yoki zaif eshituvchi bolalar guruhlariga murakkab nuqsoni: eshitishida etishmaslik va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning qo'shilib qolishiga olib kelishi mum-

kin. Bu, o'z navbatida, og'zaki va yozma nutqni idrok qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Hissiy-irodaviy sohadagi nuqsonlar, o'z vaqtida aniqlanmasa, bolaning o'qishini juda qiyinlashtirib yuboradi.

Bolani pedagogiko'rganish: uning o'quvchanligini, MTM da bo'lish imkoniyatini aniqlash, pedagogik prognoz katta ahamiyatga ega. Eshitishi pasaygan bolani tekshirish chog'ida uning yashash sharoitlari, ota-onasining o'qitish va korreksion ishda ishtiroki imkoniyati tahliliga, ya'ni sotsiologik jihatga katta e'tibor qaratiladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishning har tomonlama xarakteri

Psixologik-pedagogik o'rganish psixikaning barcha tomonlari: bilish jarayonlari, nutq, hissiy-irodaviy soha va shaxs xususiyatlarini o'z ichiga olishi kerak. Eshitishi pasaygan bolani kompleks o'rganish natijalari eshitishning buzilish vaqti va sabablarini aniqlash; eshitishning holatini aniqlash; nutqni o'rganish va uning holatini eshitishni yo'qotganlik darajasi hamda intellektual rivojlanish bilan nisbatlash; bolaning bilish faoliyatini rivojlanganlik darajasini uning yoshiga muvvofiqligini, bolalar faoliyati (rasm chizish, o'yin) xarakterini tekshirish; bola shaxsining xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Psixologik-pedagogik o'rganishning har tomonlama xarakteri, bola eshitishining pasayishi qo'shimcha nuqsonlar bilan murakkablashgan bo'lsa, rivojlanishdagi boshqa: ko'rish, inlellekt, harakatlardagi buzilishlar (og'ishlar) xarakterini aniqlash va belgilashga imkon beradi.

Psixologik-pedagogik tekshirish natijalarini yaxlit tizimli tahlil nafaqat rivojlanishdagi ayrim nuqsonlarni aniqlash, balki ularning ierarxikaloqasini belgilash, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni aniqlashtirish imkonini beradi.

Pedagogik prognoz va bola uchun MTM tipini aniqlash uchun eshitish yoki bilish jarayonlarini izolatsiyalangan holda tadqi qilish emas, balki psixologik-pedagogik o'rganish jarayonida olingan barcha ma'lumotlarni hisobga olish asosida tuzilgan yaxlit tavsifnoma va xulosa asos bo'lishi muhim.

Psixologik-pedagogi ko'rganishni tashkil qilishda bolaning yoshini hisobga olish. Psixologik-pedagogik tekshirish shakli bo'yicha ham, mazmuni bo'yicha ham bolaning yoshini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tekshirishni tashkil qilishda bu tek-

shirish uchun sharoitlar yaratishni nazarda tutadi: bolaning stol atrofida qulay joylashishi, didaktik materialni bolaning yoshiga bog'liq holda tanlash, uning yoshiga mos metodlardan foydalanish. Masalan, ilk yoshdagi bolalarni o'rganishda o'yin usullari ustunlik qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tekshirishda esa rasm chizish, o'yin, rpasmlarni tanlash va nomlash kabi usullar qo'llanadi. Bolaning yoshi natijalarni baholashda etakchi o'rin tutadi.

Har bir yosh davri uchun topshiriqlarni tanlashda ilmiylik yoshga muvofiqlik prinsipi bilan uzviy bog'liq. Bunda diagnostik topshiriqlar tizimi buzilishning murakkkabligi (masalan, bola eshitishining holati) emas, balki uning yoshiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ilk yoshdagi bolalar uchun tasodifan tanlangan topshiriqlarni berish nuqson tuzilishi (strukturasini), uning birlamchi va ikkilamchi xarakterini, masalan, kar bolada psixik rivojlanishning orqada qolganini aniqlashga imkon bermaydi, pirovardida, bu bolani o'qitish va tarbiyalash individual rejasini noto'g'ri belgilanishiga olib kelishi mumkin.

Bolani dinamikada o'rganish. Bu prinsip eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani uzoq muddat o'rganish, rivojlanishi xarakterini kuzatish, uning xususiyatlarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Eshitishi pasaygan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga oid va individual xususiyatlari hamma vaqt ham bola rivojlanishining turli jihatlarini aniqlash va bir martalik tekshirish davomida o'qitish bo'yicha asosli xulosa va tavsiyalar qilish imkonini beravermaydi. Chunonchi, ilk yoshdagi bolalarning xulq-atvor alari hamma vaqt ham ularning eshitishi , intekllekti holatini aniqlashga imkon bermaydi. Bolalar eshitishining "karlik bilan chegaradosh" deb nom olgan holatini aniqlash ko'pincha juda murakkab kechadi, bunda bir vaziyatda (ayniqsa dastlabki o'rganishda) ular o'zini kar bolalardek namoyon qiladi, biroq dinamik o'rganish jarayonida, ayniqsa u eshitish mashqlari bilan birgalikda olib borilsa, bolalarning jaranglarga asi ularning holatini og'ir zaif eshituvchilik sifatida tavsiflaydi. Bolani dinamikada o'rganish muhim, agarki tekshirilayotgan bola nuqsonlarning murakkab tuzilmasiga, masalan, zaif eshituvchilik va aqli zaifllik yoki aif eshituvchilik va hissiy-irodaviy sohadagi buzilishlarga ega bo'lsa.

Bolalarni dinamikada o'rganishg yil davomida olib boriladi, bunda bola MTM da kuzatiladi, rivojlanish xususiyatlari ota-onasi va pedagoglar bilan muhokama qilinadi, izuchenie detey provoditsya v techenie goda, s nablyudeniyami za razvitiem rebenka v detskom sadu, PTPK da takror konsultatsiyalar o'tkaziladi.

Bolaga individual (yakka tartibda) yondashish prinsipi bolaning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olish, tekshirish chog'ida xayrixohlik vaziyatini yaratishni ko'zda tutadi. Bu ayniqsa ilk yoshdagi bolalar, rivojlanishda murakkab nuqsonlari bo'lgan maktabgacha yshdagi bolalar bilan ishlaganda muhim. Individual yondashuv rivojlanish tarixi6 erta motor va nutqiy rivojlanish xarakteri, boshidan kechirgan kasalliklari, bolani oilada tarbiyalash xususiyatlari, u bilan muloqot xarakterini o'rganishni nazarda tutadi.

Ko'pincha tekshirish davomida, ayniqsa uning boshida, bolalarda xavotir yuzaga keladi, bu ularning "ichimdagini top" qabilida ish ko'rishi, topshiriqlarni bajarishdan bo'yin tovlashi, ketish istagini keltirib chiqaradi. Bu hollarda topshiriqni taqdim qilish tizimini qayta qurish, avval bola uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan o'yinli topshiriqlar, keyin nisbatan murakkab topshiriqlar, masalan, eshitishning holatini tekshirishni o'tkazish zarur.

Ayrim hollarda bola topshiriqni bajarishdan bosh tortganida topshiriqlarni taqdim qilishga ota-onalarni jalb qilish, bolaga yordam ko'rsatish, uning mustaqil harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Tekshirish natijalarining sifat tahlili va bolaning potensial imkoniyatlarini aniqlash. Bola tomonidan topshiriqlarning bajarilishi natijaviyligini aniqlashdan tashqari bajarish sifatini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar: topshiriqqa qiziqish, mustaqillik, taklif qilingan yordamdan foydalanish, tekshirish jarayonidagi o'quvchanlik (o'rgatiluvchanlik) hisobga olinishi lozim. Natijalarni baholashda topshiriqlarnin bajarish usuli, ularning bola yoshiga mosligini e'tiborga olish kerak. Aynan bolaning topshiriqlarni bajarish usulini hisobga olish uning psixik rivojlanganligining eng muhim ko'rsatkichi sanaladi. Psixologik-pedagogiktekshirish jarayonida bola imkoniyatlarining oliy darajasi, ya'ni uning kattalar yordamida nimalarga qodir ekani aniqlanadi. Bu bolaning "eng yaqin rivojlan-

ish zonasi"ni, potensial imkoniyatlarini tavsiflaydi, bularni hisobga olish tarbiya va ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi.

6.3. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tekshirish

Psixologik-pedagogik tekshirishning mazmuni.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yig'ilishida ilk va maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar har tomonlama tekshiriladi. Dastlab komissiya zarur hujjatlar: bolaning rivojlanish tarixidan ko'chirma, mutaxassislarning dastlabki diagnoz va xulosalari, dastlabki audiogrammalar va sh.k. larni o'rganadi. Onaning homiladorlik davri kechishi, kasalliklari, homiladorlik davrida ularni davolash usullari, tug'ish jarayoni, shuningdek, bola boshidan kechirgan kasalliklar va ularni davolash usullari diqqat bilan o'rganiladi.Komissiya bolaning jismoniy va motor rivojlanishi, nutqi shakllanishining xususiyatlari, eshitish pasayishining taxmin qilinayotgan sabablari va vaqtini o'rganadi. Bolani oilada tarbiyalash sharoitlari, u bilan muloqot usullari, eshitish apparataridan foydalanish, umumrivojlantiruvchi va korreksion ishni tashkil qilish tahliliga katta ahamiyat qaratiladi.

Bolani kompleks tekshirish turli psixologik-pedagogik metodlar: ota-ona va bola bilan suhbat; hujjatlar (audiogrammalar, xulosalar, mutaxassis shifokorlar xulosalari va sh.k.)tahlili; bola faoliyatini (o'yin, rasm chizish, konstruksiyalash) kuzatish; psixologik tekshirishning maxsus metodikalaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Tekshirish xayrixohlik va xotirjamlik vaziyatida o'tkazilishi lozim. Tekshirishni o'tkazish uchun zarur didaktik material: o'yinni kuzatish uchun o'yinchoqlar, aqliy rivojlanishni o'rganish uchun o'yinchoq va qo'llanmalar, rasmlar va bolalar uchun kitobchalar, ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar va boshq. Avvaldan tayyorlanadi didaktik igrushki i posobiya dlya obsledovaniya umstvennogo razvitiya. Tekshirish tinch, tashqi shovqindan izolyasiyalangan xonala o'tkazilishi muhim, bu eshitishni tekshirishning shartlaridan biridir.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolani psixologik-pedagogi ko'rganish quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

– bolaning faoliyati (o'yin, rasm chizish) kuzatish;
– aqliy rivojlanganligini tekshirish;
– eshitishning holatini tekshirish;
– nutqning holatini tekshirish;
– bolaning xulq-atvorini kuzatish, shaxsiy xususiyatlarini aniqlash.

Psixologik-pedagogi ko'rganishning har bir bo'limi turli mutaxassislar tomonidan puxta tayyorlanadi. Surdolog bolaning eshitishini tekshirali va diagnozni aniqlashtiradi. Psixiatr tibbiy hujjatlar va aqliy rivojlanish darajasini kuzatish asosida bolaning intellektual rivojlanishining uning yoshiga mosligi haqida xulosa qiladi. Alohida hollarda u rivojlanishdagi birikuvli (murakkab) nuqsonlar (aqli zaiflik, markaziy asab tizimi buzilgan bolalarda psixik rivojlanishning orqada qolishi va boshq.) aniqlaydi. Psixolog aqliy rivojlanish darajasini aniqlaydi, bola xulqini kuzatadi va uning hissiy-irodaviy sohasi, shaxsi xususiyatlarini tavsiflaydi. Surdopedagog bolaning nutqi va muloqoti holatiga e'tiborini qaratadi. Qandaydir o'iga xos nuqsonlar (dizartriya, alaliya va boshq.) aniqlanganda tekshirishga logoped jalb qilinadi, u eshitishi pasaygan bolaning nutqidagi murakkab buzilishlar sabablarini va xarakterini aniqlaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani psixologik o'rganish uchun oilasi: tarkibi, ota-onasining ma'lumoti, mehnat faoliyati, oilada boshqa bola(lar) borligi, ota-onasi yoki boshqa qarindoshlarida eshitishda nuqsonlar mavjudligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Turli soha mutaxassislari – shifokorlarning ma'lumotlari, bizning vaziyatda, audiologiktekshirish asosida olingan eshitishning holati haqidagi; ko'rishning holati haqidagi ma'lumotlar kerak, chunki u buzilgan eshitishni kompensatsiyalash uchun katta ahamiyatga ega. Bolaning ona qornidagi rivojlanish davrining kechishi, uning tug'ilganidan tekshirish vaqtiga qadar psixik-jismoniy rivojlanishiining xususiyatlari, unga ko'rsatilgan maxsus pedagogik yordam xarakteri, ta'lim va tarbiya sharoitlari haqida ma'umotlarni to'plash muhim.

Psixologiktekshirish har tomonlama bo'lishi lozim, u psixikaning barcha tomonlari: bilish jarayonlari, shaxsiy va hissiy-irodaviy sohani tekshirishni o'z ichiga oladi. Eshitishda nuqsonlar taxmin

qilinganda uning holatidan tashqari harakatlarning rivojlanganligi, vestibulyar apparatning ishlashi, nutqiy rivojlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Eshitish holatini baholashda uni audiologik tekshirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Audiogramma eshitishning pasayganlik darajasi va uning diapazoni haqida xulosa qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, bola qoldiqli eshitishdan turmushda, atrofdagilar bilan muloqotda qanday foydalanishini bilish lozim.

Bolani yaxlit tizimli o'rganish prinsipi psixik rivojlanishdagi buzilishlarning ayrim ko'rinishlarinigina emas, balki ular o'rtasidagi ning aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Eshitishdagi nuqsonni tizimli tahlilni L.S.Vigotskiyning defekt (nuqson) strukturasi haqidagi qoidasiga tayanib, amalga oshirish mumkin. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani yaxlit o'rganish emotsional muloqot, predmetli, o'yin, o'quv, mehnat faoliyati jarayonida amalga oshirilganida muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu shart-sharoitlar bolaning bilish sohasi, motivatsiyasi, qiziqishlari, shaxsining yo'nalganligi xususiyatlarini yaxshiroq aniqlashga yordam beradi.

Eshitishdagi nuqsonning mohiyatini va uning psixik rivojlanishning borishiga ta'sirini tushunish uchun dinamikadao'rganish prinsipi katta ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, nafaqat bolaning hoizr nimani bilishi va uddalashi, balki uning potensial imkoniyatlari, "eng yaqin rivojlanish zonasi"ni aniqlash muhim. T.V.Rozanovaning fikricha, taklif qilinadigan topshiriqlar bola uchun tushunarli bo'lishi kerak, chunki bola ularning hammasini noto'g'ri bajarsa, uning psixik rivojlanishning qaysi darajdjasiga erishganini aniqlab bo'lmaydi. Agar bola tengdoshlari bajara oladigan topshiriqlarni bajara olmasa, kichikroq yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan topshiriqlarni taklif qilish kerak. "eng yaqin rivojlanish zonasi", uning kattaligini aniqlash uchun tekshirish dasturiga psixologik o'rgatuvchi tajriba variantlaridan birini kiritish maqsadga muvofiq. Buning imkoni bo'lmasa, tekshirishning turli bosqichlarida bola xato qilganida unga yordam ko'rsatiladi. Yordam ko'rinishlari, ayniqsa uning bola tomonidan qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi – hammasi uning quvchanligini tahlil qilish uchun material beradi. Turli darajada murakkablikdagi masalalarni mustaqil echish natijalari va ko'rsatilaayotgan ta'sirni baholash nafaqat bolaning bilish jarayonlari rivojlanganligi, balki ularni maxsus tashkil qilingan ta'lim va tarbiya sharoitida yanada takomillashtirishning ehtimoliy yo'llari haqida fikr yuritishga imkon yaratadi.

Faoliyatning yakuniy natijasini hisobga olishgina emas, balki uni bajarish jarayonini – harakatlar usuli, ularning ratsionalligi, izchilligi, mantiqiyligi, maqsadga erishish yo'lidagi qat'iyat, tanlangan echim usullariga munosabat, tanqidiylikni tahlil qilish zarur.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogiktekshirishda ularning psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari: muloqotni tashkil qilish, bolaning unga qaratilgan nutqni tushunmasligi, tekshiriluvchining nutqi yo'qligi yoki uning tushunarsizligi bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu eksperimental metodikalarni qo'llash imkoniyatini cheklaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi – rivojlanishning alohida tipi, atrof olam bilan o'zaro ta'sirning o'ziga xos sharoitida kechadi, dizontogenezning defitsitar tipiga kiradi. Bunda murakkab funksiyalararo o'zaro ta'sir, ierarxik koordinatsiyaning shakllanishi sekinlashadi. Nutqning zararlanganligi oqibatida bolaga tashqi ta'sirlar hajmi toraygan, muhit bilan o'zaro ta'sir (hamkorlik) u qadar murakkab va xilma-xil emas. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardapsixika komponentlari eshitadigan bolalardagiga qaraganda boshqacha proporsiyada rivojlanadi – tafakkurning ko'rgazmali va tushunchaviy shakllari nisbati buziladi, yozma nutq og'zakisiga ko'ra ustunlik qiladi. Asinxroniya ma'lum perseptiv tizimlar nisbatan saqlangani holda boshqalari turli darajada etarli rivojlanmaganligi namoyon bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda teri sezuvchanligi saqlangan, ko'rish idroki kompensator rivojlanadi. Normal eshitadigan bolalar bilan solishtirganda psixik rivojlanish sur'atlarida ham o'zgarishlar kuzatiladi: tug'ilganidan yoki eshitishni yo'qotganidan keyin ma'lum vaqt o'tgach, rivojlanishning sekinlashadi va adekvat ta'lim-tarbiya sharoitida keyingi davrlarda tezlashadi. Psixik rivojlanish sur'atlaridagi o'zgarishlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixikasining strukturaviy (tuzilmaviy) o'ziga xosliklari bilan bog'liq. Eshitishda nuqson bo'lganda boshqa sensor va perseptiv tizimlar, intellektual soha, regulyasiya (boshqaruv) tizimlarining saqlanganligi muhim.

Bolaning yoshi, tekshirish vaqtida psixik rivojlanishning qaysi davrida ekani bilan bog‘liq holda uning o‘ziga xosliklarini o‘rganishning spetsifik vazifalari ajratiladi. Go‘daklik davrida harakat sohasi – boshini tutib tura olishi, tik turishning rivojlanishiga e’tibor qaratiladi. Aravachada silkitishga aning yo‘qligi (bola qo‘lgan olmaguncha tinchimasligi) eshitishning buzilishiga ko‘pincha hamroh bo‘lgan vestibulyar apparatning erta zararlanganidan dalolat beradi. Eshitishning erta buzilishi tik turish rivojlanishining biroz orqada qolishi bilan kechadi, u 1,3-1,4 yoshga kelib kompensatsiyalanadi. Bu ma’lumotlar eshitishning vaqti, ehtimoliy sabablarini bilvosita ko‘rsatishi mumkin. Eshitishning tug‘ma xarakteri yoki erta yo‘qolitlgani haqida quyidagilar daloat beradi: g‘o‘ng‘illash xarakteri – bunday bolalarda u bir xilda, monoton va bo‘g‘iq; g‘o‘ldirovchi nutq yo‘q, javob g‘o‘ldirash yo‘qligida uning spontanligi.

Ilk bolalik, maktabgacha va kichik maktab yoshida nutq va bilish sohasining rivojlanish xususiyatlari, birinchi navbatda, tafakkur bilan nutq o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shakllanishi, shuningdek, harakatlar rivojiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu sohalarda nuqsonlarning aniqlanishi adekvat korreksion ishni tashkil qiolish uchun zarur. O‘smirlik va o‘spirinlik vaqtida ta’limni to‘g‘ri tashkil qilinganda bilish sohasi rivojlanishida orqada qolish, odatda, eng murakkab psixik jarayonlarga nisbatan kuzatiladiki, ularning shakllanishi og‘zaki nutq, lisoniy xotira, abstrakt-tushunchaviy tafakkur, tasavvurning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Bu jarayonlarni birinchi navbatda o‘rganish zarur. Harakat sohasida qiyinchiliklar o‘smirlik davriga kelib, asosan kompensatsiyalanadi, ammo harakatlarni bajarishning sur’ati sekinligi, (eshitadiganlar bilan solishtirganda) harakat ko‘nikmalarini egallashning sekinligi, statik va dinamik muvozanatni saqlashda qiyinchilik kabi ayrim xususiyatlar saqlanib qoladi. Bu xususiyatlarning mavjudligini eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘spirin va o‘smirlarni kasb tanlashga yo‘llashda albatta inobatga olish lozim. O‘spirinlik va o‘smirlik davrida shaxs va o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishini o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu omillar mazkur buzilishning kompensatsiyalanish darajasiga ta’sir o‘tkazadi va ijtimoiy-mehnatga moslashishni belgilaydi.

Eshitishi nuqsonli bolaning psixik rivojlanish darajasini go‘daklik, ilk bolalik va maktabgacha yosh davrida diagnostika qilish murakkab muammoligicha qolib keladi. Karlikni eshitishni qisman yo‘qotganlik, intellektning pasayganligi, nutqiy nuqsonlardan farqlashdagi murakkabliklar ko‘p hollarda kar bolalarning aqli zaif sifatida tasniflanishi, zaif eshituvchilailk yoshdagi bolalarga nisbatan psixik rivojlanishdagi ayrim nuqsonlarni differensial diagnostika qilishning qiyinligi rivojlanishdagi turli og‘ishlar o‘xshash tashqi belgilarga (muloqotda qiynalish, nutqning yo‘qligi)ega ekani bilan belgilanadi.

Hayotining birinchi yilida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirish bo‘yicha tavsiyalar A.A.Venger, G.L.Vigodskaya, E.I.Leongard, E.I.Isenina, N.D.Shmatko, T.Pelьmskayaning ishlarida keltirilgan. Buning uchun yana ilk yoshda psixodiagnostikaga iod qo‘llanmalarda mavjud metodikalardan foydalanish mumkin, biroq topshiriqlarni taqdim qilishda va natijalarni tahlil qilishda eshitishni yo‘qotganlik darajasi va vaqti, nuqson strukturasini hisobga olish zarur. Bolaning psixologikxususiyatlarini tahlil qilayotib, birinchi navbatda, bilish sohasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni ajratish kerak. Psixik rivojlanishning dastlabki bosqichlarida eshitish nuqsonining o‘zi eng katta ta’sir ko‘rsatadi, keyingi bosqichlarda esa – ikkilamchi og‘ishlar: nutqning yo‘qligi yoki rivojlanishda orqada qolishi, tafakkur shakllanishining norma bilan solishtirganda sekinlashganligi.

Go‘daklik va ilk bolalik davrida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganishning asosiy metodi kuzatish hisoblanadi. Tabiiy sharoitda xulqning tashqi komponentlari: amaliy va gnostik harakatlarning harakatli tarkibiy qismlari, tana va uning qismlari harakatlari, bolaning ko‘chib yurishi, mimikasi va pantomimikasi, vegetativ alarning tashqi ko‘rinishlari, vokalizatsiya va nutqiy aktlar, ularning xarakteri, mazmuni, yo‘nalganligi, davomiyligi, fonetik, grammatik, leksikxususiyatlari kuzatiladi.

Hayotining dastlabki 3-4 yilida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganishni o‘tkazishda quyidagilargani hisobga olish lozim:

muloqotning rivojlanishi, avval so‘zgacha shakllar (vokalizatsiya, mimika, tabiiy imo-ishoralar, qarashlar, tana harakatlari).

Kar bolalarda g‘o‘ldirash eshitadigan bolalardagidan kechroq paydo bo‘ladi, u nisbatan bir xil, monoton, bo‘g‘iq bo‘ladi. Javoban g‘o‘ldirash, garchi bolalar ko‘rlab tovush chiqarsa ham, paydo bo‘lmaydi, bu –kimgalir qaratilmagan g‘o‘ldirash, chapillash, qiqirlash va sh.k. katta bo‘lgani sari tovushlar soni kamayib, ular bir xillashib boradi.

Hayotining dastlabki 2-3 yilida zaif eshituvchi bolalarda nutqning rivojlanishida kar bolalar bilan o‘xshashlik kuzatiladi, keyinchalik tafovut tobora ko‘zga tashlana boradi – zaif eshituvchi bolalarda maktabgacha yoshda so‘zlar, ba’zan jumlalar paydo bo‘ladi. Ularning nutqi uchun fonetik buzilishlar, nutqni grammatik rasmiylashtirishda xatolar xarakterli bo‘ladi.

Eshitish idrokining rivojlanish daradjasi. Eshitish idrokining rivojlanish darajasi. Bolaning shaqildoqqa asi uning tovushlarni idrok qilishi haqida erta fikr yuritish imkonini beradi. Keyinchalik bolaning ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlar, radio va televizor ovoziga qiziqishiga e’tibor qaratish kerak. Bolaning o‘yinchoqlar va musiqa asboblari tovushini idrok qilish qobiliyatiga e’tibor qilish kerak. Buning uchun uchta turlicha ovoz chiqaradigan cholg‘u asbobini (garmon, hushtak, qo‘ng‘iroqcha) olib, bolani o‘ziga qaratib qo‘yish va har uchta predmet bilan navbatma-navbat ovoz chiqarish, keyin bolani orqa o‘girib turgazib, bu cholg‘ular ovozini idrok qilish imkoniyatlarini tekshirish kerak.

Nihoyat, nutqni idrok qilishni tekshirish muhim hisoblanadi. Shivirlab, odatiy va baland nutqni eshitish tekshiriladi. Bu protsedurani Boskis Raxil Markovna quyidagicha tavsiflaydi: avval 5-6 metrdan kam bo‘lmagan masofadan shivirlashni eshitish tekshiriladi. Buning uchun bolani orqa o‘girib turgaziladi va tanish so‘zlar shivirlab aytiladi (avval shovqinli tovushlar bo‘lgan, keyin boshqa so‘zlar talaffuz qilanidi). Bola so‘zni qaytara olmasa, 1 metrga yaqin kelinadi (shu tariqa unga asta-sekin yaqinlashib kelinaveradi). Bola qulog‘i oldida shivirlab aytilgan so‘zlarni farqlamasa, demak, u shivirlab aytilgan nutqni idrok qilmaydi.

Keyin odatiy gaplashiladigan balandlikdagi nutqni idrok qilishni tekshirishga kirishiladi. Tekshirish protsedurasi takrorlanadi. So‘zlarni turli sohalardan tanlash kerak, bir nechta oddiy savol ber-

ish mumkin (masalan “oyingning ismi nima?”). takrorlash uchun so‘zlar bolaga yaxshi tanish bo‘lishi kerak. Bola nutqni umuman eshitmasa, uni karlar toifasiga kiritiladi,ularda qoldiqli eshitishning mavjudligini aniqlash kerak. Buning uchun bolaning baland ovozli nutqni idrok qilish imkoniyatlari o‘rganiladi. Bola tovushlarni eshitadigan masofani aniqlagach, u unli va undoshlarni qanday eshitishi tekshiriladi. Taniqli surdopedagog R.M.Boskisning fikricha, nutq tovushlarini eshitishni takshirishni xatto so‘zlarni eshitish, biroq nutqda nuqsonlar va ona tilidan o‘zlashtirmovchilik aniqlanganda ham o‘tkazish lozim. Keyinchlik eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda talaffuzdagi kamchiliklar; so‘z zaxirasi cheklanganligi; nafaqat talaffuzdagi noaniqliklar, balki so‘zlarni xato yozishda ham namoyon bo‘ladigan so‘zlarning tovush tarkibini etarlicha o‘zlashtirmaslik;so‘zlarni noto‘g‘ri tushunish va qo‘llash; nutqning grammatik qurilishida kamchiliklar (gapni noto‘g‘ri tuzish, so‘zlarni gap tarkibida to‘g‘ri moslashtira olmaslik); og‘zaki nutq va o‘qilayotgan matnni tushunishda qiyinchiliklar aniqlanishi mumkin.

Nihoyat, nutqni idrok qilishni tekshirish muhim. Shivirlab, odatiy va baland nutqni eshitish tekshiriladi. Bu protsedurani Boskis Raxil Markovna quyidagicha tavsiflaydi: avval 5-6 metrdan kam bo‘lmagan masofadan shivirlashni eshitish tekshiriladi. Buning uchun bolani orqa o‘girib turgaziladi va tanish so‘zlar shivirlab aytiladi (avval shovqinli tovushlar bo‘lgan, keyin boshqa so‘zlar talaffuz qilanidi). Bola so‘zni qaytara olmasa, 1 metrga yaqin kelinadi (shu tariqa unga asta-sekin yaqinlashib kelinaveradi). Bola qulog‘i oldida shivirlab aytilgan so‘zlarni farqlamasa, demak, u shivirlab aytilgan nutqni idrok qilmaydi.

Keyin odatiy gaplashiladigan balandlikdagi nutqni idrok qilishni tekshirishga kirishiladi. Tekshirish protsedurasi takrorlanadi. So‘zlarni turli sohalardan tanlash kerak, bir nechta oddiy savol berish mumkin (masalan “Oyingning ismi nima?”). takrorlash uchun so‘zlar bolaga yaxshi tanish bo‘lishi kerak. Bola nutqni umuman eshitmasa, uni karlar toifasiga kiritiladi,ularda qoldiqli eshitishning mavjudligini aniqlash kerak. Buning uchun bolaning baland ovozli nutqni idrok qilish imkoniyatlari o‘rganiladi. Bola tovushlarni eshitadigan masofani aniqlagach, u unli va undoshlarni qanday eshiti-

shi tekshiriladi. Taniqli surdopedagog R.M.Boskisning fikricha, nutq tovushlarini eshitishni takshirishni xatto so‘zlarni eshitish, biroq nutqda nuqsonlar va ona tilidan o‘zlashtirmovchilik aniqlanganda ham o‘tkazish lozim.

Keyinchlik eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda talaffuzdagi kamchiliklar; so‘z zaxirasi cheklanganligi; nafaqat talaffuzdagi noaniqliklar, balki so‘zlarni xato yozishda ham namoyon bo‘ladigan so‘zlarning tovush tarkibini etarlicha o‘zlashtirmaslik;so‘zlarni noto‘g‘ri tushunish va qo‘llash; nutqning grammatik qurilishida kamchiliklar (gapni noto‘g‘ri tuzish, so‘zlarni gap tarkibida to‘g‘ri moslashtira olmaslik); og‘zaki nutq va o‘qilayotgan matnni tushunishda qiyinchiliklar aniqlanishi mumkin.

Harakatlarning rivojlanish xususiyatlari. Avval aytilgan tik turishning orqada qolishi kabi xususiyatlardan tashqari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ilk bolalik va maktabgacha yoshda muvozanatni saqlash u qadar barqaror emasligi, harakatlarning etarlicha muvofiqlashmagani, mayda motorika, differensiatsiyalangan harakatlar rivojlanishida orqada qolish kuzatiladi. Keyinchalik yurgan vaqtida oyoqlarini shitirlatish, chayqalish (“dengizchining yurishi”), eshitib nazorat qilishning yo‘qligi yoki to‘liqsizligi sababli predmetlar bilan kundalik harakatlarni bajarishda beixtiyor turlicha tovushlar chiqarish qayd etilishi mumkin.

Taqlid xarakteri. Uning rivojlanishi sekinlashgan. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar 3 yoshgacha ayrim harakatlarni bajarishda taqlidda qiynaladi, yaxshi tanish predmetlar bilan buni yaxshiroq uddalaydi, namuna bo‘yicha tanlashda qiyinchilikka duch keladi. Maktabgacha yoshda taqlid qobiliyati rivojlanadi, bolalar perdmetlarni ajratib olishni talab qiladigan murakkab harakatlarni qayta yarata oladi, bolalar namuna bo‘yicha harakat qila oladigan predmetlar soni ortadi.

Ma’qullash va muvaffaqiyatsizlikka nisbatan a. Ikki yoshgacha bolalarda ularning harakatini baholashga a kam bo‘ladi, ular ma’qullashni kutmaydi, harakat namunasi ko‘rsatilganida ko‘pincha tushunmaydi ham. Keyinchalik ko‘pchilik bolalar kattalaorning asiga ortiqcha yo‘nalish ola boshlaydi, bu predmetlarning xossalariga yo‘nalish olishda to‘sqinlik qilishi mumkin. Maktabgacha yoshda

ma’qullashga a adekvat bo‘lib boradi. Katta bo‘lgani sari kattalarning e’tiroziga ko‘ra tuzatishlar soni, muvaffaqiyatsizlikni mustaqil baholash ortib boradi, tuzatish kiritishga intilishlar maktabgacha yoshda paydo bo‘ladi.

O‘zi haqida tasavvurlar. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda o‘zini va o‘z sifatlarini ajratish kechroq shakllanadi: ular eshitadigan bolalarga qaraganda kechroq o‘zlariga ishora qila, o‘z tana qismlarini ajrata boshlaydi (garchi kattalar va o‘yinchoqlarga nisbatan buni uddalay oladi).

Ilk bolalik va maktabgacha yoshdagi bolalarni tekshirishda kuzatish bilan bir qatorda eksperimental-psixologik metodikalar, psixologik eksperimentningbarcha (laboratoriya, tabiiy, o‘rgatuvchi) turlari qo‘llanadi, ular idrok, makonga oid tasavvurlar, xotira, ko‘rgazmali-amaliy va so‘z-mantiqiy fikrlashning rivojlanishini aniqlagshga qaratiladi. Agar bolalar lisoniy nutqni egallamagan yoki etarli darajada egallamagan bo‘lsa, bolalar va kattalar ham og‘zaki nutqdan foydalanmasligi mumkin bo‘lgan topshiriqlarning noverbal shaklidan foydalaniladi: topshiriq shartlari taqdim qilingan material xarakteridan kelib chiqadi yoki tabiiy imo-ishoralar yordamida ko‘rsatilishi mumkin. Bola imo-ishora nutqini egallagan bo‘lsa, undan yo‘riqnomani tushuntirish uchun foydalanish mumkin. Taqdim qilishning bunday shakllariga yoki tarjima qilib berishga amerikalik psixologlar ko‘p murojaat qiladi. Bunda psixolog bilan tarjimon o‘rtasida muvofiqlashtirilgan o‘zaro ta’sir (hamkorlik) ni ishlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishda T.V.Rozanova dastlabki analogik (o‘xshash), nisbatan engil, ammo mohiyatian asosiysi kabi topshiriqdan foydalanishni maslahat beradi. Faqat bola dastlabki topshiriqlni bajarganidan keyingina asosiysiga o‘tish mumkin. Nisbatan katta yoshda yo‘riqnomani yozma shaklda taqdim qilish mumkin bo‘ladi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishdaidrok, predmetli harakatlar, loyihalashtirish, obrazli va lisoniy xotira, vaqt va makonga oid tasavvurlar, tafakkurning barcha turlarini o‘rganishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish zarur.

Maktab yoshida o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini o'rganish va aniqlangan xususiyatlarni korreksion ish dasturini tuzishda hisobga olish muhim hisoblanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda faoliyat mahsullarini tahlil katta ahamiyatga ega, bunda tasviriy, loyihalashtirish (konstruksiyalash), o'quv, mehnat faoliyatining turli moddiy va moddiylashtirilgan natijalari o'rganiladi. Tahlil bola nimalarni kattalarning ko'rsatmasi bilan, nimalarni mustaqil bajarishini aniqlash imkonini beradi. Kar bolalar rivojlanishining turli bosqichlarida faoliyatning turli natijalarini tahlilga tortish kerak: maktabgacha va kichik maktab yoshida – rasmlar, applikatsiyalar, plastilindan yasalgan buyumlar, konstruksiyalar; o'rtamaktab yoshida – yozma ishlar, insholar (ular nutqning leksikva grammatik xususiyatlarini ochib beradi); o'smirlik davrida – mehnat faoliyati natijalari. Hozirgi kunda xorijda, ayniqsa AQSh da eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarning intellektual rivojlanish darajasini aniqlashda testlardan keng foydalaniladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan kishilarni testdan o'tkazish uchun harakatlar maxsus shkalalari yaratiladi, ular naqsh tuzish, rasmlarni identifikatsiyalash, bloklardan iborat boshqotirmalarni echish, namunalar bo'yicha figuralarni yasash va sh.k. o'z ichiga oladi. Ularning asosiy xususiyati echimning predmetlarning turli elementlari bilan operatsiyalaryo'li bilan erishilishi, nutqdan minimal foydalanilishi sanaladi. Dj. Raven matritsalari (T.V.Rozanovaning ishlarida keng foydalanilgan)va ularga o'xshash ko'rgazmali topshiriqlar (masalalar)ommalashgan. Normal eshitadigan bolalarni o'rganish uchun ishlab chiqilgan standartlashtirilgan shkalalardan foydalanisha urinishlar yaxshi samara bergan (D.Veksler shkalasi, K.M. Gurevich rahbarligida ishlab chiqilgan aqliy rivojlanish maktab testi).

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani tekshirish natijasi bo'yicha xulosa va psixologik-pedagogiktavsifnoma tuzish ayrim o'ziga xosliklarga ega. Ularda nafaqat intellektual va nutqiy rivojlanish darajasi, balki korreksion ishlarni tashkil qilish uchun muhim hisoblanadigan ko'rsatkichlar:eshitishni yo'qotganlik darajasi, harakat sohasining rivojlanganlik darajasi, hamroh nuqsonlarning mavjudligi kabilar ham aks ettiriladi. Bu ma'lumotlarni tizitmlarshitirishda ma'lum sxemaga rioya qilish maqsadga muvofiq.

Psixologik-pedagogik tekshirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik tekshirishda ularning psixik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari:muloqotni tashkil qilish, bola unga qaratilgan nutqni tushunmasligi, tekshiriluvchining o'zida nutqning yo'qligi yoki uning tushunarsizligi bilan bog'liq ma'lum qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu eksperimental metodikalardan foydalanish imkoniyatini kamaytiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi – rivojlanishning alohida tipi, atrof olam bilan o'zaro ta'sirning o'ziga xos sharoitida kechadi, dizontogenezning defitsitar tipiga kiradi. Bunda murakkab funksiyalararo o'zaro ta'sir, ierarxik koordinatsiyaning shakllanishi sekinlashadi. Nutqning zararlanganligi oqibatida bolaga tashqi ta'sirlar hajmi toraygan, muhit bilan o'zaro ta'sir (hamkorlik) qashshoqlashgan. Buning oqibatida bolaning psixik faoliyati soddalashib, tashqi ta'sirlarga asi tobora sodda va bir xillashib boradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixika komponentlari eshitadigan bolalardagiga qaraganda boshqacha proporsiyada rivojlanadi – tafakkurning ko'rgazmali va tushunchaviy shakllari nisbati buziladi, yozma nutq og'zakisiga ko'ra ustunlik qiladi.

Asinxroniya ma'lum perseptiv tizimlar nisbatan saqlangani holda boshqalari turli darajada etarli rivojlanmaganligi namoyon bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda teri sezuvchanligi saqlangan, ko'rish idroki kompensator rivojlanadi. Normal eshitadigan bolalar bilan solishtirganda psixik rivojlanish sur'atlarida ham o'zgarishlar kuzatiladi: tug'ilganidan yoki eshitishni yo'qotganidan keyin ma'lum vaqt o'tgach, rivojlanishning sekinlashadi va adekvat ta'lim-tarbiya sharoitida keyingi davrlarda tezlashadi. Psixik rivojlanish sur'atlaridagi o'zgarishlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixikasining tuzilmaviy o'ziga xosliklari bilan bog'liq. Eshitishda nuqson bo'lgani holda boshqa sensor va perseptiv tizimlar, intellektual soha, boshqaruv tizimlarining saqlanganligi katta ahamiyatga ega.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixik rivojlanishini o'rganishning o'ziga xos vazifalari. Bolaning yoshi, tekshirish vaqtida bolaning psixik rivojlanishning qaysi bosqichida ekaniga

qarab uning xususiyatlarini o'rganishning o'ziga xos vazifalari ajratib ko'rsatiladi.

Go'daklik davrida harakat sohasi – boshini tutib tura olishi, tik turishning rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Aravachada silkitishga aning yo'qligi (bola qo'lgan olmaguncha tinchimasligi) eshitishning buzilishiga ko'pincha hamroh bo'lgan vestibulyar apparatning erta zararlanganidan dalolat beradi. Eshitishning erta buzilishi tik turish rivojlanishining biroz orqada qolishi bilan kechadi, u 1,3-1,4 yoshga kelib kompensatsiyalanadi. Bu ma'lumotlar eshitishning vaqti, ehtimoliy sabablarini bilvosita ko'rsatishi mumkin. Eshitishning tug'ma xarakteri yoki erta yo'qolitlgani haqida quyidagilar daloat beradi: g'o'ng'illash xarakteri – bunday bolalarda u bir xilda, monoton va bo'g'iq; g'o'ldirovchi nutq yo'q, javob g'o'ldirash yo'qligida uning spontanligi.

Ilk bolalik, maktabgacha va kichik maktab yoshida nutq va bilish sohasining rivojlanish xususiyatlari, birinchi navbatda, tafakkur bilan nutq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllanishi, shuningdek, harakatlar rivojiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu sohalarda nuqsonlarning aniqlanishi adekvat korreksion ishni tashkil qilish uchun zarur hisoblanadi.

Go'daklik va ilk bolalik davrida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishning asosiy metodi kuzatish sanaladi. Tabiiy sharoitlarda xulqning tashqi komponentlari – amaliy va bilish (gnostik) harakatlarning harakatli tarkibiy qismlari, gavda va uning qismlari harakatlari, mimika va pantomimika, vegetativ alarning tashqi namoyon bo'lishi, vokalizatsiya va nutqiy aktlar, ularning xarakteri, mazmuni, yo'nalganligi, davomiyligi; nutqning fonetik, grammatik va lug'avaiy xususiyatlari kuzatiladi.

3-4 yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganishni amalga oshirishda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

1. Muloqotning rivojlanishi (avval uning so'zgacha shakllari – vokalizatsiya, mimika, tabiiy imo-ishoralar, gavda harakatlari). Kar bolalarda g'o'ldirash eshitadiganlariga nisbatan kechroq paydo bo'ladi, u bir xilda, onoton, bo'g'iq bo'ladi. Javoban g'o'ldirash, kuzkatilmaydi garcha bolalar ko'p tovush chiqarsa-da, bu nisbat-

lanmaydigan g'o'ldirash, qaqillash va sh.k. bola katta bo'lgani sari tovushlar kamayadi, ular bir xillashib boradi.

Zaif eshituvchi bolalarda kar bolalar bilan nutqiy rivojlanishdagi o'xshashlik dastlabki 2-3 yilda kuzatiladi, keyin tafovutlar tobora aniq kuzatiladi: zaif eshituvchilarda maktabgacha yoshda so'zlar, ba'zan jumlalar paydo bo'ladi, ularning nutqi uchun fonetik buzilishlar, nutqni grammatik ramiylashtirishda xatoliklar xos.

2. Eshitish idrokining rivojlanganlik darajasi. Bunda bolaning eshitish qobiliyatini audiologik tadqiq qilish natijalari muhim. Audiogramma eshitishning pasayish darajasi va uning diapazoni haqida fikr yuritish imkonini beradi. Bundan tashqari, bola kundalik turmushda va muloqotda qoldiqli eshitishdan qanday foydalanishini bilish kerak.

Bolaning shaqildoqqa asi uning ovozlarni idrok etishi haqida erta fikr yuritish imkonini beradi. Keyinchalik bolaning jaranglovchi (ovoz chiqaruvchi) o'yinchoqlarga, radio va televizor ovoziga qiziqishiga e'tibor qaratish lozim.

Bolaning o'yinchoqlar va musiqa asboblari ovozini idrok etish qobiliyatini tekshirish kerak. Buning uchun turlicha ovoz chiqaradigan uchta asbob (garmon, hushtak, qo'ng'iroqcha) olib, bolani o'ziga qaratib turgizish va uchala predmetdan navbat bilan ovoz chiqarish, keyin uni teskari qaratib turgizib, shu asboblar ovozini idrok etish imkoniyatlarini tekshirish kerak.

Nihoyat, eng muhimi – nutqni idrok etishni tekshirish. Shiviralsh, yaxlit, odatiy so'zlashuv va baland nutqni eshitish tekshiriladi. Bu protsedurani R.M.Boskich quyidagicha tavsiflaydi. Dastlab kamida 5-6 metrdan shivirlashni eshitish tekshiriladi. Buning uchun bolani teskari qaratib turgizish va unga tanish so'zlarni shivirlab aytish kerak (avval shovfinli tovushlar qatnashgan so'zlar, keyin boshqa so'zlar aytiladi). Bola 6 metrdan shivirlab aytilgan so'zni qaytara olmasa, unga 1 metrga yaqinlashiladi, shu tariqa bolaga yaqinlashib kelaveriladi. Bola qulog'i oldida shivirlab aytilgan so'zni farqlamasa, demak, u shivirlab aytilgan nutqni idrok etmaydi. Keyin odatiy, so'zlashuv balandligidagi nutqni eshitish tekshiriladi. Tekshirish protsedurasi takrorlanadi. So'zlarni bilishning turli sohalaridan tanlash lozim. Bir necha oddiy savollar berish mumkin (masa-

lan, "Onaningning ismi nima?"). takrorlash kerak bo'lgan so'zlar bolaga yaxshi tanish bo'lishi lozim.

Bola so'zlashuv balandligidagi nutqni eshitmasa, uni qoldiqli eshitishning mavjudligini aniqlash kerak bo'lgan kar bolalar toifasiga kiritiladi. Buning uchun bolaning baland ovozli nutqni eshitish qobiliyati (imkoniyatlari) tekshiriladi. Bola so'zni eshita oladigan masofani aniqlagandan keyin u unli va undosh tovushlarni qanchalik eshitishi tekshiriladi. R.M.Boskisning fikricha, eshitishni nutq tovushlariga tekshirishni so'zlarni eshitish etarlicha emasligi aniqlanmagan, lekin nutq nuqsonlari aniqlangan va bola til darslaridan o'zlashtirishi past bo'lgan hollarda ham o'tkazish lozim.

Keyin eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuzdagi kamchiliklar, so'zlar zahirasi cheklanganligi, so'zning tovush tomonini etarlicha o'zlashtirmaganlik (bular nafaqat talaffuzning aniq emasligi, balki yozuvdagi xatolarda ham namoyon bo'ladi), so'zlarni etarlicha tushunmaslik va noto'g'ri qo'llash; nutqning grammatik qurilishida kamchiliklar (gapni noto'g'ri qurish, so'zlarni to'g'ri moslashtirmaslik), og'zaki nutqni va o'qilayotgan matnni tushunishda qiyinchiliklar aniqlanishi mumkin.

3. Harakatlar rivojlanishi xususiyatlari. Eshitish qobiliyatini erta yo'qotish boshni tutish malakasi nisbatan kech shakllanishi bilan kechishi mumkin; to'g'ri turishning rivojlanishida bir muncha kechikish, 1 yoshu uch oy bir yarim yoshga kelib kompensatsiyalanadi. Aravachada chayqatishga aning yo'qligi vestibulyar apparatning erta jarohatlangani (zararlargani) dan dalolat bo'lishi mumkin, bu eshitish qobiliyatining yo'qligiga tez-tez "hamroh" bo'ladi. ilk bolalik v maktabgacha yoshda bir muncha beqarorlik, muvozanatni saqlashda qiyinchiliklar, harakatlar koordinatsiyasi etarli emasligi, mayda motorika, differensiatsiyalangan (farqlanadigan) harakatlar rivojida orqada qolish kuzatiladi. Keyinroq bolada yurganda oyoqni sudrab bosish (dengizchilar yurishi), buyumlar bilan maishiy harakatlarni bajarganda eshitish nazoratining yo'qligi yo to'liqsizligi bois ovozlarning soni ko'pligi kuzatiladi.

4. Taqlid (qilish) xarakteri. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda taqlid sekinlashgan bo'ladi. uch yoshgacha ular ko'proq yaxshi tanish predmetlar bilan ayrim harakatlarga taqlid qiladi, ammo na-

munaga ko'ra tanlash qiyin kechadi. Maktabgacha yoshda taqlid qobiliyati rivojlanadi, bolalar predmetlar xossalarini ajratishni talab qiladigan murakkab harakatlarni qayta yarata oladi, ular namunaga ko'ra harakat qila oladigan predmetlar soni ortib boradi.

5. Ma'qullash va muvaffaqiyatsizlikka a. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ikki yoshgacha o'z harakatlariga berilgan baholarga kam a qiladi, uni ktmaydi, ko'pincha ularga harakat namunasini ko'rsatganlarini tushunmaydi. Keyinroq bolalarning ko'pchiligi kattalarning asiga keragidan ortiq yo'naladi (orientirlanadi) bu predmetlarning xossalariga yo'nalishga to'sqinlik qilishi mumkin. Ma'qullashga a adekvat. Katta bo'lgani sari kattalar e'tiroziga ko'ra tuzatishlar soni ortadi, muvaffaqiyatsizlikka mustaqil baho va tuzitish kiritishga urinish maktabgacha yosh davridayoq paydo bo'ladi.

6. O'zi haqida tasavvur. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda o'zini va o'z sifatlarini ajratish kechroq shakllanadi, ular o'zini ko'rsatish, tana qismlarini ajratishni normal eshitadigan bolalardan kechroq boshlaydi (garchi buni kattalar va o'yinchoqlarda qila oladi).

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni tekshirishda kuzatish bilan bir qatorda eksperimental-psixologik metodikalar, idrok, makon tasavvurlari, xotira, ko'rgazmali –amaliy va lisoniy-mantiqiy fikrlash rivojlanishidagi xususiyatlarni (o'ziga xosliklarni) aniqlashga qaratilgan psixologik (laboratoriya, tabiiy, o'rgatuvchi) eksperimentlarning barcha turlari olib boriladi. Bola og'zaki nutqni egallamagan yo etarlicha egallamagan bo'lsa, noverbal shakldagi topshiriqlardan foydalaaniladi, bunda katta yoshli kishi va bola verbal nutqdan foydalanmasligi mumkin. Topshiriq shartlari material xarakteridan kelib chiqadi yoki tabiiy ishoralar yordamida ko'rsatilishi mumkin. Bunda psixolog va tarjimon o'rtasidagi kelishilgan hamkorlikning ishlanganligiga katta talab qo'yiladi.

Biroq yo'riqnoma berishda imo-ishora nutqidan foydalanish masalasi ancha murakkab bo'lib, psixologlar tomonidan turlicha hal qilinadi. Asosiysi – tarjimada muvofiqlikni o'rnatish, imo-ishora nutqnining o'ziga xosliklari bilan belgilanadi. Ayrim ishoralar imitatsiyalash xarakteriga ega (bitta ishora bilan ham predmet, ham u bilan bajaariladigan harakat ifoda etiladi).

Boshqalari predmetni chizadigan yoki plastik ishora yordamida predmetni ko‘rgazmali tavsiflashga asoslangan. Ishora nutqi yordamida yo‘riqnomani tushuntirishda aytib berishga ham yo‘l qo‘yiladi. Shuning uchun ko‘pchilik psixologlar yo‘riqnomani berishda faqat tabiiy, masalan ko‘rsatuvchi ishoralardan foydalanaishni tavsiya qiladi. bu qiyin vaziyatdan chiqish sifatida T.V.Rozanova dastlabki o‘xshash, nisbatan oson, biroq mohiyatan asosiysiga o‘xshash topshiriqdan foydalanishni taklif qiladi. Bola dastlabki topshiriqni bajarganidan keyingina asosiysini boshlash mumkin. Nisbatan katta yoshli bolalarga yo‘riqnomani yozma shaklda berish mumkin. Amerikalik surdopsixologlar fikricha, tekshirish chog‘ida ishora nutqidan foydalanishda muammoning axloqiy jihatlariga – eshitishida nuqsoni bo‘lgan kishining eshitadigan psixolog tomonidan ishora nutqining qo‘llanishiga asini ham e’tiborga olish lozim.

Go‘daklik, ilk bolalik va maktabgacha yosh davrida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolaning psixik rivojlanish darajasini diagnostika qilish diagnostika qilish murakkab muammoligicha qolib kelmoqda. Karlikni eshitishni qisman yo‘qotganlik, intellektning pasayganligi, nutqiy nuqsonlardan farqlashdagi murakkabliklar ko‘p hollarda kar bolalarning aqli zaif sifatida tasniflanishi, zaif eshituvchilailk yoshdagi bolalarga nisbatan psixik rivojlanishdagi ayrim nuqsonlarni differensial diagnostika qilishning qiyinligi rivojlanishdagi turli og‘ishlar (muloqotda qiynalish, nutqning yo‘qligi)o‘xshash tashqi belgilarga ega ekani bilan belgilanadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolaning go‘daklik, ilk bolalik va maktabgacha yosh davridagi psixik rivojlanish darajasini tashhislash murakkab muammoligicha qolib kelyapti. Karlikni eshitishni qisman yo‘qotganlikdan, intellektning pasayganligidan, nutqiy buzilishlardan farqlash qiyin. Bunda eshitishida nuqsoni bo‘lgan, ayniqsa kar bolalar ko‘p hollarda aqli zaif, zaif eshituvchilar esa sensor yoki motor alaliyali bolalar sifatida tavsiflanadi. Ilk davrdagi bolalarda psixik rivojlanishning ayrim buzilishlarini differensiallashtirilgan tashhislashdagi qiyinchiliklar rivojlanishdagi turli og‘ishlar o‘xshash tashqi belgilarga ega (muloqotdagi qiyinchiliklar, nutqning yo‘qligi) bo‘lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Hayotining birinchi yilida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirish bo‘yicha tavsiyalarni A.A.Venger, G.L.Vigodskaya, E.I.Leongard, E.I.Isenina, N.D.Shmatko, T.V.Pelimskaya ishlarida ko‘ramiz. Bundan tashqari, ilk yoo‘dagi bolalarni psixodiagnostikalash bo‘yicha qo‘llanmalardan berilgan ko‘plab topshiriqlardan foydalanish mumkin. Ammo topshiriqlarni berish va antijalarni tahlil qilishda nuqson strukturasi, eshitishni yo‘qotish darajasi va vaqtini inobatga olish kerak. Bolaning psixologik xususiyatlarini tahlil qilishda, birinchi navbatda, bilish sohasi rivojiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash kerak (psixik rivojlanishning ilk davrlarida eshitish nuqsonining o‘zi, keyingi davrlarda esa ikkilamchi og‘ishlar: nutqning yo‘qligi yoki rivojlanishida orvqada qolish, tafakkur shakllanishining normadagi bilan solishtirganda sekinlashganligi) katta ta’sir o‘tkazadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqning rivojlanish darajasi

Eshitish buzilganda nutqning rivojlanish darajasi bir xil bo‘lmaydi va quyidagi omillarga bog‘liqdir:

– eshitishning buzilganlik darajasi; eshitish analizatori nuqsonining yuzaga kelish vaqti;

– eshitish analizatori faoliyati buzilganidan keyin bolaning qanday pedagogik sharoitlarda bo‘lgani;

– bolaning individual xususiyatlari.

Sanab o‘tilgan omillarning har biri bolalar nutqini baholashda katta ahamiyatga ega. Eshitishning pasayish darajasi va nutqning rivojlanishi bevosita bog‘liqdir. Bolaning eshitishi qanchalik pasaygan bo‘lsa, nutq shuncha ko‘p zarar ko‘radi. Eshitish pasayish darajasi sezilarli bo‘lmasa, nutqdagi buzilishlar yorqin ifodalanmaydi. Eshitish pasayishining yuqori darajasida bola maxsus ta’limning boshlanishigacha soqov bo‘lib qolaveradi. Eshitish pasayishining o‘rta darajasida nutqning fonetik, leksik, grammatik tomonida buzilishlar kuzatiladi. Eshitish bola hayotining turli bosqichlarida buzilishi mumkin. Nuqsonning ikkilamchi ko‘rinishlari mavjud yoki mavjud emasligi vaqt omili bilan bog‘liq. Nuqson qancha erta yuzaga kelsa, u nutqiy funksiyaning shakllanganligiga shuncha ko‘p ta’sir o‘tkazadi. Ikki yoshgacha bo‘lgan, nutq shakllanmagan davrda

kar bo‘lib qolish nutqning mavjud bo‘lmasligiga olib keladi. 3-3,5 yoshgacha davrda eshitishning yo‘qotilishi shakllangan nutqning yo‘qotilishiga olib keladi. 4-5 yoshda eshitish to‘lig‘icha yo‘qotilsa, maxsus ta’lim o‘z vaqtida boshlanmasa, nutq deyarli to‘liq boy beriladi. 6-7 yoshda eshitishni yo‘qotish bola nutqining keskin buzilishiga olib keladi, maxsus pedagogik yordamsiz esa bolaning nutqi asta-sekinlik bilan yomonlashib boraveradi. Bola 7 yoshdan keyin eshitmay qolsa, savol egallash ko‘nikmalari bo‘lsa, nutq saqlab qolinishi mumkin, buning uchun tizimli korreksion ish olib borish talab qilinadi.

Eshitish qisman boy berilganda bolalarda vaqt omili muhim sanaladi – u nutqning rivojlanish darajasini belgilaydi. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda eshitishning sezilarsiz pasayishi nutqning kechikishi yoki etarlicha rivojlanmasligiga olib keladi. 3 yoshdan keyin eshitishning pasayishi nutqiy rivojlanishda u qadar jiddiy nuqsonlarni keltirib chiqarmaydi. Eshitishning pasayishi oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan ham tibbiy, ham pedagogik chora-tadbirlar qanchalik erta ko‘rilsa, bola shuncha muvaffaqiyatli rivojlanadi. Oilada nutqiy muhitning shakllantirilishi, eshitishni erta protezlash, nutqiy idrok va nutqni rivojlantirish bo‘yicha maxsus ishlarni tashkil etish bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilaydi.

Individual xususiyatlar ham nutqning rivojlanishiga ta’sir o‘tkazadi. Nutq egallash jarayonida bola shaxsining faolligi, tafakkur jarayonlarining harakatchanligi katta rol o‘ynaydi. Barqaror ko‘rish diqqati va xotira nutqiy nuqsonni kompensatsiyalash va nutqni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Kar bolalarda nutqni shakllantirish maxsus o‘qitish sharoitida qoldiqli analizatorlardan foydalanishga asoslanadi. Ko‘rib va eshitib idrok idrok etish, kinestetik sezgi, taktik vibratsiyali sezgirlik faol jalb qilinadi. Surdopedagog kar bolaga nutqiy apparat harakatlarini egallash, eshitib idrok etishni rivojlantirishda (ovoz kuchaytirish apparaturasidan majburiy foydalanish bilan) ko‘maklashadi.

Zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish tabiiy yoritish sharoitida qoldiqli eshitish asosida amalga oshiriladi. Xatto og‘zaki nutqni idrok etish to‘liqsiz bo‘lsa-da, bola og‘zaki nutqni mustaqil, biroq turli buzilishlari bilan, egallashga qodir. Intensiv rivojlanish

va eshitishdan foydalanish uchun sharoit yaratilganida nutqning grammatik qurilishini mustaqil o‘rganish imkoniyati tezkorlik bilan ortadi.

Keyinchalik (hayot davomida) kar bo‘lib qolgan bolalar shakllangan, rivojlangan nutqqa ega. Ularda nutq saqlanganligining turli darajasini kuzatish mumkin. Eshitish yo‘qotilguniga qadar ya’ni kech kar bo‘lib qolgan bolada nutqning rivojlanishi va tafakkurning shakllanishi eshitish asosida tabiiy nutqiy muloqot sharoitida kechadi. Keyin kar bo‘lib qolganlarning ko‘pchiligi og‘ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega. Korreksion ta’limda nutqni ko‘rish yoki ko‘rish-eshitish asosida (ovoz kuchaytirish apparaturasi yordamida) idrok etishni shakllantirish vazifasi birinchi planga qo‘yiladi. Keyin kar bo‘lib qolgan bolalar og‘zaki nutqni ko‘rib idrok etish ko‘nikmalarini nutqni egallash vaziyatining o‘zidan keyin egallashlari lozim. Shu bilan ular eshitishida nuqsoni bo‘lgan boshqa bolalardan farq qiladi.

Nutqiy rivojlanish bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eshitishning pasayishi ijtimoiy muloqotning cheklanishini belgilaydi. Bu cheklanish bola psixikasining shakllanishiga ta’sir etadi. Bilish faoliyatining barcha sohalari defitsitga uchraydi (qiyinlashadi). Nutq, idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur zarar ko‘radi.

Hayotining dastlabki 2-3 oyida kar va eshitadigan bola o‘rtasidagi tafovut deyarli ko‘zga tashlanmaydi (E.F.Rau, F.F.Rau).kar bolaning baqirig‘i va g‘o‘ldirashi eshitadigan bolanikidan u qadar farq qilmaydi. Kar bolalarda g‘o‘ldirash paydo bo‘ladi, ammo o‘z talaffuzini nazorat qilish imkoni yo‘qligi sababli u asta-sekin yo‘qolib boradi.

Ilk yoshdagi kar bolalarda nutq shakllanishi mumkin emas. Biroq ularda maxsus ta’limsiz turli ovoz va talaffuz alari paydo bo‘ladi. Bu turli xil bo‘linmas ovozlar, bolaning ijobiy yoki salbiy hissiyoti bilan boq hayqiriqlar bo‘lishi mumkin. Bu ovozlar kattalarning e’tiblorini o‘ziga qaratish uchun ham ishlatiladi.

Ilk yoshdagi bolalar ko‘pincha bu ovozlardan kattalar bilan muloqotda, o‘yinda foydalanadi. Bolalar o‘z xohishi va ehtiyojlarini g‘o‘ldirash orqali ifodalashga urinadi. Bola turli tovush birikmala-

rini predmet va harakatlarni ifodalash uchun qo'llay boshlaydi. Biroq bu tovush birikmalari so'zlarga o'xshamaydi, ularni faqat bolaning yaqinlari, ma'lum doiradagi kishilargina tushuna oladi. Tovush birikmalari muloqotning nutqiy bo'lmagan (nolisoniy) vositalari – tabiiy imo-ishoralar, qarashlar, predmetlarga ishora va sh.k. bilan birga qo'llanadi. Maxsus o'qitishsiz bola katta bo'lgani sari ovoz alari qisqarib boradi, ular tobora bir xillashib, yo'qolib boradi. Zaif eshituvchi bolalarning go'daklik davridagi nutqiy rivojlanishi ularning eshitish darajasi bilan belgilanadigan jiddiy xilma-xillik bilan tavsiflanadi. Nutqiy omillarning shakllanishi xuddi kar bolalardagi kabi kechadi. Engil va o'rta zaif eshituvchi bolalarda ilk yoshda ko'plab ovoz alari kuzatiladi. Hayotining 2-yilida g'o'ldirash paydo bo'ladi, u eshitadigan bolalarnikidan kamroq, biroq kar bolalarnikidan ham o'zgacha bo'ladi. Ba'zan 2-3 yoshga kelib, g'o'ldirab aytiladigan so'zlar, so'zlar paydo bo'ladi, ular o'yinchoq, atrofdagi buyumlar nomini bildiradi. Bu so'zlarni bola katta miqdordagi grammatik, fonetik buzilishlar bilan talaffuz qiladi. Zaif eshituvchi bolalarning kam qismida qisqa jumlalar paydo bo'ladi. Og'ir zaif eshituvchi bolalar nutqiy holati bo'yicha ilk yoshida karlarga tashqi ko'rinishdan o'xshab ketadi. Biroq ularning ovoz alari ko'proq, kattalar nutqiga yaxshiroq taqlid qiladi.

Maktabgacha yoshda kar bolalarda ta'lim olib borilmasa, nutq shakllanmaydi. Turli ovoz alari, tovush birikmalari, g'o'ldirash kuzatiladi. Ta'limsiz ovoz alari soni kamayib boradi, ular tobora bir xillashib boradi, 5-6 yoshga kelib butkul yo'qoladi. Ba'zan katta maktabgacha yoshdagi, nutqqa o'rgatilmagan, bolalar o'zining nutqiy muammolarini anglab etadi, kishilar bilan muloqotga kirishni unchalik istamaydi, kattalar va eshitadigan bolalar bilan aloqadar o'zini olib qochadi. Muloqotning nolisoniy vositalari miqdori bola kattalashgani sari kengayib boradi. Tabiiy imo-ishoralar ko'payadi, bolalar bularni kattalardan nusxa oladi yoki o'zi o'ylab topadi. Ularning emotsional holatini tavsiflovchi bir xildagi qarashlar rivojlanadi.

To'rt yoshdan keyin kar va og'ir darajali zaif eshituvchi bolalar nutqida tafovutlar yanada sezilarli bo'ladi. Zaif eshituvchi bolalarda xatto maxsus o'qitishsiz ham talaffuz qilinadigan so'zlar miqdori ortib boradi. Ayrim bolalar «Oyi, te (Oyi, keling), oyi be (Oyi, bering)» tipidagi qisqa, agrammatik jumlalarni o'zlashtiradi.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarni olib borishning asosiy shartlaridan biri eshitish-nutqiy muhitni yaratish sanaladi. U bola bilan eshitish apparatlaridan foydalanib, doimiy nutqiy muloqot qilishni ko'zda tutadi. Go'dak yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish ishlari kattalarning yuzi, nutqi, predmetlarga ko'rish va eshitishni jamlashga qaratiladi. Bu ish bola bilan kun davomidagi muloqot jarayonida, shuningdek, tizimli maxsus mashg'ulotlarda uzoq muddat olib boriladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar hayotining 2-3-yilida nutqiy rivojlanish nisbatan yuqori sur'atga ega bo'ladi. Turli predmet, hodisalarni bilgani tufayli bolada ularning nomlari lug'ati, predmetlar bilan harakatlar shakllanadi. Tuzilishiga ko'ra sodda jumlalardan doimiy foydalanish ularning ayrimlari, tobora ko'p takrorlanadigani tushunarli bo'lishiga olib keladi. Bolani fe'llarning ma'nosini tushunishga o'rgatish muhim, zero bu jumlalarni tushunish va qo'llash uchun zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ilk yosh davrida boshlangan ishlar davom ettiriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oilada olib boriladigan ishlarni tashkil qilish va ularning mazmuniga talablar ilk yoshdagi bolalar bilan ishlarga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Biroq turli yo'nalishlardagi ishlar mazmuni kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi.

Tarbiya va ta'lim butun kun davomida, jumladan rejim (tartib) vaziyatlarida, o'yinlarda, erkin faoliyatda ham davom etadi.

Turli xil ishlarni o'z ichiga oladigan mashg'ulotlar har kuni olib boriladi.

Eshitish-nutq muhitini yaratish bola bilan butun oila a'zolarining muloqotini ko'zda tutadi.

Bola bilan ishlar davomida eshitish apparatidan foydalaniladi.

Bolaning har tomonlama barkamol rivojlanishi jismoniy, mehnat tarbiyasi, atrof olam bilan tanishtirish, o'yin faoliyati, tasviriy faoliyatni rivojlantirish, nutqni rivojlantirish ishlari, boshlang'ich matematik tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek o'qishni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bola maktabga qabul qilinganda nutqni, idrokni, xotirani va umuman, tafakkurni rivojlantirish ishlari davom ettiriladi.

Shunday qilib, kar va zaif eshituvchi bolalarda eshitishning buzilishidan tashqari quyidagi nuqsonlar kuzatilishi mumkin:

– vestibulyar apparat faoliyatining buzilishi;

– ko'rish buzilishining turli variantlari;

– psixik rivojlanishning birlamchi kechikishiga olib keladigan minimal miya disfunksiyasi. Bunda har qanday salbiy omillar miyaga bevosita ta'sir qilishi mumkin, yoki boshqa hollarda, miya etishmovchiligi yurak –qon-tomir, nafas, ajratish va boshqa – miya ishini o'zgartiradigan sistemalardaog'ir somatik kasalliklar natijasida yuzaga keladi;

– oligofreniyaga olib keladigan miyaning keng jarohatlanishi;

– bolalar serebral paralichi yoki harakat sohasi regulyasiyasida boshqa o'zgarishlarga olib keladigan miya sistemalarining buzilishi;

– miyaning eshitish – nutq sistemasi (qobiq va qobiq osti tuzilmalarining) lokal buzilishlari;

– markaziy nerv sistemasi va butun organizmning psixik kasalliklar (shizofreniya, manikal-depressiv psixoz va b.) ga olib keladigan kasalliklari;

– organizmning umumiy zaiflashuviga olib keladigan ichki a'zolar: yurak, o'pka, buyrak, ovqat hazm qilish sistemasi va b. dagi og'ir kasalliklar;

– chuqur ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik imkoniyati.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda idrok, predmetli harakatlar, konstruksiyalashning barcha turlariga, obrazli va lisongiy xotira, vaqt va makon bilan bog'liq tasavvurlar, fikrlashning barcha turlariga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish kerak. Maktab yoshidagi bolalarni tekshirishda o'qish, yozish, sanash ko'nikmalarini o'rganish va korreksion ishlar dasturini ishlashda aniqlangan xususiyatlarni hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda faoliyat mahsuli tahlili katta ahamiyatga ega, bunda ham moddiy, ham nomoddiy natijalar – tasviriy, konstruksiyalash, o'quv, mehnat faoliyati natijalari o'rganiladi.

O'rganishda bola nimalarni kattalarning ko'rsatmasi bilan, nimalarni o'zi mustaqil bajarishi aniqlanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi turli bosqichlarida faoliyatning turli natijalari: maktabgacha va kichik maktab yoshida – rasm, applikatsiya, plastilindan yasalgan narsalar; o'rta maktab yoshida – yozma ishlar, insholar, nutqning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi; o'smirlik davrida – mehnat faoliyati natijalari tahlili ahamiyatli.

Hozirgi kunda xorijda, ayniqsa AQShda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarning intellektual rivojlanishini aniqlash uchun testlardan keng foydalaniladi. Bu maqsadda harakatlarning maxsus shkalasi tuziladi, ular naqsh tuzish, rasmlarni identifikatsiyalash, boshqotirmalarni echish kabi topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Bu topshiriqlarning asosiy xususiyati predmetlarning turli elementlari bilan operatsiyalar bilan echichmga erishiladi, nutqdan foydalanish minimallashtiriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda Dj.Raven matritsalari va shunga o'xshash ko'rgazmali topshiriqlaro'zini oqladi. Normal eshitadigan bolalar uchun standartlashtirilgan shkalalardan (D.Veksler shkalasi, aqliy rivojlanish maktab testi) foydalanishga urinishlar ham yaxshi natijalar berdi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish natijalariga ko'ra xulosa va psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzish ayrim xususiyatlarga ega. Ularda nafaqat nutqiy va intellektual rivojlanish darajasi, balki korreksiya ishlarini tashkil qilish uchun muhim sanalgan ko'rsatkichlar:

– eshitish qobiliyatini yo'qotganlik darajasi,

– harakat sohasi rivojlanganlik darajasi,

– ikkilamchi nuqsonlarning mavjudligini ham ko'rsatish kerak. Bu ma'lumotlarni tizimlashtirishda quyidagi sxemadan foydalanish maqsadga muvofiq:

1.Nutq holatining tavsifi:

– eshitish qobiliyatini yo'qotganlik darajasi (karlik, eshitishning qisman yo'otganlik) – tibbiy hujjatlardagi ma'lumotlardan foydalanish;

– eshitishda buzilish ro'y bergan yosh davri: tug'ma, erta (3 yoshgacha), nisbatan keyingi yoshda eshitish qobiliyatini yo'qotish;

– shu buzilishga olib kelgan sabablar;

– oilada eshitishida nuqsoni bo'lgan shasxlarning borligi yo'qligi.

2. Harakat sohasining rivojlanish darajasi:

– pantomimika xususiyatlari (qomat, yurish, individual pozalar (turishlar);

– mimika xususiyatlari (yuzning umumiy ifodasi, mimika harakatlari ifodaliligi, tabiiy ishoralar xarakteri);

– (yirik va mayda) harakatlar koordinatsiyasi;

– statik va dinamik muvozanatni saqlash imkoniyatlari.

3. Bilish sohasi:

– idrok turlarining rivojlanish daradasi; ko'rib idrok qilish jarayonida tahlil va sintez;

– xotira turlari (obrazli va lisoniy) rivojlanishidagi, materialni eslab qolish usullaridagi (mexanik va mantiqiy) nisbatlanish;

– tafakkur: fikrlash turlari, uning yoshga oid me'yorlarga mosligi; umumlashtirishlar darajasi tavsifi; fikrlash operatsiyalari rivojlanish darajasi;

– nutqning rivojlanishi: bola egallagan va foydalanadigan nutq turlari (og'zaki-lisoniy), yozma, daktil, imo-ishora); labdan o'qish ko'nikmalari holati; agrammatizmlar, (faol va passiv) lug'at hajmi, nutq turlari nisbatlanishi, nutq turlari qanday vaziftlarda qo'llanishi;

– bilish jarayonlari rivojidagi o'zaro aloqadorliklar, tafakkur va nutq rivojida nisbatlanish.

4. Etakchi faoliyat xususiyatlari (yoshga bog'liq holda).

5. Shaxs rivojlanishi xususiyatlari.

6. Ta'sir turlariga (rag'bat, jazo, baholash) a.

7. Emotsional holatlar. Emotsiyalarning tashki ifodasi xususiyatlari. Boshqalarning emotsiyalarini tushunish.

8. O'z-o'zini baholash(uning adekvatligi va barqarorligi darajasi, qaysi sabablar ta'sirida o'zgarishi).

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish xususiyatlari, psixologik-pedagogik tavsifnoma va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixoloogik-pedagogik o'rganish natijalaribo'yicha tavsiyanoma tuzishga talablar bilan T.G.Bogdanovaning o'quv qo'llanmasida (2002) va tavsiya qilingan boshqa adabiyotlarda batafsilroq tanishish mumkin.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish xususiyatlari, psixologik-pedagogik o'rganish ularga ta'lim va tarbiya berish ja-

rayonini to'g'ri tashkil qilish, boladagi nuqsonni muvaffaqiyatli kompensatsiyalash va uning bilish sohasi hamda shaxsini to'laqonli rivojlantirishga ko'maklashuvchi korreksion ishlar yo'nalishlarini belgilashda yordam beradi.

Surdopedagogik tekshirish o'tkazish uchun metodik va diagnostik material. Bolalarning eshitish qobiliyatini quyidagi hollarda tekshirish kerak:

– bola (hoh ommaviy, hoh maxsus, korreksion) ta'lim muassasasiga, reabilitatsiya markaziga qabul qilinayotganida;

– bola uzoq muddatli yoki og'ir kasallik: gripp, otitni (ikki hafta o'tganidan keyin), parotit, korboshidan kechirganida, ototoksikta'sirli antibiotiklar bilan davolanishdan keyin;

– bolaning nutqiy rivojlanishida orqada qolish mavjud bo'lganda;

– bolani rivojlanishda nuqsonlar borligiga shubha qilingani sababli tekshirishga (masalan, PTPK) yuborayotganda.

Yuqorida tavsiflangan metodikalar apparatura jihozlarini talab qilmaydi. Ular PTPK xodimlari, pedagoglar, psixologlar, ota-onalar uchun qulay. O'zining soddaligiga qaramay, ular eshitishi pasayganlikda shubha qilingan bolalarni aniqlash imkonini beradi. U yoki bu tekshirish metodikasini tanlash bolaning yoshi va nutqni qay darajada egallagani bilan bog'liq bo'ladi.

Eshitishni onlayn tekshirishning, afsuski, internet yoki telefon tarmog'i yordamida eshitishni tekshirish uchun metodikalarni ishlab chiqishga xalaqit beradigan qator sabablarga ko'ra imkoni yo'q. Faqat musiqiy eshitish qobiliyatini onlayn tekshirish mumkin.

Ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar yordamida eshitish funksiyasini o'rganish metodikasi.

Ilk bolalik, maktabgacha va ikichk maktab yoshidagi bolalarda eshitish qobiliyatini tekshirish uchun ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardan foydalanish mumkin. Bular sirasiga quyidagilar kiradi:

Shaqildoq – 5000 GS Garmoshka - 2000 GS
Sharmanka – 4000 GS Hushtak - 2500 GS
Naycha - 3000 GS Charm baraban - 500 GS




Tovush intensivligi 75 dan 100 DBgacha oraliqda variantlanadi. Chastota qancha past bo‘lsa, tovush shuncha baland. 3-4 metr masofadan, agar a bo‘lmasa, pedagog 0,5 metrga yaqinlashadi. Kuzatuvchi bola bilan suhbatlashadi, yordamchi esa chap yoki o‘ng tomondan tovushli signallar chiqaradi. Bola a qilmasa, masofa yana, bolaning qulog‘igacha 5-10 sm ga etgunicha, qisqartiriladi.

Tovushga u yoki bu masofadan birinchi a olingach, yordamchi 0,5 metr uzoqroqqa ko‘chadi va yana tovush chiqaradi. Bu bilan bola tovushlani idrok qiladigan maksimal masofa aniqlanadi. Keyin boshqa tomondan chiqarilgan tovushga a o‘rganiladi. Bayonnomada aning bor/yo‘qligi; u aniqlangan masofa; bolaning tovush yo‘nalishini aniqlash qobiliyati ko‘rsatiladi.




Eshitish qobiliyatini tekshirishning “No‘xatda sinash” metodi Sankt-Peterburg erta aralashuv intituti tomonidan taklif qilingan. U biror apparatura jihozini talab qilmaydi. Tekshirish uchun to‘rtta plastmassa bankacha, fotoplenka yoki dori-darmon qadoqlari kerak bo‘ladi.

Uchta bankacha uchdan bir qismigacha to‘ldiriladi:

birinchichi – chayqatganda 70-80 dB intensivlikdagi tovush chiqaradigan tozalanmagan no‘xat bilan;

ikkinchisi – 50-60 dB intensivlikdagi tovush hosil qiladigan grechka yadritsa bilan;

uchinchisi – 30-40 dB intensivlikdagi tovush hosil qiladigan irmik (manka) yormasi bilan;

to‘rtinchi bankacha bo‘sh qoldiriladi. Har uch oyda bankadagi yormalarni almashtirib turish kerak.

Tekshirishni ikki kishi o‘tkazgani ma’qul: biri tovush signallarini chiqaradi, boshqasi esa bolaning asini kuzatadi. Kichkintoy yo‘rgaklash stoliga yotqiziladi yoki onasi uni qo‘lida olib o‘tiradi, katta yoshli kishi u bilan emotsional aloqaga kirishadi. Uning signali bo‘yicha bolaning orqasida turgan ikkinchi katta odam bankalarni bolaning o‘ng va chap qulog‘idan 20- 30 sm masofada “shaqillatadi”. Bunda bir qo‘lida yorma bilan to‘ldiralgan, boshqasida bo‘sh bankacha bo‘ladi. Qo‘llar harakati sinxron va simmetriyali bo‘lishi lozim. Ikkinchi quloqni tekshirganda bankachalar o‘rni almashtiriladi. Katta yoshli odam bolaning tovush signali berilgandagi qotib qolish, harakatlar faollashuvi, ko‘zini pirillatish, tovush mabasini izlash va sh.k. shubhasiz orientirovkalash alarini kuzatadi.

Takror taqdim qilinganda shubhasiz orientirovkalash alari tezda so‘nadi (ya’ni bola eshitishi uchun qulay signallarga a qilmay qo‘yadi), shu sababli tekshirishni nisbatan past tovushlardan boshlash kerak: birinchi manka solingan bankacha, keyin grechka solingan bankacha va, nihoyat, no‘xat solingan bankacha silkitiladi. Bola manka solingan bankaning tovushiga aniq a qilsa va tovushni lokalizatsiya qila olsa, ya’ni uning yo‘nalishini aniqlay bilsa (normal rivojlanishda bola buni 4-5 oyligida udalaydi), boshqa bankachalardan foydalanmasa ham bo‘ladi. Tekshirishni bitta odam o‘tkazgani taqdirda u bolaning oldida joylashadi, kning tovush stimullariga asi

o‘zgarishini kuzatib boradi. Bunda har ikkala qo‘l harakatlarining simmetrikligi va sinxronligiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Normal eshitadigan 4 oylikdan katta boldada har uchala bankaning tovushiga shubhasiz orientirovkalash alarini kuzatiladi. U tovush yo‘nalishini aniqlaydi, ya’ni boshi (yoki ko‘zlari) ni bankalar tomonga qaratadi. 4 oygacha go‘dak grechka va no‘xat solingan banka tovushiga a qiladi, ammo ularning tovushini lokalizatsiya qilmaydi, manka solingan banka tovushiga, odatda, bola a qilmaydi.

Surdologopedik kabinetga eshitish qobiliyatini aniqlash uchun:

4 oylikkacha bo‘lgan bolani, agar grechka va no‘xat solingan banka tovushiga a qilmasa (yoki a aniq bo‘lmasa, bir paydo bo‘lib, bir yo‘qolsa);

4 oylikdan katta bolani bitta bo‘lsa ham, masalan manka solingan, banka tovushiga a qilmasa, yoki tovush manbasini lokalizatsiya qila olmasa (bu eshitishning bir tomonlama pasaishini anglatishi mumkin) yuborish kerak.

Eshitishni nutq yordamida tekshirish. Nutqni u yoki bu darajada egallagan bolalarning eshitishini ularga yaxshi tanish so‘zlarni 6 metr masofadan turib taqdim qilish bilan tekshirish kerak.

Bir va ikki yoshli bolalarni tekshirishda eng ko‘p qiyinchilik kuzatiladi. Bola gapirib boshlagan bo‘lsa, u bilan aloqa o‘rnatib, sodda o‘yinli mashqlarni bajarish davomida eshitish qobiliyatini tekshirish mumkin. Bolaning onasidan uning qaysi so‘z va jumlalarni tushunishi, predmet va harakatlarni qanday atashini bilish olish lozim. Bolaning oldiga o‘yinchoq: kuchukcha, mushukcha, qo‘g‘irchoq, quyonchani qo‘yib, “Kuchukcha qani?”, “Mushukchani ko‘rsat”, “Qo‘g‘irchoqning qo‘llari (ko‘zlari, og‘zi) ni ko‘rsat” kabi jumlalarni shivirlab talaffuz qilinadi. Jumlalar oldiniga bolaning yonida turib, keyin 6 m (bola orqa o‘girib turgan bo‘lsa, 3 m) masofadan turib aytiladi. Topshiriqlarni (yoki o‘yinchoq nomlarini) shivirlab aytilganda bola topshiriqni bajarmasa, topshiriqlar odatiy so‘zlashuv balandligida boladan sal narida turib aytiladi. Bola topshiriqni muvaffaqiyatli bajarsa, jumla 6 metr masofadan shivirlab aytiladi.

3 yoshdan katta bolalarning eshitishi qobiliyati ularga yaxshi tanish bo‘lgan past va yuqori chastotali so‘zlar yordamida tek-

shiriladi. Bu so‘zlardan ikkita: har birida 5 tadan past va yuqori chastotali so‘zlar bo‘lgan ro‘yxat tuziladi, masalan:

choynak, dala, gilos, pichoq , tuxum, quloq.



Bolaning eshitishini tekshirish chog‘ida har bir ro‘yxatdagi so‘zlar tasodifiy ketma-ketlikda taqdim qilinadi. Bola gapiruvchiga yoni bilan turgaziladi. Narigi qulog‘iga nam paxtali tampon qo‘yiladi. Tekshiruvchi boladan o‘zi shivirlab aytgan so‘zlarini qaytarishni so‘raydi. Dastlabki ikki so‘z uning oldida, keyin 6 m (yoki orqa o‘girib turgan bo‘lsa, 3 m) masofadan turib aytiladi.

Bola qaysarlik qilib, uyalib, so‘zlarni takrorlamasligi mumkin. Bu holda unga, oldidagi stolga qo‘yilgan, mos rasmlarni ko‘rsatishni taklif qilish mumkin. Bola shivirlab aytilgan so‘zni tanib olmasa, so‘zlarni odatiy gaplashish balandligida, keyin shivirlab aytiladi. Keyingi so‘zlar taqdim qilinganidan keyin bolada qiyinchilik uyg‘otgan so‘z yana takrorlanadi. So‘zlarning ikkinchi ro‘yxati bilan o‘xshash tarżda bolaning ikkinchi qolog‘i eshitishi tekshiriladi.

Umumiy va/yoki nutqiy rivojlanish darajasi past ekani sababli bolaning eshitish qobiliyatini tekshirishning imkoni bo‘lmasa, uni surdomarkazga eshitish funksiyasini ob’ektiv metodlar bilan tekshirish uchun yuboriladi.

Maktabgacha yoki kichik maktab yoshidagi bola (o‘ng va chap qulog‘i teshirilganda) past va yuqori chastotali so‘zlar kamida 6 metr masofadan shivirlab aytilganda adekvat a qilsa, bu uning eshitishi fiziologik norma doirasida ekanini anglatadi.

Agar bola shiqirlashga kichikroq masofadangina a qilsa yoki a qilmasa, uning eshitish qobiliyati pasayganini shubha qilish mum-

kin. Bolani surdologopedik kabinet (markazga) tekshirish uchun yuborish zarur.

Eshitishni darajali tonal audiometriya yordamida tekshirish metodi nisbatan mukammal hisoblanadi. Tekshirish maxsus moslama –audiometr yordamida amalgat oshiriladi. Maqsad – havo va suyak tovush o'tkazuvchanligida toza tonlarga bosqichli sezgirlikni aniqlash. Tekshirishning bu turining afzalligi shundaki, chastotalarning keng diapazonida (125-8000 Gs) idrok darajasini aniqlash imkoni mavjud. Idrok qilish uchun doimiy, so'nib qolmaydigan silkinishlar taklif qilinadi; tovushlarni ma'lum chegaralargacha (-10 dan +120 dB gacha) kuchaytirish mumkin; natijalar tovush intensivligining umum tomonidan qabul qilingan birligi detsibelda (dB) ifodalanadi. Audiometrik tadqiqotning kamchiligi maxsus apparatura, tashqi tovush eshitilmaydigan xona talab qilinishi, tekshirish nutq bilan solishtirganda eshitish uchun adekat ta'sir (qo'zg'atuvchi) sanalmaydigan toza toplar yordamida o'tkazilishi hisoblanadi.

Tonal audiometriya yordamida birinchi sinf o'quvchilari, yangi qabul qilingan, eshitish holatini qo'shimcha tekshirish talab qilinadigan bolalar va o'quvchilar tekshiriladi.

O'tgan asrning 70-yillari oxirlarida Parijda o'tkazilgan surdolog va audiologlar Xalqaro konferensiyasida eshitish nuqsonlarining tibbiy tasnifi qabul qilindi.

SURDOPEDAGOGIK TEKShIRUV

F.I.Sh ----------

Bolani yoshi_____

1. Ota-onalarning shikoyati _____

2.Anamnez_____

3. Tug'ruq jarayonining kechishi _____

4. Bolani eshitish darajasining pasayish sabablari (неблагоприятные факторы в дородовом развитии ребенка, в течение родов, перенесенные заболевания):_____

– O'tkir yiringli otit;

– Onaning xomiladorlik davrida o'tkazgan yuqumli virusli kasalliklari (qizilcha , gripp, gerpes, toksoplazmoz, sitomegalovirus);

– Xomiladorlik toksikozlari ;

– asfiksiya;
– tug‘ish davridagi bosh miya jaroxatlari ;
– giperbilirubinemiya;(qon tarkibida bilirubin miqdorining ortib ketishi)
– yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning gemolitik kasalligi ;
– tug‘ilgandagi og‘irligi 1,5 kgdan kam ;
– mudddatidan oldingi tug‘ish;
– muddatidan o‘tgan xomiladorlik .

5. Bolani tekshirish:

a) bola bilan xissiy aloqa o‘rnatish, tekshiruvga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatni yaratish_____

_____

b) xulqi, xatti- xarakatlarini kuzatish наблюдение за поведением (muloqatga kirishuvchanligi, odamovi, uyatchanligi)_____

_____

v) xarakat tizimi xolatini baxolash

_____

– yurish, gavdaning tuzilishi qomat

_____

– umumiy xarakatlari

_____

– qul barmoqlarining xarakati

_____

g) Bilish jarayonlarini tekshirish:

– rang (predmetlarni ranglar bo‘yicha mutanosibligi)_____

_____

– formasi (har xil rangli geometrik figuralarning mutanosibligi)

_____

– katta-kichikligi (bir turdagi buyumlar guruxidan tanlash, odnorodnых predmetov, biron bir belgisi buyicha farklash)_____

_____

- katta – kichik_____
- Baland – past_____
- Keng – tor_____
- Uzun – kisqa_____

d) asosiy psixik jarayonlarni tekshirish (diqqat, xotira, tafakkur):

– mavzuga oid rasmlarni tanlay olishi

_____

– « To‘rtinchisi ortiqcha» (rang bo‘yicha, katta kichiklik, formasi bo‘yicha);_____

– Kesma rasmlar_____

6. Vaqt tasavvurlari:

a) yil fasllari (illyustratsiya yordamida)_____

b) sutka bo‘laklari_____

7. Elementar matematik tasavvurlari:

– Sonni barmoklar soni bilan mutanosibligi_____

_____

– tartibli xisob_____

_____

8. Ekspressiv nutqini tekshirish:

a) atrofdagilar bilan muloqatga kirishadigan nutqi (og‘zaki, og‘zaki -daktil, og‘zaki -daktil- imo-ishora, imo-ishora): _____

_____

_____

_____

b) qo‘llaydi gurash nutq (bo‘g‘inlarni talaffuz qilish. Ba ba , la la) _____

to‘vushlar talaffuziga taqlid:_____

– aloxida so‘zlar:_____

– so‘z birikmasi:_____

– gap orqali:_____

v) nutqning tushunarliligi, aniqligi: atrofdagilarning tushunishi, qisman tushunarliligi, tushunarsizligi);_____

g) lug‘atining xajmi_____

d) impressiv nutqini tekshirish: savollarni tushunishi: Qayerga? Qayerda? Qayerdan? Nimaga? Nima uchun?_____

_____

e) tovushlar talaffuzini tekshirish_____

_____

j) Ovozga xarakteristika (past, me'yorda, baland,manqalanganligi):_____

10. O'qish malakasini tekshirish _____

11. Yozma nutqini tekshirish_____

12. Etakchi qul (o'n qul yoki chipaqayligi) _____

13.Eshitish appariti bilan ta'minlanganligi va apparatdan foydalanishi _____

14.Xulosa_____

15.Tavsiyalar_____

Sana Mutaxassis imzosi

6.4. Maktab yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tekshirish

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan – kar va zaif eshituvchi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish ularning psixik rivojlanishi o'ziga xosligi bilan bog'liq qator qiyinchiliklar bilan kechadi. Bolaning unga qaratilgan nutqni tushunmasligi, nutqning yo'qligi yoki uning tushunarsizligi bola bilan muloqotni qiyinlashtiradi, bu eksperimental metodikalarni qo'llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi - atrof olam bilan dizontogenezning defitsitar tipiga mansub o'zaro

ta'sirning o'ziga xos sharoitlarida kechadigan rivojlanishning alohida tipi. Eshitish idrokining birlamchi buzilishi u bilan tobora ko'p bog'liq bo'lgan funksiyalarning etarlicha rivojlanmasligi – nutqning etarlicha rivojlanmasligi, shuningdek, tafakkur, xotira rivojlanishining sekinlashishi va boshqalarga olib keladi. Bularning hammasi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini sekinlashtiradi (tormozlaydi). Bunda murakkab funksiyalararo o'zaro aloqadorliklar, ierarxiyali koordinatsiyalar shakllanishi sekinlashadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaga tashqi ta'sir hajmi toraygan, muhit bilan o'zaro hamkorlik qashshoqlashgan bo'ladi. Buning natijasida, bolaning psixik faoliyati soddalashadi, tashqi ta'sirlarga asi murakkabligi va rang-barangligi kamayadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixika komponentlari eshitadigan bolalar bilan solishtirganda boshqacharoq proporsiya (nisbat)larda rivojlanadi – tafakkurning ko'rgazmali va tushunchaviy shakllari rivojida hamo'lchamlilikning yo'qligi kuzatiladi, yozma nutq og'zakisiga nisbatan ustun bo'ladi. Asinxroniya ayrim perseptiv tizimlar nisbatan saqlangani holda boshqalarining u yoki bu darajada etarlicha rivojlanmaginaligida namoyon bo'ladi. Bunday bolalarda teri sezgisi saqlanadi, to'g'ri o'qitilganda va tarbiyalanganda ko'rish idroki kompensator rivojlanadi. Meyorda eshitadigan bolalar bilan solishtirganda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixik rivojlanish sur'atlarida o'zgarishlar: tug'ilganidan biroz vaqt o'tgach yoki eshitish qobiliyatini yo'qotganidan keyin psixik rivojlanish sekinlashishi va adekvat ta'lim-tarbiya sharoitida keyingi davrlarda tezlashishi kuzatiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixik rivojlanish sur'atidagi o'zgarishlar ular psixikasining strukturaviy xususiyatlari bilan ichki bog'liqlikka egadir. Boshqa sensor va perseptiv tizimlar, intellektual soha, regulyasiya (boshqaruv) tizimlarining saqlanganligi katta ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini tashhis qilish uchun tizimli yondashuv, umuman nuqson strukturasini hisobga olish, bola psixikasi (nutqi, bilish jarayonlari,emotsional-irodaviy sohasi, shaxsiy xususiyatlari)ni har tomonlama tekshirish zarur. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganishda albatta oilasi: oila tarkibi, ota-

onasining ma'lumoti, yaqin qarindoshlarida eshitishda nuqsonlarning borligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Bolaning homila davrida, uning tug'ilganidan to tekshirish vaqtigacha psixik rivojlanish xususiyatlari, unga ko'rsatiladigan ijtimoiy-psixologik yordam, ta'lim va tarbiya sharoitlari haqida ma'lumot to'plash juda muhim. Eshitishning holati haqida ma'lumotlar, audiometriya natijalarining bo'lishi ayniqsa muhim.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishning bola yoshi va tekshiruv vaqtidagi psixik rivojlanish davri bilan bog'liq holda o'rganishning o'ziga xos vazifalarini ko'rsatish mumkin. Ilk bolalik, maktabgacha va kichik maktab yoshida nutq va bilish sohasi rivojiga, birinchi navbatda, tafakkur bilan nutq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllanishi, shuningdek, harakatlarning rivojlanishiga katta e'tibor qaratish lozim. Mazkur sohalarda nuqsonlarni aniqlash adekvat korreksion ishlarni yo'lga qo'yish uchun muhim sanaladi. O'smirlik va o'spirinlik davrida ta'lim to'g'ri tashkil qilingani holda bilish sohasida orqada qolish murakkab, shakllanishi og'zaki nutqning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lgan, psixik jarayonlar – lisoniy xotira, abstrakt-tushunchaviy tafakkur, tasavvurga nisbatan kuzatiladi. Bu jarayonlarni birinchi navbatda tekshirish lozim. Harakat sohasidagi rivojlanishda qiyinchiliklar o'smirlik davriga kelib, asosan kompensatsiyalanadi, ammo ayrim xususiyatlar – harakatlarni bajarish, harakat ko'nikmalarini egallash ning sekinlashgan sur'ati (eshitadigan bolalar bilan solishtirganda), statik va dinamik muvozanatni saqlashda qiyinchiliklar saqlanib qoladi. Bu xususiyatlarni eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirishda hisobga olish kerak bo'ladi. O'smirlik va o'spirinlik davrida shaxs va o'zini anglashning mazkur nuqsonni kompensatsiyalash darajasiga ta'sir etadigan va ijtimoiy-mehnat moslashuvini belgilaydigan omillar sifatida ahamiyati ortadi, shu sababli ularni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. O'smirlik va o'spirinlik vaqtida ta'limni to'g'ri tashkil qilinganda bilish sohasi rivojlanishida orqada qolish, odatda, eng murakkab psixik jarayonlarga nisbatan kuzatiladiki, ularning shakllanishi og'zaki nutq, lisoniy xotira, abstrakt-tushunchaviy tafakkur, tasavvurning rivojlanish darajasiga bog'liq. Bu jarayonlarni birinchi navbatda o'rganish lozim. Harakat sohasida qiyinchiliklar

o'smirlik davriga kelib, asosan kompensatsiyalanadi, ammo harakatlarni bajarishning sur'ati sekinligi, harakat ko'nikmalarini egallashning (eshitadiganlar bilan solishtirganda)sekinligi, statik va dinamik muvozanatni saqlashda qiyinchilik kabi xususiyatlar saqlanib qoladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'spirin va o'smirlarni kasb tanlashga yo'llashda bu xususiyatlarni albatta hisobga olish kerak. O'spirinlik va o'smirlik davrida shaxs va o'zini o'zi anglashning rivojlanishini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu omillar mazkur buzilishning kompensatsiyalanish darajasiga ta'sir o'tkazadi va ijtimoiy-mehnatga moslashishni belgilaydi.

Boshqa analizatorlarida ham buzilishlari bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar tasnifi

1. ***Ko'rishda nuqsoni bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar.*** Kar bolani o'qitish jarayonida ko'rishga katta yuklama beriladi. Kar bolalarning o'zlashtirmovchiligi sabablari o'rganilganda (G.P.Bertin), ma'lum bo'ldiki, tekshirilganlarning 50%dan ortig'ida ko'rish nuqsonlari aniqlangan. Bolalarning shu guruhida bu holat maktab o'zlashtirmovchiligining yagona sababi sanaladi. Shu sababli eshitish patologiyasi bo'lgan har bir bola shifokor-oftalmologning dinamik kuzatuvi ostida bo'lishi lozim. Miopiya ko'rinishidagi ko'rishning buzilishi zaif eshituvchilarning 25%ida, karlarning 35%ida kuzatiladi. Ko'rishning buzilishi ko'zlarning va umuman, butun organizmning toliqishi ortishiga, shuningdek, doimiy bosh og'riqlariga olib keladi.

1. Mushak tizimida nuqsoni bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar. Bolalarning bu guruhiga bolalar serebral paralichi bo'lgan kar bolalar kiritiladi. Ular kar bolalar uchun maktablarning maxsus sinflarida o'qitiladi. Bu bolalar mushaklardagi zararlanish tufayli kar bolalar uchun maktabning oddiy sinfida o'qiy olmaydi. Bu kabi bolalar nevrologik tekshirilganida oyoq va qo'llarning yuzaki va chuqur sezgirligi pasayganligi kuzatiladi. Bu kabi nuqsonlar yozma nutqqa o'rgantish va ayniqsa daktilologiyaga o'rgatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning asosi sanaladi. Bu kabi nuqsonlar maktabda muvaffaqiyatli o'qishga to'sqinlik qiladi, ijtimoiy reabilitatsiya

va adaptatsiya (moslashish), xatto bolada aqliy zaiflik kuzatilmaganda ham, imkoniyatlarini kamaytiradi.

Karlikning sindromal shakllari. Hozirgi kunga kelib, karlikning 500 ga yaqin sindromal shakli tavsiflangan. Tadqiqotlarni davom ettirib, olimlar sindromlarning yangilarini topib, tavsiflanganlari qatoriga qo'shmoqdalar. Erta klinik tashhis, adekvat ta'lim va tarbiya jarayonining tashkil qilinganligi kar bolalarning to'liq ijtimoiy adaptatsiyasi va reabilitatsiyaga ko'maklashadi. Marshall, Kruzon va b. sindromlarning uchrash chastotasi taxminan 1%ni tashkil etadi.

1. **Psixik rivojlanishi kechikkan (PRK) kar va zaif eshituvchi bolalar**

Keyingi yillarda rivojlanishning kechikishi klinik tashhisining o'zi ancha kengaydi. Bunga markaziy nerv tizimi organik jarohatlangan; minimal miya disfunksiyasi bo'lgan; bolalar serebral paralichi, turli somatik kasalliklar, boshqa nevrologik va psixik kasalliklar bilan og'rigan bolalar kiradi. Maktabga «psixik rivojlanishi kechikkan» degan tashhis bilan qabul qilingan bolalarning ko'pchiligi sanator maktab sharoitida adekvat pedagogik ta'sir natijasida kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus maktablarda odatiy dastur asosida ta'limni davom ettirmoqda.

2. **Aqli zaif kar va zaif eshituvchi bolalar**

Ma'lumki, intellektida nuqsoni bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ishlab, ta'limda zarur samaraga erishish qiyin, ayni paytda qoldiqli intellekti bo'lgan kar bola ko'pincha ta'limda yuqori natijalarga erishadi. Kar bolalarda aqli zaiflikning turli shakllari: oligofreniya kabi demensiya ham kuzatiladi. Oligofreniyaning engil shakllari bilan og'rigan bolalar maqbul tashhisga ega bo'lib, ko'p hollarda to'liq ijtimoiy reabilitatsiyalanadi. Aqli zaiflikning avj olishiga olib keladigan progredient kasalliklari (shizofreniya, epilepsiya va b.) bo'lgan kar bolalarda tashhis ijtimoiy adaptatsiya borasida ham, umuman hayotga nasbatan ham salbiy. Bunday bolalar ta'limida ularni yakka tartibdagi dastur asosida uyda o'qitishga zarurati yuzaga keladi.

R.M.Boskis amalga oshirgan nutqida rivojlanishi bo'lgan bolalarning turli guruhlari tasnifi asosida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni differensiatsiyalangan maxsus o'qitish amalga oshiriladi.

Bolalarning pedagogik tasnifda ajratilgan toifalariga muvofiq maktablarning turli tiplari tashkil etilgan:

- kar bolalar uchun maxsus maktab;
- zaif eshituvchi va kech(nutqi shakllangandan keyin) kar bo'lib qolgan bolalar uchun maxsus maktab. Uning tarkibiga ikkita bo'lim kiradi: birinchisi - og'zaki nutqqa ega bo'lgan bolalar uchun; ikkinchisi – nutqiy rivojlanishida jiddiy nuqsoni bo'lgan bolalar uchun.

Surdopedagogikada muhim yo'nalishlardan biri pedagogik tasnifni takomillashtirish bilan bog'liq. Bu muammo juda dolzarb, zero maxsus maktabning har bir tipida eshitish nuqsoni psixik rivojlanishning kechikishi, xarakter va xulq patologiyasi, tayanch-harakat apparatidagi nuqsonlar bilan birikkan murakkab nuqson kuzatiladigan bolalar uchraydi. Murakkab nuqsonli bolalar xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, ularning pedagogik tasnifini takomillashtirish korreksion o'quv-tarbiya darajasini oshirishga ko'maklashadi va bunday bolalarning kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus maktab sinflari o'rtasida alohida sinflarga saralashning yanada aniq mezonlarini belgilab beradi.

Nazorat savollari

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy funksiyasi qanday omillarga bog'liq bo'ladi?
2. Karlik deganda nimani tushunasiz? Kar bolalarni xarakterlab bering.
3. Zaif eshituvchilik nima? Zaif eshituchi bolalarni xarakterlab bering.
4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasnifining nazariy asosi nimadan iborat?
5. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni o'rganishning kompleks xarakteri nimadan iborat?
6. Psixologik-pedagogik tekshirish mazmuni?
7. Karlikning sindromal shakllari haqida ma'lumot bering?
8. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar haqida ma'lumot bering?
9. Mushak tizimida nuqsoni bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar haqida ma'lumot bering.

10. Psixologik-pedagogiktekshirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar nimalardan iborat?

11. Eshitishni nutq yordamida tekshirish yo'llari?

12. Ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar yordamida eshitish funksiyasi qanday tekshiriladi?

13. Eshitish qobiliyati qanday yo'llari mavjud?

6.5. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish va tashhis qilish turli mutaxassislar: oftalmolog, psixolog, pedagog tomonidan kompleks o'rganishni ko'zlaydi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ko'rishining holatini tavsifi bo'yicha hamda kasallikning yuzaga kelishi, ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha juda katta turli xil guruxni tashkil etadilar.

Tekshiruv ob'ekti ko'rmaydigan (ko'zi ojiz), zaif ko'ruvchi bola, shuningdek g'ilaylik hamda ambliopiyali boladir.

Hozirgi vaqtda "ko'zi ojizlik" (ko'rmaydiganlar) tushunchasi ma'lum bir analizatorlarning etakchi sistemasi sifatida qaralib, uni asosida pedagogik jarayon olib boriladi. Shuning uchun ko'zi ojizlarga ikki guruh toifadagi bolalar kiradi: ko'ruv vizusi va yorug'likning sezishi "0" bo'lgan, shuningdek, ko'ruv o'tkirligi qoldig'i 0,04 gacha bo'lganlar, ta'lim Brayl tizimi asosidagi darsliklar orqali amalga oshiriladigan bolalar.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar kontingentini taxlili shuni ko'rsatadiki, ularga ta'lim berish uch yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchi yo'nalish- maxsus maktablarni ko'payishi, unda ko'ruv o'tkirligining qoldig'i (90% gacha): faqat 3-4 % total ko'r bolalar, 7%- yorug'likni his qiluvchi, sezuvchi, 10% - vizusi 0.06 yuqori (L.I.Kirillova).

Ikkinchi yo'nalish – murakkab kompleks ko'ruv kasalliklarini sonini ko'payishi. Alohida xollardagina birlamchi ko'rish funksiyalarini jarohatlarini xarakterlovchi ko'rishda nuqsonlarni mavjudligi ta'kidlanadi. Bolalarni tadqiq etish materialllarini ko'rsatishicha,

ko'zi ojizlar ta'lim olayotgan bolalarning ko'pchiligida ikki-uch ko'z kasalliklari uchrashi, bu esa ushbu bolalar kategoriyasini o'sib borishidan dalolat beradi.

Uchinchi yo'nalish ko'rish nuqsonlarining sonini ko'payishi, ko'ruv kasalliklarini boshqa kasalliklar bilan birga kelishi va ularning orasida- markaziy nerv sistemasi faoliyatidagi buzilishlar bilan bog'liqligidir.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'zi ojizlar maktabning boshlang'ich sinflarida 77,6% da bolalar serebral falajligining asoratlari, psixik rivojlanishning orqada qolishi, aqli zaiflikning engil darajasi, markaziy nerv sistemasi jarohatlari, ensefalopatiya, nevrozga o'xshash xolatlar, gidrotsefaliya va boshqa birlamchi nuqsonlar: nutq, harakat tayanch a'zolaridagi buzilishlar va boshqalar bilan birgalikda keladi.

Ko'rlik va zaif ko'rish sabablarining taxlili shuni ko'rsatadiki, 92% zaif ko'ruvchilarning hamda 88% ko'rlar tug'ma xarakterdagi nuqsonlar bo'lib, ulardan 30% ko'prog'i nasliy shaklga ega. Bunda bolalar ko'rligining kelib chiqishi ko'rish a'zolarining anomaliyasini ortish chastotasi aniq kuzatiladi. Tug'ma ko'rish patologiyalari M.I.Zemsova hamda L.I.Solnseva ishlarida 60,9% xolatlarda, A.I.Kaplan tadqiqotlarida- 75% , L.I.Kirillova- 91,3%, A.V.Xvatova – 92% zaif ko'ruvchilar hamda 88% ko'rlarda, I.L.Ferfilfayn 84,2% xolatlarda kuzatiladi.

Tug'ma kasalliklar hamda ko'ruv organining rivojlanish anomaliyasi tashqi va ichki jarohat ta'sir omillari natijasi bo'lishi mumkin. Taxminan ulardan 30% nasliy shaklda (tapetoretinal degeneratsiya, miopiya, tug'ma glaukoma, ko'ruv nervi atrofiyasi, retrolentalnaya fibroplaziya).

L.I.Kirillovaning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, albinizm turidagi moddalar almashinuvi tug'ma nuqsonlarida kuzatiladi: tug'ma kasalliklar ko'z gavharini rivojlanishida nuqsonlarga olib keladi, - tug'ma anoftalm, mikroftalm; ko'zning eng ustki pardasining kasalliklari-mug'uz parda distrofiyasi; ko'zning rangdor pardasi qon tomirlarining nasliy nuqsoni – aniridiya, qon tomir po'stlog'ining kolobomasi; tug'ma katarakta(shuningdek genetik tomondan ham tug'ma kataraktaning mavjudligi); to'r parda alohida shakllarining

nuqsonlari, Shtargard nasliy buzilishi, Leber atrofiyasi, tug'ma atrofiya.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda nasliy omillardan tashqari tashqi va ichki omillarning salbiy ta'siri natijasida ko'rish a'zolarining rivojlanishida anomaliyalarga olib keladi, bular embrion rivojlanish davridagi ta'sirlar, xomiladorlik paytidagi jarohatlar, ona tomonidan o'tkazilgan virusli kasalliklar, toksoplazmoz, qizamiq va x.k.lar.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda bolalarning asl holatini aniqlash muhim o'rin tutadi. Ko'pgina chet ellik tadqiqotchilar tomonidan bunday bolalarda psixik rivojlanishini chuqur orqada qolishini kuzatganlar. Bu ilk yoshda va maktabgacha davrda bo'lgan ko'r bolalarga taalluqlidir. Masalan, tafakkurning rivojlanishida ko'rishida nuqsonlari bo'lgan bolalar me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlaridan xattoki 4-8 yosh orqada qolishi ham kuzatilgan. Biroq, 1977 yildayoq D.Uorren rivojlanishdan orqada qolishni faqatgina eksperimental tadqiqot testlari orqali tekshirilgan, bunda vazifani tushunish va idrok etishiga sharoit yaratmagan xolda olib borilgani, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'ziga xos tomonlarini hisobga olinmaganini ko'rsatib berdi. Testlar ko'pincha Brayl tizimiga o'tkazilgan.

6.6. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishni tashkil etishni nazariy asoslari

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tekshirish bolaning me'yorida rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tiflopsixologlar tomonida ishlab chiqilgan nazariya asosida olib boriladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish jarayonida ularning rivojlanishi ham me'yorida rivojlanayotgan bolalarning rivojlanishining umumiy qonuniyatilariga mos kelishi kuzatilgan. Bularga quyidagilar kiradi: psixik rivojlanish jarayonlarining senzitiv davrini mavjudligi; psixik jarayonlarning rivojlanishini ketmaketligi, psixik rivojlanishda faoliyatining roli, nutqning- oliy psixik jarayonlarni shakllanishidagi roli; psixik rivojlanishda ta'limning etakchi roli (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy).

L.S.Vigotskiy turli nuqsonlarga bolalarni psixik rivojlanishini qonuniyatlarini o'rganish jarayonida turli nuqsonlarda namoyon bo'ladigan umumiy o'ziga xos qonuniyatlari ajratgan. U anomaliyani yuzaga keltiruvchi sabablar birlamchi nuqson sifatida keluvchi psixik faoliyatni asosiy nuqsonlarini yuzaga keltiradi, natijada bu bolani psixik rivojlanishini o'ziga xos o'zgartirib, psixik faoliyat ikkilamchi, uchlamchi va x.k. nuqsonlarini yuzaga keltiradi.

Umumiy qonuniyatlar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan anomal toifadagi barcha bolalarga tegishli bo'lib, nutqiy muloqotida hamda harakat nuqsonlarida o'ziga xos ifodalanib, anomaliyaning turi va turli shaklidan namoyon bo'ladi. V.I.Lubovskiy va J.I.Shif ko'rsatishicha, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarning bo'lishi bolalarni tashqi olamdan oluvchi ma'lumotlarni chegaralab qo'yadi.

Rivojlanish jarayonidagi ko'rishdagi chuqur nuqsonlar bilish faoliyatining barcha turlariga ta'sir etadi hamda bolani shaxsiy va emotsional-irodaviy doirasini shakllanishida kuzatiladi. Ko'rishni keskin buzilishi olinayotgan ma'lumotni umumiy xajmini pasaytiradi hamda sifatini o'zgartiradi. Ko'rish hislarining qisman kamayishi yoki to'liq bo'lmasligi idrok, xotira, shuningdek psixologik tuzim, uning strukturasi, ichki funksiya tizimlarining o'zaro bog'liq tomonlarini, tasavvur obrazlarining shakllanishini hissiy bilish jarayonlarini chegaralab qo'yadi. Obrazlarni shakllanishida o'ziga xoslik yuzaga kelishi, tushunish, nutq, aqliy qobiliyat orqali tushunib obrazlarni o'zaro bog'lay olish, fazoda mo'ljal ola olish va x.k.lar analizatorlarning o'zaro sifatli tizimida o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Jismoniy rivojlanishida ham etarlicha o'zgarishlar kuzatiladi – harakatlarining aniqligi, intensivligi buziladi, yurish ko'nikmalari va boshqa harakat aktlari o'ziga xos bo'lib qoladi. Sekin -asta bolada o'ziga xos, o'zining psixologik tizimi shakllanadi, bu me'yorida rivojlanuvchi bolaning rivojlanishini biron-bir tizimi bilan sifat va tuzilishi jihatdan o'xshamaydi, u o'z ichiga rivojlanishning turli darajalarini birlamchi nuqsonga ta'siri, shuningdek rivojlanishning yangi kompensator yo'llarining yaratishga asoslangan. Bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda funksiyalararo bog'liqlikni ham o'ziga xos amalga oshirilishini ko'rsatadi. Shuning uchun ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik tizimini rivojlanishi hamda

shakllanishi u bilan ilk bolalik davridanoq kompensator jarayonlarini shakllantirish hamda korreksion ishni bog'liq ravishda olib borishga bog'liq bo'ladi. Birlamchi nuqsonlarni tibbiy-pedagogik va psixologik vositalar bilan korreksiyalash kompensatsiya imkoniyatlarini oshiradi.

Chet el, ayniqsa amerika adabiyotlarida ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning rivojlanishidagi intellektual hamda ijtimoiy darajasini aniqlash bo'yicha ko'pgina testlar mavjud. Bir qator testlar asosida 1957 yil tug'ilishidan 6 yoshgacha bo'lgan ko'r bolalarni ijtimoiy rivojlanish shkalasi tuzilgan. Bu turdagi test va shkalalarga namunaviy "ramka"sifatida qarash kerak, chunki ko'zi ojiz bolaning ijtimoiy muhitini o'zgarishi, shuningdek ko'r va zaif ko'ruvchilarga oiladagi hamda jamoadagi munosabatlar ba'zi xollarda rivojlanishni yuqori darajasini ko'rsatsa, boshqa xollarda ayniqsa ko'r va zaif ko'rishiga yana qo'shimcha nuqsonlarning bo'lishi pasayganlik darajani ko'rsatishi mumkin.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolani maktabgacha yoshdan tortib boshglang'ich sinfgacha maxsus muassasada bo'lishi umumpsixologik va maxsus tiflopsixologik xarakterdagi bir necha inqiroz davrlari bilan bog'liq.

Muhim o'ziga xos davr -bu o'rta va katta maktabgacha yoshida o'zini me'yorida ko'ruvchi tengdoshlaridan farqini anglab etganida sodir bo'ladi. Ikkinchi inqiroz davr- maktabgacha tarbiya tizimdan tizimli maktab ta'limiga o'tishdir. Uchinchi inqiroz davri – umumta'lim va maxsus maktablarda o'rta sinfga o'tish davriga to'g'ri keladi. Bu bolalarda muhitning, o'qituvchi, o'rtoqlari, jamoani o'zgarishi, xulqi bo'yicha yangi talablarni paydo bo'lishi, sinfda o'z o'rnini o'rnatishi, fan o'qituvchilarini turlicha ta'lim berishiga o'tilishi jarayonida yuzaga keladi. Ushbu xolatlarning barchasi ko'rishdagi nuqsonlar bolalarni xavotirga soladi, o'z kuch va imkoniyatlariga ishonmaslik, stress xolatlarini yuzaga keltiradi.

Bu davrda bolalarni tekshirishda tiflopsixologning roli bolalarni hayotlaridagi o'zgarishlarga tayyorlash hamda tarbiyachi va o'qituvchilar bilan birgalikda qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini yaratish bo'ladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishga qo'yiladigan talablar

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishni o'tkazish va tashkillashtirish bo'yicha umumpsixologik talablar mavjuddir. Ularga quyidagilar kiradi: bolani rivojlanish tarixi bilan oldindan taxminiy tanishuv, bolani guruhdagi, mashg'ulot paytidagi, darsdan tashqari bo'sh vaqtidagi faoliyati va xulqini kuzatish. Bola bilan muloqot o'rnatishga, tekshiruvni o'tkazish joyini tashkillashtirishga, maqsadga mos keluvchi metodikalarni tanlashga alohida ahamiyat beriladi.

Alohida maxsus talablarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– to'g'ri yoritilganlik (xonaning umumiy yoritilganligi 1000lk-dan, bolaning ish stoli 400-500 lkdan tashkil topgan bo'lishi kerak);

– tinimsiz ko'ruv yuklamasini chegaralash (kichik va o'rta maktabgacha yoshida 5-10 daqiqa, kichik va yuqori maktab yoshida 15-20 daqiqa); ko'ruv ishining taqsimoti oftalmolog tomonidan bolaning kasallik tashxisiga ko'ra o'rnatiladi;

– ko'rib kuzatuv yuklamasini boshqa faoliyat turiga almashtirish;

– ko'rgazmalarga bo'lgan alohida talablar.

Bolani rivojlanish tarixini taxlil qilishda abilitatsiya jarayonidagi muhim o'ringa ega bo'lgan ijtimoiy etukligiga alohida etibor qaratish lozim. Bolani ilk rivojlanish davridagi ijtimoiy etukligi uning biologik etukligi bilan bog'liq, bu ayniqsa harakatlarini rivojlanishi hamda qo'lning manual faoliyatidir. Shuning uchun ilk yoshdagi bolalarni tekshirishda ularni harakatlarini rivojlanish darajasiga hamda kommunikatsiyalarini shakllanganlik darajasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni rivojlanishida kommunikatsiya, muloqot va nutq alohida o'rin egallaydi. Bolaning ushbu psixik faoliyati tomonlarining shakllanganligi uning ijtimoiy rivojlanganligi darajasidan dalolat beradi. Shuningdek tekshiruv jarayonida nutqni o'rganish muhim ahamiyatga ega: nutqning ifodaliligi, emotsionalligini baholash, shuningdek mimika, imo-ishora, muloqot davomida o'zini tutishini baholash lozim.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda bilish faolligini pastligi xosdir. Bunga bog'liq ravishda tiflopedagogikaning amaliyotida quy-

idagi tamoyil mavjud, ya'ni bolalarga pedagogik yordamga ko'proq o'rin ajratib, psixolog esa bolani atrofidagi predmetlarga, shaxslarga, ijtimoiy xulqning oddiy me'yorlarini egallashidagi qiziqishlariga e'tibor qaratishi lozim.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiylashuv muammosi ularning abilitatsiyasida muhim ahamiyatga ega. Bunday sifatlarning yo'qligi, mustaqil kechinmalarga qayg'urishi hamda o'z-o'ziga xizmat qilish, kattalar va bolalar bilan, tanigan hamda tanimaganlari bilan muloqot ko'nikmalarini shakllanmasligiga, zamonaviy maishiy texnikadan foydalana olmaslikka, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni dezadaptitsiyasiga olib keladi, jamoa hayotiga mustaqil kirisha olmasligini ko'rsatadi, umumta'lim muassasasida integratsiyani qiyinlashtiradi.

Keyingi yillarda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabgacha va maktab muassasasida bilish jarayonlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, bu esa o'z navbatida bolalarning intellektual rivojlanishida yutuqlarga olib keldi, biroq ijtimoiy moslashuvni zaiflashtirdi.

Ilk yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiylashuviga e'tiborni yo'qligi ularda kattalar va o'rtoqlaridan qaramligi, yangi sharoit va o'zgarishlardan qo'rqishi, jamoadan qochishini shakllanishiga olib keladi.

6.7. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni turli yosh davrlarida psixologik-pedagogik tashxis o'tkazishning o'ziga xosligi

Avval ko'rsatib o'tkanimizdek, ko'rishida nuqsoni bo'lgan har bir bolaning rivojlanish davrida uch inqirozli jarayoni ajratish mumkin:

– o'zini me'yorda ko'ruvchi bolalardan farqini anglashi;

– maktabgacha tarbiya tizimidan doimiy tizimli maktab ta'limiga o'tishi;

– umumta'lim hamda maxsus maktablarda o'rta sinf ta'limlariga o'tishi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ko'rsatilgan kritik davrlari aniqlanadi hamda unga mos yo'llanma beriladi.

Me'yorda ko'ruvchi bolalardan o'z farqini anglash davri

Maktabgacha yoshdagilarni o'z nuqsoni haqidagi qayg'urishlari me'yorda ko'ruvchi bolalardan farqlashni bola o'zining "Men"ini taniy boshlaganidan o'zini anglay oladi. Bu bolalarda o'zidan qoniqa olmaslik hislarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun tekshirishda birinchi yo'nalish bola o'zining shaxsini anglay olayotgani yoki yo'qligi, o'zining shaxsiy xususiyatlari hamda imkoniyatlariga egaligi tekshiriladi.

O'z nuqsoni yoki kamchiliklarini tushunishi hamda korreksiyani muhimligini bilishi, o'z-o'zini nazorat qilish aktlarini yuzaga kelish imkoniyatlarini ifodalaydi. Bir vaqtning o'zida psixik jarayonlari hamda bolani atrofdagilarning uning ko'rishdagi nuqsoniga bo'lgan munosabati uni o'zini nazorat etish sekinlashtiradi. O'zini nazorat etish darajasi va turini bilish uchun quyidagilarni aniqlash lozim:

– bola o'z his-tuyg'u organlarini bilishi. Bularni bilish o'zini jismoniy sifatlarini tekshirish, harakatlarining imkoniyatlari va ularni tushunish uchun, bolaga nima yoqishi yoki nima yoqmasligini, nimalarni qila olish ololmasligi o'zining shaxsiy tajribalari asosida shakllanadi;

– ko'zoynak taqishning foydaligini tushunishi; xattoki okklyuziya asosida davolash; ko'rishni rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulotlar; ko'rish uchun muhim bo'lgan asboblar faoliyati amalga oshirish;

– o'yin, mashg'ulotni, dam olishni o'zining shaxsiy xolatida tashkillashtirish muhimligini tushunishi;

– alohida bolalar va kattalar bilan muloqot qilishga bo'lgan xoxishi, o'z atrofdagilarni o'z xoxishi bilan tashkillashtirishi;

– atorofdagilardan kerakli vaqtda yordam so'ray olishi;

– o'zining tashqi ko'rinishiga va boshqalarning tashqi ko'rinishiga qiziqishni uyg'otishi, baholay olishi; ko'zoynak taqishga bo'lgan munosabati;

– turli sharoitlarda ko'ra kiyimlarni farqlay olishi: maydonchada o'ynash uchun, mehmonga borish uchun, jismoniy mashg'ulot uchun, uyda yordam berish va x.k.;

– xulqini o‘zini nazorat eta olishi, ba’zi xolatlarda xulqini sharoitga mos kelmasligi.

Ikkinchi yo‘nalish maktabgacha yoshdagi ko‘rishida nuqsoni bo‘lganlarni ijtimoiy moslashuvi o‘ziga xos muammolariga bog‘liq. U bolani rivojlanish sifat va ko‘nikmalarini nazarda tutib, uni jamoada yashay olishi uchun to‘qnashuv va muammolarini kattalar yordamida, shuningdek mustaqil enga olishini ko‘zda tutadi. Buning uchun psixolog quyidagilarni bilishi lozim:

– boladagi jamoa, boshqa odamlar, atrofdagilar haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirish; odamlar bilan tanishayotganida qanday polisensor xarakterdagi idrokdan foydalanadi, yangi predmetlar bolada qo‘rqish hislarini yuzaga keltiradimi?;

– boshqa odamlardan ma’lumotlarni olishi va ulardan foydalana olishi; odamlar bilan muloqot qilishda qo‘rquvning yo‘qligi; o‘z yaqinlari va qarindosh -urug‘lari atrofida chegaralanib qolmayotganligini bilish;

– yangi ma’lumotlarni olish uchun savollar beradimi, yoki yangi bilimlarni egallashda passivmi;

– ma’lumotlarni egallash bo‘yicha individual vositalar tizimini yaratyaptimi; ko‘nikmalarini atrofdagi sharoit va odamlardan foydalana olishi;

– boshqa bolalar va kattalarga o‘z yordamini taklif etadimi;

– kattalar va bolalar guruhlarida o‘ziga xos xulq -atvorga ega bo‘lish kerakligini tushunishi, jamoa qoidalariga rioya etishi hamda uning ishtirokchilarini hurmat qilishi;

– ko‘rish o‘tkirligi hamda davolanish davridan qa’tiy nazar odamlar bilan ko‘ruv muloqotidan foydalanishi;

– oilasidan tashqari bo‘lgan odamlarga qiziqishi, qo‘shnilariga qiziqadimi, ular bilan muloqotga kirishishi;

– do‘stlarini faqatgina isminigina emas, balki ovozi, kiyimi, bo‘yi hamda faqatgina unga xos bo‘lgan sifatlardan taniy olishi;

Uchinchi yo‘nalish bilimlarining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘nikma va psixologik tomondan tor jamoadan tashqariga chiqishi, notanish odamlar oldidagi qo‘rquvini engishi hamda odamlar va jamoa bilan muloqotga kirishishi. Psixolog bolalardagi jamoa, ijtimoiy xizmatlar, zamonaviy texnikadan foydalana olish va

x.k. larni aniqlaydi. Bolalarni tekshirish va kuzatishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

– bolani jamoa xaqidagi tasavvurlar kengaymoqdami; qanday jamoat institutlarini biladi; ularning funksiyalari bilan tanishmi (pochta, magazin, poliklinika, nonvoyxona, metro, bank vax.k.); ba’zi kasblarni nomlab va tariflab bera oladimi (hamshira, o‘t o‘chiruvchi, militsioner va x.k.);

– bola otasi, onasi, qo‘shnisini so‘z bilan ta’riflay oladimi; ularning tashqi ko‘rinishi, kasbi, nima bilan shug‘ullanishi, ismi (to‘liq ismi, otasinining ismi hamda familiyasi);

– vaqt hamda uning o‘lchov birliklarini haqida tasavvurga egami (soat, daqiqa, ertalab, kechqurun, kunduzi, xafta, oy, yil);

– telefondan foydalana oladimi; radio, televizor, magnitofon kabi texnik vositalarni o‘chirib yoqishni, ulardan ma’lumotlar egallay olishi;

– transport vositalarini biladimi (metro, taksi, trolleybus, avtobus vax.k.); ulardan qanday foydalanish, yo‘lkirasini to‘lay olishi.

To‘rtinchi yo‘nalish: mehnat faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash, ayniqsa ko‘rishning og‘ir nuqsoni oqibatida harakatlar koordinatsiyasining shakllanishi qiyin bo‘lgan ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasi aniqlanadi.

Tayyorgarlik davri hamda bolani maktab ta’limiga o‘tishi

Ushbu davrda psixolog quyidagilarni aniqlashi lozim:

– bolani o‘quv faoliyatiga tayyorligi;

– yangi sharoitlarda bolani bilim va ko‘nikmalaridan foydalana olish imkoniyalari;

– o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyaning shakllanganligi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda o‘quv faoliyati boshlang‘ich davrda sekinlashgan su’ratda o‘tadi. Bunday faoliyat fazoviy tasavvurlarni, sezishga qaratilgan qo‘l harakatlarini avtomatizatsiyasini, faoliyatni amalga oshirilishi va uning natijalarini nazorat etishni o‘z ichiga oladi.

O‘quv faoliyati eng ko‘p davom etuvchi jarayon hisoblanib, unda bolalarda maktab ta’limi talablariga moslashish amalga oshadi.

Ushbu talablar ixtiyorlilik, nazariylik, mavxum tafakkurni o'z ichiga olib, bolalarga maktab vazifalarini samarali bajarishlariga imkon beradi. Ushbu bosqichda quyidagilarni aniqlash muhimdir:

– bolani ajralib qolish darajasi, yangi sharoitda o'zini noqulay his etishi;

– o'ziga ishonmasligi yoki bilimga egalik darajasi;

– bolani nuqsoniga ko'ra o'zini baxolashi.

Bolani maktabga tayyorgarligi ko'pgina adabiyotlarda yoritilgan. Ularning ichidan "Bolalarni maktabga tayyorgarligi"(1991) to'plamini ajratish mumkin. Unda berilgan testlar orqali ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni moslashuvini quyidagi mezonlar orqali bilish mumkin:

– vazifalarni bajarishda vaqtning uzaytirilishi;

– tasvirlangan shakllarning kattalashishi;

– relef konturlar yoki barelef tasvirlar tushirishi.

Umumta'lim va maxsus maktabda o'rta sinf ta'limiga o'tish davri. Ushbu davrda bolalarda refleksiya yuzaga kelib, o'zining qarashlari va fikrlari paydo bo'ladi, tanqidiy, o'zini tanqid qiluvchi hislari yuzaga keladi. Boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishda bolada ichki muhim o'ringa ega bo'lgan asosiy o'zgarishlar yuzaga keladi.

Muloqot bolani jamoadagi hamda uni shaxsiy rivojlanishdagi o'rnini aniqlaydi. Muloqot jarayonlari ko'rishda nuqsoni bo'lganlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi va qiyin echiladi. Ayniqsa, bolalarda nutqsiz muloqot vositalari qiyin shakllanadi. Buning sababi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalardaidrok obrazining aniq emasligi hamda me'yorda ko'ruvchilarning ekspressiv-mimik ifodalanishlariga taqlid qilishdagi qiyinchiliklaridir. Ko'pgina ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga harakatlarining erkin emasligi, emotsional xolatlarni ifodalanishini bir xilliligi xosdir. Ko'pgina bolalar kattalar va bolalar bilan muloqotda verballikni ifodalab, ular imo-ishora, to'g'ri harakatlarni ifoda eta olmaydilar. Shaxslararo nutqiy vositalarda ham kamchiliklar kuzatiladi (og'zaki nutq madaniyati, "yuzma-yuz" muloqot, nutqning ravonligida, nutqsiz va nutqiy o'zaro muloqot vositalarida).

Ushbu davrda psixolog quyidagilarni aniqlashi lozim:

– o'quv faoliyatini shakllanganlik saviyasi, dastur materialini o'zlashtirish darajasi;

– o'zini nazorat etish qobiliyati, bilish motivatsiyasining shakllanganligi;

– kommunikativlik darajasi hamda o'zaro munosabatlar turi;

– o'zi aniqlay olishi va mustaqillik darajasi;

– o'z-o'ziga baho berishini tuzilishi va xarakteri;

– korretsiyalash maqsadida bilishdagi kamchiliklarini.

6.8. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan turli yoshdagi bolalarni tekshirishdagi tashxis qilish metodikalarini moslashtirish tamoyillari

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda psixologik tashxisni o'tkazishda maxsus metodikalar talab etiladi, lekin afsuski, ular juda ham kamdir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda maqsadli materialining moslashuvi bolalar tomonidan aniq va to'g'ri idrokni talab etadi hamda tiflopsixologdan ushbu kasallikni tashxisini bilish va tekshirilayotgan bolaning asosiy ko'ruv funksiyalari xolatini: ko'ruv o'tkirligi, rangli ko'ruvi, ko'rish xarakterini bilishini talab etadi.

Bunga bog'liq ravishda xar bir bolaning idrok etishidagi qiyinchiliklarini hamda individual hususiyatlarini hisobga olgan xolda tekshirish materiali tavsiya etiladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tekshirishda foydalaniladigan maqsadli (stimulli) material xarakteriga qo'yiladigan umumiy talablar. Maqsadli materialning asosiy talablari quyidagilar hisoblanadi: ob'ekt va tasvirlarning fonga nisbatan yorqinligi 60-100% yorqinlikda bo'lishi kerak. Oq fondagi qora ob'ektlarni, qora fondagi oq ob'ektlarga nisbatan yaxshiroq farqlaydilar.

Maqsadli material bir qancha talablarga javob berishi lozim:

– tabiiy ob'ektlar va predmetlarni kattaligi bo'yicha mutanosib kelishi;

– ob'ektning tabiiy rangi bilan mos kelishi;

– yuqori rang yorqinligi(80-95%);
– yaqin, o'rta, uzoqni aniq ajratish.

Ko'rsatilayotgan ob'ektlarni kattaligi bolaning yoshi va ko'ruv imkoniyatlariga ko'ra shifokor – oftalmolog bilan birgalikda aniqlanadi.

Bolani ko'zi va material orasidagi masofa 30-33 sm, ko'rlar uchun esa ko'rish o'tkirligining qoldig'iga ko'ra bo'ladi. Berilgan rasmlar 0,5 dan 50 gacha masofa kattaligida bo'lishi kerak. tasvir kattaligining burchaklari 3-35* xajmda bo'lishi. Sariq-qizil-apelsin rang va yashil tuslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

G'ilay va ambliopiyali bolalarni tekshirishda maqsadli materialga qo'yiladi- gan talablar va bajariladigan ishlarni tashkillashtirish. 2 yoshdan 4 yoshgacha ambliopiyali va g'ilayligi 0,3 ko'ruv o'tkirligida tasvirlar apelsin rang, qizil va yashil ranglarda, yuqori rang va yorqinlikda ko'rsatish tavsiya etiladi. Ko'rsatilayotgan ob'ektlarning kattaligi 2 smdan katta bo'lishi kerak. Ko'rsatilayotgan predmetlar xoxlagan shakl va xajmda bo'lishi mumkin. Bunda katta xajmdagi predmetlarni faqatgina ko'ruviga emas balki, sezishini tekshirish uchun kechga yaqin o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu yoshdagi, lekin ko'ruv o'tkirligi 0,4 va undan yuqori bo'lganlarga turli rangdagi test ob'ektlari xajmi 2 sm ga yaqin(undan kam bo'lmasligi) bo'ladi. Bolani tekshirishni kunning xoxlagan vaqtida o'tkazish mumkin. Bunda uzoqni ko'ruvchi refraksiyali g'ilaylarga yaqinni ko'rsatuvchi ko'zoynaklar kerakligini yodda tutish lozim.

Turli tomonga ketuvchi g'ilaylikda va yuqori darajadagi miopiyada yaqinni ko'rsatuvchi ko'zoynaklar kerak bo'ladi, o'rta va past darajadagi miopiyada ko'zoynak kerak emas.

5 yoshdan 10 yoshgacha ambliopiyali va g'ilaylarning vizusi 0,3 gacha markaziy bo'lmagan bolalarda, yashil, qizil va apelsin rangdagi 2sm xajmdagi ko'rsatilgan test-ob'ektlarni turg'unligini qayd etish tavsiya etiladi. Ob'ektlarning shaklli ko'rishi hamda tushunayotgani tekshiriladi. eksperimentni o'tkazish vaqti- ertalab yoki kechqurun.

Shu yoshdagi va shu ko'ruv o'tkirligidagi bolalarda, shuningdek markaziy bo'lgan va turg'un bo'lmagan fiksatsiyada ham xuddi

o'sha shakl, xajm va rangdagi test-ob'ektlari ko'rsatiladi. Biroq tekshiruv o'tkazish vaqti kechga yaqin bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tekshiruv vaqtida ushbu turdagi bolalarning farqlovchi o'ziga xos xususiyatlari xisobga olinadi-ob'ektni aniqlovchi o'chog'idagi qiyinchiliklar.

5 yoshdan 10 yoshgacha 0,4 ko'ruv o'rkirligidagi markaziy turg'un fiksatsiyali hamda monokulyar, monokulyar-artenirli va g'ilaylik bilan birga kelishida turli xil ob'ektlarni rang va shakli bo'yicha farqlash taklif etiladi. Tekshiruv kunning xoxlagan paytida o'tkaziladi. Ushbu kategoriyali bolalarda - konvergensiyada, relaksatsiyada o'ziga xos qiyinchiliklar uchraydi. Ularda katta xajmdagi, shuningdek orqa va oldingi planda tasvirlangan predmetlarni idrok etishda qiyinchiliklar uchraydi. Maqsadli material bilan tekshirish jarayonida bolalarga yaqinni ko'rsatuvchi ko'zoynak va bo'shashtiruvchi mashqlar kerak bo'ladi.

5 yoshdan 10 yoshgacha o'sha ko'ruv o'tkirligi bilan markaziy turg'un fiksatsiyali va monokulyar, monokulyar-artenik hamda tarqaluvchi g'ilaylikli bolalarda turli rangdagi va shakldagi ob'ektlarni taklif etish mumkin. Tekshiruv kunning xoxlagan paytida o'tkaziladi. Yaqinni ko'rsatuvchi ko'zoynak va akkomodatsiyaga qaratilgan mashqlar tavsiya etiladi.

5 yoshdan 10 yoshgacha 0,4 dan 1 gacha vizusli bir vaqtning o'zida turg'un bo'lmagan binokulyar xarakterdagi ko'ruv va g'ilayligi bo'lmagan bolalarda maqsadli material yosh hususiyatlariga ko'ra taklif etiladi.

Metodikaning moslashuvini asosiy tamoyili tekshiruv vaqtida maqsadli materialning namoyishini vaqtini uzaytirish.

Chunki ko'ruv nuqsoni bo'lgan bolalarda turli xil vazifani bajarish vaqtida test-materialni suksessiv ko'rib idrok etishda, vaqtni uzaytirish talab etiladi. Ko'ruv nuqsonini o'ziga xosligiga ko'ra vazifani bajarilish vaqti bir necha martagacha uzaytiriladi.

6.9. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda diagnostik vazifalarni sifatli bajarilish parametrlarini baholash

Harakat ko‘nikmalariga asoslangan metodikalardan foydalanishda, ularning harakatlarini tezligi va aniqligini emas, balki vazifani bajarilish natijasi hisobga olinadi. Vazifani bajarilish vaqti uzaytiriladi; harakat va harakat ko‘nikmalarini o‘zini tekshirishga oid testlarning barchasi chiqarib tashlanadi.

Nutqiy materialga asoslangan metodikalardan foydalanishda, ushbu nutqiy material haqida tasavvurlari shakllanganlik darajasini taxminan aniqlash lozim. Taklif etilgan so‘zlar xaqidagi tasavvurlari bolada yo‘q yoki shakllanmagan bo‘lishi ham mumkin.

Rasm elementlari bilan bog‘liq metodikalarni bajarish vaqtida, bolada predmet haqidagi tasavvurlari shakllanganmi, bola ushbu tasvirlashi kerak bo‘lgan predmet xarakteristikasini qanchalik bilishini tahminan aniqlash lozim. Zarur xollarda predmetni ko‘rsatib u haqida so‘zlab berish kerak.

Ob’ektlarni fazoviy o‘zaro munosabatlarini ko‘ruv analiz va sinteziga asoslangan metodikalardan foydalanishda, taklif etilayotgan shakl va ob’ektlar haqida bolada bilimlarning shakllanganligini aniqlanadi.

Ijodiy o‘yinli metodikalarni qo‘llashda, bola o‘ynashi lozim bo‘lgan o‘yinchoqni bilishi aniqlanadi. Ayniqsa, bu “kiyimdagi” hayvonlar, ertak qahramonlariga taalluqli bo‘lsa. Bolalarni avval o‘yinchoqlar bilan birgalikdagi harakatlari bilan, shuningdek ular o‘ynashi kerak bo‘lgan xona bilan ham tanishtiriladi.

Taqlidga asoslangan metodikalarni qo‘llashda ushbu jarayonni bolalarda yo‘qligi hamda ko‘rishda chuqur nuqsoni bo‘lgan bolalarda uni shakllanishidagi qiyinchiliklarni hisobga olish, ko‘rsatmalarni bolaning harakat-mushak xotirasidan foydalangan xolda o‘zida va kattalar bilan birgalikdagi harakatlarda ko‘rsatib berish kerak.

Nazorat savollari

1. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim berish necha yo‘nalishni o‘z ichiga oladi?
2. Ko‘rlik va zaif ko‘rish sabablari nimalardan iborat?

3. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishni tashkil etishni nazariy asoslarini nimalara tashkil etadi?
4. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishga qanday talablar qo‘yiladi?
5. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganishning asosiy vazifalari va xususiyatlari nimialaradan iborat?
6. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishni tashkil etish va o‘tkazishga qanday talablar qo‘yiladi?
7. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishda stimul (rag‘batlantirish) materiallarining xarakteriga qanday talablar qo‘yiladi?
8. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni turli yosh davrlarida psixologik-pedagogik tashxis o‘tkazishning o‘ziga xosligi nimalardan iborat?

7 BOB. HISSIY (EMOTSIONAL)-IRODA JARAYONIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O‘RGANISH

(erta bolalar autizmi)

Hissiy (emotsional)- iroda sohasida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologo-pedagogik va klinik belgilari bo‘yicha turlicha xarakterlanadi. Eng og‘ir hissiy nuqsonlar erta bolalar autizmi sindromida kuzatiladi (EBA); ba’zi xollarda emotsional nuqsonlar aqli zaiflik yoki psixik rivojlanishni orqada qolishi bilan birgalikda keladi. Emotsional-iroda nuqsonlari shuningdek shizofreniyali kasal bolalar va o‘smirlarga ham xosdir.

Autizm spektri buzilishlari sohasidagi terminologiya bir qator muammolidir. Dignostik qo‘llanmalar “autizm spektri” terminini qo‘llamaydilar, uning o‘rniga ko‘pincha rivojlanishdagi buzilishlar nazarda tutiladi. Bu yanglishish bo‘lib, rivojlanishdagi buzilishlari barchasi ham autizm spektrida namoyon bo‘lmaydi.

Ko‘pincha autizm spektriga ega bolalarga yanglishilib diqqat tanqisligi va giperfaollik sindromi tashxisi qo‘yiladi.

Klinik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga qaraganda autizmning kuzatilish koeffitsienti yuqori bo‘ladi. Autizm spektri buzilishlariga ega bo‘lgan qiz bolalar ko‘pincha aniq tashhis qilinmaydi, yoki ularga boshqa tashxis qo‘yiladi: masalan, shaxs buzilishlari, depressiya, ozuqlanish buzilishlari. Axoli o‘rtasida qiz bolalarda giperfaollik nisbatan kamroq namoyon bo‘ladi. Shu sababli nima uchun autizm spektriga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalar qiz bolalarga qaraganda ko‘p kuzatilishi yuzasidan chuqur tadqiqotlar o‘tkazilishi lozim.[1]

Quyida ko‘rsatiladigan tavsiyalar bolalar va o‘smirlar autizmini tekshirishda hamda boshqa etiologiyali emotsional nuqsonli bolalarni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin.

[1] John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. 41-42 бетлар.

7.1. Autizmga ega bolalarga umumiy tavsif. Hissiy (emotsional)- irodaviy va kommunikativ-jarayonlarining o‘ziga xosligi

Birlamchi psixik buzilishlarga ega autizmli bolalarga turli ta’sirlarga giperstezіyaning (sezgirlikning) yuqoriligi xosdir: ya’ni harorat, taktil, ovozva ranglarga. Doimiy ranglar autik bolalar uchun xaddan tashqari yoqimsiz. Atrof olamdan keluvchi bu kabi ta’sirlar autik bolalar tomonidan jarohatlovchi omil sifatida idrok etiladi. Bu bolalarda xaddan tashqari psixik ta’sirchanligini shakllantiradi. Me’yorida rivojlanayotgan bola uchun normal hisoblangan o‘rab turgan atrof-muhit autik bola uchun doimiy salbiy emotsional fon bo‘ladi, hissiy qovusha olmaslik va salbiy hislar chashmasi hisoblanadi.

Inson autizmga ega bo‘lgan bola tomonidan atrof muhitning elementi sifatida idrok etilib, uning uchun juda kuchli ta’sirlagich hisoblanadi. Bu autizmga ega bo‘lgan bolaning umuman insonga, xususan yaqinlariga bo‘lgan asining kuchsizlanishini izoxlaydi. Shuning uchun bolaning ota-onasi, birinchi navbatda onasi ko‘pincha hissiy, emotsional donorlar sifatida e’tiborga olinadi.

Autik bolaning ehtiyojlarining tanqisligi ko‘ruv aloqasini o‘rnatishga bo‘lgan intilishlarining yo‘qligi, muloqotga kirishishdagi asossiz qo‘rquvlar uning “Ijtimoiy yakkaligining” yorqin ko‘rinishidir. Autik bolaning qarashlari bo‘shliqqa qaratilgan bo‘lib suhbatdoshiga qaratmaydi. Ko‘pincha ushbu qarash autik bolani ichki tashvishlanishlarini ifodalaydi. Go‘daklik vaqtida xattoki onasining yuzi ham bolada qo‘rquv uyg‘otishi mumkin. Autizmga ega bo‘lgan bolaning inson yuziga bo‘lgan asi shunday g‘ayri tabiiy-ki: bola insonning yuziga qaramaydi, ammo uning pereferik ko‘ruvi boshqa odam tomonidan qilingan barcha, xatto sezilar-sezilmay mayda harakatlarni sezishi mumkin. Go‘daklik davrida onasining yuzi “jonlanish kompleksi” o‘rniga bolada qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ulg‘aya borgan sari autizmga ega bo‘lgan bolaning ushbu hissiy omilga bo‘lgan munosabati deyarli o‘zgarmaydi. Odamning yuzi, yuz ifodasi juda kuchli ta’sirlagichligi saqlanib qoladi va va giperkompensator ta’sirlarni, masalan, qarashdan va ko‘z

nigohi orqali munosabatidan qochish, o‘zaro ijtimoiy munosabatlardan voz kechish kabilarni yuzaga keltiradi.

Ma’lumki, birinchi signal sistemasining etarlicha emasligi, autizmga ega bo‘lgan bolalarda uni giperstezіya ko‘rinishida namoyon bo‘lishi ikkinchi signal sistemasida nuqsonlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Muloqot qilishga xoxishning yo‘qligi autizmli bolalarda kommunikativ-ehtiyojlar jarayonini affektiv va sensor jarayonlarning rivojlanish darajalariga bog‘liqligidan dalolat beradi.

Autik bolaning kommunikativ-ehtiyojlar jarayonining etishmovchiliklari uning nutqiy hususiyatlarida ham ifodalanadi: nutqni ifodalash bilan birgalikda keluvchi mutizm, nutqiy shtamp, exolaliya, shuningdek yuz ifodasi va imo-ishora jarayonlarining shakllanmaganligidir. Kommunikativ jarayon komponentlari tuzilishida bir vaqtning o‘zida etarlicha bo‘lmasligi autizm bilan birga bolalarda muloqot qilishga bo‘lgan motivatsiyasini shakllanmaganligi ham kuzatiladi.

Miyaning energetik potensiali inson hayoti faoliyati uchun zarur bo‘lgan psixoemotsional tonusni ta’minlaydi. Energik tonus etarlicha bo‘lmagan sharoitlarda autik bolalarda ijobiy hissiy (emotsional) muloqatni chegaralanganligi kuzatilib, atrof olam bilan o‘zaro munosabatlarda patologik xususiyatlar yuzaga keladi. Bunday patologik o‘zaro munosabatlarning shakli kompensator autostimulyasiyalardir. Ular bolaga noqulay holatlarni neytrallashga imkon yaratadi va sun’iy ravishda psixoemotsional tonusni ko‘taradi. Kompensator autostimulyasiyalar stereotiplikni namoyon etadi hamda bir xil harakatlarni qaytarilish turg‘unligi –***stereotipiyalarni*** yuzaga keltiradi.

Stereotipyalarning yuzaga kelishi autizmga ega bo‘lgan bolalarning extiyojlari asosida yuzaga kelib, qo‘rquv hislarini yuzaga keltirmaydigan, hayot davomida unga tanish bo‘lgan turg‘unlikka intiltiradi. Autizmli bolalar o‘zlarini noqulay ta’sirlardan turli xil variant stereotiplar orqali ehtiyotlaydi. Kompensatsiyaning u yoki bu shakllari bolani atrof olamda og‘riqsiz mavjud bo‘lishiga yordam beradi.

Stereotiplar autik bolaning deyarli barcha faoliyat turlarida yuzaga kelishi mumkin. Masalan motor stereotiplar harakatlarning bir xilligida namayon bo‘ladi hamda bolani ijobiy his qila olishini shak-

llantiradi. Nutqiy stereotiplar alohida so‘z, ibora, jumla, kitoblardan olingan hikmatli iboralar, miyaga o‘rnashib qolgan fikrlar alohida qaytarilish shaklida yuzaga keladi. Intellektual darajada stereotiplar manipulyasion belgi, shakl, tushunchalar shaklida namayon bo‘ladi.

Steriotiplar shuningdek fazoviy tashkillashtirishlarda hamda maktab maishiy yoki uy sharoitida, bironbir uy jihozini o‘rnini almashtirilishi bola tomonidan qatiy noroziliklarni tug‘diradi. Autik bolaning faqatgina atrofdagilar bilan emas, balki o‘ziga nisbatan steriotipligi kuzatiladi. Autik bola kiyadigan kiyimlari, maksimal qulayva kam variantlidir ya’ni steriotipdir(bola bir turdagi kolgotka, jinsi, botinka va x.k.). Ovqatlarni tanlashi ham autik bolalarda steriotipdir(ovqat steriotipi: bola bir turdagi sho‘rvadan eydi yoki faqat chipslar va x.k.). Ma’lumki ba’zi autik bolalar xazm qilish jarayonlarida nuqsonlar kuzatiladi, shuning uchun ularda ovqatlarga allergiyalar yuzaga kelishi mumkin. Og‘ir xollarda autik bolalar umuman ovqatdan voz kechishlari mumkin.

Shuni alohida takidlash joizki, steriotiplar autik bolani xayotining ilk davrlaridą yuzaga keladi. Sterotiplar autik bolaning ulg‘ayish davrida birga keladi, lekin uning faoliyatidan umuman o‘chib ketmaydi. Autik o‘smirlar atrof olamni steriotip qabul etishda davom etib, sotsial bog‘liqlik va sotsial xayot stereotiplarini o‘zaro ta’sir shakllarini o‘z ichiga oladi.

Autizmda asinxroniyaning rivojlanishi harakat jarayonida o‘ziga xos namayon bo‘lib, bilish jarayonlari harakat rivojlanishidan ilgarilab ketishi, bu geteroxron prinsipni buzilishiga olib keladi. Umuman olganda umumiy va mayda motorikaning etarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi. Muskul gipotonusining borligi bolalar harakatlarning imkoniyatlarini xolatini va o‘ziga xosligini aniqlaydi. Bu qovushmagan va harakatlarni ifodalanish koordinatsiyasi nuqsonlarida, elementar o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalarini egallashdagi alohida qiyinchiliklarda, barmoqlar bilan ushlashni shakllanmaganligida, mayda qo‘l barmoqlari va kaft harakatlarida namayon bo‘ladi.

Autik bolalarda o‘z-o‘ziga xizmat qilishda etarlicha muammolar yuzaga keladi. O‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalarini rivojlanishi autik bolalarda alohida muammo xisoblanadi. Xattoki eng chaqqon bolalar, alohida is’tedod qobiliyatiga ega bo‘lganlariham xayotiy

xolat va maishiylikka moslashmagan bo'ladilar. Xattoki ularda ham o'z-o'ziga xizmat qilish sekinshakllanadi hamda sifatli rivojlanmaydi, chunki ular stereotip qabul etadilar. Avval ta'kidlanganidek, bolalar ovqat qabul etida alohida qiyinchiliklarga duch keladilar, kiyimlari steriotip hamda pala-partish bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'z-o'ziga xizmat qilish tartib-intizomi sotsial adaptatsiya ko'nikmalarini shakllanishini o'z ichiga olib, autik bolalarni korreksion jarayonida alohida o'rin egallaydi.

Idrok va sensor jarayonning o'ziga xosligi

Autik bolalarning idroki ob'ektlarni persepsiini senzitiv yuqoriligi bilan xarakterlanadi. O'ta sensor ta'sirchanlik sharoitda mexanizmning giperkompensatorligi yuzaga kelib, u bir tomondan, psixologik ximoyani, boshqa tomondan psixik deprivatsiya hamda kognitiv jarayonlarni rivojlanishidan, shuningdek idrokdan ham voz kechishni ifodalaydi.

O'rab turgan sensor jarayon autik bola uchun doimiy salbiy shakldagi hislarning manbai hamda emotsional qovusha olmasligi xisoblanadi. Sensor salbiy tajriba shakllanib bolani o'ziga xos emotsional jarayonida ifodalanadi. Idrokning spetsifik nuqsonlaridan tashqari, shuningdek perseptiv namunalarning etarlicha emasligi kuzatiladi, bu esa bolani tasviriy tanlovi va sensor tasirlarning qabulini tushuntiradi.

Autik bolalar atrofidagi predmetlarni to'liq idrok etmasdan, alohida affektiv belgilarga asoslangan. Masalan, bu kimligini topish vazifasi beriladi: "kichkinagina, momiq, jaxldor, uzun tishli". Autik bolalar darrov bo'ri yoki timsoh deb javob beradilar, sog'lomlari esa hech qanday javob bermaydi. Olingan ma'lumotlar atrof-olam xaqidagi affektiv-salbiy tasavvurlar turg'un qo'rquvni shakllantiradi, bu esa o'z o'rnida bolaning his-tuyg'ularini stenik bo'lishida to'sqinlik qiladi.

Intellektual rivojlanishning o'ziga xosligi

Autik bolalarning intellektual rivojlanish imkoniyatlari turlichadir: intellektual jarayonlarni aqli zaifligidan to psixi rivojlanishni

engil orqada qolishi hamda qaysidir bilim jarayonlarining iste'dod qobiliyatining o'ziga xos ko'rinishini rivojlanishidir.

Perseptiv jarayonni shakllanish spetsifikasi intellektni rivojlanishiga ta'sir etadi. Autik xususiyatli bolalarning bir qismi intellekti saqlangan bo'ladi hamda ommaviy dastur bo'yicha o'qitilishi mumkin. Ularning ichida Asperger sindromli bolalar guruhi sezilarli darajadadir. Ushbu bolalarda parsial qobiliyat, ma'lum bir fan, tasviriy san'at yoki faoliyatga o'ziga xos istedodlari bilan yaqqol namayon bo'ladi.

Ikkinchi guruh bolalari intellekt va bilish jarayonlari kamchilikli ko'rinish nuqsonlari bilan qiynaladilar. Ular ommaviy dasturga yaqin maxsus adaptiv ta'limga zor. Bunday ishlanmalarning yo'qligi sababli ZPR bolalar ta'limi uchun mo'ljallangan boshlang'ich sinflarning dasturdan foydalaniladi(to'rt yillik ta'lim).

Uchinchi guruh bolalarida intellektual buzilishlarga egalar. Ular faqatgina aqli zaif bolalarga mo'ljallangan VIII yillik dastur asosida adaptiv davrni xisobga olgan xolda ta'lim oladilar.

Autik bolalarning tafakkur operatsiyalarini sifati baholanadi, bunda quyidagi huqsonlarni ajratish mumkin:

– yuqori darajada tahlil eta olish, to'g'rirog'imanipulirovat, belgi va belgili formulalarning birvaqtda predmetlarning tabiiy bog'liqligini yoqotish tendensiyasi hamda latent belgilarni asosiylar o'rnida aniqlash,; tafakkurni shakllanishi ko'pincha manipulyar fikrlar bilan birgalikda keladi, mohiyati emas jarayonning kechishining o'zi bola uchun muhim bo'ladi;

– tafakkur operatsiyalarining stereotip algoritmini bir vaqtning o'zida qayd etishini tezlashishi;

– shaxsiy-ahamiyatli mezonlargagina tayanib aqliy hulosani amalga oshirilishi.

Nutqining o'ziga xosligi

Autik bolalarda nutqiy nuqsonlar kommunikativ jarayonlarni komponentlarini etarlicha bo'lmasligidir. Turli hil nutqiy nuqsonlar kuzatiladi.

Bolalarning bir qismi mutizm bilan qiynaladilar. Mutizm nutqning yo'qligi bilan namayon bo'ladi nutqiy kommunikatsiya va

kommunikativ- talablar doirasiga bog‘liq ravishda emotsional-iroda jarayonlari nutqning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Mutizmni yuzaga kelishini shaxsiy nutq faoliyatini shakllanishidagi nuqsonlar deb qaramasdan, nutqiy muloqot motivatsiyasining yo‘qligi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Biroq mutizmni ifodalanish darajasi turlicha.

To‘liq mutizmda nutqning impressiv tomonini rivojlanishi juda sust ifodalangan. Alohida tovushlar va tovushlar birikmasi so‘z va ibora shaklida namayon bo‘lmaydi hamda autik bolada qiziqish uyg‘otmaydi. Verbal darajadagi barcha muloqotlardan voz kechishlari, ularda so‘zlar zahirasini passiv deyarli yo‘qligidir. Eshituv diqqati charchagan va rivojlanmagan. Bunday bolalarni tekshirish davomida, bolaga qaratilgan nutq ularda uni idrok etish, unga taqlid qilish xoxshining yo‘qday tuyuladi. Inson nutqi autik bolani qo‘rqitadi hamda unda to‘liq emotsional noqulaylikni yuzaga keltiradi. Ba’zi bolalarda nutq rivojlanishining zamini ham yo‘qdir. Bunday nutq nuqsonlari ko‘pincha intellektual kamchiliklar bilan birgalikda yuzaga keladi.

Ikkinchi guruh bolalari qisman mutizmdan qiynaladilar. Birinchi guruh bolalariga nisbatan nutqning saqlangan imkoniyatlari potensialroqdir. Ushbu bolalarni nutqiy imkoniyatlarini NTR ning birinchi darajasidagi nuqsonlar bilan taqqoslash mumkin. Ushbu bolalarning bir qismida nuqsonlari birinchi va ikkinchi darajadagi NTR da ikkilantiradi. Autik bolaning nutqi avtonom ifodalanadi hamda alohida tovushlar birikmasi bilan ifodalanadi.

Uchinchi guruh bolalarda rivojlanishi deyarli yuqori bo‘lib, tahminan NTRning ikkinchi va uchinchi darajalariga mos keladi. Boroq ikkinchi guruhdagilar singari aniq bir shaxsga nutqni qaratilishi yo‘qdir.

To‘rtinchi guruhdagi bolalar nutqining rivojlanishi struktur rivojlanish darajasini etalichaligi bilan xarakterlanadi. Bola uzoq vaqt monologik nutqni olib bora oladi. Biroq diologik nutqni olib borishi o‘ziga xos qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Nutqiy stereotiplar, shtamplar, avtonom namayon bo‘lishning sustligi ifodalanadi. Biroq ushbu kamchiliklar yuqori nutq rivojlanish darajasi bilan yumshatiladi hamda qisman namayon bo‘ladi.

Shuni takidlash joizki ajratilgan to‘rt guruh ham autik bolalar nutqiy mustaqil klassifikatsiya nuqsonlari xisoblanib K.S.Lebedinska, O.S.Nikolska (1991) autik dizontogenez turiga taaluqli emas.

Tasavvur

Autik bolalarda tasavvur hususiyatlari o‘yinda hamda ijodiy ishlarida o‘ziga xos namayon bo‘ladi. Autik bolalar rasmlari harakatlar bilan to‘ldirilgan. Rasmning harakatsizligi normal rivqojlanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun odatiy xol bo‘lsa, autik bolada ular qiziqish uyg‘otmaydi. U kaft harakatlari bilan ifodalanuvchi aniqlik, bo‘yash ritmi, ranglar orqali o‘ynash, statikadan qochishga harakat qiladi. autik bolaning fantaziyalari real va realmasliklar muvozanatini saqlaydi. Sensor tasavvurlarini ritmda qayd etish fantaziya olamini shakllantiradi, rasmlar orqali autik bolaning ichki tashvir va qiziqishlari ifodalanadi.

Bolalar o‘yini autik fantaziyalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar xayvonlar bilan bog‘liq syujetlarni yaxshi ko‘radilar. Boshqa gurux bolalari aniq ilm va kompyuter texnikalariga qiziqish uyg‘otadilar.

Diqqat

Yuqori kuchli ta’sirlar va xavf-xatarni aniqlaga yo‘naltirilganda, ixtiyorsiz diqqatning ko‘tarilgan kuchda namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi kuzatiladi. Biroq bunday kuchlanishning vaqt davom etishi emotsional xavotirlik orqali affektiv portlashga (yig‘lash, muloqotdan voz kechish) olib keladi. Bularning hammasi ehtiyorsiz diqqatni turg‘un bo‘lmasligiga olib keladi.

Ixtiyoriy diqqat o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, katta qiyinchiliklar bilan shakllanadi. Diqqatni rivojlanishidagi qiyinchiliklar faoliyatini maqsad sari yo‘nalganlik nuqsoni bilan aniqlanadi. Diqqatning turg‘unligida nuqsonlar kuzatiladi. Bunda qo‘rquv, ta’sirlarni idrok etishdagi yuzaga keluvchi salbiy oqibatlar katta rol o‘ynaydi. Bola bir algoritmda boshqasiga sirg‘anib o‘tadi, bunda bajarayotgan harakatlarini qayd etmaydi.

Xotira

Intelekti saqlangan bolalarda ihtiyorsiz eshituv va ko‘ruv xotirasi mantiqiy belgi hamda formulasi yaxshi rivojlangan bo‘lishi mumkin. Ifodalayotganlarini esga tushurish uchun ba’zida aralash turdagi fantaziya elementlari yuzaga keladi. Mantiqiy ig‘tiyoriy yodda tutish bolaning qiziqishlariga hamda eslab qolishga yo‘naltirilgan motivatsiyaning rivojlanish qobiliyatiga bog‘liq ravishda shakllanadi.

Shaxsining rivojlanishi

Autik bolaning shaxsiy shakllanishi yakunlovchi etap sifatida uning psixik rivojlanishining o‘ziga xos xarakteristikasi bilan namayon bo‘ladi. Ma’lumki, insonni shaxsiy shakllanishning markaziy zvenosi motivatsion jarayonning shakllanishi xisoblanadi va u talablar tizimining ierarxik murakkab ko‘rinishida intilish hamda maqsadida namayon bo‘ladi. Ma’lumki, ilk yoshdayoq yangi obrazlarning psixik shakllanish jarayoni shaxsiy obrazlarning markazi MEN ko‘rinish tizimida yakunlanadi. Tekshirishlarning ko‘rsatishicha, bola psixik rivojlanishining ontogenezida yangi obrazlar shaxsini shakllanishi etaplar bo‘yicha amalga oshiriladi: ichki o‘rni, o‘zini anglash, o‘ziga baho berish, atrofdagilarga maqsadli munosabati hamda o‘z-o‘ziga, o‘zi aniqlashi, jamoadagi o‘rnini bilishi.

Autik bolaning psixik jarayonlarining xolati muhim psixik mexanizmning etarlicha emasligidan dalolatlaydi, emotsional-iroda jarayonlari- shaxsni to‘liq shakllanishini aniqlaydi. Autik bolaning psixik rivojlanishidagi ushbu xolatdagi nuqsonlar uning shaxsiyatini to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Yangi obrazlar rivojlanishining o‘ziga xos spetsifikasi autik bola xayotining boshidayoq yuzaga keladi. Onasi va yaqinlari bilan ko‘z orqali muloqotda bo‘lishi; “kompleks tiriklikning” sust kechishi yoki yo‘qligi; nutqiy muloqotga kirishish xoxshining yo‘qligi; kishilik olmoshi “men”dan foydalanmasligi; nuqiy stereotiplik, o‘z-o‘ziga salbiy baho berishi, va boshqa autik bola yoki o‘smirni o‘ziga xos shaxsiyati aniqlanadi.

Autik bolalarning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlari emotsional sovuqqonligi, egoizm, atrofdagi odamlardan ehtiyotkor bo‘lishi kabilar bilan xarakterlanadi. Autik o‘smirlar tenggdoshlari bilan yomon muloqotga kirishadilar, odamovi va birovdan sirini yashiradiganlardandirlar. O‘z fikr va harakatlariga tanqidiy baho bera olmaydilar. O‘zlarini keyingi xayotini tashkillashtirishlari uchun ular jamoa tomonidan adaptiv yondashuv ehtiyoj sezadilar.

Autik dizontogenezning turlari

Autik buzilishlarning ifodalanish darajasi turli xil kategoriyadagi bolalarda o‘zgaruvchandir. O.S.Nikolskaya va boshqalarning(1997) klassifikatsiyasiga binoan, autik bolalarni to‘rt kategoriyaga ajratiladi.

Birinchi gurux.chuqurroq autik bolalardir. Ular atrofidagi olamdan maksimal ajralganligi bilan farqlanadi. Ularning nutqi yo‘q hamda xulqi “xarbiylik” tomonidan yaqqol ifodalangan. Bolani harakatlari bunda içhki bajarilish natijalari yoki o‘ylab chiqilgan xoxishi xisoblanmaydi. Aksincha, uning harakatlari xonadagi ob’ektlarni tashkillashtirish bo‘yicha boshqarishdir. Bola predmetlarga zo‘rg‘a qo‘lini tekazib xonada maqsadsiz harakatlanadi. Ushbu gurux bolalari ichki xoxishlari ifodalanmaydi va aksincha o‘zgalarning ta’sirchanligida namayon bo‘ladi.

Ushbu bolalarda atrof olam bilan munosabati rivojlanmaydi, xattoki tanlaganlari bilan ham muloqotga kirishmaydilar. Ularda faol ximoya vositalari yo‘qdir: autostimulyasiyaning(motor stereotiplar) faol shakllari rivojlanmaydi. Bolalar nutq, shuningdek jest, mimika, tasvirlochchi harakatlardan foydalanmaydilar.

Ikkinchi gurux. Bu bolalarda muloqoti kamroq darajada buzilgan, biroq olamga bo‘lgan dezadaptatsiyasi etarlicha kuchli ifodalangan. Ularning, ovqat, kiyim, yo‘nalishini tanlash qobiliyat stereotiplari yaqqol namayon bo‘ladi. bu bolalarda atrofdagilar oldidagi qo‘rquv yaqqol ifodalangan. Lekin bu bolalarning muloqot bo‘yicha faolik darajasi va ularning xarakteri xaddan tashqari bolalar tomonidan tanlanadi hamda qayd etib boriladi. nutqi birinchi gurux bolalariga nisbatan yaxshiroq rivojlangan, undan o‘z talablarini

ifodalayotganlarida foydalanadilar. biroq iboralarida steriotiplik va nutqiy shtamplik kuzatiladi: "ichishga berish", yoki "Komilga ichishga berish". Bola tashqi olamdan idrok etgan nutqiy shtamplarni birinchi shaxsda atamaydan ko'chiradi.

Uchinchi gurux. Ushbu bolalarning o'ziga xosligi birinchi o'rinda tashqi olam bilan munosabat o'rnatishdagi ekstremal janjalkashligi bilan namayon bo'ladi.ularning xulqi yaqinlariga aloxida bezovtalikni olib keladi. Janjallari kimgadir yo'naltirilgan agressiya ko'rinishida, yoki xattoki o'ziga agressiya xolatida yakunlanishi mumkin.ushbu bolalarning nutqi yaxshiroq rivojlangan. Lekin u monologikdir. Bola iborali tarzda gapiradi, lekin o'zi uchun. Uning nutqi "kitobiy", ilmiy, tabiiy bo'lmagan ko'rinishga ega. Bola suhbatdoshga muhtoj emas. Barcha guruxdagilardan harakatlari epchilroq. Ushbu bolalar ba'zi tartib-qoidalarni bilishga aloxida e'tibor qaratadilar. Lekin buning mohiyatida bilimlar manipulyasiyasi, biron-bir tushunchani o'yin qilish, chunki bu bolalar amaliy faoliyatda o'zlarini qiyinchilik bilan namayon etadilar. Ba'zi aqliy operatsiyalarni(masalan, matematika bo'yicha vazifalarni) stereotip va mamnuniyat bilan bajaradilar. Shu kabi mashqlar ijobiy taassurotlar bulog'i bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi gurux. Bu o'ta ta'sirchan bolalardir. Ularda autizm muloqotning yo'qligi emas, balki shakllanmaganligi natijasida namayon bo'ladi. Sotsial o'zaro harakatlarga kirishishga tayyorgarlik imkoniyatlari uchta guruxdagilarga nisbatan yaxshiroq ifodalangan. Biroq ular o'ta ta'sirchan bo'lib kichik bir to'siqlarni ham his etsa muloqotni to'xtatadilar.

Ushbu gurux bolalari ko'z orqali muloqot o'rnata oladilar, lekin bu birlamchi xarakterga ega. Bu bolalar uyatchan va noziklik taassurottini qoldiradilar.

7.2. Autik bolalarni psixologo-pedagogik o'rganish jarayoni

Autik bolalarni o'rganish adekvat darajada o'zaro harakatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar tufayli o'ziga xos murakkabliklar tug'diradi. Shuning uchun ularni tekshirishni tashkillashtirishga alo-

hida diqqatni qaratish lozim. Ushbu maqsadda diagnostik guruxlar tashkillashtiriladi, unda mutaxassislar xar bir bola bilan individual ish olib boradilar.

Autik bolalarni tekshirishning boshqa o'ziga xos xususiyati kompleks tarzda tekshirishni tashkillashtirish xisoblanadi, unda ayniqsa boshlang'ich etapida bir mutaxassis psixolog yoki pedagog maqsadli olib boradi. Bunday yondashuv bolani yangi muhitga ko'nikishiga yordam beradi, ozgina bo'lsa ham moslashishiga. Qo'rquvlarini tushirishga imkon beradi. Bolani yangi sharoitga ko'nikishiga qarab boshqa mutaxassislar(logoped, psixiator) sekinasta qo'shilishlari mumkin:xonaga sekin kiradi yoki unda bo'la turib sekin-asta bolaga yondasha boshlaydi(ikkinchi variant samaraliroqdir). Biroq bu aloxida mahorat va ehtiyotkorlikni talab etadi, chunki biron-bir qat'iy harakat hamda baland aytilgan so'z autik bolada ximoya asini yuzaga keltirib, qo'yilgan tekshiruv maqsadiga erisha olmaslik mumkin.

Autik bolalarni to'liq psixologo-pedagogik o'rganish uch etapga bo'lishni talab etadi.

Birinchi etap-psixologik anamnezini eg'ish.

Ikkinchi etap- emotsional-iroda jarayonlarining buzilganlik darajasini aniqlash.

Uchinchi etap autik bolalarning bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Autik bolalarning emotsional irodaviy jarayonlarini baholashda, birinchi ikki guruhdagi(O.S.Nikolskaya klassifikatsiyas bo'yicha) bolalarni nazarda tutib, tekshirishning davomiyligida tashxis qilish mumkin. Bolani birinchi va ikkinchi etapda autik dizontogenezini o'rnatgandagina tekshirish mumkin. Uchinchi guruh bolalarini tekshirishni mutaxassisga moslasha olganidagina o'tkazish mumkin. To'rtinchi gurux bolalarini tekshirishda ularning kommunikativ imkoniyatlarini xisobga olib bir yo'la uchala etap tekshiruvini o'tkazish mumkin.

Ma'lumki, autizmning birinchi belgilari bola xayotining birinchi davrlaridayoq namayon bo'ladi. bunga bog'liq ravishda 2-3 yoshda amalga oshiriluvchi erta tashxis qilish muxim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni birinchi yosh davrlarida nuqsonlarini psixologo-pedagogik o'rganishda quyidagi tashxis talablariga rioya etish lozim.

1. Kommunikatsiyaning buzilishi:

– atrof bilan munosabatga kirishishda noqulayliklarning ifodalanishi;

– ona bilan(bolaning ilk rivojlanish davrida) o'zaro harakatda tetiklik kompleksining yo'qligi;

– ko'z va mimika muloqotining o'ziga xosligi;

– ona bilan biologik bog'liqligining belgilari.

2. Nutqning buzilishi:

– mutizm(nutqni to'liq yoki qisman yo'qligi);

– exolaxiya, nutqiy shtamplar, nutqiy steriotiplar;

– kelishik olmoshlarining birinchi shaxsini foydalanishni yo'qligi;

– harakat jarayonlari dinamikasidan o'tuvchi nutqni rivojlanishi(ibora 3 yoshgacha);

– monologik va autodialogik nuqtni egallashi.

3. Xulqidagi nuqsonlar:

– "jinsiy"xulqi;

– atrofdagilarga agressiyasini sababsiz yo'llashishi;

– autoagressiya;

– steritiplar.

Psixologik anamnezini yig'ish. Ishning boshida psixologbolaning rivojlanish tarixi bilan tanishadi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda ishlari bilan tanishadi, uning yaqinlari bilan suhbatlashadi. Bolani ilk rivojlanish kunlarini aniqlash lozim. Bunda ota-onadan birinchi o'rinda onasidan olingan ma'lumotlar muxim ahamiyat kasb etadi. Bola ilk rivojlanish davrida tartibga qanday ko'nikkan, o'ta qo'zg'aluvchan bo'lganmi yoki aksi, sharoitning o'zgarishida tasirlanganmi; qachon onasini taniy boshlab unga kulib javob qaytargan.

Bolani ilk rivojlanish davrida yaqinlariga va o'zgalarga qanday a qilgani, boshqalarning qo'liga tinch borganmi yoki bezovta, xozirgi vaqtda nima o'zgargan; xo'l plenka va "o'zgalar" gorshogiga bolaning asi qanday bo'lgan; bolada ovqatlarni, kiyimlarni, uyni maishiy tashkillashtirishda tanlash steriotipi kuzatilganligini

o'rnatish lozim. Boladagi harakat steriotiplari, bog'lanishlar hamda agressiya bo'lganmi yoki yo'qmi buni bilish lozim.

Lokomotor funksiyalar xaqidagi ma'lumotlarni bilish ham muxim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi bolalarda xaraktlarining rivojlanish davri aralashdir.

Mutaxassis bolaning nutqiy rivojlanish xarakteri xaqidagi ma'lumotlarni aniqlashi lozim. Shuningdek bola nimaga qiziqishi, qanday o'yinlarni o'ynashi, o'yinga taaluqli bo'lmagan predmetlarni ishlatadimi(yog'ochlar, iplar, qog'oz va boshqalar), nimaga ko'proq intiladi o'yinchoqgami yoki o'yinsiz predmetlargami; bolaning syujetli o'yinlari olami qandayligini bilish muximdir.

Emotsional-iroda jarayonlari buzilish darajasini aniqlash (O.S.Nikolskaya). Ushbu etapning maqsadi autik bolaning dizontogenezini aniqlash. Unga bolani faoliyatini kuzatish orqali erishiladi,bu esa emotsional-iroda jarayonidagi nuqsonlarni boshlang'ich davrida baholash imkonini beradi. So'ngra bolani ko'rsatgan imkoniyatlariga ko'ra mutaxassis keyingi tekshiruvlarni tuzadi hamda natijada u bilan o'zaro munosabatga kirishni tashkillashtirib quradi.

Bolani kuzatish psixologning xonasiga kirgan vaqtidanoq amalga oshirila boshlaydi. Bu autik bolaning ko'pgina spetsifik xarakteristikasini aniqlashga yordam beradi. Masalan mutaxassis autik bolaning tashqi belgilariga, asosan:gavdaning turishi, ritm va yuz mimikasi, harakat xarakteriga diqqatini qaratadi. Bolaning yuz mimikasi hamda uni ifodalanishi sovuqqon bo'lishi mumkin, bu autik bolani dizontogenezini birinchi etapini xarakterlaydi.

Bolani xulqini baholashda uning adekvatligiga hamda qiziqishiga yoki atrofdagilardan o'zini olib qochishiga e'tibor qaratish lozim. Bola yangi unga odatiy bo'lmagan sharoitga qanday ta'sirlanmoqdaligini belgilash muxim: loyqayd, tinch yoki onasining orqasiga bernishi, xonaga kirgisi kelmasligi, uni kuch bilan tortishlari(autik dizontogenezni uchinchi turi).

Autik bolani ikkinchi etapda tekshirishning asosiy vazifasi autik dizontogenez turini bola hamda kattaning orasidagi o'zaro munosabatlarni adekvat-imkoniyatlarini o'rnatishdir. Munosabatlarning adekvatligi bolaning affektiv jarayonlarini nuqsoning darajasiga bog'liq. O'zaro ta'sirlarning tashkiliy shakli bolani ihtiyoriy faoli-

yatini hamda unga kattalarning qo'shilishi. Bolaning rivojlanish darajasiga mos birgalikdagi faoliyat o'yinga aylanishi mumkin. Agarda birgalikdagi o'yinni shakllantira olinmasa, mutaxassis xonadagi predmetlarni bolaga boshqarish imkonini tashkillashtirishi lozim.

Bolaning o'yin faoliyatini rivojlanishini boshqa tomondan o'rganganda uning affektiv jarayonlarinidagi nuqsonlarni aniqlashga imkon beradi. Masalan bola predmetlar bilan qanday harakatlanmoqda, predmetlarni mos o'yin shakllarida foydalanyaptimi yoki ularga boshqa ma'no beryaptimi; qisqa syujet epizodlarini ifodalamoqdami(ayiqchani mashinaga solib uchirishi), tashvish qo'rquvga oid syujetlarni o'ynashga qiziqishi; xayvonlarga aylanuvchi rollarni ijro etishga qiziqishiga e'tiborni qaratish muxim.

Autik bolaning emotsional-iroda va kommunikativ-imkoniyatlari jarayonlarini o'ziga xosligini aniqlashda, O.S.Nikolskaya klassifikatsiyasi bo'yicha ajratilgan autik dizontogenezini mezonlarini asosiylariga tayanish lozim.

Autik dizontogenezning birinchi turi(iroda faolligining darajasi):

– atrofdagi olamdan nafratining kuchayishi, barcha muloqotdan voz kechishi;

– sensor ta'sirlarga passiv ifodasi(bola qo'liga berelgan predmet yoki o'yinchoqni tashlab yuborishi);

– ko'ruv muloqotining yo'qligi(suxbatdoshiga qaramaslik);

– "xarbiy" xulqning borligi;

– mutizm, barcha verbal xarakterdagi muloqot imkoniyatlarining yo'qligi;

– harakatlarini bachkana ifodalashi.

Autik dizontogenezni ikkinchi turi(steriotiplarning darajasi):

– atrof muxitga ta'sirlariga ta'sirchanligini ifodalanishi(ovoz kuchi, yorug'lik, xaroratni tegishi);

– motor stereotiplarning ko'pligi;

– exolaliya, nutqiy steriotiplar, nutqiy shtamplarning borligi;

– steriotip muxitni tashkillashtirish talablarini ifodalanishi (ovqatni aloxida tanlashi, faqat bir turdagi kiyimlarni kiyishi, ma'lum bir aloxida predmetlardangina foydalanishi va xyuk.lar);

– qo'rquvining borligi;

– avtonom o'yin.

Autik dizontogenezni uchinchi turi(ekspansiya darajasi):

– xulqidagi janjalkashlikni ifodalanishi;

– biron-bir faoliyatga tez o'tishi;

– tasviriy muloqotning ifodalanganligi; motivatsiyasiz qo'rquvlarning borligi;

– suhbatdoshga qaratilmagan manzilsiz nutq;

– birinchi shaxs kishilik olmoshidan foydalanmasigi;

Autik dizontogenezni to'rtinchi turi(emotsional nazorat darajasi):

– muloqotda yuqori ta'sirchnligini ifodalashi;

– empatik qo'lab-quvatlashga ijobiy baholash talablari;

– yaqinlari bilan biologik bog'liqligi(onasi bilan);

– nutq sustlashuvchi xarakterga ega bo'lishi mumkin;

– ko'zli munosabat doimiy emas, uzuk-uzuk xarakterga ega.

Bolani emotsional boshqarish darajalarini o'rganish jarayonida mutaxassis u bilan muloqotga kirishish jarayonida autik belgilarni kuchayishini diqqat bilan kuzatishi lozim(autostimulyasiya variantlarini kengayishi, tanlov munosabatlarini kuchayishi, undan to'liq voz kechishi, qo'rquvlarning yuzaga kelishi, agressiya, o'ziga agressiya).

Autizmga ega bo'lgan bolalarning bilish jarayonlarini o'ziga xosligini o'rganish

Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar echiladi:

– bolaning bilim va ko'nikmalarini darajasini aniqlash;

– ularning adekvat imkoniyatlariga ko'ra ta'lim dasturini aniqlash.

Shuni esda tutish lozimki, autik bolalarning barcha kategoriyalari diagnostik tadbirlarning barcha uch etapidan bir qabulda o'ta oladi. Birinchi ikkinchi gurux bolalari (O.S.Nikolskaya bo'yicha) bilish jarayonlarini eksperimental tekshirish imkoniyatlari orqali o'zlarini ifodalamaydilar. Ushbu sharoitlarga ko'ra uchinchi etap bolalarini diagnostika qilish bir necha vaqtni uzaytiradi, shuning uchun ular tekshirishga bir necha bor kelishga to'g'ri keladi. Bolaning kognitiv jarayonlarini diagnostik tekshirish tadbirlarida bola bilan munosabatni o'yin orqali o'rnatish lozim.

Ba'zi vazifalar bolalarga test shaklida berilishi mumkin, masalan, korrektur sinov, shifrlash, matematik vazifalar va x.k.lar. proiksion metodikalar taklif etilishi mumkin "oilaning rasmi", "odam rasmi". Diagnostik tadbirning asosiy qismi bola bilan o'yin o'rnatish orqali qurilishi mumkin. Bu erda albatta taklif etilayotgan qo'llanmalar, predmetlar, didaktik o'yinlar va bolani ularga bo'lgan asi xisobga olinadi.

Yaxshi ishlayotgan bola kutilmaganda zerikishi yoki charchashi oqibatida birdaniga vazifani bajarishni to'xtatib qo'yishi mumkin, unga berilgan vazifaga o'zining noadekvat asi motivatsiyasiz predmet oldida qo'rquvni yuzaga keltiradi. Bunga bog'liq ravishda, ba'zi qo'llanma va testli vazifalarni taxminan xonaning turli joylarida bola ularga sekin-asta ko'nika olishi hamda unga yangi va notanish tuyulmasligi uchun davom ettirish lozim. Agar mutaxassis o'zining xonasida "Ertaklar olamiga sayyoxat" o'yinini bola bilan tashkillashtira olsa yaxshi bo'lar edi. Bir predmetdan boshqa predmetga o'tishda bola tekshirish uchun kerakli maxsus diagnostik qo'lanmalarga tutiladi. Mutaxassis testli vazifalar va kerakli predmetlardan sekin-asta ehtiyotkorlik bilan ushbu jarayonni boshqaradi. Biron-bir jarayonni aniqlashga mo'ljallangan ba'zi qo'llanmalar bolaning tanlov va spetsifik imkoniyatlarini xisobga olgan xolda qo'llanadi. Onasining va yaqinlarining ma'lumotlariga tayangan xolda o'yinchoqlar yoki uning faoliyati uchun predmetlarni tanlanishi lozim.

Affektiv jarayonlarning nuqsonini oyu'ektiv baholashda, uning rivojlanish dinamikasini kuzatish orqali kuzatish o'rganish maqsadga molikdir. Dinamik kuzatuvni amalga oshirishda albatta boladagi autik belgilarning namayon bo'lishi yoki yosh darajasini mutaxassis albatta baholashi lozim. Shuningdek, bola tomonidan foydalanilayotgan adaptatsiya vositalarini kuzatish muximdir.

Nazorat savollari

1. Hissiy (emotsional)- iroda sohasida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologo-pedagogik va klinik belgilari bo'yicha qanday xarakterlanadi?
2. Autizmga ega bolalarning hissiy (emotsional)- irodaviy va kommunikativ-jarayonlarining o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?

3. Autik dizontogenezning turlari ajratiladi?
4. Autik bolalarni psixologo-pedagogik o'rganish jarayoni qanday kechadi?
5. O.S.Nikolskaya klassifikatsiyasi bo'yicha ajratilgan autik dizontogenezini qanday mezonlariga tayanish lozim?
6. Hissiy-irodaviy doirasida buzilishlari bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7. Autizmga ega bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish qanday bosqichlardan iborat?
8. Psixologik-pedagogik tavsifnomada va xulosada hissiy buzilishlarga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining qaysi xususiyatlari aks etishi lozim?

8 bob. Rivojlanishida murakkab nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarni tibbiy-psixologo-pedagogik tekshirish

Zamonaviy tekshirish metodlariga asosan rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarning bir qismida asosiy nuqsondan tashqari bir yoki qo'shimcha nuqsonlarning borligi aniqlanib, bu bolaning psixik rivojlanishini ahamiyatili ravishda o'zgartirmoqda. Maxsus maktablarning turli turidagi ko'pchilik bolalarda asoratlar yoki murakkab turdagi nuqsonlar aniqlanmoqda; aqliy rivojlanishida orqada qolgan ko'pchiligi bolalar bir qancha nuqsonlarga egadirlar.

Rivojlanishida murakkab nuqsonli bolalar deganda ikki yoki undan ortiq birlamchi nuqsonlarni ifodalanishiga aytiladi. Bunda birlamchi nuqsonlarga organizmning turli sistemalaridagi jarohatlari bilan bog'liq bo'lib, ular murakkab nuqsonlarni kiradi. Masalan bunda, ko'rishida nuqsonining bo'lishi bilan birgalikda BSPlar (bolalar serebral faolajligiga ega bo'lgan)), eshitishida va BSP, ko'ruv va eshituv, ko'ruv va nutq va x.k. Ayniqsa bunday kompleks buzilishlar bolalarda murakkab turdagi nuqsonlar sifatida diagnostika qilinishi kerak. bir boladagi bir necha nuqsonlarni birgalikda kelishi uning psixik rivojlanishida o'ziga xos nuqsonlar sur'atini berishini tushunish lozim. Biroq murakkab nuqsonlarning bir turi- bolada ko'rish va eshitishni birgalikda kelishini ko'rkarga kiritish mumkin, ularni etarlicha o'rganib chiqilib, aynan bunday bolalar uchun maxsus dastur va metodlar ishlab chiqilgan.

Bir vaqtning o'zida organizmning ichki sistemasida bir necha funksiyalarning jarohatlanishi natijasidagi salbiy faktorlarning ta'sirini murakkablashgan nuqsonlar deb nomlash mumkin. Masalan, MNS ni perinatal jarohatlari natijasi likvorodinamik bilan birgalikda kelishi, harakat va xulq buzilishlarini aqliy orqada qolishning belgilari sifatida qaralishi mumkin. Ilk yoshlari davrida boshidan o'tkazgan meningit natijasi, kompleks gidrotsefaliya va epilepsiya yoki ambliopiya va g'ilaylikning asorati karlik yuzaga kelishi mumkin. Murakkab nuqsonli bolalar umumiy asosiy nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan birgalikda samarali o'qishlari mumkin, ular uchun alohida metod va dasturlarni yaratish zaruriyati yo'q, ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda individual yondashuvning o'zi kifoya.

Zamonaviy diagnostikada murakkab va ko'p nuqsonli bolalarni kompleks tibbiy-psixologo-pedagogik o'rganishni talab etadi.

Psixik rivojlanishida nuqsonlari ifodalangan bolalarni birlashgan kompleks tekshirish dasturi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:albatta birlamchi tibbiy, neyrofiziologik va psixologo-pedagogik bolani kompleks tekshirishni; barcha nuqson turdagi bolalarni ko'rish va eshitish xolatini doimiy qayta tekshirish; bolalarni doimiy qayta-qayta psiologo-pedagogik tekshirish.

Tibbiy yoki klinik tekshiruv turli mutaxassislar ishtirokida (pediatr, nevrolog, psixiatr, oftamolog, otolaringolog va genetika), barcha laborator ma'lumotlarni xisobga olgan xolda(bioximik), rentgenologik (kompyuter tomografiyasi va MRT) va boshqa tekshiruvlarni o'tkazish lozim. Zamonaviy diagnostikada inson organizmini bir necha sistemasini birdaninga jarohatlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, boladagi murakkab nuqsonlarni rivojlanishining sabablarini bilish muxim ahamiyat kasb etadi. Boladagi birlamchi nuqsonlarni analiz qila turib, uni nasliy yoki ekzogen kelib chiqishini bilish lozim. Boladagi murakkab va ko'p nuqsonlarni rivojlanishi kelib chiqishiga ko'ra bir yoki ikki sabablar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Masalan bir nuqsonning kelib chiqishi genetik, boshqasi –ekzogen bo'lsa; xar bir nuqsonning turli ekzogen sabablari bo'lishi va x.k.

Hozirgi vaqtda ko'pgina nasliy sindromlar kuzatilgan, ular eshituv nuqsoni bilan birga bir necha nuqsonlarni(ichki organ kasalliklari bilan birgalikda – endokrinsistema, yurak, buyrak; MNS kasalliklari, suyak muskul tizimining buzilishi, teri qatlami va ko'ruv) birgalikda kelishi xisoblanadi. Genetik kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari organizmning turli sistemalarini bir vaqtda buzilmasligida namayon bo'ladi.

Kelib chiqishiga ko'ra ekzogen kasalliklar murakkab va ko'p nuqsonlilarga olib keluvchi, turli xil postnatal va prenatal kasalliklarni o'tkazishga kiradi, bulardan taniqlilari qizamiq, qizilcha, suvchechak,toksoplazma, sil, sitomegalovirus infeksiya, sifilis. Bolalik davrida o'tkazilgan qizamiq, qizilcha va neyro infeksiyalar ham murakkab nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Ko'rish va eshitishdagi murakkab nuqsonlar yosh o'tishi bilan keyinchalik og'ir diabet va bir qator somatik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Oxirgi yillarda murakkab va ko‘p nuqsonli bolalarni tug‘ilishi, chuqur chala tug‘ilganlarni zamonaviy tibbiyot oqibatida saqlanib qolishi o‘sib borayotgani kuzatilmoqda. Chuqur chala tug‘ilganlik ichki o‘tkazilgan infeksiyalar, ularning ko‘pchiligi aniq bo‘lmagan sabablar bo‘lib qolmoqda. Tabiati bo‘yicha noaniq bo‘lgan bir bolada olti nuqsonni birlashtiruvchi sabablarga hozir ChARGE- assotsiatsiyasini kiritiladi. Bolani rivojlanishida murakkabliklarga olib kelish mumkin bo‘lgan kasalliklarni o‘ziga xosligi va sabablarini bilish ularni tashxis qilishga yordam berishi mumkin.

Paraklinik yoki neyrofiziologik tekshiruv elektroensefalografiya (EEG) hamda bolani potensial metodlar orqali ko‘rish va eshitishini tekshirish. Bolani neyrofiziologik tekshirish ma’lumotlari miya jarohatining chuqurligi hamda tarqalganligini aniqlaydi.

Psixolog boladan olingan klinik va paraklinik tekshirishdan olingan ma’lumotlarni uning oila a’zolaridan suhbat orqali uning rivojlanish tarixi xaqidagi ma’lumotlar bilan to‘ldirib boradi.Tug‘ma murakkab nuqsonlarda psixolog bolaning rivojlanish etaplari, uyda mustaqilligini faolligi, o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalari va muloqot vositalari xaqidagi ma’lumotlarni alohida diqqat bilan eg‘adi. Agar nuqson tug‘ma bo‘lmasdan, ma’lum bir yoshida ortirilgan bo‘lsa, bolaning kasallikkacha va undan keyingi xolatiga aloxida e’tibor qaratiladi.

Ota-ona bilan chegarasiz va shoshilmagan xolda o‘tkazilgan suhbat, oila a’zolarining nuqson darajasini qanday qabul etilishi, bolaning murakkab yoki ko‘p nuqsonlariga munosabati, uni ta’limtarbiyasiga oilaning tabiiy va potensial imkoniyatlarini, oiladagi ichki munosabatlar xarakterini baholashga yordam beradi.

Murakkab nuqsonli bolalarni rivojlanishini psixologo-pedagogik tekshirish anchagina qiyindir. U albatta kompleks bo‘lishi va albatta o‘z ichiga sensor o‘ziga xos xususiyatlarini, harakat, bilish va bolani muloqotga olib keluvchi shaxsiy jarayonlarini, o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalari va predmetli faoliyatini rivojlanish darajasini o‘rganishni o‘z ichiga olishi lozim. Ko‘p nuqsonli bo‘lgan sharoitda bolani o‘ziga xos xulqini va odatiy uy sharoittida yoki ushbu mavzuga oid video ma’lumotlarni kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Diagnostik markazda tekshirishni o‘tkazish vaqtida

bolani yangi sharoitdagi xulqini uzoq vaqt(bir soatdan kam emas) kuzatish lozim, bunda unga yangi xona hamda notanish odamlarga biroz ko‘nikishga va ozgina o‘zlashtirib olishiga imkoniyat beriladi.

Murakkab nuqsonli va ko‘p nuqsonli bolalarni birlamchi kompleks diagnostik tekshiruvni o‘tkazishning vazifalari tekshiruvgacha bo‘lgan uning jismoniy, somatik va psixik xolatini bilish, mutaxassislarga qo‘shimcha tekshirishga yuborish va unga tayyorgarlik; uni ota-onasi yoki ularni o‘rnini bosuvchilar bilan munosabatini yaxshilash, oilada yoki maxsus korreksion ta’lim-muassasida ta’limtarbiyani taklif etish. Ikkilamchi psixologo-pedagogik tekshiruvda bolani o‘tgan davrdagi o‘qishdagi muvvafaqiyatlari va uning potensial imkoniyatlari haqida muhokama qilish mumkin.

Tajribalarni ko‘rsatishicha ob’ektiv metodlardan foydalanganda ham bir qator xollarda bolani tekshiruvga tayyor emasligi hamda muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar(ayniqsa bu aqli zaif autik bolalarga nisbatan qiyinchilik tug‘diradi) natijasida eshitish va ko‘rishni pasayganlik darajasini aniqlash mushkul. Faqatgina oila bilan yaqin munosabat, uni xulqini e’tibor bilan kuzatish ko‘rish va eshitishdagi nuqsonlarni darajasini ajratishga hamda tibbiy va elektrofiziologik tekshiruvni o‘tkazishga to‘liq tayyorlash mumkin.

Bolani ko‘rish va eshitishini to‘g‘ri baholash uning intellektual rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, kuzatishlarning ko‘rsatishicha boladagi ko‘ruv qoldig‘idan foydalanish imkoniyati qanchalik yuqori bo‘lsa, uning intellektual va emotsional rivojlanish imkoniyatlari shunchalik yuqori bo‘ladi.

Shuning uchun birlamchi tekshiruvda ko‘rishini qaysi yoshdan yomonlasha boshlagani va bu uning xulqini qanchalik o‘zgartirganini aniqlash muhimdir. Ko‘ruv imkoniyatlari qanchalik kech pasaygan bo‘lsa, bolaning ko‘ruv tasavvurlari shunchalik ko‘p bo‘ladi. bola qancha vaqt ko‘rmagani va ko‘z operatsiyasi (ekstraksiya yoki kataraktani olib tashlash, glaukomaga oid operatsiya, g‘ilaylik va boshqalar) qanchalik samarali o‘tganini aniqlash muhimdir. Katarakta operatsiyasidan so‘ng keyingi bolani ko‘ruv qoldig‘ini rivojlanishida muhim bo‘lgan doimo ko‘zoynak taqishga o‘rgata olingani aniqlanadi. Oilaning yashash joyidagi oftalmologi ko‘ruv qoldig‘ini aniqlay olgani, bola ko‘zoynakdan yaxshi tanish sharoitda, aylanishga chiqqanida va

x.k larda foydalanishi kabi ko‘pgina savollarga bolaning ota-onasidan diagnostik tekshiruvning boshidayoq javob olish mumkin.

Ma’lumki jismoniy eshitishi me’yorida aqli zaif bolalar qo‘zg‘atuvchi tovushlarga ko‘pincha aniq bo‘lmagan alarni beradilar, xatto ba’zida do‘mbira ovozi ham ta’sir etmaydi. Aqli zaif bolalarda fonematik eshituv buzilgan bo‘ladi, shuning uchun shuning uchun ko‘r va zaif eshituvchi bolalardagi eshituv nuqsoni aqli zaiflik(aqli zaif bolalardan sub’ektiv hamda ob’ektiv audiogrammani olish ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi) gumonini keltirsa unga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Boladagi yo‘q yoki pasayganini dalillovchi audiogramma bo‘lmasa, unda uni eshituv xolati xaqidagi muxokamani bolani ota-onasi yordamida audiologik tekshiruvga tayyorlaguncha qoldirish kerak.

Murakkab sensor nuqsonli bolalar emotsional va intellektual rivojlanishni saqlanganini baholash- murakkab vazifa xisoblanadi. Birlamchi tibbiy-psixologo-pedagogik tekshirish ko‘rish va eshitish nuqsoni tug‘ma yoki erta ortirilgan bolalarda aqli zaiflikni bor yoki yo‘qligini taxmin qiladi. bunday bolalarni chuqur psixodiagnostik o‘rganish albatta diagnostik ta’limni talab etadi, bu esa mutaxassislarning tavsiyalariga oid ota-ona tomonidan, shuningdek maxsus diagnostik gurux sharoitida ham tashkillashtirilishi mumkin.

Murakkab va ko‘p nuqsonli aqli zaif bolalarni diagnostika qilish juda murakkabdir, shuning uchun ko‘pgina bolalarga xos biosensor nuqsonli pedagogik qarovsiz bolalardan farqlash qiyindir. Faqatgina ta’limiy eksperimental sinovlar bunday bolalarni bajarish jarayonida diagnostik tekshiruvni maxsus diagnostik ta’lim sharoitida olib borilishi ularda aqli zaiflik bor yoki yo‘q degan savolga javob berishi mumkin.

Bunday murakkab bolani tekshirish jarayonida vaqtni chegaralab bo‘lmaydi. Psixolog barcha kuchini bolaning ota-onasida ishonchini xosil qildirishi, bolani yangi sharoitga ko‘nika olishiga vaqt berishi lozim.

Har bir maktabgacha yoshdagi bola uchun uni yangi sharoit ya’ni tekshiruv o‘tkazilayotgan joyga, uni o‘tkazayotgan odamlarga moslashishdagi qiyinchiliklarni hisobga olish lozim. Ayniqsa bu chuqur ko‘z va eshitish nuqsoni bo‘lganlarga tegishli. Bunday bola uyidan

umuman kam chiqadi, yoki faqatgina u davolanayotgan yoki tekshirilayotgan muassasaga tashrifdagina ko‘cha chiqishlari bog‘liq. Bunday bola uchun xar bir uyidan chiqishi unga davolash tadbirlari bilangina bog‘liq bo‘lib unda yomon hislarni kutish bilan bog‘liq. Yangi odatiy bo‘lmagan sharoit va notanish hidlar ham ko‘rishida va eshitishida chuqur nuqsonli bolalarni xattoki jarohatlashi mumkin. Buni hammasini tekshiruvni tashkillashtirishda, hamda natijalarini baholashda hisobga olish lozim.

Berilayotgan vazifalar qisqa, tushunarli hamda bolani qiziqtiradigan bo‘lishi kerak. Eksperimentator bolani vazifalarni bajarishdan tashqari uning mustaqil faoliyatining o‘ziga xos xulq xarakteriga katta e’tibor qaratadi.

Ko‘rish va eshitishida chuqur nuqsoni bor, lekin intellektual nuqsoni bo‘lmagan bolalar tekshiruv vaqtida o‘zlarini bezovta tutadilar, ular xattoki ularga yangi bo‘lgan sharoitdan, notanish odamlardan qo‘rquvdalar, ota-onasidan bir qadam ham siljimaydilar, agar yonlarida bo‘lmay qolsalar o‘ziga og‘ir olib a ko‘rsatadilar. Biroq bunday bolalarni o‘yinchoqlar bilan qiziqtirish, ular bilan muloqotga kirishish, stolga o‘tkazib vazifalar berish birmuncha yengil.

Bisensor nuqsoni yaqqol ifodalangan aqli zaif bolalar o‘zini boshqacharoq tutadi. Ba’zilari ko‘rkmasdan xonaga kirib keladi va ota-ona va notanish kattalarga ahamiyat bermasdan u yoqdan bu yoqga bezovta bo‘lib yura boshlaydi. Ular shkaflar eshikchalarini ochadi, e’tiborini xech birida to‘xtatmasdan stoldagi predmetlarni birma-bir ko‘rib chiqadi. Bir qator xollarda psixolog bolani onsonlik bilan ota-onasidan ajratib qo‘lidan ushab boshqa xonaga olib o‘tadi,- bola onasi yoki boshqa yaqin qarindoshlari yonida yo‘qligidan bezovta bo‘lmaydi. Sensor nuqsoni yaqqol ifodalangan boshqa aqli zaif bolalar onasidan bir qadam ham siljimaydi, imkon tug‘ilishi bilan uning tizasiga o‘tirib olib boshqa kattalarning qo‘lini o‘zidan itarishadi. Lekin agar psixolog bolani ehtiyotkorlik bilan qo‘liga olsa – bu oradagi farqni sezilarsiz qiladi hamda o‘zini tinch tutishiga yordam beradi.

Ko‘rishida chuqur nuqsonli hamda qo‘shimcha nuqsonlarga ega bolalarda stereotip xarakterdagi harakatlar deyarli ko‘p kuzatiladi:

turgan yoki o‘tirgan xolda butun jismini u yoddan bu yoqga tebratishi, ko‘zini oldida qo‘lini paxsa qilishi, sakrab turishi, tishlarini g‘irchilatishi yoki tili bilan cho‘lpillatishi. Yanada og‘ir xollarda o‘ziga nisbatan agressiyaning namoyon bo‘lishi kuzatiladi-bolalar qo‘llarini tishlaydilar yoki timdalaydilar, ko‘zni kuch bilan bosadilar, predmetlar bilan boshqa uradilar va h.q. Bu kabi stereotiplarni borligi xar doim ham chuqur sensor nuqsoni ifodalangan bolalarda aqliy rivojlanishida orqada qolish haqida dalolat bermaydi, aksincha nevrotik ko‘rsatkichlarini namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Ko‘rkar bolalar hamda ko‘rishi va eshitishida nuqsonlari yaqqol ifodalangan bolalarda aqliy rivojlanishini tashxis qilishda predmetli harakatlarni egallash darajasini tekshirish katta ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun bolani tekshiruv vaqtida qanday kiyinishi va echinishi, piyoladan choy ichishi va ovqatlanishi, tualetga borishni qanday so‘rashini kuzatish etarlicha bo‘ladi. Diagnostik tekshiruv vaqtida unga bir qator maishiy predmetlarni taklif qilish mumkin. Bu piyola, taroq, likopcha, qoshiq, bolalar oyoq qiyimi, bolalar bosh qalpoqchasi, atirni idishi, qalam, bolta, oynacha, munchoqlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Oddatda, 3 yoshdan katta bilish imkoniyatlari saqlangan ko‘rkar bolalar qo‘liga ushbu predmetlarni to‘g‘ri olib, ularga mos harakatlarni ko‘rsatadilar (taroqni boshlariga olib keladilar, qoshiqni lablariga olib keladilar, bo‘yinlariga munchoq taqadilar, boltacha bilan stolni uradilar, atir idishini xidlaydilar va xatto uni ochishga urinadilar, ko‘zgu bilan devorga shayton tushiradilar va h.k.). Kattaroq yoshdagi bolalarda ushbu predmetlar bilan aniq harakatlari ko‘pincha tabiiy ta’svirlovchi jestlar bilan almashtiriladi, piyolani-“ichish” jesti bilan ko‘rsatadilar va h.k.

Aqliy rivojlanishida chuqur orqada qolayotgan bolalar ulardan farqli ravishda predmetli harakatlarni past darajada egallaganlar. Ular maishiy predmetlarni noto‘g‘ri ularga xos bo‘lmagan harakatlar bilan ifodalaydilar(qoshiq bilan ko‘zlarini bosadilar, u bilan stolni taqqillatadilar yoki ko‘zlarini oldida likilatadilar), yoki aniq predmetli harakatlarni oxirgi darajagacha etkazadilar(qoshiqni og‘izlariga soladilar va yalaydilar, piyolani lablariga yaqin olib kelib labini chetlari bilan qisadilar va boshlarini orqaga engashtiradilar).

Ular xech qachon predmetlarni ishlatilishini shartli tasviriy jestlar orqali ko‘rsata olmaydilar.

Murakkab nuqsonli bolalarni psixik rivojlanishini tashxis qilishda ko‘pgina odatiy psixologo-pedagogik diagnostik metodlarni qo‘llash mumkin. Bu avvalo predmetli didaktik o‘yinchoqlar(turli xajmdagi stakanlar va kubiklar, matreshka, shakli quticha, shakllarni klassifikatsiyasi va predmetlarni kattaligi bo‘yicha xar xil vazifalar). Murakkab nuqsonli bolalarda bilish imkoniyatlarini tashxis qilishda xajmli geometrik shakllarni klassifikatsiya qilish vazifalaridan ko‘p foydalanish kuzatiladi. Odatda bu vazifalar ikki turdagi shakllar xajmi(shar va kub) bilan ifodalanadi. Ushbu shakllarni navbatma-navbat bolani qo‘llariga beriladi, uni u diqqat bilan paypastlab kattalar yordamida turli qutichalarga taxlaydi. Birgalikda bir necha bor bajarib ko‘rilgandan so‘ng bola o‘zi mustaqil shakllarni jrylay boshlaydi. So‘ngra unga ushbu shakllarni xar xil ranglari beriladi, kattalar to‘g‘ri bajargan vazifalarni rag‘batlantiradi(boshini silaydi, qo‘llari bilan qarsak chaladi) hamda xatolarini inkor etish jesti bilan ko‘rsatadi. Keyin vazifalar murakkablashib boradi – bolaga turli xajmda, materialda va x.k. shar va kublarni taxlash taklif etiladi. Predmetlarni klassifikatsiyalash bo‘yicha vazifalarni yangi shakllarni kiritish orqali(silindr, konus va parallelepiped) kengaytirish mumkin, rangi, shakli va materiali bo‘yicha qutichalarga taxlash orqali vazifa variantlarini murakkablashtirish mumkin.

Bolaning harakat, eshitish, ko‘rish jarayonlarini saqlanganligiga bog‘liq ravishda uning intellektual va nutqiy imkoniyatlariga ko‘ra unga umumiy psixodiagnostikada ko‘p ishlatiladigan vazifalardan taklif etish mumkin. Lekin bunda murakkab nuqsonli bolalarning katta qiyinchiliklarini (ko‘pincha nutqiy rivojlanishdan orqada qolishini) xisobga olish lozim vazifani bajarishda yo‘llanmani tushunishi va qabul etishi diagnostik vazifalarni tanlashda xisobga olish lozim.

Murakkab va ko‘p nuqsonli rivojlanishda predmetli faoliyatini motivatsiyasini etarlicha emasligi sababli taklif etilgan diagnostik vazifalarda boshqa qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun bola uchun qiziqarli va yorqin predmet va faoliyat turlari murakkab nuqsonli bolalarning psixik rivojlanishini o‘ziga xos vazifalarni tuzishi lozim. Ko‘rish va eshitishida nuqsonlari yaqqol ifodalangan,

lekin ko‘ruv qoldig‘iga borlari turli rangli va yorqin vazifalarni ayniqsa bajonidil bajaradilar. Bunday bolalarni tashxis qilishda turli yorug‘lik predmetlardan foydalanish mumkin. Odatda stol lampasi yoki fonarik yordamida bola bilan birgalikda yoki mustaqil faoliyatni faoliyatini uning intellektual imkoniyatlariga ko‘ra tashkillashtirish mumkin.

Eshitishi saqlangan bolalarda xar xil ovozli o‘yinchoq va musiqa asboblaridan foydalanish mumkin.

Karko‘r bolalar ko‘pincha turli xid, predmetlarni vibratsion harakatlarini , ventilyator va boshqa shamol chiqaruvchi moslamalarni ijobiy qabul etadilar.

Deyarli barcha bolalar aylanish, yugurish, sakrash va x.k harakat mashqlaridan xursand bo‘ladilar.

Psixologning vazifasi- bolani imkoniyatlariga mos vazifalarni tanlash, ular orqali uning sensor, harakatli va uni faoliyati uchun qiziqarli bo‘lgan bilish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek ushbu faoliyatga o‘zi ham kirishib bola bilan munosabatga kirishib muloqot o‘rnatishdan iborat.

Nazorat savollari

1. Rivojlanishida murakkab nuqsonli bolalar toifasiga qanday bolalar kiritiladi?
2. Zamonaviy diagnostikada murakkab va ko‘p nuqsonli bolalarni qanday o‘rganishni talab etadi?
3. Psixik rivojlanishida nuqsonlari ifodalangan bolalarni birlashgan kompleks tekshirish dasturi nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. Murakkab nuqsonli bolalarni psixik rivojlanishini tashxis qilishda qanday metodlardan foydalaniladi?
5. Murakkab nuqsonli bolalarni bolani ko‘rish va eshitishini to‘g‘ri baholashning ahamiyati nimada?
6. Psixolog va defektolog tekshiruvni qay tarzda o‘tkazadi?
7. Murakkab nuqsonli bolalarni rivojlanishini psixologo-pedagogik tekshirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar nimalardan iborat?
8. Diagnostik tekshiruv vaqtida qanday vositalardan foydalanish mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O‘zbekiston», 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T.: «Sharq” 1997 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining « Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni. T.: 2008 yil.
4. Ayupova M.Yu. Logopediya «O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati» T.: 2007 y.
5. Bogdanova T.G. Surdopsixologiya. M.: 2002g.
6. Muminova L.R., Chicherina Ya.E., Nurkeldieva D.A. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey pervыx trex let jizni. T.: RSSAD, 2007g.
7. Belopolskaya N. L. Nedostayuщie predmetы: Psixodiagnosticheskaya metodika (Modifikatsiya metodiki G. I. Rossolimo): Rukovodstvo. Izd. 2-e, stereotip. 2008. (Psixologicheskiy instrumentariy)
8. Belopolskaya N.L. Isklyuchenie predmetov (Chetvertыy lishniy): Modifitsirovannaya psixodiagnosticheskaya metodika: Rukovodstvo po ispolzovaniyu. Izd. 3-e, stereotip. —M., 2009.
9. Diagnostika psixicheskogo razvitiya v rannem detstve. Avtorы-sostaviteli: R.K.Aytjanova, R.A.Sulaymenova, A.K.Ersarina i dr. Almatы, 2000g.
10. John W. Jacobson, James A. Mulick, Johannes Rojahn. Intellectual and Developmental Disabilities. New York, Springer Science+Business Media, LLC, 2007.
11. Mo‘minova L.R.,Sh.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiY. T.: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2013 yil.
12. Mo‘minova L.R., Nurkeldieva D. Ilk yordam xizmati. T, RBIMM, 2018 y.
13. Mamedov K.M., Shoumarov G‘.B. “Aqli zaif bolalar psixologiyasi”. – T.: 1994 y.
14. Petrova G., Belyakova I. Psixologiya umstvenno otstalыx shkolnika. “Vlados”, M.: 2004 y.

15. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaksiey I.Yu.Levchenko i S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005g.

16. Psixologo-mediko-pedagogicheskoe obsledovanie detey doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta. Avtorы-sostaviteli: R.K.Aytjanova, R.A.Sulaymenova, A.K.Ersarina i dr. Almatы, 2000g.

17. Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.

18. RaxmanovaV.S., Nurkeldiyeva D.A. Alohida yordamga muhtoj bolalar reabilitatsiyasi. T.: "Navruz", 2014y.

19. Nurkeldieva D.A., Chicherina Ya.E. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi, 2007 yil.

20. Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.

21. Chicherina Ya.E., Isaeva D., Bondareva E. Rannyaya diagnostika i vmeshatelstvo: Posobie dlya spetsialistov i roditeley, RSSAD, T.,2010.

GLOSSARIY

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Izoh
Abilitatsiya	абилитация	habilitation	Bola yoki katta kishida rivojlanishdan keskin ravishda orqada qolgan yoki mavjud bo'lmagan ruhiy va jismoniy funksiyalarni, ko'nikmalarni rivojlantirish hamda shakllantirish
Psixodiagnostika	Психо-диагностика	psychodiagnostics	Shaxs va psixika rivojlanishining potensial xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan muolaja.
Individual ta'lim rejasi	Индивидуалный план образования	individual educational plan	individual ta'lim dasturi bolaning imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislar komandasi bilan ishlab chiqiladi (umumta'lim maktab pedagoglari, maxsus, ijtimoiy ishchi, psixolog, ota-onalar) ITRning asosiy maqsadi bola rivojlanishi va ta'lim olishi uchun optimal sharoitlarni yaratishdir. ITRning mazmuni boshqa bolalar o'tayotgan dasturdan ozgina farq qilishi mumkin, lekin boshqa bolalar o'rganayotgan predmetlar asosida ishlab chiqiladi. ITR aniq maqsad va vazifalar, muddati, qo'llaniladigan usullar va baholash tizimiga ega. Bola umumta'lim standartlari asosida dasturlarni o'zlashtira olmagan holatda unga ma'lumotnoma yoki maxsus shakldagi guvohnoma beriladi.
Korreksiya	Коррекция	correction	bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni yumshatish, bartaraf etish
Anamnez	Анамнез	anamnesis	Shaxsni rivojlanishi va kasalliklari hamda tibbiy ko'rikdan o'tganligi haqidagi ma'lumotlar yig'indisi nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; muayyan organizmlarning tarqalganligi. Irsiy belgilarni o'rganish va aniqlash inson genetikasi, jonivorlar hamda o'simliklar genetikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda genofondni saqlash muammosi dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan.
Reabilitatsiya	реабилитация	rehavilitation	bemorlik, baxtsiz hodisa yoki boshqa sabablar oqibatida yo'qotilgan ruhiy yoki jismoniy funksiyalar, ko'nikmalarni tiklash..

Ilk aralashuv	Ранее вмешательство	early intervention	Nogironlik bilan bola tug'ilganidan so'ng bola va uning oilasiga darhol yoki vaqtli kompleks, ya'ni psixologik, pedagogik, ijtimoiy yordam ko'rsatish. Turli mutaxassislar komandasi tomonidan bolaga rivojlanishdan orqada qolganida yoki boshqa muammolari bo'lganida ularni bartaraf etish yoki eng kam darajaga tushirish uchun yordam ko'rsatiladi (pedagog, maxsus pedagog, logoped, ijtimoiy ishchi, psixolog, jismoniy terapevt, ota-ona va boshqalar)..
Yosh guruhi	Младшая группа	Primary group	Yosh belgisiga ko'ra birlashtiriladigan kishilarning biron bir shartli katta guruhi. Yoshni davrlashtirishga muvofiq MTMda bolalarning yoshiga ko'ra ana'naviy ajratiladigan guruhlar: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.
Inklyuziv ta'lim	Инклюзивное образование	Inclusive education	Bolalarni bir biridan ajratuvchi to'siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar, umumta'lim jarayoniga to'liq uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati.
Noverbal muloqot	Невербальное общение	noverbal muloqot	tana holati, ishoralar, yuz ifodasi, ovozi ohangi, ko'z aloqasi, munosabatlardagi masofa, atrof omillari va sharoitlari, aniqlik, ishonchlilik kabilarni o'z ichiga oluvchi nutqsiz muloqot. Noverbal muloqot sezgi, emotsiya va munosabatlarni etkazadi. U verbal muloqotdan ko'ra ko'proq natija berishi mumkin va ko'pincha mijoz nimalarni his qilayotganligini yaxshiroq ko'rsatib beradi.
Maktabgacha bolalik	Детский дошкольный период	Pre-school period	Bolaning tug'ilganidan to maktabga borguncha bo'lgan rivojlanish davri; bola organizmining jadal voyaga etishi va ruhiyatining shakllanishi bilan belgilanadi.

Maktabgacha yosh	Дошкольный возраст	Preschool age	Bolaning ruhiy rivojlanish bosqichi. Bola rivojlanishining hozirgi zamon milliy davrlashtirilishi bo'yicha 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri.
Maktabgacha yoshdagi bola kompe-tentligi	Компетенция ребенка дошко-льного возра-ста	Competency of a preschool age child	Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining asosiy xarakteristikasi. Kommunikativ, ijtimoiy, intellektual kompetentlikni hamda jismoniy rivojlanish borasidagi kompetentlikni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetentlik bolaning o'z istaklari, niyatlarini nutqiy va nutqiy bo'lmagan (imo-ishora, mimik va pantomimik) vositalar yordamida erkin ifoda etishida namoyon bo'ladi.
Maktabgacha ta'lim muassasalari	Дошколь-ные образо-вательные учреждения	Preschool educational establishments	Turli yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan ta'lim muassasasi. Ularda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyasi, ta'limi, parvarishi va sog'lomlashtirilishi ta'minlanadi. Yo'nalishiga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasasi quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy tipdagi MTM, tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari mavjud bolalar uchun mo'ljallangan maxsus MTMlar va surunkali kasalliklar bilan og'rigan bolalar uchun sanatoriya tipdagi MTMlar.
Kompensatsiya	Компен-сация	Compensation	ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'rnini to'ldirish.
Infantilizm	Инфантилизм	infantilism	Kattalarda bolalar va o'smirlarga xos bo'lgan psixik xususiyatlar va xulq-atvorning saqlanib qolishi
Intellekt	Интеллект	intelligence intelligence	insonning umuman bilish faoliyati; fikrlash qobilyati, tafakkuri, aqli.
Nutq	речь	speech	Insonlarning aloqa vositasi
Metodika	Методика	technique	biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish yo'llari, metodlari majmuasi.
Fonematik idrok	Фонематиче-ское восприятие	Phonemic perception	Nutq tovushlarini idrok etish
Impressiv nutq	Имрессивная речь	Higher education	Ichki nutq, nutqni tushunish

Tarbiyala-nuvchilar	Воспитанники	Pupil	Maktabgacha tarbiya muassasalariga boradigan bolalar; mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan maktab internatlarda tarbiyalanuvchi bolalar va o'smirlar maktabdan tashqari muassasalarda shug'ullanadigan bolalar.
Tarbiyachi	Воспитатель	Educator, teacher	Tarbiyani amalga oshiradigan , o'zga kishi shaxsining hayot tarzi va rivojlanishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan shaxs.
Ekspressiv nutq	Экспрессивная речь	Expressive speech	Tashki nutq, faol nutq
Ta'lim sifati	Качество образования	Quality of education	Ta'lim jarayoni va uning natijalarini tavsiflaydigan kategoriya, ta'lim jarayoni qanday bo'lishi kerak, qanday maqsadlarga xizmat qilishi kerakligi to'g'risida jamiyatda tarqalgan tasavvurlarga qanchalik mosligini belgilaydi. Ta'lim sifati ta'lim oluvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari, atrof-olamga va bir birlariga nisbatan qadriy-emotsional munosabatlar normalari bilan o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimida ifodalanadi.
Farmon	Указ	Decree	Bir qator mamlakatlarda davlat boshlig'ining normativ akti. O'zbekistonda Prezident farmoni.

ILOVA

Ilk, maktabgacha va kichik maktabyoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish

Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish Psixologik-pedagogik tekshirish tamoyillari, metodlari va vazifalari

Bolani psixologik-pedagogik tekshirish psixologik-tibbiy-pedagogik tekshirishning bir tomoni bo'lib, uning rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga imkon beradi.

Go'dak va ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maqsadi: bolaning psixik rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funksiyalarini shakllanish xususiyatlarini o'rganish, psixik rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir.

Psixologo-pedagogik tekshirish vazifalariga quyidagilar kiradi:

– bolaning hissiy va kommunikativ doirasini rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;

– sensor va harakat funksiyalarini rivojlanish darajalarini aniqlash va tavsiflash;

– manipulyativ, predmetli va o'yin faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlash tavsiflash;

– aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini aniqlash;

– ijtimoiy-maishiy faoliyatni rivojlanish darajasini aniqlash;

– bola va ota-ona munosabatlarini yoshiga moslik darajasini aniqlash;

– bolaning psixik rivojlanish saviyasini aniqlash, potensial imkoniyatlari asosida korreksion ishlarni belgilash;

– ota-onalar va mutaxassislar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

– bolaning o'zi va ota-onasi bilan suhbat;

– anamnestik va katamnestik o‘rganish;
– kuzatish;
– eksperiment.

Psixologik tekshirish (o‘rganish) tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

– bola psixikasini **kompleks** o‘rganish tamoyili, ya’ni turli mutaxassislar tomonidan o‘rganish. Bu tamoyil bolani barcha mutaxassislarning (vrach, defektolog, psixolog, pedagog) tekshirishidan olingan ma’lumotlarni e’tiborga olishni nazarda tutadi.

– **analitiko-sintetik** o‘rganish tamoyili, ya’ni bolaning faqatgina bilish jarayonlarinigina emas, balki hissiy-irodaviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bolalarning aqliy qobiliyatlarning shakllanishiga ta’sir etadigan jismoniy rivojlanishi ham e’tiborga olinadi.

– **sistemali va to‘liq o‘rganish** tamoyili bolaning psixik rivojlanishidagi alohida buzilishlarning namoyon bo‘lishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va bir-biridan kelib chiqishini, ularning ierarxiyasi, birlamchi va ular asosida kelib chiqadigan ikkilamchi buzilishlarning o‘zaro munosabatini nazarda tutadi.

– bolaning psixikasini o‘rganishdagi yana bir tamoyil **dinamik** o‘rganish tamoyilidir.. Bu tamoyil bo‘yicha, bolani o‘rganishda, tekshirish vaqtida u biladigan va bajara oladiganlarni emas, balki ularning ta’limdagi imkoniyatlarini ham e’tiborga olish lozimdir. Dinamik tamoyil asosida L.S.Vigotskiyning bolalarni «yaqin rivojlanish zonasini», ta’limda ularning potensial imkoniyatlarini o‘rganish haqidagi fikrlari yotadi.

– bola psixikasini **ob’ektiv** o‘rganish tamoyili, ya’ni tekshirishda bola uchun tabiiy holatni yuzaga keltirish;

– tekshirish sharoitini va metodlarini tanlashda bolaning **yosh xususiyatlarini e’tiborga olish** tamoyili;

– bolaning psixikasini, ayniqsa bilish jarayonlarini o‘rganishda uning faoliyatini, vazifalarni bajarish uslubini e’tiborga olish tamoyili.

Bolaning onasi bilan suhbat o‘tkazayotganda asosan quyidagi savollarga javob olish o‘rganilayotgan bola haqida mutaxassisga

zarur bo‘lgan ma’lumotlar beradi:

– homiladorlikning kechishi, homiladorlik davrida onaning boshidan kechirgan (agar bo‘lsa) og‘ir yuqumli kasalliklar, og‘ir kechgan toksikozlar, intoksikatsiyalar, mexanik jarohatlar, zararli ishlab chiqarishda mehnat faoliyati va hokazolar;

– tug‘ruq jarayoni qanday kechgani, tug‘ruq vaqtidagi turli patologik halatlarning mavjudligi;

– chaqaloqlik davrida bolaning rivojlanishidagi og‘ishishlar ((agar mavjud bo‘lsa) , ota-onaning shikoyati va xavotirlik sabablari;

– go‘dakning boshini ushlashi, emaklashi, o‘yinchoqlarni bilishi, ularni o‘ynashi, yaqinlarini tanishi, tik tura olishi, qachondan boshlab yurishi, birinchi so‘zlari, jumlali nutqining rivojlanishi va boshqalar.

Ona go‘dak bilan har kuni aloqada bo‘lib, bolaning rivojlanishi haqida katta materialga ega bo‘ladi va bu materialdan mutaxassislar tekshirish natijalarini tahlil qilishda foydalanishlari mumkin. Onaga berilayotgan savollar bolaning rivojlanishini baholashga emas, balki bola hayotidagi aniq dalillarni olishga qaratilishi lozim. Ona bilan suhbat o‘tkazish uning bolaga bo‘lgan munosabati, onaning bola bilan aloqasi haqida ma’lumot olishga imkon beradi.

Bolani kuzatish bevosita maslahat qabulida, tekshirish vaqtida amalga oshiriladi. Kuzatish vaqtida psixolog bolaning psixik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini xarakterlaydigan ba’zi bir tomonlarni, masalan, yangi sharoitga, notanish odamlarga bo‘lgan reaksiyasini, aloqaga kirishish xususiyatlarini, aloqa qilishda verbal vositalardan foydalanishi, atrofga bo‘lgan qiziqishining namoyon bo‘lishi, onaning bolaga bo‘lgan munosabati; hissiy o‘zaro ta’sir xarakteri, xulqiy reaksiyalar: gipo va giperfaollik, qo‘zg‘aluvchanlikning kuchliligi, tez charchash va hokazolarni e’tiborga oladi.

Bolaning psixik rivojlanishining xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, psixikadagi buzilishlarning darajasi va o‘ziga xos tomonlarini aniqlash uchun eksperimental tadqiqot metodlarini qo‘llash zarur. Bu metod ko‘p hollarda ta’limiy eksperiment ko‘rinishida o‘tkaziladi. Ta’limiy eksperiment metodi bolaning o‘rgatilishini aniqlash maqsadida metodning tuzilishiga turli yordam choralarini kiritilishini nazarda tutadi. Tekshirish jarayonida quyidagi yordam tùrlaridan foydalaniladi: harakatni taqlid asosida

bajarish, harakatni taqlid asosida imo-ishoradan foydalanib, nutqiy ko‘rsatma yordamida bajarish. O‘rganish, ya’ni bolaning noadekvat harakatlardan adekvat harakatlarga o‘tishi uning saqlangan potensial (ichki) imkoniyatlari mavjudligidan darak beradi.

Psixologik-pedagogik tekshirishni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar

Psixologik-pedagogik va logopedik tekshirishni tibbiy tekshirishdan so‘ng o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki psixik rivojlanishdagi buzilishlarni tashxis qilishda anamnestik ma’lumotlar, statik, nevrologik va psixik holatlar, ko‘rish, eshitish funksiyalarining saqlanganligi, shuningdek harakat buzilishlarining xarakteri va darajasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday ma’lumotlarni tahlil qilish psixolog va logopedga tekshirishda kerakli yo‘nalishni, tekshirish metodikalarini to‘g‘ri tanlashga imkon beradi.

Tekshirish metodi va metodikalarini tanlash bolaning yoshi, uning motor, sensor, aqliy imkoniyatlari, nutqning mavjudligi yoki yo‘qligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish bir qator xususiyatlarga ega bo‘ladi. Chunki bu yoshdagi bolalar eksperimentator bilan doimo ham oson aloqaga kirishmaydilar, topshiriqlarni bajarishga intilmaydilar. Bular 8-9 oylikdan 2 yoshgacha bolalarda kuzatiladigan notanish odamlar, notanish vaziyatga nisbatan qo‘rquv, uyalishga, tortinishga; ikkinchidan, o‘ziga xos qo‘rquvlar (oq xalatdan, bolaga tegishdan, o‘rnini o‘zgartirishdan va hokazolardan), depressiv kayfiyat, o‘jarlik, negativizm bilan bog‘liqdir. Bola o‘jarlik qilganda, charchaganda, toliqqanda tekshirishni to‘xtatish zarur. Dastlabki qabulda bolaga uning yoshidan kelib chiqib 3-4 topshiriq taklif etiladi.

Tekshirishni ona yoki ota bilan suhbatdan boshlash lozim. Suhbat vaqtida bolani ota-onasidan ajratmasdan, unga yangi vaziyatga, notanish odamlarga ko‘nikishga vaqt beriladi. 1 yoshdagi bolani, shuningdek, harakatlarida og‘ir nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishga ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlar, erkalatib gapirish kabi ta’sirlar yordamida jalb etiladi. Yoshi kattaroq bolalar esa turli topshiriqlarning syujetini bitta umumiy o‘yinga o‘tkazish orqali tekshirish vaziyatiga kiritiladi.

Tekshirishni bolaning mustaqil faoliyatini kuzatib, uning faolligi, o‘yin, predmetli harakatlarining turlililiga e’tibor berishdan boshlash maqsadga muvofiq. Agarda bola o‘yinchoqlarni o‘ynamasa, katta odam o‘yinchoqlarni bolaga taklif etib, ular bilan harakat usullarini ko‘rsatadi. Tekshirishni o‘tkazish uchun bir qancha predmetlar va o‘yinchoqlar to‘plami zarur bo‘ladi.

Eksperimental tekshirish bola uchun qiziqarli bo‘lgan sodda, oson topshiriqlar berishdan boshlanadi. So‘ngra bolaga bir qator ancha murakkab bo‘lgan topshiriqlar beriladi. Ammo, bola toliqishining dastlabki ko‘rinishidayoq uning diqqatini ancha oson bo‘lgan topshiriqqa yo‘naltirish yoki dam berish tavsiya etiladi. Bilish faoliyatini tadqiq etishda topshiriqni bajarish usullarini ko‘rsatish 3 martadan oshmasligi lozim. Kattalarning nutqi bola harakatlarini tashkil etadi, yo‘naltiradi, rag‘batlantiradi, natijalarini baholaydi. Tekshirish vaqtida doimo bolani hissiy qo‘llab-quvvatlash, nutq yordamida, imo-ishora, mimika orqali ijobiy baholab borish zarur.

Bola umuman harakatsiz bo‘lganda, nutqi shakllanmagan hollarda u faqat kattalarning o‘yin harakatlarini kuzatadi. Eksperimentator bolani kattaning harakatlariga bo‘lgan diqqatini, qiziqishining faolligi va turg‘unligini, hodisaga bo‘lgan hissiy munosabatini, espressiv-mimik reaksiyasini e’tiborga oladi.

Eksperimental sinov (tajriba) larni tanlashda tekshirish metodikalari bolalarning yoshiga mos bo‘lishi; u yoki bu funksiyani o‘rganish birgina emas, balki yo‘nalishi bo‘yicha yaqin bo‘lgan bir necha metodikalar qo‘llanilishi zarur.

1 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirish
Eksperimental-psixologik tekshirish metodikalari

№	Metodikalar	Oylar											
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	Idrok etilayotgan predmetlarga nigohini qaratishi va predmetning harakati bilan nigohining mutanosibligi	X	X	X	X								

	Predmetlarning harakati to'xtaganda nigoh bilan kuzatishni to'xtatish		X	X	X								
	Ko'rinmayotgan traektoriyani nigoh bilan kuzatish			X	X	X	X						
	Yashirilgan predmetlarni izlash						X	X	X	X			
	Tovushga quloq solish	X	X	X	X								
	Rasmni ko'zdan kechirish			X	X								
	O'yinchoqqa bolaning ko'zi tushganda qo'l harakatlarining faollashuvi			X	X	X	X	X					
	Iljayish		X	X	X	X	X						
	Formal aloqaga munosabat						X	X	X	X	X	X	X
	Kattalar bilan							X	X	X	X	X	X
	Tovushli javoblar		X	X	X	X	X	X	X				
	Belgi so'zlarni tushunish									X	X	X	X
	Predmetlar bilan manipulyasiya qilish								X	X	X	X	X

Ko'rish reaksiyalarini tekshirish

1. Idrok etilayotgan predmetlarga nigohini qaratishi va predmetning harakati bilan nigohining mutanosibligi

Tekshirish materiallari: 7-10 sm bo'lgan yorqin bo'yalgan o'yinchoq.

Tekshirish metodikasi: navbatma-navbat orqasi, qorni bilan yotish holatida bo'lgan bola ko'z oldida 30 sm masofada o'yinchoq qo'yiladi. Boladan 5-10 sekund davomida o'yinchoqqa nigohini qaratishga erishiladi. So'ngra sekin 50 sm masofada o'yinchoqni gorizontal, vertikal va aylana yo'nalishlarida o'rni o'zgartiriladi.

Bolaning reaksiyasi:

1 oylikda - qisqa muddatga nigohini qaratish (3-5 sek) va harakatdagi o'yinchoqni 5-10sm ga chet tomonga surilganda ko'zni tepaga-pastga qaratib kuzatish

2 oylik – o'yinchoqqa ancha uzoq nigohini qaratish (10-15 sek) va 10-15 sm masofadagi gorizontal yo'nalishda harakatlanayotgan o'yinchoqni ohista nigoh bilan kuzatish

3 oylik – harakatlanayotgan o'yinchoqning gorizontal, vertikal va aylana yo'nalishdagi barcha traektoriyasini ko'zning ohista harakati va boshni burish yordamida kuzatish

Predmetning harakati to'xtatilganda nigoh bilan kuzatishni ham to'xtatish

Tekshirish materiali: 7-10 sm kattalikdagi yorqin rangdagi o'yinchoq.

Tekshirish metodikasi: bola orqasi bilan yotadi. O'yinchoqni gorizontal harakatini nigoh bilan kuzatish reaksiyasi yuzaga keltiriladi. So'ngra bolaning nigohi qaratilgan o'yinchoqning harakati to'xtatiladi.

Bolaning reaksiyasi:

2 oylikda – o'yinchoqning harakati to'xtatilganda bolaning ko'z soqqalarini predmetning bosib o'tgan traektoriyasini sakragansimon nigoh bilan kuzatish va yana to'xtalgan ob'ektga qaytishi kuzatiladi.

3 oylikda – predmet to'xtaganda kuzatish ham to'xtatiladi.

1. Ko'rinmaydigan traektoriyani kuzatish

Tekshirish materiallari: 5-7 sm kattalikdagi yorqin rangdagi o'yinchoq, 7 sm kenglikdagi ekran.

Tekshirish materiali: orqasi bilan yotgan bolaning ko'zi oldida o'yinchoqning o'rni o'zgartiriladi va unga bolaning nigohi qaratiladi. Harakatlanayotgan o'yinchoq bola ko'z o'ngidan 50 sm uzoqlikda bo'lgan ekran ortiga o'tkaziladi va o'z harakatini to'xtatmay, uning traektoriyasini saqlab bir muncha vaqtdan so'ng ekranning boshqa tomonidan ko'rinadi.

Bolaning reaksiyasi:

3-5 oylik bola o'yinchoq ekran ortiga o'tib ko'rinmay qolganidan so'ng ham uning traektoriyasini nigohi bilan kuzatishdan to'xtamaydi va ekran ortidan yana ko'ringan vaqtda (boshqa tomonda) uning nigohi o'sha joyga to'g'ri keldi. Bu reaksiyaga 3 oylik bolada 3-5 marta tajribadan so'ng, 4-5 oylik bolada 1-3 tajribadan so'ng erishish mumkin.

2. Yashirilgan predmetini qidirish.

Tekshirish materiali: 10 sm gacha bo‘lgan o‘yinchoq, ro‘molcha.

Tekshirish metodikasi: bola maxsus bolalar uchun bo‘lgan stolgacha o‘tqaziladi. Uni o‘yinchoq bilan qiziqtirib bolaning ko‘zi oldida o‘yinchoqni ro‘molcha bilan berkitiladi.

Bolaning reaksiyasi:

6-8 oylik bola birozdan so‘ng yoki tajriba takrorlanganda (5 marta) o‘yinchoqni ro‘molcha tagidan oladi. Kattaroq bo‘lganda esa o‘ylab ham o‘tirmasdan o‘yinchoqni darhol ro‘molcha ostidan oladi.

Eshitish reaksiyalarini tekshirish

1. Tovushga quloq solish

Tekshirish materiali: istalgan melodik tovush(ohang) ta’siri

Tekshirish metodikasi: bola orqasi bilan yotgan holat bo‘lib unga ko‘rsatmasdan ovoz chiqaruvchi shiqildoqni 10-15 sekund davomida shiqillatiladi.

Bolaning reaksiyasi:

1 oylikda – qisqa muddatga (10-15 sek) barcha turdagi faolllik to‘xtatiladi. Bola obrazli aytgandan “qotib qoladi».

2 oylikda – «qotib qolish» reaksiyasidan so‘ng (5-10 sek) bola ko‘zi bilan qidiruv harakatlarini amalga oshira boshlaydi, boshini u va bu tomonga burib ovoz manbaini qidiradi.

3 oylikda – qisqa muddatli chamalash (orientirlash) reaksiyasidan so‘ng bola fazoda ovoz manbaini topadi, boshini ovoz manbasi tomon buradi va nigohi bilan topadi.

Predmetlar bilan harakatlarni tekshirish

1. Rasmlarni ko‘zdan kechirish

Tekshirish materiali: sodda, yorqin ifodalangan predmet rasmi (gul, tipratikan, it va hokazolar). Tekshirish metodikasi: bola chalqanchasiga yotgan holatda unga predmetning rasmi ko‘rsatiladi.

Bolaning reaksiyasi:

3 oylikda – bola tasvirlangan rasmni ko‘zdan kechirib, uni nigohi bilan «ushlab ko‘rgandek» bo‘ladi.

2. Bolaning o‘yinchoqqa ko‘zi tushganda qo‘l harakatlarining faollashuvi. O‘yinchoqni ushlab olish.

Tekshirish materiali: 10 sm gacha kattalikdagi uchta yorqin rangdagi ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlar.

Tekshirish metodikasi: bola orqasi bilan yotgan yoki yarim o‘tirgan holatda bo‘ladi, unga ko‘kragidan 10 sm uzoqlikdagi masofada 20 sekund oralig‘ida o‘yinchoq ko‘rsatiladi.

Bolaning reaksiyasi:

3 oylikda – bolaning qo‘liga o‘yinchoqni tekkizish ko‘rinishidagi qo‘shimcha taktil ta’sirdan so‘ng uning qo‘lidagi faollik kuchayadi: barmoqlarining harakati yuzaga keladi, kaftini qisadi va bo‘shatadi, o‘yinchoqqa qo‘lini cho‘zadi;

4 oylikda – qo‘shimcha ta’sirlarsiz bola qo‘lini o‘yinchoqqa cho‘zadi va uni ushlab oladi;

5 oylikda – bola o‘yinchoqqa qo‘lini cho‘zadi va ikkala qo‘li bilan uni ushlab oladi;

6 oylikda – bir qo‘li bilan o‘yinchoqni ushlab boshqa qo‘liga o‘tkazib, ikkinchi o‘yinchoqni istagan tomonidan changallab oladi;

7 oylikda – ikkala o‘yinchoqni ushlab qolish uchun bola og‘zini, tirsagini yoki bir qo‘lini ishga soladi va qo‘lini bo‘shatib taklif qilingan uchinchi o‘yinchoqni oladi.

3. Predmetlar bilan manipulyasiya (harakat) qilish

Tekshirish materiali: turli kattalikdagi 5-7 ta o‘yinchoqlar, qopqog‘i bo‘lgan quticha, shar, mashina, piramidacha, kubiklar, bog‘ichlari bo‘lgan o‘yinchoq.

Tekshirish metodikasi: bola maxsus stulga o‘tkaziladi, qo‘llari stol ustiga erkin qo‘yiladi. Bolaga **a)** bitta ovoz chiqaradigan o‘yinchoq; **b)** 5 ta o‘yinchoq; **v)** bir necha o‘yinchoq va boshqa ko‘rsatilgan predmetlar beriladi.

Bolaning reaksiyasi:

5-6 oylikda – bola o‘yinchoqni ko‘rib chiqadi, uni silkitib o‘ziga xos ovoz chiqaradi, stolga urib taqillatadi va hokazo. O‘yinchoq bilan harakat qilishga ikkinchi qo‘li qo‘shiladi, paypaslab ko‘rish, bir qo‘lidan ikkinchisiga o‘tkazish reaksiyasi yuzaga keladi.

8 oylikda – bola tanlangan o‘yinchoqlar bilan murakkab ularga xos bo‘lmagan harakatlarni amalga oshiradi, stolda yotgan boshqa

o‘yinchoqlarga qarab galma-galdan ko‘rib chiqadi, so‘ngra bir o‘yinchoqni qo‘yib yangisini oladi, qo‘lidagi o‘yinchoqlar bilan turli harakatlarni bajaradi;

10-12 oylikda – bola turli predmetlar uchun xos bo‘lgan harakatlarni bajaradi: o‘yinchoqlarni qimirlaydigan qismlarini aylantiradi, kutichadan mayda o‘yinchoqlarni oladi va qutichaga soladi, o‘yinchoqni bog‘ichidan ushlab o‘ziga tortadi, qo‘ng‘iroqchani chaladi, sharni dumalatadi, mashinani itaradi, katta teshikka barmog‘ini tiqadi, piramida o‘qiga aylanalarni kirgizadi, kubiklarni bir-birini ustiga tizadi va hokazo.

Hissiy reaksiyalarni tekshirish

- **Iljayish**

Tekshirish metodikasi: bola orqasi bilan yotadi. Katta odam unga engashib kuladi, erkalatib gapiradi.

Boaning reaksiyasi:

1 oylikda – 3-4 marta gapirib erkalatilgandan so‘ng bolada aniq bo‘lmagan iljayish paydo bo‘ladi.

2 oylikda – 2-3 marta gapirilgandan so‘ng kuladi, jonlanadi;

3 oylikda – jonlanish kompleksi paydo bo‘ladi: bola iljayadi, qisqa gugulash tovushlarini, quvonchli qichqiriqlar chiqaradi, qo‘l va oyoqlarini tezlik bilan qimirlata boshlaydi.

Jonlanish kompleksi bolaning katta odam bilan aloqa qilishi bilan uzayib boradi va 10-15 sekund davom etadi. U bilan aloqa qilish tugaganidan so‘ng ham saqlanib qoladi.

- **Formal aloqaga munosabat**

Tekshirish metodikasi: bola orqasi bilan yotgan holatda, atrofida uni chalg‘itadigan narsalar yo‘q. Tadqiqotchi 30 sekund intervalida 10 marta bola oldida paydo bo‘ladi va unga iljaymay va gapirmay 30 sekund xotirjam qaraydi.

Bolaning reaksiyasi:

- Formal aloqa vaziyatini differensiatsiyalash - 3-6 oylik bola salbiy hissiy reaksiya beradi;
- Aloqani initsiatsiyalash – keyinchalik bolada iljayish kamayib ko‘pgina ovoz chiqarishlar yuzaga keladi;
- Formal aloqaga norozilik – bola gavdasining keskin harakat-

lari bilan tadqiqotchidan o‘girilib oladi, ingillaydi, yig‘lash mumkin, oyoq-qo‘l harakatlari kuchayadi.

Eksperimentda formal aloqaga munosabat orqali bolada aloqaga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi, aloqa jarayonida uning o‘zini qanday tutishi aniqlanadi. Agarda bola formal aloqa vaziyatini differensiatsiya qilsa va mazmunsiz bo‘lgan aloqaga e’tiroz, norozilik bildirsa unda aloqaga bo‘lgan ehtiyoj mavjud bo‘ladi. Agarda bola katta odam bilan uchrashganda quvonsa, tezda aloqaning mazmuni yo‘qligini bilib olib faol ravishda vokalizatsiya (ovoz, qichqiriq, yig‘lash) bilan norozilik bildirib katta odamning javob reaksiyasini talab etsa aloqaga ehtiyoj bolada yaxshi rivojlaganligini ko‘rsatadi.

- **Kattalar bilan o‘ynashi**

Tekshirish metodikasi: tadqiqotchi bolaning onasi bilan o‘yin orqali aloqasini kuzatadi. Bunda ona bolasi bilan «chapak-xo-chapak», «boshini sarak-sarak» o‘yinlarini o‘ynaydi.

Bolaning reaksiyasi:

7 oylikdan so‘ng bola bir xil rollardagi o‘yinlarda («chapak-xo-chapak») kattalarning harakatiga taqlid qilishga harakat qiladi va berilgan o‘yin vaziyatida kattalar va bola tomonidan bajariladigan rollar turlicha bo‘lganida ma’lum bir harakatlarni bajardi («qo‘rqaman-qo‘rqaman», «bekinmachoq»).

Ovoz reaksiyalarini tekshirish

1. **Tovushli javoblar**

2. Tekshirish metodikasi: katta odam orqasi bilan yotgan bolaning yuziga engashib baland ovozda, cho‘zib turli tovush va tovushlar birikmasini talaffuz etadi.

Bolaning reaksiyasi:

2-4 oylikda bolada kattalarning ovoziga javoban turli ko‘rinishdagi ovoz faolligi kuzatiladi.

Bolaning o‘zini tutishini kuzatib va uni parvarishlaydigan ishlardan so‘rab gugulash, manipulyasiyadagi vokalizatsiya, guvrash (bo‘g‘inlarni talaffuz etishi) , dastlabki bo‘g‘in va so‘zlarni paydo bo‘lish vaqti aniqlanadi.

3. **«Belgi-so‘zlarni» tushunish.**

Tekshirish metodikasi: «Qaerda?», «Ber» va boshqa belgi-so‘zlarni tushunishi aniqlanadi.

Bolaning reaksiyasi:

9-12 oylik bola «... qaerda?» savoliga javoban tegishli predmetga qaraydi yoki so'z ko'rsatmasi bo'yicha harakat qiladi.

2-3 yoshdagi bolalarni tekshirish
Eksperimental psixologik-pedagogik tekshirish metodikalari

№	Metodikalar	Yosh			
		1-1,5	1,5-2	2-2,5	2,5-3 yosh
	1	2	3	4	5
11	**Sharni yashir** ikkita quticha uchta quticha		X X	X X	X X
22	**Kublar** Ikkita kub Uchta kub To'rtta kub Beshta kub	X	X	X	X
33	**Piramadachani taxlash** Bir xalqachali 3 ta xalqachali 4 ta xalqachali			X	X
43	**Matreshkani yig'ish** Bir qavatli Ikki qavatli Uch qavatli To'rt qavatli	X	X	X	X
54	**Sorterlar** 2 ta 3 ta 4 ta 6 ta	X	X	X	X
55	«Segen» taxtasi (1-variant)				X
66	**Rangli kubiklar** 2 xil rangli (qizil, sariq yoki oq) 3 xil rangli (qizil, sariq, yoki oq va yashil) 4 xil (barcha ranglar)		X	X	X
77	**Juft rasmlar** 2 juft 3 juft 4 juft		X	X	X
88	**Tayoqchalardan qurish** bolg'acha (2 ta tayoqchadan) uchbuchak (3 ta tayoqchadan)			X	X

99	**Kesma rasmlar** 2 qismdan 3 qismdan			X	X

Katta-kichikligi bo'yicha taqqoslash. Topshiriqlar ko'rish idrokini rivojlanish darajasini, bolaning katta-kichiklikni amaliy chamalab olishini aniqlashga yo'naltirilgan.

1. Bir-biriga kiradigan kublar

Tekshirish materiallari: 4 ta bir-biriga kiradigan kublar

Tekshirish metodikasi: bola stol yonida o'tiradi. Uning oldida katta kub uning ichidan kichik kub olinadi va hokazo. Bolaga kublarni o'z joyiga qo'yish, ya'ni kichkinasini kattasi ichiga solish taklif etiladi. Agarda bola topshiriqni bajarishga kirishmasa, uni kublarni olish va solishga o'rgatiladi, so'ngra bolaga topshiriqni mustaqil bajarish taklif etiladi.

Bajarish: 1 yoshu 6 oylik – bir-biriga 2 ta kubni soladi;
2 yosh - 3 ta kubni soladi;
2,5 yosh - 4-5 ta kubni soladi;
yosh - 5 tadan ko'p kubni soladi.

2. Sharni yashir:

Tekshirish materiali: kattaligi turlicha bo'lgan, ammo bir xil rangdagi, qopqoqlari bo'lgan 2-3 ta quticha.

Tekshirish metodikasi: bola oldiga 2 ta (1-2 g) yoki 3 ta (2-3 g) quti va ulardan sal yiroqroqda qopqoqlari qo'yiladi. Eksperimentator katta sharni katta qutiga, kichik sharni kichik qutiga soladi va boladan qutichalarning qopqog'ini yopib sharlarni yashirib qo'yishshi so'raladi. Bunda bolaga qaysi qopqoqni olish tushuntirilmaydi. Agarda bola qutiga mos qopqoqni olmasa, eksperimentator katta qopqoq bilan katta qutini, kichik qopqoq bilan kichik qutinng og'zini yopish lozimligini tushuntiriladi.

3. Matreshkani yoyish va yig'ish

Tekshirish materiali: 4 qavatli matreshka.

Tekshirish metodikasi: bola oldiga matreshka qo'yiladi va imo-ishora bilan uni yoyish va yana yig'ish taklif qilinadi. Agarda bola topshiriqni bajarishga kirishmasa, katta odamning o'zi matreshkani ketma-ketlikda yoyadi va yig'adi. So'ngra bolaga topshiriqni o'zi bajarishini taklif etadi.

Bajarish:

1 yoshu 3 oylikdan – 1 yoshu 6 oylikda – bir qavatli matreshkani yoyadi va yig'adi;

1 yoshu 6 olikdan – 2 yoshda – ikki qavatli matreshkani yoyadi va yig'adi;

2 yoshu 2 oylikdan – 2 yoshu 6 oylikda – uch qavatli matreshkni yoyadi va yig'adi;

2 yoshu 6 oylikdan – 3 yoshgacha – to'rt qavatli matreshkani yoyadi va yig'adi.

4. Piramidani yoyish va yig'ish

Tekshirish materiali: 3 va 4 xalqali piramidcha.

Tekshirish metodikasi: bolaning ko'zi oldida «avval katta xalqani, endi kichikrog'ini, undan ham kichikrog'ini va eng kichkinasini o'qqa taxlaymiz» deb piramidachaga xalqalar yig'iladi. So'ngra bolaga piramidachani yoyish va xalqachalarning katta-kichikli e'tiborga olib yig'ish taklif etiladi.

Bajarish:

2 yosh – 2 yoshu 2 oylik – 3 xalqali piramidachani xalqalarning katta kichikligini e'tiborga olib yig'adi.

2 yosh 6 oylikdan – 3 yoshgacha – 4 xalqali piramidachani xalqalarning katta-kichikligini e'tiborga olib yig'adi.

Shaklga moslash

Topshiriqlar ko'rish idrokining, shaklni amaliy chamalashning rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan.

1. Sorterlar.



Tekshirish materiali: 2, 3 va 4 ta chuqurchasi bo'lgan taxtachalar va ularga mos bo'lgan uchburchak, doira va kvadrat hamda to'g'ri to'rtburchak shakllardagi qoplamalar.

Tekshirish metodikasi: bola oldiga chuqurchalardagi qoplamalar to'kiladi va «joyiga qo'y» ko'rsatmasi beriladi. Agarda bola topshiriqni bajarmasa, unga imo-ishora bilan diqqatini chuqurcha va qoplamalar shakllariga qaratiladi va yana topshiriqni bajarish taklif etiladi.

Bajarish:

1 yosh – 1 yoshu 6 oylik – 2 ta qoplamalik sorterni sinab ko'rish va xato usuli bilan joylashtiradi;

1 yosh 6 oylik – 2 yosh – 3 ta qoplamali sorterni xato va sinab ko'rish usuli bilan joylashtiradi;

3 yosh – barcha qoplamalarni tegishli chuqurchalarga darhol joylashtiradi (ko'rib moslashtirish usuli bilan).

2. Segen taxtasi



Tekshirish materiali: segen taxtasi (1 variant).

Tekshirish metodikasi: bola oldida stol ustiga chuqurchalardan qoplama- shakllar to'kiladi va so'z, imo-ishora ko'rsatmasi bilan yana qayta joylashtirish so'raladi. Agarda bola topshiriqni bajarishga kirishmasa unga bajarish usuli ko'rsatiladi va mustaqil bajarishga undaladi.

Bajarish:

3 yoshda – maqsadga yo'naltirilgan sinov usuli bilan bajariladi.

Rang bo‘yicha o‘xshatish



1. Rangli kubiklar. Topshiriq bolaning ranglarni o‘xshatish, farqlash va nomlash ko‘nikmasini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Tekshirish materiali: 2 ta qizil, 2 ta oq, 2 ta yashil, 2 ta ko‘k rangdagi kubiklar.

Tekshirish metodikasi: bola oldiga 2 ta (3,4) rangli kubik qo‘yiladi va tekshiruvchining qo‘lidagidek kubikni ko‘rsatish so‘raladi: «Mening qo‘limdagidek kubikni ol». So‘ngra psixolog boladan: «Qizil kubik qani, ko‘rsat va hokazo» deb so‘raydi. Agar bola topshiriqni bajarishga kirishmasa, unda katta odam kubikni xuddi shu rangdagi kubik ustiga qo‘yadi va kubiklarning umumiy belgisi – rang ekanligini ko‘rsatadi.

Bajarish:

2 yosh – 2 xil rangni o‘xshatadi va farqlaydi, 1-2 xil rangni nomlaydi.

2,5 yosh – 3 xil rangni o‘xshatadi, 2-3 xil rangni nomlaydi.

3 yosh - 4 xil rangni o‘xshatadi, 3-4 xil rangni nomlaydi.

2. Juft rasmlar.



3. Topshiriq predmetli rasmni to‘liq idrok etish darajasining rivojlanganligini aniqlashga qaratilgan.

Tekshirish materiali: 4 juft predmetli rasmlar.

Tekshirish metodikasi: bola oldiga 2 ta predmetning rasmi qo‘yiladi. Xuddi shunday rasmlar jufti tekshiruvchining qo‘lida bo‘ladi. Psixolog ko‘rsatish ishorasi bilan ularni o‘zaro solishtirib, uning va bolaning qo‘lidagi rasmlar bir xilligini ta’kidlaydi. So‘ngra tekshiruvchi o‘zining qo‘lidagi rasmlarni berkitadi va ulardan birini olib bolaga ko‘rsatadi va xuddi shunday rasmni ko‘rsatishini so‘raydi. Agarda bola topshiriqni bajarmasa, unda juft rasmlarni o‘xshatish ko‘rsatiladi: «Bunday rasm menda bor, senda ham xuddi shunday rasm bor» (bunda ko‘rsatish ishorasidan foydalaniladi).

Bajarish:

2 yoshda – 2 juft predmetli rasmni topa oladi.

2,5 yosh – 3 juft predmetli rasmni topa oladi.

3 yoshda – 4 juft predmetli rasm topa oladi.

4. Kesma rasmlar. Topshiriq predmetning rasmini to‘la idrok etishning rivojlanish darajasini aniqlashga qaratiladi.



Tekshirish materiali: 2 ti bir xil predmetning rasmi, ulardan biri 2 ta (3 ta) qismga bo‘lib qirqilgan.

Tekshirish metodikasi: bolaga 2 ta (2yosh – 2 yoshu 6 oylikka) yoki 3 taga bo‘lib (3 yosh) qirqilgan rasm ko‘rsatiladi va uni yig‘ib bir butun qilib berish so‘raladi: «Rasmni to‘liq qilib yig‘ib ber».

Agarda bola topshiriqni bajarishda qiynalsa, unga qirqilmagan butun rasm ko'rsatiladi va qismlardan xuddi shunday rasmni yig'ish so'raladi. Agarda shundan keyin ham bola topshiriqni bajara olmasa, katta odamning o'zi qirqqan rasmning bir qismini butun rasm ustiga qo'yadi va boladan boshqa qismini qo'yishni so'raydi. So'ngra bolaga topshiriqni mustaqil bajarishni taklif etiladi.

5. Tayoqchalardan qurish. Topshiriq idrokning to'liqligi, namunani ko'ruv-fazoviy tahlili, bolaning taqlid, ko'rsatish bo'yicha harakat qilish ko'nikmasining rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan.



Tekshirish materiali: bir xil rangdagi 4 yoki 6 ta yassi tayoqchalar.

Tekshirish metodikasi: bola oldida tayoqchalardan figuralar – «bolg'acha» va «uycha» quriladi va shunday qilish taklif etiladi: «Mendagidek, bajar». Agarda bola ko'rsatish bo'yicha topshiriqni bajara olmasa, unga taqlid bo'yicha bajarish taklif etiladi: «Qara va menga o'xshab bajar». So'ngra yana topshiriqni namuna bo'yicha bajarish taklif etiladi.

Bajarish:

2 yoshu – 2 yosh 6 oylikda – bolg'achani ikkita tayoqchadan yasaydi.

2 yosh 6 oylikdan – 3 yoshgacha – uychani 3 ta tayoqchadan quradi.

Psixologik-pedagogik tekshirish natijalarini tahlil qilish
Bolaning psixik rivojlanishini tavsiflash va baholash

Pedagogik va psixologik tekshirishlar ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida amalga oshiriladigan bolaning psixik rivojlanishining turli tomonlarini tavsiflash va baholash yosh davrlariga aniq mos kelishi lozim.

Bolaning kommunikativ va hissiy darajalarini o'rganish.

Kuzatish va eksperimental dtadqiqot, shuningdek bolaning onasi bilan suhbatdan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib quyidagi ko'rsatkichlarga diqqat qaratiladi:

Bolaning kommunikativ faoliyatida:

– aloqaga kirishish xohishi va tayyorligi;

– kattalarning kommunikativ signallariga sust, befarq munosabat;

– aloqa qilish darajasini aniqlash (ongogenezda aloqa qilish vositalarini paydo bo'lishining bosqichma-bosqichligi tamoyili asosida).

1 daraja – gavda va boshning differensirlashmagan harakatlari va aloqaning ekspressiv-mimik vositalari (nigoh, iljayish, yuzning ifodali harakatlari, ovoz faolligining turli ko'rinishlari) yordamida aloqa qilish. Bu daraja sog'lom bolada 2-4 oylikda kechadi.

II daraja – aloqaning predmetli-harakatli vositalari yordamidadan foydalanadi: lokomotor harakatlar va turli holatlar (yaqinlashish, uzoqlashish, katta odamga predmetlarni uzatish, kattalarni o'ziga tortish va itarish, norozilikni, aloqadan bosh tortishni yoki yopishib olishi, o'zini katta odamning qo'liga olinishiga bo'lgan intilishlar: qo'lini onasi tomon cho'zish va hokazo). Bu daraja sog'lom bolada 6-12 oylikda kechadi.

III daraja – simvolik imo-ishora, ifodali va turli mimika, guvrash "so'zlari" (bo'g'inlarni talaffuz etish), tovushlarga, intonatsiyaga taqlid qilish yordamida aloqa qilish. Aloqaning bu darajasi 12-18 oylikda namoyon bo'ladi.

IV daraja – verbal (nutq orqali) aloqa.

Hissiy doiraning rivojlanishi quyidagicha tavsiflanadi:

– his-tuyg'ularning adekvatligi, ma'qullashga, tanbah va talabga hissiy javob e'tiborga olinadi. Katta odamning faol ijobiy hissiy mu-

rojaati, rag'batlantirishi va ma'qullashi bolada quvonchli ekspressiv mimikali javobni yuzaga keltiradi. Tanbeh, talablar bolaning o'z hulqini to'g'rilashiga imkon beradi. Bolalarda boshqa turdagi reaksiyalar ham kuzatilishi mumkin: bola murojaatga, ma'qullash va tanbehga e'tibor bermaydi, chunki ularning ma'nosini tushunmaydi. Bolaning tanbehga bo'lgan yorqin ifodalangan negativ yoki agressiv (tajovuz) reaksiyasi uning tanbehning ma'nosini tushunganligi, ammo unga bo'ysungisi kelmaganligidan dalolat beradi; bola katta odamning ma'qullashi va diqqatiga qiziqmaganda befarq bo'ladi.

Predmetli va o'yin faoliyatlari rivojlanishining bir-biriga mos kelmasligi, predmetli va o'yin harakatlarining adekvatli emasligi va kambag'alligi bilan birgalikdagi mos kelmasligi dastlabki intellektual etishmovchiliklardan darak berishi mumkin.

Uzoq vaqt davom etadigan setereotipli, bir xil tarzdagi predmetli va o'yin harakatlarining saqlanishi yoki bir o'yinchoq yoki o'ynalmaydigan predmetlar bilan ijtimoiy, kommunikativ yo'nalishsiz , ba'zan ajablanarli predmet-almashinishlar bilan (tufliuni ovqatlantirsa bo'ladigan tirik jonzot) o'ynash hissiy buzilishlardan darak beradi.

Aqliy va nutqiy rivojlanishni tekshirishning natijalarini tahlil qilish va baholashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

topshiriqni noaadekvat bajarish yoki faoliyatning juda sodda usuli, o'rgatuvchi yordamni qabul qilishning sustligi, o'zining faoliyati natijasiga befarqlik, nutqning yaxshi rivojlanmaganligi intellektning dastlabki buzilishlarini ko'rsatadi.

Ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish

Ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirishning maqsadi – bolaning nutqini rivojlanishini uning yoshiga, intellektual rivojlanishiga mosligini, nutqidagi buzilishlarni aniqlash va nutqining xususiyatlarini o'rganishdir.

Ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

– bolaning nutqini paydo bo'lgunicha davrining xususiyatlarini va ilk nutqiy rivojlanishini aniqlash va tavsiflash;

– impressiv (nutqni tushunishni) nutqning rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;

– ekspressiv nutqning (faol nutqni) rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;

– nutq buzilishlarini differensial tashxis qilish;

– nutq paydo bo'lgunga qadar va nutqning yuzaga kelgandan keyin rivojlanish darajasining bolani umumiy psixik rivojlanishiga mosligini, muvofiqligini aniqlash;

– logopedik korreksiyaning mos sharoitlarini aniqlash;

– ota-onalarga nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish yuzasidan maslahatlar berish.

Logopedik tekshirish o'ziga nutqiy anamnezni yig'ishni, boshqa anamnezlar bilan tanishish, artikulyasiya a'zolarining tuzilishi va harakatchanligini tekshirish, nutqning ohangi, su'ratini (prosodik tomonlarini), tovushlar talaffuzi va fonematik idrokni, nutqning impressiv va ekspressiv tomonlarini (lug'ati, grammatik qurilishi, jumlali va bog'langan nutq) o'rganishni o'z ichiga oladi. Bir yoshgacha bo'lgan harakatning qo'pol buzilishlari kuzatilgan bolalarni tekshirishda reflektor harakatlarning, bolalarning qichqirishi hamda ovoz reaksiyalarini o'rganish zarur.

Ilk yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishini tekshirishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: anamnetik ma'lumotlarni yig'ish, ota-onalar bilan suhbat, bolaning o'yin faoliyatida barcha nutq jarayonlarini bevosita kuzatish, bolaning nutqini faoliyati jarayonida hamda eksperimental sharoitda o'rganish.

Shuni e'tiborga olish zarurki, ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshgacha bo'lgan bolaning nutqini paydo bo'lguniga qadar davrini o'rganish murakkab bo'lib, u nerv sistemasining etilmaganligi, nutq va sensor, motor, kognitiv funksiyalarning va hislarning me'yorda va patologiyada ham o'zaro chambarchas bog'liqligidan kelib chiqadi. Bolaning nutq paydo bo'lgunicha va va nutqiy imkoniyatlarini baholash uning barcha nerv-psixik rivojlanishi va harakat doirasining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'tkaziladi.

Ilk yoshdagi bolalar doimo ham eksperimentator bilan oson aloqaga va topshiriqlarni bajarish faoliyatiga kirishmaydilar. Shuning

uchun ilk yoshdagi bolaning nutqini tekshirishda logoped bola bilan ijobiy hissiy aloqani o'rnatib olishi zarur. Logoped ilk yoshdagi bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini, turli yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish metodlarini bilishi muhim, logopedik tekshirishni esa bolaning ushbu yoshi uchun etakchi bo'lgan faoliyat turini e'tiborga olgan holda o'tkazishi kerak. Bu metodlarni qo'llash orqali logoped nutq nuqsonlarining turli formalarini differensiatsiya qila olishi va ularni intellektning etishmovchiligida, hissiy-irodaviy kuzatiladigan nutq nuqsonlaridan ajrata olishi mumkin.

Logoped nutq buzilishlarining nevrologik asoslarini bilishi va bolalar patopsixologiyasi bo'yicha, ularda ko'p kuzatiladigan psixik buzilishlar formalari haqida ham ba'zi tushunchalarga ega bo'lishi lozim. Bu bilimlar nutq buzilishlarining tuzilishini to'g'ri aniqlashga, korreksiyalash, o'qitish va tarbiyalash ishlarining eng maqbul yo'llarini tanlashga imkon beradi.

Logopedik tekshirishni o'tkazishga qo'yiladigan talablar

Logopedik tekshirishni anamnezni to'liq o'rganib bo'lingandan va tibbiy tekshiruvdan so'ng o'tkazish maqsadga muvofiq. Bola haqida olingan ma'lumotlar logopedga nutq nuqsonining kelib chiqishi, kechishini aniqlashga, tekshirishda to'g'ri yo'nalishga, bolaning yoshiga, uning motor, sensor va intellektual imkoniyatlariga mos metodlarni tanlashga yordam beradi.

Ilk yoshdagi bolaning hissiy-kommunikativ doirasining xususiyatlariga bog'liq holda logopedik tekshirishni psixologik tekshirishdan so'ng yoki u bilan parallel ravishda logopedik usullarni qo'llab o'yin tarzida, bolani qiziqtirib o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarni onasining yonida, ba'zi hollarda bola onasining tizzasida o'tirgan holda tekshirish tavsiya etiladi, chunki bu yoshdagi bolalarda yuzaga keladigan qo'rquv, xavotirlanish nutqiy negativizmni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikki yoshdan katta bo'lgan bolalar odatda berilgan yangi o'yinchoqlarga qiziqadilar. Bu yoshdagi bolalarni tekshirish vaziyatiga ularni maxsus tashkil etilgan o'yin faoliyatiga jalb etish orqali oson kechadi. Nutqiy materialning barchasi nutqiy ongogenezni

e'tiborga olgan holda tanlanishi zarur. 1 yoshu 3 oylikda 3-5ta yaxshi tanish bo'lgan predmetlarning rasmlari, ko'rib chiqish uchun – 1ta predmet rasmi qo'shimcha qismlarsiz, statik (tik turgan) holatda beriladi.

1 yoshu 6 oylikda 5-7ta rasmlar orasidan kerakli predmetni topish taklif etiladi. Taklif etilgan rasmlarda predmet bola uchun tushunarli bo'lgan qismlardan tashkil topgan bo'lishi kerak.

1 yoshu 9 oylik bolalarga sodda mazmundagi voqeaband rasm (qo'g'irchoq stulda o'tiripti, mushuk koptok o'ynayapti va hokazo) mos bo'ladi. Ikki yoshda sodda ikki pog'onali ko'rsatmalarni, masalan "Kubikni ol va onangga ber" berish mumkin. Ikki yoshdan so'ng bolalar ancha chuqur mazmundagi syujetni tushunishga qodir bo'ladilar.

Fonematik idrokning shakllanganligini o'rganish uchun 2 yoshu 6 oylikdan turlicha ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar qo'llaniladi, 3 yoshdan esa rasm-simvollar va paronim so'zlarni ifodalaydigan predmetlarning yassi, tekis rasmlaridan foydalaniladi.

Jumlali nutqning shakllanganlik darajasini tekshirish uchun bola bilan ko'rgazmaga tayangan holda (ertak personajlari) tanish bo'lgan ertakdan bir parchani eslab bevosita suhbat metodi qo'llaniladi.

Eksperssiv (tashqi) nutqga ega bo'lmagan bolalarni tekshirishda nutqiy diqqatning ifodalanganligiga, bola ovozga diqqatini qaratishiga, intonatsiyaga mos reaksiyasiga; ovoz faolligining mavjudligiga va artikulyasiya a'zolari harakatlarining ixtiyoriy yoki reflektorliliga e'tibor beriladi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish

Bir oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: u bilan gaplashilganda javob sifatida alohida tovushlar chiqaradi.

Tekshirish metodikasi: katta odam chalqancha yotgan bolaga uning ko'zidan 23-30 sm masofada engashadi. O'zining yuziga nisbatan bolaning diqqatini tortadi, uni erkalatib gaplashadi, ba'zi tovushlarni cho'zib (5 martagacha) talaffuz etadi.

Bola uchun yordam: agarda bola tovushlarni talaffuz etmasa, u bilan gaplashish 1-2 minutgacha cho'ziladi. Agarda shunda ham

javob tovushlari bo‘lmasa, bolani silab-siypalash, rag‘batlantirish lozim.

Bolaning o‘zini tutishi: katta odamning bir necha marta unga qarab murojaat qilishiga bola alohida tovushlar bilan javob beradi. Bir qancha vaqtdan (bir necha daqiqidan 1 minutgacha) so‘ng javob berishiga ham yo‘l qo‘yiladi. Agarda bu vaqt oralig‘ida istalayotgan xulq yuzaga keltirilmasa, unda bolaning beixtiyoriy vokalizatsiyasiga (ovoz chiqarishiga) diqqat qaratiladi va ularni boshqa topshiriqlarni bajarishida hisobga olinadi. Bir oylikda barcha shartli reflekslar namoyon bo‘lishi lozim.

Ikki-uch oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari

***Tadqiqot predmeti:* Gugulash tovushlarini talaffuz etadi.**

Tekshirish metodikasi: bolaning bo‘g‘iz tovushlarini aytishi uchun uni orqasi bilan yotqiziladi, bolani erkalatib murojaat qilinadi yoki bolaning onasidan u bilan hissiy “gaplashish” so‘raladi. Agarda go‘dak tekshirish davomida hech qanday bo‘g‘iz tovushlarini talaffuz etmagan bo‘lsa, unda onasidan: “Sizning farzandingiz qorni to‘q, dam olgan vaqtlarida qandaydir tovushlarni aytadimi? “Bu tovushlar qanday eshitiladi?”-, deb so‘raladi. Go‘dakning onasi bola talaffuz etadigan tovushlarni bayon qilishga qiynalsa, unga logoped yordam berishi mumkin. Namuna sifatida logoped go‘dakning onasiga gugulash tovushiga o‘xshash tovushlarni misol tariqasida talaffuz etadi.

Bola uchun yordam: agarda taktil-hissiy aloqada tovushlarni ayttirishning iloji bo‘lmasa, logoped bolaning nafas chiqarishini nafas gimnastikasi yordamida vokalizatsiya qilishga urinishi mumkin: dastlabki holat – orqasi bilan yotqizish. Ko‘krak qafasini, uning yon va oldi tomonlarini ritmik ravishda asta bosish. Nafas chiqarishda logoped gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Bu metod 2 xaftalikdan 3 oylikkacha bo‘lgan bolalarda qo‘llanilishi mumkin. 3 oylikda dastlabki holat – bola orqasi bilan yotqiziladi. Bolaning bukilgan qo‘llarini biroz yon tomonlarga stolning ustida engilgina sirpantirib ochish (nafas olish), so‘ngra ularni bukilgan holatda asta ko‘krak qafasining yon tomonlarining ustiga bosish (nafas chiqarish). Nafas chiqarishda logoped gugulash tovushlarini talaffuz qiladi.

Bolaning o‘zini tutishi: kattalarning bir necha murojaatidan so‘ng go‘dak alohida tovushlar bilan javob beradi: a) go‘dak birinketin unlilarga o‘xshash tovushlar (ayniqsa, “e” va “i”ga) chiqara boshlaydi. Asta-sekin undoshlar qo‘shila boradi. Bu so‘zlarning artikulyasiyasi qisman noaniq, ba’zan esa umuman tushunarsiz bo‘ladi; Ba’zan 3 oylikda bola ko‘pincha orqasi bilan yotib velyar “r” tovushini talaffuz etishi mumkin.

To‘rt oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari

Tadqiqot predmeti: Faol turli gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Gugulashda o‘ziga-o‘zi taqlid qiladi; bola bilan hissiy nutqiy aloqa qilinganda unga javoban qattiq kuladi; sokin va ritmik musiqaga turlicha munosabat bildiradi.

Tekshirish metodikasi: bola tomon engashib, uni erkalatib, bir necha marta unga qarab gaplashiladi. Agarda bola ovoz reaksiyalari bilan javob bermasa, onasiga savol beriladi: “Farzandingiz qanday tovushlarni talaffuz qiladi?”, “Uxlab turganidan so‘ng, kayfiyati yaxshiligida o‘z-o‘zi bilan gaplashadimi?”, “Bolangiz qanday xursand bo‘ladi, kulishni biladimi?”, “Sokin va ritmik musiqaga qanday munosabat bildiradi?”

Besh oylik bolani tekshirish metodlari va yo‘llari

***Tadqiqot predmeti:* guvrashni (bo‘g‘inlarni talaffuz etish) paydo bo‘lishi.**

Tekshirish metodikasi: odatda bolaning kayfiyati yaxshi vaqtlarda guvrashning dastlabki tovushlari paydo bo‘la boshlaydi. Agarda bu tovushlarni spontan eshitishning iloji bo‘lmasa, go‘dakning onasi yoki tekshiruvchi bolani ushbu bo‘g‘in zanjirlarini aytishga undaydi. Agarda tekshirish vaqtida buning ham uddasidan chiqilmasa, bolaning onasidan: “Farzandingiz kayfiyati yaxshi vaqtlarda qanday tovushlarni talaffuz etadi?”, deb so‘raladi.

Onasi tomonidan bayon etilayotganda logoped bola bo‘g‘inlarning ketma-ket zanjirini talaffuz etishiga ahamiyat beradi. Agarda bunday bo‘lmasa, logoped namuna keltiradi va onasidan bunga o‘xshash tovushlarni bola qanday talaffuz qilishini eshitganligi so‘raladi.

Olti-etti oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: **bo'g'inlarni talaffuz etadi.**

Tekshirish metodikasi: bo'g'inlarni talaffuz etishga undaydigan omil sifatida katta odamning bola bilan gaplashishi zarur emas, ammo unga murojaat qilinganda bola quvonadi. Tekshirish vaqtida bola tomonidan beixtiyoriy (spontan) talaffuz etilgan barcha tovushlar e'tiborga olinadi (belgilab boriladi).

Agarda tekshirish vaqtida tegishli tovushlarning, quvonch qichqiriqlarini eshitishning iloji bo'lmasa, bolaning onasyachi yoki logoped bola bilan taktil-hissiy aloqa o'rnatishga urinib ko'radi. Bola bilan bunday "gaplashish" vaqtida biroz to'xtalish qilish lozim, bu vaqtda bola artikulyasiya a'zolarining tegishli harakatlarini "topib" olishi mumkin. Agarda tekshirishning nihoyasigacha bola birorta ham bo'g'inlarni talaffuz qilmasa, uning onasidan "Farzandingiz qichqiriqdan boshqa qandaydir tovushlarni talaffuz etadimi?", "Ular qanday aytiladi?" va "Farzandingizning kayfiyati yaxshi vaqtlarda quvonchli qattiq qichqiriqlar chiqaradimi?", deb so'raladi. Agarda bolaning onasi farzandining qanday tovushlar chiqarishini ko'rsatishga qiynalsa, logoped namuna keltiradi.

Agarda taktil-hissiy aloqada tovushlar chiqarishning uddasidan chiqilmasa, logoped bolaning nafas chiqarishini nafas gimnastikasi yordamida vokalizatsiyalashga urinib ko'radi:

katta odam bolaning qo'llarini ushlab ularni yon tomonga va yuqoriga ko'taradi (nafas olish) va galma-galdan o'ng qo'lini chap qo'liga va chap qo'lini o'ng qo'lini ustida holda ko'kragining ustiga qo'yadi (nafas chiqarish). Bolaning nafas chiqarishida logoped gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Bu usul 6-12 oylik bolalarda qo'llaniladi.

Ko'rishida, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda guvrashning (bo'g'inlarni talaffuz etishning) shakllanishini orqada qolishi natijasida tovush va artikulyasiya mimikasi o'rtasida bog'lanishlar yuzaga kelmaydi.

Sakkiz oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: **so'z-belgilarni tushunadi**

Tekshirish metodikasi: tekshirish bolaning ota-onasining yordamida o'tkaziladi, chunki bu davrda bola nutqni tushuna boshlaydi, vaziyatga munosabatini bildirishga qodir bo'ladi. Bunda bolaga gapirayotgan odamning gavdasini holati, uning ko'rinishi, sharoit, intonatsiyasi, ovozining tembri ahamiyatli bo'ladi. Tekshirishni o'tkazishda predmet, uning joyi, gapirayotgan odamning ovoz tembri va intonatsiyasi bolaga yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Bolaning onasi logopedning savollariga javob berishga qiynalgan vaqtlarda undan uyida bola agarda o'yinchoq uning ko'ziga ko'rinmaydigan joyda bo'lsa nigohi bilan uni izlashga harakat qilishiga e'tiborini qaratish so'raladi.

Bola uchun yordam: agarda bola o'yinchoqqa qaramasa, katta odam bolani qo'liga olib o'yinchoq yoniga olib keladi, uning nomini aytadi va ".....qani?", deb so'raydi va darhol uni ko'rsatadi. O'yinchoqni o'rniga shunday tarzda qo'yadiki, bola uni kuzatsin va yana boladan uni so'raydi.

20-30 sek. to'xtalishdan so'ng bolaning o'yinchoqni nomini tushunganligi tekshiriladi, ammo bunda o'yinchoq bolaning oldiga ko'rsatmasdan qo'yiladi.

To'qqiz va o'n oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

O'rganish predmeti: turli tovushlardan iborat bo'g'inlar zanjirini (3-5ta bo'g'indan iborat) talaffuz etadi; 2-4 so'z ko'rsatmasini 9 oylikda, va 4-7 ko'rsatmani 10 oylikda tushunadi.

Tekshirish metodikasi: bu yoshdagi bola tekshirish vaziyatida doimo ham ovoz faolligini ko'rsatmaydi, chunki notanish vaziyatdan qo'rqishi mumkin. Shu sababli tekshiruvchi bolaning malakalarini baholash uchun onasidan: «Farzandingiz 3-4ta bir xil bo'g'inlarni, masalan, «ma-ma-ma», «ta-ta-ta», «ba-ba-ba» va boshqalarni talaffuz etadimi?» deb so'rashi kerak. Agarda bola aloqaga yaxshi kirishsa unga 3-4ta o'yinchok ko'rsatiladi, ularni bola topishi kerak. So'ngra ularning joylari o'zgartiriladi va so'raladi: «.....kani?»

Savol 2-3 marta takrorlanadi. Bola uchta o'yinchokdan ikkitasini topganidan so'ng ular joylari bilan almashtiriladi va yana bir marta o'yinchoklar haqida savol beriladi.

Bolaga yordam: agarda bola aytilgan o'yinchoklarni «..... qani?» savollari bo'yicha qidirmasa, tekshiruvchi o'rgatuvchi yordam ko'rsatadi: «ayiqcha qani?» Qara: mana ayiqcha!». So'ngra ayiqchani yashiradi: «Ayiqcha yo'q». «Mana ayiqcha». Shundan so'ng yana boladan so'raladi.

Agarda tekshirish vaqtida bolada istalayotgan javob reaksiyasini yuzaga keltirishning iloji bo'lmasa, unda bolaning onasi farzandining uy sharoitidagi berilgan topshiriqqa tegishli o'zini tutishini aniq misollar orqali ko'rsatadi.

O'n bir oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

O'rganish predmeti: bo'g'inlarni va ba'zi so'zlarni (dada, oyi, opa va h-zo) talaffuz qiladi; 6-10ta so'z ko'rsatmalarini tushunadi.

Tekshirish metodikasi: bu yoshdagi bolani tekshirishni o'yin vaziyatida o'tkazish lozim. Kuchukni ovkatlantirish, ko'g'irchoqni uxlatish (ko'rsatib bermasdan)va h-zolar so'raladi. Ko'rsatma 2 marta takrorlanadi va bolaning harakatlari 5 minut kuzatiladi.

Bolaga yordam: agarda bola ko'rsatmani bajarmasa, logoped uning oldiga o'yinchoqni qo'yadi va yana bir marta topshiriq takrorlanadi. So'ngra bolaga talab etilayotgan harakat ko'rsatib beriladi. Bola bilan o'ynayotib, undan sodda, bola uchun tanish bo'lgan, masalan: «Ol, qo'y, ber, ko'rsat, tashla, buyoqqa kel, itar, kiydir, mumkin emas» kabi harakatlarni bajarish so'raladi. Agarda bola aytilayotganlarga e'tibor bermasa, so'zlar tushuntiruvchi imo-ishoralar bilan birgalikda aytiladi.

Tushunilayotgan nutqda dastlabki umumlashtirishlarni aniqlash uchun boladan ikkita bir xil predmetni ko'rsatish so'raladi.

O'n ikki oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

O'rganish predmeti: bir necha predmetlarning nomini, harakatlarni, ismlarni tushunadi (ko'rsatilmasa ham), ba'zi topshiriqlarni

(top, ber, qo'y, ber, mumkin emas va h-zo) bajaradi; 5-10ta bo'g'in-so'zlarni, tovushlarga o'xshatishlarni talaffuz qiladi.

Jihoz: o'yinchoqlar, bola doimo kiyadigan kiyimlar, foydalanadigan predmetlar.

Tekshirish metodikasi: avval xonaga bolaga tanish bo'lgan bir necha predmetlar qo'yiladi. So'ngra tekshiruvchi onasiga ko'rsatmali ishoradan foydalanmasdan boladan predmetlardan birini, masalan :«menga koptokni olib kel!» yoki «qo'g'irchokni stol ustiga qo'y»va h-zolarni so'rashi iltimos qilinadi.

Bolaga tanish bo'lgan o'yinchoqlar, predmetlar beriladi. «Bu nima?», «Bu kim?», «Kuchukcha qanday gapiradi?», «Mushuk qanday miyovlaydi?»

Ikki yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish
1 yoshu 1 oylikdan 1 yoshu 3 oylikkacha

Impressiv nutk

1. Atrofidagi predmetlarning nomini tushunadi.

Jihoz: hayvonlarni, transportni, maishiy jihozlarni tasvirlovchi 3-4ta o'yinchoq.

Tekshirish metodikasi: a) bola oldiga 4ta nazorat predmetlari (qo'g'irchoq, mashinacha, kuchuk, koptok) qo'yiladi. Tekshiruvchining: «.....qani?» savoliga javoban bola barcha predmetlarni ko'rsatishi kerak. So'ngra predmetlarning o'rnilari o'zgartiriladi va boladan yana so'ralgan predmetni topish ko'rsatmasi beriladi. Agarda bola yanglishsa yoki nomi aytilgan o'yinchoqni nigohi bilan qidirmasa, tekshiruvchi unga faqat ikkitasini ko'rsatadi va: «.....qani?», deb so'raydi. Javob bo'lmaganda bitta o'yinchoqni ko'rsatadi va uni nomini aytadi. Ikkita o'yinchoqning nomini aytish, so'ngra ularni boshqa nazoratlilar orasida ular haqida so'rash mumkin. Agarda bola uchtadan kam bo'lmagan predmetlarni topsa, ko'rsatsa topshiriq bajarilgan hisoblanadi; b) bolaning diqqati kiyimlarga, poyafzallarga (ishtonlar, shapka, tufli, ko'ylak) qaratiladi va «.....qani?», deb ularni ko'rsatish so'raladi. Agarda bola predmetlarni izlamasa yoki yanglishsa, tekshiruvchi ularni birgalikda qidirishni taklif etadi. Bolani biror predmetning oldiga olib

boradi va: «.....qani?», deb so‘raydi. Bola bilan birgalikda to‘rtta predmetdan ikkitasini topish mumkin. So‘ngra o‘yinchoqlarni yana ko‘zga ko‘rinadigan joyga qo‘yiladi va ularni topish, ko‘rsatish so‘raladi.

2. Harakatlarning nomini tushunadi.

Jihoz: voqeaband o‘yin uchun o‘yinchoqlar.

Tekshirish metodikasi: bolaga «qo‘g‘irchoqni ovqatlantir», «Qo‘g‘irchoqni krovatga yotqiz», «kuchukka suv ber», «qo‘g‘irchoqqa qalpog‘ini kiydir» va shunga o‘xshash harakatlarni bajarish taklif etiladi. Agarda bola harakatlarni bajarmasa, tekshiruvchi uni o‘rgatadi, so‘ngra yana topshiriqni bajarishni so‘raydi.

Eksperssiv nutk.: bola turli bo‘g‘in-so‘zlarni, tovushga taqlid qilishni, undov so‘zlarni qo‘llay oladi. a, i, p, b, m, y tovushlarini talaffuz etadi.

Faol lug‘atning rivojlanish darajasi so‘rash, bolaning o‘yin faoliyatini kuzatish metodi orqali aniqlanadi.

1 yoshu 4 oylikdan 1 yoshu 6 oylikkacha

Impressiv nutk

1. Muhim belgilari bo‘yicha dastlabki umumlashtirishlar.

Jihoz: ba’zi bir belgilar bo‘yicha farqlanadigan ikkita o‘xshash predmetlar.

Tekshirish metodikasi: bir necha predmetlar, masalan, yumshoq matodan yasalgan kuchukcha, rezinadan qilingan kuchukcha, yumshoq matodan yasalgan mushukcha, qo‘g‘irchoq taklif etiladi, va kuchukchani va yana kuchukchani ko‘rsatish so‘raladi.

Ustida, ichida ko‘makchi otlarni tushunishi.

Jihoz: kubik, mashina, koptok, quticha.

Tekshirish metodikasi: boladan kubikni mashina ichiga, mashinani stul ustiga qo‘yish, mashinani quti ichiga solish so‘raladi.

2. Gavdaning 1-4ta kismini ko‘rsata oladi.

Dastlab bolaning onasidan farzandining gavdaning qaysi qismlarini bilishi aniqlanadi.

Eshitish diqqati va fonematik eshitish: nutqiy bo‘lmagan tovushlarni ajratadi (1yoshu 6 oylik).

Jihoz: childirma, qo‘ng‘iroqcha, yog‘och qoshiqlar.

Tekshirish metodikasi: bolaga nima ovoz chiqarganini topish taklif etiladi.

Ekspressiv nutq: tovushlarga taqlid qilish, bo‘g‘in-so‘zlar, predmetlarni va harakatlarni anglatuvchi so‘zlar. a, u, o, i, m, p, k, g, d, b, n tovushlari.

Tekshirish metodikasi: bolaga o‘yin vaziyatida turli o‘yinchoqlar, maishiy jihozlar ko‘rsatiladi va: «Bu nima?», «Bu kim?», deb so‘raladi.

1 yoshu 7oylikdan 1 yoshu 9 oylikkacha

Impressiv nutk:

1. Sodda hikoyalarni va kattalarning voqaeband rasm bo‘yicha bergan savollarini tushunadi.

Jihoz: mazmuni tushunarli, bolaning yoshiga mos bo‘lgan turli voqeaband rasmlar: qizcha uxlayapti, ovqat eyapti, cho‘milyapti, kiyinyapti va x-zo taklif etiladi.

Tekshirish metodikasi: tekshiruvchi bolaning oldiga rasmlarni qo‘yadi va «Qizchaning uxlayotganini ko‘rsat», «Qizchaning cho‘milayotganini ko‘rsat», deb topshiriq beradi. Agarda bola berilayotgan savollarga tegishli rasmlarni ko‘rsatishga qiynalsa, u bilan birgalikda rasmlar ko‘rib chiqiladi va alohida personajlarga tegishli savollar beriladi.

2. «tagida» ko‘makchi otining ma’nosini tushunadi.

Jihoz: stul tagida yotgan predmet.

Tekshirish metodikasi: bolaga stul ustidagi ruchkani, stul tagidagi ruchkani olish va ho-zo ko‘rsatmalari beriladi.

3. Otlarning birlik va ko‘plik shakllarni ajratadi (1yoshu 9 oylik)

Jihoz: bu yoshda haqiqiy predmetlardan, shuningdek rasmlardan foydalanish mumkin: qalam-qalamlar, mashina-mashinalar va hokazo.

Tekshirish metodikasi: bolaga ko‘rsatish taklif etiladi (mashina qani, mashinalar esa qani, mashinani ber, mashinalarni ber).

4. fe’llarning o‘zlik nisbatida ifodalangan so‘z-harakatlarni tushunadi.

Jihoz: rasmlar (qo'g'irchoq qo'lini yuvyapti, qo'g'irchoq yuvinyapti, bola mashinani g'ildiratyapti, bola mashinada uchyapti, qiz kiyyapti, qiz kiyinyapti).

Tekshirish metodikasi: boladan qaerda kiyayayotganini, qaerda kiyinayatganini ko'rsatish so'raladi va hokazo.

Uch juft rasmdan 2-3 tasini ko'rsatadi.

5. Kichraytirish ko'shimchalari mavjud so'zlarni tushunadi (1 yoshu 9 oylik).

Jihoz: haqiqiy predmetlar yoki rasmlar: katta mashina, kichkina mashina, katta stul, kichkina stul va hokazo.

Tekshirish metodikasi: bolaga katta mashinani, mashinachani, stulni va stulchani ko'rsatish taklif etiladi.

6.Yuz va gavdaning 3-5 qismlarini ko'rsatadi.

Tekshirish metodikasi: bola bilan hissiy aloqa o'rnatib, ko'zini, burnini, og'zini ko'rsatish so'raladi.

Fonematik eshitish: nutq tovushlarini farqlash.

Jihoz: kuchuk, mushuk, xo'roz, sigir.

Tekshirish metodikasi: bolaga nima ovoz chiqarganini anikqlash taklif etiladi.

Bola tovushlarga taqlid bo'yicha tanish o'yinchoqlarni topadi.

Ekspressiv nutq:

7. Fe'llarni qo'llaydi, ikki so'zdan iborat jumlalardan foydalanadi.

Tekshirish metodikasi: bolaning o'yin faoliyatini kuzatayotib uning barcha nutqiy imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

So'zning bo'g'in tuzilishi.

1 yoshu 9 oylikda bola ikki ochiq bo'g'inli (oyi, opa, dada), bir bo'g'inli (non, choy, uy, gul) so'zlarini ayta oladi.

8. a, u, o, i, m, p, b, k, g, d, n, t, l, s tovushlarini talaffuz qiladi.

So'zlarda ko'pincha bosh dastlabki tovush yoki oxirgi undosh tashlab ketiladi.

1 yoshu 10 oylikdan 2 yoshgacha

Impressiv nutq

1. Bolaning tajribasida bo'lgan voqealar haqida ko'rsatilmasdan aytib berilganlarni tushunadi.

Tekshirish metodikasi: katta odam bolaning xotirasidagi avval yuz bergan hodisalarni eslatib savollar beradi.

2. "yonida" ko'makchi otning ma'nosini tushunadi.

Jihoz: koptok, stol.

Tekshirish metodikasi: bolaga koptokni o'ynash taklif etiladi. "Kel, koptok o'ynaymiz. Endi koptok stol ustidan sakrasin. Koptokni stolning yoniga qo'y".

Jihoz: voqeaband rasmlar: kuchuk yog'ochni o'ynayapti., bola esa uning yonida turibdi.

Tekshirish metodikasi: so'raladi: "Kuchuk nimani o'ynayapti?", "Bola nimaning yonida turibdi?".

3. Fe'llarning birlik va ko'plik shakllarini ajratadi (2 yosh).

Jihoz: voqeaband rasmlar: qizcha qo'shiq aytyapti, qizlar qo'shiq aytyaptilar; bola rasm chizyapti, bolalar rasm chizyaptilar.

Tekshirish metodikasi: so'raladi: Top-chi, men qaysi rasm haqida gapiraman: "Qo'shiq aytyaptilar". "Rasm chizayotganlari haqidagisini ko'rsat". Uchta rasmlar juftidan bola ikkitasini ko'rsatishi kerak.

Eshitish diqqati va fonematik eshitish: ovozning balandligini ajratadi (2 yoshda).

Jihoz: o'yinchoqlar: katta va kichik kuchuklar, katta va kichik mushuklar va hokazo.

Tekshirish metodikasi: boladan "Qaragin, mening qo'limda katta va kichik hayvonlar bor. Kichkinalari sekin ovoz chiqaradi, kattalari esa qattiq ovoz chiqaradi". " Hozir nima ovoz chiqarganini topasan".

Ekspressiv nutq

- ikkinchi shaxsda birlik va ko'plikda buyruq-istak maylidagi fe'llarni, infitiniv (harakat nomini) nutqda qo'llaydi;
- bosh kelishikda otlarning ko'plik shakllarini qo'llaydi;
- ravish, olmoshlarni : mana, ana, qaerda, yaxshi, kerak, kerak emas qo'llaydi;

Ba'zan kishilik olmoshlarini aralashtirib yuboradi (o'zi haqida 3 shaxsda gapiradi);

- co'zning bo'g'in tuzilishi: uch bo'g'inli so'zlarni (mashina, do'lana) nutqda qo'llaydi. Ba'zan bo'g'inlarni tashlab ketishi mumkin.

- sifat va olmoshlarni qo‘llab uchta so‘zdan iborat gaplardan foydalanadi. Qo‘shimchalarni qo‘shish orqali so‘z yasash malakalariga ega bo‘ladi (erkalatish-kichraytirish qo‘shimchalarini).

Tekshirish metodikasi: bolani o‘yin faoliyatida kuzatayotib, rasmlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishni taklif etib uning barcha nutqiy imkoniyatlari belgilab boriladi.

2 yoshu 1 oylikdan 2 yoshu 6 oylikkacha

Impressiv nutq:

1. Asosiy leksik mavzular bo‘yicha predmetlarning, harakatlarning ma’nosini anglatuvchi so‘zlarni tushunadi:
- o‘yinchoqlar: qo‘g‘irchoq, ayiqcha, koptok, kubik, quyoncha;
- idish-tovoqlar: piyola, choynak, qoshiq;
- kiyimlar: shapka, palto, tufli, ko‘ylak, ishton, mayka;
- mebel: stol, stul, shkaf, krovat;
- gavda qismlari: bosh, qo‘llar, oyoqlar, bo‘yin;
- yuzning qismlari: ko‘zlar, og‘iz, burun, peshona, lab;
- uy hayvonlari: it, mushuk, xo‘roz, ot, sigir;
- transport: mashina, avtobus, poezd, samolyot;
- mevalar: olma, apelsin, olxo‘ri;
- sabzavotlar: sabzi, bodring, pomidor;
- hayvonlar gavdasining qismlari: boshi, oyog‘i, dumi, ko‘zi, mo‘ylovi;
- harakatlar: kiyinish, ovqatlanish, ichish, kulish, o‘ynash, qurish, uchish, yuvish, silash, dazmollash, davolash;
- sifatlar: katta, kichik, uzun, qisqa, qizil, ko‘k, sariq, yashil, shirin, achchiq;
- narechiya (ravishlar): uzoq, yaqin, past, baland, tez, sekin, qorong‘i, yorug‘;
- Lug‘at boyligini tekshirish uchun *jihoz:* predmetlarning rasmlari, voqeaband rasmlar.

2. “orqasida”, “oldida”, “ustida” ko‘makchi otlarning qo‘llanilishini tushunadi (2 yoshu 6 oylik).

Tekshirish metodikasi: bolaga quyidagi ko‘rsatmalarni bajarish taklif etiladi: “Stulning ustiga chiq”, “Gilamning ustida yur”, “Oynaning oldiga bor”, “Qo‘lingni boshing ustiga ko‘tar”.

3. Fe’llarning hozirgi va o‘tgan zamonlarini ajratadi (2 yoshu 6 oylik).

Tekshirish metodikasi: bolaning nima qilganligi va nima qilishi haqida suhbat orqali aniqlanadi.

4. Uch pog‘onali ko‘rsatmani tushunadi.

Tekshirish metodikasi: boladan quyidagicha ko‘rsatmalarni bajarish so‘raladi: “Stulning ustidagi koptokni ol va stol ustiga qo‘y” yoki “Stolning ustidagi mashinachani va koptokni ol, oyingga mashinachani ber, menga esa koptokni ber”.

Eshitish diqqati va fonematik eshitish: paronim-so‘zlarni farqlaydi (2 yoshu 6 oylik)

Jihoz: rasmlar (shim-cim, bosh-tosh, stol-stul va xokazo).

Tekshirish metodikasi: bolaga so‘ralayotgan rasmni ko‘rsatish taklif etiladi.

Ekspressiv nutq:
- otlarni bosh, jo‘nalish, o‘rin-payt kelishiklarda qo‘llay oladi;
- otlarni birlik va ko‘plikda qo‘llay oladi;
- fe’llarni birlik va ko‘plikda qo‘llaydi,shaxslarda o‘zgartira oladi (2 shaxs ko‘plikdan boshqasida). Fe’llarning hozirgi va o‘tgan zamonlarini farqlaydi.

So‘zning bo‘g‘in tuzilishi: ikki bo‘g‘inli so‘zlarni (limon, shamol) talaffuz etadi.

Tovushlar talaffuzida artikulyasiya jihatidan bir-biriga yaqin tovushlarni almashtiradi.

2 yoshu 7oylikdan 3 yoshgacha

Impressiv nutq
ochish, yopish, olib ketish, olib kelish, o‘rash, taxlash, yoyin).

Fonematik eshitish: omonim so‘zlarni farqlaydi.

Ekspressiv nutq:
- otlarni, fe’llarni ko‘plikda qo‘llaydi.

Jihoz: bitta va bir necha predmetlar tasvirlangan rasmlar;
- o‘zlik nisbatidagi fe’llarning barcha shakllari paydo bo‘ladi;

- nutqida sifatdoshlar paydo bo'ladi (borgan, kelgan, ketgan).

Tekshirish metodikasi: bola bilan rasmlarni qo'llab suhbat o'tkazish orqali aniqlanadi.

So'zning bo'g'in tuzilishi: undosh tovushlar ketma-ket kelgan so'zlarni qo'llay boshlaydi, masalan, tarvuz, sholg'om, taksi.

Tovushlar talaffuzi: sh, j, ch, q, g'.

Logopedik teshirish natijalarining taxlili

1 oylikdan 4 oylikkacha bo'lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma'lumotlarning taxlili

Bolalar organizmidagi markaziy nerv sistemasining jarohatlanishi bilan bog'liq bo'lgan turli patologik holatlar hatto oddiy ovoz reaksiyalarining yuzaga kelishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin. Bolaning artikulyasiya a'zolari va nafas mushaklaridagi zaiflik uning qichqirig'ini qisqa, zaif, yuqori tonda, ba'zan esa esa shunchalik sekin bo'lishiga olib keladiki, bunda faqatgina mimik reaksiyaga ko'ra bola yig'layotganini sezish mumkin. Bulbar va psevdobulbar buzilishlarda, artikulyasiya a'zolarining tug'ma nuqsonlarida, ochiq rinolaliyada bolaning qichqirig'ida eshitiladigan tovushlar manqalangan tarzda bo'ladi. Nafas mushaklari zaif bolalarda bundan tashqari, yo'talish juda zaif yoki bo'lmaydi, go'dak aksiradi, ammo bo'g'iz tovushlarini chiqarmaydi. Emishning zaifligi, so'rg'ichni lab bilan ushlab olishning bo'shligi, emishda ko'pincha qoqilib ketish til, lab, chaynash mushaklarining inervatsiyasini buzilishlaridan dalolat berishi mumkin.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ovozga, o'yinchoq ovoziga eshitib e'tibor berishning zaifligi yoki yo'qligi kuzatiladi, ammo bu yoshda eshitishning tashxis qilish juda mushkuldir, chunki hatto total karlikka ega bo'lgan bolalar ham bu davrda ovoz chiqarishi, onasi unga erkalatib qaraganga e'tibor berishi mumkin.

Markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanishlari bo'lgan 2-3 oylik bolalarda nutq paydo bo'lgunga qadar rivojlanish orqada qoladi, sustlashadi. Og'ir holatlarda vokalizatsiya (ovoz chiqarish) faqatgina nafas mashqlari jarayonida, nafas chiqarishda imkoni

bo'ladi. Engilroq holatlarda bunday bolalarda ovoz faolligini kattalar bilan hissiy-nutqiy aloqa qilishda, yorqin rangdagi o'yinchoqqa nisbatan va taktil tegish orqali yuzaga keltirish mumkin. Bunday bolalarda dizartrik buzilishlar mavjudligiga taxmin qilinishi mumkin. Qichqiriq fiziologik reaksiya bo'lib, ko'pincha bu davrda ham intonatsiya jihatidan yorqin bo'lmaydi, butilkachaning so'rg'ichini, emishni sezishda ham to'xtamaydi.

3 oylikka kelib bunday bolalarda psevdobulbar sindrom ancha aniq namoyon bo'la boshlaydi, u emishni, yutishni, nafas olish, qichqirishni yaqqol buzilishlarida kuzatiladi. Bu davrda kuzatiladigan pevdobulbar sindromning xususiyatlari salbiy belgilarda namoyon bo'ladi. Ularga lab, til, yumshoq tanglay, bo'g'iz, nafas mushaklarining falajliklari va parezlari kiradi. Tilning hajmi katta, tarang, harakatsiz, uchi aniq emas, ko'pincha yarim doira shaklida, yuqoriga biroz ko'tarilgan "so'ruvchi til" shaklida, ba'zi bolalarda esa, aksincha, spastik orqaga tortilgan, harakatsiz bo'ladi.

2-3oylik bolalarda nutq nuqsonlarining paydo bo'lish belgilariga qichqiriq va guğulashning bo'lmasligi yoki etarlicha intonatsion jihatdan ifodaliligi; gugulashdagi bir xil va sekin tovushlarning qo'l va oyoqlarning betartib harakatlari bilan birgalikda kelishi; jonlanish kompleksining yo'qligi; qichqiriqdagi manqalangan tovushlarning ko'pligi va xokazolar kiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda asosan qisqa, ko'p bo'lmagan gugulash kuzatiladi.

Logopedik tekshirishda go'dakning tovush reaksiyalari: gugulash, bo'g'inlarni talaffuz etish kuzatish orqali baholanadi:. Bunda faqatgina bunday tovush reaksiyalarining mavjudligi emas, balki ularning sifatiga e'tibor beriladi.

4 oylikdan 8 oylikkacha bo'lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma'lumotlarning taxlili

Bulbar va psevdobulbar buzilishlar bu davrda faqatgina oziqlanishning buzilishini, ya'ni emish va yutishning buzilishlari bilangina emas, balki fonatsiyaning o'zgarishi, gipersalivatsiya (so'laklarning oqishi) va til mushaklarining tonusini oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Psevdobulbar dizartriyada til tonusi oshgan bo‘ladi. Og‘iz ochilganda til uchining qalinlashganligi, tilning kattaligi, kam harakatliligi kuzatiladi, bola qichqirganida til “qayiqcha” shaklida bo‘ladi yoki uchi bilan qattiq tanglayga tegib turadi. Tilning mushaklari tonusi psevdobulbar falajlikda pasaygan, til y0oyilgan holatda, og‘izdan chiqib turadi yoki lablar orasida bo‘ladi.

Bulbar buzilishlarda mushaklarning bir tomonining atrofiyasi natijasida tilning uchi ingichkalashgan va yon tomonga egilgan bo‘ladi. Yumshoq tanglay osilib turadi. Til va yumshoq tanglay tonusining buzilishi natijasida bolaning qichqiriqlari va gugulash tovushlari manqalanib eshitiladi. Gugulash tovushlari kam, bir xilda bo‘ladi, hissiy aloqaga javoban kulgu, quvonchli qichqiriqlar kuzatilmaydi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda jonlanish kompleksi tovushlarining shakllanishi orqada qoladi.

Eshitish analizatori buzilgan bolalarda gugulashda o‘z-o‘ziga taqlid qilish kuzatilmaydi, bola onasi bilan hissiy aloqada kulmaydi, sokin, ritmik musiqaga reaksiya kuzatilmaydi.

5 oylik markaziy nerv sistemasi jarohatlanishlariga ega bo‘lgan bolalarda eshitish buzilgan hollarda bo‘g‘inlarni talaffuz etishning dastlabki bosqichi rivojlanmaydi, engilroq holatlarda esa ovoz faolligining etarlicha emasligi, tovush komplekslarining kambag‘alligi, parcha tarzdaliligi namoyon bo‘ladi.

Turli sababalarga ko‘ra psixomotor rivojlanishi sustlashgan, ko‘rishida, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda “.....qani?” savoliga chamalash (izlash) reaksiyalari kuzatilmaydi.

Ko‘rishida, eshitishida buzilishlar bo‘lgan bolalarda shuningdek tovush va artikulyator mimika o‘rtasida bog‘lanish yuzaga kelmaydi, natijada bo‘g‘inlarni talaffuz qilishning shaklanishi orqada qoladi.

9 oylikdan 12 oylikkacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma’lumotlarning taxlili

11-12 oylikda bola ikkita bir xil bo‘g‘inlarni birin-ketin bog‘lashga o‘tadi, bu holat ona tili fonematik idrok etish ta’sirida yuzaga keladi. Bo‘g‘inlarni ko‘paytirish “so‘zlarni ajratish” sifatida

qaralishi mumkin. Harakat doirasida qo‘pol buzilishlarga ega bo‘lgan bolalar patologik tonik reflekslarning ta’siri natijasida haligacha gugulash davrida bo‘ladilar. Ko‘pincha chaynash, yutishning buzilishlari, suyuq ovqatlarni iste’mol qilayotganlarida “qoqilib” ketish hollari kuzatiladi. Predmetli faoliyat va impressiv nutqning (nutqni tushunish) shakllanishi orqada qoladi. Maqsadga yo‘naltirilgan aniq harakatlarning shakllanishi va barmoqlarning nozik harakatlarini rivojlanishidagi buzilishlar boladagi nutq paydo bo‘lgunga qadar rivojlanishning ham sustlashishidan darak beradi.

Agarda 12 oylikda nutq paydo bo‘lgunga qadar va nutqning ilk rivojlanish davrlaridan orqada qolish kuzatilsa orqada qolishning sababini aniqlash uchun bolani nevrologik va psixologik tekshirish zarur.

Turli tovushlarga reaksiyaning bo‘lmasligi yoki zaifligi hamda bolaning so‘zlarni tlaffuz etmasligi uning eshitishining pasayganligidan dalolat beradi.

Ko‘rishning pasayishi bolada predmetning aniq ko‘ruv obrazini yuzaga kelmasligiga olib keladi va bola so‘zlayotgan odamning ko‘rinayotgan artikulyasiyasiga tayana olmaydi, natijada nutqning impressiv tomonining rivojlanishi orqada qoladi, chunki so‘zning tovush obrazining ko‘ruv-kinestetik sezgi o‘rtasida bog‘lanish hosil bo‘lmaydi.

1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma’lumotlarning taxlili

Nutqning ekspressiv tomonining rivojlanishi orqada qolgan bolalar nutqini impressiv tomonini tekshirish uning etarlicha darajadaligini ko‘rsatadi. Bolalar so‘ralganda predmetlarni, o‘yinchoqlarni, rasmlarda predmet va harakatlarning nomlarini ko‘rsatadilar. Ekspressiv nutq nutqiy faollikning pastligi bilan tavsiflanadi. Bolalar imo-ishoralar bilan bilan harakat qilishga moyil bo‘ladilar, bo‘g‘in-so‘zlarni qo‘llaydilar, ko‘rsatilgan ko‘pgina predmetlarni, shuningdek predmetlarning rasmlarini, voqeaband rasmlarni nomlay olmaydilar yoki tovushlarga taqlid qilish bilan cheklanadilar. Jumlali nutq ko‘p bolalarda bu davrda shakllanmagan bo‘ladi. Ba’zi hollarda amorf gaplar kuzatiladi.

Artikulyasiya a'zolarining harakatchanligini buzilishi hollarida 2 yoshga kelib nutqiy faollikning pastligi namoyon bo'ladi. Bolalar alohida vokalizatsiyalarni, amorf so'zlarni, "bo'g'in so'zlarni" chiqaradilar. Ko'rsatilgan nuqsonlar bolalarda dizartrik buzilishlarning mavjudligidan dalolat berishi mumkin.

Impressiv nutq birlamchi buzilgan hollarda bolalar ularga qaratilgan nutqni tushunmaydilar. Nutqiy bo'lmagan tovushlarga e'tibor beradilar, ammo bunda turg'unlik kuzatilmaydi. Aloqa qilishda bolalar modulyasiyalashgan vokalizatsiyalardan foydalanadilar, ko'pincha so'ralganda ular fonetik tizimdagi ko'pgina tovushlarni, bo'g'in-so'zlarni yoki so'zlarni talaffuz qilishlari (takrorlashlari) mumkin.

Eshitishi pasaygan bolalarda nutqni tushunish qo'pol buzilgan bo'ladi. Bolalar maishiy xarakterdagi bir necha ko'rsatmalarni aniq vaziyatda baland ovoz bilan aytilganda tushunishlari mumkin. Nutqiy faollik keskin pasaygan bo'ladi. Aloqa qilish uchun bolalar ekspressiv imo-ishorali va predmet-amaliy vositalardan foydalanadilar. Ekspressiv nutqda 2 yoshga kelib eshitishi pasaygan bolalarda asosan, alohida kam modulyasiyalangan vokalizatsiyalar va bo'g'in-so'zlar bo'ladi.

2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirishdan olingan ma'lumotlarning taxlili

Ekspressiv nutqining rivojlanishi sustlashgan bolalarda impressiv nutq deyarli yoshiga mos darajada bo'ladi. Bolalar rasmlarda tasvirlangan predmetlarning, harakatlarni yaxshi biladilar, grammatik kategoriyalardan son, kelishiklar qo'shimchalarini ishlatilishini to'g'ri tushunadilar. Ular kichik hajmdagi bog'langan matnlarni: she'r, ertak, hikoyalarning mazmunini tushunadilar.

Nutqning rivojlanishini orqada qolishi ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lgan hollarda, ya'ni bolaning tarbiyasida haddan tashqari g'amxo'rlik, kattalarni bolaning barcha istaklarini, talablarini muhayyo qilishlarida ko'pincha bolalar imo-ishoralardan ham ko'p foydalanadilar, ularning nutqni faol qo'llay imkoniyatlari chegaralanadi. Bunday bolalar uchun aloqaga kirishmaslik, xavotirlanish, qo'rqoqlik, o'jarlik, negativizm, kattalarning talablarini bajarmaslik kabi psixologik xususiyatlar xos bo'ladi.

Nutqning shakllanishini sustlashuvi bolalar serebral falajligida artikulyasiya a'zolarining harakatchanligining buzilishlaridan ham kelib chiqishi mumkin. Bu holda artikulyasiya a'zolarini tekshirishda mushaklar tonusining buzilishlariga e'tibor qaratiladi. Mushaklar tonusidagi spastik yoki paretiklik artikulyasiya a'zolarining ixtiyoriy harakatlarini chegaralaydi va tovushlar talaffuzining nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Og'ir holatlarda bola lablar, tilning ixtiyoriy harakatlarini umuman bajara olmaydi. Ko'pincha chaynash, yutish buziladi. Bolalarda nutqning shakllanishidagi bo'g'inlarni talaffuz etish bosqichi kechikib qoladi, artikulyasiya a'zolari harakatchanligi buzilishlarining og'ir hollarida bo'g'inlar bolaning nutqida 2 yoshga kelib paydo bo'lishi mumkin. Talaffuz etiladigan tovushlar ko'pincha bir xil tarzda bo'ladi.

Harakat doirasida buzilishlar kuzatiladigan bolalarda predmet-amaliy faoliyatning nuqsonlariga bog'liq ravishda faol lug'atni o'zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularning nutqida predmetlarning ma'nosini anglatadigan dastlabki so'zlar kech (2 yoshu 6 oylikdan 3 yoshda) paydo bo'ladi. Nutqni tushunish umumlashtirilgan darajagcha etmaydi: bola predmetlarni anglatadigan so'zlarni, predmetlarni faqatgina aniq, bola uchun tanish bo'lgan vaziyatlardagina tushunadi, taniy oladi.

Nutqning rivojlanishini orqada qolishi ilk yoshdagi bolalar autizmida o'ziga xos nutq buzilishlariga ham bog'liq bo'ladi. Bunday bolalarda nutqiy aloqaning keskin cheklanganligi, nutqning leksik-grammatik tomonini rivojlanmay qolishi, o'ziga xos fonetik buzilishlar va ovozning yuqori tonda bo'lishining ustunligi bilan ifodalanadigan buzilishlari kuzatiladi. Bolalarni kuzatishdan hamda uning onasi bilan suhbatdan olingan ma'lumotlar natijasida autik bolalarda artikulyasiya a'zolari harakatchanligida qo'pol buzilishlarning yo'qligiga amin bo'lish mumkin, chunki bola nutqida spontan ravishda (beixtiyoriy) murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni va to'liq jumlalarni talaffuz eta oladi. Autik bola nutqni aloqa vositasi sifatida qo'llamagani uchun nutqning rivojlanishi orqada qoladi.

Psixik rivojlanishi total sustlashgan bolalarda nutqning rivojlanishini orqada qolishi yaqqol namoyon bo‘ladi va ham impressiv va ekspressiv nutqda kuzatiladi. Artikulyasiya a’zolarining harakatchanligining buzilishlari bo‘lmaganda ham psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar sirg‘aluvchi tovushlarni uzoq vaqtgacha talaffuz eta olmaydilar, ularda predmetlarni farqlab tushunish va so‘z ifodasida aks ettirishining shakllanmay qolishi sababli fonematik idrokning shakllanishi ham kechikib qoladi. Bolalar nutqiy ko‘rsatmalarni imo-ishora bilan aniq, ular uchun yaxshi tanish bo‘lgan vaziyatlarda tushunadilar. Psixik rivojlanishi total sustlashgan bolalarda jumlali nutq 3 yoshda ham shakllanmagan bo‘ladi.

Impressiv nutqning rivojlanmay qolishi birlamchi (asosiy) nuqson bo‘lgan bolalar ularga qaratilgan nutqni tushunmaydilar. Ularda ekspressiv nutq shakllanmagan bo‘ladi, ammo ba’zan sodda bo‘g‘in tuzilishidagi so‘zlarni takrorlashlari mumkin. Bu yoshda bolalarda nutqning leksik-grammatik tomoni etarlicha shakllangan va bog‘langan nutqi mavjud bo‘lan hollarda tovushlar talaffuzining buzilishlari ham kuzatilishi mumkin. Fonetik buzilishlar til oldi tovushlarini tisharo va yon tomonda talaffuzida namoyon bo‘lishi mumkin.

Nutqning fonetik-fonematik rivojlanmay qolishida bolalar tovushlarni bir-biriga almashtirishlari, o‘rnilarini almashtirishlari va buzib talaffuz etishlari kuzatiladi. Fonematik idrokning shakllanganligini tekshirishda akustik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan tovushlarni farqlashda, rasmlar materialida paronim so‘zlarni ajratishdagi qiyinchiliklar, xatolar kuzatiladi.

Bolaning nutqiy rivojlanishining umumiy tavsifi (logopedik xulosa)

3 yoshgacha bo‘lgan bolalardagi nutqiy buzilishlarni ko‘rib chiqishda ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik va tibbiy-pedagogik tasniflarga tayanish lozim. Ammo, nutq tug‘ma funksiya emas, balki asab tizimining morfofunksional etilishi hamda atrof muhit bilan o‘zaro ijtimoiy harakat, aloqadorlik natijasida shakllanishidan kelib chiqib 3 yoshgacha bolada nutqning rivojlanishida individu-

al rivojlanish sur’ati kuzatilishi mumkin. Nutqning rivojlanishini orqada qolishi turli omillarga, ya’ni konstitutsional xususiyatlar, asab tizimining organik va funksional buzilishlari, kognitiv, kommunikativ va hissiy buzilishlar, tarbiya sharoiti va bir qator boshqa sabablarga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun 3 yoshda aniq tashxisni qo‘ymay, balki nutqning rivojlanishidagi turli buzilishlarni genezni ko‘rsatgan holda nutqning rivojlanishini orqada qolishi sifatida ko‘rsatish mumkin.

Tug‘ilgandan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalardagi nutq buzilishlarini aniqroq belgilash uchun quyidagicha tasnifdan foydalanish mumkin:

- nutq paydo bo‘lgunga qadar rivojlanishning orqada qolishi;
- nutqning rivojlanishini sustlashishi;
- ekspressiv nutqning shakllanishini orqada qolishi;
- impressiv nutqning rivojlanishini orqada qolishi (shartli ravishda sensor alaliyaning kelib chiqish taxmini);
- artikulyasiya motorikasining (artikulyasiya a’zolari harakatlarining) qo‘pol buzilishlari (natijasida nutqning rivojlanishdan orqada qolishi (shartli ravishda anartriya, dizartriyaning kelib chiqishi);
- aloqaning buzilishlari natijasida kelib chiqqan nutqning rivojlanishini orqada qolishi (bolalar autizmi va boshqalarda);
- eshitishning pasayishiga bog‘liq nutqning rivojlanishini orqada qolishi;
- bilish faoliyatining buzilishi natijasida nutqning rivojlanishini orqada qolishi (rivojlanishning total orqada qolishida);
- periferik nutq apparatining to‘liqligining buzilishi natijasida nutqning rivojlanishini orqada qolishi (shartli ravishda rinolaliya varianti);

Nutq buzilishlarining ushbu sistematizatsiyasi orqali bolaning nutqiy rivojlanishidagi buzilishlarni ancha aniq belgilab, u yordmida korreksiyalash yordamining muqobil, maqsadga yo‘naltirilgan dasturini ishlab chiqishga imkon beradi. Masalan, intellekt yoki eshitish nuqsonlari birlamchi bo‘lgan bolalarga oligofrenopedagog va surdopedagog bilan korrkksion mashg‘ulotlar, aloqa qilishning buzilishi natijasida nutqning rivojlanishi orqada qolgan bolalarga psixologning yordami tavsiya etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik- pedagogik jihatdan tekshirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirish tamoyillari va metodlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirishning maqsadi – bolaning psixologik rivojlanishi, hamda psixik funksiyalarini holatiga baho berishdir.

Psixolog bolada tekshiruv o'tkazayotgan paytida, u bilan yaxshi munosabatda bo'lishi, eksperimentlar vaqtida bolani ruhiyatini ko'tarib, uni maqtab yaxshi so'zlarni aytishi kerak.

Psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy metodi: hujjatlarni o'rganish, bola bilan suhbatlashish, uning ota-onasi bilan ham suhbat o'tkazish, bolani kuzatish va test o'tkazishdan iborat.

Psixologik eksperimentlarni o'tkazishdan avval psixolog bolaning anamnezi va boshqa hujjatlari: bolaning daftarlari, chizgan rasmlari, psixologik xarakteristika va hokazolar; tibbiy tekshirishlar: eshitishi, ko'ruv apparati, tayanch harakat apparati, bolaning nutqini holati kabilarni yaxshi bilgan psixolog to'g'ri tekshirish ishlarini olib boradi.

Ota-ona bilan suhbat davomida psixolog bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ota-ona bolasi bilan har kuni munosabatda bo'lganligi uchun, ular bolasini yaxshi bilishadi, shu bilan birga suhbat davomida psixolog ota-onani bolaga nisbatan bo'lgan munosabatini bilib oladi.

Psixolog bola bilan suhbatlashayotganda savollarni bolani yoshiga moslab, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, bola bilan alohida qolganida berishi kerak.

Kuzatish bolani tekshirish davomida olib boriladi.

Bolani psixologik rivojlanishini chuqurroq o'rganish uchun eksperiment tekshiruv metodini olib borish zarur. Eksperiment vaqtida bola haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Eksperimental tekshirishlarni o'tkazishda ushbu tamoyillarga tayanish lozim:

- psixologik ta'limni modellashtirish, bola buni hayoti davomida amalga oshiradi (o'qish, o'yin);
- bolaga beriladigan vazifa uning yoshiga va bilimiga tayangan

holda bo'lishi kerak;

- tahlil samarali bo'lishi uchun bolaning barcha psixologik faoliyatini ko'rish zarur, o'zining faoliyatiga va natijalariga munosabati, uni bajarish va davomiylik sur'ati va hokazo.

Eksperimentlarni o'tkazish vaqtida bolaning yoshiga e'tibor berish kerak, shu bilan birgalikda bitta yo'nalishda emas, balki bir necha bir-biriga yaqin bo'lgan metodikalarni tanlash kerak.

Kuzatishni olib borishda, birinchidan kuzatishni vazifasini va ikkinchidan kuzatilayotgan bola haqida oldindan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Ba'zi vaziyatlarda bolaga, uning faqatgina qobiliyatini baholash uchun tekshirish o'tkazilayotganday qilib his ettirish kerak. Bunday sharoitlarda eksperimentator alohida vazifalarni to'g'ri baholashi mumkin. Ushbu ishni aqli zaif va psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalarda o'tkazilganda, ularning motivatsion doirasini rivojlanganligini kuzatish mumkin. Yana boshqa bir vaziyatlarda bola ishonchini qozonib, o'zini bo'sh qo'yish va o'zini bemalol erkin tutishga imkoniyat yaratish kerak. Buni eshitishida, ko'rishida, nutqida, tayanch harakati a'zolarida nuqsonlari bor, hamda maktabga moslasha olmayotgan, fazoda mo'ljal ololmaydigan bolalarda o'tkazish kerak.

Topshiriqlarni bajarishda to'g'ri yoki noto'g'riligini qayd etib qolmasdan, unga yordamlashib yangi bajarish yo'llarini o'rgatish kerak.

Bola uchun qiziqarli bo'lishi uchun vazifalarni soddadan boshlash kerak. So'ngra murakkabroq topshiriqlarga o'tish mumkin, lekin bolada charchash, sustlik kuzatilsa, darhol osonroq topshiriq berish kerak yoki biroz dam oldirish kerak. Psixolog bilan bola stol orqali suhbat qurganidan ko'ra, yonma-yon o'tirib suhbatlashishi bolaga ancha qulaydir. Bolaning psixik rivojlanishi va nuqsoniga qarab (eshitishida, ko'rishida, tayan harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalarga maxsus apparatlar yordamida) sharoit yaratish lozim.

Psixologik tekshirishda test, savolnomalar o'tkazilishi:

-aqliy rivojalanishini me'yorida rivojlanish bilan solishtirgan holda baholash;

-fikrini o'rganish, shaxsiy motivatsiyasi hamda munosabatga kirishishi o'rganiladi.

Psixologik tekshirish mazmuni

Bolani psixik rivojlanishini aniqlash hamda oliy psixik faoliyat funksiyalarining holatini baholashda aqliy faoliyatning turli jabhalarini: aqliy ishlash qobiliyatini holati, diqqati, idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqining xususiyatlarini o'rganish va yoritish zarur. Zaruriyat tug'ilganda: oilaning ichki va bolaning ota-onasi o'rtasidagi munosabati, tengdoshlari bilan munosabati, o'zini-o'zi baholashi kabilar tekshiriladi.

Psixologik tekshirishning natijasi psixologik xulosa tuzish, TPPKning umumiy xulosasini, tavsiyalarni muxokama qilish ishtirok etish bilan yakunlanadi.

Aqliy ishlash qobiliyatining holatini tekshirish. Bolaning aqliy ishlash qobiliyatini tekshirish aqliy ishlash qobiliyatidagi turli kamchiliklarni, bu nuqsonlarning bolani aqliy faoliyati tuzilishiga ta'sirini aniqlashga imkon beradi. Aqliy ishlash qobiliyatining buzilishlari turli xarakterda va darajada namoyon bo'lishi mumkin. Aqliy ishlash qobiliyatini buzilishlarini taxminan engil ifodalangan, o'rta va yaqqol (qo'pol) ifodalanganga ajratish mumkin. Lekin bunday ajratish taxminiy ekanligini aytish lozim. Chunki u ko'p omillarga bog'liq narsaga bog'liq va psixolog tomonidan kasbiy tajribasidan kelib chiqqan holda ma'lum darajada su'bektiv tarzda aniqlanadi.

Namoyon bo'lish darajasidan tashqari, kamchilik xarakterini aniqlash lozim. Aqliy ishlash qobiliyatining buzilishlari turlicha xarakterda bo'lishi mumkin:

a) bir maromda pasayishi (tekshirish davomida buzilishning namoyon bo'lishi taxminan bir xilda bo'ladi);

b) tebranishli xarakterda (tekshirishda aqliy ishlay olishini tebranish kuzatiladi);

v) toliqish xarakterida (tekshirishning oxiriga kelganda aqliy ishlay olishining pasayishi);

g) murakkab (masalan: umumiy pasayishda aqlan ishlay olishning tebranishi);

Aqliy ishlash qobiliyati buzilishining aralash formalari ham uchraydi, ular bilan korreksion ishlarni olib borish uchun, to'g'ri

«Segen taxtasi» metodikasi

Maqsad: kattalikni farqlash darajasi, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.



Jihoz: shakllar andozasi chuqur o'yilgan taxta (4 variantli) va shu chuqurchalarga to'g'ri keladigan shakllar.

O'tkazish texnikasi: bolaga shakllar joylashtirilgan taxta ko'rsatiladi va ko'zining oldida taxta shunday ag'dariladiki, ichidagi shakllar stolning o'rtasiga tushuriladi. Ko'rsatma beriladi: a) so'z orqali («Qara menda har xil shaklli taxta bor, men shakllarni to'kaman, sen esa joyiga solasan») yoki b) imo-ishora orqali (eshitishi va nutqi buzilgan bolalarga).

Agar bola topshiriqni tushunmasa va bajarishga kirishmasa, unda eksperiment o'tkazuvchining o'zi 1-2 shakllarini solib ko'rsatib berishi kerak. Noo'rin harakatlarda yana yordam ko'rsatiladi: «Yaxshilab qara, ushbu shaklni qaerga qo'yish kerak». Agar samara bermasa, unda bolaning diqqatini taxtadagi shakllarga va qo'lidagi shaklga qaratiladi. Agar bola noo'rin harakatlarda davom etsa, unda chamalab, solib ko'rish taklif etiladi.

Bajarish me'yori:

3 yoshda (variant-1) maqsadga yo'naltirilgan urinishlar va amaliy chamalab ko'rish orqali.

3,5 yoshda (variant-1) ko'rib mo'ljal olish va amaliy chamalab ko'rish orqali.

4-5 yoshda (variant – 2-3) ko'rib mo'ljal olish va amaliy chamalab ko'rish mumkin

5-6 yoshda (variant – 3-4) ko'rib solishtirish va amaliy chamalab ko'rish mumkin.

«Pochta qutisi» metodikasi

Maqsad: kattalikni farqlash darajasi, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.



Jihoz: plastmassa yoki yog'och quti, uning ustida shakllar formasi kesilgan va quti ustidagi o'yilgan shakllarga mos hajmli shakllar.

O'tkazish texnikasi: bolaga beriladi: a) so'z ko'rsatmasi, «Sen yoningda har xil shakllar qirqilgan quti turibdi. Qo'lingdagi shakllardan quti ustidagi shaklga mosini tanlab, quti ichiga ushbu shakl orqali tashla»; b) imo-ishorali ko'rsatma (eshitishi va nutqida kamchiligi bor bolalarga). Eksperiment o'tkazuvchi bitta shaklni olib, mos shaklli teshik orqali quti ichiga tashlaydi va imo-ishora orqali bolaga davom ettirishni taklif etadi.

Agar bola topshiriqni tushunmasa va bajarmasa unga yordam ko'rsatiladi: «Yaxshilab qara, ushbu shaklni qaerga tashlash mumkin» yoki imo-ishora orqali shaklning qirralariga diqqat qaratiladi.

Agar bola topshiriqni qabul qilmasa va noo'rin harakatda davom etsa, unga o'rgatuvchi yordam beriladi, nutqiy shakli: «shaklni olib galma-galdan har bir teshikka qo'yib ko'ramiz, toki to'g'ri keladiganini topmaguncha» yoki imo-ishora orqali: bolaga tanlay olishi uchun shaklni har bir teshikka tiqib ko'rishni, to keragini topmaguncha davom ettirish kerakligi ko'rsatiladi.

Agar bola ushbu yordamdan keyin ham noo'rin harakat qilsa, tekshirish to'xtatiladi. Agar bola harakatlarini tushunib bajara olsa, quti o'giriladi va murakkabroq variant beriladi.

Bajarish me'yori:

3-4 yoshda maqsadga yo'naltirilgan urinishlar

4-5 yoshda amaliy chamalash va ko'rib solishtirish.

5-6 yoshda ko'rib solishtirish.

«Kesma rasmlar» metodikasi

Maqsad: idrokning to'liqliligini rivojlanish darajasini, ko'ruv-fazoviy analiz va sintezini, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.



Jihoz: to'liq va kesma rasmlarning to'plami. Rasmlar 3 taga, 4 qismga kestlgan.

O'tkazish texnikasi: eksperiment o'tkazuvchi kesma rasm qismlarini ko'rsatib, unda qanday predmet tasvirlanganligini aytmaydi, ko'rsatma beriladi: a) so'z – ishorali shaklda: «rasmni to'liq qilib yig'ib ber» yoki b) imo-ishorali. Agar bola topshirig'ini tushunmasa, to'liq rasm shakli ko'rsatiladi va ko'rsatma takrorlanadi yoki taxlanib va yana rasm qismlari ajratiladi.

Agar bu yordam samarasiz bo'lsa, bolaga rasm qismlaridan to'liq rasmni yig'ish ketma-ketligi taxminiy yo'naltirish orqali o'rgatiladi. Shundan so'ng bolaga ushbu rasmni yana bir bor yig'ib berish so'raladi va boshqa variant taklif etiladi.

Bajarish me'yori: 3 qismli kesma rasmlarni:
3-4 yoshda amaliy chamalab ko'rish orqali.
4-5 yoshda ko'ruviga tayanib.

4-6 qismli rasmlar:
3-4 yoshda maqsadga yo'naltirilgan urinishlar.
4-5 yoshda amaliy chamalab ko'rish orqali.
5-6 yoshda ko'rib solishtirish orqali

«Qatorga qo'y» metodikasi

Maqsad: kattalikni idrok etish darajasini, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.



Jihoz: olti qismli matreshka.

O'tkazish texnikasi: eksperiment o'tkazuvchi bolaning ko'zi oldida matershkalarni ajratib, ularni bir-biriga mosi bilan qo'yib chiqadi. Keyin matreshkalarni katta-kichikligiga qarab, orasida bir xil interval saqlagan holda qo'yib chiqadi. Bundan so'ng tekshiruvchi matreshkalar qatorini ekran bilan bekitib, bolaga ko'rsatmagan holda bittasini olib qo'yadi, so'ngra ekran olinib bolaga matreshkani joyini topib qo'yish so'raladi.

Agar bola topshiriqni bajara olmasa, unga yordam ko'rsatiladi. Avval so'z ko'rsatmasi orqali: «Yaxshilab qara, ushbu matreshka

yasi funksiyalarini rivojlanishi asosida kechadi. Intellektual nuqsonlarni tashxis etishda o'yin predmet-amaliy topshiriq asosida tuzilgan metodikalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ularning tashxis qilish imkoniyati ko'p bo'lib, ushbu metodikalar faqatgina natijalarni emas, balki jarayonning o'zini, topshiriqni bajarish usulini taxlil qilish imkonini beradi. Ushbu metodikalardan bolaning o'rganishini aniqlash maksadida o'yin shaklida ta'limiy eksperiment sifatida foydalanish mumkin.

Ushbu metodikalarning to'plami hamda ularni qo'llashning xronologik ketma-ketligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

№	Metodikalar	Yoshlari			
		3-4	4-5	5-6	6-7
	1	2	3	4	5
1	Matryoshkani yig'ish va ajratish. a) to'rt qavatli b) besh qavatli v) olti qavatli	+ 	 + 	 +	
2	Piramidani taxlash va ajratish				
	a) to'rt xalqachali b) olti xalqachali	+ 	 +	– 	–
3	Segen taxtasi a) variant – 1 b) variant – 2 v) variant – 3 g) variant – 4	 + 	 + 	 +	 +
4	Pochta qutisi	+	+	+	+
5	Kesma rasmlar. a) uch qismdan iborat b) to'rt qismdan iborat	 + 	 + 	 +	 +
6	Qatoriga qo'yish.		+	+	
7	Namunaga qarab qurish a) 4 elementdan iborat b) 5 elementdan iborat v) 6 va undan ko'p elementdan iborat	 + 	 + 	 +	 +
8	Klassifikatsiya			+	+
9	Koos kubiklari			+	+

Psixologik tekshirish o'tkazishda bolaning faqatgina yoshiga emas, balki uning intellektual va jismoniy imkoniyatlariga bog'liq holda diagnostik metodlarni tanlash zarur. Shuni e'tiborga olish kerakki, ko'ruv o'tkirligining 0,09 dan pastligi, ko'rish maydonining 20%ga kamayishi hamda harakatida nuqsoni bo'lgan (bolalar serebral falaji) kamchiligi, hamda xarakatida kamchiligi (DSP ning og'ir formasi) topshiriqni bajarish sifatiga ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu metodikalarni bajarish natijalarini baholashda harakatlarning o'rinliligi (topshiriqni qanday qabul qiladi), topshiriqni bajarish usuli, bajarish jarayonini o'rganishi va o'z faoliyati natijasiga munosabatini e'tiborga olish zarur.

Birinchi parametr tavsifida bola berilgan topshiriqni hohish bilan bajarayotganligi, ko'rsatmani tushunganligi, harakatlarini o'rinliligiga e'tibor qaratish muhim. Topshiriqni bajarish turlari orientirlash faoliyati darajasidan dalolat beradi.

Topshiriqni bajarishning to'rt daraja yoki turi ajratiladi:

1. Xaotik xarakatlar. Bu holda bola predmetlarning xususiyati va sifatini ajrata olmaydi (tuzilishi, kattaligi, rangi...) boshqa variantlarga maqsadsiz o'tadi, ko'pincha kuch ishlatadi.
2. Maqsadga yo'naltirilgan taxminlar yoki xato taxminlar orqali, bola predmetning xususiyatlarini anglay olmaydi, lekin bajarishda xatolarini yo'qotib barcha variantlardan foydalanib ko'radi,.
3. Amaliy qo'llab ko'rish. Bola predmetlarning xususiyatlarini ajrata boshlaydi, lekin ko'rgazma- obrazli ravishda solishtira olmaydi va amaliy qo'llab ko'rishga kirishadi.
4. Ko'rish orqali solishtirish. Bola predmetlarning xususiyatlarini tayanib topshiriqni hech qanday taxminlarsiz darrov bajaradi.

«Matreshkani yig'ish va ajratish» metodikasi

Maqsad: Kattalikni farqlash, ko'rgazma-harakatli tafakkurning rivojlanganlik darajasini tekshirish.

Material: 4-6 qismli matreshkalar.

O'tkazish texnikasi: eksperiment o'tkazuvchi bolaga matreshkani berib, a) so'z bilan «matreshkani och» yoki b) imo-ishora bilan: matreshkani uzatib uni ochishni aytadi (eshitishi va nutqida kamchiligi bor bolalarga).

Agar bola bajarishga kirishmasa, eksperiment o'tkazuvchi tashkillashtiruvchi yordam berib matreshkani o'zi ochadi va shunday deydi: «Qara va menga qarab bajar» yoki imo-ishora bilan matreshkani ochishni davom ettirishini so'raydi. Matreshkalar ajratib bo'lingandan so'ng, keyingi ko'rsatma beriladi: «Hamma matreshkalarni bittasiga sol» yoki imo-ishora bilan bolaga matreshkani yig'ish taklif etiladi.

Agar bola topshiriqni bajara olmasa, unga yordam berib o'rgatiladi. Matreshkani yig'ish yo'li ko'rsatiladi: «Katta matreshkani ichiga kichkinasini solish." O'rgatilgandan so'ng boladan yana bir bor matreshkani yig'ish va ajratish so'raladi.

Bajarish me'yori: bola topshiriqni bajarishda quyidagi yo'llardan foydalaniladi:

3-4 yoshda – to'liq yo'naltirilgan tahminlar asosida.
4-5 yoshda – amaliy chamalab ko'rish orqali.
5-6 yoshda ko'ruv idroki orqali.

«Piramidani ajratish va yig‘ish» metodikasi

Maqsad: kattalikni farqlash darajasi, ko‘rgazma-harakatlitafakkurning shakllanganligini tekshirish.

Jihoz: 4-6 xalqali piramida.

O‘tkazish texnikasi: bolaga piramidani ajratish, so‘ngra yig‘ish taklif etiladi. Agar bola bajarmasa uni qiziqtirish uchun piramidani katta odamning o‘zi yig‘ib beradi. Qiyinchilik tug‘ilganda bolaning ko‘zi oldida piramidani yig‘ish va yoyish davomida quyidagi so‘zlarni: «Avval katta xalqachani, endi sal kichikroq, yana ham kichikrog‘ini va eng kichkinasini» deb o‘rgatish mumkin. So‘ngra bolaga xalqalarning katta-kichikligiga qarab piramidani yig‘ish va ajratish taklif etiladi.

Bajarish me’yori: bola topshiriqni bajarishda quyidagi yo‘llardan foydalanadi.

3-4 yoshda – maqsadga yo‘naltirilgan urinishlar va amaliy chamalab ko‘rish orqali

4-5 yoshda – ko‘rib solishtirish orqali.

baholash lozim, unda qaysi buzilish turi ko‘proq ifodalanayotganini ajratish kerak.

Diqqatni tekshirish

Diqqatni tekshirishda psixolog avval bolada diqqatning buzilishi mavjudligini aniqlashi lozim. So‘ngra bu buzilishlarning namoyon bo‘lish darajasini, ularning faoliyat buzilishlaridagi rolini, kelib chiqishi va xarakterini aniqlashi kerak.

Diqqat buzilishlarining namoyon bo‘lish darajasini aniqlashda ularning faoliyat jarayoni va uning natijasiga qanchalik ta’sir etganligiga diqqatni qaratish lozim.

Ko‘pincha diqqatning qo‘pol bo‘lmagan buzilishlari ishning natijalarida aks etmasada, shunga qaramay ularning mavjudligi ko‘pgiga klinik xolatlarning tashxis belgisi sifatida axamiyatga ega bo‘ladi.

Diqqatning qo‘pol buzilishlarida kuzatilganda, ular boladagi qiyinchilikning asosiy sababi ekanligini yoki ular xarakterning ko‘rinishlariga kirishini aniqlash zarur. Diqqatidagi kamchiliklar boshqa psixik funksiyalari faoliyatiga, ayniqsa xotira faoliyatiga ta’sirini bilish lozim (xotiradagi ayrim kamchiliklar diqqatni buzilishiga olib keladi.)

Xotirani tekshirish

TPPK sharoitida xotirani maxsus tekshirish ma’lum bir ko‘rsatkichlar asosida olib boriladi. Bu xotirani tekshirish uchun uzoq vaqt hamda uni o‘tkazish uchun maxsus sharoit zarurligidan kelib chiqadi.

Diqqatning qo‘pol buzilishlarida xotirani tekshirish ko‘pincha noto‘g‘ri hisoblanadi, chunki uning natijalari xotiraning buzilishlarini emas, balki eslab qolish vaqtida diqqatdagi kamchiliklardan dalolat beradi. Xotirani maxsus tekshirishga undagi modal-xos bo‘lmagan buzilishlardan shikoyat, anamnezda miya jarohatlarining, tutqanoq tutilishlari va amneziya holatlarining mavjudligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatkich bo‘ladi.

Xotirani tekshirishda faqatgina uning buzilishlarini emas, balki ularning xarakter va kelib chiqish sabablarini aniqlash zarur. Xotira buzilishlari xarakteriga ko‘ra: modal-xos bo‘lmagan (barcha turlarini umumiy pasayishi) va modal-xos bo‘lgan (ko‘ruv, eshituv, verbal, motor kabi alohida turlarining buzilishi) bo‘lishi mumkin.

Xotira tavsifi mnestik faoliyat sifatida o‘zida eslab qolish (surati, xajmi), esda saqlash (sifatli, muddatli), qayta eslash (to‘liq, aniq, ketma-ket), esdan chiqarish (qisman, chuqur, vaziyatli) kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Nutqni tekshirish

Bola nutqining holati psixolog hamda logoped bilan birgalikda tekshiriladi.. Logoped nutqning barcha tomonlarini o‘rganadi, psixolog esa nutq o‘zining asosiy funksiyalari bo‘lgan (ayniqsa nutq buzilishlarida) kommunikativ, boshqarish, bilish funksiyalarini bajarishiga diqqatini qaratadi. Bolaning rivojlanishiga nutq kamchiliklarining darajasi va xarakterini qanday ta’sir etganligini aniqlash muhim.

Bolada nutq kamchiliklari aniqlanganda ular bolaning boshqalar bilan muloqotiga, bilish faoliyatiga qanchalik ta’sir etganligi diqqatni qaratish lozim.

Idrokni tekshirish

Idrokni tekshirish tekshirilayotgan bolaning holatiga bog‘liq bo‘ladi. TPPKda asosan ko‘rish va eshitish, zaruriyat tug‘ilganda taktid idrok tekshiriladi.

Eshituv idroki avval eshitishi pasaygan yoki shunda taxmin qilinayotgan bolalarda tekshiriladi. Eshituv holati vrach-surdolog va surdopedagog tomonidan tekshiriladi, psixolog ushbu ma’lumotlardan bola rivojlanishiga ularning u yoki bu darajada ta’sirini o‘rganadi. Surdolog tekshiruvidan o‘tmagan va nutqida kamchiligi bor bolani psixolog o‘rganayotganda, TPPKdagi boshqa mutaxassislar bilan birgalikda bu bolada eshituvini pasayganligini taxmin qilib, uni surdologik tekshiruvga yuborishi kerak. Eshituv funksiyalari to‘liq saqlangan, nutqida kamchilikka ega bo‘lgan bolalarda ko‘pincha

nutqni eshitish idroki, ya’ni unga qaratib so‘zlangan nutqni tushunish buzilganligi kuzatiladi. Bunda psixolog logoped bilan birgalikda bola nima uchun tushunmayotganligi tekshiriladi.

Ko‘ruv idrokini tekshirishda bolani ko‘ruv agneziyasi mavjudligiga e’tibor berish zarur (predmetli, fazoviy, rang, harf va hokazo). Ko‘ruv idrokini tekshirish davomida agar u ko‘rishning pasayishi bilan bog‘liqligi taxmin qilinsa, uni ko‘ruv o‘tkirligini tekshirishga yuboriladi. Ko‘ruv funksiyalari saqlangan bo‘lib, turli agnoziyalar kuzatilsa, sababini aniqlash zarur. Uning sababi aqliy nuqson, po‘stloqning lokal buzilishlari hamda po‘stloq tonusining o‘zgarishlari bo‘lishi mumkin.

Tafakkurni tekshirish

Tafakkurni tekshirish xususiyati bolaning yoshiga bog‘liq bo‘ladi. Ilk yoshda ko‘rgazmali-harakatli tafakkurning holati, maktabgacha yoshda ko‘rgazmali-obrazli, maktab yoshida ko‘rgazmali-obrazli va so‘z-mantiqiy tafakkur tekshiriladi.

Bolani aqliy faoliyat holatini taxlil qilishda uning hamma tomonlarini – motivatsion, operatsion, dinamik hamda tanqidiy fikrlash tomonlarini ko‘rib chiqish kerak.

O‘zini-o‘zi baholashini tekshirish

O‘zni-o‘zi baholash 7 va undan katta yoshli bolalarda tekshiriladi. Ko‘pincha o‘z-o‘ziga baho berish 7 yoshli bolalarga mos Dembo-Rubinshteyn metodikasi yordamida olib boriladi. Ushbu metodikani natijalarini baholashda biroz o‘z-o‘ziga yuqori baho berish normal hisoblanishini inobatga olish zarur. O‘ziga-o‘zi baho berish berilgan shkalalar bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi.

Oiladagi ichki munosabatlarni tekshirish

Oilaviy ichki munosabatlarni tekshirishda avvalambor ota-ona –bola munosabati, ayniqsa ona bilan munosabatiga e’tibor berish zarur.

Bola-ota-ona munosabatlarii turli tarzda buzilgan bo'lishi mumkin. Bu buzilishlarga bolani haddan tashqari avaylab-asrash, bolaga umuman e'tibor bermaslik, o'zidan hissiy itarish, bola bilan qo'pol, yomon munosabatda bo'lish kabilarni kiritish mumkin. Bolaning oiladagi boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatiga e'tibor berish kerak: ayniqsa oilaga yaqinda undan kichik bolalar paydo bo'lgan bo'lsa. Bundan tashqari bola tarbiyasida ishtirok etadigan boshqa oila a'zolari (buvi, buva va boshqa qarindoshlar) bilan munosabati. Oilaning ichki munosabatlarining buzilishi bola rivojlanishiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Tengdoshlari bilan munosabatini tekshirish

Tengdoshlari bilan munosabatini buzilishi turli yoshlarda kuzatilishi mumkin. Bunday buzilishlarning eng og'ir holatlari bolani izolyasiyalash (ayirish, qo'shmaslik) yoki boshqa bolalar tomonidan qo'shmaslikdir. Tengdoshlari bilan munosabatga kirishishi malakasi bo'lmasligi ular bilan munosabatga kirishish istagining pastligi yoki (ushbu istakning saqlanganligida) o'zining xulqini boshqa bolalar xulqi bilan kelishtira olmasligi oqibatida doimiy nizolarga olib kelganda hollarda buzilish deb hisoblanashi mumkin.

Tengdoshlari bilan munosabatini buzilishining asosiy belgilari o'ta tajovuzkorlik, nizolarga moyillik, dominantlik, bo'ysunganlik, passivlik, boshqacha qilib aytganda aloqada teng bo'lmagan o'rinlarni qabul qilish tendensiyasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirish

Intellekti me'yordagi, psixik rivojlanishi orqada qolgan va aqli zaif bolalarni differensial tashxis qilish muammolarini hal etishda va bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalariga saralashda asosiy tashxis qilish mezoni bo'lib ko'rgazma-harakatli, ko'rgazma-obrazli tafakkur hamda tafakkurning mantiqiy elementlarining shakllanganlik darajasi hisoblanadi.

Tafakkurning bu formalarining shakllanishi bolaning predmetli-amaliy faoliyati jarayonida diqkat, idrok, xotira, nutq, ko'ruv-xarakat koordinatsiyasi, mayda motorika, faoliyatning ixtiyoriy regulyasi-

qaerda turishi kerak?» yoki imo-ishora orqali matreshkani joyini topish so'raladi. Agar bu yordam samara bermasa, unda o'rgatuvchi yordam beriladi: har bir keyin turgan matreshka o'zidan oldinda turganidan kichikroq ekanligi tushuntiriladi. O'rgatilgandan so'ng, bolaga matreshkaning joyini topib qo'yish topshirig'i yana 2-3 marotaba beriladi.

Bajarish me'yori:

4-5 yoshda maqsadga qaratilgan urinishlar va amaliy chamalashga tayanib

5-6 yoshda amaliy chamalash, ko'z bilan solishtirish.

6-7 yoshda ko'z bilan chamalab bajarish.

«Namunaga qarab qurish» metodikasi

Metodikaning yo'nalishi: shakl haqidagi tasavvurlarning, ko'ruv-fazoviy analiz va sintezning (shakllarni alohida elementlarga ajratish va ulardan bir butun shaklni sintezlash) shakllanganligini tekshirish



Jihoz: 20 ta sanoq cho'plari.

Bajarish texnikasi: 3-4 yoshli bolalarga verbal (nutqiy) ko'rsatmaga tayangan holda geometrik shakllar (uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat) qurish va ularni har birini nomini aytish so'raladi.

5-6 yoshli bolalar uchun xotirasiga tayanib cho'plardan murakkabroq shakllar (uycha, bir-birini ustiga qo'yilgan romblar, narvoncha va hokazo) yasashi taklif etiladi.. Pedagog shirma orqasida biror shakl yasaydi va bolaga ko'rsatadi, so'ngra buzib tashlaydi yoki

bekitib qo'yyadi, bola esa xotirasi bo'yicha shaklni qurishi kerak. Qurgan shaklini so'z bilan aytib berishi zarur.

Bolada qiyinchilik kuzatilsa, unga shaklni qurish yo'li yoki shaklni yana bir bor ko'rsatish orqali yordam beriladi. Agar bu yordam ham samara bermasa, bolaning ko'zini oldida qurib ko'rsatiladi va boladan namunaga qarab topshiriqni bajarish so'raladi.

Bajarish natijalarining taxlili:

3-4 yoshda ko'z bilan chamalab.

4-5 yoshda amaliy chamalash, namunaga qarab bajarish.

5-6 yoshda amaliy chamalash va ko'rib solishtirish.

«Predmetlarning klassifikatsiyasi» metodikasi

Maqsad: mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasini (umumlashtirish va mavhumlashtirish qobiliyati, umumlashtiruvchi tushunchalarning shakllanganligini) tekshirish.

Jihoz: o'yinchoqlar, kiyimlar, hayvonlar, o'simlklar, idish-tovoqlar, mebellar, transportlar va hokazolar tasvirlangan predmetli rasmlar.

O'tkazish texnikasi: bolaga rasmlar to'plami beriladi va taklif etiladi: «Ushbu kartochkalardan bir-biriga mosini topib, stol ustiga qo'yib chiq». 10-15 kartochka qo'yib chiqilgandan so'ng so'raladi: «Nima uchun ushbu kartochkalar bu qatorda? Bular esa nimaga boshqada?» (bolaning umumlashtirish ko'nikmasi va harakatlarini so'zda ifodalay olishi aniqlanadi). Yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rilanadi va kartochkalarni taxlash prinsipi tushuntiriladi («idish-idishga, hayvonlar-hayvonlarga qo'y»). So'ngra bolaga topshiriqni davom ettirish taklif etiladi.

Agar bola topshiriqni qabul qilmasa, uni klassifikatsiyalash usuliga o'rgatiladi. Boladan tekshiruvchi nima uchun ushbu kartochkalarni bu qatorga qo'yish kerakligini, boshqalarini bu qatorga qo'yish lozimligini tushuntiradi, so'ngra o'zi mustaqil bajarishini taklif etadi.

Bajarish me'yori:

5 yoshli bolalar topshiriqni harakat asosida, umumlashtirish usulini funksional darajada aniqlab bajaradilar. 6 yoshdan boshlab mavhum katergoriyalarni qo'llaydilar.

5-6 yoshdan boshlab bolalarni tekshirishda «Koos kubiklari», «Ob'ektni ikki belgi bo'yicha klassifikatsiyalash», «Voqealarning ketma-ketligini o'rnatish», «To'rtinchisi ortiqcha» kabi metodikalardan foydalanish mumkin.

Psixologik tekshirishning natijalarini tahlil qilish tamoyillari

Psixologik tekshirishning natijalarini tahlil qilishning maqsadi - bolaning psixik faoliyati bilan har tomonlama tanishishdan iborat. Barcha ma'lumotlarni tahlil qilayotganda, bolani psixologik tavsiflash maqsadida, psixologik tekshirish uchun o'zining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bolaning ota-onasidan nima sababdan konsultatsiyaga kelganliklarini so'rashi kerak. Agar tekshirishdan asosiy maqsad – bolaning rivojlanishiga qarab o'qitishning maqbul sharoitini va darajasini aniqlash bo'lsa, unda avvala tahlil berilib intellektual nuqsonning tuzilishi o'rganilishi lozim. Agarda ota-onaning murojaati va shikoyati sabablari bolaning faqatgina xulqi yoki muloqotiga (aloqaga kirishishi) va xokazolarga tegishligina bo'lsa unda intellekti saqlanganligini (eksperimental tekshirishda) aniqlaganidan so'ng psixologik muammoni yoritish zarur.

Bolaning intellektual rivojlanishini baholashga yo'naltirilgan psixologik tekshirish natijalari taxlilida quyidagi mezonlarga tayangan tayanish lozim:

- harakatlarining maqbulligi (topshiriqni qanday qabul qiladi);
- topshiriqni bajarish usullari;
- topshiriqni bajarayotganda o'rgatishni qabul qilishi;
- o'zining faoliyat natijalariga munosabati (tanqidiyligi).

Bolaning tekshirishga bo'lgan munosabatini e'tiborga olish muhim bo'lib, bu uning motivatsiya doirasi, ehtiyojlari, hissiy-irodaviy va shaxsining xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bolaning topshiriqni qanday qabul qilishi, yutuq va kamchiliklariga munosabatiga qarab, uning shaxsining imkoniyatlarini, uning etilmaganligi yoki rivojlanmay qolganligini bilish mumkin. Bunda quyidagilarga diqqatni qaratish kerak:

1. Kayfiyatning umumiy ko'rinishi (adekvat yoki yo'q, depressiv, qo'zg'aluvchan). Kayfiyatning tekshirish vaziyatga bog'liq

bo‘lmagan holda haddan tashqari ko‘tarilganligi, eyforiyaligi ko‘pincha aqli zaif, shuningdek miyaning peshona qismi rivojlanmagan (infantilizmning turli ko‘rinishlari) bolalarga xosdir. Kayfiyatning xavotirlangan, pasaygan fonlari nevrotik yoki psixotik hissiy doirasida buzilishlar bo‘lgan bolalarda kuzatiladi.

2. Bolaning faolligi: topshiriqqa qiziqishi, uning turg‘unligi. Bolaning psixik faolligi to‘laqonli intellektual rivojlanishida muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Hatto neyrodinamik, ensefalopatik va emotsional buzilishlarda ham atrofdagilarga nisbatan faol qiziqish barcha imkoniyatlari chegaralangan bolalarda mavjud bo‘lib, aqli zaif bolalarda esa ancha pasaygan bo‘ladi.

3. Bolani munosabatga kirishishi. Engil-elpi, osonlik bilan hamda bular bilan bog‘liq to‘liq bo‘lmagan aloqaga kirishish intellektdagi nuqsonlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu aqli zaif bolalarga, infantil bolalarga xosdir. Ba’zi aqli zaif bolalarga esa aksincha, munosabatga kirishidan qo‘rqish, sababsiz negativizm hamda u yoki bu shaxs bilan tanlab aloqaga kirishish xos bo‘ladi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar qiyinchilik bilan verbal aloqaga kirishadilar. Zaif eshituvchi va kar bolalar verbal aloqaga imkon bo‘lmaganda paralingvistik (imo-ishora, mimika) aloqa vositalaridan faol foydalanadilar. BSF (bolalar serebral falaji) bolalar ko‘pincha aloqaga kirishishga qo‘rqadilar, qiyinchilik bilan kirishadilar.

4. Rag‘batlantirish va ma’qullashga emotsional munosabati. Bolalar ilk yoshidan boshlab, rag‘batlantirish va ma’qullaganni yaxshi va xursandlik bilan qabul qilishadi. Kattalar bahosiga befarq, qiziqmaydigan bolalar ushbu so‘zlarning ma’nosini farqlamaydilar, bu ularning u yoki bu darajada intellektini rivojlanmaganidan dalolat beradi. Aloqa qilishda qochish ko‘pincha autik bolalar hulqida kuzatiladi va ularda muloqotga (munosabatga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qligini ko‘rsatadi. Bunday bolalar odatda suhbatdoshining yuziga qarashdan o‘zini olib qochadi, verbal va hissiy aloqa tomonlariga o‘zgacha munosabatda bo‘ladilar.

5. Tanqid va talabga hissiy munosabati. Bunda bolaning tanqidga reaksiyasi; tanqidga munosib ravishda bolaning o‘z hulqini o‘zgartirishi e’tiborga olinadi. 3 yoshdan katta bo‘lgan bolalarning tanbehga e’tiborining yo‘qligi intellektual rivojlanishning pasayganligi, psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarda ixtiyoriy regulyasiyaning nuqsonlari mavjudligidan darak beradi. Bunda bola tanbehning ma’nosini tushunmaydi yoki juda taltaytirib yuborilganligidan tanbeh va koyishlar, ta’qiqlashlar uning uchun odatdan tashqari hisoblanadi.

6. O‘ziga va o‘zining faoliyatiga, qiyinchilik va faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarga munosabati. 3 yoshdan katta bolalar harakatlaridagi xatolarni mustaqil topa oladilar. Bunda ko‘rgazma-harakatli vaziyatning ma’lum bir tomonlarini elementar nutqiy ifodalashda (endi to‘g‘rimi? Bundaymi yoki bunday emasmi? Voy, endi to‘g‘ri bo‘ldimi?) namoyon etadilar So‘ngra ular o‘z xatolarini to‘g‘irlab kerakli natijaga erishishga harakat qilishadi, qiynalishsa kattalardan yordam so‘rashadi.

Bolalarning omadsizlikka munosabati boshqacha bo‘lishi ham mumkin:

-birinchi qiyinchilikdayoq qiziqishning yo‘qolishi, topshiriqni sust bajarishi, eksperimentlarning qolganida ishtirok etishdan voz kechish;

-to‘g‘ri natijaga erishishda to‘sqinlikka uchrashi, topshiriqning ma’nosini tushunmasligi faoliyatini tormozlanishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida psixolog aqliy faoliyatning barcha strukturasini sinchiklab ko‘rib chiqib, alohida topshiriqni bajarish natijasiga emas, balki faoliyatni sifatli taxlil kilish tamoyiliga rioya qilishi lozim. Albatta bolaga qanday yordam turlari berilganini, uni qanday qabul qilgani va faoliyatini samarali bo‘lishiga qanday ta’sir etganini hisobga olishi lozim.

Intellektual kamchilikni har xil turlari differensial tashxis qilishda bolaning aqliy rivojlanishini ikki darajasini ajratish lozim. 1–daraja dolzarb bo‘lib, bolaning bilim zahirasi hamda tekshirish vaqtidagi unda shakllangan faoliyat usullarini aniqlaydi. Dolzarb daraja «o‘lchash» metodi yordamida aniqlanadi, chunki bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirib olishnigina ta’kidlaydi va shuning uchun asosiy metodga – sifat tahliliga nisbatan – ikkilamchi, qo‘shimcha hisoblanadi. Faoliyatini sifatli tahlili bolaning potensial rivojlanish darajasini ko‘rsatadi.

Potensial darajani aniqlashda, ya’ni bolaning o‘rganishini aniqlashda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Berilayotgan yordamning darajasi va hajmi. Eng kam yordam bolaga so'zlar orqali «o'ylab ko'r», «sen qila olasan» yoki «diqqat bilan qara», «shoshilmagin», «mana bu yoqqa qara» kabi **rag'batlantirish** orqali beriladi. Topshiriqni davom ettirish va bajarishda ushbu yordam, intellekti me'yorida bo'lgan, ammo o'ziga ishonchi bo'lmagan, qo'rqoq, tez tormozlanadigan yoki giperfaol (o'ta faol) diqqati buzilgan bolalarga etarlicha bo'ladi. Ba'zida psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarga ushbu yordam turi etarli bo'ladi.

Yo'naltiruvchi yordam (ancha ifodalangan yordam) berish, bolaga kattalar tomonidan berilgan topshiriqni aniq bajarishga ko'rsatma beradi. Ushbu yordam psixik rivojlanishi sustlashgan bolalaruchun samarali bo'lib, aqli zaif bolalarda esa hech qanday natija bermaydi.

O'rgatuvchi (ta'lim beruvchi) yordam bolani oxirgi natijaga erishish uchun faoliyat usuliga o'rgatishni nazarda tutadi. **O'rgatuvchi** yordam yaqqol ifodalangan psixik rivojlanishning sustlashgan va aqli zaif bolalar uchun lozim bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik jihatdan tekshirish

Maktabgacha yoshidagi bolalarni pedagogik jihatdan tekshirishning maqsadi – bilim zahirasi va faoliyat usullarini hamda ularni yoshga va ta'limning darajasiga mosligini aniqlashdir.

Pedagogik tekshiruvdan avval anamnestik ma'lumotlar yig'ilib, unda bolaning psixik rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi, o'z-o'ziga xizmat qilish, mehnat qilish ko'nikma va malakalarining paydo bo'lishi, jamoada va oilada o'zini tutishi, maktabgacha muassasa dasturlarini o'zlashtirishi, o'yin, qurish-yasash faoliyatini rivojlanishi, maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasi kabilarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik tekshiruvda kuyidagilar aniqlanadi:

- Tasavvur va bilimlarning umumiy zahirasi. Bolada sensor etalonlarni (rang, shakl, kattaligi) shakllanganligi, tabiat hodisalari (tabiatda fasllar o'zgarishi, hayvonot, o'simlik olami), sodda geografik mo'ljal olish (o'zining uy adresini bilish, shahar (qishloq), yashash joyi va hokazo) va ijtimoiy tasavvurlarning (o'z ismi, familiyasini, oilaviy holatini, ota-onasining kasbini bilish) tasavvurlarining mavjudligi aniqlanadi.
- Ijtimoiy-maishiy orientirovka. O'z-o'ziga xizmat qilish (mustaqil ovqatlanish, kiyinish, tugmachalarni taqish va hokazo), mehnat malakasi (o'zidan keyin yig'ishtirish, idish-tovoqlarni yuvish va hokazo), o'zini ijtimoiy mos, to'g'ri tutishi (o'zi mustaqil transpotdan foydalanishi, uyiga yo'l topishi, magazindan maxsulotlar olishi va hokazo) malakalarining shakllanganligi aniqlanadi.
- Umumqabul qilingan hulq normalariga rioya qilishi. Bolaning oilada va oiladan tashqari joylarda nutqiy va odob qoidalariga rioya qilishi, kattalarning talablari va iltimoslarini bajarishi, bolalar jamoasida intizomni tushunishi va unga rioya qilishini aniqlash zarur. Ko'rsatib o'tilganlarni baholashda bolaning yoshini, madniyatini, olgan ta'limini hisobga olish zarur.
- Bola qatnayotgan muassasa ta'lim dasturining o'zlashtirishi. Maktabgacha yoshdagi bolani tekshirishda tasviriy, qurish-yasash, shuningdek konstruktiv faoliyatining rivojlanishi, shuningdek, savod asoslarini, hisoblashni o'zlashtirishi, bilimlari dastur talablariga javob berishi aniqlanadi.
- O'yin faoliyatiga umumiy tavsif beriladi.
- O'qitilishi (o'rgatilish)

Bolaning o'qitilishi muassasa o'quv dasturining o'zlashtirishi asosida, shuningdek TPPKda ta'limiy eksperiment davomida u yoki bu metodikalar bazasida aniqlanadi. Ko'rsatilgan yordam xajmi va egallab olingan usulni mantiqiy o'xshash topshiriqqa ko'chira olish nuqtai nazaridan o'qitilishni shartli ravishda yuqori, etarli, pasaygan, past va juda pastga ajratish mumkin.

Agar bola o'ziga notanish topshiriqni hech qanday yordamsiz bajarsa, ta'limi yuqori hisoblanadi. Agar bola o'ziga notanish topshiriqni bajarishda yo'llantiruvchi yordamga muhtojlik sezsa va yo'llanmadan so'ng bajarsa, etarli darajada hisoblanadi. Agar bola o'ziga notanish topshiriqni bajarishida yordamning hamma turlariga (rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi, o'rgatuvchi) muhtojlik sezsa, lekin o'zlashtirilgan usulni o'xshash topshiriqqa mantiqiy ko'chira

olsa, ta'limi pasaygan darajada bo'ladi. Agar bola barcha yordamlardan foydalanib, qiyinchilik bilan, lekin o'zlashtirilgan usulni o'xshash topshiriqqa mantiqiy ko'chira olsa past daraja. Barcha yordam turlarining natijasi yaxshi bo'lmay, bola o'zlashtirilgan usulni o'xshash topshiriqqa mantiqiy ko'chira olmasa o'ta past darajadir. Yuqori va etarli o'qitishi darajasi normal intellektli bolalar uchun xosdir. Pasaygan va past daraja psixik rivojlanishi orqada qolganlar uchun xosdir. Aqli zaiflikka esa past va o'ta past daraja xosdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish

Kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik tekshirish

Kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik tekshirish TPPK amaliyotida eng dolzarbdir, chunki bo' yoshda bolaning imkoniyatlari va xususiyatlariga mos ta'lim sharoitini yaratish, tegishli ta'lim muassasasini tanlash zaruriyati kelib chiqadi. O'quv dasturi tipini eng avvalo bolaning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangani sababli intellektdagi turli etishmovchiliklar, ularning tuzilishini, intellektual etishmovchilik darajalarini aniqlashda eksperimental-psixologik tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Intellektul etishmovchilikning turli formalarini differensial tashxis etish vazifalarini hal etishda eksperimental tekshirish metodikalarining bayoni me'yorida rivojlanayotgan, psixik rivojlanishi sustlashgan hamda aqli zaif bolalarni tekshirish natijalarining interpretatsiyasini o'z ichiga oladi.

Eksperimental psixologik tekshirish metodikalari

Kesma rasmlar

Maqsad: ko'ruv-fazoviy idrokning, analiz va sintezning, ko'rgazma-obrazli tafakkurning shakllanganligini aniqlash. Metodika, shuningdek diqqatning xususiyatlarini, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat qobiliyatlarini baholashga imkon beradi.

Halqaro sog'liqni saqlash tashkilotining 10–qayta ko'rib chiqilgan kasalliklarning halqaro tasnifi bo'yicha aqli zaiflikning quyidagi darajalari ajratiladi:

F70 – engil aqli zaiflik, F71- o'rta darajadagi aqli zaiflik, F72- og'ir aqli zaiflik, F73- chuqur aqli zaiflik.

Material: gorizontal va vertikal chiziqlar bo'yicha to'rt qismga bo'lingan bola uchun tanish bo'lgan uchta predmetlarning rasmlari.

O'tkazish texnikasi: 7-8 yoshli bolalarga yig'ilgan rasm (diagonal bo'yicha qirqilgan) ko'rsatiladi. So'ngra uning qismlari aralashtirilib yuboriladi. Ko'rsatma beriladi: "Avval qanday bo'lganicha yig'ib ber".

Agarda bola qiynalmasdan bajara olsa, unga topshiriqning murakkabroq varianti taklif etiladi: uchta rasmning qismlari aralashtirilib beriladi.

9-10 yoshli bolalar bilan topshiriqni bajarishni ushbu variantidan boshlab berish mumkin. Bunda bola harakatlarining xarakteriga: rasmlarning tasviriga, qirqish chizig'iga qarab tanlashi va hokazolar kuzatiladi.

Bajarish natijalarining tahlili:

Aqliy rivojlanishi me'yorida bo'lgan va ko'ruv-fazoviy gnozisida o'ziga xos ,buzilishlar bo'lmagan bolalar topshiriqni osonlik bilan bajaradilar. Ular qismlarni bir butunga yig'ishning samarali usulini qo'llaydilar. Bolalarni faoliyat jarayoni va oxirgi natija qiziqtiradi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar topshiriqning murakkab variantini bajarayotib xato harakatlarga yo'l qo'yishlari mumkin, yoki maqsadga yo'naltirilgan usulga tayanmasdan xatolar va urinib ko'rish usuli bilan harakat qiladilar, ammotashkillashtiruvchi va yo'naltiruvchi yordam samara beradi.

Lokal fazoviy buzilishlari bo'lmagan *engil darajadagi* aqli zaif bolalar vertikal va gorizontal chiziqlar bo'yicha qirqilgan rasmlarni ko'rsatib berilgandan so'ng yig'a oladilar. Diagonal chiziqlar bo'yicha qirqilgan rasmlarni yig'ishda qiynaladilar. Topshiriqning murakkab variantini bajara olmaydilar. Faqatgina ko'rsatilgandan, tashkillashtiruvchi va o'rgatuvchi yordamdan so'ng bolalar rasmlarni yig'a oladilar.

O'rta darajadagi aqli zaif bolalar topshiriqning murakkab variantini 10 yoshida ham tushunmaydilar va bajara olmaydilar. Ko'rsatilgandan so'ng faqatgina gorizontal va vertikal chiziqlar

bo‘yicha to‘rt qismga bo‘lingan rasmni yig‘ishlari, diagonal bo‘yicha qirqilgan rasmni birgalikda yig‘ishlari mumkin.

Koos kubiklari

Maqsad: ko‘rgazma-obrazli tafakkur, ko‘ruv-fazoviy analiz va sintezning shakllanganlik darajasini, diqqat va ishlash qobiliyatining xususiyatlari, maqsadga va topshiriqning shartiga muvofiq harakat qilishi qobiliyati, o‘rgatilishi aniqlanadi.

Material: Tekshirishni o‘tkazish uchun 9-12ta bir xil kubiklar, ularning bir tomoni ko‘k va sariq rangda, boshqa tomoni oq va qizil, uchunchi tomoni ko‘k, cho‘rtinchi tomoni qizil, beshinchi tomoni sariq, oltinchisi oq; 10 ta nomerlangan turli xil naqshli kartochkalar.

O‘tkazish texnikasi: Bolaga har xil shakldagi naqshli rasmni ko‘rsatib kubiklardan shunday naqshni qo‘rish topshirig‘i beriladi. Topshiriqni bajarish jarayonida namunali rasm bolani ko‘z oldida turadi. Ko‘rsatma: «Qara, rasmda shakl chizilgan, shu shaklni kubiklar yordamida taxlash mumkin. Bir urinib ko‘rchi». Naqshlar ketma-ket murakkablashtirilib boriladi. Eshitish ning pasayishi gumon qilinganda nutqiy ko‘rsatma imo-ishora, namoyish bilan birga olib boriladi.

Topshiriqlarni bajarish jarayonida bolaga turlicha yordam ko‘rsatilishi mumkin: topshiriqni qo‘shimcha tushuntirish, shaklni uni tashkil qiluvchi qismlarga bo‘lish, aytib berish, ko‘rsatish.

Topshiriqni bajarilish natijalarining tahlili. Engil darajadagi aqli zaif bolalar ko‘pincha mustaqil ravishda faqat 1 nashqni taxlay oladilar, kubiklarni rasmdagi nashq ustiga qo‘yishga harakat qiladilar. Ular har bir yangi naqshga sekinlik bilan o‘tadilar, xatolarga yo‘l qo‘yadilar, o‘zlarini nazorat qilmaydilar. Tashkiliy yordam, kubiklarga mos ravishda naqshlarni qismlarga bo‘lish ularning faoliyatiga kam yordam beradi.

Shizofreniya etiologiyali demensiya bo‘lgan bolalar ko‘p hollarda idrokning to‘liqligi va maqsadga yo‘naltirilganligini buzilganligi oqibatida Koos naqshlarini yig‘ishga juda qiynaladilar. Epileptik demensiya ko‘rinishidagi bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchrasalar ham topshiriqni oxirigacha etkazishga harakat qiladilar.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar (qo‘pol fazoviy buzilishlarga ega bo‘lmagan) 2-3 topshiriqni bajarish taklif qilinganda

qiyinchiliklarga uchray boshlaydilar; ammo naqshlarni alohda qismlarga ajratishdagi tashkiliy yordamdan so‘ng uni oxiriga etkaza oladilar.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishda bu metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Serebral falaji bo‘lgan bolalarda yaqqol ifodalangan fazoviy buzilishlar bo‘lganligi sababli bu metodika qo‘llanilmaydi.

Intellekti me’yorida bo‘lgan zaif eshituvchi va me’yorida rivojlanayotgan bolalar topshiriqni mustaqil ravishda bajara oladilar.

Serebral falajlangan bolalar bilan ularda yaqqol ifodalangan fazoviy buzilishlar mavjud bo‘lganligi uchun ushbu metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Intellekti me’yorida bo‘lgan va zaif eshituvchi bolalar topshiriqni mustaqil bajara oladilar.

Segen taxtasi

Ushbu topshiriqni bolani tekshirishda birinchi bo‘lib berish tavsiya etiladi, chunki u bolalarda qiziqish uyg‘otadi.

Metodika ko‘rsatmani tushunishni, asosiy geometrik shakllarni bilish darajasi, harakatlar koordinatsiyasining holati, fazoviy chamalash, faoliyat xarakterini (figuralarni ushlash, chuqurchalar bilan solishtirish va h.k.) aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.

Murakkablashib borish tartibidagi metodikaning 3 varianti taklif etiladi.

O‘tkazish texnikasi. Bolaga shakllar joylashtirilgan taxtacha ko‘rsatiladi. Bunda bolaning diqqatini shakllar joylashtirilgan chuqurchalarga qaratiladi. So‘ngra stol ustiga shakllar to‘kiladi va boladan ularni chuqurchalarga qayta joylashtirish so‘raladi. Ko‘rsatma: «Qara, menda shakllar joylashtirilgan taxtacha. Men shakllarni to‘kaman, sen esa ularni o‘z o‘rnilariga joylashtir».

Topshiriqni bajarilish natijalarining tahlili. Ko‘p hollarda bolalar topshiriqni mustaqil bajarishga kirishadilar, ba’zan esa rag‘batlantirish lozim bo‘ladi.

Zaif ko‘ruvchi intellekti saqlangan bolalar va intellekti me’yoridagi bolalar bu topshiriqni bajarishda qiynalmaydilar, murakkab variantlarini bajarish usullariga faol kirishadilar, mustaqil bajaradilar.

O'rta darajadagi aqli zaif bolalar uchun og'zaki ko'rsatmani tushunmaslik xosdir. Ularga ko'rsatish zarur. Shuning uchun tekshiruvchi bolaning ko'z o'ngida taxtachani to'la yoki qisman to'ldiradi, so'ngra ularni yana to'kib boladan shakllarni chuqurchalarga moslab joylashtirib berishni so'raydi. *O'rta darajadagi* aqli zaif bolalar birinchi taxtacha bilan ishlashdayoq qiyinchiliklarga uchraydilar: figuralarni chuqurchalarga ularning shakliga e'tibor bermasdan soladilar, sinash va xato usuli bilan harakat qoladilar. Bolalar ko'pincha 2-3 marta ko'rsatilgandan so'ng ham topshiriqni bajara olmaydilar. Ikkinchi va uchinchi taxtachadagi topshiriqlarni ko'rsatilgandan so'ng ham bajara olmaydilar. Shakllarni qo'llarni bilan yaxshi ushlay olmaydilar. Ularning harakatlari xaotik tarzda bo'ladi.

Aqli zaiflikning *engil darajasidagi* bolalar odatda og'zaki ko'rsatmani tushunadilar va birinchi taxtachani figuralar bilan to'ldirish topshirig'ini bajara oladilar. Ular chuqurcha bilan figurani ko'rib turib solishtira oladilar. Ammo ba'zi bolalarga topshiriqni bajarishni ko'rsatish (namoyishi etish) va rag'batlantirish zarur, shundan so'ng ular topshiriqni mustaqil bajaradilar. Aqli zaiflikning engil darajasidagi bolalar ikkinchi va uchinchi taxtachadagi topshiriqni bajarishga qiynaladilar. Ularning faoliyati xarakteri tez o'zgaradi: sinash va xatolar metodi bilan bajariladigan harakatlar ko'payadi, tashkil etuvchi va o'rgatuvchi yordam kerak bo'ladi.

Segen taxtasini to'ldirishda demensiyasi mavjud bolalar ham qiyinchiliklarga uchraydilar. Ishdagi qiyinchiliklarga bo'lgan munosabat turli xarakterga ega bo'lib u bolaning kasalligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, epileptik demensiyali bolalar uchun ko'pincha ma'nosiz, ammo juda qat'iy, bo'sh chuqurchaga mos kelmaydigan figurani joylashtiriga urinishlar xos bo'ladi. Bunday bola ko'pincha tekshiruvchining yordamini qabul qilishni istamaydi, uni boshqa topshiriqni bajarishga undash qiyin. Shizofrenik demensiyali bolalarning bu topshiriqdagi qiyinchiliklari ko'pincha ularning umumiy motor beso'naqayliklari, aniq faoliyatni bajarishga bo'lgan munosabatlaridagi negativizm, psixik faollikning pastligi bilan bog'liqdir. Bunday bolalar figuralarni (shakllarni) sustlik bilan olib ko'radilar, ularni taxta ustiga qo'yadilar (chuqurchalarga solmaydilar) va topshiriq bajarildi deb hisoblaydilar; ba'zan ular topshiriqni bajarishdan

bosh tortadilar. Shu bilan bir vaqtda ular to'satdan topshiriqning ancha murakkab variantining qismini bajarishlari mumkin.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar segen taxtasini to'ldirish topshirig'ini bajaradilar. Ikkinchi, uchinchi taxtani to'ldirishdagi ba'zi bolalarga zarur bo'ladigan yordam faqatgina tashkil etuvchi va rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'ladi.

Eshitishi pasaygan va nutqi rivojlanmagan bolalar topshiriqni agarda u nutqsiz shaklda berilsa, ya'ni bolaga figuralar joylashtirilgan taxtani ko'rsatib, so'ngra ularni to'kib, imo-ishora bilan yana qayta joylashtirish taklif etilsa, bajaradilar.

Zaif eshituvchi va nutqi rivojlanmagan bolalarda intellekt saqlangan hollarda topshiriq maqsadi ularga tushunarli bo'lib ular qiyinchiliksiz topshiriqni bajaradilar. Agarda eshitishning pasayishi va nutqning rivojlanmaganligi aqli zaiflik bilan birgalikda kelsa bolalar topshiriqni mustaqil ravishda mutlaqo bajara olmaydilar. Ularga topshiriqni bajarishning ko'rgazmali usuli ko'p marta ko'rsatilishi lozim.

Serebral falajlangan bolalarning aqliy imkoniyatlarini aniqlashda segen taxtasi metodikasidan foydalanilmaydi, chunki bunday bolalar ko'ruv-fazoviy idrokining buzilishlari natijasida topshiriqni bajarishda qiynaladilar. Bundan tashqari, shakllarni mos chuqurchalarga solish bolalardagi ko'p giperkinezlar tufayli ыiyinchilik tug'diradi.



Voqeaband rasmlar

Voqeaband rasmlarni ko'rsatish orqali bolada vazifaning ma'nosini tushunish, fazoviy-vaqt va sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, shuningdek, hazil-mutoyibani tushunishlarini aniqlashga yo'naltiriladi. Topshiriqni bajarish jarayoni tahlil qilinadi, ya'ni rasm

bo‘yicha berilgan savollarga javob, hikoya tuzish, rasmga nisbatan hissiy munosabat va h.k.lar. Bolaga ko‘rsatilgan yordam xarakteri e’tiborga olinadi.

Topshiriqnini 6 (olti) varianti taklif etiladi

A. Aniq ma’noli (mazmunli) voqeaband rasm

B. Yashirin ma’noli voqeaband rasm

V. Aniq ma’noli ketma-ketlikdagi voqeaband rasmlar

G. Yashirin ma’noli ketma-ketlikdagi voqeaband rasmlar

D. Voqealar tugallanmagan ketma-ketlikdagi rasmlar

E. Be’mani, nomutanosib rasmlar

O‘tkazish texnikasi. A, B variantlari. Bola rasm ko‘rsatiladi va unda nima tasvirlanganini hikoya qilib berish so‘raladi. Agar bolaning o‘zi hikoya qilib bera olmasa, ushbu rasm bo‘yicha savol-javob tarzida suhbat o‘tkaziladi. Ayrim vaqtda bir-ikki savol berishning o‘zi etarli bo‘ladi, bundan so‘ng bolaning o‘zi mustaqil hikoya tuzadi. Agar rasm yashirin ma’noli bo‘lsa, bolaning hikoyasidan esa rasm ma’nosini tushunganligi ko‘rinmasi, u holda anislovchi yoki yo‘naltiruvchi savollar beriladi.

V, G va D variantlar. Bolaning oldiga rasmlar tasodifiy tartibda quyiladi; so‘ngra boladan rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish va u bo‘yicha hikoya tuzish so‘raladi. *Ko‘rsatma*: bu ko‘rsatilayotgan rasmlarda bitta voqea tasvirlangan. Birinchisida boshlanishi, boshqasida davomi, shunday tarzda oxirigacha. Barcha rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda tartib bilan ko‘yib chiq: dastlab nima bo‘ldi, keyinchi va nima bilan tugadi. Bular bo‘yicha hikoya tuzib ber (nima bo‘lganini aytib ber).

Ko‘pincha faqatgina og‘zaki ko‘rsatmaning o‘zi etarli bo‘lmaydi. Bunda bolaga birinchi rasm ko‘rsatiladi va keyin o‘zi ishni davom ettirish so‘raladi. Agarda bola rasm ma’nosini darhol tushunmasa, rasmni unga yana bir bor ko‘rsatiladi. Agarda bola syujetni (voqeani) umuman tushunmasa, ishni davom ettirish to‘xtatiladi. Ayrim vaqtda bolalar diqqatining qo‘pol buzilganliga sababli rasmlarning ketma-ketligini o‘rnata olmaydilar; ammo bu holda ular avval joylashtirilgan rasmlar seriyasi bo‘yicha hikoyaning mazmuni tushuntirib bera oladilar.

Agarda tugallanmagan voqeaband rasmlar ketma-ketligi ko‘rsatilsa, voqealar ketma-ketligi aniqlangandan so‘ng bolaga hikoyaning yakunini o‘ylash taklif qilinadi: «Sen nima deb o‘ylaysan, keyin nima bo‘ldi? Bu voqea nima bilan tugadi?»

E varianti. Bolaga «Nomutanosib, bema’ni» rasm ko‘rsatiladi va diqqat bilan uni ko‘rib chiqish taklif etiladi. So‘ngra suhbat o‘tkazilib, unda bolaning rasmdagi voqealarga bo‘lgan munosabati, ularning bema’niligini, rasmdagi hazilni tushunishi aniqlanadi. Agarda bola rasmni ko‘rib hayratlanmasa, ba’zi bir tushuntirishlar berishga urinmasa, rasm uni qiziqtirmasa bir necha savollar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, «Bu erda nima tasvirlangan?», «Hayotda ham shunday bo‘ladimi?», «Sen nima deb o‘ylaysan bu kulgilimi yoki yo‘qmi?», «Nimaga?»

Topshiriqni bajarilish natijalarining tahlili

O‘rta darajasidagi aqli zaif bolalar sodda voqeaband rasm mazmunini tushuna oladilar. Ular rasm yuzasidan berilgan savollarga javob beradilar (A varianti). Ammo bog‘langan hikoya tuza olmaydilar. Yashirin ma’noni tushunmaydilar, voqealar ketma-ketligini aniqlay olmaydilar.

Aqli zaiflikning *engil darajasidagi* bolalar sodda voqeaband rasmlar mazmunini tushunadilar. Ayrim bolalar diqqatlari etarlicha barqaror bo‘lsa sodda mazmunli rasmlarni ketma-ket joylashtirib elementar hioya tuza oladilar. Ammo yashirin ma’noli voqeali rasmnini mazmunini tushunish qiyinchilik tug‘diradi. Doimo ular yo‘naltiruvchi shakldagi yordamga muhtoj bo‘ladilar. Bunday bolalar yashirin ma’noli voqeaband rasmlarning ketma-ketligini o‘rnata olmaydilar. «Nomutanosib, bema’ni» rasmlarning ayrim qismlarinigina tushuntirishdan so‘ng anglay oladilar. Jonli, bevosita munosabat, kulgu namoyon bo‘lmaydi. Rasmlarni ko‘rishda (ko‘zdan kechirishda) tizimsizlilik, sustlik kuzatiladi.

Turli genezdagi *demensiyali* bolalar voqeaband rasmlarda ketma-ketlikni o‘rnatishga qiynaladilar, chunki bunday bolalarda maqsadga yo‘nalganlik, diqqat turg‘unligi etarli darajada bo‘lmaydi.

Epileptik demensiyada rasmning mayda detallarini (qismlarini) batafsil ifodalashga urinib, ko‘pincha uning mazmuniga tushunmaslik kuzatiladi. Bolalar rasmning mazmunini juda sekinlik, uzoq

pauzalar bilan, keraksiz tafsilotlarda to‘xtalib, ifodalab, bir butunligini qamray ololmaydilar. *Shizofrenik demensiyada* idrok etilgan elementlardan bir butun obraz hosil qila olmaslik kuzatiladi. Bunda rasmning eng muhim elementlarini ajratishda o‘ziga xoslik namoyon bo‘ladi: ko‘pincha bolalar diqqatini voqeaband rasmning faqatgina qandaydir bir qismiga jalb etadilar va uni o‘zlaricha interpretatsiya qiladilar (o‘z hohishlariga ko‘ra tushuntiradilar). Shizofrenik demensiyali bolalar o‘zlarining patologik kechinmalari asosida syujetga bog‘liq bo‘lmagan, ko‘pincha bema’ni fikrlarga keladi, unda esa bolaning tafakkurini bo‘linganligi aks etadi.

Intellekti saqlangan holdagi psixik rivojlanishi sustlashgan va nutqi rivojlanmay qolgan bolalar aniq va yashirin mazmundagi voqeaband rasmlar ketma-ketligini o‘rnatishga qodir bo‘ladilar. Yashirin ma’nodagi (mazmundagi) voqeaband rasmlar ketma-ketligini o‘rnatishdagi qiyinchiliklar ko‘pincha bir vaqtning o‘zida diqqatni bir necha ob’ektga bo‘lishdan kelib chiqadi. Rasmlar ketma-ketligi to‘g‘ri o‘rnatilganda syujet mazmunini to‘g‘ri tushunadilar. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar ko‘pincha rasmlar bo‘yicha savollarga javob berishni afzal ko‘radilar va to‘liq hikoya qilishda qiynaladilar. «Nomutanosib, bema’ni» rasmlar ularda jonli hissiy reaksiyalarni yuzaga keltiradi, ammo bunda diqqatlarini rasmning faqatgina eng kulgili qismlarigagina qaratib, qolganlariga e’tibor bermaydilar. Hikoyani oxirini yakunlash, tugatish topshirig‘i bolalarda qiyinchilik tug‘diradi, rag‘batlantirish va yo‘naltiruvchi savollar talab etadi.

Eshitishning pasayishi va nutqi rivojlanmagan bolalarga ko‘pincha nutqiy shakldagi ko‘rsatmani tushunishga imkon bermaydi, ammo ular ko‘rgazmali shaklda berilgan o‘xshash topshiriqning maqsadini idrok etadilar. Bolalar zarur bo‘lganda hikoya tuzishga qiynaladilar. Intellekti me’rida bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar bema’ni vaziyatlarni tushunadilar va hissiy jihatdan to‘g‘ri javob beradilar. Oligofreniyaning *debil darajasidagi zaif eshituvchi bolalar* yashirin ma’noli rasmlarning ketma-ketligini o‘rnata olmaydilar. Ular agarda topshiriqning maqsadi va shartini to‘g‘ri tushunsalar sodda voqealar ketma-ketligini o‘rnata oladilar. «Nomutanosib, bema’ni» rasmlarga nisbatan yorqin hissiy munosabatda bo‘lmaydilar.

Intellekti ma’yorida bo‘lgan zaif ko‘ruvchi bolalarni tekshirishda bu metodika qo‘llanilmaydi.

Serebral falajli bolalar intellekti birlamchi saqlangan hollarda voqealar ketma-ketligini o‘rnatishiga qodir bo‘ladilar, o‘zgargan holatni oson anglaydilar, rasmning aniq va yashirin mazmunini tushunadilar. Ular uchun topshiriqni bajarishga sekin kirishish, diqqatning beqarorligi xosdir.

Pedagogik qarovsiz qolgan bolalarning hikoyasi odatda qisqa, jo‘n bo‘ladi. Ularda hikoya tuzish malakasining yo‘qligi, nutqning kambag‘alligi namoyon bo‘ladi. Ammo ko‘rsatiladigan yordam ko‘proq chamalovchi xarakterda bo‘ladi.

Intellekti me’yorida bo‘lgan bolalar voqea-hodisalarning (taklif qilingan barcha variantlarda) ketma-ketligini to‘g‘ri o‘rnata olib, uni mantiqiy tushuntirib hikoya tuza oladilar, yakunlamaganlarini nihoyasiga etkazadilar. Ular «Nomutanosib, bema’ni» rasmlarni tezda baholab voqealarni tushuna oladilar.

«To‘rtinchi ortiqcha» metodikasi

Bu metodika bolalarning umumlashtirish darajalari, fikrlashlarning aniq va mantiqiyligi, faolligi, umumlashtirilgan tasavvurlardan foydalana olish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Murakkablashib borish bosqichi quyidagicha

A. Uchta har xil gul va mushuk

B. Idish – tovoqlar va stol

V. Mexanik transport vositalari va ot

G. Sumka, ryukzak, chemodan va soyabon (umumlashtirish misoli: Bularda biror narsa solib yurish mumkin, ortiqchasi soyabon).

D. tovuq, jo‘ja, o‘rdak, tuxum (umumlashtirishning birinchi varianti: uy parrandasi va tuxum, 2 variant – tovuqqa tegishli va ortiqchasi o‘rdak).

E. Tikuv mashinasi, tugmacha, ip, ko‘zoynak (umumlashgani tikuv anjomlari va ko‘zoynak).

J. Mushuk, it, echki, qush (umumlashgani uy hayvonlari va ortiqchasi qush).

I guruh. «Oddiy umumlashtirishlar»





II guruh. «Standart umumlashtirishlar »









IV guruh. «Ahamiyati va nomlanishi murakkab umumlashtirishlar»





V guruh. «Keng (yoyiq) sharxni talab etuvchi umumlashtirish-lar»





VI guruh. «Ikki echimga ega masalalar»





VII guruh. «Provokatsiyali masalalar»





O'tkazish texnikasi. Bolaga to'rtta predmet rasmi chizilgan kartochka beriladi va undan uchta bir xil narsani umumlashtirib, ortiqchasini ko'rsatib berish so'raladi. Ko'rsatma: «Bu rasmda to'rtta predmet chizib ko'rsatilgan, shulardan uchtasi bir xil umumiy narsani belgilaydi, umumlashadi (ya'ni, bir-biriga to'g'ri keladi), bittasi esa bu narsaga kirmaydi, ya'ni ortiqcha. Qani aytib berchi, qaysi predmet ortiqcha?». Agar bola aytib bersa, undan «nima uchun ortiqcha?» - deb so'rash kerak. Agar bola to'g'ri ko'rsatib, lekin nima uchunligini tushuntirib bera olmasa: undan «Xo'sh, bu narsalarni bir so'z bilan nima deb nomlash mumkin?» - deb so'rash kerak (buning uchun 3ta predmetni birma-bir aytib chiqib, soddaroq qilib «Bular o'zi nima?») deb so'rash kerak. Yoki bolaga, sen ortiqcha predmetni juda to'g'ri ko'rsatding, qani o'zing qanday tushunishingni aytib berchi, deb so'rash kerak.

Agar suhbat chog'ida bola umumlashtirish qoidasini tushunmagan bo'lsa yoki uning elementar tushunchasi bo'lmasa (oila, hayvonlar) unga eng sodda variant taklif qilish lozim bo'ladi. Agar bolada umumlashtirish haqida elementar tushunchalar mavjud bo'lsa, unda «V» variantdan tekshirishni boshlasa bo'ladi. Agar bolada elementar tushunchalar, ya'ni «transport», «uy va o'rmon hayvonlari» degan tushunchalar mavjud, «V» va «J» variantlar orqali bolaning mustaqil umumlashtira olishi va uning topshiriqni to'g'ri asoslab bera olishini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari «to'rtinchisi ortiqcha» metodikasi bolani o'rgatish uchun ham qo'llansa bo'ladi. Buning uchun biror bir variantni bola bilan birga tahlil qilib chiqiladi, unga tushuntiriladi, keyin esa xuddi shunga o'xshash variantni mustaqil bajarish uchun beriladi.

Topshiriqni bajarilish natijalarining tahlili

Aqli zaiflikning *o'rta darajasidagi bolalar* topshiriqni bajarish haqidagi ko'rsatmani har doim ham tushunib olishmaydi. Agar tushuntirib berilsa ham, ular faqat «A» variantni bajara olishadi. Hatto shu variantda ham ular nutqin umumlashtira olmaydilar. Uning faqat sodda variantini bajaradalar, lekin odatdagidan boshqacharoq qilib berilgan variantni yoki notanish variantni bajara olmaydilar.

Aqli zaiflikning *engil darajasidagi bolalar* ko'rsatmani juda sekinlik bilan o'zlashtirishadi (ayniqsa topshiriq birinchi marotaba berilayotgan bo'lsa). Ulardan ko'pchiligini o'rtacha murakabblikda bo'lgan topshiriqni to'g'ri bajarishadi (ortiqcha predmetni aytib berishadi, mebel, idish, hayvonlar), lekin tushuntirib berishga qiynalishadi. Ularning lug'atida bu so'zlar tushunchasi bor bo'lsa ham, ularni to'g'ri talqin qila olishmaydi.

Turli va umumiylikni ajratib berish ular uchun juda murakkabdir; umumiylikni topish o'rniga ular predmetlarning alohida sifatlari va funksiyalarini aytadilar yoki predmetni farqini aytish bilan chegaralanib qolishadi. Umumlashtirish e'tiborsiz, ahamiyatsiz tomonlarga tayanish orqali amalga oshiriladi. Masalan: rangi, katta-kichikligi; mustaqil umumlashtirish lozim bo'lgan (G-J) variantli topshiriqlar ular uchun juda murakkab bo'lib, ularni bajara olmaydilar. Bunday paytda ular yoki javob berishdan bosh tortishadi yoki nomunosib javoblar berishadi. Masalan: chemodan va sumka bilan biror erga borish mumkin, ryukzak bilan bilan bo'lsa borib bo'lmaydi, deb aytishadi.

Demensiyaga ega bo'lgan bolalar bu metodikani bajarishlarida, ularda umumlashtirishini, fikrlashini notekisligini ko'rish mumkin. Masalan: shizofrenik demensiya turidagi bolalar ba'zi hollarda to'g'ri javob bersalar, ba'zan umuman noto'g'ri umumlashtirishadi.

Asosan bunday bolalar umumlashtirishni tushunib bo'lmaydigan affektiv bog'liqliklar bilan hosil qiladilar.

Epileptik demensiyasi bor bolalar esa to'rtinchisi ortiqcha metodikasida umumlashtirish yoki farq qilishda predmetlarning muhim bo'lmagan sifatlariga asoslanadilar. Ular kundalik hayotda har doim uchraydigan narsalarnigina to'g'ri tushunib umumlashtira oldilar va farqini bilishadi. Ularni tushunchasini o'zgartirish juda qiyin. Masalan, bir variantda uchraydigan umumiylik formasi yoki ishlatilish turiga qarab predmetlarni ajratishgan bo'lsa, boshqa topshiriqlarda ham ular shuni ta'kidlab borishadi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar odatda bunday topshiriqlarni «A»dan «D» variantigacha bajara olishadi. Ular 3ta bir xil va 4-chi ortiqcha predmetni ko'rsata bilishadi.

«E» va «J» variantlarni ham bajara olishadi, lekin buning uchun, ularga yo'naltiruvchi savollarni berishi kerak. Asosiy qiyinchilik so'zlab berishda namoyon bo'ladi.

Eshitishda hamda nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar bunday topshiriqlarni og'zaki tushuntirilganda anglab olishlari qiyin. Agar ularga misol tariqasida bir necha bor ko'rsatib berilsa (masalan, bola oldiga 4ta predmetni rasm qo'yilib ulardan 3ta bir xilini ajratib, farqini ko'rsatilsa) bola topshiriqni mustaqil bajara oladigan bo'ladi. *Intelekti me'yorida bo'lgan bolalar* hech qanday qiyinchiliksiz «A» dan «D» variantigacha topshiriqlarni bemalol bajarishadi.

Agar bola «E» - «J» varianlarini mustaqil bajara olsa, undan so'zlab berishni talab qilish ortiqcha deb hisoblanadi.

Intellekti saqlangan serebral falajli bolalar va zaif ko'ruvchi bolalar bu topshiriqlarni hech bir qiyinchiliksiz bajarishadi. Serebral falajli bolalarga harakatlarda yordam berish kerak, zaif ko'ruvchi bolalarga esa ba'zi hollarda predmetlarni rasmlarini nomlarini aytib turish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Normal rivojlangan bolalar bunday turdagi topshiriqlarning hamma variantlarini hech qanday qiyinchiliksiz bajara oladilar.

Amaliy topshiriqlar

Bu metodika yordamida bolaning aniq amaliy vaziyatni tushunishi, aniqlanadi. Vaziyat echimining mantiqiy to'g'riligi (ortiqcha predmetlar mavjud bo'lgan predmetlar guruhidan bir qator predmetlarni ajratish), echimning asoslanishi va faoliyat xarakteri taxlil qilinadi.

Topshiriqlar variantlari:

A. Tushlik uchun zarur bo'lgan predmetlarni yig'ish.

Berilgan: likopcha, ko'g'irchok, taroq, qoshiq, piyola, tish cho'tkasi.

B. Rasm chizish jihozlarini yig'ish.

Berilgan: qog'oz, elim, taroq, qalam, mo'yqalam, qoshiq, buyoqlar.

V. Maktab anjomlarini yig'ish.

Berilgan: ko'g'irchok, daftar, ruchka, taroq, tish cho'tkasi, alifbe.

G. Baland joydagi (masalan, shkaf ustida) koptokni olish uchun jihozlarni yig'ish.

Berilgan: kursi, tayoq, arqon, qaychi, ikkinchi koptok.

O'tkazish texnikasi. Turli xil buyumlar to'plami mavjud bo'lishi lozim. Topshiriqning maqsadi eksperimentator taklif etgan vaziyatni hal etish uchun kerak bo'lgan predmetlarni tanlash. Ko'rsatma og'zaki beriladi: «Stol ustida (qutichadi) turli narsalar bor. Bulardan maktabga olib boradigan narsalarnigina tanlab ol» (V varianti). «Shkaf ustidagi koptokni olib ber. Biz uchun qutichada senga keraklilarni ol» (G varianti).

Topshiriqni bajarilishini natijalarining tahlili. Aqli zaiflikning *o'rta darajasidagi bolalar* tavsiya etilgan amaliy topshiriqni bajara olmaydilar. Ular predmetlarni maqsadsiz titkilay boshlaydilar, ko'rsatmani unutib, chalg'iydilar. Shkaf ustidan koptokni olish o'rniga eksperimentatorga ikkinchi koptokni yoki qutidachi boshqa predmetni berishlari mumkin.

Aqli zaiflikning *engil darajasidagi bolalar* kerak bo'lgan predmet bilan birga kerak bo'lmagan, lekin o'ziga yoqqan predmetni olishlari mumkin. «Bu narsa tushlikka kerakmi? (maktab uchun va hokazo) degan savolga ko'pincha «ha» deb o'ziga yoqqanligini nazarda tutishib javob berishadi».

Uzoqda yoki balanddagi narsani bu bolalar darhol olib berishni doim ham uddalay olmaydilar, lekin tashkiliy yordam bilan bu topshiriqni bajaradilar.

Demensiyasi bor bolalar uchun bu metodika tashxis qo'yish uchun etarli emas. Bu toifadagi bolalar topshiriqni turli darajada bajarishlari mumkin. Bu ularning umumiy holati va etakchi nuqsonning o'ziga xosligiga bog'liq (diqqat, xotira va maqsadga yo'naltirishning etishmovchiligi va boshqalar).

Psixik rivojlanishi sustlashgan va rivojlanishi me'yorida bo'lgan bolalar bu turdagi topshiriqlarni bajara oladilar, ba'zida ularni og'zaki ham bajara oladilar: «maktabga ruchka, daftar va boshqa kerakli narsalarni olib ko'rsatadilar». «Stul yoki kursini olish kerak». «Koptokni olish uchun». «Koptokni shkaf ustidan tayoq bilan tushirish mumkin va hokazo».

Ayrim analizatorlarida (ko'rish, eshitish, nutq, tayanch, xarakat apparati) nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan bu topshiriqni bajarish sifati ularning aqliy rivojlanishiga bog'liq.

Bilvosita eslab qolish uchun rasmlar (L.V.Zankov, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontevlar tomonidan ishlab chiqilgan) metodikalar so'zlarni eslab qolish va esga tushirish uchun yordamchi vositalardan (rasmlar) foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Topshiriqning 2 varianti (A va B) taklif etilib, ular bilvosita eslab qolish vositalarini tanlash xarakteri va mantiqiy bog'liqliklarni o'rnatish murakkabligi bo'yicha farqlanadi.

L.V.Zankov metodikasi

Metodikani ushbu variantida tavsiya etilgan so'zlar uchun tayyor rasmlardan foydalaniladi.

O'tkazish texnikasi. Bolaga eslab kolish uchun 5ta so'z aytiladi (nur, nonushta, o'rmon, o'yin, o'qish). Eslab qolish jarayonini osonlashtirish uchun har bir aytilgan so'zga monand rasmlar kursatiladi (lampa, non, daraxt, ko'g'irchok, kitob). Tanlovni to'liq bo'lishini ta'minlash maqsadida 1ta ko'shimcha rasm beriladi (sigir).

Ko'rsatma: Hozir men senga aytadigan so'zlarni eslab qolishing kerak, ularni yaxshi eslab qolishing uchun men senga har bir aytilgan so'zga monand rasmlarni beraman.

Masalan: «O'yin so'ziga qo'g'irchok», chunki o'yin o'ynash uchun ko'g'irchoq lozim.

Agar bola ko'rsatmani tushungan bo'lsa tekshirishni o'tkazish mumkin. Bolaga eslab qolishi uchun rasmlarni ko'rsatayotib so'zlar bilan rasmlar o'rtasidagi o'zaro bog'likligini tushuntirib berishni so'rash lozim. Agar bola buni qilishga qiynalsa, avval:

O'ylab ko'r, bu rasm nimasi bilan senga o'yini eslatadi? Yoki o'yin uchun nima kerak? kabi savollar bilan bolani rag'barlantirish lozim».

Agar bu holda ham bola tushuna olmasa, unda tekshiruvchining o'zi uni ko'rsatib rasm va so'z orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rnatadi va bu bolani qanchalik tushunganligini tekshiradi.

Har bir so'z aytib bo'linib rasmlar tanlangandan so'ng tekshiruvchi rasmlarni yig'ib oladi. U bolani chalg'itish xarakteridagi 2-3 savol beradi. Masalan: Senga bu topshiriq yoqdimi? Senga qiyin bo'lmadimi? Bu topshiriqdan charchamadingmi? Shu kabi savollardan keyin bolaga rasmlar ko'rsatilib savol beriladi.

Bu rasm senga qaysi so'zni eslatyapti?

Agar bola qiynalmasdan topshiriqni bajarsa, u holda shu murakkabroq «B» variantiga o'tish mumkin.

A.N.Leontev metodikasi

Metodikaning bu varianti bilvosita eslab qolish uchun rasmlarni faol mustaqil tanlashini rag'batlantirishni nazarda tutadi.

Rasm va so'z o'rtasidagi murakkabroq (A variantiga qaraganda) mantiqiy bog'liqliklar o'rnatiladi.

O'tkazish texnikasi. Stol ustiga 9ta rasmlar qo'yiladi (bolg'a, sochiq, quyosh, stakan, oyna, krovat, dala, ko'ylak, telefon). Bolaga ketma- ket ravishda 5ta so'z (tun, yo'l, bayram, ish, sut) aytiladi va eslab qolish so'raladi. Ko'rsatma: «Sen aytilgan so'zlarni, eslab qolishini kerak». Yaxshi eslab qolishing uchun har bir so'zga doir rasm tanlashing kerak. Masalan, aytginchi, tun so'ziga, qaysi rasmni tanlab olar eding? Agar bola tanlasa, undan so'raladi: «Nimasi bilan bu rasm senga tun so'zini eslatadi?». Agar bola to'g'ri javob bersa, tekshirish davom ettiriladi; qachonki hamma rasmlarni tanlab bo'lgandan so'ng, chalg'itish uchun 2-3ta savol beriladi, so'ng rasmlarni tanlagach boladan berilgan so'zlar so'raladi.

Agar bola berilgan ko'rsatmani tushunmasa, tekshiruvchi topshiriqni tushuntiradi. Bolaga rasmda tun tasvirlangan bo'lmasa ham, shu so'zni eslatadigan rasmni topish mumkinligi tushuntiriladi. Tekshiruvchi o'zi rasmlar tanlaydi va tushuntirish ishlari olib boradi. Boladan keyingi so'zga rasm tanlash so'raladi. Tashkillashtirilgan, rag'batlantiruvchi yordam, ba'zida etarli bo'ladi. Ayrim hollarda ikkinchi juftga ham tushuntirish beriladi. Uchinchi juftda bola o'zlashtira olmasa, tekshirishni to'xtatish kerak va engilroq variantlardan foydalanish lozim.

Topshiriqni bajarilish natijalarining tahlili. Aqli zaiflikning *o'rta darajasidagi bolalar* bilvosita eslab qololmaydilar. Aqli zaiflikning *engil darajasidagi bolalar* ko'pincha topshiriqni bajara oladilar, lekin ularga yo'naltiruvchi savollar orqali yordam berib turish lozim. B variantni esa bajara olmaydilar. Ko'pincha bolalar hatto

topshiriqni tushunishmaydi, so‘z va rasmlar orasida hech qanday bog‘liqlikni ko‘rmaydilar. Bu esa rasmlar eslab qolishga halaqit beradi.

Epileptik demensiyanli bolalarga ko‘ruv xotirasiga qaraganda so‘z xotirasining buzilishlari xos bo‘ladi. Shuning uchun bilvosita eslab qolishi obrazi eslab qolinayotgan so‘zga yaqin va aniq bo‘lganda imkon bo‘ladi (masalan, nur - lampa). Bog‘lanish mavhum, umumiy bo‘lgan hollarda eslab qolinmaydi. *Shizofrenik demensiyada* topshiriqni bajarish murakkabligi bolaning uzoq vaqt, diqqat bilan, maqsadga yo‘naltirilgan holda ishlashi zarurligidan kelib chiqadi.

*Psixik rivojlanishi sustlashgan*da esa A variant qiyinchilik tug‘dirmaydi, B variant esa tekshiruvchi yordami bilan bajartiriladi. Sodda topshiriqlarni, masalan sut – piyola bolalarning o‘zlari mustaqil bajarishadi. Eslab qolish uchun qiyin so‘zlar quyidagilar xisoblanadi (bayram, ish, yo‘l). Psixik rivojlanishi sustlangan bolalar birbiridan uzoq bo‘lgan bog‘lanishlarni o‘rganish tarzidagi yordamsiz o‘rnata olmaydilar.

Nutqida kamchiligi bor, zaif eshituvchi zaif ko‘ruvchi bolalarda ushbu metodika tashxis uchun foydalanilmaydi.

Serebral falajlangan bolalar bu metodikani qiyinchiliksiz bajarishlari mumkin.

Me’yorida rivojlanayotgan bolalar B variantini hech kimni yordamisiz bajara oladilar. Bu vazifa ularda qiziqish uyg‘otadi, bolalarning faolligini oshiradi.

Rangli kubiklar

Bolani rangni tushunishini suhbat jarayonida voqeaband rasm yordamida tekshirish mumkin. Lekin maxsus eksperiment ham o‘tkazish mumkin.

O‘tkazish texnikasi. Stolning ustiga bolaning oldiga har xil rangdagi kubiklar qo‘yiladi (qizil, ko‘k, yashil, sariq). Tekshiruvchi o‘zining oldiga xuddi shunday kubiklarni qo‘yadi, lekin boshqa tartibda – yashil, sariq, qizil, ko‘k. Avval rang solishtirilish bo‘yicha tajriba o‘tkazadi. Ko‘rsatma: «Menda mana bu rangdagi kubik

bor (ko‘rsatadi). Qaraginchi, senda ham shunday kubik bormi, ko‘rsatgin- chi». Agar bola ranglarni solishtira olsa, ularni farqlashni tekshiradi. Bolaning oldiga har xil rangdagi kubiklar qo‘yiladi va qaysi qizil, sariqligini ko‘rsatishni so‘raladi. Agar u bu vazifani bajara olsa, unga kubiklar ko‘rsatiladi va bu ranglarni har birini o‘zi nomlab berishini so‘raladi.

Topshiriqni bajarilish natijalarining tahlili. Aqli zaiflikning *o‘rta darajasidagi bolalar* bolalar ko‘p hollarda rang haqidagi tasavvurga ega bo‘lmaydi; u tez adashadi, faqatgina, masalan, biron-bir rangni bilishi mumkin yoki ajratishga qodir bo‘ladilar. Ayrim hollarda rang haqidagi tasavvurlari bo‘lmaydi.

Aqli zaiflikning *engil darajasidagi bolalar* maktab yoshida faqat asosiy ranglarni ajratadilar; ammo tuslanishlarni idrok qilishga qiynaladilar.

Ko‘pincha bu usul yordamida demensiyaning xususiyatlari haqida fikr yuritish qiyin. Bu usul faqat rang to‘g‘risidagi tasavvur rivojlangan yoki yo‘qligini qayd qilishga imkon beradi xolos.

Ko‘rish o‘tkirligi buzilgan bolalardan tashqari me’yorida rivojlanayotgan, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, eshitishi pasaygan, nutqi rivojlanmagan, harakat – tayanch apparatida kamchiligi bo‘lgan bolalar faqatgina asosiy ranglarni emas, balki tuslangan ranglarni ham biladilar. Ko‘rish o‘tkirligi pasaygan bolalar ayrim tuslanuvchi ranglarni farqlay olmaydilar.

Rossolimo metodikasi

Bu metodika yordamida vaziyatning mohiyatini tushunish, elementar tushunchalarning mavjudligini, avvalgi tajribalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi. Metodikani eshitishi pasaygan va nutqida buzilishlar bo‘lgan bolalarning aqliy (intellekt) jihatdan rivojlanishini o‘rganishda ham qo‘llash maqsadga muvofiq

O‘tkazish texnikasi. Bolaga vaziyat tasvirlangan voqeaband rasm ko‘rsatiladi, unda u yoki bu element etishmaydi.

Masalan, ko‘rsatilgan rasmda bola tasvirlangan, u uxlashga etayapti, krovatda bo‘lsa yostiq yo‘q. Boladan etishmayotgan buyumni aytish so‘raladi. Yordam sifatida to‘g‘ri javob uchun kerakli va

keraksiz bo‘lgan turli xil predmetlar tasvirlangan yordamchi rasmni ko‘rsatish mumkin. Zaif eshituvchi bolalarga nutqiy ko‘rsatmani namoyish etish bilan olib borish kerak. Rivojlanishida bunday nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek sezilarli nutqiy buzilishlari bo‘lgan bolalar tanlangan predmetni imo-ishora orqali ko‘rsatishlari mumkin.







Topshiriqni bajarilishi natijalarining tahlili. Aqli zaiflikning *o'rta darajasidagi bolalarga* bu topshiriqni bo'lgan vaziyat ham aniq tushuntirishni talab qiladi.

Bolalar ko'pincha rasmda nimadir etishmayotganini sezishmaydi.

Aqli zaiflikning *engil darajasidagi bolalar* bu topshiriqni bajara olishadi; ba'zilariga tashkiliy yordam yoki yo'naltiruvchi savollar kerak bo'ladi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar va intellekti me'yorida bo'lgan bolalar ko'rsatmani osonlik bilan tushunishadi va qiyinchiliklarsiz topshiriqni bajarishadi.

Ayrim analizatorlarida nuqsoni bo'lgan bolalarni topshiriqni bajarish sifati ular intellektining holatiga bog'liq. Demensiya bilan kasallanganlar haqida ham xuddi shunday aytish mumkin.

Agar bola metodikaning asosiy qismlariga kiruvchi topshiriqlarning bir qismini uddalay olsa, boshqalarini bajarishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelsa, unga nisbatan soddaroq vazifalarni berish mumkin.

O'xshash va farqli tomonlarini ajratish

Bu metodika yordamida bolalarda predmetlarning muhim belgilarini ajratish, predmet va tushunchalarning umumiy va farqli tomonlarini ajrata olish qobiliyati tekshiriladi. Bu topshiriqlar ko'rishda nuqsoni bor bolalarga hamda harakat tayanch a'zolarida nuqsoni bor bolalarga ham berilishi mumkin.

O'tkazish texnikasi. Bolaga ikkita taqqoslanayotgan predmetning (tushunchalarning) umumiy va farqli tomonlarini topish taklif etiladi.

Ko'rsatma: «Men senga ikkita predmetni nomini aytaman, sen o'ylab ko'rib, ular orasidagi umumiylik va farqli tomonini ayt», «Qaysi tomonlari bilan o'xshash?», «Ularni bir nom bilan qanday atash mumkin?» va boshqalar.



Juftliklarni solishtirish:

koptok-tarvuz
bo'ri-kuchuk
suv-muz
ruchka- qalam
kun-tun

Topshiriqni ·og'zaki berish bilan birga ko'rgazmali tarzda berish ham mumkin. Bolalar uchun ko'rsatmani tushunish qiyin bo'ladi; shuning uchun namunani tahlil qilish bilan bir vaqtda olib borish maslahat beriladi.

Topshiriqni bajarilishi natijalarining tahlili. Aqli zaiflikning *engil darajasidagi* bolalar umumiy va farq tomonlarini ajratishga qiynaladilar; ko'pincha solishtirish jarayonida bolalar predmetni farqini topish bilan chegaralanib qoladilar. O'xshash belgilarini topish ularda katta qiyinchilik bilan bajariladi.

Epilepsiyaning demensiya formasidagi bolalar taqqoslanayotgan ob'ektlarni alohida qismlarida to'xtab, boshqalarini eslaridan chiqarib qo'yadilar; ular uzoq va sinchikovlik bilan farqli tomonlarini izlaydilar. Bunda to'g'ri javoblar bilan bir qatorda be'mani tushuntirishlar, izohlar ham kuzatiladi. Lekin deyarli har doim bolalar o'xshash tomonlarini topishda hamda asosiy va ikkinchi darajadagisini ajratishda qiynalib qoladilar.

Metodika zaif eshituvchi va nutqiy nuqsonga ega bo'lgan bolalar uchun etarli darajada tashxisli emas. (Bu metodika bilan tashxis qo'yib bo'lmaydi). Verbal javob berish bunday nuqsonlilarda ancha

qiyinchilik uyg‘otadi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning ko‘pchiligi ko‘r

satmani yaxshi o‘zlashtirib olsalar. Topshiriqning sodda variantlarini bajara oladilar (birinchi-to‘rtinchi juftliklar). Ko‘p holatlarda psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarga yo‘naltiruvchi ko‘rinishdagi yordam lozim bo‘ladi.

Bu topshiriqni bajarish ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan va serebral falajlangan bolalarning intellektini rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Me’yorida rivojlangan bolalar ko‘rsatmani o‘zlashtirib, topshiriqni osonlik bilan bajaradilar, shu bilan birga o‘zlari tashabbus va ijodkorlikni namoyon eta oladilar.

Maqol va metaforalarni tushunish

Ushbu metodika ko‘chma va yashirin ma’nosini tushunish qobiliyatini aniqlashga yo‘naltirilgan.

O‘tkazish texnikasi. Bolaga metafora yoki maqol aytilib uning mazmunini tushuntirish so‘raladi.

Topshiriqni bajarilishi natijalarining tahlili. Aqli zaiflikning *engil darajasidagi bolalar* darajasidagi ba’zi bir bolalar avval eshitgan va mazmunini ularga tushuntirilgan metaforalarni to‘g‘ri tushuntirib beradilar. Agar bu boladan yangi metaforani tushuntirib berish so‘ralsa, asosan uning talqini tor, sodda bo‘ladi. Masalan: Oltin qo‘llar metaforasi oltindan qilingan qo‘llar kabi tushuntiriladi.

Maqollar (hatto avval eshitilganlari ham) o‘z ma’nosida va aniq vaziyatda talqin qilinishi mumkin.

Demensiyasi bor bemorlarni maqol va metaforalarni tushunishlari notekis xarakter kasb etadi: to‘g‘ri javoblar bilan birgalikda noto‘g‘ri javoblar ham bo‘lishi mumkin.

Epilepsiyasi bor bolalar metafora va maqollarni konkret, o‘z ma’nosida tushuntirib berishga yondashadilar. Bunda epileptik bolalarning nutqini yaxshi rivojlanganligi tafakkurdagi nuqsonlarni yashirishi ham mumkin.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar avval eshitgan metaforalarning mazmunini yaxshi tushuntirib berishlari mumkin, ular qo‘shimcha yo‘naltiruvchi savollar orqali [illegible]

tushuna oladilar. Bolalar aniq vaziyatlarda maqollarning ma’nosini to‘g‘ri tushuntirib beradilar, lekin ko‘pgina xollarda umumlashgan ko‘rinishda maqollarni tushuntirib bera olmaydilar. Yo‘naltiruvchi savollar yordamida maqoldagi vaziyatni tushuntirib bera oladilar.

Bu metodika nutqida buzilishi bor va eshitish pasaygan bolalarni tekshirishda qo‘llanilmaydi.

Geometrik shakllarning klassifikatsiyasi

A.Ya.Ivanova metodikasining qisqartirilgan variantini taklif qilinadi. Tekshirishning asosiy maqsadi umumlashtirishga bo‘lgan qobiliyatining darajasini aniqlashdan iborat.

O‘tkazish texnikasi. Ish materiali 2ta to‘plam kartochkalar bo‘lib hisoblanadi Har bir to‘plamda 12tadan shakl bo‘ladi. Birinchi to‘plam asosiy vazifani bajarishda ishlatiladi. Bu to‘plamda 3 shakl qizil rangda, 3tasi ko‘k rang, 3tasi sariq, 3tasi yashil. Shakllardan 4ta uchburchak, 4ta to‘g‘ri to‘rtburchak, 4ta doira. To‘plamda 6ta kata hajmdagi shakl va 6ta nisbatan kichik shakllar bor. Ikkinchi to‘plam mustaqil ish bajarish vaqtida ishlatiladi. Tekshirish to‘plamiga kirgan shakllardan 9tasi nisbatan ancha murakkab tuzilishga ega. 4ta shakl qizil, 4tasi ko‘k, 4tasi sariq. To‘plamda 6ta katta hajmdagi va va 6ta nisbatan kichik shakllar bo‘lishi kerak..

Asosiy topshiriq. Bolaga kartochkalar to‘plamlarini ko‘rsatiladi va ularga har xil shakllar chizilganligini tushuntiriladi, so‘ngra ko‘rsatma beriladi: «Bu kartochkalarni o‘xshashlarini o‘xshashiga ajrat». Agar bola ishga kirishmasa yoki aksincha shoshib harakatlar qilsa unga tashkiliy yordam berish mumkin. Agar u shakllarni guruxlash uchun umumiy belgi topa olmasa eksperimentatorning o‘zi kartochkalarni ajratadi (bir xil rangdoshlardan boshlaydi), so‘ngra bolaga ishni davom ettirishni taklif etiladi. Bu ajratish ishi tugagandan keyin boladan ish usulini tushuntirib berish so‘raladi. Agar bola bu ishni qilmasa, usulni tekshiruvchining o‘zi tushuntiradi. So‘ngra barcha kartochkalarni aralashtirilib, qaytadan bolaga «endi ularni boshqacha qilib, lekin o‘xshashlarini o‘xshashlariga ajrat» deyiladi. Agar bola yana klassifikatsiya qilishni bilmasa, unga shakllarning belgisiga qarab ajratishga o‘rgatiladi; bu maqsadda tekshiruvchi bolaga savollar berib shakllarni umumlashtirish yo‘lini aytib beradi. Topshiriqni bajarib bo‘lgandan keyin belgini og‘zaki ifodalash ker-

ak (bola yoki tekshiruvchi). So‘ngra eksperimentator kartochkalarni yana aralashtirib bolaga beradi va so‘z bilan: «Ularni boshqatdan guruxlarga ajrat, o‘xshashlarini o‘xshashlariga shunday ajratki, 2ta gurux hosil bo‘lsin (shakllarning katta-kichikligini e’tiborga olib). Klassifikatsiyalash usuli avvalgidek og‘zaki ifodalanadi.»

Nazorat topshirig‘i.. Bolaga kartochkalarni ikkinchi to‘plami beriladi va ularni har xil belgilar bo‘yicha guruhlarga ajratish so‘raladi. Biroz rag‘batlantirish mumkin. Boshqa yordam turlari ko‘rsatilmaydi. Eshitishida nuqsoni bor deb taxmin qilinayotgan bolaga topshiriqning maqsadini tushuntirish uchun tekshiruvchining o‘zi shakllarni biror-bir belgisi bo‘yicha klassifikatsiya qilishi kerak, so‘ngra xuddi shunday qilib davom ettirishini boladan so‘raladi. O‘xshash topshiriqlar bundan so‘ng yordamsiz bajariladi.

Topshiriqni bajarilishi natijalarining tahlili. Aqli zaiflikning *engil darajasidagi bolalar* vazifani sekin tushunadilar. Ayrimlari faqat bitta belgini mustaqil (ko‘pincha rangini) ajratadilar, lekin boshqa ish usuliga o‘tilsa – yaqqol namoyon bo‘lgan inertlikni ko‘rish mumkin; ular yana belgilarni birinchi ko‘rsatgan belgilariga qarab ajratadilar. Klassifikatsiyaning uchinchi usulini kiritish topshiriqning bajarilishini yanada qiyinlashtiradi. Ko‘rsatilgan yordamlarga qaramay klassifikatsiyalash bola tomonidan bir, ayrim vaqtda boshqa belgisiga qarab amalga oshiriladi; o‘z-o‘zini nazorat qilish umuman bo‘lmaydi. Ish usulini og‘zaki bayon etishni bajara olishmaydi. Ish usulini o‘xshash topshiriqni bajarishga o‘tkazishda tashqaridan yordamisiz kamdan-kam amalga oshiriladi.

Shizofreniyali demensiyasi bo‘lgan bolalar ko‘pincha bu topshiriqni bajara olmaydilar. Bunga sabab ularning maqsadga intilishlarini va diqqatning buzilganligidir.

Epileptik demensiyali bolalarda ko‘pincha klassifikatsiyalashda bir usuldan ikkinchisiga o‘tish juda qiyin bo‘ladi. Ulardagi psixik jarayonlarning qo‘pol ravishda sekinlashganligi yaqqol ifodalanadi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar topshiriqning ma’nosini tezda anglab klassifikatsiya usulini (rangi, shakli bo‘yicha) ajratadilar. Ular o‘rgatish emas, balki, tashkiliy yordamga muhtoj bo‘ladilar. Xatoliklar diqqatsizlikdan kelib chiqadi. Ikkinchi va uchinchi belgilarni ajratish uchun o‘rgatuvchi yordam talab qilinadi. Bolalar ish

usulini ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko‘pincha bolalarni bunday topshiriqlarni bajarish charchatib qo‘yadi, mashg‘ulot oxirida, ular mashg‘ulot boshiga nisbatan ancha yomon ishlaydilar.

Zaif ko‘ruvchilar va zaif eshituvchi bolalar bu topshiriqni o‘zlarining intellektual imkoniyatlariga mos ravishda bajaradilar.

Rivojlanishi me’yorida bo‘lgan bolalar asosan ikkita, ba’zan uchta belgi, sifatni mustaqil ajratadilar. Ularga beriladigan yordam ko‘pincha yo‘naltiruvchi va tashkiliy xarakterga ega bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni pedagogik tekshirish

Pedagogik tekshirishni psixologik tekshirishdan so‘ng o‘tkazish tavsiya qilinadi. Psixologik va pedagogik tekshirishni ko‘pincha bir mutaxassis-pedagog-defektolog o‘tkazadi. Agarda bu tekshirishlar turli shaxslar-psixolog va pedagog tomonidan o‘tkazilsa, bunda pedagogga psixologning tekshirish natijalarini bilish zarur. Bu takrorlashlarning oldini oladi va pedagogik tekshirishning rejasini o‘tkazishga imkon yaratadi.

Pedagogik tekshirishning maqsadi bolalar tomonidan o‘zlashtirib olingan bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmini, ular tomonidan yangi tushunchalar, yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirib olish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ularning qaysi bosqichlarda yuzaga kelishini, bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish sharoitlarini aniqlashdir.

Tekshirishni boshlashdan avval pedagog bolaning pedagogik hujjatlarini diqqat o‘rganib chiqadi (bolalar bog‘chasi yoki maktabdan berilgan tavsif, daftarlar, bolaning mustaqil ishlari, chizgan rasmlari va h.k.). Bolaga berilgan tavsifni tahlil qilish pedagogik tekshirish sxemasini to‘g‘ri tuzishga, bolaning individual xususiyatlarini e’tiborga olib unga to‘g‘ri yondoshishga yordam beradi. Agarda tavsifda bola tez toliqadi deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, unga tekshirish vaqtida tez va qisqa vaqtda bajariladigan topshiriqlar beriladi, agarda bolaga o‘quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘lgan bo‘lsa o‘yin holatlaridan foydalanish lozim bo‘ladi va h.k. Tekshirilayotgan bolalarning daftarlarini o‘rganish u yoki bu malakaning rivojlanish dinamikasi, maktab dasturini o‘zlashtirish jaray-

onida bola yo'l qo'yadigan xatolari xarakteri, qiyinchiliklari haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Bolalar tomonidan chizilgan rasmlarni tahlil qilish tashxis qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, faqatgina tasviriy faoliyat sohasidagi bolaning texnik imkoniyatlari haqidagina ma'lumot bermasdan, balki uning kuzatuvchanligi, tasavvur va qiziqishlari doirasi va h.k.lar haqida tushuncha beradi. Agarda bola chizgan rasm g'alati, haqiqatdan tashqari xarakterda bo'lib bola unga to'g'ri tushuncha bermasa u shizofreniya bilan kasallangan deb tahmin qilish mumkin. Aqli zaif bolalar mustaqil tanlangan mavzuga doir rasm chiza olmaydilar. Aqli zaif bolalar chizgan rasmlar stereotip xarakterda bo'lib, aniq tasavvurlar yo'qligidan dalolat beradi.

Pedagogik hujjatlarni shunday tarzda sinchiklab o'rganib chiqqanidan so'ng defektolog bolani tekshirishga kirishadi.

Komissiyada bolani tekshirish vaqtida uning hisoblash operatsiyalarini o'tkaza olishi va matematik tasavvurlarining shakllanganligi aniqlanadi. Maktab o'quvchilarini ular tomonidan o'rganilgan dastur materiallari bo'yicha bilimlari tekshiriladi.

Agarda bola o'qish malakalarini egallanmaganligi aniqlansa uning o'qish malakasining holatini tekshirishning hojati yo'q. Komissiyaga yuborilguncha maktabda o'qigan bolalarning o'qish va yozish malakalari o'tilgan material hajmida tekshiriladi.

Barcha holatlarda bolalarning bilimlarini ular o'qiyotgan sinf dasturi materialidan boshlab tekshirish lozim. So'ngra bolalarning bilimlari quyi sinflarda o'tilgan dastur materiali asosida aniqlandi.

Komissiyada bolaning maktab malakalari va bilimlarining holati, eng avvalo o'qish, yozish, hisoblash malakalarining holatini tekshirishga qaratish lozim.

Pedagogik tekshirishning maqsadi o'zlashtirishnigina aniqlashdan iborat bo'lmay, balki avvalo ushbu bolaning ta'limdagi qiyinchiliklarini tahlil qilish ekanligini esidan chiqarmasligi lozim.

O'qish. O'qish malakasini egallab olmaslik hollari turlicha bo'lib, ba'zan ularni ajratish ancha murakkabdir.

Qiyinchiliklar o'qish malakasida ham, shuningdek o'qishning mazmun tomonida ham kuzatiladi.

O'qish malakasi o'z rivojlanishida bir qator bosqichlardan ibo-

rat murakkab yo'lni bosib o'tadi. Savod o'rganishga kirishib bola ko'pincha tovush tahlilida qiynaladi. Bola qator hollarda bo'g'inlab va so'zlarni sidirg'asiga o'qishni egallab olishda qiynaladi. Qiyinchiliklar harflarni eslab qolishda ham kuzatiladi. Aqli zaif bolalar oliy nerv faoliyatlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'qish malakalarini juda qiyinchilik bilan egallaydilar va uning alohida bosqichlari ancha ko'p vaqtni talab qiladi. Aqli zaif bolalarda ko'p kuzatiladigan og'zaki nutqning nuqsonlari ham qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Har bir bolaning o'qishni egallashdagi qiyinchiliklarini sinchiklab tahlil qilish va ularning xarakteri va sabablarini aniqlash muhimdir.

O'qish malakasidan tashqari pedagog bolaning o'qigan so'zlari, gaplarining ma'nosini tushunganliklari, intonatsiyaga ahamiyat berishni, o'qiganlari bo'yicha savollarga javob bera olishi va so'zlab bera olishlariga diqqatini qaratish lozim.

O'qish malakasini tekshirishda kesma harflar kabi ko'rgazmalar zarurdir.

Ko'pincha bolaning o'qish malakasini unga tanish va tanish bo'lmagan alifbedan foydalanib tekshiriladi.

Bolaning o'qish va yozish malakasini o'rganishdagi qiyinchiliklarini tahlil qilishda quyidagilarga diqqatni qaratish zarur:

1. Bolalarda mavjud bo'lgan qiyinchiliklarning qaysi biri uning ta'lim va tarbiya sharoitlariga bog'liq (pedagogik qoloqlik,, o'qitishda noto'g'ri metodlarning tanlanishi, o'qishdan uzoq vaqt orqada qolib ketish va hokazolar).

O'qishdagi o'zlashtirmaslikni o'qituvchilar odatda:

- harflarni esdan chiqarish;
- o'qish jarayoning qiyinchiliklari;
- o'qilgan matnni tushunmaslik bilan bog'laydilar.

Tekshirish jarayonida qiyinchiliklarning sababini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilganlarga diqqatni qaratish lozim.

1. Bola ko'pincha tahmin qilib, rasmlar bo'yicha o'qiydi, yodlab oladi. O'qishni o'rganishning avvalgi bosqichlarida o'rganilmaganlar keyingi bosqichlarida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ba'zi hollarda bola o'qish va yozishni bilsa ham harflarni bilishning mustahkamligi tekshiriladi. Bola o'z qiyinchiliklariga qan-

day qarashi, ularni qanday engishga harakat qilishga ham diqqatni qaratish zarur.

2. Yozuv va o'qishning buzilishlari (disleksiya va disgrafiya).

3. O'qishni o'rganishda qiyinchilik keltirib chiqaradigan boshqa omillarning mavjudligi (talaffuzdagi, nuqsonlar, eshitishning, ko'rishning pasayganligi).

4. Bolaning o'qish va o'rganishida orqada qolishning asosiy sababini uning aqli zaifligidangina deb tahmin qilmaslik. Agarda bolani o'qishni o'rganishdagi qiyinchiliklari aqli zaiflikdan deb tahmin qilmasdan boshqa sabablari to'liq tushuntirilsa uni yordamchi maktabga yuborish haqidagi fikrlarga shubha tug'iladi (ayniqsa bolaning rivojlanishi orqada qolishi haqida boshqa shikoyatlar bo'lmasa). Bunda masala tekshirishning barcha ma'lumotlarini solishtirish yo'li bilan hal qilinadi.

Bolada o'qish jarayonini tekshirish uchun quyidagi dasturni tavsiya etish mumkin:

1. Bolaning o'qishga bo'lgan munosabati va uning o'qishni o'zlashtirishdagi holatlar.

- O'qish qachon, qaerda va kim tomonidan boshlangan?
- Qiyinchiliklar bo'lganmi? Qaysi bosqichda? Qanday?
- Bola o'qishni yaxshi ko'radimi?
- O'qilayotganlarni eshitishni yaxshi ko'radimi? Bu savollarga javob ota-onalar va bola bilan suhbatda olinadi.

2. O'qishga tayyorgarlik.

- Gapni takrorlash ko'nikmasi.
- Gapdan so'zni ajrata olish ko'nikmasi.
- Tovush tahlili (og'zaki). So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish, birinchi tovushni ajratish, alohida tovushlarni ajratish, so'zlardagi tovushlarni tartibi bo'yicha takrorlash.
- Harflarni tanish, bilishning mustahkamligi. Harfning nomi. Harfning nomi bo'yicha ko'rsatish. Qaysi harflarni bilmaydi? Qaysilarini almashtiradi? Qaysi harflarga almashtiradi? Nechta harflarni va qaysilarini biladi?

3. O'qish malakasi.

O'rganilgan so'zlarni o'qiydimi? To'liq so'z yoki jumlani o'qiy oladimi? Harflab, bo'g'inlab, sidirg'asiga o'qish.

Bog'langan o'qish

O'qish tezligi. Gapdagi alohida so'larning ma'nosini tushunish. Tinish belgilariga, intonatsiyaga rioya qilish. Savollarga javob (o'qilgan yoki tinglanganlarni so'zlab) berish.

Bolaning o'qish malakasining holatini u o'qiyotgan sinf dasturiga mos kelishi.

Yozish

Yozishga o'rgatishning dastlabki bosqichida eshitish analizatorining aniq ishlashi katta ahamiyatga ega.

- Yozilishi lozim bo'lgan so'zlarning tovush tuzilishini tahlili.
- So'zni tashkil qiladigan tovushlarning ketma-ketligini aniqlash.
- Tovushlarni aniqlash (eshitilayotgan tovush variantlarini aniq umumlashgan tovushlarga aylantirish).

Bularga bog'liq ravishda quyidagilarga diqqatni qaratish lozim:

1. Yozilishi lozim bo'lgan so'zlarning tovush tuzilishini etarlicha tahlil qilinmasligi, harflarni yaxshi esda saqlab qolmaslik, yaxshi bilmaslik, eshitilish bo'yicha yaqin tovushlarni (jarangli va jarangsiz), harflarni almashtirish yozuvdagi xatolarga olib keladi. Shular bilan birgalikda ko'rish analizatorining ishi bilan bog'liq bo'lgan yozuv texnikasiga o'rganishdagi qiyinchiliklarga ham diqqatni qaratish lozim.

2. Daftar varag'ida qator bo'yicha yozishdagi, chamalashdagi, yo'nalishdagi qiyinchiliklar (oynavand yozuv).

3. Yozuvga o'rganishda qalam va ruchkadan foydalana bilmaslikda ifodalanadigan qiyinchiliklar. Harakatlarning (harakatlarning moslashuvi) noto'g'riligi, aniq emasligi, qo'llarning engil titrashi. Bunday qiyinchiliklar bolaning harakat tizimini rivojlanishning etishmovchiliklaridan darak beradi.

Yozish vaqtida bolaning ishlash qobiliyatining o'zgaruvchanligi, uning umumiy holatiga ham e'tibor berish lozim.

Har bir bola uchun xarakterli bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash uchun quyidagilarni kuzatish zarur:

1. Ko'chirib yozish jarayoni:

- qay tarzda ko‘chiradi: butun so‘zlar bilan, xarflab, talaffuz qilib turib va h.k.;
- ko‘chirishni nimalar qiyinlashtiradi;
- xatolar xarakteri, o‘zini nazorat qilish. Charchashning yozishga ta’siri.

2. Mustaqil yozish:
- alohida so‘zlarni, gaplarni yozish;
- diktovka ostida yozish, yozish sur’ati, xarakteri, xatolar;
- yozma nutqdan mustaqil foydalanish (o‘z fikrni yozma ravishda ifodalay olish).

Hisoblash

Aqli zaif bolalarda ko‘pincha mexanik malakalar shakllangan bo‘lib, ular haqiqiy, real tasavvurlar bilan bog‘lanmagan bo‘ladi. Murakkab hisob ko‘p hollarda predmetlarni sanash bilan mos bo‘lmaydi. Aqli zaif bolalarda son haqida, sonning tuzilishi va arifmetik tushunchalar haqida aniq tasavvurlar bo‘lmaydi. Aqli zaif bola umumta’lim maktabda o‘qiyotib boshqa bolalar qilayotganlarga taqlid qilishga harakat qiladi. Ko‘pincha aqli zaif bola arifmetik tushunchalarni taqlid qilib, mexanik ravishda, hisob malakalarini ongsiz tarzda o‘zlashtirib oladilar. Shuning uchun bolani tekshirishda avvalo quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Sonlar qatori haqidagi tushunchalar (to‘g‘ri va teskari sanash). Sonlarni tanish.
2. Miqdor haqidagi tushunchalar, so‘ralayotgan sondagi predmetlarni bilish ko‘nikmasi.
3. Son tuzilishi haqidagi tushunchalar.
4. Sonlar nisbati haqidagi tushunchalar (ko‘p, kam, qancha).
5. Arifmetik hisob haqidagi tasavvurlar.
6. Hisoblashni amalda qo‘llash, pullarni hisoblash.
7. Misol va masalalar echish. Masalani rejalashtirish. Masala shartini va echimini yozish.
8. Bolaning bilim va malakalarini u ta’lim olayotgan sinf dasturiga mosligi.

Tekshirish quydagicha olib boriladi: avval bolaga maktabda o‘tilgan material, so‘ngra uning tushunchalariga mos material beriladi. Bolaning ko‘rsatishga, tushuntirishga, baholashga, ish sur’atiga bo‘lgan munosabatiga alohida ahamiyat beriladi. Tekshirish jarayonida turli ko‘rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha tomonlarni kuzatish bola faoliyatining motivlarini va unda kelib chiqadigan qiyinchiliklarning xarakterini tushunishga yordam beradi.

Bolaning maktab (o‘quv) malakalarini tekshirayotib pedagog o‘z oldiga bolaning nimani bilish yoki bilmasligini aniqlashnigina emas, balki uning maqsadga yo‘nalgan holda ishlay olishini, diqqatini topshiriqqa qarata olishini, o‘ziga tanish bo‘lgan materialni tushunishini va qiyinchiliklarni qay tarzda engishni aniqlash vazifasini ko‘yadi.

Bola faoliyatining xususiyatlarini kuzatish metodi

Bola faoliyatining har xil turlarini tahlil qilayotib, pedagog eng avval quyidagi masalalarni aniqlab oladi.

1. Maqsadga yo‘nalganligi.
2. Turg‘unli.
3. Ongliligi.
4. Mahsuldorligi.

Bolaning ota-onasi, o‘zi bilan suhbatlashish, pedagogik tavsifni o‘rganib biz uning amaliy, maishiy va mehnat faoliyati haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Ba’zi hollarda bolaga topshiriqlar berish mumkin, masalan, paltoni tugmasini qadash, botinkaning iplarini bog‘lash va h.k. Bunday topshiriqlarning bajarilishini kuzatayotib pedagog bola motorikasining holati, o‘z faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalari haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

Bolaning o‘quv faoliyatini yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan nuqtai nazardan o‘rganish uning bilish jarayonlarini o‘rganish kabi muhimdir.

O‘quvchining o‘quv faoliyatini faqatgina intellektual tomonigagina tayanish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Faoliyatning buzilishlari, maqsadga yo‘nalganlikning, turg‘unlik va mahsuldorlikning etishmovchiliklari, motivatsiyaning rivojlanmay qolganligi (faoliyatga munosabat) intellekt saqlanib qolgan hollarda ham salbiy natijalar beradi.

Eng avval bolaning maktabga, maktab kun tartibiga, kitobga va daftarga, darsga, o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini aniqlab olish lozim. Bolaning o'z ishiga berilgan bahoga bo'lgan munosabati va o'zining baholashi ham qiziqish uyg'otadi.

Bolaning ongi va hayotida (ayniqsa ta'limning dastlabki bosqichlarida) maktabning qanday ahamiyatga egaligi o'zlashtirish uchun muhimdir.

Bolaning o'quv topshiriqlarini bajarishda maqsadga yo'nalganligi, o'qish jarayoni yoki predmetga bo'lgan qiziqish, qiyinchiliklarni engish ko'nikmasi, ko'rsatma va yordamdan foydalana olishi, o'z ishini tashkil etishiga diqqatni jalb etish lozim.

Ishlashdagi turg'unlik, diqqatning tarqalmasligi va toliqmaslik, motivatsiyalarning mavjudligi katta ahamiyatga ega.

1. Topshiriqni bajarish vaqtida bolaning nutqiy faolligi.
2. O'z nutqida avvalgi tajribasini namoyon eta olish ko'nikmasi.
3. Bola eshitayotgan, ko'rayotgan, o'qiyotganlarini to'g'ri tushunganligi.
4. Bolaning nutqida taqlidiy elementlarning mavjudligi.
5. Nutq bolaning faoliyatida etakchi rejalashtiruvchi rolni bajaradimi yoki nutq faoliyatdan ajralib qolganmi?

Bolaning o'yin faoliyati bilan tanishish faqatgina tashxisni aniqlashgagina emas, balki bolaning pedagogik imkoniyatlarini, unga yondoshish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. O'yinchoqlar boladagi tormozlanishni bartaraf etadi. Ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, faqat o'yinchoqlar orqali bolani topshiriqni bajarishga undash mumkin. O'yinda bola o'zining ijobiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Pedagogik tekshirishning umumiy tahlili

Pedagogik tekshirish asosida pedagog-defektolog faqatgina bolaning bilim darajasi haqida xulosa chiqarmasdan, balki u yoki bu qiyinchiliklar nimalardan kelib chiqqanligi, ularning asosida nimalar yotishini tushunib oladi.

Tekshirish natijalarini tahlil qilish vaqtida asosiy diqqat bolaning berilgan topshiriqni mustaqil bajarish qobiliyati, lozim bo'lganda

yordamni qabul qilishi va o'zlashtirilgan harakat usulidan o'xshash sharoitlarda foydalanishga qaratiladi.

Intellekti me'yoridagi bolalar ularga ko'rsatilgan va tushuntirilgan harakat usulidan boshqa sharoitda ham foydalana oladilar. Pedagogik nazoratdan qolgan, psixik rivojlanishi sustlashgan, analizatorlarida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar ta'limni etarli darajada o'zlashtira olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida bolani kuzatayotib pedagog-defektolog uning ko'rsatmani tushunish xususiyatlari va faoliyati xarakterini, xulqini ko'zdan kechirib borish, topshiriqqa qiziqishini, olingan natijalarni to'g'ri baholay oladimi, maqtov va tanbehga qanday munosabatda bo'lishiga e'tibor berish lozim.

Aqli zaif bolalar ko'rsatish va tushuntirishdan keyin ham o'xshash topshiriqlarni yangi topshiriqday bajarishga qiynaladilar. Alohida analizatorlari doirasida yaqqol ifodalanmagan nuqsonlari bo'lgan bolalar berilgan ko'rsatmalarni qiyinchilik bilan qabul qiladilar, shuning uchun nutqida va eshitishda kamchiliklari bor deb tahmin qilingan bolalarga topshiriqning maqsadini ko'rgazmali ravishda yoritib berish tavsiya etiladi. Masalan, ko'rish o'tkirligi pasaygan bolalarga tushuntirishda saqlangan nutq, eshitish va sezish funksiyalariga tayaniladi.

Bolaning yordamchi maktabda o'qishi lozimligi haqidagi xulosa ishonarli tarzda asoslanishi kerak.

Bola yordamchi maktabda o'qishi lozim emas degan holatlarda, pedagog bolaning bilim darajasi, potensial imkoniyatlari haqida o'z xulosasini chiqarishi kerak. Olingan barcha ma'lumotlar va xulosalar komissiyada boshqa mutaxassislar bilan muhokama qilinadi.

TESTLAR

Pedagogik-psixologik diagnostika
Qiyinlik darajasi -1

Tibbiy-pedagogik komissiya ishi nimadan boshlanadi?
Ota-onalar bilan suhbat
Bola bilan aloqaga kirishi
Bolaning shaxsiy hujjatlarini o'rganish
Bolani kuzatishdan
Tibbiy-pedagogik komissiya ishi nimadan boshlanadi?

№ 2 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -1;

L.S.Vigotskiyning «Yaqin rivojlanishi zona» sini o'rganish haqidagi fikri asosida qanday tamoyil yotadi?
*Dinamiklik
Tushunarlilik
Insonparvarlik

№ 3 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -1;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tekshirishda qanday metodlardan foydalaniladi?
Kuzatish metodi
Rag'batlantirish metodi
Nazorat metodi
Barcha metodlar foydalaniladi

№ 4 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -1;

TPPK da necha bola 1 kunda tekshirishda o'tishi mumkin?
O'nta
Ikki
To'rt
Uch

№ 5 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -1;

Bolani TPPK da 1 chi kim tekshiradi?
Vrach, psixonevrolog
Logoped;
Psixolog
Oftalmolog

№ 6 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Psixologik-pedagogik diagnostika kursining mazmuniga quyidagilardan qaysilar kiradi?
Rivojlanish nuqsoni tashhis, bolalarni maxsus muassasalarga tanlash prinsiplari, klinik, psixolog-pedagogik logopedik tashhis qo'yish, tibbiy psixo-log-peda-gogik komissiya ishini tashkil qilish masalalri va maslahat berish shu komissiyada turli metodlarni qo'llash
Nuqsonli shaxsning rivojida tabiiy va ijtimoiy omillarning o'zaro munosabatini shakllantirish, ta'lim•tarbiya orqali fikrlashni rivojlantirish, korreksiyalash, maxsus usullarni qo'llash
Aqli zaif bolalarning rivojlanish imkoniyatlari va ularning ijtimoiy mehnatga moslashish masalalari, tibbiy psixolog-pedagogik komissiya ishini
Bolalarni tekshirish, mehnatga moslashtirish

№ 7 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Psixologik-pedagogik diagnostika kursi qanday fanlar bilan bog'liq?
Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari, maxsus psixologiya, fiziologiya, patopsixologiya, oligofrenopedagogika, logopediya
Psixiatriya, oligofreniya klinikasi, genetika umumiy psixologiya, fiziologiya
Bolalar psixologiyasi, pediatriya, patopsixologiya, oligofrenopedago gika, genetika
Fiziologiya, logopediya, umumiy patologiya, psixiatriya, oligofrenopedagogika

№ 8 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -2;

Tashhis usulining nazariy ahamiyati – bu …
Bola rivojlanishidagi jiddiy klinik, psixologik, pedagogik jihatlarini aniqlash va uning mohiyati, sabablarini chuqur o'rganishdir
Bola rivojlanishini pedagogik o'rganish, aqliy taraqqiyotidagi nuqsonlarni korreksiyalashning samarali sharoitlarini aniqlash
Nuqsonli bolalar ta'lim tizimi va ularning ijtimoiy mehnatga moslashishini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash
Bolani maxsus maktablarga yuborish uchun uni ruhiy-tibbiy-pedagogik komissiyada o'rganish

№ 9 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -2;

Psixologik-pedagogik tashhis usulining amaliy ahamiyati – bu ...
Nuqsoni to'g'ri aniqlash, uni boshqa o'xshash holatlardan farqlash, binobarin maxsus muasassalarga to'g'ri tanlash va shu asosida tarbiyaviy ishni to'g'ri olib borish va effektini usullarda qo'llash
Bolaning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash, chetga chiqishlar aniqlangach, uni oilada o'rganish
Psixik jarayonlarni mun-tazam, uzluksiz tekshirisho'rganish, har bir tekshirayotgan ko'rsatkich asosida aqli zaiflikning yadroviy ko'rsatkichiini e'tiborga olish
Nuqsonli shaxsdagi ijobiy va salbiy xislatlar yig'indisini tushunish asosida asosiy nuq-son va ikki lamchi xossalarni to'g'ri aniqlash

№ 10 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Insonparvarlik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
Har bir bolaga o'z qobiliyatlarini rivoj-lantirish uchun iloji boricha qulay imko-niyat yaratib berish, buning uchun bolani har tomon-lama chuqur o'rganish, hayotida uchraydigan qiyinchiliklarini yengish yo'llarini o'rganish
Har bir bolaning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual yondosh-ish, qiziqishlarini, qobiliyatlarini kuzatib borish

Har bir bolaning psixik jarayonlarini va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini bir-biriga taqqoslangan holda aniqlab berish
Bolaga yakka yondoshuvni talab etadi

№ 11 Manba Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.- T.: "O'qituvchi", 1995.Fan bobi 1, fan bo'limi 1Qiyinlik darajasi -1;

Ruhiy rivojlanishdagi sustlik vaqtinchalik xarakterga ega hisoblanadimi?
Ha ... ma'lum bir vaqtgacha davom etib, so'ng ta'lim-tarbiya orqali normal bolalarningdek rivojlanib boradi
Bolalar maktabni tamomlaguncha davom etishi mumkin
Bu fikr juda ham to'g'ri emas, chunki ruhiy rivojlanishi sust-lashgan bolalarning bir qismi boshlang'ich ta'lim jarayonida umumta'lim mak-tabga qaytsalar qolgan bolalar maxsus maktabni tugatadilar
Doimiy xarakterga ega

№ 12 Manba Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Nutq nuqsoni deb nimaga aytiladi?
Til normasidan chetga chiqishga
Artikulyatsion apparatning buzilishiga
Tovushlarning noto'g'ri talaffuziga
Gapira olmaslik

№ 13 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya faoliyatiga kiradi...
Bolani kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik tekshiruvdan o'tkazish, ota-onalar, pedagoglarga maslahatlar berish
Maxsus muassasalarni bolalar bilan to'ldirish, ota-onalarga maslahat-lar berish
Aqli zaiflikni o'xshash holatlar-dan farqlash, skrining tashxis qilish, psixologik-pedagogik tavsiyalash ishlab chiqish

№ 14 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Diagnostika fani qaysi fanlar bilan aloqa kiladi?
Psixologiya, genetika, anatomiya, pedagogika

Genetika, fiziologiya, anatomiya
Psixologiya, fiziologiya, anatomiya, pedagogika
Tilshunoslik, maxsus psixologiya

№ 15 Manba Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -1;

Psixik rivojlanishining sustlashganligi kelib chiqishiga ko'ra ajratiladi-
Konstitusional, samotogen, psixogen, serebral
Dinamik, funksional
Periferik, markaziy, funksional
Organik, funksional

№ 16 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -2;

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni erta tashhis qilishning zaruriyati nimalardan kelib chiqadi?
Nuqsonlarni erta korreksiyalash
Aqli zaiflikni unga o'xshash holatlardan farqlash
Ota-onalarga maslahat berish
Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarini to'ldirish

№ 17 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -1;

Impressiv nutq – bu ...
Nutqni tushunish
Talaffuzning holati
Bolaning monologik nutqi
Artikulyatsiya qilish

№ 18 Manba Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -2;

Yaqin rivojlanish zonasi - bu
Bola uchun kattalar yordamida bajarish imkoni bo'lgan faoliyat darajasi
Ta'limning keyingi bosqichi
Bola qiyinchilik bilan bajaradigan topshiriqlar
Bola qiyinchiliksiz bajaradigan topshiriqlar

№ 19 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -2;

Psixologik-pedagogik tashxis qilish bosqichlari
Skrining-tashxis, differensial tashxis, korreksion rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqish maqsadida bolani chuqur o'rganish
TPPK bolani tekshi-rish, ta'lim jarayoni-da bolani tekshi-rish, diagnostik sinfda tekshirish
Maktabgacha ta'lim muassasasida tekshirish, TPPKda tekshirish, maktabda tekshirish
Skrining tashxis, chuqur tekshirish

№ 20 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -1;

Differensial diagnostikada (tashxis qilishda) yetakchi rol o'ynaydi:
Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya (TPPK)
Ota-onalar
Pedagoglar
Defektolog va ota-onalar

№ 21 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -2;

Differensial psixologik—pedagogik diagnostika tamoyillariga kiradi -
Komplekslilik, tizimlilik, yaxlitlik yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish, yaqin rivojlanish zonasini e'tiborga olish, tashxis qilishda sifat va sonli yondoshish
Ilmiylik, tizimlilik, onglilik, ko'rgazma-lilik, nazariya va amaliyot-ni bog'liq-liligi, indivi-dual va differensial yondoshish
Ilmiylik, tizimlilik, onglilik, ketma-ketlilik, so'z, ko'rgazma va amaliy metodlarning bog'liqliligi
Ilmiylik, tushunar-lilik, tizimlilik, ko'rgazmalilik

№ 22 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

To'g'ri fikrni tanlang
Diagnostik tekshiruv ota-onalarning roziligisiz o'tkazlmaydi
Ota-onalar tekshiruv haqida ogohlantirilishi lozim
Ota-onalar albatta tekshiruvda ishtirok etishlari lozim
Ota-onalarning fikri e'tiborga olinishi mumkin, ammo shart emas

№ 23 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1

Ilk yoshdagi bolalarni, bir oylikdan to 3 yoshgacha bolalarni tekshirish va baxolashda yetakchi metodlar:
Ota-onalar bilan suhbat va kuzatish
Eksperimental metodlar va kuzatish
Eksperimental metodlar
kuzatish

№ 24 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Psixodiagnostika va psixologik-pedagogik korreksion ta'sirning asosiy obyekti-
Ikkilamchi nuqsonlar
Birlamchi nuqsonlar
Bilish faoliyatidagi nuqsonlar
Hissiy-irodaviy sohadagi buzilishlar

№ 25 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Bolalar rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi-
bolaning ijtimoiy rivojlanishi mobaynida
asosiy kasalligi mobayni-da
noto'g'ri emlash natijasida
noto'g'ri ta'lim natijasida

№ 26 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Bolalarni psixologik-pedagogik tekshirishda alohida e'tibor qaratilishi lozim-
yetim va ota-onalarning o'rnini qaramog'isiz qolgan bolalarga
daun sindromiga ega bo'lgan bolalarga
autizmga ega bo'lgan bolalarga
og'ir aqli zaiflik darajasidagi bolalarga

№ 27 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tekshirishda yetakchi usul
bolalarning o'yinini kuzatish
ota-onalar bilan suhbat
anamnezni to'plash
bolalarning hujjatlarini o'rganish

№ 28 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar kategoriyasini aniqlang-
alaliya, dizartriya, rinolaliya, afaziya, yorqin ifodalangan duduqlanishga ega bolalar
RRS, NFR, NFFRligiga ega bolalar
dislaliya, disgrafiya, alaliya, RRSligiga ega bolalar
disfagiya, alaliya, dizartriya, rinolaliyaga ega bolalar

№ 29 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -2;

Duduqlanishning nevroz ko'rinishida quyidagilar kuzatiladi:
ravon nutq davrlarining mavjud emasligi hamda duduqlanuvchi nutqi sifatining nutqiy vaziyatga bog'liq emasligi
ma'lum bir sharoitda ravon nutqning mavjudligi (hissiy sokinlik sharoitida yolg'iz qolganda
tutilib qolishning emotsional holat va nutqiy muloqot sharoitiga bog'liqligi
ruhiy jihatdan kuchli jarohatlanish

№ 30 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 4
Qiyinlik darajasi -2;

Hozirgi vaktda duduklanish sabablarini ikki guruxga ajratadilar
moyillik va keltirib chikaruvchi sabablari-
endogen va ekzogen sabablar
endogen, moyillik sabablari
ekzogen, keltirib chikaruvchi sabablar

№ 31 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo‘limi 2
Qiyinlik darajasi -1;

Maktabgachayoshdagi bolalarni tekshirishda qanday metodlardan foydalaniladi?
Kuzatish metodi
Rag‘batlantirish metodi
Nazorat metodi
Barcha metodlar foydalaniladi

№ 32 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Aqli zaiflikni o‘xshash holatlardan ajratishda qaysi ikki ko‘rsatkich asosiy hisoblanadi?
Eksperimentatorning yordamida foydalana olish ko‘nikmasi avvalgi tajribaniyangi sharoitda qo‘llay olish ko‘nikmasi
Oldindan mavjud bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar
Bajarish tezligi
Bajarilgan topshiriqlar soni

№ 33 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 4
Qiyinlik darajasi -2;

Rinofoniya bu-
nutq tovushlarining meyoriy artikulyatsiyasida ovoz tembrining buzilishi fonatsiya jarayonida og‘iz va burun bo‘shlig‘Iishtirokining muvofiqlashmasligi
markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi oqibatida tilning tovush tizimini buzilishi (tovushchiqarish prosodiya ovozlar)

ko‘pincha talaffuz qilishning buzilishi bilan chegaralanmaydi lekin nutqni tushunish va leksik-grammatik tomonlariga tegishli bo‘ladi
bosh miyaning og‘ir jarohatlanishi tufayli shamollash jarayonlari va o‘simtalar tufayli nutq zonalarini qamrab oluvchi ilgari bo‘lgan nutqni to‘la yoki qisman yo‘qotish

№ 34 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Qaysi olim nutk buzilishlari sabablari kuyidagicha tavsiflagan oliy nerv faoliyati kasalliklari anatoimk nutk apparatida patoltgik uzgarishlar bolalikdan tarbiyaning yetishmaganligi organizmning umumiy nevropatik xolati
S.M.Dobrogayev
Pol Broka
M.Ye.Xvatsev
L.Mo‘minova

№ 35 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Organik buzilishlar lokalizatsiyasiga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?
markaziy pereferik
organik va funksional
Ijtimoiybioligik
ekzogen endogen

№ 36 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Fan bobi 1, fan bo‘limi 3
Qiyinlik darajasi -3;

Gutsman sinovi" qaysi nutq nuqsonini aniqlashga qaratilgan?
Rinolaliya
Alaliya
Dizartriya
Dislaliya

№ 37 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 3
Qiyinlik darajasi -2;

Maktab o‘quvchilarda eshituv diktanti mustaqil yozishi va matndan ko‘chirish sinovlarini o‘tkazish qaysi nutq nuqsonini aniqlashga qaratilgan?
Disgrafiya
Disleksiya

Dislaliya
Alaliya

№ 38 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Artikulyatsion apparatning qaysi a'zosini tekshiruvida baland gotik tor silliq kalta past kabi kamchiliklar kuzatilishi mumkin?
Qattiq tanlay
Yumshoq tanglay
Til
Lablar

№ 39 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Logofobiya nima?
Nutqdan qo'rqish
Nutq rivojlanishini orqada qolishi
Nutqni umumiy rivojlanmasligi
Imoishora nutqi

№ 40 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -1;

Ko'p xollarda BSF bilan birga keladigan nutq nuqsonini aniqlang
Dizartriya
Disleksiya
Dislaliya
Alaliya

№ 41 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Bola uzoq vaqt chaynay tishlay olmaydi qattiq ovqatga tiqiladi piyoladan choy icha olmaydi Tug'ilgan paytidagi tug'ma shartsiz reflekslarning yo'qligi yoshi katta bo'lgan sari o'z ta'sirini ko'rsatib ihtiyoriy artikulyatsion motorikani rivojlanishini qiyinlashtiradi" ushbu belgilar qaysi nutq nuqsoniga xos?
Dizartriya
Disleksiya
Dislaliya
Alaliya

№ 42 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi -2;

Duduqlanishni pay tortishish shakliga ko'ra turlarini aniqlang-
tonik klonik aralash
nafas ovoz artikulyatsion aralash
yengil o'rta og'ir
sekinlashgan tezlashgan taxilaliyaning borligi

№ 43 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi -2;

Duduqlanishni pay tortishish joyiga ko'ra turlarini aniqlang
+ nafas ovoz artikulyatsion aralash
-tonik klonik aralash
- sekinlashgan tezlashgan taxilaliyaning borligi
- yengil o'rta og'ir

№ 44 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -2;

O.S.Nikolskaya va boshqalarning(1997) klassifikatsiyasiga binoan autik bolalar nechta kategoriyaga tafovutlanadi?
4
6
3
5

№ 45 Manba Ayupova M.Y. LogopediY.
Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

burun bushligida utkazuvchanlik funksiyasining buzilishi rinolaliyaning kaysi turida kuzatiladi?
oldingi yopik rinolaliya
yopiq rinolaliya
ochiq rinolaliya
orqa yopik rinolaliya

№ 46 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi 2;

Bolalar xulqidagi nuqsonlar qanday xarakterga ega bo'ladi?
ijtimoiy va biologik
Ijtimoiysensor
ijtimoiy va iqtisodiy
hissiy–irodaviy

№ 47 Manba Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi 1;

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda o'ziga o'zi baho berishini o'rganish maqsadida ko'p foydalaniladigan eksperimental psixologik metodika
Dembo-Rubinshteyn metodikasi
koos kubiklari metodikasi
to'rtinchisi ortiqcha metodikasi
Zankov metodikasi

№ 48 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Bolalarni differensial tashxis qilishning maqsadi quyidagilardan iborat
bolalar rivojlanishidagi nuqsonini turini aniqlash
nuqsonning vaqtini aniqlash
nuqsonning darajasini aniqlash
nuqsonning etiologiyasini aniqlash

№ 49 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini anomal rivojlanishiga ko'ra ikki guruhga ajratgan
kasallikning biologik xarakteriga ko'ra birlamchi nuqson bolani atrof olamga o'zaro ijtimoiy rivojlanishida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqson
orttirma nuqson
tug'ma nuqson
hayot davomida yuzaga kelgan nuqson

№ 50 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Bolani dinamik o'rganish tamoili
uning ta'limdagi imkoniyatlarini ham e'tiborga olish
uning hayotdagi o'rnini e'tibrga olish
uning xarakterini e'tiborga olish
uning nutqini e'tiborga olish

№ 51 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Bola tomonidan bajarilgan topshiriqni baholashda quyidagi tamoyilni e'tiborga olish lozim
sifatsonli yondashish tamoyili
dinamiklik tamoyili
komplekslilik tamoyili
har tomonlama va to'liq o'rganish tamoyili

№ 52 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Bolani differensial tashxis orqali aniqlanadi-
bolaning rivojlanishidagi nuqsoni aniqlanadi
bolaning kasalligi davolanadi
bola maxsus muassasaga yo'naltiriladi
bolaning oila sharoiti aniqlanadi

№ 53 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Tibbiy tekshiruv kimlar tomonidan o'tkaziladi?
vrachlar(pediatr yoki terapevt nevropatolog bolalar psixiatori oftalmologotolaringolog zarur xollarda audiolog)
Pedagogdefektolog va psixolog tomonidan
o'qituvchilar tomonidan
hamshiralar tomonidan

№ 54 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan defektologiyaning qaysi yo'nalishi shug'ullanadi?
Oligofrenopedagogika
Surdopedagogika
Logopediya
Tiflopedagogika

№ 55 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Hozirgi vaqtda aqli zaiflikning nechta darajasi ajratiladi?
4ta
5ta
7ta
3ta

№ 56 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Aqli zaiflikning 4chi eng og'ir darajasi qanday nomlanadi?
Chuqur darajadagi aqli zaiflik
Yengil arajadagi aqli zaiflik
O'rta darajadagi aqli zaiflik
Og'ir darajadagi aqli zaiflik

№ 57 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Defektolog har bir bolaga uni o'rganib nima tuzadi?
Psixologik-pedagogik tavsifnoma
Yo'llanma
Shartnoma
Memorandum

№ 58 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 3
Qiyinlik darajasi -1;

O'qish jarayonida qiyinchiliklar kuzatilganda qanday tekshiruv o'tkazish muhim?
Pedagogik tekshiruv
tibbiy tekshiruv
psixologik tekshiruv
differnetsial tekshiruv

№ 59 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Yozuv ko'nikmalarini tekshirishda e'tibor beriladi-
yozuv grammatika imlo yozish qoidalarini texnikasiga
ko'chirib yozishga
diktant yozishga
bayon yozishga

№ 60 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

TPPK qanday tekshirish turlari o'tkaziladi?
tibbiy psixologik pedagogik
faqat tibbiy
faqat pedagogik
faqat psixologik

№ 61 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Aqli zaif bolalarda nutq kichikib shakllanadimi?
nutqning paydo bo'lishi kechikadi va u kamchiliklarga ega bo'ladi
nutq o'z vaqtida paydo bo'ladi
biroz kechikadi
nutq bo'lmaydi

№ 62 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Aqli zaif bolalar bilan qaysi pedagoglar ish olib boradi?
Oligofrenopedagog
Surdopedagog
Tiflopedagog
Logoped

№ 63 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Bolani TPPKda tekshirishdan o'tkazish odatda nimadan boshlanadi?
hujjatlarni (tibbiy xarita tafsifnoma) va faoliyat nishonalarini (daftar rasmlar va h.q) o'rganishdan
bolani ko'zdan kechirishdan
bola bilan suhbatlashishdan
bolani kuzatishdan

№ 64 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Bola nutqining rivojlanishi nutqining holatini qaysi mutaxassis tekshiradi?
Logoped
Oligofrenopedagog
-Psixiatr
Tiflopedagog

№ 65 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2
Qiyinlik darajasi -1;

TPPK bolani psixologik tekshiruv qaysi mutaxassis tomonidan o'tkaziladi?
Psixolog
Psixoterapevt
Nevrapatolog
Ortoped

№ 66 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Bolaning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarga kiradi-
bilish jarayenlaridagi buzilishlar
bosh miyaning organik jarohatlanishi
Tug'ilishdagi jarohatlar
Asfiksiyalar

№ 67 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

TPPK ishida ortoped doimo ishtirok etadimi?
zaruriyat bo'lganida
doimo
ba'zan
ishtirok etmaydi

№ 68 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 3

Qiyinlik darajasi -1;
nutqdagi tovushlarni idrok etish
shovqinlarni idrok etish
qichqiriqlarni idrok etish
shivirlab gapirishni idrok etish

№ 69 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 7
Qiyinlik darajasi -1;

Rivojlanishida murakkab nuqsonli bolalar deganda
ikki yoki undan ortiq birlamchi nuqsonlarni ifodalanishiga aytiladi
og'ir kasalliklariga aytiladi
og'ir nutq nuqsonlariga aytiladi
og'ir eshitish nuqsonlariga aytiladi

№ 70 Manba Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -3;

Psixik rivojlanishining sustlashganligi kelib chiqishiga ko'ra ajratiladi-
Tafakkur kishi ongida borliqning uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir
Tafakkur fikrlash demakdir
Tafakkur aqliy faoliyatdir
Tafakkur talil qilishdir

№ 71 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 4

Qiyinlik darajasi -1;

Maktabgacha yeshdagi bolaning asosiy faoliyati
O'yin
Mehnat
O'qish
Qurish-yasash

№ 72 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 2

Qiyinlik darajasi -1;

Xar xil ko'rinishda tutqanoq tutib turishi qaysi kasallikda namoyon bo'ladi?
Oligofreniya, epilepsiya
skolioz
logonevroz
-oligofreniya

№ 73 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -1;

Kompensatsiya-bu
Bir analizatorning faoliyatini boshqa analizatorga yuklash
yordamchi maktab o'quvchilari bilish faoliyatini o'stirish
anomal bolalarni mustaqil xayotga tayyorlash
anomal bolalarni jamiyatga tiklash

№ 74 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 7

Qiyinlik darajasi -1;

Qanday kasallik oqibatida bolaning harakat tayanch a'zolari jaroxatlanadi?
bolalar serebral falaji poliomiyelit
xondrodistrofiya
Oyoq qo'l suyaklarining o'smay qolishi
miopatiya

№ 75 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1 Fan bobi 1, fan bo'limi 4

Qiyinlik darajasi 1;

Nutq qanday vazifani bajaradi?
Aloqa bog'lash fikr yuritish, kommunikativ
Fikr almashish
Savol berish
Ovoz

№ 76 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

Qiyinlik darajasi -1;
Tibbiy pedagogik psixololgik komissiya
Karlar jamiyati
ko'rlar jamiyati
-Kasb xunarga yo'naltiruvchi tashxis markazi

№ 77 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 6

Qiyinlik darajasi -2;

Ko'rlar kelib chiqishiga, sababiga ko'ra
Tug'ma va orttirilgan ko'rlar
Total ko'rlar, qisman ko'rlar
Ko'rlar, zaif ko'ruvchilar
Kech va erta ko'r bo'lganlar

№ 78 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Ijtimoiy adaptatsiya bu
Aloxida yordamga muxtoj bolalarni ijtimoiy xayotga moslashtirishni ta'minlash
Korreksiya
Kompensatsiya
Reabilitatsiya

№ 79 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -3;

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi oldida turgan muammolardan biri bu
Rivojlanishdagi nuqsonlarni psixologik-pedogogik kompensatsiyalash
Nuqsonlarni korrektsiyalash
Rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etish
Rivojlanishdagi nuqsomlarni kompensatsiyalash

№ 80 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -3;

O'qituvchi nutqiga qanday talablar qoyiladi?
O'qituvchining nutqi har tomonlama tushunarli sodda jargonlardan holi o'quvchilarning ongig atez yetib boradigan shevaga xos so'zlardan holi bo'lishi kerak
Shevaga xos so'zlarga boy bo'lishi
Sodda va tushunarli bo'lishi
Ilmiy so'zlarga boy bo'lishi

№ 81 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -3;

Pedagogik faoliyat nima?
Jismoniy va shaxsiy qimmatli motivlarga ko'ra ta'lim tarbiya maqsadiga yo'naltirilgan pedagogik natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimi
O'qituvchining dars o'tishi
Talabalar bilan bajariladigan tarbiyaviy ish

O'qituvchi va talabaning hamkorligi

№ 82 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

O'zbekistonda anomal bolalar necha toifaga ajratib o'rganiladi?
8
6
9
7

№ 83 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -3;

Maxsus muassasalarda korreksiya ishlari deganda nimani tushunasiz?
anomaliyalarni tuzatish, yumshatish
nuqsonlarni kompensatsiyalash
adaptatsiyani amalga oshirish
reabilitatsiya ishlari•

№ 84 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika.
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Og'ir nutq nuqsonlari bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan qaysi fan shug'ullanadi?
Logopediya
Tiflopedagogika
Oligofrenopedagogika
Surdopedagogika

№ 85 Manba Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -1;

Psixik rivojlanishi sust bolalarning eng og'ir formasi qaysi?
Serebral shakli
somatogen shakli
konstitusion shakli
psixogen shakli

№ 86 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2;

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar nechta?
4ta;
3ta;
2ta;
5ta;

№ 87 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating:
Irsiyat, muhit tarbiya;
Tarbiya, ta'lim, ma'lumot;
Bilim, ko'nikma, malaka;
Faoliyat, jamoat, axborot

№ 88 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi 1;

Nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:
Embrionlik davridagi patologiyalar, toksikozlar, endokrin kasalliklar, asfiksiya, ilk davrlardagi bosh miya shikastlanishlari
Ijtimoiy- maishiy sharoitning yomonligi, organik xarakterdagi nutq buzilishilari;
kasalliklari;
Shamollashlar, infeksion kasalliglar, sariq kasal;
Taqlid qilish

№ 89 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi 2;

Nutq buzilishlarini tibbiy- pedagogik tasnifi:
Og'zaki va yozma nutq buzilishlari;
Muomala vositalarining buzilishi, muomala vositalarining qo'llanilishini buzilishi;
Dislaliya, duduqlanish, bradilaliya, nutqning to'liq rivojlanmaganligi;

Logonevroz, taxilaliya, disfoniya, disleksiya, ovoz buzilishi

№ 90 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi 2;

Psixologik-pedagogik tasnifda nutq buzilishlari qanday tasniflanadi?
Muomala vositalarini, muomala vositalarini qo'llanishini buzilishi;
Og'zaki va yozma nutq buzilishlari;
Dislaliya, duduqlanish, nutqi to'liq rivojlanmagan, bradilaliya;
Dislaliya, disleksiya, disfoniY.

№ 91 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi 2;

Necha yoshda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni patologiya deb hisoblash mumkin?
5 yoshda;
4 yoshda;
2-3 yoshda;
6 yoshda

№ 92 Manba Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi -2

Kompensator sezgilarga qaysi sezgilar kiradi?
Ko'rish va teri-taktil sezgilari
Ta'm bilish sezgisi
Hid bilish sezgisi
Harakat va hid bilish sezgilari

№ 93 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 6
Qiyinlik darajasi -1;

Zararlanish sabablarini necha guruhga bo'lish mumkin?
Tug'ma, orttirilgan, nasliy
Orttirilgan
Jarohat natijasida orttirilgan
Nasliy

№ 94 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi 2;

Nutk buzilish mexanizmi –
Nutkiy faoliyat buzilishlarining paydo bulish va rivojlanishni shart kilib kuyuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarishidan chetlashishi;
Nutkiy faoliyatning kandaydir paydo bulish;
Bosh miya nutk zonalarning buzilish;
Pereferik nutk apparatining buzilish

№ 95 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 6
Qiyinlik darajasi -3;

Nevrologik nuqsonlar nutq nuqsonlari bilan kelganda bolalarda psixomotor xarakterdagi kamchiliklarning asosiy sababini ko'rsating-
Giperdinamik sindrom
Nevrologik apraksiya
Depressiv hayajon
Ishtahaning yo'qligi

№ 96 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Afaziya kaysi yoshdan boshlab yuzaga kelishi mumkin?
4-5 yoshdan;
1 yoshdan;
3 yoshgacha;
2 yoshdan keyin

№ 97 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Klinik-pedagogik klassifikatsiyada beriladigan nutq kamchiliklari turlarini ayting-
Dislaliya, alaliya, rinolaliya, dizartriya
Nutqi to'liq rivojlanmagan, fonetiko-fonematik nutqini buzilganligi;
Nutqi to'liq rivojlanmagan, duduqlanish
Taxilaliya, dislaliY.

№ 98 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Nevrologik nuqsonlari nutq kamchiliklari bo'lgan 6 – 10 yoshli bolalarda ikkilamchi nuqson qanday ko'rinishda bo'ladi.
Affektiv
Somatovegetativ
Hissiy – xayoliy
Nevrotik

№ 99 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Imo-ishora bilan, ko'rsatish bilan o'z fikrini bildiradigan davr
7-12 oylik;
4-9 oylik;
2-6 oylik ;
5-10 oylik

№ 100 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

5 yoshda intensiv rivojlana boshlayotgan nutq funksiyalari.
Rejali va boshqaruv;
Kommunikativ va informativ;
Umumlashgan;
boshqaruv

№ 90 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Fan bobi 1, fan bo'limi 1
Qiyinlik darajasi 2;

Psixologik-pedagogik tasnifda nutq buzilishlari qanday tasniflanadi?
Muomala vositalarini, muomala vositalarini qo'llanishini buzilishi;
Og'zaki va yozma nutq buzilishlari;
Dislaliya, duduqlanish, nutqi to'liq rivojlanmagan, bradilaliya;
Dislaliya, disleksiya, disfoniY.

№ 91 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Qiyinlik darajasi 2;

Necha yoshda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni patologiya deb hisoblash mumkin?
5 yoshda;
4 yoshda;
2-3 yoshda;
6 yoshda

№ 92 Manba Po‘latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Qiyinlik darajasi -2

Kompensator sezgilarga qaysi sezgilar kiradi?
Ko‘rish va teri-taktil sezgilari
Ta’m bilish sezgisi
Hid bilish sezgisi
Harakat va hid bilish sezgilari

№ 93 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo‘limi 6
Qiyinlik darajasi -1;

Zararlanish sabablarini necha guruhga bo‘lish mumkin?
Tug‘ma, orttirilgan, nasliy
Orttirilgan
Jarohat natijasida orttirilgan
Nasliy

№ 94 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Fan bobi 1, fan bo‘limi 1
Qiyinlik darajasi 2;

Nutk buzilish mexanizmi –
Nutkiy faoliyat buzilishlarining paydo bulish va rivojlanishni shart kilib kuyuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarishidan chetlashishi;
Nutkiy faoliyatning kandaydir paydo bulish;
Bosh miya nutk zonalarning buzilish;
Pereferik nutk apparatining buzilish

№ 95 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo‘limi 6
Qiyinlik darajasi -3;

Nevrologik nuqsonlar nutq nuqsonlari bilan kelganda bolalarda psixomotor xarakterdagi kamchiliklarning asosiy sababini ko‘rsating-
Giperdinamik sindrom
Nevrologik apraksiya
Depressiv hayajon
Ishtahaning yo‘qligi

№ 96 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Afaziya kaysi yoshdan boshlab yuzaga kelishi mumkin?
4-5 yoshdan;
1 yoshdan;
3 yoshgacha;
2 yoshdan keyin

№ 97 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Klinik-pedagogik klassifikatsiyada beriladigan nutq kamchiliklari turlarini ayting-
Dislaliya, alaliya, rinolaliya, dizartriya
Nutqi to‘liq rivojlanmagan, fonetiko-fonematik nutqini buzilganligi;
Nutqi to‘liq rivojlanmagan, duduqlanish
Taxilaliya, dislaliY.

№ 98 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo‘limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Nevrologik nuqsonlari nutq kamchiliklari bo‘lgan 6 – 10 yoshli bolalarda ikkilamchi nuqson qanday ko‘rinishda bo‘ladi.
Affektiv
Somatovegetativ
Hissiy – xayoliy
Nevrotik

№ 99 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

Imo-ishora bilan, ko'rsatish bilan o'z fikrini bildiradigan davr
7-12 oylik;
4-9 oylik;
2-6 oylik ;
5-10 oylik

№ 100 Manba Ayupova M.Y. LogopediY. Fan bobi 1, fan bo'limi 4
Qiyinlik darajasi 2;

5 yoshda intensiv rivojlana boshlayotgan nutq funksiyalari.
Rejali va boshqaruv;
Kommunikativ va informativ;
Umumlashgan;
boshqaruv

PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA

№1 Manba Levchenko I.Ye., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Fan bobi 1, fan bo'limi 1

№101 Fan bobi-3; Fan bo'limi-1; Qiyinlik darajasi-1;

Tibbiy-pedagogik komissiya ishi nimadan boshlanadi?
Ota-onalar bilan suhbat
Bolaning shaxsiy hujjatlarini o'rganish
Bola bilan aloqaga kirishi
Bolani kuzatishdan

Key topshiriqlari

1 topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

Logopedik guruxdagi NTRning 3 darajasidagi bolalar hujjatlarini o'rganish vaqtida logoped bolalarning asosiy qismida nutqning leksik tomonida quyidagi kamchiliklar mavjudligini belgiladi: leksik almashtirishlar (plash-palto, dush-cho'milishi, in-qushning uyi, choynak-issiq, yoqa, eng – kuylak, bog'lovchi ip – bog'laydigan, shlyapa – shapka; kreslo, taburet – stul, moychechak, qo'ng'iroqcha, atirgul – gul, tor-tor emas, kalta-kichik, uzun, keng - katta va xokazo). Savol:

1.Almashtirishlarning turining aniqlang.

2. Bu kamchilikni korreksiyalash uchun topshiriqlar va mashqlardan namunalar keltiring.

2 topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

Logopedik guruxdagi NTRning 3 darajasidagi bolalar hujjatlarini o'rganish vaqtida logoped bolalarning asosiy qismida nutqning leksik-grammatik tomonida quyidagi kamchiliklar mavjudligini belgiladi: agrammatizmlar, gapda so'zlarning bog'lanishining buzilganligi: bola maktab ketdi, samolyot dala .... uchib o'tmoqda"; "koptok stol ..... yotibdi, Saida maktab... keldi)

Savol:

1. Kamchilikarning xarakterini aniqlang.

2. Bu kamchiliklarni korreksiyalash uchun mashq va topshiriqlardan namunalar keltiring.

3 topshiriq

Logopedik guruxdagi NTRning 3 darajasidagi bolalar hujjatlarini o'rganish vaqtida logoped bolalarning asosiy qismida nutqning leksik-grammatik tomonida quyidagi kamchiliklar mavjudligini belgiladi: Samolyot o'rmon .... uchib o'tmoqda"; "Koptok stol ..... yotibdi"); Samolyot dala .... uchib o'tmoqda"; "Koptok stol ..... yotibdi").

1. Kamchilikarning xarakterini aniqlang.

2. Bu kamchiliklarni korreksiyalash uchun mashq va topshiriqlardan namunalar keltiring.

4 topshiriq

Berilgan nutq xaritasini taxlil qiling va quyidagi topshiriqni bajaring.

Logopedik xulosa chiqaring va uni asoslang.

Logopedik guruxda NTRning 1 darajasidagi 3-4 yoshli bolalar tarbiyalanyapti..

Savol:

1. NTRning 1 darajasidagi bolalarda nutqni faollashtirishga qaratilgan 5ta ish usulini yoriting.

2. Logopedik gurux tarbiyachilari uchun sayr vaqtida tarbiyalanuvchilarning passiv lug'atini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar bering.

5 topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

3 yoshu 10 oylik qizning logopedik xulosasi NTR 2 daraja.

Tekshirishda quyidagilar aniqlandi: lug'ati kambag'al, jumla tuza oladi, yaqqol ifodalangan grammatik qurilishning kamchiliklari mavjud, talaffuzda sirg'alovchi, shovqinli, sonor tovushlar buzilgan.

Psixomotor rivojdanish: me'yorda..

Nutqning paydo bo'lishi: gugulash - 2 oylikda, guvrash -10 oyliklan, so'zlar – 1 yoshu 2 oylikdan, jumla – 2yoshu 4 oylikdan, bog'langan nutq -3 yoshu 2 oylikdan.

1 yoshu 9 oylikda qizchaga nutqning rivojlanishi sustlashishi tashxisi qo'yilgan. Qizchada buyraklarning surunkali kasalligi kuzatiladi, somatik jihatdan nimjon. Ko'pincha negativizm reaksiyasi kuzatiladi, topshiriqlarni bajarish yoki javob berishdan bosh tortadi.

Savol:

1. Logopedik xulosaning asosli ekanligini baxolang.

2. Ushbu bolada nutqning rivojlanishdagi imkoniyatini (prognozini) aniqlang.

6 topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

6 yoshli NTR chapaqay bolani kuzatish jarayonida, uningijodiy ishlarini o'rganishda quyidagilar aniqlandi: ko'chirib chizishda va yopishtirishda (applikatsiya qilishda) –predmetlarni oyvavand tarzda ifodalashi, rasmlarni chetlarini chizish va shtrixovka qilishda konturdan tashqariga chiqib ketishi, ko'chirib chizishda uning hajmini juda kichraytirishi, ketma-ketligiga e'tibor qaratmasligi,

eslab qolib chizishda rasmning ko'p qismlarini tushirib qoldirishi, kuzatildi, rasm chizishni yoqtirmaydi, rasmda masalan 5ta farqlarni topish vazifasi berilsa, ularning yarmini topadi, tez charchab qoladi, tez chalg'iydi, topshiriqqa bo'lgan qiziqishi tez yo'qoladi.

Savol:

1. Keyinchalik bu simptomlar qanday nutq kamchiligini yuzaga keltirishi mumkin, yozma nutqda yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar guruxini ko'rsatib bering.

2. Optik xatolarni oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik qo'llanmalardan misollar keltiring, topshiriqlarning maqsad va vazifalarini izoxlang.

7 topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

Bolada tovushlar talaffuzining poliforf buzilishi kuzatiladi: sirg'aluvchi tovushlarning tisharo talaffuzi, tovushlarni bir-biriga almashtirish s-sh, ch-t, r tovushini tashlab ketish.

Savol:

1. Tibbiy-pedagogik tasnif bo'yicha nutq nuqsonining izoxdang.

2. Qaysi mezonlar asosida tovushlar talaffuzini differensial tashxis qilishni ko'rsating.

8 topshiriq

Quyidagi vaziyatni hal qilish bo'yicha logopedning harakatlarini izoxlang.

Logoped katta guruxda tarbiyalanayotgan talaffuzida kamchiliklari bo'lgan bolaga e'tiborini qaratdi va uning onasiga bola bilan logopedik mashg'ulotlar o'tish lozimligi haqida tavsiya berdi. Bolaning onasi bunga e'tiroz bildirdi va farzandini diktor bo'lishga tayyormayotganligini aytdi.

9 topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va logopedik xulosa qiling.

Qosimova Muyassar, 4 yosh.

Xarakteri tinch. Shovqinga axamiyat beradi. Ismini biladi. Kuzatuvi qisqa vaqtli. Gaplashganda quloq soladi. So'zlashuvchiga bir necha soniya qarab turadi. Gapirmaydi, unli tovushlar chikaradi. O'z-o'ziga xizmat qila olmaydi. Chaynamay yutadi. Predmetlarni qo'lida ushlay olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligida
2013 yil 24 oktyabrda 2519-son
bilan ro‘yxatga olingan
O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi,
Sog‘liqni saqlash vazirligi,
Mehnat va aholini ijtimoiy
muhofaza qilish vazirligining
2013 yil 25 sentyabrdagi
38, 25, 72 q/q-sonli qaroriga

ILOVA

Bolalarni ixtisoslashtirilgan muassasalarga (maktab, maktab-internatlarga) yuborish bo‘yicha psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar to‘g‘risida NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida«gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda), «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida«gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda), «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida«gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 1-2-son, 1-modda) qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 13 sentyabrdagi 256-son «Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 37-son, 380-modda) muvofiq, bolalarni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan muassasalarga (maktab, maktab-internatlarga) (bundan buyon matnda ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari deb yuritiladi) yuborish bo‘yicha psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarni (bundan buyon matnda Komissiya deb yuritiladi) tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi, shuningdek jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ularning psixofizik imkoniyatlariga mos ravishda ta’lim olishlarini tashkil etish tartibini belgilaydi.

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Komissiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi (bundan buyon matnda xalq ta’limi boshqarmasi deb yuritiladi) tomonidan ularning huzurida tashkil etiladi. Komissiyalar o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradi.

2. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga, shu jumladan, mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Komissiya o‘z faoliyatini qarorlar qabul qilishda xolislik, ochiqlik, oshkoralik va kollegiallik prinsiplariga asoslangan holda olib boradi.

4. Komissiya faoliyatini muvofiqlashtirish xalq ta’limi boshqarmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari, Toshkent shahar sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasi (bundan buyon matnda sog‘liqni saqlash boshqarmasi deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Komissiya o‘z faoliyatini amalga oshirishda xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, shuningdek bolalarni ijtimoiy himoya qilish uchun vakolatli tashkilotlar, shu jumladan, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

II BOB. KOMISSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

6. Komissiyaning maqsadi 5 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari mavjud bolalarni aniqlash va ularni ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga (5 - 7

yoshdagi bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari huzuridagi tayyorlov guruhlariga) yuborish uchun xulosa berishdan iborat.

7. Komissiya quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

bolalarni ularning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlash uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ishtirokida ko'rikdan o'tkazadi;

bolalarni ko'rikdan o'tkazishda ular bilan bevosita muloqot qiladi va ulardagi nuqsonlarni tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganadi;

bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlari haqida yashash joyidagi shifoxona shifokorlari tomonidan qo'yilgan tashxisning ishonchliligini o'rganadi;

bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarni kompleks ravishda tekshirish natijalari asosida ularning imkoniyatlarini aniqlaydi;

bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsoniga qo'yilgan tashxis o'z tasdig'ini topsa, ularni tegishli ixtisoslashtirilgan muassasalarga yuborish uchun xulosa beradi;

bolalarni bir ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan boshqa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yoki inklyuziv (uyg'unlashgan) sharoitda ta'lim olishi uchun umumta'lim muassasasiga o'tkazish yuzasidan xulosa beradi;

bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tegishli muassasasiga o'tkazish yuzasidan xulosa beradi;

jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan pedagog, psixolog, tibbiy xodimlar hamda ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga zarur maslahatlar beradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

III BOB. KOMISSIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

8. Komissiya har yili may oyining 20-sanasiga qadar tegishli xalq ta'limi hamda sog'liqni saqlash boshqarmalarining qo'shma qaroriga asosan, rais, rais o'rinbosari, a'zolar va kotibdan iborat tarkibda tuziladi.

9. Komissiyaning tarkibi, qoida tariqasida, toq sonda kamida 7 nafar a'zodan iborat bo'ladi. Komissiya tarkibiga oliy psixologik,

tibbiy, pedagogik ma'lumotga hamda 5 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan yuqori malakali psixolog, pedagog-defektolog (oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, logoped), psixonevrolog, nevropatolog, ortoped, otorinolaringolog, okulist, pediatr shifokorlar kiritiladi. Bunda tegishli yil uchun Komissiya tarkibiga kiritilgan mutaxassis kelgusi ikki yil mobaynida Komissiya tarkibiga a'zo sifatida kiritilishi mumkin emas, rais, rais o'rinbosari va kotib bundan mustasno.

10. Komissiya raisi etib xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i yoki uning o'rinbosari, Komissiya raisining o'rinbosari etib sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rinbosari tayinlanadi.

11. Xalq ta'limi boshqarmasining Umumiy o'rta, maktabgacha ta'lim va darsliklar bo'limining ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bo'yicha mas'ul mutaxassisi Komissiya kotibi hisoblanadi.

12. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;

Komissiyaning ish rejasini tasdiqlaydi;

Komissiya yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilaydi;

Komissiya a'zolari tomonidan Komissiyaga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qiladi.

13. Komissiya raisi mehnat ta'tili, kasallik va boshqa sabablarga ko'ra bo'lmagan hollarda uning vazifalarini bajarish Komissiya raisining o'rinbosariga yuklatiladi.

14. Komissiya faoliyati uchun zarur bo'lgan xona, jihozlar, didaktik va o'quv-metodik materiallar xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan ta'minlanadi.

15. Komissiya yig'ilishi rais tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan o'tkaziladi. Bunda Komissiya yig'ilishlari ish hajmini inobatga olgan holda iyun oyining birinchi ish kunidan oktyabr oyining oxirgi ish kuniga qadar har haftada kamida bir marotaba, shundan keyin kelgusi yil uchun tashkil etiladigan Komissiya o'z faoliyatini boshlaguniga qadar har oyda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

16. Komissiya a'zolari Komissiya yig'ilishi o'tkaziladigan kun yoki Komissiya yig'ilishini o'tkazish zarurati yo'qligi haqida

Komissiya kotibi tomonidan kamida uch kun oldin xabardor qilinadi.

17. Komissiyaning barcha a'zolari Komissiya yig'ilishida ishtirok etishlari shart.

18. Komissiya yig'ilishida Komissiya a'zolarining xulosalari asosida qaror qabul qilinadi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bolani ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yuborish bo'yicha xulosa qabul qilingan taqdirda, unda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yuborilayotgan bola bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy va davolash-tuzatish ishlari bo'yicha tavsiyalar ham ko'rsatilishi lozim.

Bayonnoma Komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

19. Komissiya kotibi tomonidan Komissiyaning ish faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar yuritiladi:

Komissiyaga kelib tushgan arizalarni qayd qilish daftari;

Komissiya yig'ilishi bayonnomalarini qayd qilish daftari va bayonnomalarning nusxalari.

IV BOB. KOMISSIYA TOMONIDAN HUJJATLARNI KO'RIB CHIQISH

20. Komissiya xulosasini olish uchun bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) ariza;

b) bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasining nusxasi;

v) bolaning ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar;

g) bolaning o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, bolaga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma;

d) bolaning yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma:

bolaning umumiy rivojlanishi holati to'g'risida pediatrning xulosasi;

psixonevrologning tibbiy tashxisi va bolaning aqliy rivojlanishiga tavsifi;

otorinolaringologning quloq, tomoq, burun va talaffuz artikulyasiyasida ishtirok etuvchi organlarning holatiga tavsifi (eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nutq va shivirlab aytilgan so'zlarni idrok etish holati to'g'risidagi ma'lumotlar, audiogramma ma'lumotlari);

oftalmologning ko'rish organiga tavsifi (ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun batafsil tashxisi);

ortoped vrachning xulosasi (tayanch-harakatlanish apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun);

e) yashash joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma.

21. Ta'lim muassasalarida o'qimagan bolalar uchun mazkur Nizomning 20-bandi «v» va «g» kichik bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilmaydi.

22. Mazkur Nizomning 20-bandida ko'rsatilgan hujjatlari taqdim etilgan bola Komissiyaning navbatdagi yig'ilishida tekshiruvdan o'tkaziladi.

23. Bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bola tekshiruvdan o'tkaziladigan kun haqida Komissiya kotibi tomonidan xabardor qilinadi.

24. Tekshiruvga olib kelingan bolalar Komissiya tomonidan ularning individual xususiyatlari, yoshi, jinsi, jismoniy va psixik holatini hisobga olgan holda kompleks tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

25. Bolalar psixologik-tibbiy-pedagogik ko'rsatmalarga muvofiq ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ishtirokida Komissiyaning har bir a'zosi yoki bir vaqtning o'zida bir nechta a'zolari tomonidan tekshiruvdan o'tkaziladi.

26. Komissiya a'zolari tomonidan bolalarni ko'rikdan o'tkazish, ular bilan bevosita muloqot qilish va ulardagi nuqsonlarni tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganish natijasida ularning jismoniy yoki psixik nuqsoniga qo'yilgan tashxis o'z tasdig'ini topsa, ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yuborish yuzasidan xulosa beriladi.

27. Komissiya xulosasi bolaning ta'lim olishi uchun maxsus sharoitlarga ega bo'lish huquqini ta'minlovchi hujjat hisoblanadi.

28. Tekshiruvdan o'tkazilgan bola yuzasidan Komissiya yig'ilishi bayonnomasi ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga besh kun ichida berilishi shart.

29. Komissiya tomonidan berilgan xulosa va tavsiyalarning asosliligi uchun Komissiya raisi va a'zolari javobgar hisoblanadi.

V BOB. YAKUNIY QOIDALAR

30. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yuborish xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan Komissiyaning xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan amalga oshiriladi.

31. Komissiya faoliyati ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

32. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

«O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami»,
2013 yil 28 oktyabr, 43-son, 576-modda

MUNDARIJA

Kirish 3
1 BOB. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK TASHHIS QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI 6
1.1.Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar haqida zamonaviy tasavvurlar 6
1.2. Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik-pedagogik tashxis qilishning metodologik tamoyillari 10
1.3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish vazifalari 15
2 BOB. AQLI ZAIFLIKNING KLINIK TAVSIFI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI 20
2.1."Pedagogik-psixologik diagnostika" fanining predmeti, vazifalari, mazmuni 20
2.2. Aqli zaiflik 21
2.3. Aqli zaiflikning klinik tavsifi 31
2.4.Aqli zaiflikning klinik shakllari 32
2.5. Aqli zaiflikni o'xshash holatlardan farqlash 45
3 BOB. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'RGANISHDA KOMPLEKS YONDOSHUV 55
3.1. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya ishining mazmuni va uni tashkil etish 55
3.2. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik-pedagogik o'rganish metodlari 62
3.3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik tekshirish 71
3.4.Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tekshirish 81
3.5.Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish 94

4 BOB. TURLI YOSH BOSQICHLARIDAGI RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O'RGANISH XUSUSIYATLARI 117
4.1. Go'daklik davrida bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish (tug'ilgandan to 1 yoshgacha 117
4.2. Ilk yoshdagi (1-3 yosh) bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish 126
4.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik o'rganish (3-7 yoshgacha 132
4.4. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smirlarni psixologo-pedagogik o'rganish 138
5 BOB. HARAKAT – TAYANCH A'ZOLARIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK TEKSHIRISH 144
6 bob. Sensor nuqsonga ega bo'lgan bolalarning pedagogik-psixologik diagnostikasi 153
6.1.Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi kursining predmet va vazifalari 153
6.2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishning psixologo- pedagogik o'rganish metodlari 167
6.3. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tekshirish 172
6.4. Maktab yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tekshirish 206
6.5.Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish 212
6.6. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishni tashkil etishni nazariy asoslari 214
6.7. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni turli yosh davrlarida psixologik-pedagogik tashxis o'tkazishning o'ziga xosligi 218
6.8. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan turli yoshdagi bolalarni tekshirishdagi tashxis qilish metodikalarini moslashtirish tamoyillari 223
6.9. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda diagnostik vazifalarni sifatli bajarilish parametrlarini baholash 226

7 BOB. HISSIY (EMOTSIONAL)-IRODA JARAYONIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O'RGANISH 228
7.1. Autik nuqsonli bolalarga umumiy tavsif 229
7.2. Autik bolalarni psixologo-pedagogik o'rganish 238
8 BOB. RIVOJLANISHIDA MURAKKAB NUQSONLARGA EGA BO'LGAN BOLALARNI TIBBIY-PSIXOLOGO-PEDAGOGIK TEKSHIRISH 246
Foydalanilgan adabiyotlar 255
Glossariy 257
Ilova 261

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
...ATI CHIRCHIQ
...A INSTITUTI
AXBOROT ...RS MARKAZI
10490

D.A.NURKELDIYEVA

PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA

Muharrir: S. Hoshimov
Musahhih: H. Zakirova
Sahifalovchi: A. Hidoyatov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013 y.
Ofset qog'ozi. Bosishga ruxsat etildi 29.11.2019.
Format 60x81 $^{1}/_{16}$. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 26.0 Adadi 300 nusxa. Buyurtma №63.

«VNESHINVESTPROM» mas'uliyati
cheklangan jamiyati.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.
Tel./faks: (+99871) 244–75–75

ISBN 978-9943-4886-2-5